

Alisher Navoiy

SAB'AI SAYYOR



G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent—2006

Boqiy satrlar

Alisher Navoiy



SAB'AI SAYYOR



G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent—2006

Boqiy satrlar

Alisher Navoiy



SAB'AI SAYYOR

Nasriy bayoni bilan

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent—2006

84 (5U)1
N 14

Tahrir hay'ati: Aziz Qayumov, **Abduqodir Hayitmetov**,
Najmiddin Komilov, **Abdurashid Abdug'afurov**, Vahob Rahmonov

Porso Shamsiyev tuzgan ilmiy-tanqidiy matn asosida dostonni nashrga
tayyorlovchi: Vahob Rahmonov

Nasriy bayonni tayyorlovchilar:
Inoyat Maxsum, Saidbek Hasanov

HO32444
Hq4

Alisher Navoiy.
N 14 Sab' ai Sayyor: Nasriy bayoni bilan / Alisher Navoiy; Nasriy
bayonni tayyorlovchilar: I. Maxsum, S. Hasanov. — T.:
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.—
440 b. (Boqiy satrlar.)

Alisher Navoiyning bu sarguzasht dostonida ham shoirning adolatlil shoh haqidagi
qarashlar, haqiqiy muhabbat va insoniylik g'oyalari tarannum etiladi.
20.02
A.225 O'zbekiston MK
N 4702620101-21 2006
M 352(04)-2006

BBK 84 (5U) 1

ISBN 5-635-02425-4

© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006-y.

I

Ey siposing demakda el tili lol,
Elga til sendin o'ldi, tilga maqol.

Sendin insong'a toru pudi jasad,
Jasad ichra ko'ngul, ko'ngulda — xirad.

Sen qilib farq uyida pinhoni,
Korgohi dimog'i insoniy.

Ko'k topib sayru yer sukun sendin,
Biri sarkash, biri nigun sendin.

Tund sendin sipehr Bahromi,
Changzan Zuhraning Diloromi.

Chekting etganda dahr bunyodin,
Yetti gunbad sipehri minodin.

Sun'ung etti bu yetti koxi rafi',
Najm gavharlari bila tarsi',

Yetti kox ichra yetti farzona,
Degali hikmatingdin afsona.

Yetti afsona borchasi dilband,
Ikkisi bir-biriga yo'q monand.

Yetti gunbad agarchi minorang,
Yetti afsona lek rango-rang.

Sen chekib murtafi' yeti aflok,
Munhat aylab bu tiyra markazi xok.

Yetti gardun demayki yetti lagan,
Har biri ichra sham' nurafgan.

Har lagan durji kavkabafruzi,
Kavkabi gavhari shabafruzi.

Har birisinda o'zga xosiyat,
O'zgacha rangu o'zga mohiyat.

Arz jirmin qilib yeti taqsim,
Aylading har birini bir iqlim.

Ul yeti kavkabi jahonpaymo,
Ne jahon, balki osmonpaymo.

Kim yeti ko'kta keldilar soyir,
Suvda andoqki, siymgun toyir.

Har biri solibon qilurda zuhur
Yetti iqlimdin biri uza nur.

Rahmatingdin ziyo tutub har sham',
Bir shabistonni yorutub har sham'.

Sham' yo'q, yetti lu'batlari raqqos,
Haftaning har kuni birisiga xos.

Borcha kunduz guli nuhufta kibi,
Kecha lekin mahi du hafta kibi.

Haftavu oyu yilni tez etting,
Umr ila ishlarin sitez etting

Bog' ochilmoq alar mururidin,
Gul sochilmoq alar yururidin.

Tunu kun adhamiyu ashhabini,
Charxi tavsanning ikki markabini,

Kecha kunduz shitob aro solding,
Tunu kun iztirob aro solding

Kim qilib bo'yla po'yau novard,
Yetkurub ko'kka dahr elidin gard.

Ko'kka tufrog'ini yeturgaylar,
Tufrog' ichra tanin iturgaylar.

Yo'q edi odamiki bor etting,
Kishilik birla e'tibor etting.

Yo'q ham etsang ani-o'q etgungdur,
Bor qilgungduru yo'q etgungdur.

Adam erkanda aylamak mavjud,
Bo'lsa mavjud, qilmog'ing nobud.

Ne uchun erkanin kishi bilmas,
Kishi har neki Haq ishi bilmas.

Aqlga garchi besabab ko'runub,
Yasabon buzmog'i ajab ko'runub.

Lek chun aql rostkesh ermas,
Ish anga bir dalil, besh ermas.

Bu ish o'lmoq qabul yo rad anga,
Aqli bo'lg'on bilurki yo'q had anga.

Aqlning bor ishi tabohi o'lub,
Andakim, hikmati Ilohi o'lub.

Chun ko'rub aql royi muxtalifi,
Ko'zini ko'r etib qazo alifi.

Ko'r bilmas yorug' ekanni quyosh,
Kunduz uchmog' g'arib erur xuffosh.

Makmanidinki, kunduz uchqoy bum,
Uchushidin amo erur ma'lum.

Bumi zulmoni o'ldi pinhoni,
Ko'r etar oni mehri nuroni.

Sensen ul mehri beadilu badal
Kim, sanga matla' o'ldi subhi azal.

Chunki ul subh nurung etti zuhur,
Uylakim, tiyrashom jabhai xur.

Harne katmi adamda erdi nihon,
Xoh ahli jahonu xoh jahon.

Borisi kiydilar libosi vujud,
Bud xaylig'a kirdi har nobud.

Zohir etti adam shabistoni,
Yuz ming ozod sarvi bo'stoni.

Topti rangi vujud lolavu gul,
Ham o'shul rang turrai sunbul.

Nargis ul nur birla ochti basar,
Adam uyqusidin ko'zinda asar.

Bog' ruxsori topti sabzai xat,
Dona birla ul xat ichra nuqat.

Sabza atrofida nasimi bahor,
Sumanu sunbul ochti laylu nahor.

Harakat birla ul xujasta nasim,
Sochti gul boshig'a sumandin siym.

Turrasig'a to'kub binafsha abir,
Atri etti dimog'ig'a ta'sir.

Jola jismin urub nigun qildi
Kim, tanin zarbi nilgun qildi.

Suv yoqosig'akim yog'ib muldur,
Bu yoqo tugmasi bo'lub, ul — dur.

Qilg'ali jilva gulruxi bo'ston,
Sun' mashshotasi yasab doston.

Yasadi beqiyosu andoza,
Sabzadin vusma, loladin g'oz.

Ravshan aylab zuloldin ko'zgu,
Tutti gul chehrasin anga o'tru.

Gulga chun berdi tob husnu jamol,
Anga bulbulni qildi sheftahol.

Anga har necha obu tob ortib,
Munga ishqida iztirob ortib.

Bu fig'ondin solib chu rustoxez,
Aylabon ul jamoli o'tin tez.

Ul qilib jilva, bu bo'lub shaydo,
Ishq bo'ldi jahon aro paydo.

Bo'ldi oshiq biri, biri ma'shuq,
Yo'qki, ul otashinu, bu — mahruq.

Ham anga o'rtamak buyurg'on ishq,
Ham munung jonig'a o't urg'on ishq.

Bulbulu gul bahonadur borisi,
Balki sendin fasonadur borisi.

Keldi bu ikki sarbasar nobud,
Senki mavjud, balki ayni vujud.

Ishq sensen dog'iyu oshiqsen,
Yana ma'shuqluqqa loyiqsen.

Ayni ma'shuqluqda jilvai zot,
O'zini ko'rgali tilab mir'ot.

Husnunga har dam o'zga surat o'lub,
Ko'zgu takrori ham zarurat o'lub.

Necha husn ichra jilva zohir anga,
Ko'zguluk aylabon mazohir anga.

Husnung aylab o'kush sifot ichra,
Har zamon jilva koinot ichra.

Balki mazhar libosida yoshunub,
O'z jamoli zuhurig'a ovunub.

O'zunga o'zni dardnok aylab,
O'zni o'z husnunga-o'q halok aylab.

Barqi husnung chu har nafas choqilib,
G'ayr o'shul barq o'tig'a yoqilib.

Kulin aylab fano yeli ma'dum
Kim, asar andin o'lmayin ma'lum.

Sensenu sendin o'zga xud nima yo'q,
Gar ko'rinsa sen o'lg'ung ul nima-o'q.

Hech nima yo'q sen eding mavjud,
Ham sen o'lg'ung bori bo'lub nobud.

Vasfi zotingda sabb harfi qidam,
Yo'q vujudung yuziga gardi adam.

II

*Munajoti boriy ul bobdakim, o'zi ayni vujudurur va andin o'zga
borcha nobud, balki nomavjud va hojot izhori ul ma'nidakim, nobudlar
gunohig'a aning bahri rahmati qoshida ne vujud bo'lg'ay va bevujudlar
xatosi aning daryoi vujudi ollida ne mavjud*

Ey Xudovandlar Xudovandi,
Yo'q Xudoliqda kimsa monandi.

Azamat bobida gumondin uluq,
Nekim andin uluq yo'q, ondin uluq.

Jabarutung havosida xurshid,
Zarradek bo'lmayin nazarda padid.

Ofarinishqa tortqonda alam,
Mahchasi Lavh o'lub sutuni Qalam.

Qalamingg'a kecha sipehr aro,
Lojuvardiy davot ichinda qaro.

Lavhunga bo'lmayin raqam ma'lum,
Har ne ma'lum emas, anga marqum.

Qudrating ollida falakka hisob,
Sarsar esganda olti-yetti hubob.

Neki maxluq ichiga qotilg'on,
Sen yorotqon, alar yorotilg'on.

Dahr xalqig'a sen kelib Xalloq,
Xalq aro Xoliqi alal-itloq.

Kimnikim, but qoshida past aylab,
Sajda qilmoqqa butparast aylab.

Berib o'z husnunga but ichra zuhur,
Aylab ul husn ila ani mag'ur.

Har kishikim quyoshqa obid o'lub,
Anga har subhu shom sojid o'lub.

Ham sening tal'ating ziyosinda,
Zarradek charx urub havosinda.

Shu'lalarg'a solib yuzung chu ukus,
Kuydurub o'zni o't qoshinda majus.

Mazhari husn chun qilib gulni,
O'rtabon shu'lasig'a bulbulni.

Sham' o'tig'a kuyarda parvona,
Ham sening ishqing ichra devona.

Ham ibodat eliga sen ma'bud,
Ham taashshuq eliga sen maqsud

Kim, parastish qilur Xudosen anga,
Kim, taalluq sotar balosen anga.

Har suvar ichra jilvagar ham sen,
Jilvagar demayin, suvar ham sen.

To ne yetgay angaki o'zga Iloh,
El degay: Loiloha illalloh.

Jalla oluahu ne hayyi qadim,
Ammo nu'mouhu ne fardi azim.

Qodiro, ul zaifi osiymen
Ki, boshimdin-ayoq maosiymen.

Ulki, sendek boshimda Xoliqdur,
Men demoklik, ne behayoliqdur.

Oyog' ostida past tufrog'i,
Lek garduncha ushtulum chog'i.

Toat aylarda mo'ri xasta barin,
Lek isyon mahali sheri arin.

Nimjon pashsha ko'nglum ayla gumon,
Zo'ri nafsim nechukki pili damon.

Men bo'lub buyla pil ayog'ig'a past,
Poymol aylab ul meni payvast.

Mo'ri majruhga ne ish yetgay
Kim, ani pil poymol etgay.

Meni gar ojiz etti fe'li tabah,
Xosting bu edi, manga ne gunah?!

Nafsi ammorag'a gar o'ldum asir,
Men netay gar budur sanga taqdir.

Mening egriligim esa sanga xost,
Men ne yanglig' o'zumni aylay rost?!

Ne guzar yaxshiliqqa bor manga,
Ne yomonliqda ixtiyor manga.

Sen yomon aylasang meni ne had,
Aylamak sendin o'lg'on amrni rad.

Yaxshiliq qilki, notavoning men,
Yomon o'lsam, sening yomonning men.

Bu yomoningg'a ko'rguzub ehson,
Yaxshi qilmoq erur sanga oson.

Manga ne had demak sangaki, ne qil,
Neki bo'lg'ay sanga rizo ani qil.

Lekin ehsoningga chu g'oyat yo'q,
Lutfu in'omingga nihoyat yo'q,

Karaming ganji yuz jahon chog'liq.
Bahri fazling ming osmon chog'liq.

Yetishib men gadoyi mazlume,
Har ne matlubi bo'lsa mahrume.

Lek mu'tiy atosi bepoyon,
Yo'q berurdin xazoyinig'a ziyon.

Tilamak xud gado shioridur,
Lek bu yerda iztiroredur.

Ne talab qilsam ixtiyorim yo'q,
Chun demas oni kirdigorim-o'q.

Yo Rab, oshuftamen fig'onima yet,
Karam aylab xatolarim afv et.

Garchi bordur jahon-jahon gunahim,
Ham sen-o'qsen nihon-nihon panahim.

Yuz jahon jurmum o'lsa ham ne bok,
Bahri afvung qoshindadur xoshok.



To bu olamg'adur asir tanim,
Ruh to'tisig'a qafas badanim.

Ul sori moyil et xayolimni
Kim, senga teguray maolimni.

Nega moyilki, bu gadong o'lg'oy,
Anga tutkim, sening rizong o'lg'oy.

Xasta ko'nglum ishiga somon et,
Talabing dardin anga darmon et.

Nafasim moyai hayot ayla,
Raqamimni xati najot ayla.

Ushbu jannatki ayladim ma'mur,
Ham qusur anda, ham qusur aro hur.

Yetti qasr anda borhasi dilkash,
Yetti hur ul qusur aro mahvash.

Qasrlarni nazarda marg'ub et,
Hurlarni ko'ngulga mahbub et.

Shuhratin olam ichra paydo qil,
Olam ahlin alarg'a shaydo qil.

O'qur el ko'ngliga safo yetkur,
O'qug'ondin manga duo yetkur,

Jon qushi jismdin havo qilsa,
Sidra soi uza navo qilsa,

Unsur ajzosi bo'lsa xoknishin,
Tufrog'u o'tu suvu yelga qarın.

Arolarida hajr o'lub voqe',
Har biri bo'lsa aslig'a roje',

Ul zamon luft birla qo'lda qo'lum,
Dog'i o'z jonibingg'a yo'lda yo'lum.

Har ne jurmumki, bo'lsa ham mavjud,
Qil habibing tufaylidin nobud.

III

*Ul shohi risolatpanoh na'tikim, «lavloka» livoyi bila «ana afsahu»
alifi aning sipohi davlatig'a livo keldi, «va mo tag'o» to va g'ayni
bila «asro» rosi aning misoli subutig'a tug'ro va ul misolda ikki olam
saltanati mubayyan va ul misol yuzi mehri nubuvvat hila muzayyan*

Yo Rasulalloh, alfa-alfa salom,
Bika min zil-jaloli val-ikrom.

Qurashiy asl, Abtahi mahmil,
Hoshimiy kesh, Yasribiy manzil.

Ul quyoshkim, arabqa berding zayn,
Ul sifatkim, arab boshi uza ayn.

Lek chunkim quyoshing etti zuhur,
Qilding ikki jahonni g'arqai nur.

Bu jahondin ketarda chun zulumot,
Ul jahon ahlig'a yeturdi hayot.

Alloh, Alloh, ne nuri volo bu,
Yo'q edi ofarinish, illo bu.

Asru katmi adam qaronqu edi,
Ravshan etgan charog' ani bu edi.

Ne ajab mehri osmonpoya
Kim, jahondin yo'q aylasa soya.

Chun seni tengri bebadal qildi,
Har latofat aro masal qildi.

Soyani andin etti qadding rad
Kim, gahi bo'lmag'ay sanga hamqad.

Soyadin chun qadingg'a or o'ldi,
Soya yer uzra xoksor o'ldi.

Ko'lakang topsa erdi jirmi turob,
Anga gardundin o'tgay erdi janob.

Ham janobing rafe' Kayvondin,
Ham matofing bu to'quz ayvondin.

Ul kechakim, sanga valodat o'lub,
Matla'i axtari saodat o'lub,

Tun yopib chun jahong'a tiyra niqob.
Tug'ubon oftobi olamtob.

Makka yorub bu nuri a'lodin.
Tur ul nav'kim tajallodin.

Ko'runub yetti ko'k ravoqi ham,
Bal Madoyin manoru toqi ham.

O'ylakim, tug'sa mehri raxshanda,
Toq lavhi bo'lur duraxshanda.

Lotu Uzzog'a pur shikast bo'lub
Kim, bori tiyra yerga past bo'lub.

Sarnigunluq alarg'a zotingdin,
Bosh quyiliq yetib uyotingdin.

Chun ulug'roq bo'lub shubonlig' etib,
Qo'y guruhig'a mehribonlig' etib.

Qo'zig'a mehr ko'rguzub jondin
Kim, nabiyyg'a guzir emas ondin.

Ko'rguzub anda chun yadi bayzo,
Qo'yubon pushti dast yuz Muso.

Bu tanazzul sharaf qilib sanga fosh,
Hamal ayvonida nechukki quyosh.

Chun shubonlig' aro bo'lub soiy,
Bo'lubon olam ahlig'a roiy.

Olam ahli raiyating bo'lubon.
Borig'a din vasiyating bo'lubon.

Bu raiyatqa rahmat aylab Iloh
Kim, berib boshlarig'a sen kibi shoh.

Xayi jabhang alarg'a moi main,
Tori zulfung alarg'a habli matin.

Xay demay, qatrai zuloli hayot,
Tor yo'q, rishtai kamandi najot.

Dema gisuki topting ikki kamand,
Qilg'ali ikki dahr saydini band.

Ochib ul chehri dilkushoy ichra,
Laylatul-qadr iki hir oy ichra.

Yo iki af'iyi muanbar de,
Ganji zotingg'a ikki ajdar de.

Yo Muhammad hurufi chun ochilib,
Ikki mimi etaklari osilib,

Kufr elining savodi motami ul,
Din elining savodi a'zami ul.

Gar savoding yo'q ersa ne g'amdur,
Bu savoding chu andin a'zamdur.

Gar qalam tutmading qo'lungg'a ne g'am,
Azbar etting chu sirri Lavhu Qalam.

Bu azodin qalam bo'lub g'amnok,
Yuzin aylab qaro, yoqosini chok.

Xoma tutmay vale surarda maqol,
Nukta elin qilib qalam kibi lol.

«Ana afsah» chu aylabon da'vo,
Fusaho o'zda topmayin ma'no.

Bu xabardin bo'lub nishoni deh,
Sirri fa'tu busuratin misleh,

Chunki la'ling bu nav' bo'lub durfosh,
Toshdin bas nedur durungg'a xarosh.

Durru la'lingg'a chun shikast qilib,
La'li mahlul oqib durar sochilib.

Ya'ni og'zingg'a-o'q musallamdur,
Buki ham la'l sochqoyu ham dur.

Durri zotingg'a yetti bahr sadaf,
Bir o'g'uldin yetti atog'a sharaf.

Qaysi yetti atoki, yetmish ato,
Seni bori o'ziga etmish ato.

Balki Odam o'g'ullug'ingdin shod,
Valadingg'a jahon eli avlod.

Anga zohir taqaddumi oti,
Sanga lekin taqaddumi zoti.

Sen muqaddam demayki, Odamdin,
Qaysi Odamki, borcha olamdin.

Anbiyo xaylikim, kelib mursal,
Ham sen oxir alarg'a, ham avval.

Barchaning farqi uzra bo'lmoq toj,
Sanga fosh etti laylatul-me'roj.

IV

*Ul musofiri bavodipaymo, halki ul rokibi samovotpaymo me'roji
kechasining ta'rifikim, buroqi barqgomliq va payki buroq xiromliq
qildi va ul raxsh bila payk xayol yetmas yergacha chopti va ul chopmoq
bila hakimi xirad fahmi bovar etmas nimalar topti*

Ul kechakim edi abirsirisht,
Qadr aro g'ayrati savodi bihisht,

Hur gisularin jahong'a ochib,
Anbaru mushkin osmong'a sochib,

Gisuyi mushkbo' jahonni tutub,
Mushkining atri osmonni tutub.

Halqai zulfdin ruxi anvar,
Har yon ul tunda ko'rguzub axtar.

Yo'qki, huro yoyib jahon uza dom,
Yuz sori halqamo'yi mushkinfom.

Suvdek ul dom ichinda chehra ochib,
Qatra xaylardin anda dona sochib

Kim, chu davlat qushi bu yon yetgay,
Bu suvu dona birla sayd etgay.

Yo tuman ming charog'i bayzogun,
Hay'atu tab' ichinda gunogun.

Shom zebolari qilib zohir,
Tun shabistonida bo'lib soyir.

Ochibon har charog'i kofuriy,
Dud ila bir niqobi zanburiy.

Dud yo'q, udu mushk bila buxur,
Tun dimog'i isi bila masrur.

Charx mijmar yoyib bu dud uzra,
Atri mushku buxur ud uzra.

Charxi atlaski bu riyoh topib,
Atlasin bo'yla mijmar uzra yopib.

Yer yuziga malak bo'lub nozil,
Charx abvobi fath o'lub hosil.

Yuz tuman sabzpo'shi ruhoni,
Zohir aylab falak shabistoni.

Bo'yla tun ul mahi muniri jahon.
Ummahoniy uyida erdi nihon.

Dahr sho'ru sharidin osuda,
Ko'ngli uyg'og'u ko'zi uyquda

Kim, yetib qosidi jahonpaymo,
Ilgida raxshi osmonpaymo.

Chun alar yetti, xoja ochti ko'z,
Yer o'pub qosid, ayta boshladi so'z.

Haq salomin chu topti mahbubi,
Bo'ldi oshiq visoli matlubi.

Qosid otlandurub ani qo'ldab,
Yondi kelgan yo'li sori yo'ldab.

Surdi chun rokibi humoyunfol,
Ostida markabi humoyunbol.

Tufrog'u suv yuzidin aylab xez,
O'tti o't, yeldin o'tu yeldek tez.

Markabi urdi oy yuziga tuvog',
O'ylakim, qoldi jabhasi uza dog'.

Chun Atoridqa barqdek surdi.
Xorai sum xomasin sindurdi.

Qildi chun Zuhra sori ohangin,
Zuhra yoshurdi vahmidin changin.

Mehr xud kavkabi jalolatidin,
Yerga kirmish edi xijolatidin.

Savlatig'a chu soldi ko'z Bahrom,
Tig'ig'a berdi qin aro orom.

Mushtariy tushti minbaridin tez,
Yuzni gardidin etti nuromez.

Zuhal asbobin ayladi bir-bir,
Hinduyedekki, bo'lsa ma'rakagir.

Qaysi bir kishvar ichrakim yetti,
Savlati birla ehtisob etti.

Sekkizinchi falakka surdi chu raxsh,
Nuridin sobitot oldi daraxsh.

Gavharig'a falak chu bo'lmadi durj,
Qoldi har go'shasi aro bir burj.

Hamalu Savr qoldi nola qilib,
To'shaliqqa o'zin havola qilib.

Bo'ldi Javzog'a to'rt ko'z hayron,
Besh ayog' birla raxsh etib Saraton.

Asad o'zni sagi shikori etib,
Sunbula donasin nisori etib.

Adlidin rostliq topib Mizon,
No'sh Aqrab samumidin rezon.

Qavs bo'ldi yo'lida chillanishin,
Jady nazzorasida qullaguzin.

Dalv yo'lida suv urub gohi,
Hut onsiz suvdin yiroq mohi.

Charxi a'zam xamig'a surgach ot,
Yodin o'q yanglig' andin o'tti bot.

Qoldi Kursiyu Arshu Lavhu Qalam,
Borining avji uzra urdi alam.

Raxshin andoq chu tezpay qildi,
Vodiyi lomakonni tay qildi.

O'tti Rafrat maqomidin chun tez,
Tez hamrohi bo'ldi uzrangez.

Hamrahi dog'i o'zidin bordi,
Rahravi dog'i po'yadin hordi.

Qoldilar chun yo'l uzra payk ila ot,
Yolg'uz ul yo'lg'a qo'ydi yuz hayhot.

O'zidin o'zlugi dog'i itti,
O'zdin o'zluk xayolin oritti.

Topmayin o'zda xojai safari,
O'tu tufrog'u yelu suv asari.

O'zlugidin dog'i asar topmay,
Balki o'zdin dog'i xabar topmay.

Ne havosida bir ne xomis ham,
Ne jihatida bir ne sodis ham.

Qolmayin to'rt javhar, olti araz,
Oltiyu to'rtidin bir anga g'araz.

Qo'pti hadsiz hijobi pinhoni,
Ko'pi zulmoniy, ozi nuroniy.

Chun bori bo'ldi murtafi', filhol –
Jilva qildi ayon harimi visol.

Ul harim ichra dog'i urdi qadam,
Haramu parda borcha bo'ldi adam.

Toptilar vasl oshiqu ma'shuq,
Borcha Xoliq, aroda yo'q maxluq.

Yor mavjudu anda yo'q ag'yor,
Yordin o'zga, balki yo'q dayyor.

Chun karam bahri mavjzan yetti,
Mehmon arzi iltimos etti.

Hech hojatda nukta topmay tul,
Istamasdin hurun bo'lub maqbul.

Hojat avval anga ijobat o'lub.
So'ngra izhori arzi hojat o'lub.

Istahon ummati gunohlarin,
Oq tilab nomai siyohlarin.

Bo'lmay ul hojatida sharmanda,
Karam aylab borini baxshanda.

Chun ne istab borin topib bir-bir,
Yonmog'in oshkor etib taqdir.

Xojai komyobi Arshjanob,
Bo'lubon bahri vasldin serob.

Qaytibon ming bu lahza borg'oncha,
Demayin mingki, yuz tuman oncha.

Markabi birla hamrahig'a yetib,
Yuzidan ikkisin musharraf etib.

Ikki horg'on malak yo'lida qo'pub,
Biri ilgin, biri ayog'in o'pub.

Toniy olmay hamul kishi ekanin,
Bo'yla sur'at aning ishi ekanin.

Ul yana markabig'a sekrib tez,
Chiqqanidek qilib inarga sitez.

Markabi orqasini aylab xam
Kim, anga yuklanib iki olam.

Bahr sori bulut borib xoli
To'lub ammo guhar bila holi.

Borurida nechukki sarvi ravon,
Lek yong'onda tubiyi rizvon.

Har falak tushmagiga bir poya,
Yuzidin ul falakka piroya.

Malakut ahli ichra jo'sh tushub,
Tahniyat aylayu xurush tushub.

Yuz tuman ming malak nechukkim hur,
Qo'llarida tabaq, vae to'la nur.

Borcha xurramlik oshkor aylab,
Dam-badam boshig'a nisor aylab.

Charx javfin tutub sarosar saf,
Yuz tuman ming malak kelib har saf.

Girdida har taraf sipoh kibi,
Ul munungdek sipahda shoh kibi.

Har saf ul yergacha bo'lub hamroh,
Ki quyi amr qilmay andin Iloh.

Borcha ul yuzdin o'zni shod aylab,
Xam qilib qadni xayrbod aylab.

Chunki har saf tutub yo'lida taraf,
Anga qoyim maqom o'lub yona saf.

Qilibon bo'yla sayri shohona,
Tushti yer qiblagohig'a yona.

Qaydakim bo'ldi sayri afloki,
Hamrah erdi anga tani xoki

Kim, anga jism agarchi xok erdi,
Lekin ul xok nuri pok erdi.

Angakim jismi xoki o'lg'ay nur,
Ruhini yo'q manga demak maqdur.

Jismi bila borib, yonib keldi,
Do'st vaslini qozg'onib keldi.

Bormog'u kelmagi bo'lub iki dam,
Qaysi dam burna erkani mubham.

Ey qarog'ingg'a surmai «mozog'»,
«Motag'o» markabingg'a qo'ymay dog'.

Anbiyog'a itoating jovid,
Borcha bog'lab shafloatingg'a umid.

Anbiyo demayinki, jinsi bashar,
Ishlari xoh xayru xohi shar.

Itifotingg'a sarbasar muhtoj
Sendin olmay nazarni har muhtoj.

Har kishikim jahon aro mavjud,
Borchaning baxshishi sanga mav'ud.

Se bularg'a o'kush tafaqqud etib,
Har ne isyonlarin taahhud etib.

Bo'lsa jinsi basharg'a bo'yla karam,
Shak emas andadur Navoiy ham.

V

*So'z ta'rifida bir necha so'z surmak va so'z ahlig'a andin necha so'z
tegurmak va koinotqa taqaddumining sifoti va mumkinotqa taaxxurining
isboti va oning pardasidin boshqa maoniy hikri jilvadin oriy va ko'ngul
kunjida mutavoriy erkonining izhori*

Andakim, ne jahong'a erdi vujud,
Ne jahon ahli erdilar mavjud.

Istadi ustodi naqshtiroz,
Muncha naqshi g'arib qilmoq soz.

Tortmoq yetti ko'kni bo'yla baland,
Birin ul birga aylamak payvand.

Aylamak past jirmi g'abroni,
Undur etmak sipehri xazroni.

Chunki mavjud bo'ldi nuktai «kun»
Bo'ldi mavjud toza, yo'qsa kuhun.

Sun' kilki varaqnigor o'ldi,
Yuz ajab naqsh oshkor o'ldi.

Bu sifat nukta neki bo'ldi ayon,
So'z demak xud bo'lur, kim etsa bayon.

So'zga bas vasf budurur mujmal
Kim, nekim avval, ul anga avval.

So'z kelib avvalu jahon so'ngra,
Ne jahon, kavn ila makon so'ngra.

Elga topib taqaddumi zoti,
Emdi aylay taaxxur isboti.

Har kishi dahr aro hayot topib,
So'ngg'i dam so'z bila najot topib.

Angla ul so'zni nuktai tavid,
Vahdat ahlida yo'q munga tardid.

Bas seni avval ul qilib zohir,
Sanga ham avval o'ldi, ham oxir.

Avvalu oxiringg'a solg'il ko'z,
Bil: ham avval so'zu ham oxir so'z.

Topmadi koxi oliyandoza,
Bir aningdek harifi ro'toza,

Shohidi boshidin-ayoq dilkash,
Husn bozori ichra Yusufvash.

Ochilib chun niqobi debosi,
Bo'lubon xalq hushi yag'mosi.

Demagil o'zu yot aro g'avg'o
Kim, solib koinot aro g'avg'o.

Ham nubuvvat uyida sho'r andin,
Ham nabiyg'a daler mo'r andin.

Haqki insonni qildi mahrami roz,
Hayvondin ul ayladi mumtoz.

Shahd erur ul, valek bas shirin,
La'l erur ul, valek bas rangin.

Ne latofatdururki gohi bayon,
Ko'zga pinhondurur, quloqqa ayon.

Muncha husnu jamolu zeb bila,
Muncha dulkashligu fireb bila,

Naqshi zarkash libos, de oni,
Bu libos ichra shohidi ma'ni.

Ma'ni ul sho'xi siymbar bo'ldi,
Kim bu kisvatda jilvagar bo'ldi.

Shohidi ma'ni onsizin uryon,
Jilvagar bo'la olmayin har yon.

Hujrai qalb ichinda bosh sig'urub,
O'zni ul hujra kunjida yashurub.

Chunki andin bilinmayin asare,
Elga ma'nidin o'lmayin xabare.

Bilik ahlig'a sirri noma'lum,
Fayzidin ahli dark o'lub mahrum.

Komile chunki muddao qilsa
Ki, duri ma'nini ado qilsa,

So'z libosidin etmayin oro,
Xo'blar o'ylakim xazu xoro.

Chiqa olmay og'iz darichasidin,
Naf' topmay birov natijasidin.

Chun kiyib so'z hariru debosin,
Dilkash aylab jamoli zebosin.

Bodadin yuzni la'lfom aylab,
Ko'ngul ayvonida xirom aylab,

Chiqsa toshqori tan saroyidin,
Balki halqum tangnoyidin,

Solur andog' jahonda g'avg'oye,
Koinot ichra bir aloloye

Kim, xaloyiqni darki lol aylar,
Lol yo'q, balki xushmaqol aylar.

Bu biri so'zda ko'rguzur mu'jiz
Kim, qilur elni nuktasi ojiz.

Berur ul bir o'lukka jon so'zidin,
Tan aro kirguzur ravon so'zidin.

Munij derlar: «Muhammadi arabi»,
Ul birining «Masih» erur laqabi.

Alloh, Alloh, ne so'zdurur bu so'z,
Mundin ortuq yana bo'lurmu so'z?!

Jism bo'stonig'a shajar so'zdur,
Ruh ashjorig'a samar so'zdur.

Gulshane keldi jismi insoni,
Nutq oning bulbuli xush alhoni.

Bo'yla bulbul navosi so'zduru bas,
Nag'mai jonfizosi so'zduru bas.

Bo'lmasa so'z ajab halo bo'lg'ay,
Bulbuli nutq benavo bo'lg'ay.

Yo Rab, ushbu hadiqai purgul,
Kim anga nutq aylading bulbul.

Bo'yla bulbulni benavo tutma,
Benavolig' anga ravo tutma!

Xossa so'z bulbuli Navoiy zor
Kim, anga nukta bog'idur gulzor.

Bog'ig'a barg, anga navo bergil,
Barg ila bog'ini tuto bergil!

Ayla gulzori gullarin toza,
Bulbulin qil baland ovoza.

Gulining sham'ini munavvar qil,
Atridin dahrni muattar qil.

Bulbulig'a baland ayla xuro'sh,
Sol xuro'shi bila ulus aro jo'sh.

Bog'i atrini sudmand ayla,
Qushi lahnini dilpisand ayla.

Lahnin el ko'ngli ichra maqbul et,
Har ne maqbul ish oni mashg'ul et!

VI

*So'z nasridin nazmi xushroq va parokandasidin jam'i dilkashroq
erkanin da'vo qilmoq va bu jam'iyatni «besh ganj» jome'i Nizomiy va
hind shakarrezi, balki shirin kalomiga musallam tutmoq va ul
bahrayng'a qatra nishon va ul nayyirayng'a zarrason o'zin yetkurmak*

So'zki, jon gulshanida keldi nasim,
Bal ko'ngul bahri ichra durri yatim.

Ulki, so'z naqdig'a mubassirdur,
Vasfi ichra tili muqassirdur.

Bo'yla so'z fannida chiqorg'on ism,
Qildi uslubini aning iki qism.

Har kishi qilmoq istasa ma'lum,
Biri mansur erur, biri manzum.

Nasru nazmi angaki mudrakdur,
Nazmining poyasi biyikrakdur.

Negakim, yaxshi so'zki zohir erur,
Lafz te'dodidin javohir erur.

Xud javohir nechaki dilkashroq,
Nazm silkiga cheksalar xushroq.

Ikki sori duri samin yaxshi,
Orada la'li otashin yaxshi.

Ko'runur yaxshi durri ummoni.
Bo'lsa feruza yonida koni.

Javhariy bu sifat berib tartib
Aylasa, rishtani anga tarkib.

Javhariy his angaki qoyimdur,
Muni anglarki, bas muloyimdur

Kim, javohirni olig'a to'ksa,
Talli g'afat kibi ani o'ksa

Ham yomon xud ko'runmagay, lekin
Lutfi avvalg'icha emas mumkin.

Bas munung oncha ziynati yo'qdur,
Bir-birisiga nisbati yo'qdur.

Nazmu nasr ichra ham bu nisbat bil,
Ikkisin bu ikiga nisbat qil.

Nasr aro elga xud maqolat bor,
Lek nazm ichra o'zga holat bor.

Nazmkim topti bu sifat tarjih
Kim, emas anda hojati tavnih.

Bo'yla nazm ichra ham erur necha shiq,
Fahm etar ul kishiki bo'lsa mudiq.

Lekin ul barchadin dag'i xubi,
Bordurur masnaviyning uslubi.

O'zgalarni gar etmadim mazkur,
Bok emas, chun bori erur mashhur.

Masnaviykim, burun dedim oni,
So'zda keldi vasi' maydoni.

Vus'atida yuz o'lsa ma'rakagir,
Ko'rguzur san'atin bori bir-bir.

Buyla maydonda chustu choloki,
Raxsh javlon berurda beboki.

Shahsuvoriki raxshi aylasa xez,
Aylagay ko'k samandi birla sitez.

Qilibon tez ekanda javloni,
Oy uzorini dog' chavgoni.

Qoyili xush kalomi zebogo'y
Kim, bu maydon elidin eltti go'y.

Ganja ahlig'a bazlasanj erdi,
Dahr vayronasida ganj erdi.

Kilki no'gini naqsh etarda varaq,
Nukta aylab chuchukligidin shaq.

Shaqidin nukta yo'q, shakar to'kulub,
Qaro o'rnig'a mushki tar to'kulub.

Safhani mushk ila shakar to'kari,
Goh mushkin qilib, gahi shakari.

Shakaridin ko'ngulg'a shirin kom,
Jong'a osuda mushki birla mashom.

Bo'yla mushku shakarga hamdaston,
Ne topib mulki Chin, ne Hinduston.

Kilki no'gidagi ravon dda,
Shakaroludu mushkanduda.

Nuktasi diqqat ichra rishtai jon,
Rishtag'a choshni sirishtai jon.

Nazmi avroqi pardai jondin,
Ham siyohisi obi hayvondin.

Obi hayvong'a hamnishonlig'ini,
Fahm etib ko'rgan el ravonlig'ini.

Qilibon xomasi nechukki jahon,
Obi hayvon siyohi ichra nihon.

Elga jon bergali davoti oning,
Kelibon chashmai hayoti oning.

Kilki Xizrin atash qilib betob,
Har dam ul chashmadin bo'lub serob.

Ahli nazm afsahulkalomi ul,
«Xamsa»ning nozimi Nizomiy ul.

Xamsa yo'q, panj ganji Qoruniy,
Yoyibon elga Ganja madfuni.

Lek harkim bo'lub javohirsanj.
Topib ul ganjlarda yuz ming ganj.

Har samin durri mamlakatga xiroj,
Anga loyiqki, bo'lg'ay ustida toj.

So'z yo'lin uyla qat' etib cholok
Kim, ipakda yugursa gavhari pok.

Bu yugurmakda bo'lmayin payrav,
Anga har rahravi magar Xusrav.

Dema Xusravki, hinduyi jodu,
Aylabon elni nazmig'a hindu.

Dema, hindu, qaro balo de oni.
Ne balo, ofati Xudo de oni.

Har qachon xoma ilkiga olibon,
Nazmidin olam ichra o't solibon.

O'tki, olamni o'rtabon asari,
Kelibon ko'ngli o'tining sharari.

Ishq otashgahining axgari ul,
Balki ul shu'laning samandari ul.

Nazmi rif'at aro sipehri barin,
Nuktalar anjumi sipehrnishin.

Har varaq nazmi dilkushosinda,
Bir jahone sipehr arosinda.

Ne jahonkim, jahoni ma'no ul,
Lafz jismida joni ma'no ul.

Ham binosi falak nihodi kibi,
Ham savodi jahon savodi kibi.

Ne savod ul, visolning shomi,
Balki dildor zulfining domi.

Chun savodi bu nav' qayd o'lg'oy,
Anda ma'no tuyuri sayd o'lg'oy.

Ne bino solsa burnog'i me'mor,
Ul qilib zebu ziynatin zarkor.

Ul ochib yuz guli riyozu Eram,
Gullar uzra bu yog'durub shabnam.

Kelturub ul nigori ro'toza,
Anga surtub bu vusmau g'ozu.

Yo'qki, har sarvnozkim ul ekib,
Yana bir zod sarv ham bu chekib.

Ul ne gulruxki, jilvagar aylab,
Yana birni bu pardadar aylab.

Muni ko'rgan kishi hamon sog'inib,
Ikkisin balki tav'amon sog'inib.

O'zga har roqimi hunarpesha,
Nozukandeshu chobukandesha,

Ko'p urub so'z demakda tob ila pech,
Sig'a olmay bular arosig'a hech.

Garchi bir nuktago'y Ashraf o'lub,
O'zi maqdurig'a musharraf o'lub.

Yaxshi yoxud yomon dedi, g'am emas,
Yaxshi gar bo'lmasa, yomon ham emas.

Meni devonasori bechora,
O'zum o'z jonima sitamkora.

Qatra ichguncha dastras manga yo'q,
G'ayri daryo chekar havas manga yo'q.

Yo'q iligimda bir ovuch tufroq,
Yasamoq kom gunbazi nuh toq.

Xoma nolicha tobu ranj manga,
Ajdahodek xayoli ganj manga

Kim, ul ikki arosig'a tushubon,
Yuz ming el mojarosig'a tushubon.

So'zni aylab alar so'ziga adil,
Balki tag'yir etib, berib tabdil.

Tab'i beboki noharosondin,
Tortib andoq sipah Xurosondin

Ki, qilib zohir ul sipah bila zo'r,
Rumu Hindustong'a solib sho'r.

Tutubon Rumu Hind kishvarini,
Hind royyu Rum qaysarini.

Yo'q-yo'q, ushbu g'arib lofdurur,
Lof yo'q, sarbasar gazofdurur.

Cheksa, shatranj iki saf oqu qaro,
Xas ne qilg'ay, chu tushsa arsa aro.

O'zni topqay bisot aro payvast,
Ot ila pil ayog'i ostida past.

Rum elining samandi oshubi,
Hind eli pilining lagadko'bi

Ham magar mo'ri ranjparvarde,
Topib andoq sipohdin garde,

Ko'rubon o'z haqiru pastlig'in,
Qaro tufroqqa hamnishastlig'in.

Pastlikdin balandliq topqay,
Zo'rdin bahramandliq topqay.

Solg'ay oshub sheri g'urrong'a,
Noyib etgay o'zin Sulaymong'a.

Ne ajab, gar Navoiyi bedil,
Qilsa bu nav' komi dil hosil

Kim tutubtur aning sari himmat,
Qutb tamkinu osmon rif'at.

VII

*Janobi sipehr makon xidmatkorlig'i va sahobi gavharafshon
havodorlig'i, ya'ni hazrat shayxul-islomi mavlono Nuriddin
Abdurrahmon Jomiy madda zillahuloliy madhida xoma nayining
shakarborlig'i va ko'ngul sadafining gavharnisorlig'i*

Fazl koniyu ilm daryosi,
Bahru kon sirrining shinososi.

Ilmi daryosig'a hubob sipehr,
Yo'qki, ul bahr ichinda gavhar-mehr.

Kashfi hikmat ishi kamohi anga
Ham tabiiyu ham ilohi anga.

Xud riyozida fikri gardunrav,
Ayirib charx mazraini jav-jav.

Arabiyatda dars aning virdi,
Ibni Hojib kamina shogirdi.

Ibni Hojib demayki, Jorulloh,
Oncha tafsir ishinda yo'q ogoh.

Tili zikri Kalomi Rabboni,
Harf bar harf zabt etib oni.

Nuqtai bo «bism» uchun tafsir,
Yuz mujallad qila olib tahrir.

Ham hadis ichra sarbaland shajar,
Kim yetishmay anga yuz Ibn Hajar.

«Arbain»iki aylabon tartib,
Arabiy birla forsiy tarkib.
Arbain ahli darkidin ojiz,
Ko'rmayin bo'yla «Arbain» hargiz.
Faqr ichinda imomi olam ul,
Qaysi olam, imomi A'zam ul.
So'zidan fiqh eliga zebu baho,
Mas'ala desa hayratul-fuqaho.
Far' edikim, deyildi – bu necha fasl,
Ilmi faqru fano bo'lub anga asl.
Oncha aylab fanoda nafyi vujud
Ki, bo'lub mujibi baqou shuhud.
O'z vujudin shuhud aro yopibon,
Haq vujudi aro baqo topibon.
O'yla Haq zoti ichra mustag'raq.
Ki, asar dolmayin anga Haq.
Chun tasavvuf kelib sifot anga,
Bu fan ichra musannafot anga
Kim, qayu birga kimki topsa vuquf,
Barcha maqsud anga bo'lub makshuf.
Soldi sharhi «Ruboiyot» andin,
Rub'i maskun aro hayot andin.
Kilkidin chun «Lavome'» etti zuhur,
Soldi ofoq ichinda lam'ai nur.
Tab'idin chun «Lavoyih» o'ldi padid,
Jilva qildi lavoyihi tavhid.
Zohir etgach «Ashi'atul-lamaot»,
Lam'a qildi ayon ashi'ai zot.
«Tovu Mimiya»g'aki chekti raqam.
Ibni Foriz ravoni dediki: «Tam!»
Chun «Shavohid»g'a bo'ldi nuktatiroz,
Qildi yuz shohid anda jilvai noz.
«Nafahot» ichrakim, futuh andin,
Nafhai uns topti ruh andin.
Chun raqam qildi «Tuhfatul-ahror»,
Sochti olamg'a maxzanul-asror.

«Subha» iqdig'a berdi chun tavzih,
Soldi xayli malak aro tasbih.

Chunki tahrik topti «Silsila»si,
Telbalik bo'ldi aql mas'alasi.

Chun raqam qildi «Oshiqu ma'shuq»,
Bo'ldi ishq ahli o'tidin mahruq.

Chun «Qasoyid»g'a qasd etib royi,
Dur sohib tab'i gavharoroyi.

G'azaliyoti o't jahong'a solib,
Shu'lasi yuz sharora jong'a solib.

O'zga har fandakim rasoyil anga,
Borcha Haq vaslig'a vasoyil anga.

Gar borin bir-bir aylasam tafsil,
Zohir aylar kalom aro tatvil.

Ham taadudda naf' chandon yo'q
Kim, demakdin tuganmak imkon yo'q.

Gar tugansun dag'i kutuboti,
Andin ortuq aning kamoloti

Ki, agar muncha yuz kalom o'lg'ay,
Vasfi zoti aning tamom o'lg'ay.

Poyasin har kishi desa aflok,
Bo'lg'ay aflokni demak xoshok.

Royi pokin demakki mehri munir,
Demak o'lg'ay quyoshni qursi qir.

Ilmin oning tengizga qilsa xitob,
Mutlaq o'lg'ay demak tengizni sarob.

Ne kamolot aro nihoyat anga,
Ne marotibda haddu g'oyat anga.

To kamol ahlidin maqol o'lg'ay,
Odami ziynati kamol o'lg'ay,

Ham malak donachini domi aning
Ham xirad jur'axo'ri jomi aning.

Bahravar andin Odam avlodi,
Olam ahlig'a zilli irshodi.

Mayi hush ahli jonfizoyi ham,
Jomidin bahravar Navoyi ham.

VIII

*Bu yetti gulshani jannatoso va yetti qasri sipehrfarso tarrohlig'ining jihati
va me'morlig'ining kayfiyati va bisotin tarhini tag'yirlar bila xushroq va
qusur binosin tabdillar bila dilkashroq qilmoq va gustoxliklar uzrin
demak va bebokliklar ma'ziratin aytmoq*

Bu kechakim, sipehri shu'badaboz,
Olam ahlig'a bo'ldi shu'badasoz.

Nilgun arsag'a fazo berdi,
Bul'ajab muhra anda ko'p terdi.

Muhralar xosiyatda gunogun,
Ham talavvun ichinda buqalamun.

Har biri tab'i ichra yuz nayrang,
Bul'ajabliqqa aylabon ohang.

Muni paydo, ani nihon aylab,
Har birin fitnai jahon aylab.

Biriga nahsliqni odat etib,
Birisin mash'ali saodat etib,

Qaysi birning ne bo'lsa taqdiri,
Yoyilib olam ichra ta'siri.

Demayin muhrabozi shu'badafan,
Balki lu'batiamoyi la'bfikan.

Yuz tuman, lu'bati siyminpaykar,
Yo'qki, siymin niqobu siyminbar.

Barcha yuz noz birla jilvanamoy,
Jilvai husn birla hushraboy.

Pardada qay biri bo'lub mastur,
Parda yuzinda yona birga zuhur.

Bu taajjub xiradni lol aylab,
Har nafas o'zga bir xayol aylab.

Manga gah vahmu goh fikrat o'lub,
Dam-badam hayrat uzra hayrat o'lub.

Ko'nglum uyinda yo'q xiradg'a subut,
Ham xirad, ham ko'ngul bo'lub mabhut.

Fahm qilmay bular haqiqatini,
Topmayin fikr ila vasiqatini.

G'olib o'lg'och ko'ngul aro qayg'u,
Ko'z uyin tiyra ayladi uyqu.

Zohir etti xayoli suratgar,
Fikrat uyida guna-guna suvar.

Ko'rdum o'zni ajab maqom ichra,
Bir fazo tavfida xirom ichra.

Ul fazo har taraf nazarg'a vase',
Yetti gunbad bori matinu rafe'.

Topibon har biri ichida maqom,
Lek bir dam biriga yo'q orom.

Borcha ko'k gunbadi kibi doyr,
Bir-biri davrig'a bo'lub soyir.

Lavn aro o'zga nav' har gunbad.
O'zga nav' elga har biri ma'bad.

Yetti gunbaddakim, xirom aylab,
Yetti nodirsifat maqom aylab.

Har biriga bir ish sari ohang,
To'ni o'z gunbadi bila hamrang.

Rangi avvalg'ining qaro erdi,
Yuzi ham bo'yla rang aro erdi.

Yana bir xil'ate kiyib zarkash,
Zardvash uy ichra rohi asfarkash.

Yana birning maqomi xazrorang,
To'ni axzar, uzori sabzorang.

Yana birga libos o'lub gulfom,
Ham bu rang uy aro anga orom.

Biri azraq libosu ahli xirad,
Bo'lub oromgohi ko'k gunbad.

Birining to'ni sandaliyoin,
Sandaliy uy aro topib tamkin.

Yana birning libosi kofuri
Ham bu rang ichra bayti ma'muri.

Haftaning har kuni birisiga xos,
Bo'lub ul kun qadahkashu raqqos.

Har biri hukmi ichra bir iqlim,
Xoh ummed anda, xohi him.

Men chu bu xayl aro guzar qildim,
Borig'a yetti kun safar qildim.

Har bir uyning muqimi farzona,
Manga qildi bayon bir afsona.

Kim o'z iqlimi ichra voqi' edi,
O'zi ko'rgan ajab mavoqi' edi.

Har bir afsonada g'aroyib ko'p,
Har g'arib ish aro ajoyib ko'p.

Men bu afsonalarni tuttum yod,
Ayladim jon sahifasida savod.

Chunki qildim, bu nav' tahriri,
Keldi olimg'a Xizrvash pire –

Dedi: «Ey, soyiri falakpaymoy!
Charx gunbadlarida jilvanamoy!

Yetti uyda sangaki, mayl erdi,
Angladingmu bular ne xayl erdi?

Yetti gunbadda nomukarrar lavn,
Lutf aro o'zga nav' o'lub har lavn.

Anda yetti yagonaga maskan,
Har birikim, qilib bir uyda vatan.

Lahzae bo'lmayin biriga darang,
To'nlari birla uylari hamrang.

Yetti afsonakim, sango dedilar,
Yod tuttung borini to dedilar.

Senki mundoq ajab safar qilding,
Bu g'aroyib sari nazar qilding.

Kayfiyatini aylading mafhum,
Bo'ldimu bu ish haqiqati ma'lum?»

So'rg'uchiga dedim niyoz bila,
Savlatidin yuz ehtiroz bila:

«K-ey humoyunruxu hujastajamol,
Aqli Kul shaxsidin yuzung timsol.

Men bu g'urbat aroki, soyirmen,
Emdi yetgan hazin musofirmen.

Bilmadim har ne bo'ldi jilvanamo
Ki, demishlar «g'aribu kal-a'mo».

Sanga ma'lum esa ayon ayla,
Sirrin shammae bayon ayla».

Dedi farrux surushi ruhoni:
«K-ey nasibing bu sirri pinhoni!

Mujdakim, charxi lojuvardandud,
Axtari baxting ayladi mas'ud.

Ganja ganjurikim, chekib ko'p ranj,
Qo'ymish erdi jahon aro besh ganj,

Kim qilib Hind sohiri kina,
Ul dag'i qo'ydi oncha ganjina

Ki, erur oncha, garchi oncha emas,
Yaxshidur, lek ul degoncha emas.

Kim chekib sen dag'i iki yil ranj,
Hosil aylab eding iki-uch ganj.

Vaqt bo'ldiki, tortibon xoma,
Emdi to'rtunchi yozg'asen noma.

To'rt gavharga bergasen tartib,
To'rt unurni qilg'asen tarkib.

Bo'lubon baxtu davlat iqboli,
Rub'i maskung'a bo'lg'asen voli.

«Haft paykar» ki, keldi mushksirisht.
Yana oning yonida «Hasht bihisht».

Sen dag'i topibon fazoi vase',
O'truda solg'asen binoi rafe'.

Neki ko'rguzdilar sanga bir-bir,
Aylay oni birin-birin ta'bir:

Har biridin sanga bashoratdur,
Ushbu so'z shug'lig'a ishoratdur.

Yetti gunbadki, anglading oliy,
Yetti ayvon aro yeti voli.

Bu eti gunbadi sipehr erdi,
Ichida yetti mehrchehr erdi.

Sanga budur bu qissa isnodi,
Ki olib yetti qasr bunyodi,

Chun tugatgaysen ul rafe' qusur,
Solg'aysen yetti qasr aro yeti hur.

Ul sifatkim, alar kelib hamrang,
Topqay ul nav' ila hular ham rang.

Yetti afsona ko'rganin yona,
Degasen yetti turfa afsona

Kim, latofatdin elga jon bergay,
Tan aro ruhdin nishon bergay.

Aql og'zig'a kelturub kulgu,
Ko'ziga ruhning solib uyqu.

Har biri zoti yuz g'aroyib ila,
Jilva qilg'ay o'kush ajoyib ila.

Sen bu da'voda xurram o'lg'aysen,
Nukta derda musallam o'lg'aysen!»

So'z tugagach, qoshida yer o'ptum,
Bo'lubon shod, seskanib qo'ptum.

Borchani xotirimda tutmish edim,
Piru ta'birini unutmish edim.

Tushuma chunki yo'q edi ta'bir,
Yuzlanib xotiring'a ko'p tag'yir.

Talab etgim muabbiri komil,
Bori ta'bir ishi anga shomil.

Toptim ul nav' komili ofoq,
Sharh qildim tushumni boshtin-oyoq.

Neki, xotirda erdi topti bayon,
G'ayri ulkim topib edi nisyon.

Nuktapardoz eshitti chun rozim,
Bo'ldi filhol nuktapardozim.

Borini o'yla ayladi ta'bir,
Kim, tun oqshom tushumga kirgan pir —

Rozi bois bo'lub kushodimg'a,
Tushdagi pir kirdi yodimg'a.

So'zi hamkim, bo'lub edi masmu',
Jilva qildi xayolima majmu'.

Ikkisi nuktasi muvofiq edi,
Bu ham andoq so'zida sodiq edi.

Nuktakim surush qildi xurush,
Bu ham etti xurush misli surush,

Menki, toptim bu nav' iki dalil.
So'z demak sori ayladim ta'jil.

Jazm qildimki, Xoliqi azaliy
Kim, aning hukmi keldi lamyazaliy.

Manga bu mulkni nasib etmish,
Fath qilmoqni ham qarib etmish.

Ulki Haqdin birovg'a ro'zidur,
Dahrning sozi, yo'qsa so'zidur.

Necha uzr o'lsa oshkora anga,
Juz shuru' aylamak ne chora anga.

Tab' ham garchi asru rog'ib edi,
Lek ko'p ehtiyot vojib edi.

Kim, alarkim, burun chekib xoma,
Say' ila naqsh qildilar noma.

Nuktalar borcha sar-basar rangin
Har biri bir nigorxonai Chin.

Dahr elig'a qabul erur, rad yo'q,
Vasf qilmoqlari manga had yo'q.

Durji ma'nini chun ochibdurlar.
Olam ahlig'a dur sochibdurlar.

Durjdin kim desunki, bahr ila kon,
Naqdini sochib onchakim imkon.

Lek gavhar socharda ahli karam,
Bir sori ko'p tushar, yana sori kam.

Har taraf dur sochilmog'i yakson,
Ehtiyot aylamay emas oson.

Ko'p kishi yerga ohposh o'ldi,
Ko'pdan ozi gulohposh o'ldi.

Durni suft aylamak aro hakkok,
Ko'p qilur sahv – bor esa bebok.

Ko'prak ustodi chobukandesha,
Qildi beboklik fanin pasha.

Kim mahorat ani qilib mag'rur,
Voqif o'lmay tushar ishiga qusur.

Lek shogird erur ishida vahim,
Ko'nglida sahv aylamakdin bim.

Tunu kun ehtiyot qilmoq ishi,
Sahv ozroq topar ishida kishi.

Ul ikov ustodi mohir edi,
Kim, mahorat alarda zohir edi.

Chun tuzub bu bisot o'tmishlar,
Qilmayin ehtiyot o'tmishlar.

Men deyolmanki, sahvlar tushmish,
Bexabar tushmish, ul agar tushmish

Kim, bu daftarki, berdilar, ming zeb,
Boshtin to oyog' fusunu fireb.

Yasag'anda bu turfa afsona,
Hazmdin aylab o'zni begona.

Necha nav' ishni qildilar taqsir,
Gar tutarsen quloq, qilay taqrir:

Biri bukim, yo'q, anda moyai dard,
Qildilar ishq so'zidin ani fard.

Kim birov mehrdin bari bo'lg'ay,
Boqma, gar mehri xovari bo'lg'ay!

Bo'lsa tarix alarg'a gar matlub,
Anda so'z bog'lamoq emastur xo'b.

So'z yasardin chun topti piroya,
Ishqdin xushtur anda sarmoya

Kim, ko'ngulga o'ti asar qilg'ay,
Jonga kuydurmagi xabar qilg'ay.

Yo'qsa yolg'on demakdakim, bazadur,
Chun uzoq chekti asru bemazadur.

Ishqdin so'zi bo'lsa bok ermas,
O'rtar oniki, so'znok ermas.

Yana bir buki anda ba'zi ish,
Zohiran nomunosabat tushmish.

Bo'yla tuhmatki, aysh uchun Bahrom
Yasadi yetti qasr surgali kom.

Yetti iqlim shohidin yeti qiz,
Har biri lufu husni g'oyatsiz.

Yetti qasri ichiga kelturdi,
Kom har kuni biri bila surdi.

Turfa bukimi, chu bo'ldi bodaparast,
Qildi oqshomg'a tegru o'zni mast.

Uyqu komin olurg'a mastona
Sho'xlarg'a buyurdi afsona.

Bu ajabkim, alar dag'i dedilar.
Qissaxon qizlari magar edilar?

Tongdin oqshomg'a tegru paydarparay,
Ulki, ichgay qadah to'la-to'la may,

Anga xud g'aflat o'ldi da'bu sifat,
Uyqusig'a fasona ne hojat?

Bo'lsa ham aql, man' qilmasmu?
Qissa aytur kishi topilmasmu?

Kim, necha nozanin haramlarini,
Jon harimida muhtamlarini

Ki, alar g'amzasi qilib jodu,
Yuz tuman ko'zdan elitgay uyqu,

Lablari qatl uchun sharob olud,
Ko'zlari ishva birla xob olud.

Hukm qilg'ayki, siz fasona dengiz!
Demangiz, uzru, bebahona dengiz!

Bo'lung uyg'oqlik ichra farsuda,
Men bo'lay uyqu birla osuda.

Buyla taklif kimsa qilg'aymu?
Odamidin bu so'z ochilg'aymu?

Bo'ldi, farzan, bu nav' bul'ajab ish,
Bul'ajabroq yana bu ish bo'lmish.

Kim munungdek iki vahidi zamon,
Har bir o'z vaqtida faridi zamon.

Bo'yla nodon uchun yozib avsof,
Anga qilg'aylar o'zlarin vassof.

Madhini behisob yozg'aylar,
Balki mavzun kitob yozg'aylar.

Har bir ul nazmida ko'rub ko'p ranj,
Qilg'ay o'z «Panj ganj»idin bir ganj.

Alloh, Alloh! Ne ganj bo'lg'ay bu!
Sarbasar elga ranj bo'lg'ay bu!

Bo'la olmas bu ish magar bu tavr,
Ki, desang ul iki yagonayi davr.

Baski, ustod edilaru komil,
Bo'ldilar g'arralig' bila g'ofil.

Kimki, bir ishta bo'lsa mustag'ni.
Yoshunur ko'nglidin base ma'ni.

Meniki, shogirdi bebizoat men,
Ul ikovga mutei toatmen.

Vahmdinkim, tushub xato nogah.
Yetmagay kulfate mango nogah.

Ishim o'lmishdur ehtiyot etmak,
Nuktaning toru pudig'a yetmak.

Munda dog'i ishing'a yetsa kushod
Ham alar ruhidindur ul imdod.

Tab' bu shug'l aroki ozim edi,
Chunki ko'p ehtiyot lozim edi.

Bu sababdin bu xush fasona aro,
Balki bu xush navo tarona aro

Yo'q edi hech choravu tadbir,
Kim, biror yerda bo'lmag'ay tag'yir.

Aytmaq munda hojat o'lmag'usi,
Kimki, ul yerga yetsa, anglag'usi.

Yo Rab, ish mushkulu bu xasta zaif!
Pashshag'a pil ishi erur taklif!

Charx tomig'a nardbon yasamaq,
Mehr sham'ig'a sham'don yasamaq.

Qilibon ankabut ipini kamand,
Aylamak ajdaho aning bila band,

Keldi dushvordin dag'i dushvor,
Lek men telha mastu behushvor,

Kim, bu ishga ilik netib urdum,
Lutfunga e'timod etib urdum.

Necha ish ranji beadam bo'lsa,
Sendin ar lutf ila madad bo'lsa,

Zarrada mehrni nihon aylay,
Bahrg'a qatrani makon aylay!

Xoma no'gi safirin aylab tez,
Solayin olam ichra rustoxez!

Kilkni chun varaqnigor etayin
Oncha a'juba oshkor etayin!

Kim solay olam ichra ofatlar!
Balki zohir qilay qiyomatlar!

Hamul avloki bu sifat e'joz,
Shoh madhidin etgamen og'oz.

Chun deyilgusi shohlar qavli,
Shoh madhin burun demak avli.

IX

*Saltanat bahrining durri nobi va xilofat ma'danining la'li serohi,
ofarinish tojig'a javhari zoti zeb ila zayn, muizzus-saltanati vad-
dunyo vad-din Sulton Husayn Bahodirxon xallada mulkahu va
sultonahu midhati ko'sin urmoq va bu bahona bila zarrani quyoshqa
sog'indurmoq*

So'z demakka qilur havo ko'nglum,
Kilk unidin tilar navo ko'nglum.

Kelu hujram supurgil, ey iqbol,
Girdbolisht ravzan o'llig'a sol.

Chovushi baxt, eshikda hozir bo'l
Kim kirar mayli bo'lsa, uzrin qo'l.

Ey falak, xizmat oshkoro qil,
Mehrning safhasin muhayyo qil.

Qil davotimni, ey Zuhal, mamlu,
Xayi ruxsoradin solib qaro suv.

Mushtariy, yirtqil amoma uchin,
Men aritmaqqa anda xoma uchin.

Qing'a solg'il qilichni, ey Bahrom,
Fitna xaylig'a ber dame orom.

Mehr, safhang yuzin duraxshon et,
Zarvaraqdin ani zarafshon et.

Zuhra, bir lahza chalma soz oxir,
Chekmagil lahni dilnavoz oxir.

Ey Utorid, o'p ostonimni,
Qo'yg'il ollimg'a juzvdonimni.

Ey Qamar, sen qalam taroshim yig',
Qil hilolingning uchidin anga tig'.

Bir gah xomam uchini aylab tez,
Qilayin safha uzra gavharrez.

Dur kibi pok nuktaronlig' etay,
Shoh madhida durfishonlig' etay.

Qay shah ulkim, azaldin etti Iloh,
Ani ofoq shahlari uza shoh.

Din livosi, alamtirozi ul,
Ahli din ichra Shohi G'oziy ul.

Shoh Sulton, Husayn bin Mansur,
Kim berib nusrati jahong'a surur.

Xonlar uzra yetib atosi aning,
Xon bin xon ato atosi aning.

Ham ato xonu ham anga ano xon,
Yo'q jahonda aning kibi yano xon.

Anga Chingiz ulug' ato kelgan,
Anosi xud Alonquvo kelgan.

Faxr yo'q anga saltanat oti,
Ul bo'lub saltanat mubohoti.

Shohlar qullug'in ko'rub marg'ub,
Anga darvishlik bo'lub matlub.

Garchi shahlarni zerdast aylab,
O'zni darvishlarga past aylab.

Ajdaho zo'r vaqti ilgida mo'r,
Qila olmay valek mo'rg'a zo'r.

Pili gardun qoshinda pajmurda,
Pashsha lek o'lmay andin ozurda.

Tufrog' aylab falakni kin chog'i,
Lekin ahli niyoz tufrog'i.

Razm aro barqi tig'i olamso'z,
Bazm aro sham'i royi mehrafro'z.

Tab'i sohibkamol har fanda,
Ahli fannu kamol anga banda.

Adlidin oncha elga baxshoyish,
Kim raiyatqa yo'q juz osoyish.

Andakim, dahr aro tushub oshub,
Sarsari kin bo'lub salomatro'b.

Olam ahli aro tushub parxosh,
Olam ichra qiyomat o'lg'ay fosh.

Jong'a tan ichra iztirob o'lg'ay,
Tan fano selidin xarob o'lg'ay.

Iki saf bo'lg'ay iki ko'hi balo,
Qullalar anda raxshlar masalo.

Raxsh uza har xadivi tig'afkan,
Rustamu Ko'ha birla Ro'yintan.

Fitna dahr ichra karru far solibon,
Charx javfida sho'ru shar solibon.

Bodpo sarsari jahonpaymo,
Ustida rokibi sahobnamo.

Yo'q sahob, ayt qatraafshon mig',
Qatra paykonu, barq-lam'ai tig'.

Barq ajal chobukiga markabi tez,
Solibon ruh xayli ichra gurez.

Jon botib jism zaxmidin qonda,
Tan bo'lub joni birla darmonda.

Tig'lar kavkabi xirom aylab,
Gardi olamni tiyra shom aylab.

Sen bu zulmat ichinda mehr klbi,
Barqrav ashhabing sipehr kibi.

Tortibon tig' o'ylakim Bahrom,
Qahr ila aylasang ne yerga xirom:

Tig' ila qonni qilg'asen Jayhun,
Gurz ila tog'ni etgasen homun.

Titragay charx aylabon shevan,
Bir bulutdekki, bo'lsa nolafikan.

Ul bulutdin bu larz ila nola,
Kavkabin sochqay o'ylakim jola.

Ya'ni ul nav' fath qilsang fosh,
Charx bo'lg'ay boshingg'a gavharposh.

Tig' selobidin berib bas kin,
Kin o'ti iltihobig'a taskin.

Qo'ymayin olam ahlida biyme,
Fath etib bir dam ichra iqlime.

Razm maydonidin yonib shodon,
Qasri davlatni qilsang obodon,

Silkibon tiyra gard maydonni,
Boda birla yorutsang ayvonni,

Maskaning bo'lsa masnadi Jamshid,
Qadahing bo'lsa sog'ari xurshid.

Davrai bazming ichra turg'on el,
Shohlar qullug'ungg'a bog'lab bel,

Ishlari yerga ko'z tikib turmak,
Kimga had demaguncha o'turmak.

Chun bo'lub hukm, o'turub bori,
Yerlik o'z yeriga iki sori.

Tutubon soqiyi parivash may,
Gulda shabnam kibi uzorida xay.

Ilgidin may chu bodano'sh olibon,
May bila ul gulobi xush olibon.

Lek majlis shukuhidin ne had
Ko'zni yerdin olurg'a ahli xirad.

Tushgach ahli navo chalib derga
Zuhrani ko'ktin indurub yerga.

Iki yondin mug'anniy iki xayl,
Jong'a tandin chiqorg'a solib mayl.

O'ngda turkinavoz urub daston,
Qo'zg'olib har navoda Turkiston.

Tortqon turk nag'masida surud,
Oqizib xalq ko'zlaridin rud.

So'l sori forsi surudu nag'am,
Fitnai Fors, bal Iroqu Ajam.

Kavkabi jom aksi lam'afikan,
Tob aro o'ylakim, Suhayli Yaman.

Tob ila ul Suhayl rangi rahiq,
Chehra rangin yasab nechukki aqiq.

No'sh etarda bu rohi rayhoni,
Yuz gul ochib yuzung gulistoni.

Bazmni bu bihishtvash bo'ston
Aylabon har zamon bahoriston.

Ham kulub sen bahori xandondek,
Ham to'kub ashk abri naysondek.

Har surudki istimo aylab,
Bevafu dahrg'a vido aylab.

Bo'lubon jisming o'yla ruhoni,
Kim ko'rub dahr bazmini foni.

Saltanatdin havasin bas aylab,
Faqr sultonlig'in havas aylab.

Ne havas, mahz so'zu dard bo'lub,
Benavolig' yo'lida gard bo'lub.

Oncha har yon to'kub niyoz ashkin,
Sham'dek so'z ila gudoz ashkin,

Kim qayonkim, urub yuz ul selob,
Aylabon mastlig' uyini xarob.

Chun jahon bevafo'lig'iga boqib,
Kulub ammo ko'zungdin ashki oqib.

Kulubon lek yosh to'kub durdek,
Guli xandon yuzida mo'ldurdek.

Andakim, tig'i xunfishon olibon,
Tig' zarbi hila jahon olibon.

Bu nafas kimki, bir tarona chekib,
Dard ila ohi bexudona chekib.

Munga borin ani nisor aylab,
Balki qilmay pisandu or aylab.

May ichib behisobu mast o'lmay,
Nafs hukmig'a zerdast o'lmay.

May sanga mujibi fano bo'lubon,
Sarbasar nur ila safo bo'lubon.

Ne ajab bo'lsa boda nuru safo,
Kim, erur har qadahda istig'no.

Boda mohiyatin tabah bilmak,
Ichmagin dam-badam gunah bilmak.

Barcha mazhabda fosiqi ranjur
Yaxshiroqdurkim, zohidi magʻrur.

Boʻyla may noʻsh etibki, surdum soʻz,
Mastligʻ uyqusida yumsang koʻz.

Tunqotor onda baxti bedoring,
Subhgʻa tegrukim Xudo yoring.

Tortqoch subh muazzini yo hay,
Uchubon koʻzdin uyqu, boshtin may.

Oqizib uzr koʻzlaridin suv,
Aylasang ul suv birla pok vuzu.

Qiblagah sori roy keltursang,
Tengri amrin bajoy keltursang.

Chun nekim Tengri amri boʻldi tamom,
Aylasang adl taxti sori xirom.

Qoʻyubon boshingʻa Kayoniy toj,
Hukm qilsangki, soʻz desun muhtoj.

Eshitib hukm har taraf mazlum,
Bori omingʻa aylaganda hujum,

Anda shirin kalonmu xandon yuz
Birlakim, xalqdin soʻrarsen soʻz.

Dafʻ etib xalq boshidin bedod,
Beribon dodkim, qilursen shod.

Birning aylab qilurgʻa chorasini,
Boshidin dafʻ sarshumorasini.

Birisidin «alafbaho» koʻtarib,
Sabzayi umri ayshdin koʻkarib.

Har birining nekim boʻlub komi,
Bir dam ichra boʻlub saranjomi.

Kim, yonarlar oʻkush murod bila,
Uqdaligʻ ishlari kushod bila.

Anda Nushirvon kerak boqqay,
Boshini irgʻatib ovuch qoqqay.

Chun qilib yod oʻz adolatidin,
Mutagʻayyir boʻlub xijolatidin.

Addin toki, boʻlgʻay ovoza,
Har kun oʻlsun adolating toza.

Shohliq xil'ati qading bila jub,
Shohlar qaddi xam ayog'ingg'a ko'b.

Dodu adling bila jahon obod,
Kim, bu bo'lg'ay jahonda adl ila dod.

Mulkunga Arshdin kelib bu nido:
«Xalladallohu mulkahu abado».

X

*Ismat bahoristonning shukufta bog'i va iffat shabistonining gavhari
shabchirog'i, ro'po'shlig' Qofining asmoi parisi, mahjublig' sipehrining
mehri xovariysi, axloqi hamida va avsofi pisandidasidin shammaye
izhor qilmoq*

Chunki naqqoshi sun' etarga raqam,
Ofarinashg'a chekti no'gi qalam.

Ne uchun keldi gunbadi minu,
G'unchadek necha parda to' barto'.

Chun tamom o'ldi bu rafe' ayvon,
Nega tortildi necha shodurvon.

Tah-batah pardalar aro parda,
Bir-bir ichra to'quz saroparda.

Pardalar bir-biriga aylang'on,
Duri anjumdin inju turlang'on.

Malak ushbu rafe' parda aro,
Evrulub ul sifatki, xojasaro.

Pardalar davrida muhofiz o'lub,
Tashqi xodim kibi mulohiz o'lub.

Esmay ul tegraga nasimi shamol,
Qilmay ul yon xirom payki xayof.

Aql bu fikr aro edi madhush,
Kim nido ayladi xujasta surush:

Kim, erur bu to'quz niqobi baland,
Kim, chekilmish parand uzra parand.

Bir harimiki, anda yo'q mahram,
Demayinki, pari, maloyik ham.

Anda masnadnishin falakjohe,
Falaki ismat avjida mohe.

Ham Sulaymoni ahdg'a hamdam,
Hamdamu hamnishinu munis ham.

Chun Sulaymong'a yor equr ne ajab,
Anga Bilqisi soniy o'lsa laqab.

Qaysi Bilqis, Sorayi Uzmo,
Qaysi Sora, Xadichai Kubro.

Pok zotiki, ko'rmayin aflok,
Dahr bahrida o'yla gavhari pok.

Suyi gavharining abri naysondin,
Gavhari oning obi hayvondin.

Bu jihatdin hadisidur jonbaxsh,
Kafining bahri durri Ummonbaxsh.

Girdbolishtida quyosh ko'zgu,
Kela olmay jamolig'a o'tru.

Ko'zgu yo'q, ev qizi durur jovid,
Mehr deb goh otin, gahi xurshid.

Ul chu tutmay yuzini pinhoni,
Xizmati silkidin qovub oni.

Chun bu nav' ani o'zidin ayirib,
Titrab ul sarg'aribu yerga kirib.

Barcha xodimlari pari yanglig',
Yoshurun kunduz axtari yanglig'.

Pari uy qizlig'ida xidmatko'sh,
Ne uchunkim, erur pari ro'po'sh.

Ismati bog'idin qochib bulbul,
Yoshunub g'uncha gunbadi aro gul.

Tutmasa o'zni pardada pinhon,
Qo'rqtub oni sunbulu rayhon.

Vahmdin qilsa ham nazora havas,
Ko'zni yerdin ko'tarmayin nargas.

Iffati zabtidin jahon ichra,
El ayoli kirib amon ichra.

Oy tun aqshom chu chiqti olam aro,
Dedikim, qildilar yuzini qaro.

Iffati zabti andoq aylar jid,
Kim de olmas ko'zni el shohid.

Itlarining tanobidin har tor,
Uzulub charx sori qilsa guzor,

Charx ani rishtayi mador etgay,
Malak o'z subhasig'a tor etgay.

Ey hariming sipehri izzu jalol,
Anda yo'q o'tgali malakka majol.

Oyu kun yo'q agarchi monanding,
Ikki sa'd axtar ikki farzanding.

Fazl aro nodiri jahon birisi,
Lutf birla jahong'a jon birisi.

Birisi taxti ma'dalat shohi,
Birisi avji saltanat mohi.

Tong emas bo'lsalar Masihodam,
Kim alarning anosidur Mar'yam.

To jahon bo'lg'ay ul ikov bo'lsun,
Qo'llarida jahon garov bo'lsun.

Sen durisenki, shahg'a ro'zisen,
Shohning durri shabfuruzisen.

Iki yoningda otashin gavhar,
Dur iki yonida samin gavhar.

Baxtg'a toji torak o'lg'aysiz,
Shahg'a har kun muborak o'lg'aysiz.

Chatri iqbolingiz qilib oliy,
Shohi ofoq zilli iqboli.

Chun azaldin shahi jahon sizsiz.
Bo'lmasun bir nafas jahon sizsiz.

XI

Shoh Bahrom dostonig'a shuru' qilurdin burun bir necha so'zga murtakib bo'lmoq va ul dostonida tag'yir va tabdil voqe' bo'lg'onning uzrin qo'lmoq va har ganjg'a bir uy makon bo'lg'ondek har dostonni bir baytda nihon qilmoq

So'z tilismidin ulki ochti ganj,
Bo'ldi mezoni tab'i gavharsanj.

Bu javohirg'a tuzdi chun mezon,
Bo'yla qildi javohirin rezon,

Kim, tugatti chu sun' me'mori,
Tarh etib koinot bozori.

Yer tutub el boshida savdolar,
Tushti bozor ichinda g'avg'olar.

Aql sarrofi bu g'ulu ichra,
Ochti do'konni chorsu ichra:

Terdi har yon qafasda gavhari pok,
Bir taraf to'kti la'li otashnok.

Chun javohir haqoyiqin bildi,
Sirridin bu sifat xabar qildi:

Kim: jahon bahri ichra har lu'lu,
Ki, erib obutobidin mamlu.

Kishi fahm etsa asl ila budin,
Anglar ul durni qatrai sudin.

Yana yoqutu la'li tobanda,
Borcha xorodin o'ldi zoyanda.

Qaysi javharki, yo'q bahosi aning
Kon ano, tog' erur atosi aning.

Necha xorog'a shiddat o'lsa ayon,
Andin o'lmas javohirig'a ziyon.

Odami hamki, keldi javhari pok,
To bilur kimki aylasa idrok.

Ota dunu o'g'ul sharif o'lmoq,
Bu latif o'lmoq, ul kasif o'lmoq.

Kim Xalilulloh Ozar o'g'lidur,
Butshikan ko'rki, butgar o'g'lidur.

Bu sifat keldi nisbat ichra tamom,
Tavr aro Yazdajurd ila Bahrom.

Ul kelib tiyraro' sadaf monand,
Tong yo'q, o'lmaq sadafga dur farzand.

Har ne ul huzdi, bu borin tuzdi,
Bu borin tuzdi, har ne ul huzdi.

Kimni o'lturdi ul qilib majruh,
Bu qo'yub marham, o'ldi jismig'a ruh.

Shomi dayjur zulmati ketti,
Tiyra tundin quyosh tulu' etti.

Bu quyosh o'yla bo'ldi nurafkan,
Ki, jahon mulkin ayladi ravshan.

O'ylakim, mehr tig'u, jom bila,
Tutti olam yuzini kom bila.

Saltanat taxti uzra topti nishast,
Kimda ko'rdi biyiklik etti past.

Garchi sarkashni zarbi past etti,
Pastlarni falaknishast etti.

Kim quyundek edi g'uborangez.
Ani tufroqqa past ayladi tez.

Ayog' ostida chun guhar ko'rdi,
Toj avjig'a oni yetkurdi.

Mulk bog'in bahori adl bila,
Suvorib jo'ybori adl bila.

O'yla sarsabz qildiyo toza,
Kim jahon bo'ldi jannatovoza.

Har ne vayron qilib edi bedod,
Dod ila qildi barchasin obod.

Ulcha ul qildi komronlig'idin,
Shohlar ichra pahlavonlig'idin.

Hech tarix aro topilmas naql,
Bo'lsa ham naql, bovar etmas aql.

Roqimekim, burun qalam chekti,
Nomasiq'a aning raqam chekti,

Qildi tarixini chu elga ayon,
Ishlarin etti sharh birla bayon.

Qildi tatvil ila chu ul takmil,
Men ne takmilg'a beray tatvil.

Bir deganni iki demak xush emas,
So'z chu takror topti dilkash emas.

Aytmoqqa agarchi qolg'um yo'q,
Avval aytqoncha ayta olg'um yo'q.

Lek baham o'tsam aylamay mazkur,
Meni tab' ahli tutmag'ay ma'zur.

Bas bu avlo dururki, avvali hol
So'z jamolig'a bergamen ijmol:

Har ne bir dostong'a soldi sado,
Munda bir bayt birla topqay ado.

Mujmal oning so'zin qilib takmil,
O'z hadisimg'a bergamen tafsil:

Shoh Bahrom aning kibi shah edi,
Kim sipehr anga xoki dargah edi.

Avval o'lg'och Suhayldek tole',
Bo'ldi mulki Yaman uza lome'.

Chun Yaman bo'ldi nuri ichra g'ariq,
Tufrog'i mushku toshi bo'ldi aqiq.

Shoh Nu'mon atobek o'ldi anga,
Shafqat ichra atodek o'ldi anga.

Bo'ldi Munzir rafiqu damsozi,
Hamnishinu nadimu hamrozi.

Arab ichra tutub maqom avval,
Ka'bada misli Ahmadi mursal.

Ham Ajamdin qilib Arabda maqom,
Ham Arabdin etib Ajamg'a xirom.

Ishratidin Yamang'a ravnaq o'lub,
Qasri ayshi aning Xavarnaq o'lub.

Bo'yla qasrin yasat zamon me'mor,
Charx me'moridek kelib Simnor.

Ishi ov ovlamoqqa chekmak jom,
Tortibon jom, qilmak ovg'a xirom.

Ov aro komi borcha bodau rud,
Bodau rud aro nishotu surud.

Garchi juz join dam-badam chekmay,
Adl qonunidin qadam chekmay.

Ovdakim, sher qildi go'rg'a zo'r,
Zo'r ila sher uyini ayladi go'r.

Iki sher olidin chu toj oldi,
Otasi mulkidin xiroj oldi.

Sherlar ollidin chu oldi kuloh,
Shervashlarni ayladi ro'boh.

Ajdar o'lturdi chunki tortib ranj,
Topti ul ranj dastmuzdi ganj.

Kishvaridin ketardi chun toroj,
Yetti yillik maof tutti xiroj.

Kim yeti yil ketarsa eldin ranj,
Ne ajab yetsa Tengridin anga ganj,

Xayli gardun sifatlig' ayladilar,
Xasmig'a yakjihatlig' ayladilar.

Kishvarin oldi, o'lg'ach ul pinhon,
Necha yuz ming cherik bila xoqon.

Necha yuz kimsa birla gohi sitez,
Bir shabi xun chu ayladi angez.

O'yla xoqonni torumor etti,
Kim sipehr ollidin firor etti.

Asare qolmadi bu to'fondin,
Ne sipohidinu ne xoqondin.

Bo'lmadi bo'yla fath damsozi
G'ayri Bahromu Xusravi G'ozu.

Topti chun xasmidin bu nav' kushod,
Oncha olam eliga ayladi dod.

Kim navo topti baski, nozu naim,
Sekiz uchmoq kibi yeti iqlim.

Dostonlarki, aytim mujmal,
Manga yo'q hech anda bahsu jadal.

Dey olurmenki, borcha rost durur,
O'yladurkim, ko'ngulga xost durur.

Nimakim, rostdur demish ul ikov,
Bul'ajab rostgo'y emish ul ikov.

Nimakim, anda intiboh o'lg'ay,
Solib o'tsam, manga gunoh o'lg'ay.

Lojaram anda aylagum pechish,
Ayblig' bo'lmasun debon hech ish.

So'zda tarix ixtilofi bor,
Ahli tarixning xilofi bor.

Buki men aylagum durur mastur,
Bo'lmadi erkin ul zamon manzur.

Bu tavorixkim manga tushmish,
Ilgima ulcha muddao tushmish.

Kosh alarg'a ham o'lg'ay erdi nasib,
Kim, fasona degaylar erdi g'arib,

Chun bu daftar emish manga ro'zi,
Yetti bo'stoni majlisafro'zi.

Avlo ulkim, navo keturgaymen,
Tengri shukrin bajo keturgaymen.

Istabon Tengridin so'zimg'a kushod,
Doston tarhin etgamen bunyod.

Chun bu ma'no ko'ngulga kom o'ldi,
So'zga bu yerda ixtimom o'ldi.

Ey Navoiy, ne bo'lsa guftoring,
Ayla bunyodkim, Xudo yoring.

XII

Doston og'ozi va shoh Bahromning saydg'a parvozi va Moniyi suratgardek g'arib qushni sayd qilg'oni, balki anga sayd bo'lg'oni, va Moniyi falaki naqshhozdin ajab surat yuz ko'rguzgondak Diloromning dilrabo suratini ko'rguzgoni va Bahromning rishtayi toqatin ul suratdin uzgoni

Mo'badekim varaqqa chekti raqam,
Kim, ne nav' o'ttilar muluki Ajam.

Shoh Bahrom ishin qilib og'oz,
Qildi tarix safhasig'a tiroz.

Bo'yla yozdiki: chun sipehri baland,
Qildi johin aning falakpayvand.

Saltanat surdi moh to mohi,
Moh to mohi el shahanshoi.

Rumu Chin bo'ldilar anga mahkum,
Balki xoqoni Chinu, qaysari Rum.

Sham'i davlat falak yorutti anga
Rub'i maskun qaror tutti anga.

Sarkash el qildi sarfikandalig'in.
Yetti iqlim shohi bandalig'in.

Tojvarlarg'a hoj etib ta'yin,
Shohlarg'a xiroj etib ta'yin.

Mulk aro qo'ydi bu sifat dastur
Ki: «Agar royi hind, agar fag'fur.

Har nekim, qildilar qabuli xiroj,
Kimsa bormoqqa bo'lmayin muhtoj.

Har yil oni xizona qilg'aylar,
Taxt sori ravona qilg'aylar».

Jong'a minnat qo'yub bu ishda muluk,
Tutubon bu tariqni masluk.

Neki dastur edi bilurlar edi.
Har yil oni ado qilurlar edi.

Yana har tuhfayi garonmoya,
Kim, bo'lur shohlarg'a piroya.

Qaysi mulk ichra ne bo'lur hosil,
Bo'lur erdi xizonag'a vosil.

Ozu ko'p harne bo'lsa qiymat aro
Tutulur erdi moldin majro.

Shahg'akim, ishrati mudom erdi,
Soz birla surud kom erdi.

Ko'p edi xizmatida rud ahli,
Bazmida jonfizo surud ahli.

Har taraf hamki, bo'lsa erdi bu xayl,
Hozir etmakka aylar erdi mayl.

Shavqida ixtiyori yo'q erdi,
Ko'rmay oni qarori yo'q erdi.

Saydsiz bo'lmas erdi oromi,
Anda rudu surud edi komi.

O'qi har sayd sori topsa kushod,
Zaxmidin sayd emas edi ozod.

To'kubon sayd qoni pay-darpay,
Anga hamrang tortar erdi may.

Sayd aylab o'tar zamon nogoh,
Bo'lsa sarmanzile anga dilxoh.

Tushubon topib anda komu farah,
Aysh etib tortar erdi necha qadah.

Lahni changu rubob edi bir yon,
Sayd etidin kabob edi biryon.

Bir kun ushbu sifat shikor aylab,
Bir biyik pushtag'a guzor aylab.

Topibon jonfizo havosin aning,
Ko'rubon dilkusho fazosin aning.

Bazm asbobin aylab omoda,
Tushub anda ichar edi boda.

Ham mug'anniy chekib falakka xuro'sh,
Ham yetib ko'kka bongi no'sho-no'sh.

Shahni may ul bisoti xurram aro,
Solibon har dam o'zga olam aro.

Ko'rubon olam ichra shoh o'zin,
Olam ahlig'a qiblagoh o'zin.

Ham dimog'ini boda aylab xush,
Ham qulog'ida nag'mai dilkash.

Chun taammul qilib bu johu jalol,
Ko'ngliga har dam o'tkarib bu xayol:

«Kim, bu shukronag'akim, qildi Iloh,
Meni bu nav' olam ahlig'a shoh.

Elni shod aylamak kerakdurmen,
Adlu dod aylamak kerakdurmen.

Komsiz komin aylamak hosil,
Benavolarni aylamak xushdil».

Ishni mundog' shumora aylar edi,
Lek har yon nazora aylar edi.

Bo'yla ishlar tutar edi o'ziga,
Dasht aro uchradi birov ko'ziga,

Kim, borur erdi yo'lg'a solib xez,
Lahza-lahza xiromin aylab tez.

Shah xayol ettikim erur nokom,
Yoyoq etmak bu nav' yo'lg'a xirom.

Ko'ngli mayl ayladi bag'oyat anga,
Aylamak istadi rioyat anga.

Bir mulozimga hukm qildiki: «Bot
Minib otingg'a elt yana bir ot.

Ul musofirni otg'a mindurgil,
Chopturub xizmatimg'a yetkurgil».

Qosid ul yon chu markabin surdi.
Shah buyurgandek oni keltirdi.

Shoh chun so'rdi lutf etib oni,
O'pti yer soyiri biyoboni.

Qo'ptiyu surdi so'z fasohat ila,
So'zida choshni malohat ila.

Bo'lubon so'z demakka afsunsoz,
Qildi andoq sanou madh og'oz.

Kim, eshitganlar ofarin dedilar,
Pok lafzin duri samin dedilar.

Ko'rmadi shah munosib ul turmoq,
Yaqinida buyurdi o'lturmoq.

Qo'yub o'llig'a guna-guna taom,
Yegach-o'q tuttilar to'la-to'la jom.

Chun musofir boshig'a chiqti may,
Shah so'rar erdi nukta pay-darpay.

Neki shahdin bo'lub xitobi aning,
Shah pisandi tushub javobi aning.

Bildi shahkim, harifi dashtnavard
Bor emish kordonu olamgard.

So'zda chun ko'p g'arobatin ko'rdi,
Yana ondin g'arib so'z so'rdi:

«K-ey jahon mulkiga qadam urg'on,
Pushti po bal jahong'a ham urg'on,

O'yla ma'lum o'lur kalomingdin,
Yana sarsar kibi xiromingdin.

Kim sanga ko'p ulum erur ma'lum,
Ham urubsen base makong'a qudum.

Ham o'z ahvoling et ayon bizga,
Ham ani aylagil bayon bizga —

Kim, chu urdung musofiratg'a qadam
Shahr qat' ettingu, biyobon ham.

Shak emaskim, base g'arib umur,
Sanga bo'lmish safar aro manzur.

Neki andin g'arib ko'rmaisen,
Turfa andoq ajib ko'rmaisen,

O'zunga bizni sohib asror et,
Ul nihon nuktadin xabardor et.

Senki, borsen zamon elida g'arib,
Sanga bo'lg'on jahon ichinda ajib.

Iki bas turfa hol bo'lg'usidur,
Ish alardek mahol bo'lg'usidur.

Ikisin deki barxabar bo'lali,
Iki nodirg'a bahravari bo'lali».

Yer o'pub rahravi jahonpaymo,
Dedi: «K-ey komroni lutfnamo,

Garchi bu so'z demakda ojizmen,
Demas erdim bu so'zni hargiz men.

Kim nihoni rivoyatim bordur,
Bas ajoyib hikoyatim bordur:

Menki, bu dasht rahnavardimen,
O'z ishimda zamona fardimen.

Bo'lmadi kimsa yoru damsozim,
Demadim ham kishiga o'z rozim.

Asradim ham o'zumni pinhoni,
Ham bu rozeki, aytqum oni.

G'arazim bu ediki, po'ya urub,
Dashtlar qat' ayladim yugurub,

Shoh Bahromkim, jahon shahidur,
Charx aning g'ubori dargahidur,

Dargahig'a o'zumni yetkursam,
Tufrog'ig'a ko'zumni yetkursam.

Ham anga aytibon nishonimni,
Ham desam nuktayi nihonimni.

Anga yetmay bu so'zni so'rdung sen,
Bul'ajab ish manga buyurdung sen.

Demasam, sendin asru mamnunmen,
Desam, o'z maqsadimga mag'bunmen.

Garchi sen ham azim shon kishisen,
Olam ahlida shahnishon kishisen.

Anga o'xsharki, bo'lmasang Bahrom,
Sanga ham bas baland keldi maqom.

Shibhisen, gar yo'q ehtimoli aning,
Misli sen, garchi yo'q misoli aning.

Baski, mardumlug'ung manga yetti,
Men kibi turfa qushni sayd etti.

Lek maqsudim o'zga hol erdi,
Aning olinda qiylu qol erdi.

Ko'ngluma qo'ydung iki g'am dog'i,
Demasam ham yomon, desam dog'i».

Shah bu so'zdin ochildi bog' kibi,
Til chekib shu'layi charog' kibi.

Dedi: «K-ey, dasht aro shitobanda,
Bilki jo'yanda, keldi yobanda.

Baxt komingni aylamish hosil,
Kim topibsen murod, sen g'ofil.

Tashnalab bo'lma, bahr yoninda,
Qilma shevan, tarab makoninda.

Nukta surg'ilki, hosil o'lmish kom,
Kim topibsen, gar istading Bahrom».

Bildi rahravki, garchi chekmish ranj,
Ro'zi o'lmish anga ne yanglig' ganj.

Sajdayi shukr aylabon toza,
Deb duo beqiyosu andoza.

Yer o'pub, o'lturub adab birla,
Qildi og'oz so'z tarab birla:

«Kim, shah iki hadis qildi savol,
Bir bu erdiki: «Ayt o'zungdin hol».

Mustami' bo'lsa arz etay oni,
Meni derlar jahon eli Moniy.

Ko'p bilik birla xotirim ma'mur,
Lek tasvir ila bo'lub mashhur».

Shah xud erkan durur anga tolib,
Shavqi vaslig'a asru ko'p rog'ib.

Ko'nglini o'yla shodmon topti,
Degasen o'lmish erdi jon topti.

Quchub etti ko'p iltifot anga,
Yangi boshtin berib hayot anga.

Lutfu ehson ila ko'p etti karam,
So'rdi lekin ikkinchi so'zni ham.

Berdi rovi fasonag'a taqsim,
Dedi: «Sayr ayladim yeti iqlim.

Har ne ofoq aro g'arib erdi,
Oni ko'rmak manga nasib erdi.

Oncha ermas edi bular bori,
Kim chu qildim guzar Xito sori.

Tojire yetti moli haddin ko'p,
Moli ko'p tojire adaddin ko'p.

Dur ila la'li bahru kon chog'liq.
Qadri yuz xojai jahon chog'liq.

Naqdi yuz ming tumandin ortug'roq,
Jins anga xud degandin ortug'roq.

Har sifat tuhfası nihoyatsiz,
Bebaho la'lu durri g'oyatsiz.

Lek bir dur bo'lub anga ro'zi,
Qaysi dur, mohi majlisafro'zi.

Mahvashi lu'batı xitoyizod,
Ko'rub andin Xitou Chin bedod.

Husnicha odami nishon bermay,
Kishi ko'rmay aniki, jon bermay.

Ko'rgan o'lmakka qilmasa ohang,
Voy ul damki, olsa ilgiga chang.

Changi chun jonfizo sado cheksa,
O'zi ul savt ila navo cheksa.

Ko'rsa yoxud eshitsa kim oni:
Qolmag'ay bir, gar o'lsa ming joni.
Men kibi kimsa cheksa yuz ming til,
Bo'lmag'ay vasfi sharhi yuz ming yil.
Xoja zebin aning izofa yasab.
Sandalu uddin mahofa yasab.
Po'shi deboi Chin, vale necha rang,
Kim anga atlas falak hamrang.
La'lu durdin mukallal ul debo,
Ichida mohpaykari zabo.
Udu sandal bila yasab anga chang,
Zuhravash cholmog' aylabon ohang.
Xoja hay'in tilab parivashning,
Zuhra bir, mushtari vale yuz ming.
Bo'lub ahli g'ino javohirsanj,
Haddin ortug' to'kub javohiru ganj.
Ganju gavhar anga baho bo'lmay,
Mushtari hojati ravo bo'lmay.
Vaslig'a elning ehtiyoji bo'lub,
Anga qiymat Xito xiroji bo'lub.
Mayl qildi burun Xito xoni,
Bay' qilmoq berib baho oni.
Bo'lmay arkoni davlati xushnud,
Dedilarkim: «Bu ishda yo'qtur sud,
Kim chu sen bu xiroj ango berding,
Bo'lg'oningni anga baho berding.
O'zung o'ldung sipoh mahjuri,
Shah xud istar xiroj dasturi.
Yog'i o'lsang anga sipohing yo'q.
Bo'lsa ham, razmu dastgohing yo'q.
Nafs komig'a iztirob etma,
O'zniyu mulkni xarob etma».
Shah bu so'zni eshitgach, o'ldi xamush,
Xalq — bemoya, xoja — sayrfurush.
Menki, bor erdi xidmating komim,
Yor o'lub baxti nekfarjomim.

Qullug'ung sori chun murur o'ldi,
Tuhfae topmog'im zarur o'ldi.

Rang hayvon suvig'a zam qildim,
Ul pari suratin raqam qildim.

Gar biaynih ul o'lmasa bori,
Shak emaskim erur namudori»,—

Deb chiqardi harir chinisoz,
Kim yuzinda raqam edi bu tiroz.

Ko'zi birla aritti gardin aning,
Qo'pti filhol ochib navardin aning.

Qo'ydi shah xidmatida farzona.
Shah pari ko'rgach, o'ldi devona.

Mavh o'lub kimsa birla demadi so'z,
Andin aqshomg'acha ko'tarmadi ko'z.

Tinmayin aylar erdi nazzora,
Shohni qildi ishq bechora.

Jonig'a surati balo tushti,
Bul'ajab surate ango tushti.

Ko'rdi Moniy chu hoida tag'yir,
Dedi: «Shoho, ishingg'a qil tadbir,

Kim falak hodisotidin nogoh,
Bo'lmag'ay amre o'lg'ucha ogoh.»

Gar ilikdin o'shul pari ketgay,
Anga ul dam iloj kim etgay?»

Dedi shah: «K-ey bu g'amda darmonim,
Rohati jonu ofati jonim!

Meni bu surat ayladi shaydo,
Aql shaydog'a bo'lmag'ay paydo.

Ham sen-o'q mehnatimga parvo qil,
Dardmand aylading, mudovo qil!

Aytkim, naylamak kerakdur bot
Kim visolig'a yetgamen hayhot!»

Dedi Moniy: «Yiborayin kishilar,
Chobuk andeshu xurdabin kishilar.

Anga har kimning ehtiyojidur,
Bay'i oning Xito xirojidur.

Gar sanga ul pari visoli kerak,
Nazaring ollida jamoli kerak.

Qiymati chun topibdurur, ta'yin,
Bera olursen o'tunga taskin.

Yoki bir yil Xito molidin o't,
Yo xito lu'batl xayolidin o't».

Dedi shah: «Gar budur ko'ngul holi,
Ne Xito molikim, jahon moli.

Bergamen qiymat o'lsa jonong'a,
Minnatin dag'i qo'yg'amen jong'a», —

Debon amr ayladiki, yuzcha kishi,
Donishu poklik alarning ishi.

Necha xojasaroy birla kaniz,
Tutqali sarv siymbarni aziz

Bot Xito kishvarig'a borsunlar,
Oyni ul uqdadin chiqorsunlar.

Noma xoqong'a dog'i topti vuqu'
Anga bo'ldi baho husuli ruju'.

Bilib ul xayl azm ishin lozim.
Bo'ldilar aytqon taraf ozim.

Qoldi Bahromu notavon joni:
Iigida surat, ollida Moniy.

XIII

*Diloromning diloro husni kamolinda so'z surmak va ani Bahromi
bedilg'a yetkurmak va vasl sham'in ishrat shabistonida ravshan
qilmoqlari va hajr xazonidin qutulib, visol bahorida g'unchadek
ko'ngullarining gul-gul ochilmog'lari*

Chun ul el urdilar Xito sori gom,
O'ylakim hukm etib edi Bahrom.

Manzil o'lg'och alarg'a ul kishvar,
Azm etib ul guruhi donishvar,

Ko'rubon xonni berdilar noma,
Tuzdilar ul so'z uzra hangoma.

Xon ilik ko'zga qo'ydi minnat ila,
Yuz mubohot etib bu xidmat ila.

Yiborib xojani talab qildi,
So'zda izhori yuz tarab qildi.

Ayladi bay' zavqu holatidin,
Sarv gulruxni shah vakolatidin.

Jonni yormoqqa sotti xojai xas
Kim, bu savdoni tojir etgayu, has.

Chun bahosi xiroji mulk erdi,
Ham qabul etti, ham borin berdi.

Aylab ul elga dag'i ko'p in'om,
Sarvg'a ravza sori berdi xiom.

Yondi ul xayl ham qilib ta'jil,
Qat' o'lur erdi dasht mil-hamil.

Shahki, hijrondin oh tortar edi,
Nolai umrkoh tortar edi.

Za'f etib erdi jismini qilcha,
Har kun erdi ko'ziga bir yilcha.

Tunu kun afg'oni zor chekmak ila,
Mehnati intizor chekmak ila.

Ko'ngildin sabr chun kanora qilib,
Yana surat sori nazora qilib,

Ko'rubon chun habib suratini,
Raf' etib hajrining kuduratini.

Quchmog'ig'a ochar edi og'ush,
Goh behushu goh ko'nglida hush.

Uyda bir soat o'ltura olmay,
Qasr yo bog' aro tura olmay.

Qasr uza bazm oshkora etib,
O'lturub yo'l sari nazora etib.

Ko'runub gard yo qaro ko'ziga,
Bir nafas kelmay el aro o'ziga.

Za'fdin titramak tanin yiqibon,
Zilzila eski maskanin yiqibon.

O'ziga chun kelib tani zori,
Kimsalar ozim aylab ul sori.

Chunki topmay nishona jonondin,
Yana o'tlug' fig'on chekib jondin.

Tura olmay nishotxonasig'a,
Bo'lubon rokib ov bahonasig'a.

Lekin aylab Xito yo'li sari azm,
Xabare yordin topay deb jazm.

Ko'ziga har sifat ko'runsa kishi,
Xabarin so'rmoq o'lub oning ishi,

Dilbari mulkidin fasona so'rub,
Necha topsa javob yona so'rub.

Moniy oshufta shoh holatidin,
Mutahayyir bo'lub malolatidin.

Har zamon o'zga nukta soz aylab,
Yana bir naqshni tiroz aylab.

Berib afsonalar adosida tul,
Shoh ko'nglin qilay debon mashg'ul.

Yordin o'zga har ne deb Moniy,
Eshitib, lek anglamay oni.

Kimki, ishq ichra muhtalo bo'lg'ay,
Har ne juz vasl, anga balo bo'lg'ay.

Hajr o'ti necha qo'ysa jonig'a dog',
Sabr qilmoq erur ul o't uza yog'.

Hajr qilmas nechaki zor aylar,
Ulcha oshiqqa intizor aylar.

Hosilan necha vaqt chun Bahrom,
Ishq dardidin o'ldi beorom.

Yetti nogah ravanda qosid anga
Hosil aylab bori maqosid anga.

Shahg'a yetkurdi mujda maqsud
Ki, madad qildi toli'i mas'ud.

Ul quyoshdinkim erdi shah mahjur,
Solg'usi tiyra shomi hajrig'a nur.

Shoh jismig'a iztirob o'ldi,
Ko'nglining holi xud xarob o'ldi.

Oshiqi xastag'a malol chog'i,
Hajr muhlik durur, visol chog'i.

Qildi, alqissa, sarvi siymintan,
Shohning shomi hajrini ravshan.

Yettilar ul guruhkim bori,
Azm etib erdilar Xito sori.

Kelibon baxtdin kushod bila,
Ko'rdilar shohni murod bila.

Qildilar arz xon maqolotin,
Har nechuk tuhfa birla savg'otin.

Oni hamkim, xiroj qildi qabul,
To sumanbar bahosi topti vusul.

Oni hamkim, parivashi gulchehr,
Bay'ig'a mushtari aning yuz mehr.

Keldi bo'lmay safardin ozurda,
Guli issiq havoda pajmurda.

Shoh alarg'a ko'p aylab ehsonlar,
Oncha yuzkim, gumon etib onlar.

Hukm qildiki: «Sarvi ra'noni,
Olam ahlig'a sho'ru yag'moni

Harami xos aro tushursunlar,
Hujrai xos aro kiyursunlar».

Uylakim, shoh hukmi qildi zuhur,
Ravza ichra maqom tutti hur.

Hur chun ravzani maqom etti,
Xusrav oning sari xirom etti.

Qasri zarring'a zohir etti shitob,
Jismi betob, lek ko'nglida tob.

Ishqdin mastu, bodadin sarxush,
Kirdi ul uygakim, buti mahvash.

Topti jannatda qasri purziynat,
Qasr ichinda vale yana jannat.

Qaysi jannatki, huri ruhoni,
Demagil, hur, mehri nuroni.

Farqidin to qadam fusunu fireb,
Boshidin to ayog'i ziynatu zeb.

Yuzj yonida gisuyi mushkin,
Kelturub korvon nofai Chin.

Yo'qki, ul korvoni mushksirisht,
Manzil aylab fazoi bog'i bihisht.

Zulf yo'q, laylkim, ochib iki dom,
Lek har domi layldin bir lom.

Domi ostida lolau nasrin,
Tushub anda iki g'azolai Chin.

Ko'zi jayran, qarosi mushki Xo'tan,
Tomizib xoli mushkin ul jayran.

Nuqtai xoli rangi shomi visol,
Yuzining subhi nuqtasi ul xol.

Yuzi gulzoru iki lab anda,
Ikki gulbargi bul'ajab anda.

Har biri to'la shirai jondin,
Ezilib shira obi hayvondin.

Kimki, oni shakarfishon topibon,
Nechakim, o'lgan ersa, jon topibon.

Lablari ichra og'zi o'yla nuhuft,
Kim degaysen, bu la'l topmadi suft.

Turfaroq buki, so'zga chun ochilib,
Nukta o'rnig'a borcha dur sochilib.

La'l kim ko'rdi durfishon mundoq?
Gulda jon shirasi nihon mundoq?

La'lni qo'yki, jon bo'lub lab anga,
Jong'a nun davri tavqi g'abg'ab anga.

Jon yozar chog'da kotibi taqdir,
Nuni sig'may, quyi qilib tahrir.

Zaqani davri nun bo'lub ne ajab,
Nuqta ko'rguzsa ul chahi g'abg'ab.

Tishlari la'l ichinda rishtai dur,
Yoki hayvon suyi aro mo'ldur.

Qoshlari dayr toqidek payvast,
Toqlar ichra ikki kofiri mast.

Toqni qo'yki, anbarin mehrob.
Ustida xoli anbarina zubob.

Har qulog'ida durri raxshanda,
Ikki kavkab kibi duraxshanda.

Mehr atrofida makon aylab,
Fitna qilmoq uchun qiron aylab.

Dema qad, nozanin niholi bihisht,
Ruh sarmoyasidin anga sirisht.

Jilva qilmoqtakim, ravon ko'runub,
Ruhdin go'yiyo nishon ko'runub.

Belikim, rishtai xayol kelib,
Topmoq ul rishtani mahol kelib,

Torkim, yo'q kelib nazir ichra,
Yoshurub hullau harir ichra.

Kelib ulkim, harir gulnori,
Hulla oning yuzida zangori.

Bu gulu sabzakim, kelib zebo,
To'ni lekin binafshagun debo.

Ani tarsi' etib javohir ila,
Javhari ruhg'a mazohir ila.

To'ni rangi xiraddin olib hush,
Ruh javharlarig'a halqa bago'sh.

Hur! Yo'q-yo'q, ne hur, balki pari,
Ne pari, balkim ofati bashari.

Labi so'z derda eldin olib jon,
Lablarin chun ko'rub uyolib jon.

Ham labidin hayot no'shi oqib,
Ham ko'zidin ajal xadangi yog'ib.

Munchavu muncha yuz jamol bila,
Yana yuz g'anju yuz dalol bila.

Shahni chun ko'rdi: qo'pti sarvi sihi,
Shahig'a banda, banda anga shahi.

O'pti yer yuzi tuman niyoz bila,
Har niyozi sirishta noz bila.

Shah chu ko'rdi nigori zeboni,
Ondin o'z ko'ngli noshikeboni.

Surati qildi ko'nglini behol,
Oncha yuzkim, varaqdag'i timsol —

Ulki, kog'azda surati bejon,
Ne qo'yub erdi jism anga, ne jon.

Asl suratg'a boqa olg'aymu,
Boqsa dog'i o'zida qolg'aymu?

Hosilan, shoh topti chun komin,
Demagil komkim, Diloromin.

Xilvat erdi nechukki, matlubi,
Yona mahkumi amri mahbubi.

Ne dey o'zga, ne qildi pinhoni
Ki, topar ulki, fikr etar oni.

Naylayinkim, ne bo'ldi ul dam hol,
Yetmadi anda chun nasimi shamol.

Yor, mahvash, harif-oshiqu shah,
Qilganin bilmagan erur ablah.

Elga so'z der mahal bu yer-o'qdur,
Manga lek ul salohiyat yo'qdur.

XIV

*Mohi Zuhrajabinning nag'masi shahni zor qilg'oni va ko'ngli qushi
aning changi rishtalarig'a giriftor bo'lg'oni va changdek ko'nglin
aning g'ayridin xoli qilib, jon rishtalaridin fig'on tortqoni va aning
zaxmasi ilgidin, halki ilgi zaxmasidin joni rishtalarining fig'oni
dam-badam ortqoni*

Chun shahi komyobu komravo,
Topti ul nav' vasl birla navo.

Anga ish o'zga jomu rud erdi,
Bodai nob ila surud erdi.

Goh jannatmisol gulshan aro,
Qasri jannat namuna maskan aro

Soz etar erdi bazmi shohona,
Ravza ul hurdin parixona.

Sarvi gulrux jamolig'a shaydo,
Dam-badam hushu aqli nopaydo.

Sarv qad olsa erdi maydin kom,
Nastaranni chu aylabon gulfom

Chang olib torini tuzar erdi,
Lek jon rishtasin uzar erdi.

Demagil chang, soliki xamqad,
Changqadlar bila bo'lub hamqad.

Bo'lubon ul sulukdin muxbir,
Bosh quyiliqda bo'lmog'i zokir.

Yerdin olmay qadam, yurugali yo'l,
Lek o'lub soyiri maqomot ul.

Chun ibodatga qomatin xam etib,
Iki-uch yerda belni mahkam etib.

Dema solik, degil xarobotiy,
Savtidin dayr eli mubohoti.

Ko'rguzub dayr sori yo'l elga,
Necha zunnor bog'labon belga.

Har qachon un chekib, tarona tuzub,
Bazm aro nag'mai mug'ona tuzub.

Har qayon ul mug'ona nag'ma borib,
Elni, yo'q, dinki, aqldin chiqorib.

Yo'qki, qaqnusdurur namudori,
Kosasidin ajuba minqori.

Suqba minqori ichra sar-tosar
Ki, bo'lub anda torlarg'a guzar.

Tor ila nag'ma beadam bo'lubon,
Tor yo'q, nag'malarg'a mad bo'lubon.

Chunki har suqbadin chiqib bir lahn,
Bo'lubon pirsado yetinchi sahn.

Chunki qaqnusliq aylabon izhor,
O't solib olam ichra qaqnusvor.

Suqbadin lahni zorlar bilinib,
Sekribon o'tki, torlar bilinib.

Bo'yla qaqnusqa bu sifat tovus,
Hamnavolig' aro bo'lub ma'nus.

Garchi tovusdek jamoli aning,
Bulbul alhon ila maqoli aning.

Bulbul oso chekib chu ming daston,
Bo'lubon qaqnus anga hamdaston.

Ul navolardin o'rtanib olam,
Xossakim, bulbul o'lsa, gulrux ham.

Shoh Bahrom o'yla zori aning
Ki, yo'q onsiz dame qarori aning.

Ko'zin olmay liqosidin bir dam,
Qulog'in ham navosidin bir dam.

Ko'z yuzida, quloq navosinda,
Jon g'amida, ko'ngul havosinda.

Bo'lubon jonsiz, o'lmayin onsiz,
Onsiz o'lg'on zamon, bo'lub jonsiz.

Tunu kun lahni birla boda yutub,
Yuzidin bazmi ayshini yorutub.

Ko'rmasa oni qolmayin joni,
Kiribon joni ko'rgach-o'q oni.

May ichardin g'araz navosi aning,
Jilvai husni jonfizosi aning

Goh bo'stoni dilkusho ichra,
Qasru ayvoni jonfizo ichra

Shah tuzub bazm ul pari birla,
Charx xurshedi xovari birla.

Ul navo cheksa, bu fig'on tortib,
Ul chu ruxsor ochib, bu jon tortib.

Goh sahronavardu dashtxirom,
Ichibon saydning nishotig'a jom.

Onda ham hajrin ittifoq etmay,
Oyni o'zdin dame yiroq etmay.

Aslida ul g'azolai mushkin,
Chin fazosida erdi hajlanishin.

Ham Xo'tan dashtida maqom etgan,
Ham gulu sabzada xirom etgan.

Dasht uzra g'azoli mushkinbo',
Lolau sabza uzra qilg'on xo'.

Chun anga bu sifat shamoyil edi,
Dasht sayrig'a asru moyil edi.

Shahg'a xud dasht sori ish chopmoq,
Sayd qilmoq bila farah topmoq.

Ikkisi tab'ig'a muloyim sayr,
Bu jihatdin alarg'a doim sayr.

Sayr aro shahg'a sayd edi oyin,
Hamrahi mohro'yi mahdnishin.

Nechakim, shoh sayd etar erdi,
Shahni ul moh sayd etar erdi.

Qaysi bir saydkim, shah etsa halok,
Nag'maye tortib ul buti cholok —

Sho'ru g'avg'o jahong'a solur edi,
Bal shahi komrong'a solur edi.

Shavq o'ti ichra shohi ozoda,
Mahvashidin tilar edi boda

Ki, o'tin bu suv bila past etgay,
Shu'la ul suv bila nishast etgay.

May bo'lur erdi xud shararangez,
Shavqining shu'lasin qilur edi tez.

Nag'madin o'ti dam topar erdi,
Bodadin yog' ham topar erdi.

Chunki bu o't zabona tortar edi,
Nolai bexudona tortar edi.

Manzile topibon tutub orom,
Dilbari vaslidin topar edi kom.

Ne uchun hosil o'lmag'ay komi
Kimki, hamrohidur Diloromi.

Nechakim, komyob o'lub afzun,
Ko'ngliga iztirob o'lub afzun.

Vasl aro ko'ngli iztirob aylab,
Furqati xud ani xarob aylab.

Bo'yla mash'uf anga shahi oliy,
Vaslu hajrida bu edi holi.

O't solib jonig'a visoli oning,
Hajri yodi ne ehtimoli oning.

Yori ul erdiyu anisi ham ul,
Hamrahi ul erdiyu jalisi ham ul.

O'yla xo'y etti oy jamoli bila,
Bo'ldi mash'uf aning visoli bila

Ki, dame onsizin halok erdi,
Yoqa o'rnig'a ko'ksi chok erdi.

Ish anga yettikim, bu yanglig' shoh,
Mulk ishidin emas edi ogoh.

Boqmoyin mulk ila sipoh sori,
Qilmoyin mayl dodxoh sori.

O'tti uch-to'rt yil bu holat ila,
Holatidin ulus malolat ila.

El bu ishdin shikoyat aylar edi,
Har kishi bir hikoyat aylar edi.

Ishq ila kimki, oshno bo'ldi,
Ofiyat mulkidin jalo bo'ldi.

Ishq xayli chu turktoz etgay,
Farq shohu gadoda oz etgay.

Sarsari ishq chun yetar bebok.
Tengdur uchmog'da tog' ila xoshok.

Ishq seli yiqorda koshona,
Tengdur obod birla vayrona.

Mo'r etar topsa ajdaho yanglig',
Shohni zor etar gado yanglig'.

Hosil ul nav' shohi olamgir,
Ishq xaylig'a o'yla bo'ldi asir

Kim, chiqib dudlar nihodidin,
Chiqti mulku sipoh yodidin.

Ishi ul oy bila xirom etmak,
Har zamon o'zga yer maqom etmak.

Sayd etih aylamak ani dilxush,
Toki ul cheksa nag'mai dilkash.

Sabab o'lg'ay tarabg'a omoda,
Ichgay ul husnu un bila boda.

Bodakim, olsa ixtiyor eldin,
Ne ajab chiqsa, har ne bor eldin.

Ishq ham mayg'a aylasa imdod,
Tong emas borsa, boru yo'q barbod.

*Bahromning ishq to'foni tug'yonidin bexirad va may o'ti harorati
g'alayonidin bexud bo'lg'oni va o'z g'azoli sherafkaniga g'azol otqonida
tahsin qilmag'ondin ohugirlik hoshlag'oni va domg'a herkigan kiyikdek,
ani o'z kamandig'a berkitib, kiyiklar kunomida toshlag'oni*

Shahg'akim, bo'lmish erdi oshiqu mast,
Bul'ajab iki ish berib edi dast.

Shah chu ul lahv ila bo'lub mash'uf,
Ishidan topmas erdi hech vuquf.

Mulk ishi zabtu rabtsiz bo'ldi,
Saltanat amri zabtsiz bo'ldi.

Qilmadi shah chu dodxohni yod,
El ilik sundi qilg'ali bedod.

Mulk chun shoh adlidin qoldi,
Qildi harkim nekim qila oldi.

Ham qalamzan tushub havola aro,
Bo'lubon xalq ro'zgori qaro.

Ham qaroqchi uzotti har sori qo'l,
Band bo'ldi alar qo'lidin yo'l.

Chekti g'avg'o baland bodaparast,
Bo'ldi mu'zin bila imom uni past.

So'fi ibriqig'a xalal bo'ldi,
Boda tungi bila badal bo'ldi.

Qurtdek bo'ri hirla to'ldi yobon,
Dema qo'y, balki tu'ma bo'ldi shubon.

Bir necha mahrami tilab xilvat,
Qildilar arz shahg'a bu holat

Ki, xaloyiqda qiylu qol nedur,
Mulk birla ulusqa hol nedur.

Shah chu bildi, taammul etti base,
Ishga chora taxayyul etti base.

Lek oshiq ishiga ne chora,
Ishq etar ul elni bechora.

Ne ul oysiz anga qaror erdi,
Ne iliginda ixtiyor erdi.

Bildikim, mulk ishi xarob o'lmish,
Mulk eli holi iztirob o'lmish.

Ishqdin garchi xastahol erdi,
Lek ko'nglida bu xayol erdi

Ki, ne nav' ishga aylagay tadbir
Ki, bu tavig'a aylagay tag'yir.

Mulkdin yo'q guzir anga hosil,
Yordin xud guzir erur mushkil.

Lek ko'ngli chu behuzur erdi,
Anda har lahza bu xutur erdi

Ki: «Agar bo'lsa shohlig' boqiy,
Topilur bo'yla mohvash soqiy.

Buki, vaslini topmisham payvast,
Shahlig' o'lmasa, bermas erdi dast.

Mulk eli bo'lmasa, ne ul bordur,
Ne tiriklik uyiga yo'l bordur.

Lek to bo'lg'usidur ul mavjud,
Ne aning g'ayridur erur nobud.

Ikkisini kim desa qiloyin jam',
Shusha muzdin degay yosoymen sham'.

Ko'ngli chun mulk ila xizona tilab,
Ishq tark etgali bahona tilab.

Ishq ila shohlig' muvofiq emas,
Ishq lofida shoh sodiq emas.

Ishq uchun bedile kerak foni,
O'rtagan shavq shu'lasi oni.

Kavn aro navbati fano urg'on,
Ikki olamg'a pushti po urg'on.

Jon berib yori muddaosi uchun,
Balki yuz jon aning rizosi uchun.

Vaqf etib dilbarig'a jon mulkin,
Sadqa aylab iki jahon mulkin.

Shohkim, mulk ocharni qilsa nasaq,
Yuz tuman qon to'kar bari nohaq.

Oshiq o'lg'onki kechmagay jondin,
Ishq behad yiroqdurur ondin.

Shoh, alqissa, bu taxayyul ila,
Aysh aylar edi taammul ila.

Ishi doim shikori birla edi,
Chopmog'i o'z qarori birla edi.

Ichibon yor ilgidin mayi nob,
Saltanat fikridin vale xunob.

Bir kun ov ichra shoh edi sarxush,
Yonida erdi ul buti mahvash.

Ko'rdi ra'no g'azoli chobukxez,
Sur'ati ko'k g'azoli yanglig' tez.

Shah o'q otmoqqa o'yla qodir edi,
Sayd urmoqqa o'yla mohir edi

Kim, ne nav' o'lsa elga rag'batu tav',
O'lturur erdi saydni ul nav'.

Qoy tugin saydning nishona qilib,
O'qi ul yerni oshyona qilib.

Dedi gulruxqa: «K-ey pari tal'at,
Bu g'azoliki ko'rguzur sur'at.

Ne yeriga desang xadang urayin,
Ul sifatkim buyursang, o'lturayin».

Sho'xning tab'iida chu diqqat edi,
Ramz ila nuktai daqiq dedi

Ki: «Burun sol iki qo'lig'a shikol,
O'ylakim, turg'ay o'z yerida g'azol.

So'ngra otmoqqa yaxshi ko'zla ani,
Ham yiroqtin turub bo'g'uzla ani».

Shah chu bildi sanam tamannosin,
Topti filhol aning muammosin.

Demadi nozanin hadisini yo'q,
Chekti ul sadoqdin inichka o'q.

Sayd sori chekib, darang bila,
Tikti ikki qo'lin xadang bila

Kim, ul o'q o'tmadi yarosidin,
Teri birla so'ngak arosidin.

Chunki bo'ldi g'azol qo'llari band,
Yoyig'a kaybur ayladi payvand.

Urdu ul nav' bo'g'zig'a oni
Ki, kesildiyo oqti ham qoni.

Ne xayoleki, aylab erdi moh,
Borisini bajo keturdi shoh.

Qildi bir ishki, kimsa bermas yod,
Kimsa yo'qkim, sipehri ko'hnanihod.

Shah chu ko'rguzdi ishda bu oyin,
Tama' etti nigoridin tahsin.

Anga chun husndin bor erdi g'ino,
Keldi husn iqtizosi istig'no:

Shah duosig'a chekmadi tilini,
O'pmadi shohi komron ilini.

Dedi: «Har, kim bir ishni varzish etar,
Ish kamolini ko'r, ne yerga yetar!».

Demadi shohniki: «Yetting xo'b»,
Ishni idmong'a ayladi mansub.

Sho'x hu nukta aylagach taqrir,
Shah mizojig'a topti yo'l tag'yir.

Qoshining yosi uzra soldi gireh
Kim, pari chehradin eshitmadi: «Zeh!»

Sho'x ko'rdiki, shah itob etti,
Dedi, isloh etay, xarob etti.

Dedikim: «Shahg'a ne itobdurur
Kim, bu so'z kim dedim, savobdurur.

Menki, bir nag'masoz qilsam chang,
Ruh chiqmoq sari qilur ohang.

Yo'q edi bu muloyamat birla,
Munga yetti mudovamat birla.

Shohkim, bir kiyikka urdi xadang,
Desam idmonni ishga keldi batang».

Shahki ismoi bu maqol etti,
G'azabi o'ti ishtirol etti.

Ikki qattiq hadis eshitti ajab,
Ixtiyorin ilikdin oldi g'azab.

Shohkim qahri o'lsa mustavli,
Ul diyor ichra bo'lmamoq avli.

Saltanat g'ayrati chu zo'r etti,
Lutfu ehson ko'zini ko'r etti.

Istadi qatl aylamak oni,
Kesmak ozod sarvi ra'noni.

Dedi ba'zi: «Bu nav' dilkash emas,
Zuafo qatli tig' ila xush emas»

Dedikim, necha xorij andesha,
Qatl alarg'a hunar nekim pesha.

Mahddin oyni chiqordilar,
Bir biyobong'a elta bordilar.

Har giyohi aning nechukkim o'q,
Davrida necha kunchilik suv yo'q.

Jonvar umrini qilurg'a taboh,
Butmay anda bag'ayri zahr giyoh.

Ikki gisusidin kamand aylab,
Tashladilar g'ulula band aylab.

Gisusikim, ulusqa erdi kamand,
Oqibat bo'ldi o'z halokiga band.

Yonibon surdilar vatan sori,
Keldilar shohi javrfan sori.

Shahki bu dahshat ayladi ul dam,
Bexud erdi mayu g'azabdin ham.

Ul kun oqshomg'a tegru ichti may,
G'azabi ortar erdi paydar-pay.

Shomkim, bodadin xarob o'ldi,
Masti may, balki masti xob o'ldi.

Subh roh istab etti mayli sabuh,
Yonidin g'oyib erdi rohati ruh.

So'rdikim: «Mohvash qayon ketmish?»
Bexabarkim, ne shohkor etmish.

Dedilar qilg'anin necha mahram,
Tiyra bo'ldi anga yorug' olam.

Quyi solib boshini fikr etti,
Qilgani borcha ko'ngliga yetti.

Bildikim, qahr sarsari esmish,
O'z qo'li birla o'z boshin kesmish.

Dedi: «Ushbu zamon o'zum borayin,
Ul biyobonni bir-bir oxtarayin.

Qayda bo'lsa topay nigorimni,
Qilayin sadqa joni zorimni.

Tirik o'lsa, bo'lay fidosi aning,
Beribon jon topay rizosi aning.

O'lgan o'lsa, o'zumdga tig' urayin,
Diyatig'a o'zumni o'lturayin».

Qo'ymadi toju taxt nomusi,
Aylamakka o'luk zaminbo'si.

Topmas erdi xirad dalolati ham,
Moni' erdi ulus xijolati ham.

Chun mumayyiz xirad qilur erdi,
Xirad ul ishni rad qilur erdi.

Xotiri topmayin xiradqa rusux,
Ishq aylar edi ani mansux.

Joni ikki balo arosinda,
Mo'r ikki ajdaho arosinda.

Ne o'luk erdi, ne tirik soni,
Bo'lmas erdi tirik demak oni.

XVI

*Bahromning g'azab mastlig'idin hushyor va g'aflat uyqusidin bedor
bo'lub, ul oshufta tushlardin parishon, balki uyg'oqliqda qilg'onlaridin
pushmon bo'lg'oni va mushkbo' g'azolin istay biyobong'a o'zi ketib,
ani topmay, o'zidin ketgoni*

Qildi Bahrom chun bu yanglig' ish,
Yig'lag'u yo'qki, kulgu yanglig' ish.

O'zida ikki kungacha yo'q edi,
Ko'nglida shu'la, jonida o'q edi.

Keldi holig'a chun uchunchi kun,
Ko'rdi umri yorug' kunin qora tun.

Ishq xaylu sipohi aylab zo'r,
Ko'ngli mulkiga soldi g'orati G'o'r.

Tama' o'z mulkin ayladi obod,
Ko'ngli mulkin ham ayladi barbod.

Bahr aro tojir istar erdi sud,
G'arq o'lub bo'ldi moya ham nobud.

Bog'bon meva ko'p qilib edi kom,
Jola shoxin dog'i ushotti tamom.

Tushti oning ichiga andoq barq
Kim, vujudin o't ichra ayladi g'arq.

Tojig'a la'l shavqi o'lturdi,
Charx boshig'a xora yog'durdi.

Mulki hifzig'a chekti tig'i halok,
Ko'ksin ul tig' birla ayladi chok.

Istadi surma aylabon ta'jil,
Surmai charx chekti ko'ziga mil.

Chunki nazzora qildi o'z ishiga,
Ko'rdi holeki, bo'lmasun kishiga,

Zor jismida yuz shikan tushti,
Xasta ko'ngliga ming tikan tushti

Joni tandin to'yub, tani jondin,
Ko'ngli ranjur mundinu ondin.

Zol charxi kibi tani buzulub,
Rishtai joni toridek uzulub.

Charx ajzosidek fig'on qilibon,
So'ngogi bir-biridin ayrilibon.

Hajrdin jon chu og'zig'a yetti,
Qo'pti beixtiyoru azm etti.

Ul navohig'a tegru qildi shitob
Ki, sumanbarg'a qilmish erdi itob

Kim, bor ersa hayoti imkoni,
Bo'lg'ay ul ruhga fido joni.

O'lukin topsa motamin tutqay,
Un chekib navhai g'amin tutqay.

Ko'tarib zor sarvi cholokin,
Solibon mahd aro tani pokin,

Navhadin ko'nglin aylasa xoli,
O'zin o'lturgay ustiga holi.

Yori xilvatgahig'a xos o'lg'ay,
Furqatidin o'lub xalos o'lg'ay.

Har necha kezdi dashtu sahroni,
Topmadi zod sarvi ra'noni.

Sarvg'a jilvagah gulistondur,
Xossa sarveki, norpistondur.

Ne tilar sarv dashtu vodiy aro,
Sarv o'lur bo'ston savodi aro.

Ani topmoqdin o'ldi chun ma'yus,
Yuzga urdi taponcha, o'ylaki ko's.

Chekti nav'i g'irev ila faryod
Kim, chu Shirinni topmag'ay Farhod.

Tushti yerga marizi bedildek,
Tolpinib saydi nim bismildek.

Oncha qon yoshini ravon qildi
Ki, falakning ichini qon qildi.

Dedi: «O'z jonima ne qildim, voy!
Bo'lurin bo'yla ish ne bildim, voy!

Kim o'zi ko'ksin o'zi chok etgay,
O'zi jonin o'zi halok etgay!?

Ulcha men qildim, aylagaymu kishi,
Bu ish ermas edi kishining ishi!

Kimsa bo'g'zig'a tig' surgaymu,
Umr sham'in pulab o'churgaymu?

Jon uchun jismi notavong'a evaz
Aylasam, jism o'lurmu jong'a evaz?

Qilmasam ham tanimni yuz pora,
O'ladurmen, ne nav' etay chora!?

O'zni o'lturmasam o'larmen lo!
Kimga tushti jahonda bo'yla balo!?

Manga ne qilding, ey sipehr, oxir,
Yo'q emish senda zarra mehr, oxir!

Mehrsizlik ishim aro qilding,
Ro'zgorim yuzin qaro qilding.

Mehrdin senda bo'lsa erdi nishon,
Ko'zum o'lmas edi sitorafishon.

Senda chun mehr yo'q edi mavjud,
Mehrchehrimni aylading nobud.

Ashkim anjum masallik oqturdung,
Davlatim mehrini uyoqturdung.

Mehri iqbolim o'ldi yerga nihon,
Jonim olg'ilki, yer quyi bu jahon.

Naylayin bu jahonni jonsiz men?
Bal jahon birla jonni onsiz men?

Joni olg'ilki, to'ymisham, billoh!
Ko'ngul o'lmakka qo'ymisham, billoh!

Jonni naylay jahonda jononsiz!?
Jonim onsiz tanedurur jonsiz!

Tanki jonsizdurur netay oni?
Yer quyi tanki, bo'lmag'ay joni!»

Dasht aro bo'yla erdi osho'bi,
Joni g'am xaylining lagadko'bi

Taxt ila mulk yodidin ketti,
Vahshdek dasht aro maqom etti.

Yo'q edi shahru mulkdin ogoh,
Bodiya ichra etti manzilgoh.

Ul biyobon ichinda afg'onda,
Balki bir shahr eli biyobonda.

Ko'rgach elkim, anga taab tushti,
Tushti ish, lek bas ajab tushti.

Qo'ydilar borcha vodiya maskan,
Shohdek dasht alarg'a bo'ldi vatan.

Yuz yoshurg'och quyosh Diloromi,
Sochti ashkin sipehr Bahromi.

Tiyralikdin falak topib ozor,
Hajr shomi nechukki, oshiqi zor.

Shoh Bahromg'a tun ayladi zo'r,
Ko'ziga olam o'ldi o'ylaki go'r.

Qaro qayg'u bila qolib g'am aro,
Ko'rdi o'zni g'arib olam aro.

Dema olam, firoq zulmoti,
Shomi hijron kelib, aning oti.

Bari olam yuzin tutub zulmot,
Lek mumkin yo'q anda obi hayot.

Ming Xizr anda gar makon aylab,
Borisig'a haloki jon aylab.

Bo'lubon charx javfi qiyrandud,
Elga aylab nafas yo'lin masdud.

Dam yo'li chun tutuldi qiyr ila pok,
Ne ajab anda Xizr bo'lsa halok.

Balki zulmat emas edi ul tun,
Hajr o'tidin tutub jahonni tutun.

Furqat o'ti chu jon aro bo'lg'ay,
Dudi birla jahon qaro bo'lg'ay.

Hajr o'tig'a chu istasang hema,
Zor tanlardin o'zga yo'q nima.

O'tki, oshiq tani erur o'tuni,
Tong yo'q ar oshiq o'lturur tutuni.

Ne ajab o'tki, tanni kuydurgay,
Dudi bog'lab nafasni, o'lturgay.

Hajr aro ul chu muftalo bo'ldi,
Buyla tun jonig'a balo bo'ldi.

Garchi tun bo'ldi xalq aro parda,
Tiktillar oq uyu saroparda.

Surdilar tegradin ulusni yiroq,
Xosiyat bo'yla berdi shomi firoq.

Mutahayyir bo'lub ulus hori,
Har biri go'sha tutti bir sori.

Borcha maxsuslar ko'zi to'la yosh,
Soyir el fikr ila solib quyi bosh.

Ul dedi: «Dev aning yo'lin urmish»,
Bu debonkim: «Paridin o'ldi bu ish».

Har biri aytibon bir afsona,
Bo'lub ul o'rta yerda devona.

Oqibat zohir etti bu qayg'u,
Qayg'ulug'lar ko'zi aro uyqu.

Qoldi Bahrom pechu tob ichra,
Furqat o'tidin iztirob ichra.

XVII

Hajr shomi tulining imtidodi va savodining bedodi va ul shomda Bahrom joniga anduh xaylining shahixunlari yetmak va ul shahixun ahlining jon va ko'nglin asir etmak va ul asirona navha bila o'zidin ketmak va arkoni davlati halo dashtidan ani davo shahri sori eltgontari

Shoh Bahrom qildi chun ul shom,
Go'rlar jilvagohi ichra maqom.

Go'rdek tiyra erdi dayri kuhun,
Charx ul tiyralikda besaru bun.

Shahg'a hajr o'ti ul sifat tutoshib
Kim, aning dudi yetti ko'ktin oshib.

Charxdek tiyra, dog'i sargashta,
Qon yoshig'a shafaqdin og'ushta.

Zohir aylab sirishki seli halok,
Ko'zidin eltib uyqu xaylin pok.

Jonidin hajr o'ti zabona urub,
Necha ashki o'chursa yona urub.

Ishq o'tikim, ko'nguldin oldi farog',
Ashk ul o'tqadur – suv o'rnig'a yog'.

Anga ul o't ham erdi xayli balo,
Ham ko'zi yog'i erdi seli balo.

Ko'ngli mulkiga g'am hujum etti,
Balki toroji marzu bum etti.

Nechakim oshti beqarorlig'i,
Yetmadi hech kimsa yorlig'i.

Yor hajri chu tiyra qilsa mizoj,
Hech yor aylamas ul ishga iloj.

Kirdi bir xilvat uyga pinhoni
Kim, malul erdi xalqdin joni:

Ichkaridin eshikni bog'ladi tez,
Yondiyu zohir etti rustoxez.

Oncha chekti fig'onu vovaylo
Kim, jahoni ichra tushti shayni balo.

Urub avval yaqosin ayladi chok,
Tang'a urdi taponchai bebok.

Bori uzvig'a zulm ko'rguzdi,
Qaysi uzvinki tishladi – uzdi.

Oncha yerlarga urdi boshini rust
Kim, sari mo' yo'q erdi anda durust.

Boshini baski, ayladi pora,
Har tuki soyu bo'ldi bir yora.

Dard xoki tanini gard etti,
Gardni qo'yki, ko'hi dard etti.

Tanidin baski, uzdi pargola,
Dard bog'ida ochti yuz lola.

Tun yorimig'a tegru bu edi ish,
Uzar erdi urub tani uza tish.

Ul qadar chekti nolau faryod,
O'ziga oncha ayladi bedod

Kim, tani sustoyib, qo'li toldi,
Hajr jismig'a sustlug' soldi.

Tolpinurdin chu bo'ldi oromi,
Soldi jonig'a o't Diloromi.

Dard ila navha ayladi og'oz,
Yor yodi bila bo'lub hamroz.

Boshig'a solib ul qaro gisu,
Har tuki soyu bir qaro qayg'u.

Ul xayol ichra pechu toh urubon.
Charx jismig'a yuz tanob urubon.

Qoshining shavqidin qadi xam o'lub,
Za'f ichinda hiloldin kam o'lub.

Tanin aylab hiloldek xasta,
Aning ikki hiloli payvasta.

Ko'zining jayranin nazarda ko'rub,
Ko'ngli dashtida yuz qulon yugurub.

Ul kiyikdin chu qolmayin joni.
Charx Bahromi Go'r deyib oni.

Kirpiki yo'qkim, ul sifat hindu,
Sonchibon bag'ri ichra yuz mo'ndu.

Har biri chunki yuz yaro aylab,
Dudi ohi yuzin qaro aylab.

Orazi yodidin chu tortib voy,
Oʻrtanib koʻkda ham quyosh, ham oy.

Oqizib koʻzdin oncha gulgun yosh
Kim, shafaq ichra qolib oyu quyosh.

Xoli boʻlgʻon uchun nazardin gum,
Qolmayin koʻzlari aro mardum.

Ul chibin chun koʻzini aylab koʻr,
Koʻnglining zaxmi ichra solib shoʻr.

Lablari shavqidin chiqib joni,
Laʼl etib dashtni koʻzi qoni.

Laʼl yoʻqkim, aqiqu marjon ham,
Koʻngul ondin topib zarar, jon ham.

Ogʻzidin zarra aylamay maʼlum,
Koʻzga andoqki nuqtai mavhum.

Hech yoʻq yerda yuz tavahhum etib,
Adam ichra vujudini gum etib.

Tishi naqshiki keldi rishtai dur,
Koʻzidin durdek oqizib moʻldur.

Umri boshigʻa yogʻdurub bu tagarg,
Moʻldur oʻrnigʻa borcha jolai marg.

Aylabon chun tarannumi yodin,
Chekib andoq figʻonu faryodin

Ki, unin harkim istimoʻ qilib,
Alloh-Alloh, oʻlub yana tirilib.

Sogʻinib chun chohi zanaxdonin,
Chekibon borcha rishtai jonin

Kim, erur koʻngli iztirob bila,
Tortqoy oni bu tanob bila.

Qadi fikrida chunki poʻya urub,
Oh oʻtidin niholi umri qurub.

Unutub sarvi boʻstonni dogʻi,
Sarv yoʻq, ruh ila ravonni dogʻi.

Beli torini chun xayol qilib,
Jismini ul xayol nol qilib.

Badani noldek boʻlub bejon,
Koʻziga nol afʼiyi pechon.

Solibon siym jismi ko'ngliga tob,
Siymgun ashkini qilib siymob.

Siymdek ashk ko'zi fosh aylab,
Bori olamg'a siymposh aylab.

Changining hay'atin sog'ingan dam,
Egri qaddin fig'oni aylab xam.

Dilkash istab bu egri afg'oni,
Tor o'lub anda rishtai joni.

Har zamon ko'ngli bir havo qilibon,
Changdek o'zga bir navo qilibon.

Lek o'z holig'a navo topmay,
Dard topib, vale davo topmay.

Za'fi ortib hadu gumondin ham,
Dardi ishq fuzunroq ondin ham.

Ko'zi qon to'kmak ichra qonmay hech,
O'zi holin o'zi inonmay hech.

Debki: «Yo Rab, ne holat erkin bu!
Ne tunganmas malolat erkin bu!

Menmudurmenki, chunki qildim zo'r,
Ajdaho savlatimdin o'ldi mo'r.

Emdi ishq ajdahosi zo'r etti,
Ajdahokush tanimni mo'r etti.

Menmudurmenki, zohir etgach kin,
Ojizim bo'ldi ikki sheri arin!

Dard ila hajar qilg'och arslonlik,
Mush o'lubman, vale yarim jonlik.

Menmudurmenki, razm chun tuzdum,
Chin sipohini yolg'uzun buzdum.

Ishq chun razmu kin shior etti,
Xayli sabrimni torumor etti.

Menda bor erdi aql ham, din ham,
G'amda toqat, haloda tamkin ham.

Ne balo ishq boshima soldi
Kim, sarosar bu xayl qo'zg'oldi.

Oh o'tidin tutunnimu aytay!
Yo'qsa, bu tiyra tunnimu aytay?!

Kim ko'rubtur kecha bu yanglig' uzun,
G'am kunidin qarolig' ichra fuzun?

Ham qaro, ham uzunu ham dilband,
Mahvashim sochidin kelib monand.

Munda men, anda notavon ko'nglum,
Munda men zoru anda qon ko'nglum.

Men dag'i garchi qonda bo'lg'ay edim,
Kosh ko'nglumdek onda bo'lg'ay edim!

Meni bu kecha muztar aylabdur,
Zor ko'nglumni abtar aylabdur.

Go'rdek tun erur qarong'u manga,
Bo'lsa ne erdi so'ngg'i uyqu manga.

Charx qatlimg'a tig'i kin oldi,
Go'r ichiga tiriklay-o'q soldi.

Kosh, tig'in boshimg'a sursa edi,
Boshni tandin urub tushursa edi.

Qavmu xayliki bandam erdinglar,
Ne desam sarfikandam erdinglar.

Borchag'a ne'matim haqi bordur,
Bu sifat yuz haqim taqi bordur.

Xidmatim ichra lof urar edingiz,
Lofi razmu masof urar edingiz!

Qilichingiz usholdimu oxir!
Ilgingiz toshqa qoldimu oxir!

Meni yuz ming halo aro ko'rmang,
Har zamon o'lmagim ravo ko'rmang.

Fig' ila ko'kragimni chok aylang,
Bir-iki zarb ila halok aylang.

Qutqoring joni notavonimni,
Bihil ettim borig'a qonimni.

Demayinkim, bihildurur qonim,
Muzd bergaymen o'lsa yuz jonim.

Yorliq qayda ketti, yoronlar!?
Yo'q musulmonliq, ey musulmonlar!

O'turub g'avrima yeting oxir!
Ming o'lumdin xalos eting oxir!»

Ishi to subh navha qilmoq edi,
Qonu tuproq aro yiqilmoq edi.

Tong qushi chun sahar ko'tardi xurush,
Za'f qildiyo ketti andin hush.

Eltti o'zidin o'yla za'f oni
Ki, gumon etki, yo'qturur joni.

Charx chun qildi bo'yla ish angez,
Tushti har yon el ichra rustoxez.

Shohlarkim, anga mulozim edi,
Qullug'i borchasig'a lozim edi.

Yana beklar nekim, kichiku uluq,
Bori boshi yalang, saqoli yuluq.

Qildilar beqarorliq behad,
Har biri so'gvorliq behad.

Ko'rdilarkim, jaza'da yo'qtur sud,
Mundin isli chorasi emas mavjud.

Oqibat majmaye tuzottilar,
So'zni har nuktada uzottilar.

Roy oxir bu ishga tutti qaror
Kim, davo birla past o'lur bu sharor.

Ul davo dasht aro munosib emas,
Hukamo bu havoni xo'b demas.

Bo'ldilar chun bu nav' nuktasaro,
Soldilar shohni mahofa aro.

Dashtdin shahr sori surdilar,
Shahni gulshan aro tushurdilar.

Shomg'a tegru yo'q edi hushi,
Ko'nglida o'ti, jismida jo'shi.

Taxt chun bo'ldi shohdin xoli,
Fitnadin xoli o'lmas el holi.

XVIII

Bahromning o'z parivashi hajridin devona bo'lg'oni va hukamo aning oshufta dimog'i tanqiyasig'a ishtig'ol ko'rguzub, mumtad zamonlar

*muolaja asbobin tuzub, ko'p zahmatlar bila aning oz nima o'ziga
kelgoni va savdosi daf'ig'a tamosho uchun yetti iqlim salotinining yetti
qasr bino qilg'onlari*

Shoh chun taxti uzra topti maqom
Xiradu hushi yo'q edi to shom.

Jismin aylab edi o'lukdek baxt,
Taxta yanglig' bo'lub edi anga taxt.

Kimki, taxt uzra ayladi ma'man,
Taxtadur oqibat anga maskan.

Chunkim ul kunga shom bo'ldi qarın,
Yoydi tun xayli pardai mushkin.

Mushk isi soldi shoh mag'zig'a hush,
Ko'zin ochtiyu bir dam erdi xamush.

Yana chun keldi yodig'a yori,
Yetti gardung'a nolau zori.

Yana bunyod qildi sho'ru shag'ab,
Oshurub ko'ktin oh ila yo Rab.

Charx toqi aro fig'on soldi,
Xayli anjumg'a qo'zg'olon soldi.

Chekti gardung'a nolai jonkoh,
Tikti anjum ko'ziga novaki oh.

Burnog'i tuncha yuz xaroblig'i,
Mehnat o'ti uza kaboblig'i.

Ohi yelig'a charx sovrulubon,
O'zi hijron o'tig'a qovrulubon.

Tongg'acha bu edi anga ahvol,
Tong yeli qildi jismini behol.

Yana to shom hushi zoyil edi,
Jismi har dam o'larga moyil edi.

Necha kun chun bu nav' erdi xaroh,
Qo'ymadi iztirob – jismida tob.

Ishq muhlik, firoq edi zolim,
Jism ila aqli qolmadi solim.

Sihat oning mizojidi ketti,
Tori jismi uzulgali yetti.

Soldi savdo dimog'i ichra xalal,
Aqlu hushi junung'a bo'ldi badal.

Bir zamon o'zda, o'n zamon bexud,
Ne salomat mizojida, ne xirad.

Qolmadi chun tan ichra tobi aning,
Bordi oshubu iztirobi aning.

Zo'ri afg'on qilurg'a yetmas edi,
Unini balki el eshitmas edi.

Gah-gahi cheksa erdi nolai zor,
Jismi zori topar edi ozor.

So'zi ichra yo'q erdi hush asari,
Yo'q edi o'z degonidin xabari.

Xaylida kimda-kim bor erdi bilik,
Borcha yig'lab, yuvdilar ondin ilik.

Qilibon ul balog'a chora tama',
Aylab arkoni davlati majma'.

Hukamo borcha ilm aro mohir,
Ulcha taxtida erdilar hozir.

To'rt yuz erdi borchasig'a adad,
Har biri ojizi hakimi xirad.

Borini hozir ettilar bir-bir,
So'zni bu nav' qildilar taqdir.

Kim: «Shahi komron necha yil erur
Kim, boringizg'a ulcha kom berur.

Barcha mamnuni minnatidursiz,
Tarbiyatyobi ne'matidursiz.

Bu navozishlaru inoyatlar,
Borchangizg'a o'kush rioyatlar.

Oning uchun ediki nogohe,
Charxdin yetsa dardi jonkohe,

Daf'i ranji mizoj qilg'aysiz,
Marazig'a iloj qilg'aysiz.

Emdi ul kun yetibdurur bilingiz,
Ne qila olur ersangiz qilingiz!

Muncha elgaki shoh etar shafqat,
Bordurur har biriga bir xidmat.

Qilsa erdi adusi tugʻyonlar,
Biz fido aylagay eduk jonlar.

Razmu kin oshkor qilgʻay eduk,
Jonimizni nisor qilgʻay eduk.

Oʻzni ul ishda to erur maqdur,
Shammae tutmagʻay eduk maʻzur.

Lek mundogʻ marazki voqeʻdur,
Sizga oning iloji rojeʻdur».

Hikmat ahligʻa boʻldi chun bu xitob.
Dedilar fikr birla boʻyla javob

Kim: «Bu soʻzlarki dedingiz, chindur,
Borchasigʻa mahalli tahsindur.

Lek ishq ichra zaʻf topsa kishi
Dafʻi oning emas hakim ishi.

Ishq oʻti kimni aylasa mahrur,
Aylamas dafʻ xirfa, bal kofur.

Har koʻngul ichra solsa ishq oʻti tob,
Kerak ul bahri vasldin serob.

Boʻlsa tabʻ ichra xiltdin illat,
Moddiy boʻlsa har nechuk zahmat,

Bizga ishdur anga iloj etmak,
Tib ila sihhati mizoj etmak.

Lek bu zaʻf ishqdindur, bas —
Ishq oʻtdur, bizning muolaja — xas.

Necha bu navʻ boʻlsa saʻy etali,
Choraning toru pudigʻa yetali.

Ulcha imkoni bor etib tadbir,
Qilmoli jiddu jahd aro taqsir.

Bori maqsud erur bukim, Maʻbud,
Bergay oning mizojigʻa behbud.

Xiradigʻa yetib salomat ham,
Tabʻigʻa kirgay istiqomat ham».

Hukamo chun qilib bu navʻ qabul,
Boʻldilar shah ilojigʻa mashgʻul.

Chora topmoqqa jozim erdilar,
Kecha-kunduz mulozim erdilar.

Yuz kishiga ibodat o'ldi ruju',
Tun ila kun niyoz birla xushu'.

Sihhati zotig'a duo qilmoq,
Sadqayu nazrlar ado qilmoq.

Yuz kishi qildilar yana ohang
Aylamakka fusun ila nayrang —

Solibon daf'i jin qilurg'a navid,
O'qubon ruqya, yozibon ta'vid.

Yuz kishi safhag'a nazar aylab,
Tajriba sori ham guzar aylab.

Ham tavajjuh, ham ijtihod qilib,
Aylab oning ilojin, ulcha bilib.

Yana yuz udso'zu laxlaxasoz,
Aklu shurb ichra ulcha bo'lsa niyoz.

Ne iloj ichrakim kerak asbob,
Aylab oning tahiyasig'a shitob.

Bu sifat to'rt yuz xujastazamir,
Rub'i maskunda yo'q biriga nazir.

Ikki yil tarki xo'rdu xob aylab
Ish saranjomig'a shitob aylab.

Qildilar onchakim shahi bedil,
Juzve sihat ayladi hosil.

Qildilar ko'p iloji ichra fusun
Kim, anga kamrak o'ldi za'fu junun.

Jismig'a ham g'izodin o'ldi madad,
Ham dimog'ig'a kirdi nuri xirad.

Topti chun bu qadar shifo ranjur,
Hukamo bo'yla qildilar mazkur

Kim: «Kerak qilmoq o'yla ish paydo
Kim, ul ish bo'lsa dofi savdo:

Biri ul jumladin, imorat erur
Ki, tamoshosi ko'p natija berur.

Tarh qilsa muhandisi mohir,
Har zamon o'zga shakl etar zohir.

Har kishi g'olib o'lsa savdosi,
Daf'i savdo qilur tamoshosi.

Aylab arkoni davlat ishga shitob,
Bo'ldi omoda ne kerak asbob.

Yetti iqlim xonu xoqoni
Anglabon shahda za'fi jismoni.

Chun bor erdilar anga tobe' xayl,
Borcha aylab mulozamat sori mayl

Qo'ymish erdilar ostonig'a yuz,
Aylabon qullug'in kecha-kunduz.

Angakim sa'b ho'lsa kelmak ishi,
Evaziga yibormish erdi kishi.

Ini yanglig' va yo o'g'ul yanglig',
Shahg'a xidmat qilurg'a qul yanglig'.

Bo'yla yetti shahi rafe' makon,
Qullug'in aylab onchakim imkon,

Bori jondin tilab davosin aning,
Istabon tunu kun shifosin aning

Har biri istar erdi bir xidmat
Kim, agar shahg'a qo'ysa yuz sihat

Ishida elga guftugo'y o'lg'ay,
Anga ul ishdin obro'y o'lg'ay.

Chun imorat hadisi topti tul,
Yer o'pub yetti shoh qildi qabul

Ki, qilib har biri bino bir qasr,
Har biri zeb ichinda ziynati asr.

Tunu kun ehtimom qilg'aylar,
Sa'y birla tamom qilg'aylar.

Har kun ul ishki qilsa bannosi,
Shah kelib aylagay tamoshosi.

Shahg'a arz aylabon topib ruxsat
Har biri jonig'a qo'yub minnat.

Shohning taxtidin yeti shahroh,
Olam ahlig'a gohu begah roh

Bor edikim ulus yurur erdi,
Elga yo'llar uza murur erdi.

Shohlar azm etib. ul ishga bori,
Yo'l uzakim borur diyori sori.

Soldilar yetti qasri charxnihod,
Bo'ldi ish qilmoq ul sifat bunyod

Kim, sado tushti charx toqi aro,
El nafiri falak ravoqi aro.

Charx yetkurdi oyu kyndin xisht,
Yasalur deb yer uzra yetti bihisht.

Har zamon o'zga shakl etib paydo,
Shah tamoshosig'a bo'lub shaydo.

XIX

Yetti falakdek yetti qasrning tugangoni va Moniyi musavvir har qasrni o'zga bir rang bila naqshbandliq qilg'oni, dog'i yetti iqlim salotinining qizlarin, ul yetti qasrda Bahrom bila aqd qilg'onlari va haftaning har kuni Bahrom bir qasrda suhbat tutqoni

Chun muhandislar ehtimom etti,
Har bir o'z qasrini tamom etti.

Lek topquncha qasrlar itmom,
Topti har lahza naf'lar Bahrom.

Har zamon bir ajabg'a nazzora,
Bo'ldi savdosig'a base chora.

Garchi har qasr edi falakpayvand,
Rif'atu vus'ati falak monand.

Bir falakqadr chun edi Moniy
Sa'y bila tugattilar oni.

Xastaning boqi erdi savdosi,
Xasta ko'nglida ishq vasvosi

Kim, tamom o'ldi ul yeti pargor,
Shoh qoldi nazoradin bekor.

Hukamo bo'ldilar chu komravo:
Dedilarkim: «Bu ishtur emdi davo

Kim, necha naqshbandi rangomez,
Bo'lg'oy ul qasrlarda san'atrez.

Ko'rguzub san'at ichra yuz nayrang,
Aylagaylar bu qasrlarni rang.

Qilsa ne rang ichni naqqoshi,
Toshi ham bo'lg'ay ul sifat koshi».

Borcha Moniyni qildilar hozir,
Dedilar: «K-ey funun aro mohir.

Chun sen erding hurun ul ish sababi
Kim, bo'lub erdi shohning tarabi.

Sihhatig'a yana sabab bo'lg'il.
Tab'ig'a boisi tarab bo'lg'il.

Qasrlar ziynatig'a ohang et,
Bu yeti qasrni yeti rang et.

Naqshini ulcha sen bilursen, qil,
Neki ko'nglung tilar qilursen, qil.

Sanga, ne nav' qil, demak so'z emas,
Har kishi so'z bilur, bu so'zni demas»

Ajz ko'rgach bu nav' chorasigol,
Ko'ziga qo'ydi barmog'in filhol.

Dedi: «Siz istagonni kelturunguz,
Ne masolih keraksa yetkurunguz!».

Ul deganni bular qabul etti,
Ul ishi boshig'a qo'pub ketti.

Mulk aro har ne bor edi naqqosh,
Borchag'a ish buyurmoq ayladi fosh:

Qalam ahlin qilib yeti sarkor,
Yo degil naqshband, yo zarkor.

O'zi ish tarhu rasmin tuz etib,
Har zamoni bir ish boshig'a yetib.

Sayr etar erdi subhdin to shom
Har imoratg'a bir zamon Bahrom.

Har nafas ko'rgach o'zga bir timsol,
Anga mash'uf o'lub, ul ishda xayol.

Ko'ngli har yon chu ko'p bo'lub moyil,
Mayl savdosin aylabon zoyil:

Naqshlar jonibin xayoli tutub,
O'z xayoloti naqshini unutub

Ham bu yanglig' chu o'tti oz fursat,
Qasrlar topti zeb ila ziynat.

Har birin o'zga nav' etti rang.
Bo'ldi ul yeti qasr yetti rang.

Shah mizojida ishq o'tig'a gudoz
Garchi qolib edi, va lekin oz.

Hukamo ko'p qilib yana tadbir,
Ko'p urub royu aylabon ta'bir,

Dedilar: «Emdi quvvatig'a sabab,
Za'fi raf'iyu sihatig'a sabab —

Bu dururkim, chu butti buyla qusur,
Bo'lg'ay ul yetti qasr aro yeti hur.

Shohlar ichra hurvash farzand,
Kimda bor ersa loyiqi payvand.

Mutaaddid anga nikoh kerak,
Qasrlar ichra rudu roh kerak».

Chun tafahhusg'a bo'ldilar mashg'ul,
Hosilan borcha kom topti husul:

Bor edi yetti shahda yetti pari,
Parda keynida aql pardadari.

Har biri aqlu jong'a ofat o'lub,
Aqlu jon yo'q, jahong'a ofat o'lub.

Poklik pardasida mehri sipehr,
Pardada o'ylakim, sipehrda mehr.

Husn burjida ravshan axtarlar,
Lutf durjida pok gavharlar.

Axtar, ammo bulut ichinda nuhuft,
Gavhar, ammo anga yetishmay suft.

Har biri vafida bayon qosir,
Ne bayon, kilki nuktaron qosir.

Husn aro mohu mehrg'a foyiq,
Shoh aqdig'a har biri loyiq.

Yetti iqlim hukmronlarig'a,
Yetti so'z o'tmagan gumonlarig'a —

Parda ichra hadisi pinhoni,
O'ylakim fahm qildilar oni.

Borcha yer o'ptilarki: «Bizga ne had,
Aylamak yo qabul, yoxud rad.

Neki shah royi olamoroyi,
Muttafiq anga borchamiz royi.

Zarralarni quyoshqa yetkuradur,
Qatralarni tengizdin oshuradur».

Chun bu soʻz oʻtti, toptilar dastur,
Shohlar rasmi birla qilmoq sur.

Sur dasturi topti chun tarvij,
Shoh ila topti mohlar tazvij.

Har biri bir taraf xirom etti,
Otasi qasrini maqom etti.

Hukamo boʻldilar chu vaqtshunos,
Boʻyla soat ishiga boʻldi qiyos

Kim, shahi komkori komravo,
Haram ahligʻa aylamak parvo.

Koʻnglini moyili haram qilmoq,
Haram ahlini muhtaram qilmoq.

Tongla shanba kuni munosibdur
Kim, kavokib sharafgʻa kosibdur.

Qasri mushkin aro tuzub avrang,
Mushkboʻ mayga aylamak ohang.

XX

*Shanba kuni Bahromning mushkfom liboslar kiyib, gunbadi mushkinga
xirom qilib, gʻazoli mushkboʻ bila bodai mushkin ichgoni va bu
mashgʻulluq bila hijron oʻtining dudi qaro qilgʻon kunni shomgʻa
yetkurgoni*

Subhi shanbaki, shomi dayjuriy,
Yuziga hulla yopti kofuriy,

Qasri mushkinga qoʻydi yuz Bahrom,
Ichgali mushkboʻ gʻazol ila jom.

Luʻbati hindzodu chiniyvasht,
Laʻli jonbaxshu sunbuli dilkash.

Hullasin oydek aylabon shabgun,
Durlar ul hulla uzra kavkabgun.

Taxtu raxtini aylabon mushkin,
Mushk uza yer tutub gʻazolai Chin.

Tutubon uyni mushkdin zulmot,
Mahvash ul zulmat ichra obi hayot.

Shah dag'i hulla mushkfom aylab,
Kirdi mahvash sari xirom aylab.

Taxt uza chiqti vorisi Jamshid,
Anga yondoshti g'ayrati xurshid.

Ichilur erdi mushkbo' boda,
Mushku anbar buxuri omoda.

Anga tegruki mushk sohib shom,
Qildi olam yuzini anbarfom.

Elga erdi tarabfizo shanba,
Shahg'a erdi, vale azo shanba.

Hukamo aylab amri bo'su kanor,
O'zga ishdin buyurmish erdi kanor.

Muni mahvash dag'i bilur erdi,
O'zni shahdin yiroq qilur erdi.

Shahg'a kunduz iloj erdi nishot,
Kecha uyqug'a aylamak ifrot.

Soldi g'am shomi ko'ngliga qayg'u,
O'ylakim uchti ko'zidin uyqu.

Mahvash o'z pardasida bo'ldi nihon,
Shahg'a hijron qorong'u etti jahon.

To'lg'onur erdi tiyra holi bila,
Dilbari zulfining xayoli bila.

Ko'rdi g'am shomi ko'p azob aylar,
Uyqusizliq ani xarob aylar.

Hukm qildiki bir-iki xodim
Bo'lubon ushbu yo'l sori ozim

Kim, erur ushbu qacr ul sori,
Aylabon sa'yu jahd izhori.

Kim yo'luqsa, manga ketursunlar,
Baytul-ehzonima yetursunlar

Kim, necha nukta oshkor desun,
Sarguzashtin fasonavor desun.

Shoyad uyqu ko'zumga mayl etgay,
Andin osoyishe manga yetgay.

Borg'och-o'q toptilar jahongarde,
Sayr qilmoqta charxnavarde.

Parda keyniga keldi chun soyir,
Bo'ldi hukmi julus anga zohir.

Yer o'pub chun musofir o'turdi,
Shah anga qissa hukmini surdi.

Soyir o'ldi chu qissadin ogoh,
Topti har ne, anga edi dilxoh.

Shohni ko'p qilib duo bila yod
Ki: «Bo'l anduhu qayg'udin ozod».

XXI

Avvalg'i iqlim yo'lidin keturgan musofirning fasona demagi

Boru yo'q chun duoki bildi, dedi,
Dedi: «Bir bor ediyu bir yo'q edi.

Hind mulkida bor edi shohe
Shohlig' ishlaridin ogohe.

Cherikiga kanora yo'q paydo,
Maxzanig'a shumora yo'q paydo.

Tig'i hindiy chiqorsa kishvargir,
Olibon to Xitoy, bal Kashmir.

Ham falakpar humoi baxti aning,
Ham Sarandib poytaxti aning,

Laqabi Xon edi, oti Jasrat,
Mulkidin shohlarga yuz hasrat.

Jumlai olam ichra hashmatron,
El ani derlar erdi: Jasratxon.

Bor edi bir xujasta farzandi,
Ko'ngli qutiyu bag'ri payvandi.

Barcha donish aro yagona kelib,
Husn aro nodiri zamona kelib.

Otasi ko'ngliga surur andin,
Hind elining ko'ziga nur andin.

Lutf ila xulqi haddu g'oyatsiz,
Fahmu idroki xud nihoyatsiz.

Bori ilmu kamol aro mohir,
Zotidin yuz kamol o'lub zohir.

Borcha bir soriyu bu bir sori
Kim, kishiga yetishmay ozori.

Zuhdu taqvo kelib shiori aning,
Bo'lubon poklik hisori aning.

Oti Farrux, jamoli farxunda,
Xulqi olam elin qilib banda.

Otasi qirq yil surib xonliq,
Qilmish erdi ulusqa sultonliq.

Yoshi seksong'a tegru yetmish edi,
Ko'nglidin umr zavqi ketmish edi.

Istar erdi tirikligida o'zi
Yorumoq o'z charog'i birla ko'zi.

O'g'lig'a mulku taxtu tojin ham,
Hind molin, Xito xirojin ham –

Beribon yuz tafoxur aylar edi,
Lek Farrux tanaffur aylar edi.

Faqr etib erdi ko'nglini mashg'ul,
Aylamas erdi saltanatni qabul.

Ham kelib shohliq ishida batang,
Ham taahhul ishida erdi lang.

Shahg'a bu ikki ish edi maqsud,
Ikkisi shohzodag'a mardud.

Otasig'a bu justujo'y erdi,
Anga man'ida guftugo'y erdi,

Bir kecha bor edi ibodat aro
Nurdin matlai saodat aro.

Subh chun sajdai niyoz etti,
Ko'ziga uyqu turktoz etti.

Jilva qilg'och xayoli ruhoni,
Ming suvar zohir o'ldi pinhoni:

O'zini ko'rdi bir biyobonda
Kim, ulus behisob edi onda.

Borcha ko'ch ahliyu safar xayli,
Bir taraf lek borchaning mayli.

Bor edi ul aroda bir mahmil,
Buxtiyi charx o'lub anga homil.

Mahmil ustida maxmali mushkin,
Mushk sochib nechukki nofai Chin.

Mutaharrik bo'lib nasimi sabo,
Chunki mahmildin o'ldi pardarabo.

Ul amorida xud pari erdi,
Ne pari, mehri xovari erdi.

Ul quyosh lam'asi kul ayladi pok,
Notavon jismin o'ylakim xoshok.

Boqti Farrux chu ul taraf betob,
To'lun oyni yoshurdi tiyra sahob.

Ulcha yetti quloqqa xalq deri,
Bu edikim: «Erur bu Quds yeri».

Farrux uyg'ondi sekrib uyqudin,
Ko'zidin uyqu o'chti qayg'udin.

Har zamon pechu tobi ortar edi,
Ko'nglining iztirobi ortar edi.

Ko'rdikim fikre etmasa nofe',
Ishq zulmi ani qilur zoye':

Ko'ngliga ayladi safarni jazm,
Aylamak Quds dashti sori azm.

Yo ne matlub erur anga yetmak,
Yo talab ichra tarki jon etmak.

Tong yeli chunki surdi tun dudin,
Yig'di ko'k chatri anbaroludin.

Ochti farxunda tal'atin kunduz,
Qo'ydi Farrux atosi taxtig'a yuz.

Supurub yer jabin bila bisyor,
Ayladi muddaosini izhor

Kim: «Jahongardlig' erur havasim,
Yo'q ani man' etarga dastrasim.

Xiradim qildi bu havas bexud,
Chun havas g'olib o'ldi ketti xirad.

Bu azimatda ixtiyorim yo'q,
Azm to qilmog'um qarorim yo'q,

Bo'yla ishkim manga tavallodur,
Shohdin ruxsat o'lsa avlodur.

Bo'lmasa ruxsat, o'lg'ucha ogah.
Ketgudekmen boshim olib nogah».

Shoh eshitti chu bu sifat padrud,
Kuydi andoqki, chiqti boshig'a dud.

Chekti pargola bag'ridin lola,
Dedikim: «Ey bog'irg'a pargola,

Furqating birla urma bag'rima o'q,
Har ne so'z der esang degil, muni yo'q!

Kim, bukun-tonglaliq bo'lubdurmen,
Umru jon uzrini qo'lubdurmen.

Xanjari hajr ko'ngluma urma,
Men xud o'lgum, burunroq o'lturma!».

Ko'p fig'on chekti borcha dardolud,
Ishq chun g'olib erdi qilmadi sud.

Ko'rdikim, o'g'li so'zi oshubdur,
Anga bir nav' o't tutoshubdur

Kim, ato ashki oni past etmas,
Ko'ngli topmas qaror, to ketmas.

Ko'zi yoshin oshurdi to'fondin,
Yudi nokomdin ilik jondin.

Cherikidin yorimin oyirdi,
Ganj nisfini ham anga berdi.

Munga loyiq asosi shohona,
Har g'aroyibki ham kerak yona.

Yasadi ul sifat asosin aning
Ki, xirad topmag'ay qiyosin aning.

Beribon ruxsat oni shod etti,
Jon bila jismi xayrbod etti.

Yondi Jasrat qo'yub halo sori rux,
Ko'ch-barko'ch tebradi Farrux.

Yurumak erdi tunu kun komi,
Yo'q edi hech yerda oromi.

Shahr-barshahr edi xiromi aning,
Yetguncha maqsadig'a gomi aning.

Ul zamon kimki qilsa azmi tavof,
Ka'ba o'rnida Quddus erdi matof.

Ham yetib erdi vaqtu yuz ming xayl,
Aylab erdi tavof sori mayl.

Farrux ul pok yerga chun yetti,
Pok ko'ngli bila tavof etti.

Qo'ydi tufroqqa yuz niyoz bila,
Sham'dek yig'ladi gudoz bila.

Istadi hojatinki Xoliqi dahr
Anga matlubidin yeturgay bahr.

Ko'ziga uchrag'ay diloromi,
Hosil o'lg'ay visolidin komi.

Necha kun chun bu nav' edi anga hol,
Zohir ermas edi ishiga maol.

Tavf ahli yonorg'a bog'lab bel,
Ketti to'shluq-to'shiga kelgan el.

Ul kecha g'amdin asru bedil edi
Tushta biri anga bu nukta dedi

Kim: «Agar aylasang murod talab
Turmayin, tongla ayla azmi Halab».

Uyg'onib sabru toqati ketti,
Qo'pti dog'i Halabg'a azm etti.

Halab ahli ko'p erdi g'oyatsiz,
Yo'lda suv oz edi nihoyatsiz.

Cherikin qaytarib ijizat ila,
Yo'lg'a kelturdi yuz irodat ila.

Bo'ldi chun qaytmoq sipoh ishi,
Bila qoldi yuz-iki yuzcha kishi

Kim, mahol erdi qaytmog'lig' alar,
Shahlari tarkin etmog'lig' alar.

Munga loyiq yarog' birla tamom,
Ayladi Farrux ul yo'l uzra xirom.

El Halab ozimi ko'p erdi base,
Vatani sori borchaning havasi.

Shohzoda alar bila hamroh,
Lek hamrozi dardu munisi oh.

Bordilar goh-gohu tushtilar —
To Halab mulkiga yovushtilar.

Shahr eli dog'i chiqmish erdi g'ulu,
Ko'yu dasht erdi xalqdin mamlu.

Farrux ul qissa iztirorida,
Ko'zi har lahza bir amorida

Ki, ko'rundi ko'ziga bir mahmil,
Noqasi shahr sori musta'jil.

Tushta ko'rgan kibi yopug'i qaro,
Iztirob o'ti tushti joni aro.

Buyla holatda tund yetti shamol,
Ochti mahmil kanorasin filhol.

Chun ochildi bulut, ko'rundi quyosh,
Tushta ko'rgan quyoshi bo'ldi fosh.

Istaganni bu lahzakim topti,
Yana xurshidni bulut yopti.

Kunni chun tiyra abr qildi nihon
Bo'ldi Farrux ko'ziga tiyra jahon.

Chunki ul nur qolmadi ko'zida,
Ko'ngli bir lahza yo'q edi o'zida.

O'ziga kelgach ochti ko'z holi,
Dasht o'lub erdi xalqdin xoli.

Shahr aro kirmish erdi ahli safar,
Vatani bo'lmish erdi elga maqar.

G'ayri Farrux dag'i necha xodim
Kim, aning birla erdilar ozim.

Ko'rdi Farruxki, ish qatiq tushti,
Zahri hijron bas achiq tushti.

Nechakim kuydi notavon joni,
Elidin asradi nihon oni.

Jahd ila ayladi shikeholiq,
Bo'lmasun deb ishida rasvoliq.

Eli holida anglabon tag'yir,
Bir-biriga so'z aytibon bir-bir.

Chun aning holig'a tag'ayyur o'lub,
Bilmayin xaylig'a tahayyur o'lub.

Bori bir nav' hol ila nokom,
Manzile toptilar qilurg'a maqom.

Lek shahzoda bor edi behol,
Eltibon har dam oni o'zga xayol.

Qilmayin fahm guftugo' chog'i,
El so'zin dog'i, o'z so'zin dog'i.

Ochti tun xayli chun qaro parda,
Yo qaro ranglik saroparda.

Anglabon shohzodani g'amgin,
Bo'lubon qavmu xayli borcha hazin.

Elin anglab asir qayg'ug'a,
Soldi shahzoda o'zin uyqug'a.

Oni uyqu aro ko'rub xayli,
Borcha qildilar uyquning mayli.

Ko'zlarin yumg'och ul suruk mahzun,
Borchasin uyqu xayli etti zabun.

Elni shahzoda masti xob ko'rub,
Ishq o'tidin ichinda tob ko'rub,

Qo'ptiyu oldi kog'azu xoma,
Yozdi xaylig'a bu sifat noma

Kim: «Havodis yeridurur olam,
Ondin ozod emas bani Odam.

Har ne el olig'a yozibdur Haq,
Chora yo'q oni ko'rmayin mutlaq.

Manga ovoralig emish taqdir,
Ishqu bechoraliq emish taqdir.

G'urbat ichra bo'lurg'a ovora,
Manga taqdir ho'lsa ne chora.

Tushti ollibg'a uyla qattig' hol
Ki, bayonida keldi notiqa lol.

Gar manga ho'yla sa'b suratdur,
Chunki taqdir erur – zaruratdur.

Siz bu g'urbatda turmangiz zinhor,
Meni istab yugurmangiz zinhor

Kim, tilab munda topqungiz yo'qtur,
Topishur yerimiz vatan-o'qtur.

Men baliyatda jondin ar to'yg'um,
Tirik o'lsam vatang'a yuz qo'yg'um.

Agar o'lsam bihil qiling oxir,
Meni o'zdin bihil biling oxir!

Tutmangiz bu diyor ichinda maqom,
Qaytingiz, vassalomu val-ikrom».

Ruq'aning kog'azig'a berdi navard,
O'rnida qo'ydi ul sahifai dard.

Egnidin soldi shohvor libos,
Kiydi o'rnig'a shomrang palos.

Qo'ptiyu chiqti uydin ohista,
Aylar erdi xirrom payvasta.

Shahr aro po'ya urdi ko'y-bako'y,
Telba yanglig' yugurdi so'y-baso'y.

Oqibat kunji gulxani topti,
Yotib o'zga palosini yopti.

Garchi gulxan kuli makoni aning,
Lek do'zax o'tida joni aning.

Anga bu hol soldi kofir ishq,
To ne qilg'ay ishini oxir ishq.

Subh chun tuzdi ko'rau damni,
Mehr o'tidin yorutti olamni.

Qo'pub ul xayl beshikebu tavon,
Bo'ldilar shohzoda sori ravon.

Oni o'rnida ko'rmayin mavjud,
Chektilar borcha ohi dard olud.

Urdilar po'ya birla har sori yuz,
Istab oni iki kecha-kunduz

Topmadilar nishonaye ondin,
To'ydilar ul firoq aro jondin.

Ruq'aekim yozib edi, nogah
Topib, ishidin o'ldilar ogah.

Bildilar bedavo erur bu alam,
Tutubon holig'a aning motam.

G'urbatidin debon ko'p afsona,
Navha ko'p chektilar g'aribona.

Sudsiz erdi chunki ul oshub,
Ham vatan sori bo'ldilar rahko'b.

Bu taraf shohzodai bedil,
Chun vuquf oncha ayladi hosil

Kim, eli oni topa olmay jazm,
Yig'layu qildilar vatan sori azm.

Ko'ngli o'z holig'a buzuldi base,
Kuydi g'am o'tig'a nechukki xase.

Shohliqdin tushub gadoliqqa,
Yuz halo ichra mubtaloliqqa.

Qo'zg'abon har dam oni bekaslik,
Ishiga hech chora bilmaslik.

Yuz tuman mungda joni afgori
Borcha bir soriyu bu bir sori

Kim, anga muncha ranj o'lub ro'zi,
Kuydurub ko'kni ohi jonso'zi.

Muncha ish boisi nihon erdi,
Ne nihon, balki benishon yerd.

Bo'lmay ul shahrg'a kanora padid,
Ne mahallotig'a shumora padid.

Anda yuz yil kishi bo'lub soyir,
Yetmagi harcha yerga yo'q zohir.

Uyi sahro qumi hisobig'a jo'b,
Eli xud necha onchadin ham ko'p.

Farruxi notavon necha kun edi
Ki, ne suv ichti, ne taom yedi.

Kimsakim, topmag'ay taom ila bahr,
No'sh qilg'ay taom o'rnig'a zahr.

Ishqdin jonda bo'lg'ay ozori,
Tani g'urbat o'ti giriftori.

Hajrdin ham anga malol o'lg'ay, —
Fikr qilkim, anga ne hol o'lg'ay.

Anga bor erdi muncha g'am bori,
Shohlig' tarki, lek bir sori.

Xasta jonig'a yuz taab tushti,
Ko'rki ish tushtiyu-ajab tushti.

Dedi: «Bu ajz birla butmas ishim,
Bordurur Tengrim, ar yo'q ersa kishim.

Nechuk o'lsa oyoq uza turayin,
Yotib o'lguncha dastu-po urayin».

Qo'ptiyu qildi shahr ichiga xirom,
Har taraf solur erdi bilmay gom.

Bir-ikki kun bu nav' urdi qadam,
Za'f aning vujudin etti adam.

Ishq chun tu'madin qilib edi fard,
Quvvatu quti erdi ishq ila dard.

Jismkim, topmadi g'izo bila qut,
Bo'ldi – suvdin yiroq tushgan hut.

G'urhat ichra yurur edi bekas,
Kishisi dardi ishq erdiyu bas.

Ikki-uch kun chu bo'yla kezdi yaboh
Ne anga sabru hush, ne xo'ru xob.

Ko'rdi behad erur balo asru,
Bordurur dardi bedavo asru.

Harakatdin qolur tani zori,
O'zini chekti bir buzug' sori.

Qo'ydi boshining ostig'a bir tosh,
Dedi: «Bosh o'lmog'oy edi manga kosh!»

Sundi tufroq uza tani zorin,
Boshqa chekti palosi idborin.

Ko'ngli andoq hayotdin to'ydi,
Jon berurga yaqin ko'ngul qo'ydi.

Xojaye bor edi Halabda g'ani,
Mehmondorliq shioru fani.

E'tibori ko'p el aro behad,
Johu molig'a yo'q hisobu adad.

Anga uy erdi mehmonxona,
Anda ko'p oshnovu hegona.

Ko'ngli behad rahimu tab'i saxiy,
Shahr xalqi ichinda oti Axiy.

Sayr aylar edi gahu begoh,
Surubon markabin rahu beroh.

Goh yo'l boshlari sari boribon,
Goh vayronalarni axtaribon

Qayda topsa g'aribi mazlume,
Xastau nomurodu marhume.

Bo'lubon bir nafas anga hamdam,
Yoqibon ko'ngli zaxmig'a marham.

Negakim bo'lsa muqtazi zoti,
Aylabon ul qadar murooti.

Shahr eli andin erdi sharmanda,
Karami borchani qilib banda.

Go'yo ul kun Axiyi sohibxayr
Shahr atrofini qilur edi sayr

Kim, buzug'ni vatan qilib Farrux,
Qo'ydi idbor tufrog'i uza rux.

Xojakim ul buzuqqa yovushti,
Ko'zi ul notavon sori tushti.

Surub ul yon Axiyi davlatmand,
Tushtiyu berdi qullarig'a samand.

Kelib olig'a dedi: «Ey marhum,
Kimsen, ahvoling et manga ma'lum!»

Notavon yuz ochib salom etti,
O'lturub behad ehtirom etti,

Dedi: «Ey xojai xujastajamol,
Bor yo'lung birla, so'rma mendin hol.

Yuqmag'ay ko'nglunga g'amim asari,
Tushmagay joningga o'tum sharari».

Xoja chun ko'rdi ul ruxi mahvash,
So'ngra bu nav' posuxi dilkash.

Ham yuzi oni beqaror etti,
Ham so'zi oni ashkbor etti.

Ne ko'rub erdi o'yla turfa jamol,
Ne bu yanglig' eshitmish erdi maqol.

Bildikim, bas aziz paykardur,
Angladikim, sharif gavhardur.

Sa'y ila markab uzra mindurdi,
Xidmat aylab uyiga yetkurdi.

Chun tushurdi aziz mehmonni,
Yuzidin ravshan etti ayvonni.

Chekti avval taom ila sharbat,
Mehmon qildi ul sori rag'bat.

Ulcha mumkin Axiyi ravshanroy,
Mizbonliq ishin keturdi bajoy.

Har tarafdinki so'z suol etti,
Posuxi oni gungu lol etti.

Gavharafshon javobidin soyil,
Bo'la olmay savolg'a moyil.

Hujraye xilvat ayladi tartib,
Kecha bo'lmoqqa mehmoni g'arib.

Kechalar mehmon tutub xilvat,
Munisi erdi anduhu g'urbat.

Ishqdin tortibon hazin nola,
Za'faron uzra yog'durub jola.

Kunduz o'lg'och xamush o'lub yona,
Maskani erdi mehmonxona.

Yorutub ko'z Axiy aning yuzidin,
Topibon bahra durfishon so'zidin.

Arz etar erdi guna-guna libos,
Mehmon qilmas erdi tarki palos.

Xotiri chun bor erdi asru sharif,
Mizbon qilmas erdi ko'p taklif.

Necha kun chunki anda tutti maqom,
Kecha xilvatqa aylar erdi xirom.

Xoja ta'yin etib mulozimlar,
Girdida qo'ymish erdi xodimlar.

Bo'ldilar bir kecha alar nogah
Yoshurun ohu ashkidin ogah.

Xojaga arz qildilar oni,
Xoja ham kecha keldi pinhoni.

Yoshurun borcha xalq yotqon chog'
Xilvati ravzanig'a qo'ydi quloq.

Bildikim, ranji haddin oshibdur,
Bul'ajab o't anga tutoshibdur.

O'rtanur ohi umrkoh bila,
Qizitur uyni o'tlug' oh bila.

Nudba o'z holig'a qilur payvast,
Lek el vahmidin bag'oyat past.

Xoja dog'i bor erdi g'am ko'rgan,
Ishq bedodidin sitam ko'rgan.

Ko'nglini huzdi mehmon dardi,
Nolau ohi dardparvardi.

To'la aylab sirishk birla ko'zin,
Ko'p quloq tutti anglamoqqa so'zin.

Gah surar erdi nukta dilbaridin,
Gah der erdi sipohu kishvaridin.

Garchi fahm aylab erdi farzona
Kim, erur tavru tarzi shohona.

Emdi jazm ayladiki, shohdur ul,
Saltanat avji uzra mohdur ul.

Lek bir ish ani nazor etmish,
G'urbat ichra asiru zor etmish.

Qo'ptiyu tark qildi nazzora
Kim, ne qilg'ay bu ish uchun chora.

Dedi: «Bu dard angaki pinhondur,
Anglamoq oni xud ne imkondur

Kim, erur dardu ishq tavrida chust,
Demak imkon emas g'amini durust.

Magar el oni mayparast etgay,
Rozini anglag'oy, chu mast etgay».

Subhkim kiydi hullai kofur,
Qo'ydi boshi uza amomai nur.

Urdu mehmonsarog'a xoja qadam,
Keldi chun xoja, keldi mehmon ham.

Tushqa tegru taomu suhbat edi,
Yeguluklarda zebu ziynat edi.

Ham quyosh ayladi zavolg'a mayl,
Ham havo qildi e'tidolg'a mayl.

Xoja majlisda hozir ayladi may,
Chiqti savti rubobu nag'mai nay.

Oncha bazm ichra qildi ziynatu zeb
Ki, ichar eldin oldi sabru shikeb.

Ko'raga olig'a qo'pub bordi,
Yukunub bir qadahni sipqordi.

Yana qe'l sundi jomi bodag'a ham,
Yukunub tutti shohzodag'a ham.

Mehmon andin erdi ko'p mamnun,
Yo'q, debon qilmadi ani mahzun.

Oldiyu lutf birla ayladi no'sh,
Ul ichib boda oldi eldin hush.

Davrni chun tugatti soqiyi bazm,
O'zga soqiy qadahg'a ayladi azm.

Chun necha davr o'tti pay-darpay,
Majlis ahli boshig'a chiqti may.

Ham tarannumgar o'ldi nag'masaro,
Ham takallum uzoldi nag'ma aro.

Ko'kka yetti sadoyi no'sho-no'sh,
Muttasil bo'ldi bazm eliga xuro'sh.

Jomi may chun ilikdin oldi zimom,
Bo'ldi el guftugo'yi beandom.

Xoja g'avg'odin aylab o'zni xalos,
Tutti shahzoda birla majlisi xos.

Bu tutub andin o'zni sharmanda,
Ul o'pub tufroq o'ylakim banda.

Chun hijob oldi aqldin boda,
Bo'ldi beixtiyor shahzoda.

Yodig'a kirdi mulku ma'vosi,
Bo'lmoq imkoni yo'q tamannosi.

To'la aylab sirishk birlan ko'z,
Ayta boshladi holatidin so'z.

Xoja maydin rioyat aylab edi,
Ehtiyotin bag'oyat aylab edi.

So'z demakda mudovamat birla,
Yuz fusunu muloyamat birla

Mutaoqib suolu posuxdin,
Chekar erdi hadis Farruxdin.

To nasab birla gavharin bildi,
G'urbatu mulku kishvarin bildi.

Hashmatu ganji beqiyosin ham,
Jasratxon kibi atosin ham.

Tushta ishqin ham ayladi mafhum,
Bo'ldi ma'shuqi ham anga ma'lum

Ki, Halab mulkida emish beshak,
Andin o'lmish anga bu nav' emgak.

Chun nishonin surarg'a tushti harif,
Ayta boshladi notavonu zaif.

Xoja jismig'a tob tushti base,
Ko'ngliga iztirob tushti base

Ki, bu yanglig' nishonalarki dedi,
Harami iffatig'a sodiq edi.

Bor emish buyla o'rtagan oni
Xojaning mash'ali shabistoni.

Jazm qildi Axiyi daryodil
Qaydin o'lg'onni xasta shaydo dil.

Dedi, fikr aylabon muruvvat ila,
Topti bu nuktani futuvvat ila

Kim: Bu yanglig' g'aribu ham oshiq,
Ishq tavrida bu sifat sodiq

Ki, bu g'urbatni ixtiyor etgan,
Tark olamda har ne bor etgan.

Ishq aro kirmayin jahon ko'ziga,
Tutmish o'lg'oy o'lumni ham o'ziga.

Emgakidek kishida emgak yo'q,
Hajr aro o'lgusidurur shak yo'q.

Menki oning g'amig'a qolurmen,
Dardig'a chora aylay olurmen.

Qilmasam, o'lsa, ul muruvvat emas,
Oni yaxshi muruvvat ahli demas.

Kishi bu ishga chora qilmosmu,
Manga ahli haram topilmosmu?

Lutf ila dedi xojai dono:
«G'am yema, ey musofiri barno!

Sanga bu g'amki ofati jondur,
Manga tadbiri behad osondur.

Seni qilg'on bu nav' bechora,
Xonumoningdin etgan ovora,

Garchi joningg'a husni ofat erur,
Bizning eldur, manga qarobat erur.

Seni komingg'a yetkururmen bil!
Lek har neki dermen, andoq qil!»

Oqizib xasta shodlig'din yosh,
Qo'ydi filhol Axiy ayog'ig'a bosh

Kim: «Ne so'z kim desang, manga ne had
Aylamaklik eshitmayin oni rad.

Dardima gar qilur esang darmon,
Qilayin har ne aylasang farmon».

Chun bu nav' o'tti so'zlari payvast,
Tun kech erdi, uyudilar iki mast.

Chun sahar xutbasini chekti xuro's,
Jilvagar bo'ldi kun, nechukki aro's.

Uyqudin qo'pti ikki ozoda,
Qo'ydi yuz xoja sori shahzoda

Kim: «Agar va'dani unutmoysen,
Degoningdin kanora tutmoysen.

Meni ham nega aylasang ma'mur,
O'zni ul ishda tutmayin ma'zur».

Xoja hammomg'a yibordi ani,
Chirki hijrondin orimoqqa tani.

Chiqqoch ondin xud erdi omoda,
Tah-batah to'n kiyarga shahzoda.

Bo'ldi shabgun palosidin ozod,
Kiydi shohona to'n mahi Navshod.

Ham chekildi samandi shohona,
Otlanib bordi uy sori yona.

Uy dema, qasri zarnigor erdi,
Anda shahzodag'a qaror erdi.

Qo'yubon oni yuz navo ichra,
Xoja kirdi hamsaro ichra.

Qo'pti Gulchehra yuz niyoz bila
Demayinkim niyoz, noz bila.

Axiy o'lturdi, ul ham o'lturdi,
Xoja yuz nukta sori kelturdi

Ki: «Nekim Tengri aylamish taqdir
Aylay olmas kishi anga tadbir.

Sangau hizga vasl davroni,
Muncha yozmish qazoyi Yazdoni.

Vasl ayyomi ichra erduk shod,
Shukr etib qayg'udin eduk ozod.

Emdi bo'ldi muforaqat chog'i,
Shukr vojibdurur bu dam dog'i.

Harnekim yozdi Kirdigor manga,
Aylamakda ne ixtiyor manga.

Senki umre manga anis erding,
Yori hamxobau jalis erding.

Har ne sendin bo'lubturur mavjud,
Neki men, bal Xudoy ham xushnud».

Xoja surmak aro bu nav' maqol,
Aylabon sarvqadni hayrat lol.

Chun bu yerga fasonasi yetti,
Sarv Gulchehrani taloq etti.

Chekti gulrux nafir ila faryod,
Ki: «Nedin mundog' aylading bedod,

Ne ko'rub manga bu sitam qilding?
Qismatim to abad alam qilding!»

Oncha surdi Axiy fusun ila dam,
Oncha ko'rguzdi mehribonlik ham.

Diramu mol beadad berdi,
La'lu dur beqiyosu had berdi.

Dedi: «Bu erdi ulcha olding naqd,
Bir kishi birla aylagum seni aqd

Kim, erur avji saltanat mohi,
Dahr uza taxti makramat shohi!»

Husnini dog'i qildi ko'p ta'rif,
Tig' birla ham etti ko'p taxvif.

Qildi har nav'kim edi mumkin,
Sarvi gulchehra shaynini sokin.

Har ne mahvashqa ro'zi etti qazo,
Topmadi hech chora g'ayri rizo.

Ish payig'a Axiy qo'pub ketti,
Har nechukkim kerak yarog' etti.

Maxzanu ganj quflini ochti,
Naqd oncha yarog' uchun sochti

Kim, bori ish yosoldi shohona,
Sarv ila gulni qildi hamxona.

Aqd uchun kelturub bir ahli saloh,
Qildi ul vaqt rasmi birla nikoh.

Yo'l yarog'in qilib edi tayyor,
Ikki kavkabni qilg'ali sayyor.

Yuz adad banda – turku rumiyu zang
Yo'lda qulluqqa qilg'oli ohang.

Xachiru teva borchasi zebo,
Borchaning raxti atlasu debo.

Uy ila borgohu shamyona,
Anga loyiq gilemi ham yona.

Mutakallif mahofa dog'i rakib,
Ulcha mumkin qilib edi tartib –

Borchasin Farrux olig'a surdi,
Xizmati ahli birla topshurdi.

Hamrah o'ldi alarg'a bir manzil,
Andin o'lg'och yana ravon mahmil

Mijadin qon yoshin kushod etti,
Mehmon birla xayrbod etti.

Dedi: «Yetgil diyoru kishvaringa,
Eya bo'l mulku taxtu afsaringa».

Yodgor istadi palosin aning,
Tilab oldi qaro libosin aning.

Yondi yig'lab Axiyi ozoda,
Yig'loyu yo'lg'a tushti shahzoda.

Oncha erdi Axiy uchun bad hol,
Ham aning ishlari xayolida lol

Kim, parivashqa bo'lg'oli moyil
Ul g'amu iztirob edi hoyil.

Hajr o'tining chu bo'ldi so'zi past
Qildi Farrux visol uyiga nishast.

Ayladi mayl gulruxi sori,
Ko'rdi ashkin yuzida gulnori.

Yuzni tirnoq ila figor etgan,
Bargi nasrinni lolazor etgan.

Yana hayratqa qoldi bulbuli zor,
Gulga bo'lg'ondin ul sifat ozor.

Dedi: «Ey mahvashi paripaykar,
Sen kibi elga baxt o'lub yovar,

Bo'lsa aqdu nikoh amrida sur,
Yetishur yuz nishot birla surur.

Sendakim bu g'amu taab ko'runur,
Hikmatin deki, bas ajab ko'runur»,

Dedi mahvashki: «Ey ulus aro toq!
Xushdil aylar – nikoh, yo'qki – taloq!»

Dedi Farruxki: «Ey parivash hur!
O'yla dekim, topay so'zungga shuur!

So'zda lafzi taloq – ne ya'ni
Vasl ichinda firoq – ne ya'ni».

Mahvash aylab ravon ko'zidin yosh,
Shahg'a o'z sarguzashtin ayladi fosh.

Farrux anglab so'zin, bo'lub g'amnok,
Yaqin erdi o'zin qilurg'a halok.

Masxu mabhut o'lub tag'ayyuridin,
Lol qolib Axiy tahayyuridin.

Dedi mahvashqa: «K-ey hamida xisol,
Ko'rmagan aql suratingg'a misol!

Garchi ishqingda chekkanim bedod
O'yladurkim, sipehr bermas yod».

Ul dog'i sarguzashtini bir-bir
Qildi boshtin-oyoqqacha taqdir.

Dedi: «Dardimg'a gar davo ko'rmon,
Bo'yla zulmi sanga ravo ko'rmon.

Aylabon lutf behisob asru,
Qildi bizni Axiy xarob asru.

Moli bazlig'a bizda erdi pech,
Bu ishi oni ayladi xud hech.

Gar anga bu qadar muruvvat bor,
Bizda ham shammae futuvvat bor.

Shukrkim yetti lutfi Yazdoniy,
Qolmadi zulmi nafsi zulmoniy.

Sen ham emdi shukuftadil bo'lg'il!
Manga iki jahon singil bo'lg'il», —

Dediyu qo'pti ollidin shodon,
Ko'ngli mahvashning o'ldi obodon.

Singil erdi haramsaro ichra,
Lekin ul elga mojaro ichra.

Yo'l borurlar edi tunu kun ham,
Qo'yg'ucha Hind kishvarig'a qadam.

Shoh Jasrat bo'lub edi foniy,
Deb valiahd o'ziga oni.

Xalq anglabki qo'ydi yuz iqbol,
Chiqtilar borcha aylab istiqbol.

Tengriga shukrlar ado aylab,
Joni shirin anga fido aylab.

Mulk eli ko'zlarin yorutti anga,
Ato taxti qaror tutti anga.

Say' etib shohi komron Farrux
Kim, malul o'lmag'oy buti gulrux.

O'z diyorida qasr ila bog'i,
Toqu dahlezu hujrasi dog'i.

Shoh yodida erdi mo'y-bamo'y,
Balki bo'stonu bog' jo'y-bajo'y.

Tarh qildi shahi muhandisvash,
Andag'i vaz'idan dag'i dilkash.

Dedikim: «Yuz hunarvari mohir,
Aylabon o'z hunarlarin zohir.

Ish qilurg'a ilik uzotsunlar,
Qasr ila bog'ni tugotsunlar».

Neki hukm etti shohi charxmaqom,
Topti oz chog'da borchasi itmom.

Zebu-ziynat ichinda ul parkor,
Topti har neki bor edi darkor.

O'yla monandkim, sog'ing'ay aql
Ki, Halab Hind sari qilmish naql.

Hukm bo'ldiki, mohi Zuhrajabin
Topsun o'z manzili aro taskin.

Mahvash ul uyga chunki soldi ko'zin,
Uyidin chiqmog'on sog'indi o'zin.

Shohg'a singlidek aziz erdi,
Yuz sumanbar anga kaniz erdi.

Nozu ne'matqa harnekim asbob,
Onchakim aql topmay anga hisob.

Hind aro bo'yla qildi shohi saxiy,
Endi ko'rkim, netar Halabda Axiy:

Ko'ngul ul damki, uzdi gulruxdin,
Ayrilib yondi shoh Farruxdin.

Burjidin borg'on ikki sa'd axtar,
Kavkabi toliig'a yetti zarar.

Ekini dog'i ofat etti ayon,
Borcha savdosi dag'i topti ziyon.

Har nekim roy qildi – kelmadi tuz,
Qo'ydi ahvolig'a tazalzul yuz.

Bilgach a'dosi bu ishni nogoh,
Shahr shohini qildilar ogoh

Ki: «Axiy mamlakat qilurg'a xarob,
Yana bir shohg'a yasab asbob,

Shohning shahridin uzotibdur,
O'zni dushmanlar ichra qotibdur».

Ushbu so'z birla shohi davlatmand
G'azab aylab Axiyni ayladi band.

Oldi har neki bor edi moli,
O'lturur yerga yetti ahvoli.

Qoyid anglab ishi ne nav' ekani,
Rahm etib qayddin qochurdi ani.

Tutmag'aylar deb el, qilib tadbir,
Berdi o'z vaz'u tavig'a tag'yir.

Avr o'lub, gulxan etti koshona,
Kul aro o'zni qildi devona.

Shoh Farrux palosini topti,
Ul yoping'ondek o'ziga yopti.

Topmay o'z mulki ichra yaxshi maqar,
Qildi Farrux diyori sori safar.

Muddate tog'u dasht qat' etti,
To Sarandib taxtig'a yetti.

Joni qolmaydur erdi mehnatdin,
Yo'l aro har zamon bir ofatdin.

Oh o'qin ko'k hisorig'a otti,
Bir buzulg'on hisor aro yotti.

Uyquda xastau asirona,
Yeri ul yo'l boshida vayrona.

Shoh to kelmish erdi g'urbatdin,
Yod etib g'urbat ichra mehnatdin.

Axiy ishin shior aylab edi,
Tavrini ixtiyor aylab edi.

Mehmonxonaye yasab oliy,
G'urabo andin o'lmayin xoli.

Goh o'lur erdi o'tlanib soyir,
Shahrning davrig'a bo'lub doyr.

Ushbu kunkim, Axiyg'a erdi bu hol,
Sayr aro erdi shohi farruxfol.

Ul buzuq sori chunki soldi nazar,
Qildi o'z ahli xotirig'a guzar.

So'rdi ul yonki: «Ne g'arib erkin
Ki, bu mehnat anga nasib erkin?».

O'z palosini oshno ko'rdi,
Notavone palos aro ko'rdi.

Dedi: «Qo'p,-ey g'aribi tiyra maosh!»
Axiy uyg'ondiyu ko'tardi bosh.

Shahni ul tonidiyu oni shoh
Otidin tushti shoh tortib oh.

Shoh tushgan zamon Axiy qo'pti,
Ul muni quchtiyu bu yer o'pti.

Zor yig'lab quchushtilar laxte,
Bir-birisin so'rushtilar laxte.

G'ayri ma'hud ishki aylab shoh,
Qolibon hayrat ichra xaylu sipoh.

Ikkisi shukrlar bajo keturub,
Shoh ani qasru bog' aro keturub.

Avval andog'ki, ul qilib ikrom,
Shohg'a amr etib edi hammom.

Hukm qildi shahi xujastajamol,
Kirdi hammom aro Axiy filhol.

Tani yo'l gardidin chu pok o'ldi,
Chiqibon xoja zavqnok o'ldi.

Turfa xil'atlar erdi omoda,
Kiydi borin Axiyi ozoda.

Oncha xodim edi murassa'po'sh
Ki, edilar Axiyg'a xizmatko'sh

Kim, Axiy fahmi lol edi hardam
Tab'i oshuftahol edi hardam.

Shah qoshig'a keturdilar oni,
Shah dag'i tuzdi bazmi mehmoni.

Necha kun qildilar farog'u nishot,
Har tamannoda bor edi ifrot.

Hajr o'ti savrati chu bo'ldi past,
Jashn tuzdi shahi nishotparast.

Taxt uza chiqti hori om etti,
Xojag'a hadsiz ehtirom etti.

Tilab olig'a davlat arkonin,
Qildi og'oz xoja dostonin.

Neki ul qilmish erdi g'urbat aro,
Bo'ldi majmuig'a fasonasaro.

Eshitib ei shahi zamona so'zin,
Shohdin xojai yagona so'zin.

Mahz hayrat bila borisi qo'pub,
Ofarinlar debon ayog'in o'pub.

Shah dedikim: «Agarchi shoh bo'lay,
Xojaning uzrini ne nav' qo'lay.

Menga bordur qarohat ahlida fosh,
Pardai ismat ichra qiz qardosh.

Oni dermen qilay munung bila juft.
El aro oshkor, yo'qki nuhuft.

Ulki, juftidin o'zni aylab toq,
Manga juft aylamakka qildi taloq.

Guli davlat topib shukuft anga,
Ne ajab singlim o'lsa juft anga!»

So'zni shah chun bu yerga band etti,
Shah so'zin borcha el pisand etti.

Ul sifat surki qildi shah bunyod
Ki, kuhan dayr bermas andoq yod.

Tarbiyatlar Axiyg'a soz aylab,
Bori olamda beniyoz aylab.

Topshurub har ne yo'qu borin anga,
Berdi o'z mulki ixtiyorin anga.

Yod etib haddi yo'q muruvvatini,
Jong'a chekti xati uxuvvatini.

Bo'lub ikkisi Musoyu Xorun,
Ganj ila lek ani qilib Qorun.

Xutba amrini iftitoh etti,
Xojag'a singlini nikoh etti.

Xojani boshladilar ul sori
Ki, nihon erdi moh ruxsori.

Xoja andinki burnog'i darband,
Toki ul qasri osmonpayvand,

Har qayon boqti oshno ko'rdi,
Hayrat o'z xotiri aro ko'rdi,

Toki ul hajla bo'ldi jilvagahi
Kim, nihon erdi anda sarvi sihi.

Xoja ul uyga chunki qo'ydi ayoq,
Boshlag'on xalq bori chiqti yiroq.

Bir-birin ko'rgach ul ikki mahjur,
Oncha hayrat g'uluvsı qildi zuhur

Kim, chekib ko'kka bexudona xurush,
Yiqilib bordi ikkisidin hush.

Chun kelib o'zga, yosh to'kub ko'zdin,
Yiqilib borur erdilar o'zdin.

Topti hajr iztirobi chun taskin,
Sho'xdin so'rdi xojai miskin.

Ki: «Bayon aylakim, ne holatdur?
Ki, manga hayrat uzra hayratdur.

Holating'a nazora qil oxir,
Hayrat o'lturdi, chora qil oxir».

La'li quflidin ochti gulrux band,
Nuktadin zohir ayladi gulqand.

Xojadin toki ayrilib erdi,
Boshig'a har nekim kelib erdi.

Shohning iffatu muruvvatini,
Pokravlig' fanida quvvatini —

Ayladi borchasin Axiyg'a ado
Kim, yana hushi bo'ldi nopaydo.

Necha kun holin anglamas erdi,
Goh o'zinda, gahe emas erdi.

Oqibat hushi topti chun orom,
Munisi bo'ldi sarvi siymandom.

O'z uyi erdi, o'z gulandomi,
Degasen, bor Halabda oromi.

Garchi zarbaft xil'at ichra mudom
Shah yonida tutar edi orom.

Uyga kiringach qaro palosi edi
Ki, safarda aning libosi edi.

Tengri shukridakim, tili edi lol,
Toat aylar edi kiyib qaro shol

Ki: «Palos ichra yetti chun debo,
Tashlasam oni bo'lmag'ay zebo»,

Qaro tun qaddin etti sajdag'a dol,
Onchakim, tole' o'ldi subhi visol.

Yetti — bo'lg'onda tiyrau ranjur
Ko'ngliga g'ayb olamidin nur.

Qaro shol ichra o'ylakim zulmot,
Xizrdek no'sh qildi obihayot.

Bo'lubon bo'yla holidin ogoh,
Kisvatig'a tatabbu' ayladi shoh.

Chunki shah xil'ati qaro bo'ldi,
Qaro kiymak ulus aro bo'ldi.

Qaro rang elga toji torakdur,
Kim bu rang ichradur, muborakdur.

Shomi hijrong'a qolmag'ay jovid,
Qayda subhi visol tutqay umid».

Shahni xushhol etib bu afsona,
Dedi: «Ey nuktago'y farzona!

Kimsenu qay diyordinsen? — Ayt!
Kimga xeshu tabordinsen? — Ayt!»

Dedi roviyki: «Hind erur vatanim,
Axiy avlodidin yaqin ekanim.

Beri keldim ko'ngul balosi bila,
Shohning qullug'i havosi bila».

Shoh ani foqadin xalos etti,
O'z qoshinda nadimi xos etti.

Bo'lubon shod ul hikoyat ila,
Uyqug'a bordi xush farog'at ila.

XXII

Yakshanba kuni Bahromning quyoshdek zarbaft libos kiyib, gunbadi zarnigorg'a azm qilib, sarig' hullalig' hur bila bazmi aysh tuzub, oltun sog'arda asfar may ichgoni, yo'qkim, quyoshning sarig' guli ochilg'oni chog'din oftob zardig'acha anga bir yilcha kechgoni

Chunki yakshanba urdi mehr alam,
Kiydi zarbaft hulla ko'k toram.

Ko'k arusi to'nin qilib zarkash,
Chiqti andoqki gulruxi mahvash.

Shah dag'i mehrdek qadam to farq
Ayladi o'zni oltun ichra g'arq.

Sochib oltun quyosh kibi behad,
Bo'ldi manzilgahi sarig' gunbad.

Jilva qildi nigori rumiychehr.
Sarig' oltun aro nechukkim mehr.

Jomi zar ichra bodai asfar,
Ozar ichra edi yana ozar.

Lam'a har sori uydin oshqondek,
Shu'la gunbad aro tutoshqondek.

Shoh ul shu'lada samandarvash,
Ne samandarki, mehri anvarvash.

Mayi asfarg'a hamnabard o'ldi,
Onchakim, oftob zard o'ldi.

Kunduz etti qaro, sarig' to'nini,
Kun siyahtob qildi oltunini.

Mohi rumiynajod ayladi fosh
Pardag'a kirmagin nechukki quyosh.

Xobgah bo'ldi shahg'a zarrin taxt,
Uyqusi kelmas erdi o'ylaki baxt.

Yana hukm ayladiki: «Har safari
Kim, bu yo'ldin erur aning guzari,

Keturungkim, bo'lub fasonatiroz,
Bilganidin so'z aylasun og'oz».

Borg'och ul kimsakim, yo'luqti naxust,
Rahnavarde edi bag'oyat chust.

Shah qoshig'a keturdilar filhol,
Hukm ila rahravi fasonasigol.

Nukta og'oz etib duo birla,
Deb duo dilpazir ado birla.

XXIII

Ikkinchi iqlim yo'lidin keturgan musofir hikoyati

Iztirob aylamay bayoninda,
Dedi: «Jamshidning zamoninda.

Rum aro zargare edi mohir,
Ishi elga quyosh kibi zohir.

Dam anga subh, ko'ra jirmi sipehr,
Har bir oltun kulicha davrai mehr.

Rum shohi qoshida joh anga,
Johi xo'rdida korgoh anga.

Shahrda sohib iyor ham ul,
Shah qoshida xazinador ham ul.

Necha kondin nekim chiqib zaru sim,
Bo'lur erdi bori anga taslim.

Zoti ahli hunar mubohoti,
Zayd Zahhob o'lub aning oti.

Ham hakim erdi, ham muhandisvash,
Goh zarposh ediyu gah zarkash.

Tunu kun shohning nadimi ham ul,
Poytaxti aro hakimi ham ul.

Boshidin to ayoq hunar edi pok,
Ayb anga buki, edi ko'p bebok.

Aysh birla o'tub mahu soli,
Bor edi shoh moli — o'z moli.

Chun amonatda bediyonat edi,
Ishi shah molig'a xiyonat edi.

Chun hunarmand edi nihoyatsiz,
Anga shah lutfi erdi g'oyatsiz.

Hunari vasfi erdi shoh ishi,
Aybini ayta olmas erdi kishi.

Bo'lsa ham aybi oshkor anga,
Qilmas erdi shah e'tibor anga.

Qilsa ham e'tibor filhol ul,
San'ati jonibi uzotib qo'l.

Turfaye oshkor aylar edi,
Shahni beixtiyor aylar edi.

Yuz fusun birla aylar edi fireb
Ki, anga onsiz o'lmas erdi shikeb.

Dedi bir kunki: «Shohi olamgir,
Kim, bo'lubtur aning makoni sarir.

Shoh chun keldi shohlardin fard,
Taxti dog'i anga kerak darxo'rd.

O'zgalarga yig'ochdindur taxt,
Loyiq uldurki, shohi farruxbaxt.

Tutqay oltun sarir uza maskan,
Ko'zni ul maskan aylagay ravshan.

Ganj aro behisob erur oltun.
Yana afzun dag'i bo'lur har kun.

Anda turmoqda hech foida yo'q,
Munda erur tamom foida-o'q.

Ham bo'lar shahg'a o'zga farru jamol,
Ham muhayyo erur o'z o'rnida mol».

Shahg'a keldi bu nukta mustahsan,
Dedi: «Ey borcha fan aro yakfan!

Bu xayolingg'a yaxshi kelmishdur,
Bot ilik urki, dilpazir ishdur».

Ikki ming botmon oltun etti talab,
Butgali ul maqomi ayshu tarab.

Hukm bo'ldiki: «Olsunu ketsun,
Taxt butmokka jiddu jahd etsun!»

Naqdni oldi faylasufi jahon,
Bo'ldi o'z korxonasida nihon.

Tunu kun ehtimom aylar edi,
Sa'yu jahdi tamom aylar edi.

Toki bir yilda topibon tartib,
Topti ajzosi borchasi tarkib.

Vaz'i ul taxtning musamman o'lub,
Rub'i maskun shahig'a maskan o'lub.

Ham sekiz burj davrida payvast,
To'rti oning balandu to'rti past.

Pastida to'rt to'tiyi ma'nus,
Biyiki uzra to'rt o'lub tovus.

Davrida durru la'l piroya,
Zinasida dog'i sekiz poya.

Lek ul nav' ko'rguzub san'at
Ki, chiqar bo'lsa, shohi Jamrif'at

Poyalar maqdamida bo'lg'ay past,
Aylagay bir-biri yuziga nishast.

Chun sekiz poya qat' bo'ldi tamom,
Aylagach shoh o'z yerida maqom.

Yana ul poyalar baland o'lg'ay,
Taxtidin shoh bahramand o'lg'ay.

Chunki o'lturdi taxt uza dilxush
To'rt to'ti navo chekib dilkash.

Aytqaylarki: «Shahg'a kom o'lsun,
Anga bu taxt mustadom o'lsun!».



Diloromning Bahrom huzuriga qaytishi.

To'rt tovus ham ochib paru bol,
Shoh boshi uza humoy misol,
Topibon har biri biyik poya,
Aylagaylar qanot ila soya.
Poya o'rnida sekiz anga sutun,
Ostida berkitib sekiz gardun
Kim, qayon shah bo'lur nishotangez,
Oz ishorat bila yugurgay tez.
Bermagay el chekarga tobu favon,
Bu ekin olam ichra «taxti ravon».
Bu sifat taxti osmon tazyin
Ko'rmagan o'yla hech taxtnishin.
Chunki topti tamom oroyish,
Ustida shah toparg'a osoyish,
Kelturub shoh bazmida tuzdi,
Tuzari ichra sehr ko'rguzdi.
Topti chun shoh taxt uza taskin,
Hadsiz ehson bila qilib tahsin.
Dastgohin balandroq qildi,
Qoshida arjumandroq qildi.
Anga bor erdi necha hampesha,
San'atoroyu chobukandesha.
Jazm edilarki, taxti gardunvash
Oydur, ammo gunash bila ro'kash.
Vazn aro tengdur ulcha naqd olmish,
Lek oltun aro kumush solmish.
Fikri bukim, bu san'atu oyin
Birlakim bermisham anga tazyin.
Mumkin ermastur ani buzmoq shoh,
Toki bo'lg'ay hu rozdin ogoh.
Urdilar roy borchasi yig'ilib,
Ul ish ifshosig'a hujum qilib.
Zayd vahmi va lek g'olib edi
Kim, anga shoh asru tolib edi.
Chora bu nav' qildilar oxir
Ul nihon ishini qilg'ali zohir

Ki, topib ikki to'tiyi dilkash,
Ikkisin notiq aylagaylar xush.

Biri degayki: «Taxt ro'kashdur»,
Biri degay: «Musannifi g'ashdur».

Toptilar ikki to'tiyi mavzun,
Rang ichinda sipehri axzargun.

Aylab ul ikki nukta ichra fasih,
Zaydni aylamoq uchun tafzih.

Taxt asrar kishini yor aylab,
Naqd ayog'ig'a ko'p nisor aylab.

Rozi aylabki shohi taxtoroy
Subh taxt uzra bo'lsa jilvanamoy.

Maxfi o'lub iki dag'opardoz,
Tutqay o'rnida yer iki g'ammoz.

Ikki to'tini hech qilmay biym,
Siym olg'ong'a qildilar taslim.

Ul ham andog'ki maslahat bildi,
Ikkini ikkiga evaz qildi.

Subhkim shoh qildi mayli sarir,
Ikki to'ti chekib falakka safir,

Dedilar shahg'a beshikastu qusur
So'znikim, bo'ldi yuqori mazkur.

Shahni aylab ul ishda hayrat lol,
Ul g'arobatdin etti istidlol

Ki: «Bu ish qilg'on ul kishi bo'lg'ay
Kim, aning Zayd ila ishi bo'lg'ay.

Vahm etib andin aylamish nokom
Aybini qush tili bila e'lom.

Ul agar Zayddin harosondur,
Bizga tahqiqi behad osondur».

Bo'ldi bir poyasi chu suhonsud,
Oshkor o'ldi qalbi ro'yandud.

Bu xiyonatki Zayd ko'rguzdi,
Shahg'a ozarm rishtasin uzdi.

Boru yo'q molin etti devoniy,
Soldilar chahga band etib oni

Ki, aning og'zi tor edi, tubi keng,
Og'zi ravzancha, tubi uy bila teng.

Yasab erdilar onikim, nogoh
Anda mahbus bo'lsa ahli gunoh,

Bo'lsa ul chahda nechakim sokin,
Qochmog'i bo'lmag'ay anga mumkin.

Tiyralikda firoq shomi kibi,
Qayd qilmoqda hajr domi kibi.

Zaydg'a rotibaki bo'ldi daqiq,
Non ikki qurs edi, su bir ibriq.

Angakim o'yla qalbliq ish edi,
O'yla kunni o'ziga tutmish edi:

Xanjare asrar erdi pinhoni,
Yoshurun ham bor erdi suhoni.

Xanjar ko'nglak ichra erdi nihon,
Xanjar ichra nihon edi suhon.

Dedi, har nechakim og'irdur band,
Yoki muhlik bu g'ussagohi gazand.

Garchi bo'lg'ay fitodalik chekmoq,
Choradin bo'lmag'ay ilik chekmoq.

Har kun ul nonu suvki olur edi,
Nonni bir go'sha ichra solur edi.

Xanjari birla qozibon tufrog',
Bolchig' aylar edi su olg'on chog'.

Choh og'zi to'shi tilab voya,
Bolchig'idin yosor edi poya.

Kesmish erdi ayoqlaridin band,
Non isi birla bor edi xursand.

Har kun afg'onu zor tortar edi,
Suv uchun intizor tortar edi.

Suvi kelgach yana yasab bolchig',
Ibtido aylar erdi bannolig'.

Za'f anga gar gazand o'lur erdi,
Poya har kun baland o'lur erdi.

Necha oy mundoq aylabon kina,
Yetti ravzanning og'zig'a zina.

Ravzan og'zida erdi og'ir tosh,
Chiqibon zina uzra san'atfosh,

Xanjari no'gi chun anga yetti,
Toshni bir yonidin shikof etti.

Naqbankanlik fanini fosh aylab,
Yerni xanjar bila xarosh aylab,

Sa'y ila ul qadar to'shuk ochti
Kim, o'shul chohdin chiqib qochti.

Bildi, shah topsa o'lturur ani jazm,
Turmay etti Farang sari azm.

Qochqonidin chu bo'ldilar ogoh,
Xalqdin ul xabarni angladi shoh.

Fahm etibkim, ne choralar etmish
Kim, o'shul chohdin chiqib ketmish.

Oncha makru firebu nav'i bilik,
Tishlatib shahg'a lahza-lahza ilik.

Bu taraf Zayd o'lub, zaminpaymoy,
Jonni qutqorg'ali qadamfarsoy.

Yo'lda har lahza topib o'zgacha ranj,
Bo'lg'uncha jilvagohi mulki Faranj.

Chunki bo'ldi makoni ul iqlim.
Yo'l qilur erdi qat' qilmay biym.

Necha kun qat' etib necha mahfil,
Qildi Qustantaniyani manzil.

Chun anga bo'ldi muntahi ul sayr,
Shahr toshida bor edi bir dayr.

Yo'l ani qilmish erdi farsuda,
Bo'ldi ul dayr ichinda osuda.

Dayr erdi binosi besaru bun,
O'ylakim bu rafe' dayri kuhun.

To'rida bir vase' koshona,
Dema koshona, balki butxona.

Saqfu atrofin aylabon zarkor,
Oltunu lojuvard birla nigor.

Borcha yashmu samog' izora,
Lek farshi ruxomi yakpora.

Toqlar bog'labon nihoyatsiz,
Zeb har toqi ichra g'oyatsiz.

Lek har toq aro bir oltun but,
El parastish qilurg'a har kun but.

Chun takalluf nihoyatig'a yetib,
Ko'p javohir bila murassa' etib.

Ikki po'lod eshik falakpayvand,
Rang ila sayr aro falakmonand

Qufli oltun, valek rahbonlar,
Mahkam aylab nechukki darbonlar.

Subh ila shom ul eshik ochilib,
El parastish ishiga mayl qilib.

Tarqagach borcha el barahman chust,
Ul eshikni muqaffal aylab rust.

Ko'rdi chun faylasuf ul saru kor,
Anda aylandi o'ylakim pargor.

Dedi: «Bu yerda muncha oltun muft,
Men qilurmen shah oltunini nuhuft?»

Keldiyu o'zni butparast etti,
Dayr dargohida nishast etti.

Kufr ahlig'a har ne erdi rusum,
Qildi oz chog'da borchasin ma'lum

Kecha-kunduz ibodat aylar edi,
Har dam oni ziyorat aylar edi.

Ko'rguzub har sanamg'a bir ixlos
Ki, samad sajdasida bandai xos.

Makru rev oncha ayladi paydo
Ki, ul el bo'ldilar anga shaydo:

Bori arzi irodat ayladilar,
Amri birla ibodat ayladilar.

To parastishdin ul baland maqom
Dayrning ixtiyorin oldi tamom:

Anda butxonaning kalidi dag'i
Butgaru butparast umedi dag'i.

Ishni chunkim bu yerga yetkurdi,
Butshikanlikka raxshini surdi.

Kecha el aylaganda uyqug'a mayl,
Yuz urar erdi har yon o'ylaki sel.

Bahrning sohilida ko'hsore,
Topti ul ko'hsor aro g'ore.

Ahli dindin anga bir-iki rafiq
Bor edi qat' etar mahalda tariq.

Johu davlat zamoni xodim anga,
Ranju mehnatda ham mulozim anga.

Lek ul butparast bo'lg'on chog'
Tushubon jonlarig'a dard ila dog'.

Andin ushbu ajib suratdin
Ayrilib erdilar zaruratdin.

Topib ul ikkini talab birla,
Arzi hol ayladi tarab birla.

Ul ikav ham tarab shior etti,
Bu ul ikkini yori g'or etti.

Chun amin erdilar anga payvast,
G'or sahni aro buyurdi nishast.

Dedi: «Zargarlik ichra ne asbob
Ki bo'lur, aylangiz toparda shitob.

Neki omoda qilsangiz oni,
Kelturung g'or ichiga pinhoni».

Alar aylab nekim kerak tayyor,
Xoja har tun alar sori sayyor.

Elning ollida so'mnotparast,
Tongdin oqshomg'a tegru lotparast.

Ko'zda chun uyqu xayli jo qildi,
Xoja ul dayrdin havo qildi.

G'orni korgoh aylab edi,
El ko'zidin panoh aylab edi.

Yasar erdi bute temurdin chust,
Dayrning har buti shabihi durust.

Juzve oltun birla qilib ro'kash
Ki, ko'rungay nazarg'a zarrinvash.

Ham javohirg'a dastkor farang,
Aylab omoda shisha rango-rang.

Uzv-uzvig'a andoq aylab band
Ki, bo'lub mutlaqo anga monand.

Rost bo'lg'ach, muhandisi komil
Ul ikavni qilur edi homil.

Yoshurub yaxshiyu yomon eldin,
Dayrg'a yetkurub nihon eldin.

Aylabon fath bobi butxona,
Ochib eshikni hushmandona.

Qaysi butkim anga nazir yasab,
O'xshamog'likda dilpazir yasab.

Uydagi butni bemahal qilibon,
Yasag'on but bila badal qilibon.

Butni eltib ul ikki g'or ichra,
Bu qolib dayri zarnigor ichra.

Bog'lab ochqon eshikni ohista,
Asrab ul maxfi ishni sarbasta.

Muddate bo'yla erdi oning ishi,
Ishiga voqif ermas erdi kishi.

Toki kuffor ilohidin bir iloh
Qolmadi «Loiloha illolloh»

Balki oltun lagan bila qandil
Borcha topti temur bila tabdil.

Chun ne but qoldiyu ne tashtu lagan,
Xoja arz etti xorxori vatan.

Ul chu qildi bu ma'ni izhori,
Bo'ldi kufr ahli tangdil bori

Kim: «Bu dayr ichra elga murshidsen,
Kufr aro muttaqiyu zohidsen.

Nega hijron navosini tuzdung?
Tengrilardin netib ko'ngul uzdung?»

Dedi: «Uzmak ko'ngul ne so'z bo'lg'ay?
Hajr uzrin kishi netib qo'lg'ay?

Ham alar amridin bu azm o'lmish,
Safar etmak xayoli jazm o'lmish.

Meni bu nav' voqif ayladi lot
Ki, tugangan emish onomg'a hayot.

Voqe' o'lg'on zamon bu ish hodis,
Naqd ko'p, mendin o'zga yo'q voris.

Boribon ul nuqudni egalay.
Yana Lotu Manot sori kelay.

Nazr etibmen nekim bo'lur hosil,
Dayr xarjig'a qilg'amen vosil.

Molu ne'mat murodim ermastur
Kim, manga dayr ne'mati basdur.

Hajr aro garchi g'am bila to'lg'um,
Qayda bo'lsam alar bila bo'lg'um».

Kufr ahli malolat aylah fosh,
Bori qo'yub aning ayog'ig'a bosh,

Dedilar sarbasar bo'lub g'amnok
Kim: «Musallam sanga aqidai pok.

Dininga kufrdin vabol o'lsun,
Kofir o'lmoq sanga halol o'lsun.

Furqatingdin xarob erur bu el,
Sog' borg'il dag'i salomat kel.

Lek sen kufri chu fan qilding,
Muddate dayr aro vatan qilding,

Chun tilarsen diyoringa ketmak,
Bizga vojibdurur yarog' etmak».

Hojat ermas debon bu qildi xuro'sh
Asru taklif bo'lg'ach, o'ldi xamo'sh.

Yig'ilib dayr aro sharifu vazi'
O'lturub borecha qildilar tavzi',

Ko'rguzub jiddu jahd g'oyatsiz,
Mol jam' ettilar nihoyatsiz.

Anga borin takalluf ayladilar,
Xoja borin tasarruf ayladilar.

Garchi bor erdi borg'ali mash'uf,
Bo'ldi ulkun yarog' uchun mavquf.

Har ne butkim, bor erdi g'or ichra,
Ikkisin soldi bir qaror ichra.

Toki ellik qaror but to'ldi,
Har qaror ichra ikki but bo'ldi.

Tiqibon puxta qildi mahkamvor,
Zarflarning arolarin hamvor.

Tog' etoginda erdi chun sohil,
Kelib ul yerga ayladi manzil.

Bu qadar chunki voya tutmish edi,
Turfa junge kiroya tutmish edi.

G'or aro harne erdi pinhoni
Jung aro toshitib edi oni.

Har jihatoki so'ngra berdilar,
Suv yoqosig'a toshib erdilar.

Xoja soldi alarni ham kemaga,
Ehtimom aylabon bori nimaga.

Borchadin chun ko'ngulni shod etti,
Yorlar birla xayrbod etti.

Furqat o'tig'a tushtilar borcha,
Zor yig'lab quchushtilar borcha.

Xoja ashob aro alam qo'ydi,
Yurubon kemaga qadam qo'ydi.

Dedi: «Bir ruq'aye bitibdurmen,
Dayr ichinda nihon etibdurmen.

Tilabon ul xujasta inshoni,
Lot olida topqunguz oni.

O'qunguzkim, base favoid erur
Kim, sizning holingizg'a oid erur».

Kemani surdi bu urub xoda,
Yondi ul dayrg'a suruk loda.

Ruq'asin oldilar fig'on aylab,
Surtubon ko'zga hirzi jon aylab.

O'qug'och ul suruk asiri firoq,
Qilg'onin yozmish erdi boshin-oyoq.

Qoldilar ul fasonadin bori dang,
Kishidekkim, yegay xumor uza bang.

Chun tafahhusda qildilar tadqiq,
Yozg'oni chiqti borchasi tahqiq.

Tushti kuffor ichinda to'fonlar,
Aqlu donish ko'rung, musulmonlar.

Bu taraf hiylasozi daryogard
Necha kun yeldek erdi bahrnavaard.

Shurtasida chu bor edi quvvat,
Sharta yelida ham ajab sur'at.

Saraton birla Hut manzilidin
O'tubon chiqti Rum sohilidin.

Rum shohida bor edi bir ranj
Ki, solur erdi paykariga shikanj.

Bo'lg'och ul za'fdin shikasta mizoj,
Faylasuf anga aylar erdi iloj.

Chunki bo'ldi hakim mutavoriy,
Ul maraz bo'ldi shohg'a toriy.

Shahg'akim ul maraz muzohim edi,
Tab'ig'a umr nomuloyim edi.

Hech kim aylabon mudorosin,
Qila olmas edi mudovosin.

Qilg'onidin topib pashonliq.
Sud qilmay vale pushaymonliq.

Ko'rubon jismi notavononi
Yod ko'p aylar erdi dononi.

Chunki chiqti hakim daryodin,
Qildi bas turfa qissa bunyodin.

Garchi bori ishi ajib erdi,
Lek bu borchadin g'arib erdi.

Eliga qo'ydi borcha ashyoni,
Urdu yuz shahr ichiga pinhoni.

Oyog'ig'a solib ham ul bandin
Ki, kesib ketmish erdi payvandin,

Tutti pinhon hamul chah ichra qaror
Ki, chiqib andin etmish erdi firor.

Chunki zindon muakkili bildi,
Yugurub shohg'a xabar qildi.

Shahki, bu qissadin nishon topti,
Go'yiyo o'lmish erdi, jon topti.

Chun yo'q erdi tanig'a tobu tavon,
Dedikim: «Kelturung qoshimg'a ravon».

Lutfu ehson bekarona qilib,
Xossa xil'atlarin ravona qilib.
Balki ul nav' lutflar chog'i,
Yiborib xossa markabin dog'i.
Xojag'a chun keturdilar payg'om,
Chiqmoyin shahg'a ayladi e'lom
Ki: «Chu men shohdin g'azab ko'rdum,
Choh aro ranj ila taab ko'rdum.
Ne xiyonatki ayladim, bilayin,
Biriga o'n evaz ado qilayin.
Yana bir arzim ushbu nuktaki, shoh
Tortibon har yil ikki qatla sipoh.
Rum molini aylabon barbod,
Aylar ahli farang birla jihod
Ki, alar butlarini sindurg'ay,
Ko'nglini din ishida tindurg'ay.
Lekin ul yon chekib husom hano'z,
Dast bermaydurur bu kom hano'z.
Men alar butlarin tamom ushotay,
Oltunin shah xazinasig'a qotay.
Shah boshig'a sochay javohirini,
Zohir aylay nihonu zohirini.
Yana shah komini ravo aylay,
Har nekim dardi bor, davo aylay.
Lek vaqtteki shohi olamgir,
Solib a'dom ayog'ig'a zanjir
Borchasin olima ravon qilg'ay,
Meni sarsabzu komron qilg'ay,
Men etib shah sori xiromimni.
Asrag'aylar alar maqomimni.
Toshqori bo'lmadi yerim xoli,
Chahda ham xoli o'lmag'ay holi.
Manga gar bu murod bermasa dast,
Choh qa'rindadur yerim payvast».
Ayladi chunki nukta itmomin,
Shahg'a yetkurdilar bu payg'omin.

Shah alardin ko'rub jinoyat ko'p,
Ham bo'lub erdi beinoyat ko'p.

Munsiz istar ediki band etgay,
Chohu zindong'a mustamand etgay.

Jismi mulkin chu za'f tutmish edi,
Bu jihatdin ani unutmish edi.

Erdikim, bu fasona bo'ldi anga,
Bas munosib bahona bo'ldi anga.

Dedikim, qildilar borin mahbus,
Choh qa'ri aro buyurdi julus:

Xoja uyni alarg'a topshurdi,
Uyidin toshqori qadam urdi.

Qilmayin band toshlamoqqa darang,
Kiydi shah to'nlarini rango-rang.

Otlanib shah sori xirom etti,
O'pubon dargah ehtirom etti.

Chunki shah xilvatig'a qo'ydi oyog',
Yer uza tushti o'ylakim tufrog'.

Shoh tufrog'din ko'tardi ani,
Quchqali taxt uza chiqardi ani

Quchubon borcha holini so'rdi,
Ilgin oning qo'lig'a topshurdi.

O'pti shoh ilgin ul nechukki rusum,
Ayladi nabzi holatin ma'lum.

Nabzidin ranji daf'ini bildi,
To'rt-besh kunda-o'q davo qildi.

Chunki shah tab'i ichra qolmadi ranj,
Ollida to'kti ul keturgan ganj.

Shohni hayrat ayladi bexud
Kim, ul ishni inonmas erdi xirad.

Dedi: «Sharh ayla bu hikoyatni,
Bul'ajablikda benihoyatni».

Dedi borin muhandisi mohir,
Shahg'a ixfosin ayladi zohir.

Shoh tab'ig'a aylab ul qavli,
Ajzini lahza-lahza mustavli.

Borcha ishni chu arz qildi hakim,
Ganj xozing'a ayladi taslim.

Shah anga oncha ayladi ehson
Ki, emas sharhin aylamak oson.

Surdi butlarg'a hukm yakbora,
Qildilar har birini yuz pora.

Ganji Qorunni hech qilmay biym,
Etti din ahlig'a borin taqsim.

Hukm qildiki to'nin oqu qaro,
Qildilar g'arq sarig' oltun aro.

Chunki zarbaft har bisot o'ldi,
Har bisoti yuz inbisot o'ldi.

Oltun ul elni kuldurub chandon,
Za'faron uylakim qilur xandon.

Nechadin so'ng bo'lub ishorati xos,
Chohu zindon eli ham o'ldi xalos.

Elga har dam qilib nazora chog'i,
Chehradin oltun ul guruh dog'i.

Elga bu dog'i kulgu kelturubon —
Bag'ri qotquncha balki kuldurubon.

Kahrabo rang gar mufarrih emas,
Ne uchun ul chekar samonniyu bas.

Kimki ishq etsa rangini kohi,
Bot ko'ngulga asar qilur ohi.

Bo'lmayin subh za'faroniy chehr,
«Charx ko'rguzmas anga hargiz mehr».

Shohi Bahrom chun eshitti tamom,
Shod o'lub so'rdi: «K-ey xujasta kalom!

Senki bu safha aylading tahrir,
O'z hadisingni dog'i qil taqrir.

Borcha holingdin et xabar bizga
Kim, daming qildi ko'p asar bizga».

Dedikim: «Rum mulkidur vatanim,
Tibbu hikmatdurur shioru fanim.

Bu muhandiski ayladim yodi,
Manga obodur oning avlodi.

G'arazim bo'lg'ali bu yon ozim,
Bo'lmoq erdi sanga kamin xodim.

Shukrilillah, nekim murod ettim,
Davlatingdin murodima yettim».

Shah chu fahm etti bu tamannoni,
Nudamosidin ayladi oni.

Surmog'i mujdasin chu bermish edi,
O'yqu shahning ko'ziga kirmish edi.

O'yla uyqug'a soldi oni bu so'z
Kim, quyosh chiqmog'uncha ochmadi ko'z.

XXIV

*Dushanba kuni Bahromning navbahor monand axzar libos bila
gunbadi axzarg'a yuz qo'yg'oni va sarvi sabzorang sabz hulla bila
jomi zumurradfom ichinda zuloli hayot no'sh qilg'oni va ul chashmai
zindagonidin Xizr hayoti kasb etgoni*

Chun dushanba sipehri zangori
Zangdin qildi ko'zgunin ori.

Qildi yuz revu rang ila gardun,
Subh chodirshabin zumurradgun.

Chashmasi birla mehri olamtob,
Qildi ko'k sabzavorini serob.

Shah qilib xil'atini rayhoni,
Rost andoqki, sarvi bo'stoni.

Sabzazor ustiga xirom etti,
Yashil ayvon aro maqom etti.

Jilvagar bo'ldi sarvi sabzorang,
Aylabon xil'atini minorang.

O'zi sabzu tabassumi shakarini,
Xushturur sabz gar erur shirin.

Noz birla nigori yag'moyi,
Shohg'a tutti jomi minoyi.

Olibon dam-badam, ichib Bahrom,
Oydin ul sog'ari zumurradfom.

Angachakim zumurradin gardun —
Bo'ldi tun xayli dudidin shabgun.

Soldi shah ko'ngliga xayol gazand,
Ko'zi uyqug'a bo'ldi hojatmand.

Yana andoqki bor edi ma'hud,
Bo'ldi qullar ravon, nechukkim dud.

Topibon rahravi biyoboni,
Shah qoshig'a keturdilar oni.

Dedi shah: «Parda toshida filhol
O'lturub bo'lsun ul fasonasigol».

Hukm birla musofir ohista,
Ayladi nuktasini payvasta.

So'zni boshlab burun sano birla,
Shahg'a madh ayladi duo birla.

XXV

Uchinchi iqlim yo'lidin keturgan musofir aytqon afsona

Chun duoni oshurdi gardundin
Dedikim: «Muddate burun mundin

Misrda xojae bor erdi g'ani,
Eshigi hojat ahlining vatani.

Molig'a g'oyatu nihoyat yo'q,
Xoni bazlig'a haddu g'oyat yo'q.

Bor edi bir xujasta farzandi
Ki, yo'q erdi jahonda monandi.

Borcha fazlu hunar aro mohir,
Yuzidin hushmandlig' zohir.

Misr shohicha naqdu mol ichra,
Yusufi Misricha jamol ichra.

Ato molig'a ixtiyori aning,
Atosining yo'qiyu bori aning.

Zohir ahli jahon ulumi anga,
Ilmu fazl ahlining hujumi anga.

Oti Sa'd erdi, kavkabi mas'ud,
Atog'a ul hayotidin maqsud.

Yasabon turfa mehmonxona,
Yo'l topib anda xeshu begona.

Safar ahlig'a bori om berib,
Har musofirki, yetsa kom berib.

Mehribonliq bila soʻrub oni,
Aylab ulcha rioyat imkoni.

Chun uyotliq qilib rioyatdin,
Lutфу ehsoni benihoyatdin.

Soʻrubon bilganiyu koʻrganini,
Ne bilik kasbida yugurganini.

Chun bilib borcha rozi pinhoni,
Ne kiromand oʻrganib oni.

Chun bu ishni shior qilmish edi,
Koʻp ulumi gʻariba bilmish edi.

Oʻrganib erdi kasb etar chogʻi,
Sehru nayrangu kimiyo dogʻi.

Yetti bir kun qazodin ikki gʻarib,
Bu taraf solibon alarni nasib.

Ikkisi jismida nekim asvob,
Bor edi sarbasar yashil moshob.

Saʼd ochti rioyat avvobin,
Tuzdi har yon ziyofat asbobin.

Oʻylakim bor edi shiori aning,
Anda yoʻq erdi ixtiyori aning.

Oncha mardumliq oshkor etti
Kim, ul ikkini zeri bor etti.

Lutфу xulqidin ikki axzarpoʻsh,
Lolliqdin bor erdilar xomoʻsh.

Bir kun istab alargʻa osoyish,
Suhbati qilmish erdi oroyish.

Har nekim tabʼ istabon holi,
Bazm andin emas edi xoli.

Boda aylab edi dimogʻini garm,
Murtafiʼ boʻlmish erdi pardai sharm.

Saʼd diljoʻluq aylabon behad
Aylar erdi ul ikkini bexud.

Lutф ila koʻp chu qiylu qol etti,
Burna kishvarlarin savol etti

Ki: «Qayu mulk sizga boʻldi maqar?
Nedin oʻldi libosingiz axzar?»

Dedilar: «Kishvare durur dilkash,
Oti ham Shahrizabz erur ham Kash.

Xizr monand sabzadin rangi,
Sabzasi suyi ko'zgusi zangi.

Shahrizabz o'ldi bizga chun mulkat,
Yo'q ajab gar yashil durur kisvat».

Dedikim: «Emdi har g'arib umur,
Aylangiz ko'rmish o'lsangiz mazkur».

Biri dediki: «Ul diyor sori,
Ravza monand sabzazor sori —

Bordurur tog' ichinda bir kishvar.
Kishvar ahli otin debon Kitvar.

Anda butxone durur oli,
Rif'at ichra sipehr timsoli.

Yetibon ko'kka toqining boshi,
Tosh ila ham ichiyu ham toshi.

Ichiyu toshi sarbasar tasvir,
Jonvar shakli tortilib bir-bir.

Har kishi anda aylasa manzil,
Budur anda g'arib ish hosil

Ki, anga dahr soziyu so'zi,
Har nekim Tengri aylamish ro'zi.

Kiribon ul savodi minug'a,
Kecha kim ko'zi borsa uyqug'a.

Tush ko'rar hech shaksizin ul shom
Ki, iki surati g'arib andom

Kelib oning qoshig'a derlar so'z,
Tikib oning yuziga har biri ko'z.

Har biri bir hadis anga aytur,
Kelgachu degach o'rniga qaytur.

Biri bir yaxshiliqki ko'rgusi ul,
Bir tana'um soriki topqusi yo'l.

Biri der ranjkim qo'yar anga yuz,
Tolii solibon sug'a yulduz.

Bu iki ishdin o'lg'och ul ogah,
Uyqudin seskanib qo'par nogah.

Yaxshiroq ish sori shitob aylar,
Ne yomon bo'lsa, ijtinob aylar».

Bir musofir chu nuktasin surdi,
Yana bir dog'i nukta kelturdi

Kim: «Hamul dayr ichinda piridur,
Anga kundek yorug' zamiridur.

Kimki dayr ichra ko'rdi ul tushni,
Topti o'zida ayshu qo'rqushni.

Tushtagi komi sori topmasa yo'l,
Yo mashaqqatg'a chora topmasa ul,

Holidin gar xabar topar ul pir,
Anga aylar hamul zamon tadbir.

Shart budurki, ulki tush ko'rgay,
O'zni ul ikki ishga to'sh ko'rgay.

Boribon piri kordon qoshig'a,
Holini aylagay ayon qoshig'a.

Qaysi bir ishga qilsa ul irshod,
Qilsa ul nav' justujo'y murod».

Sa'dkim bu fasona go'sh etti,
Orzusida tarki hush etti.

Ul kun alqissa kom yo nokom,
Tutti suhbat alar bila to shom.

Kecha ul g'amda bo'ldi savdoyi,
Jazm qildi musofirat royi

Ko'ngliga dayr solibon qayg'u,
Ko'zidin ul tush eltibon uyqu.

Subhidamkim, sipehri minogun,
Yerni bayzodin etti bayzogun.

Ul shaaf ko'nglidin qarorin olib,
Havas ilgidin ixtiyorin olib.

Atosi xidmatig'a qildi xirom,
Arz qildi nekim anga edi kom.

Xoja man'ida qildi ko'p tadbir,
Qilmadi ko'ngilga aning ta'sir.

Chun havas qildi elni bechora,
G'ayri taslim o'zga ne chora.

Xoja ko'rdiki man'i mumkin emas,
Suv bila azmi o'ti sokin emas.

Garchi yig'lab g'amida oh urdi,
Lek Tengriga oni topshurdi.

Ollida arz qildi molu manol,
Dedi: «Onchaki ko'nglung istasa oll!»

Ayladi amr Sa'di ozoda
Safar asbobin etmak omoda.

Ishchilar o'n kun etti jahdu shitob,
Toki bo'ldi murattab ul asbob.

Neki andoq topilmag'ay yona,
Komgorona, balki shohona.

Buxtiyi simkash qator-qator,
Yuki ichra diram hazor-hazor.

To'rt yuz qul kamar bazar bori,
La'lu durdin bezab kamar bori.

Har nekim odami xayol etgay,
Yo nekim el gumonig'a yetgay.

Balki vahm etmagan iroda dag'i,
Borcha mavjud edi ziyoda dag'i.

Ayladi ko'p rioyat aylab fosh,
Ul iki sabzpo'shni yo'ldosh.

Oqizib ikki ko'zidin iki ro'd,
Atosi birla ayladi padrud.

Ato o'lmak o'ziga jazm etti,
Tutubon motam, o'g'li azm etti.

O'yla surmakda erdi musta'jil
Kim, bir aylar edi iki manzil.

Ul iki rahravi zumurradpo'sh,
Rahnamoyi aning, nechukki suro'sh.

Gah munga, ul qarinu goh anga,
Xud bu ikkisi Xizri roh anga.

Muddate aylabon biyobon tay,
Qo'ydilar istagan diyorg'a pay.

Boshladi yo'lni ul iki hamsayr
Anga tegruki bor edi ul dayr.

Tushubon anda toptilar orom,
Oldilar sharbatu taom ila kom.

Dayr ahlig'a ko'p rioyat etib,
Lufu diljo'yluq bag'oyat etib.

Sa'dning g'olib o'ldi savdosi,
Qilg'ali dayrning tamoshosi.

Qo'ptiyu dayr ichiga qildi xirom,
Ikki hainrohi birla gom-bagom.

Sayr aylab nazar solur erdi,
Lek hayrat aro qolur erdi.

Chunki mehrin yoshurdi dayri sipehr,
Tun ham o'ldi sipehrdek bemehr.

Sa'd ul dayr ichiga qildi mayl,
Bo'lg'och ogoh dayr girdida xayl

Kelibon, berdilar nasihatu pand
Kim, ko'p o'lmish bu ishdin elga gazand.

Havas etmish edi ani mag'lub,
Tushmadi pand ko'ngliga marg'ub.

Kiribon dayrni panoh etti,
Bir qirog'inda xobgoh etti.

Bog'ladi barhaman eshikni chust,
Hisni Xaybar eshigi yanglig' rust.

Dayr davrida Sa'd eli noshod,
Qilg'onidin o'ziga ul bedod.

Anga xud vahm ul sifat g'olib
Ki, bo'lub chiqmog'ig'a ko'p tolib.

Juz nadomat xayolig'a yetmay,
Ul nadomat valek sud etmay.

Mutaazzir ko'ziga uyqu ishi,
Bo'lmayin uyqu tush ko'rarmu kishi?

Tongg'a tegru ichiga vahmu haros,
Har zamon ko'ngli ichra yuz vasvos.

Borcha tun og'zi ichra uyqu so'zi,
Subhdam uyqudin qiziqti ko'zi.

Tushiga kirdi ham bu oliy dayr
Kim, qilur erdi anda har sori sayr.

Ko'rdikim, ikki surati dilkash,
Qush kibi, lek rangi axzarvash.

Mutaharrik bo'lub, navo aylab,
Dayrdin uchtilar havo aylab.

Uchubon evrulub aning boshig'a,
Qo'ndilar ikkisi kelib qoshig'a.

Birisi chekti mujda birla xuro'sh,
Qildi mundog' nido nechukki suro'sh

Kim: «Nasibing sening pari bo'lmish
Ki, yuzi mehri xovari bo'lmish!»

Yana bir biym birla qildi nido,
Etti maqsudini bu yanglig' ado

Kim: «Seni dev qilg'usidur asir,
Solib ikki ayog'inga zanjir».

Qilibon hayrat ul g'arobatdin,
Seskanib qo'pti bu mahobatdin.

Har sori soldi ko'z, chekib afg'on,
Subhdin yorub erdi dayri mug'on.

Qo'pubon chun eshik sori qochti,
Kelibon barhaman eshik ochti.

Chiqq'och oshuftaroy savdoyi,
Ayladi ul tush oni shaydoyi.

Kechaga tegru beqaror erdi,
Ishi har dam fig'onu zor erdi.

Qavmu xayliga iztirob tushub,
Har birining ichiga tob tushub

Qo'ydilar ikki kordon sori yuz
Ki: «Biringiz so'zi xud o'ldi tuz.

Telba bo'lmish g'arib ovora,
Chora vaqtidur, etsangiz chora».

Yana bir kordoni komil aql
Ki, ikkinchi so'z etmish erdi naql.

Keldi Sa'd olig'a niyoz bila
Og'zi ichra nuhufta roz bila

Ki: «So'zekim men ayladim taqrir
Ki, bu dardingg'a chora aylar pir.

Qo'pki, oring sori qo'yoli qadam,
Shoyad o'lg'ay gum ushbu dardu nadam».

Sa'd bo'ldi alar bila hamroh,
Boshladilar yo'l ikki kor ogoh.

Qildilar azm ko'hsor sori,
Tog' aro bir qorong'u g'or sori.

G'or aro kirdilar haros bila,
Rahravi ikki rahshunos bila.

Ko'rdilar g'or ichinda ayvone,
Ko'hkan teshasi qozib oni.

Go'shada mu'takif deyilgan pir,
Xalqdin g'or ichinda uzlatgir.

Javhari jismi tiyra kon ichra,
Olami muxtasar makon ichra.

Jismi oshufta sochi ichra nihon,
O'ylakim, tun savodi ichra jahon.

Ko'ngli ichra ulumi pinhoni,
Kon ichinda javohiri koni.

Fosh hikmat shukuhi zotidin,
Yetti yuz yil o'tub hayotidin.

Ne jahondin anga umed, ne biym,
Deb otin xalq Paylaqus hakim.

Ko'rgach-o'q hayrat ettilar turubon,
Ko'ksiga qo'llarin qovushturubon.

Voqif erdi hakimi ravshanroy,
Ochibon sochin o'ldi chehrakushoy.

Yuzi nuri yorutti ayvonni,
O'ylakim mehr nuri davronni.

Mizbonliq xayoli bot etti,
Mehmonlarg'a iltifot etti.

Ko'rubon ul shukuh ila tamkin,
Qo'ydilar tiyra tufrog' uzra jabin.

Sa'dg'a dediki: «Ey saodatmand,
Zotinga bermasun zamona gazand.

Chunki ko'rdi ko'zum jamolingni,
Ayladim fahm borcha holingni.

Senmu dersen, so'zungni mo'-bamo',
Yo'q esa mo'-bamo' men aytaymu?»

Yer o'pub dedi dardmandi zamon,
«Hikmat ayturg'a yaxshiroq Luqmon».

Soldi dono boshin tabassum ila,
Boshladi dilkusho takallum ila.

Avvali holidin fasona dedi,
Har ishidin necha nishona dedi,

Shahru mulku ato-anosidin,
Bazl ila mehmonsarosidin.

Kasbi ilm aylamak, hunar dog'i,
Tutmoq el holidin xabar dog'i.

Safar ahlig'a mol etib maqsum,
Aylamak turfa qissalar ma'lum.

Bu ikov qissasig'a bo'lmoq asir,
Bo'lmayin mehnati ilojpazir.

Tarki ul kishvaru diyor etmak,
Bu taraf g'urbat ixtiyor etmak.

Uyubon dayr ichinda ko'rmak tush,
Nuktalarkim, debon anga iki qush.

Borig'a bo'ldi ul sifat qoyil
Kim, alar hushin ayladi zoyil.

Sa'di bedilg'a ko'p ko'ngul berdi
Ki: «Yuzung bizga orzu erdi.

Ham tushungga degumdurur ta'bir,
Ham husulig'a aylagum tadbir.

Le'k bu ishda uyla suratdur
Ki, sanga ayturi zaruratdur.

Sanga mendin nechukki bordur sud,
Manga ham sendin o'lg'usi maqsud.

Men bu dayr ichra peshvo erdim.
Hikmat ahlig'a muqtado erdim.

Ushbu erdi manga havas doyim
Kim, o'shul yerda bo'lg'amen noyim.

Yana hikmat bo'lur edi mone',
Bo'lur erdim xayol ila qone'.

Havasim oqibat g'ulu qildi,
O'zini aql chorajo' bildi.

Kechaga tegru muztarib erdim,
Kecha bo'lg'och shuursiz kirdim.

Go'shae tuttumu yumub ko'zni,
Soldim uyqug'a kuch bila o'zni.

Chun ko'zum uyqug'a niyoz etti,
Uyqu ko'zumga turktoz etti.

Tushuma o'yla kirdikim ul dayr
Kim, aning noimig'a bo'lsun xayr.

Bo'ldi yuz ming misol jilvagahi
Ki, dimog'im xiraddin o'ldi tihi.

So'ngra keldi uchub iki timsol,
Ki, sanga ham yaqin ekin bu hol.

Xushnavo ikki qush tarannum aro,
Ikkisi kirdilar takallum aro.

Dedi bir qushki: «Ey havaspayvand,
Tushgusidur iki ayog'inga band.

Ishrating sham'i ko'r bo'lg'usidur,
Vataning tiyra go'r bo'lg'usidur».

Yana bir qush dediki: «Qilma taab
Ki, sanga sa'd bo'lg'usi kavkab.

Egninga chiqqusidur ikki qanot,
Qat' qilg'ung uchub tariqi najot

Kim, qanotdin anga tarab bo'lg'ay,
Anga uchmoq qachon ajab bo'lg'ay?»

Ul iki qush payomi so'zlardin
Seskanib uyqu o'chti ko'zlardin.

Ko'nglum tushti iztirob base,
Qildi savdo meni xarob base.

Vahm bo'ldi xayolima g'olib,
Bir muabbirg'a bor edim tolib

Ki, xayol ulcha ayladi tasvir,
Solg'ay ilgimga mujdai ta'bir.

Anga ta'bir kimsa bilmas edi,
Tilab erdim, vale topilmas edi.

Jismim o'ldi zaif mehnatdin,
Jonima yettim ul mashaqqatdin.

Ko'ngluma har dam ehtizoz erdi,
Tanima har nafas gudoz erdi.

Ne ajab yaxshi so'zdur ul masalo
Ki: «Balo yaxshiroqki biymi balo».

Jonni mehnatqa ayladim taslim,
Har zamon o'lturur edi meni biym.

Ish anga yetti ranji davrondin
Ki, tamomi ilik yudum jondin.

G'ayri o'lmak yo'q erdi tadbiri,
Yetti boshimg'a Xizrvash pire.

Xirqasi axzaru aso axzar,
Go'yi ul erdi Xizr payg'ambar.

Dedikim: «Ey ramida, qayg'urma,
Joninga biymu xavf o'qin urma.

Men tushungni yo'ray, vale sen ham,
Shart qilkim, ne aytсам men ham

Uzr demay, qabul qilg'aysen,
Yo'qki, o'zni malul qilg'aysen».

Yer o'pub ayttimki: «G'avrima yet,
So'ngra ne hukmkim etarsen, et

Kim, qabul ayladim so'zung jondin,
Ne desang qilmayin ibo ondin».

Dedi: «Jomospnoma» arqomin,
Nazar aylab o'qug'il ahkomin

Kim: yozibdur bu qissani bir-bir
Ki, tushungga ne nav'dur ta'bir.

Sanga shartiki iltimos ettim,
Tut quloqkim adosig'a yettim.

Shart budurki, boqmay o'zga ulum,
Ayla ta'bir ilmimi ma'lum.

Sendin ul fanda aylamak ko'shish,
Bizdin oning kushodig'a baxshish.

Kim bu dayr ichra ulki zor o'lg'ay,
Tush ko'rub buyla beqaror o'lg'ay.

Sen davoi mizoji qilg'aysen,
Ul g'amining iloji qilg'aysen».

G'oyib o'ldi tamom etib so'zni,
Men izi o'rnig'a qo'yub ko'zni,

Iziga ashk gavhari sochtim,
So'ngra «Jomospnoma»ni toptim.

Tushti ochqoch hamul mahallig'a ko'z
Ki, yozib erdi holatimdin so'z.

Deb edikim: «Falon zamonda kishi
Ki, aning ilmu hikmat o'lsa ishi,

Uyub ul dayr ichinda tush ko'rsa,
O'ziga dardu g'ussa to'sh ko'rsa,

Chora budurki, ko'hsor ichra,
Vatan etgay qorong'u g'or ichra.

Qo'ymag'ay toshqori oyoq ondin,
Yuz yil o'lg'uncha qat' davrondin.

Ishiga mundoq aylasa tadbir,
Band ila go'rg'a budur ta'bir.

Chunki yuz yil o'tar najot yetar,
Jonig'a mujdai hayot yetar.

Tiyra shomiki qat' o'lur minba'd,
Ko'zini yorutur bir axtari sa'd.

Ya'ni ul lahza bir saodatmand
Ishiga dayr ichiga tushgan band.

Oti Sa'du jamoli farxunda,
Sa'di akbar jamoliga banda.

Tiyra g'ori aro tulu' aylar,
Anga ta'birini ruju' aylar.

Uzlatoyin hakimi g'ornishin
Anga ta'birin aylasa talqin,

Yo'lig'a Sa'd chun xirom etgay,
Jahd ila muddaoyi kom etgay.

Yetgusidur muabbirig'a murod,
Ko'rgusi uqdalig' ishiga kushod.

Bo'lg'usidur topib ko'p ishga vuquf.
Charx mushkillari anga makshuf.

Fikr ila ho'lg'usi falakpaymoy,
Charx bo'stoni ichra jilvanamoy.

Royi gardung'a dast topqusidur,
Ko'kni olida past topqusidur.

Ul riyozatki, chekti g'or ichra,
Nafsini tutti xorxor ichra.

Raf' o'lub borcha qaydi jismoni,
Bo'lg'usi zoti uyla ruhoni

Ki, nekim ahli hikmat ayladi kom,
Mone' o'ldi havodisi ayyom.

Bo'lg'usidur bori anga ro'zi,
Roi aflok mash'al afro'zi.

Tushining so'ngg'i qismig'a ta'bir
Budururkim, xabar yeturdi pir.

Charx avjig'a iltifoti aning,
Budur egnidagi qanoti aning.

Men bu so'zlarga chunki soldim ko'z,
Yodima keldi Xizr aytg'on so'z.

Oncha ta'bir ishiga chektim ranj
Ki, Haq etti manga nasib ul ganj.

Yuz yil o'lmishki bu mag'ora aro
Mu'takifmen ulusqa chora aro.

Kimki, bu dayr aro guzar soldi,
Tushdin oning balosig'a qoldi.

Keldiyu arz qildi ahvolin,
Olidin raf' qildim ashkolin.

Ko'z yuzungga umedvor erdi,
Jonda yuz dog'i intizor erdi

Ki, qachon topqamen visolingni,
Yorug'ay ko'z ko'rub jamolingni.

Shukr yuz yil nekim murod ettim,
Maqdamingdin murodima yettim.

Bu edi ulcha menda topti vuqu',
Qilay emdi sening ishingga shuru'.

Tushta qushkim chekib navoyi g'arib,
Sanga ulkim, dedi, parini nasib.

Ul erur shohi sabzpo'sh qizi
Ki, quyosh kuhlidur oyog'i izi.

Shahrisabz o'ldi taxtgo'hi aning,
Yer uza sabzadek sipohi aning.

Anga farzand bir parivashdur
Ki, pari husnidin mushavvashdur.

Qila olmay pari yuziga sitez,
Huri jannat anga kamina kaniz.

Yuzi mashshotasi ajuzi sipehr,
Husni ko'zgusi ul sipehrda mehr.

Balki ul husn olib quyoshdin boj,
Hech ko'zguga bo'lmayin muhtoj.

Husni vasfida nutq gungi maqol,
Yuzi zikrida nafs notiqalol.

Labi la'li zuloli hayvoni,
Xizr yanglig' libosi rayhoni.

Hulla uzra yuziki jilva qilib,
Sabza uzra guli bihisht ochilib,

Shohning moyai farog'i ham ul,
Ne farog'i, ko'rar qarog'i ham ul,

Shohg'a qal'ae durur oli,
Rif'at ichra sipehr timsoli.

Bir biyik qulla uzra ul qo'rg'on,
Burji ko'k qal'asig'a ta'n urg'on.

Shoh qo'rg'on aro yasab bir qasr,
Anda sokindurur ul ofati asr.

Qasr davrida uch hisor durur,
Burjlar anda charxvor durur.

Har hisorida bir biyik darband,
Rif'at ichra kelib falakpayvand.

Lek darbandlar ochilmay hech,
Haddin ortuq yo'lida tob ila pech.

Burnog'i band aro topib qo'rg'on,
Devson zangiyu oti Qatron.

Zo'ri olinda pil o'ylaki mo'r,
Har tuki soiyu pil chog'liq zo'r.

Razm vaqti qaro balo kelibon,
Tanida har rag ajdaho kelibon.

Qal'aning kutvoli ul zangi,
Kutvoli sipehrdek rangi.

Yana darband aro hamisha muqim,
Ochib avroq bir xujasta hakim.

Har sifat ilm aro kelib mohir,
Ilmu taqvo jamolidin zohir.

Ul bo'lub qal'a vaz'ig'a boni,
Yana bir qal'aning nigahboni.

O'tgach andin kelib yana darband,
Anda zole fusun bila xursand.

Umrída makru hiyla aylab vird,
Hiylada zoli charx anga shogird.

Qasr davridin ul bo'lub ogah
Ki, nasim ul yon esmagay nogah.

Qush o'tarda o'chub hayoti aning,
Chibin uchsa kuyub qanoti aning.

Sehr o'tin hisn ichinda o'yla yoqib
Ki, erib toshu chashma yanglig' oqib.

Asl fikratda mohi sangindil,
Juft shug'lig'a bo'lmayin moyil.

Shohdin istab o'yla hisni hasin,
Chiqib eldin, bo'lub hisornishin.

Husnikim, dahr aro solib g'avg'o,
Tushubon har kishiga ul savdo

Kim, aning vasli orzu aylab,
Kelsa ul ishda guftu-go' aylab.

Shoh bo'lsun, yo'q ersa shahzoda,
Yo'qsa har ishda fardu ozoda.

Shart mundoq qilib buti gulchehr
Ki, anga ulki garm aylab mehr.

Chun hisorig'a nogahon yetsa,
Aqd amrini oshkor etsa.

Kinau makr tarhini solg'ay,
Uch hisorin ne nav' etib olg'ay.

Chunki avval yetushsa qo'rg'ong'a,
Ko'rguzub dastburd Qatrong'a.

Qo'llarin aylagay saro-sar band,
To anga fath bo'lg'ay ul darband.

Bo'lsa ikkinchi hisnig'a moyil,
Bo'lg'usidur hakim anga soyil.

Neki so'rsa behijob desa,
Mushkiliga aning javob desa.

Qilsa soyilni so'z bila ojiz.
Fath bo'lg'ay anga ikkinchi diz.

Yana bir qal'a sori sursa samand
Ki, fusungarda bo'ldi ul darband.

Ilm ila qilsa chora ohangin,
Botil etsa fusunu nayrangin.

Sehrini botil aylagach holi,
Bo'lg'ay uchunchi qal'ag'a voli.

Uch hisor uzra bo'yla ursa alam,
Oning o'lg'ay buti hisori ham.

Yo'q esa qaysi birga bo'lsa asir,
Qatlig'a oning aylamay taqsir.

Tig'i xunrez tortibon bebok,
Aylagaylar hamul dam oni halok.

Itlar olig'a tashlabon loshin,
Qo'yubon kungira uza boshin.

Qavmu xaylini aylabon toroj,
Aylagaylar diyoridin ixroj.

Har necha kun emaski bir mazlum,
Bo'lmag'ay umru jonidin mahrum.

Kungira ustida nuchukkim tosh,
Qo'yulubtur o'shul hisor uza bosh.

Lek sen hech nav' qoyg'urma,
Vahm dashtig'a markabing surma

Kim, ani Haq sanga nasib etmish,
Vasl topmoqqa vaqt ham yetmish.

Har ne qilg'um sanga ta'lim,
Andog' etmak kerak, sen etmay biym», —

Dediyu necha lafz qildi savod
Ki: «Kerakkim bularni tutsang yod»,

Muhrae dog'i jaybida erdi,
Chiqorib oning ilgiga berdi.

Yana bir ruq'a dog'i qildi raqam,
Sa'd taslimi ayladi oni ham.

Dedi: «Qo'p, emdi yo'lg'a tushkil bot,
Rahbaring ushbu ikki Xizrsifot.

Surubon Shahrisabz jonibi ket,
Turmayin yo'lda ul diyorg'a yet.

Chun yaqinlashting ikki axzarpo'sh,
Shahg'a borib nuchukki ikki suro'sh.

Har nekim senda bo'lsa surati hol,
Aylasunlar shah ollida irsol.

Chun xayolingni shoh angladi jazm,
Burna Qatron bila buyurg'usi razm.

Necha lafziki yozmisham zinhor
Ki, oni tinmay etgasen takror.

Muhrani dog'i og'zinga olg'il,
Suyini xasm jonibi solg'il.

Berur ul lafzlar sanga shavkat
Dushmaningdin olur vale quvvat.

Muhradin dog'i har ne sochsang suv,
Kelturur xasm ko'ziga uyqu.

Chunki zangini aylading mag'lub,
Shod bo'lg'ilki qo'ydi yuz matlub.

Ham o'shul devsor fath o'ldi,
Ham burung'i hisor fath o'ldi.

Qo'ysang ikkinchi uqda sori qadam
Kim, erur komili Masihodam.

Burun ondinki ul hikoyat der,
Chiqorib ilkiga ruq'ani ber.

O'qug'och ko'rguzub niyoz sanga,
Mendek o'lg'usi chorasoz sanga.

Shod bo'lg'ilki, ul xiradpayvand,
Menga shogird erur, dag'i farzand.

Sanga bo'lub shafiqu g'amxora,
Ul fusungarga qilg'usi chora.

Sehrlarni chu ayladi botil,
Sanga borcha murod erur hosil».

Muncha so'zni chu naql qildi durust,
O'пти monglayini, quchub oni rust.

Bo'lubon shodmon dedi: «Shod o'l,
Bizni obod qilding, obod o'!»

Qo'pqilu erta kunni aylama kech,
Yo'l yururda tavaqquf aylama hech», —

Dediyu anga xayrbod etti,
Qoldi bu, ul nishot ila ketti.

Tunu kun qat' etar edi vodi,
Yo'lini boshlab ul iki hodi.

Toki bo'ldi padid xittai Kash,
Tufrog'i rangi charxi axzarvash.

Ikki rahbarg'a amr qildi xirom,
Qissasin shahg'a aylabon e'lom.

O'zi ul marz uza yeshib mahmil,
Sabza ustida ayladi manzil.

Ul ikav shah qoshinda bor topib,
Nukta surguncha e'tibor topib.

Shohg'a qissalar debon dilxoh,
Sa'd holidin ettilar ogoh.

Vasf ko'p qildilar kamolotin
Ki, shah angladi borcha holotin.

Shah tonur erdi ul ikavni ham,
Erdilar balki xodimu mahram.

So'zlari sidqi shahg'a erdi yaqin,
Bildikim, bordur ulcha derlar chin.

Ko'rmayin bo'ldi Sa'dg'a mushfiq,
Chun bu ikki bor erdilar sodiq.

Hukm qildiki: «Ul taraf surunguz,
Tongla boshlab yo'lini kelturunguz!»

Boribon tongla hozir ayladilar,
Shahni osuda xotir ayladilar.



Bahrom moviy qasrda.

Ko'rgach oning xujasta tal'atini,
Topti ko'p ko'nglida muhabbatini.

Ko'rushub oni sarfarozi etti,
Ul yana yer o'pub niyoz etti.

Ko'p so'rab qildi sandali ta'yin,
Taxt olida topti ul taskin.

Chun chekildi taomi shohona,
Oldi bahr oshnou begona.

Shahg'a aylab edi ul ikki xabir
Sa'dning muddaosini taqdir.

Dedikim: «Borib o'lg'il osuda,
Yo'l aro bo'ldung ersa farsuda.

Bukun osudaliq g'animat bil,
Tongla qo'rg'on sori azimat qil».

Sa'd yer o'пти dog'i azm etti,
O'z visoqida mayli bazm etti.

Ichibon may ko'ngul murodi bila,
Sanami mohchehra yodi bila.

Kechadin chunki o'tti bir-ikki pos,
Ishq ila boda andin oldi haros.

Boshida boda, ko'nglida mahbub,
Yor ko'yini ayladi matlub.

Ahli majlis tamom mast edilar,
Borcha uyqug'a poybast edilar.

Sa'd chiqti chog'ir xayoli bila,
Ko'ngli dildorining visoli bila.

Zohir etti xiron yor sori,
Qo'ydi mastona yuz hisor sori.

Qavmu xayli bori qolib g'ofil,
Ul qaro tunda mastu loya'qil.

Urar erdi hisor davrida gom,
Yiqila-qo'pa tutmayin orom.

Oshiqona chekib surudu navo,
Hardam aylab yuqori ko'ngli havo.

Ushbu holatda zangiyi xunxor,
Tog' aro ul sifatki tiyra buxor.

Qal'a davrin kezib tutar edi pos,
Ko'nglida biym yo'q, ichinda haros.

Yetti nogah qulog'ig'a bir un,
G'azabidin boshig'a chiqti tutun.

Tushubon bordi un payi bila tez,
Tutub ilgiga dashnai xunrez.

Ko'rdi mastiki hush yo'q anga hech,
Juz fig'onu xuro'sh yo'q anga hech.

Avval o'lturmak istadi oni,
Yana qildi xayol pinhoni

Ki: «Ani kecha asrag'ay mahkam,
Tonglakim yorug'ay bari olam.

Ma'raka oshkor qilg'onda,
Sa'd ila korzor qilg'onda.

Avval o'lturgay oni bermay amon,
Toki qilg'ay nazora yaxshi-yamon.

Tushgay andin g'animi ko'ngliga biym,
G'olib o'lg'ay, chu biym topti g'anim».

Bu xayoli bila bo'lub xursand,
Sa'd ayog'ig'a soldi mahkam band.

Qal'a toshida bor edi g'ore,
Qaro go'r og'zidin namudore.

Soldi g'or ichra zulm aylab fosh
Qo'ydi g'or og'zida bir og'ir tosh.

Zangiysi nahs qo'ydi qal'ag'a pay,
Sa'dni g'or ichinda bosti may.

Sog'olib subhdam chu uyg'ondi,
O'zining holatig'a aylandi.

Kirdi, chun ko'ngli bo'ldi fikratsoz,
Kechagi holi yodig'a oz-oz.

Tushi chun kirdi ko'ngliga bir-bir,
Qildi avvalg'i qush so'zin ta'bir.

Ruq'akim bermish erdi dono yod,
O'qumog'lig'ni aylagach bunyod:

Oncha quvvat tanig'a yuz urdi
Kim, chu qaydini chekti, sindurdi,

G'or og'zidin oldi toshni ham,
Qo'ydi hinjor ila yo'lig'a qadam.

Yel kibi borur erdi musta'jil,
Toki tutti sukun, topib manzil.

Muztarib ko'rdi xaylini g'amgin,
Rifq ila berdi borchag'a taskin.

Ajz ila xoki rahg'a yuz qo'ydi,
Otlanib va'dagahg'a yuz qo'ydi.

Shoh xud turmish erdi maydonda,
Zangiyi devsor javlonda.

Mohrux burj ustida hozir,
Mehri anvar Zuhul sori nozir.

Yuz tuman elga ul taraf ohang,
Borchasi Sa'd uchun bo'lub diltang.

Dev nozirki Sa'd chun surgay,
Chiqorib tutqunini o'lturgay.

Sa'd chun korzor aro kirdi,
Zangi ul tiyra g'or aro kirdi.

Xalq bo'ldi bu holdin hayron,
Topmadi band qilg'onin Qatron.

Anga ul ish ko'rundi asru ajab,
O't nihodig'a soldi kinu g'azab.

Chiqtiyu Sa'd sori azm etti,
Ul dag'i otidin tushub yetti.

Hirzdin oncha shavkat erdi anga
Ki, harificha quvvat erdi anga.

Ikkisi zo'r kelturub doim,
Kuchlari erdi go'yiyo qoyim.

Muhrani Sa'd og'zig'a oldi,
Suyini xasm jonibi soldi.

Ul rutubatki, zohir yetti bu suv,
Bo'ldi zangiga mujibi uyqu.

Ko'zi chun bo'ldi uyquning vatani,
Sa'd andoq qo'nqordi yerdin ani

Kim, chu chiqti boshi uza ul dev,
Yetti ul xalqdin falakka g'irev.

Boshi ustidin oni aylab paxsh,
Andoq urdiki yerga bog'ladi naqsh.

O'yla tushti nazora ahlig'a jo'sh
Ki, falak gunbadig'a tushti xuro'sh.

Sa'd ani qo'ydi, dog'i qildi savol
Ki: «Yana ne qilay, qiling irsol!»

Boshladilar yo'lin hakimg'a chust,
Qadam urdi borurda bo'lmay sust.

Kirib o'tti burung'i qo'rg'ondin,
Oldi o'z toramini Qatrandin.

Surdi ikkinchi qal'a bandig'a bot,
Ko'rgach oni hakim qoldi mot.

Sa'd filhol ayladi taslim,
Ruq'akim yozdi Paylaqus hakim.

Ochqach ustodining otin ko'rdi,
O'pubon, yerga jabha tegurdi.

O'qudi, yozmish erdi holotin,
O'ziyu Sa'dning maqolotin.

Safhada kilk etib nigorishlar,
Oni qilmish edi siporishlar.

Borcha ishdin xabar topib soyil,
Bo'ldi tufrog'in o'pgali moyil.

Dedi: «Yo'qtur manga hadu yoro,
Nukta demak bo'lub suxanoro».

Yozmish erdi hakimi daryodil,
Aylamak zol sehrini botil.

Ul ikov bu sifat muhokoda,
El yiroqtin turub tamoshoda.

Dedi donoki: «Ulki derlar zol,
Zoldek men yasabmen ul timsol.

Sehrdin tegrasida tor ila pud,
Borcha erur namudu yo'q mavjud.

Senki ul yon azimat etkungdur,
Chunki darband ichiga yetkungdur.

Zolning ko'ksiga urub ittisol,
Kiru bo'l mahram, harimi visol».

Chunki bo'ldi hakim anga tobe',
Yana Sa'd o'ldi shah sori roje'

Ki: «Ne ishga yana shuru' qilay,
Qilur ish qaysidur, dengizki bilay!»

Ojiz aylab edi hakimni ul,
Boshladilar ajuza jonibi yo'l,

Garchi el kirmagi mahol erdi,
Kirdi darband aroki zol erdi.

Keynicha shahr xalqi g'avg'osi,
Qo'zg'ab elni ul ish tamoshosi.

Zol davrida ko'p balolar edi,
Shu'laposhanda ajdaholar edi.

Sa'd bevahm urub qadamni chust,
Tepti zoli xamida ko'ksiga rust.

Zol tebrandi chunki o'z yeridin,
Juzv-juzvi to'kuldi bir-biridin.

Paykare erdi odami monand,
Latta birla sirishdin payvand.

Rishtani ajdaho qilib afsun,
O'tlari hulla, poralar gulgun.

Sehrlarni chu botil etti tamom,
Yondiyu shoh sori qildi xirom.

Shah ani quchti, dog'i o'пти yuzin,
Oni farzand, ato o'qudi o'zin.

Gulshani bor edi jahonoro,
Qo'yub otini «Ravzai xazro».

Anda bir qasrg'a edi boni,
Qasri axzar der erdilar oni,

Aylabon ushbu bog'u qasrda sur,
Shahrisabz eli aylabon masrur.

Vasl topti farishta birla pari,
Mehr birla sitorai sahari.

Kechti oz choqda shohi ozoda
Shoh bo'ldi yerida shahzoda.

Yashil aylab libosu toju sarir,
Ollida ikki sabzpo'sh vazir.

Gulrux andoqki sarvi bo'stoni,
Kisvat aylab hariri rayhoni.

To tirik erdi shodu beg'am edi,
Adlidin mulki sabzu xurram edi.

Rangi axzar bahor rangi erur,
Sabzau marg'zor rangi erur.

Af'iyi g'am chu elga ayladi zo'r,
Ani jomi zumurrad ayladi ko'r.

Sho'xkim bo'ldi sarvdek cholok,
Sabzai xatti aylar elni halok.

Xizr bu rangdin nishon topti,
Tong yo'q ar umri jovidon topti».

Chunki rovi tugatti qissa durust,
Dedi Bahrom: «K-ey musofiri chust.

Aslu pudungni aylagil taqrir».
Dedi roviki: «Ey baland sarir,

Shahrisabz ahli zodasidin men,
Sa'dning xonavodasidin men».

Shohg'a ravshan o'ldi chun holi,
Qildi ul shahr uza ani voli.

Ani osuda qildi qayg'udin,
O'zi osuda bo'ldi uyqudin.

XXVI

Seshanba kuni Bahromning gulgun libos bila qasri gulnoriyg'a tavajjuh qilib, shafaqgun hullalik xurshed bila sog'ari yoqutfom ichinda la'l rang may ichgoni va ul yoqut va la'ldin uyqu uchun mufarrih tartib qilib, maydin qizortg'on ko'zin yumg'oni

Chun seshanba sipehri chobukxez,
To'kti anjum sharoridin gulrez.

Bog'ladi zoli charx o'lub ra'no,
Abri shingarfgun bila hiyno.

Shoh Bahrom kiydi gulgun raxt,
Tikti gulgun uy ichra gulgun taxt.

Qasri gulgun sari qilib ohang,
Istadi ichsa bodai gulrang.

Sarvi gulchehr qildi istiqbol,
Gul kibi borcha raxti hullai ol.

Taxti gulrang uza tutub orom,
Jomi la'l ichra bodai gulfom.

Shoh ila qildi no'sh gulgun mul,
Mul alar chehrasin qilib gul-gul.

Anga tegruki mehri gulruxsor
Yuziga yopti pardai ko'hsor.

Shah ko'zi hodadin qizorib edi,
Ko'zidin uyqu lek borib edi.

Ul guruhiki erdilar ma'mur,
Istabon yo'lda onchakim maqdu

Toptilar rahravi fusunsozi,
Nukta ayturg'a shehrpardozi.

Kelturub arz qildilar oni,
Bo'ldi ijroi hukmi sultoni

Ki: «Bo'luh parda keynida sokin,
Aylabon ulcha sa'y erur mumkin.

Sayr qilg'onni ko'hu dasht desun,
Ne anga bo'ldi sarguzasht desun».

Rahrav ul nav' hukm chun bildi,
So'z sano birla ibtido qildi.

Ki: «Shah iqboli hasrdin afzun,
Yuzi iqbol jomidin gulgun.

O'zi ilgida arg'uvoniy may,
Iti ollida xasm qoni may».

XXVII

To'rtunchi iqlim yo'lidin keturgan musofir suxanguzorlig'i

Chun duo bila bo'ldi nuktasaro,
Dedikim: «Erta chog'da Dehli aro

Xisrave erdi shohlardin toq,
Tahti hukmida kishvari ofoq.

Maxzanu ganjiga nihoyat yo'q,
Mulku xaylig'a haddu g'oyat yo'q.

Charx yo'q mulki arsasig'a adil,
O'zga shahlarning oticha anga pil.

Adlu insof o'lub sifoti aning,
Shohlar ichra Juna oti aning.

Elga bazlu ato bila mashhur,
Olam ichra saxo bila mashhur.

Elga laklarni bebahona berib,
Gar bahona topib, xizona berib.

Bazlae gar debon suxansanje,
Silasig'a ato qilib ganje.

Buyla mashhur erurki bir muhtoj,
Charx mulkidin aylagan ixroj

Aylabon qat' dashtu tog' ila rud,
Anga kelturdi bir sabad amrud.

Necha kun bo'ldi muzdi ichra darang,
Bo'ldi allonbar asru ko'p diltang.

Sog'inib shah dediki: «Toping oni,
So'runguz hojatini pinhoni».

Dedi so'rg'on dam ul gadopesha:
«Hojatimdur bir arra, bir tasha».

Shah aning hikmatini qildi savol,
Dedi: «Hikmat bukim, yonib filhol,

Qayda bu mevadin yig'och mavjud
Bo'lsa borin kesib qilay nobud».

Shah chu maqsudini aning bildi,
Sila bir mulk molini qildi

Ki, hisob ichra bor edi o'n lak,
Har laki o'n tuman kelib beshak.

Vuzaro mayl etib bahona sori,
Boshlabon shahni ul xizona sori

Ki, agar ko'rsa oncha naqd ila mol,
Bordurur bermagi biravga mahol.

Shah bilib chun nazora etti ani,
Ozdurur deb dubora etti ani.

Ishi yo'q erdi bir aning mundoq,
Bor edi o'nu yuzu ming mundoq.

Bir kun o'lturmish erdi suhbat aro,
Charx yanglig' uluvvi himmat aro.

Dur sochar erdi abri ehsoni,
Bor edi bir g'arib mehmoni.

Tuhfa kelturmish erdi bir ko'zgu
Kim, ani tutsa har kishi o'tru:

Chin desa aksida safo erdi,
Desa yolg'on yuzi qaro erdi.

Ko'p kishi qildi ozmoyish anga,
Aytg'ondek edi namoyish anga.

Shoh anga berdi benihoyat mol
Kim, aning ushrin etmas erdi xayol.

Bazl chun oncha naqdu mol etti,
So'zning asnosida savol etti

Kim: «Chu olam aro guzar solding,
Olam ahlig'a ko'p nazar solding.

Bir meningdek saxiy eshittingmu?
Yo ko'rub xizmatig'a yettingmu?»

Shohning bu savolidin mas'ul,s
Behad andesha ichra bo'ldi malul.

Hov, desa shahg'a nuqs roje' edi,
Yo'q, demak xud xilofi voqe' edi.

Oqibat bahmdin deyolmay chin,
Yolg'on ayturni aylabon oyyin

Dedi: «Yer yo'qki men yugurmaymen,
Rov sendek jahonda ko'rmaymen».

Dedi: «Chindur bu?» — dedi: «Chindur bu»,
Shah dedi: «Ollig'a tutung ko'zgu!»

Chunki nazzora qildi ko'zgu aro,
Aksi ko'zgu aro ko'rundi qaro.

Bo'ldi xijlat bila sarafganda,
Shah dag'i andin o'ldi sharmanda.

Dedi: «Ey rahravi xujasta sifot,
Bizdin o'ldi sanga bu nav' uyot.

Bu qaro boisi chu yolg'ondur,
Chin degilkim, iloji osondur».

Dedi: «Ko'rdum». Dediki: «Ko'zguga boq!»
Boqti ko'zguga, bor edi yuzi oq.

Shah dedi: «Aytqilki, ne kishidur
Ki, bu yanglig' saxo aning ishidur?»

Dedi roviki: «Ey baland sarir,
Aytmoqdin manga yo'q emdi guzir.

Bu hikoyatki has yiroq bo'lg'ay,
Bo'lsa xilvatda yaxshiroq bo'lg'ay».

Majlis ahlin qo'pardilar holi,
Shahu roviyg'a qoldi uy xoli.

Dedikim: «Hind ichinda shahredur,
Ravzadin olam ichra bahredur.

Ham sening mulkunga erur doxil,
Moli har yil xizonag'a vosil.

Vasfi has dilpaziru oti Taroz,
Tarzi dilkash nechukki ishqi majoz.

Shoyad ul yerga yetgan erkinsen,
Yo'qsa vasfin eshitgan erkinsen?»

Shah dedi: «Qilmamishmen oni tavof,
Lek eldin eshitmisham avsof.

Sen hadisingni ibtido ayla,
Har ne ko'rgan esang ado ayla».

Dedi: «Shahredur ul bihishtoso,
Naxli to'bi misoli gardunso.

Kavsaroso suyi dalili aning,
Har taraf rudi Salsabili aning.

Ravza yanglig' havosi jonparvar,
Suyi Kavsar kibi ravonparvar.

Eliga bog' ziynati – pesha,
Bog'din yaxshiroq anga besha.

Kishi yo'qkim, yo'q anga bo'stone,
Bog'ida har taraf gulistone,

Har kishi oni xurdi hol yasab,
Zeb aro ulcha ehtimol yasab.

Shohning chun adolat o'ldi fani,
Eli ushbu jihatdin asru g'ani.

Shahru ko'yi bihishtdek ma'mur,
El bila uylar anda huru qusur.

Moli zabtig'a el bo'lub hayron,
Topmayin, ganj qo'yg'ali vayron.

Navjuvone bu shahr aro sokin,
Vasfi ming nuktadong'a yo'q mumkin.

Husn aro mehri osmoni ul,
Lutf aro obi zindagoni ul.

Yoshi ozu kamoli ko'p behad,
Zotida mundarij kamoli xirad.

Pok tab'i safoda ko'zgudek,
Sabza uzra oqar suzuk suvdek.

Fahmig'a nukta bo'lmayin mubham,
Nuktasi ichra nukta ko'p mudg'am.

Tab'i har fanda chun muloyim o'lub.
Anga ahli funun mulozim o'lub.

Yo'q saodatliq o'yla bir mavjud,
Axtari sa'd o'lub, oti Mas'ud.

Ayamay andin Ezidi Mutaol
Hech ishda kamol, xossaki mol.

Mayli gulzor aro qilib ohang.
Doim ichmakka bodai gulrang.

Toki gul bordurur tuzub majlis,
Gul erur majlisi aro munis.

Sochibon bargi gul qadam to farq,
Farqdin to qadam gul ichra g'arq.

Chunki gul faslin o'tkarib gardun,
Aylabon ul harirlar gulgun.

Kesturub bargi gul kibi bir-bir
Singdurub anda atru mushku abir.

Bori kiymaklarin qilib gulfom,
Yana gulfom etib xujasta maqom.

Rahbarlarda necha buti gulchehr,
Charx toqi aro nechukkim mehr.

Yuzi gulguna rangidin soda,
Yasog'on gul separga omoda.

Har qachon ul qilib nishotqa azm,
Tuzsa gulfom qasri sahnida bazm.

Nechakim ayshining guli ochilur,
Yuqoridin boshig'a gul sochilur

Kim, aning bazmig'a nazora qilib,
Bog'i firdavsdin kanora qilib.

Ishlarin gar shikasta basta, dedim,
Yuzidin birni jasta-jasta, dedim.

Ura olmon vale saxosida dam,
Men nekim, gar tirilsa yuz Hotam».

Ayladi chun bu yerda nuktani bas,
Juna sabru qarorin oldi havas

Kim, bu nodir sori guzar solg'ay
Borcha ahvolig'a nazar solg'ay.

Dedi: «Bir hafta istabon orom,
No'sh qilg'um hamsaro aro jom.

Xizmat ahlin ham ayladim ozod,
Aysh ila uylarida bo'lsun shod».

Elni chu ayladi parokanda,
Azm jazm etti shohi farxunda.

Haramin xoslarg'a topshurdi,
Nuktalar borchasig'a tutturdi.

Bor edi bir zaminnavardi aning,
Bo'lmayin barq hamnabardi aning.

Deb edi otini Sari us-sayr,
Qolibon sayrdin havo uza tayr.

Haftaliq yo'lni boribon bir kun,
Yana bir onchani yana bir tun.

Beribon tavru vaz'ig'a tag'yir,
Sekridi markab uzra shohi dalir.

Ikki kun sa'y ila xirom etti,
Garchi yo'l yuz yig'och edi — yetti.

Ko'rdi shahre nechukki bog'i bihisht,
Tufrog'i atr aro abirsirisht.s

Nuktago' vasfin aylagancha edi,
Balki ziynat aro yuz oncha edi.

Surdi Mas'ud uyin so'rog' aylab,
Bazmini moyai farog' aylab.

Yettiyu ko`rdi bir biyik kiryos,
Toqu ayvon anga sipehrasos.

Sohati ichra xalq g`avg`osi,
Orzuxoh ulus alolosi.

Mutaayyin eshikda necha kishi,
G`urabo xizmati alarning ishi.

Junani ko`rdilar g`arib misol,
So`rubon bildilarki, nedur hol.

Boshlabon olig`a yugurdilar,
Mehmonxonag`a tushurdilar.

Bog`labon markabin tavilag`a rust,
Boshladilar o`zini qasrg`a chust.

Qasrkim erdi mehmonxona,
Farsh ila raxti borcha shohona.

Junag`a anda berdilar orom,
Tortib olig`a guna-guna taom.

Mizbon dog`i keldi qoshig`a bot,
Ko`r, ne mehmonu mizbon, hayhot!

Ul ziyofat tariqida mohir,
Oncha mardumliq ayladi zohir,

Kim o`shul xulq ila kamoli xirad,
Junani ojiz ayladi behad.

Bo`lg`ucha ul kalomdin forig`,
Bo`ldi mehmon taomdin forig`.

Qildi yuz lutf birla istimzoj,
Junadinkim: «Tilarmu boda mizoj?»

Ani rog`ib ko`rub nishot aylab,
Bodadin ziynati bisot aylab,

Tuzdi bazmiki charxi ko`hnanihod
O`yla bir toza bazm bermas yod.

Bor edi qasr yonida hammom,
Farshu izora anda yashmu ruxom.

Shisha o`rnida mehri olamtob,
Havzlar ichra suv yerida gulob.

Iltimos ettikim bir-ikki zamon,
Kirsa hammom aro burun mehmon.

Yuvsal yo'l gardidin badanni xo'ib,
Shohg'a ul bor erdi xud matlub.

Kirdiyu topti birdam osoyish,
Ko'rdi oncha asosu oroyish

Ki, aning mulki ichra yo'q erdi,
Ko'rub insof borchag'a berdi.

Toslar zarnigoru mehrmisol,
Siymgun dastadin boshida hilol.

Futalar mushku anbar og'ushta,
Tortilib ip yerida zarrishta.

Xidmat ahli guli tari yanglig',
Yo'qki, hammom aro pari yanglig'.

Yuz zarofatda har xujasta harif,
Kullu shay'in minaz-zarifi zarif.

Bu sifat yerda shohi ozoda,
O'zni yo'l gardidin qilib soda.

Qildi hammomdin chiqorg'a xirom,
Hulla kelturdilar bori gulfom.

Chunki mehmon edi dag'i ma'mur,
Kiydi gulgun harirlarni zarur.

Bo'ldi Mas'ud ila to'ni hamrang.
Qildilar bazmgah sari ohang.

Bazmi erdi bihisht omoda.
Huri-soqiyu kavsari-boda.

Shahni chun bazm ichiga yetkurdi,
Shahni o'lturtub, o'zi o'lturdi.

Majlis ahli guljabin bori,
Borchasining libosi gulnori.

Hukm qildiki, soqiyi mavzun,
Tutti mehmong'a bodai gulgun.

Chun necha davr o'tti pay-darpay,
Ahli majlis boshig'a chiqti may.

Shoh chun nodiri zamon erdi,
Hikmatoyinu nuktadon erdi.

Majlise ko'rdi ul sifat marg'ub,
Bo'lub ul bazm shavqidin mag'lub.

Sog' ekanda rioyat aylar edi.
Hifzi holi bag'oyat aylar edi.

Boshi chun bo'ldi bodadin mahrur,
Xirad oyinig'a yetishti futur.

Jannat ichra o'zi ko'rub mehmon,
Har taraf boqsa hur ila g'ilmon.

Ko'ngli sabru qarorsiz bo'ldi,
Nuktada ixtiyorsiz bo'ldi.

Og'zining huqqasidin ochti band,
Nukta bir-birga ayladi payvand.

Baski fosh ayladi durafshonliq,
Qo'ydi yuz mizbong'a hayronliq.

Shah savol etti: «K-ey xujasta vujud,
Tal'ating ham oting kibi mas'ud.

Yo'qki men Hind ichinda soyirmen,
Balki olam aro musofirmen.

Bu qadar donishu salohiyat,
Muncha jam'iyatu rafohiyat

Ki, sanga Tengri aylamish maqrun
Ki, oni Tengri aylasun afzun.

Kishida ko'rmadim jahon ichra,
Qolmisham fikrati nihon ichra

Ki, ne yanglig' sanga bu bermish dast.
Deb, meni qo'yma g'am aro payvast».

Dedi Mas'ud: «K-ey yuzung farrux,
Chunki so'rdung zarur erur posux.

Muni bilgil atoyi Yazdoni,
Lek so'rsang sabab – eshit oni.

Bizga shohe durur, na yanglig' shoh,
Olam ahli boshig'a zilli Iloh

Ki, hayotini Haq mudom etsun,
Zillu johini mustadom etsun.

Podshohe durur, ajab odil,
Adli olam eli aro shomil.

Zulm torini ul sifat uzmish,
Adl sozini ul sifat tuzmish

Kim, aning davlatidin ahli zamon,
Topmamishlar bag'ayri amnu amon.

Mulk aro chunki bo'ldi amniyat,
Yuzlanur mulk eliga jam'iyat.

Andin-o'qdur hunar hisobi ham,
Fazl ila donish iktisobi ham.

Bizga bu shoh davlatidin erur,
Soyai johu hashmatidin erur.

Buki eldin manga ziyod o'lmish,
Manga bu nav' e'tiqod o'lmish

Ki, bo'lurg'a bu nav' ish hodis.
Go'yiyo ikki ishdurur bois:

Biri – Haq shukrini ado qilmoq,
Yana – shah jonig'a duo qilmoq.

Qoldi bu ikki ishdin el g'ofil
Ki, alardin ne kom erur hosil?

Manki bildim, bu bo'ldi pesha manga,
Nafi mundoq yetar hamesha manga».

Shahni bu so'zlar andoq ayladi shod
Ki, yaqin erdi aylagay faryod.

O'yla ko'nglida mehri yer tutti
Ki, yana xulqi mehrin o'rkutti.

Bo'ldi xushhol o'lub fasonasigol
Ki, fasohatdin etti xalqni lol.

Ko'rdi Mas'ud ul sifat mehmon,
Fazlu donish aro vahidi zamon.

Istadi jon anga fido qilmoq,
Maqdami shukrini ado qilmoq.

Har taraf tojiriki ketmish edi,
Biri ul kun magarki qaytmish edi.

Kelturub erdi sondin ortuq sud,
Topti Mas'ud ondin ortuq sud.

Garchi ul sudkim, Xudo berdi,
Onchakim bir xiroji mulk erdi.

Ko'nglin ul moya birla xush qildi,
Sudini shahg'a peshkash qildi.

Shah musofir so'zini aylab yod,
Ne o'zin g'amliq ayladi, ne shod.

Mizbon yona bo'ldi bazmoroy,
Dedi: «O'n hur o'lub nishotafzoy,

Rahbalarning eshigin ochsunlar,
Gul xaloyiq boshig'a sochsunlar».

Garchi ul vaqt erdi fasli xazon,
Gul socha boshladi nasimi vazon.

Yasabon gulbori abirsirisht,
Bazmni qildi gulistoni bihisht.

Har sori guluzori gulgunpo'sh,
Jomi gulrang aylar erdi no'sh.

Yuzi gul-gul bo'lub nishotangez,
Shohning xorxori aylab tez.

Qildi Mas'ud bir taraf imo,
Bo'ldi bir guluzor jilvanamo.

Kelturub jome o'ylakim xurshed,
Ko'rmagan jom aning kibi Jamshed.

To'ldurub shohg'a ayoq tutti
Kim, quyosh yanglig' uyni yorutti –

Dedi: «Uldur bu jomning holi
Ki, chu bir to'ldi – bo'lmag'ay xoli.

O'ng sori davr topsa paydarpay,
Bo'lmag'ay kam kishi ichardin may.

So'l sori yonsa nechakim to'lg'oy,
Oz ichib ko'p, valek kam bo'lg'oy.

Yasog'onda guruhi hikmat qism,
Bog'lamishlar anga bu nav' tilism».

Ozmoyish chu ixtiyor o'ldi,
Bu sifat andin oshkor o'ldi.

Shahni ul jom qildi bodaparast,
Ichmayin boda bo'ldi andin mast.

Oni ham chekti mizboni saxiy,
Mehmon olida saxo ko'r, axiy!

Shah may andin ichar edi xushdil,
Anga tegruki bo'ldi loya'qil.

Ul kun o'ldi bu nav' ila oqshom,
Uyqudin topti tab'lar orom.

Subh rindi chu qildi mayli sabuh,
Rohi mehr anga toza ayladi ruh.

Qo'ptilar bodai sabuhkashon,
Bo'lubon ul sabuh birla xushon.

Yana kunduzga chekti ul majlis,
Qo'ymay ul majlis elga aql ila his.

Yana kundan takalluf o'ldi fuzun,
Guljabinlar tutub mayi gulgun.

Qasri gulgunda gulfishonlig' etib,
Sokini bazmi gulnishonlig' etib.

Yana Mas'ud ishorate qildi,
Bordi ulkim ishoratin bildi.

Bazm aro turfa soze kelturdi,
Soz ila dilnavoze kelturdi.

Sozi ul sarvi guljabinning chang,
Guli ustida burqai gulrang.

Dedi Mas'ud: «Sozini olsun,
Burqain olib, o'turub cholsun!»

O'turub chunki burqa' ochti hur,
Bo'ldi el aqlu hushidin mahjur.

Chang torig'a chun fig'on berdi,
Kimki o'turmish erdi — jon berdi.

Bu xud ul nav' shahni qildi asir
Ki, chekar erdi changi birla nafir.

Muni ham chekti shoh olig'a tez,
Bo'lubon lutf birla uzrangez.

Tuna kun tortqoncha molu jihat,
Tortti mehmon olig'a bot.

O'tti bu nav' ila bu kun dog'i,
Uyudi bazm usruku sog'i.

Yana tongla tuzuldi beozarm,
Majlis o'ldi iki kungidin ham garm.

Yana may ichmak erdi, gul sochmoq,
Yana may chehralarda gul ochmoq.

Zebu ziynat fuzun burundin ko'p,
Ayshu ishrat burung'i kundin ko'p,

Yana amr etti mizboni karim
Ki, birov qo'pti ul sifatki nasim.

Olibon keldi barqraftore,
Sayr aro barqdin namudori.

Gomi Shabdezdin kelib afzun,
Rangi gulgunu oti ham Gulgun.

Bir parivash hayuni devnajod,
Balki devu pari bila hamzod.

Shaklidan aqlu his bo'lub mabhut,
May anga suvu nayshakar anga qut.

O'n kelib o'zga otcha gomi aning,
Tunu kun yuz yig'och xiromi aning.

Ani ko'rgach xiraddin o'ldi bari,
Kishi andoqki, ko'rsa devu pari.

Ani ham chekti shoh olig'a chust,
O'ylakim necha tuhfa chekti naxust.

Borchadin shoh o'lub edi mamnun,
Lek mundin borisidin afzun.

Ul iki kungicha yana amvol,
Chekti mehmoni olig'a xushhol.

Yana shom o'lg'ach o'ldilar bori mast,
Mundoq o'lg'aykim, bo'lsa hodaparast.

Junai mehr chun uzor ochti,
Hinduvi shom askari qochti.

Shoh Juna ko'z ochti xobolud,
Mezbon tolii kibi mas'ud.

Keldiyu qildi suhbat angezi,
Qilg'ali gulga boda omezi.

Shah dedi: «Ey rafiqi zebo chehr,
Ko'nglumiz bog'ida ko'p ekkani mehr,

Mehmonliq ham o'lg'ay ushmuncha
Ki, unut bo'lmag'ay bu o'lguncha.

Sa'b erur garchi dardi hijroning,
Azim etarbiz gar o'lsa farmoning.

Garchi kelmak erur irodat ila,
Lek ketmak erur ijozat ila».

Bo'ldi hijron hadisi chun mazkur,
Tushti Mas'ud xotirig'a futur.

Dedi: «Ey rahnavardi korogoh!
Ne hadis erdikim, deding nogoh?

Suhbating birla bor eduk xushhol,
Bizga hajring qilur mushavvash hol.

Xidmatingda gar ayladuk taqsir,
Sen karam birla topmog'il tag'yir.

Shod eduk mehrvash jamolingdin,
Mutamatte' chuchuk maqolingdin.

Necha kun tursang o'lg'abiz masrur,
Yo'qsa, taqsirimizni tut ma'zur!»

Shoh anga uzrlar base qo'ldi,
Xayrhod aylabon ravon bo'ldi.

Bo'ldi Gulgun uza jahonpaymo,
Ursa mahmiz osmonpaymo.

So'ngicha har ne berganin Mas'ud,
Zabt etib borchasini budu-nabud.

O'zining necha mu'tamadlaridin
Kim, barumand edi xiradlaridin.

Uzaturg'a zamoni otlandi,
Chun uzatti visoqig'a yondi.

Shah chu Gulgunni qildi dashtxirom,
Tutti Dehlida ul kun-o'q orom.

Necha kun chunki anda maks etti,
Neki qolmish edi keyin yetti.

Ishi Mas'ud ishida hayronliq,
Kelturub aqlig'a parishonliq.

Yodi birla to'nin qilib gulfom.
Ichibon yodi birla gulgun jom.

Birov erdi Taroz uza voli,
Himmati pastu mansabi oliy.

Shahr ang Junpur, oti Jaypur,
Zulm ila Hind mulkida mashhur.

Ham kelib erdi dodxoh andin.
Bo'lub erdi necha gunoh andin.

Ayladi hukm shohi farruxfol:
Kim: «Bitisunlar ushbu lahza misol

Ki, viloyatda shoh o'lub Mas'ud,
Ul yetushsun eshikka zudo-zud».

Lek bu nomadin burun bu xabar
Yetibon ayladi ani muztar.

Bildikim bordi saltanat qo'lidin,
So'rg'usi shoh ma'dalat yo'lidin.

Ishlari shahg'a chun ochilg'usidur,
Ne sazovori bo'lsa qilg'usidur.

Bor edi noibi oti Mallu,
Tab'ida zulmu kina sori g'ulu,

Chun bu yanglig' ish o'lmog'in bildi,
Chorlab oni mushovarat qildi:

Kim: «Ne bo'lg'ay bu qissag'a chora?»
Dedi zolimvashi sitamkora:

Ki: «Bu ishkim, sanga erur hodis,
Anga Mas'ud o'lubturur bois.

Shahg'a bormish bu nav' ovoza,
Ki aning bazlig'a yo'q andoza.

Ham demakdin ziyoda yaxshilig'i,
Yaxshiroq olam ahlidin qilig'i.

Ani sendin chu anglamish foyiq,
Anga ko'rmish sening ishing loyiq.

Ul qachon bo'lsa bu aroding gum,
Sangadur yor charx ila anjum.

Favtidin shoh iztiror topar,
Mamlakat ham sanga qaror topar».

Dedi Jaypur: «Gar budur chora,
Ani ne nav' etarbiz ovora?»

Dedi Mallu: «Burun ani yor et,
Tavri mehru muhabbat izhor et.

Chorlabon o'z uyungga suhbat tuz,
Oning uyiga mayl ham ko'rguz.

Chun bo'lar bu musodaqat mavjud,
Men qilay har nekim erur maqsud».

Bo'ldi Jaypur ko'ngli behad shod,
Soldi Mas'ud birla tarhi vadod.

Beribon yuz fusun bila bozi,
Bo'ldi oning rafiqu hamrozi.

Chorlabu borib uyiga bexost,
Har kun aylab birisi suhbat rost.

Anga o'zini yor deb joni,
O'zidin emin ayladi oni.

Toki Mas'ud uyi aro Jaypur,
Bir kun o'ldi qadah bila masrur.

Shomg'a tegru ayladi ani mast.
O'zi dog'i anga bo'lub hamdast.

Tund may chunki zoyil etti xirad,
Gulshan ichra yiqildilar bexud.

Bo'ldi Mas'ud eli dag'i g'ofil,
Ko'pi bor erdi, balki loya'qil.

Istar erdi bu holni dastur,
Bor edi bir kamin aro mastur.

Chiqti bir necha devhush birla,
Kinakash, balki xirakash birla.

Toptilar mizbonni bog' aro chust,
Bog'ladilar ilik-ayog'ini rust.

Ko'tarih biri bo'ynig'a oni,
Qildilar yo'lg'a azmi pinhoni.

Uyig'a bordi ul qarong'u kecha
Kim, qaro ko'rdi o'ylakim bu kecha?

Tiyra choh ichra soldi tutqunni,
Tengri bir aylagan tunu kunni.

Munda choh ichra bexudu mazlum,
Qavmu xayli ishini qil ma'lum!

Chunki tun quzg'uni havo qildi,
Tong qushi navha ibtido qildi.

Ko'z ochib uyqudin aning xayli,
Qildilar barcha xizmati mayli.

Bo'ldilar hozir o'ylakim ma'hud,
Chunki Mas'ud g'oyib erdi ne sud?

Barcha g'amnok o'lub, qilib yoqa chok,
Lek Jaypur barchadin g'amnok.

Dam-badam iztirob anga ortib,
Qavmu xayli bila fig'on tortib.

Ko'z necha kun g'amida yopmadilar,
Tiladilar, valek topmadilar.

Yolqibon oqibat bu suratdin.
Motamin tuttilar zaruratdin.

Tushti elga qilib borin ojiz,
Motamekim, tuganmagay hargiz.

Qildi voliyi xorijandesha,
Necha kun g'am yebon azo pesha.

Qavmu xayli chu berdilar ko'p pand,
Bo'ldi Mas'ud hajrig'a xursand.

Yetti oshin berib takalluf ila,
Uyiga bordi ko'p taassuf ila.

Chunki ul kecha g'adr etib Mallu,
Yel ichin qildi dard ila mamlu.

Mehr chun sharq chohidin chiqti.
Yer tubi xobgohidin chiqti.

Ochti Mas'ud ko'z malolat aro,
Ko'rdi o'zni g'arib holat aro.

Ayog'i ilgi bog'lanib mahkam,
Ko'ziga tiyra jumlai olam.

Jismining nisfi bolchig'u su aro,
Yorimi qiyrdak qorong'u aro.

Dedi: «Yo Rabki, bu ne hol erkin?
Tushmu erkin va yo xayol erkin?»

Nechakim ayladi gumonu qiyos,
Holatin aylay olmadi ihsos.

Ochti mundoqda choh boshini birav,
Choh aro tushti sham'din partav.

Ani ul chohdin azob bila,
Bog'labon chektilar tanoh bila.

Soldilar uy ichinda zoru asir,
Ko'rdi nogahki tun kirdi vazir,

Og'zig'a har ne kelganin so'kti,
Bir kishi bir quchoq yig'och to'kti.

Hukm qildiki: «Ochingiz rasanin.
Yalang'ochlang, azob etarga tanin».

Dedikim, chekti oni ikki kishi,
Yig'och urmoq yana ikining ishi.

Nechakim zorlig' bila Mas'ud
Dedikim: «Ayingiz, nedur maqsud?

G'araz ar mol erur emas ul kam,
Jon esa yo'q turur muzoyaqa ham».

Qilmadi istimo' zolimi xas:
«Yig'och urmoqni, — dedi, — qilmang bas».

Bargi guldek tanin topib yalang'och,
Ikki zolim urarlar erdi yig'och.

Necha faryod etibki, urdi pech,
Kishi faryodig'a yetishmadi hech.

Tokim ikki yig'och usholdi durust,
Bo'ldi ikki yig'och urg'uchi sust.

Dedi zolimki: «Bas qiling, urmang,
Bukun oni tayoqlab o'lturmang.

Qatl qilmasmen iztirob aylab,
O'ltururmen, vale azob aylab».

Qo'pti boshu ayog'idin ikki dun.
Bo'ldi ul fe'lidin xijil gardun.

Qo'pub o'lturdi notavon Mas'ud,
Dedi tortib fig'oni dardolud

Ki: «Gunohim nedur, musulmonlar!
Qilmadi bo'yla zulm yoronlar!

Zulmu bedod rasmidin qayting,
Gunahe aylagan esam ayting.

Odami joyizul-xato bo'lmish,
Bu xato borchag'a ravo bo'lmish.

O'tkaray har ne tarjumon desangiz,
Moldin kim desunki, jon desangiz».

Necha bu nav' zohir etti navo,
Qilmadi duni sangdil parvo.

Dedikim: «Qo'ymangiz ani so'zga,
Demasun bu fasonalar o'zga».

Bog'latib soldi chohning tahig'a,
Yana yer tutti Yusuf o'z chahig'a.

Necha kun bu edi ishi oning,
Man'ini qilmayin kishi oning.

Bordi Mas'ud holi somondin
To'kubon ashk, ilik yudi jondin.

Der edi: «Tig'i kin surung oxir,
Meni rahm aylab, o'lturung oxir».

Bas jafodin chu zulmgar to'ydi,
Tongla o'lturgali ko'ngul qo'ydi.

Choh boshida qo'ydi bir kishini,
Aylabon uhda o'lturur ishini.

Bordi Jaypur olig'a shodon
Ki: «Buzuq ko'nglung bo'ldi obodon.

Dushmaning bu sifat erur maqhur.»
Oldi o'lturgali ani dastur.

Keldiyu uyda tuzdi bazmi nishot.
Boda ichmakda ayladi ifrot.

Bir qizi bor edi aning gulrux,
Talxguftor, bal shakar posux.

Husn birla jahon elida g'ani,
Vasfdin balki husni mustag'ni.

Ishq umre solib dimog'ig'a dud,
O'tining boisi edi Mas'ud.

Husni vasfini chun eshitmish edi,
Ham yiroqtin nazora etmish edi.

Kishiga ayta olmayin oni,
Kuyar erdi valek pinhoni.

Ishqdin chun bor erdi ko'nglida band,
Bandini ko'rsa erdi hojatmand.

Mehnati aylabon siroyat anga,
Aylar erdi base rioyat anga.

Uyda-o'q aylamish edi ma'lum
Ki, erur band ichinda bir mazlum.

Vahmdin mahvashi xumoyunfol,
Ani so'rmoqqa topmas erdi majol.

Bu kechakim, otosin angladi mast,
Qavmu xaylin may etti yer bila past.

Chah nigahboni erdi loya'qil,
Mastliq uyqusida forig'dil.

Ochibon choh boshini mahvash,
Chorladi mehr birla: «K-ey g'amkash!

Qaysi mazlumsen, ne oting bor?
Bu zamon mavt, yo hayoting bor?»

Chu eshitti aning uni majruh,
Jismig'a mayl qildi ketgan ruh.

Nola aylab dedi: «Otim Mas'ud,
Jonima yuz tuman balo mavjud.

Sen de, odam va yo farishtamusen?
Rahmati Haq bila sirishtamusen

Ki, unungdin tanimg'a jon keldi,
Jismima mujdai ravon keldi.

Qila olsang ishingga fikre qil!
Yo'qsa, boru meni o'luk hilgil!»

Chun eshitti otin buti cholok,
Ishqdin tushti ko'ngliga topok.

Qon base hajridin yutub erdi,
Necha kun motamin tutub erdi.

G'oyib o'lmog'lig'i bo'lub edi chin,
O'lgani, lekin ermas erdi yaqin.

Otasin ham bilur edi gulro'y
Kim, erur devfe'lu vojunxo'y.

Nozanin ko'ngli ichra tushti gumon,
Dedi: «Yo Rabki, bo'lmag'ay bu hamon!»

Chunki so'rmoqqa ayladi tadqiq,
Bildi Mas'ud erkanin tahqiq.

Dedi: «Ey jisminga fido jonim!
Joniga sadqa jismi pazmonim!

Seni ko'rguncha mundoq o'lsam ne?
Xasta joning fidosi bo'lsam ne?

Ko'rdikim, bu fasonadin yo'q sud,
Qilg'ali chora qo'pti g'amfarsud.

Ikki mahram kaniz edilar anga,
Joni yanglig' aziz edilar anga

Kim, anga ul dam erdilar hamrah,
Nozanin ishq o'tidin ogah.

Aylabon ulcha sa'y imkoni,
Chektilar choh qa'ridin oni.

Chiqti bir kolbadki, jon yo'q anga,
Tan aro ruhdin nishon yo'q anga.

Oyoq-ilgini yeshtilar filhol,
Ruhsiz jismdin edi timsol.

G'amidin sho'x o'larg'a yovushti,
Zor yig'lab ayog'ig'a tushti.

Ko'rdi holin so'rar mahal ermas,
Anda turmoq natijaye hermas.

Ul ikavga ko'tartibon oni,
Andoq evga kiyurdi pinhoni

Kim, necha tursa notavon anda,
Hech kim qilmag'ay gumon anda.

Kat yuzida to'shak solib necha qot,
Anda yotquzdi zoru xastani bot.

Goh sharbat, gahi taom berib,
Yuzidin o'z ko'ziga kom berib,

Xizmatin aylabon shafiqona,
Bor edi tegrasida parvona.

Ul kechakim, ani chiqordi ul oy,
Salx bo'lg'on vaziri xorijroy,

Bo'ldi Mas'ud qatlig'a jozim,
Qo'ptiyu bo'ldi chah sori ozim.

Ko'rdi: zindonu choh boshi ochuq,
Poshon masti xobu, bandi-yo'q.

Posbonni hamul dam etti halok,
Bo'ldi o'z joni vahmidin g'amnok.

Chopibon bordi voli olig'a chust,
Voqe' o'lg'onni sharh qildi durust:

Ikkisi qoldilar ajab g'am aro,
O'zlari holatig'a motam aro.

Oqibat ul iki sitamkora,
Ishga bu nav' toptilar chora

Ki, burun shahr aro qilib ta'jil,
Topsalar, aylagaylar oni qatil.

Shahr aro erdi notavon noyob,
Qildilar tog'u dasht sori shitob.

O'n kun istab fuzunroq imkondin,
Topmadilar nishonae ondin.

Angacha sho'x mehribonlig'idin
Chiqti Mas'ud notavonlig'idin.

Kengashib, roy anga topti qaror
Kim, ayon bo'lg'ay ikkisiga firor.

Sho'x ikki ot qilib edi tayyor,
Po'yada misli kavkabi sayyor.

Qaytg'och voliyu vaziru sipoh,
Yo'lda chun hech qolmadi ikroh.

Qochibon yo'lg'a tushti ikki rafiq
Kim, demishlar: «Rafiqu summa tariq»

Bu kecha qochtilar iki hamroh,
Tonglasi xalq bo'ldilar ogoh.

Qavdilar borcha sa'y etib joni,
Jahdning ulcha bo'lg'ay imkoni.

To ko'rundi alar qarolari ham,
Qolmadi bir yig'och arolari ham.

Ikki bechora jonida edi tob,
Chora qildi Musabbibul-asbob

Kim, ko'rundi ilaylarida tengiz,
Furzada bir kema, vale yuksiz.

Yetgach-o'q muzd aylabon ta'yin,
Bo'ldilar kema ichra bahrnishin.

Surdilar kemani shitob bila,
Yetti qavg'unlar iztirob bila.

Ko'rubon o'yla mehnati jovid,
Ul ikov yondi jonidin navmid.

Yurubon qo'ydilar qiroq sori yuz,
Bu ikav suvda o'n kecha-kunduz.

Kemadin chiqtilar ikov xushhol,
Mindilar otqa aylab isti'jol.

Shahrkim, tuttilar aning sori yo'l,
Poytaxt ermish ittifoqiy ul.

Yo'l yurub kecha subh chog'ig'acha,
Yettilar shahrning qirog'ig'acha.

Yo'lda bir eski qal'a tomi edi,
Panahida necha haromi edi.

Anda yetgach alarg'a surdilar,
Har birin o'n kishi tushurdilar.

Olibon otu to'nlarini tamom,
Qildilar jilvagahlarig'a xirom.

Ikki uryon ichida qayg'u edi,
Shukr erdiki, tong qarong'u edi.

Ushbu holatda yettilar xayle,
Qildi Mas'ud alar sori mayle.

Chun o'z ahvalidin xabar qildi,
Dardi ul xaylg'a asar qildi.

Bir-iki eski kiyguluk tashlab,
Yondilar shahr sori yo'l boshlab.

Satri avrat qilib iki hamdard,
Kirdilar bir buzuqg'a g'amparvard.

Yorug'och tong sipehr jomidek,
Qochti tun hindusi haromidek.

Ul buzug' ichra erdilar bu hol
Angachakim, quyoshg'a bo'ldi zavol.

Ochlig' za'fi bo'ldi chun g'olib,
Nafs bo'ldi g'izo sori tolib.

Sho'xda chun yo'q erdi tobu tavon,
Bo'ldi Mas'ud shahr sori ravon.

Kim, anga yetsa har nechuk ro'zi,
Oni qut aylagay dilafro'zi.

Qo'ydi bozor ichiga chunki qadam,
Shoh bazmi uchun birov ul dam.

Toslar soz etib edi maqbul,
Nechada umna, nechada tanbul.

Der edi: «Har biriga ikki diram,
Muzd erur har kishiki qo'ysa qadam».

Chunki Mas'ud eshitti ul so'zni,
Toskash ayladi ravon o'zni.

Ul jamoat aro urar edi gom,
Yo'l yirog'u alarg'a yo'q orom.

Za'fliq jismi tobi chun ketti,
Shohning chorbog'ig'a yetti.

Juna gulshan aro ichar edi may,
Bazmida lahni udu nolai nay.

Chunki Mas'ud ishin eshitmish edi,
G'amidin aqlu hushi itmish edi.

Yodidin beqaror yig'lar edi,
May ichib zor-zor yig'lar edi.

Bog' aro chunki kirdi ul mahzun,
Axtachi ilgida edi Gulgun.

Chun nazar qildi dashtpaymog'a,
Ko'zi ul lahza tushti tang'og'a.

Angladikim, erur hamul markab,
Soldi hayrat hazin ichiga taab.

Dedi: «Ul mehmon buyon surmish,
Shoh olig'a tuhfa kelturmish».

Yurugach ilgari ayog'i aning,
Topti gulchehr unin qulog'i aning

Kim, chekar erdi soz ila nag'mot,
Lahnida borcha oshno ab'yot.

Tanig'a pechu tob tushti yana,
Ko'ngliga iztirob tushti yana.

Munda dog'i ichiga tushti gumon
Ki, sanamni sotib ekin mehmon.

Qo'ydi chun shah bisotig'a gomin,
Ko'raga ichra ko'rdi o'z jomin.

Jomi maydek ichiga qon tushti,
Ko'zlaridin oqarg'a yovushti.

Munda ham oni dard etib behol,
Ham o'shul ikki yanglig' etti xayol.

Ko'ngliga za'f bo'ldi mustavli,
Dedi: «Yo Rab, ne qilg'anim avli?»

Shah sori ko'zi tushmak erdi hamon,
Tonidikim erur hamon mehmon.

O'zi bergan kibi to'ni gulrang,
Yana gulrang toj ila avrang.

Bera olmadi o'zi birla qaror,
Ul zamon qilg'ali o'zi izhor.

Ki: «Agar zohir aylasam o'zni,
Muzduma tikmish o'lg'amen ko'zni».

Zohir o'lmoqtin ushbu bo'ldi g'araz
Ki, kerak har ne qilg'anig'a evaz.

Tosni oldilar chu boshidin,
Ko'zlari bo'ldi g'arq yoshidin.

Toshqori chiqti bormog'in tishlab,
Mumkin ermas g'arib ish ishlab.

Istadi bog'din chiqarni yurub,
Himmati gomin osmong'a urub.

Necha xodimki, shahg'a qoytmish edi,
Mehmoni bila uzotmish edi.

Shah eshigida erdilar bori,
Ko'zlari tushti chun aning sori.

Tonidilar borisi maxdumin,
Ul dag'i ko'rdi xayli mahkumin.

Borcha beixtiyor o'kurdilar,
Qo'pub oning sori yugurdilar.

Sar-basar bo'ldilar ayog'ig'a past,
Aylab o'zni g'irev ila hamdast.

Ul dag'i chun alar ishiga boqib,
Ashki beixtiyor ko'zdin oqib.

Toshqori chun bu sho'ru shar bo'ldi,
Ichkari shahg'a ham xabar bo'ldi.

Voqif o'ldi so'rub shitob bila,
Yugurub chiqti iztirob bila,

Ko'rubon yorin uyla holat aro,
Bo'ldi yorug' jahon ko'ziga qaro.

Quchubon bo'ynini, to'kar edi yosh,
Ul qo'yar erdi shoh ayog'ig'a bosh.

Ul tarafdin kanizaki chini,
Qon to'lub diyda jahnobini,

Gul ruxsori g'arqa qon yoshig'a,
Evrulur erdi mun'imi boshig'a.

Topqach ul iztirob o'ti taskin,
Shah necha kimsa ayladi ta'yin

Kim: «Isig' suvg'a eltingiz oni»,
Ul kuyub hamrahi uchun joni.

Holidin shammae bayon etti
Kim, anga charxdin nelar yetti.

Shoh chun bildi andoq afsona,
Qildi ta'yin zaifalar yona.

Kiyguluk hullalar bori gulrang,
Mahdi gulgun ila qilib ohang.

Pari gulchehru necha xojasaro,
Toptilar oni ul xaroba aro.

Kiydurub bo'y-boshig'a hullai ol,
Mahd ichinda kiyurdilar filhol.

Mahdni bog' aro tushurdilar,
Ani bir qasr aro kiyurdilar.

Anda gulchehr birla necha kaniz
Asrabon oni shohvor aziz.

Bu tarafdin isiq sug'a Mas'ud
Kiribon chiqti o'ylakim ma'hud.

Borcha gulgun libos edi tayyor,
Shahg'a ul aylagan kibi izhor.

Chunki kiydi libosi shohona.
Istadi oni shohi farzona.

Yana quchtiyu o'g'lidek ko'rdi,
Neki boshig'a o'tganin so'rdi.

Qildi Mas'ud sarguzashtini fosh,
Ul der erdiyu shah to'kar edi yosh.

Qildi o'zga rafiqu sohib ani,
Tunu kun hamdamu musohib ani.

Beribon ko'p xizonalar bila naqd,
Anga gulruxni dog'i bog'ladi aqd.

Aning o'ldi Taroz va Darbast,
Necha kishvar dog'i anga payvast.

Qasri gulrang aro bo'lub gulposh,
Mayi gulfom bila erdi maosh.

Bo'yla holatda hukm topdi sudur
Kim, topib qatl Malluvu Jaypur.

Bo'ldi yer qonlari bila gulfom,
Ko'rki, gul faslidur ne xush ayyom.

Do'stlar g'arq gul aro to farq,
Yana dushman bu nav' gul aro g'arq.

Xushdurur bog'i koinot guli,
Barchadin yaxshiroq hayot guli».

Surdi chun roviy ul daqiq maqol,
Anga ham bo'ldi shah mufattishi hol.

Ul ham erdi Taroz kishvaridin,
Balki Mas'ud naslu gavharidin.

O'ziga qildi hamdamu hamroz,
Yaxshiroq buki, naqdu mulki Taroz.

Soldi tutqoch bu nav' amr vujud,
Ko'ziga uyqu tolii mas'ud.

XXVIII

*Chahorshanba kuni Bahromning moviy kisvat hila gunbadi
nilufariyg'a mayl qilib, xurshedi osmoniylibos bila jomi firuzagun
aro kabudon mayidek boda solib no'sh qilg'oni va no'sho-no'sh
unin toqi nilufaridin oshurg'oni*

Chorshanbaki toqi nilufari
Qildi tun korvonini safari.

Mehr o'z zarhalin ayon qildi,
Shamt ustiga shustmon qildi.

Ko'k fazosig'a mehr qildi safar
Bo'lubon ro'baro'y nilufar.

Nilufargun libos birlan shoh,
Qasri nilufar etti manzilgoh.

Ilgiga oldi jomi firuza,
La'l may andin etti daryuza.

Nilufardek liboslar bila oy
Bo'ldi xursheddek jahonoroy.

O'ylakim, ko'z yorutqali jovid,
Chiqti ko'k atlasin kiyib xurshed.

Ichti Bahrom jomi nilufariy
Tavnadekkim yosolg'ay ul sipari.

Anga tegruki gunbazi gardun
Ayladi lojuvardini shabgun.

Yuz sadaf zohir etti nili sipehr,
Botti ul Nil ichida zavraqi mehr.

Shah qilib tark bazmi oroyish,
Uyqudin tolib o'ldi osoyish.

Qildilar jam' majlis asbobin,
Istabon shohning shakarxobin.

Pardag'a kirdi sho'xi jilvanamo,
O'ylakim shom bo'lsa, mehri samo.

Xidmat ahli yana qilib novard,
Topibon rahnavardi olamgard.

Kelturub rost, o'ylakim har shom,
Berdilar parda keynida orom.

Pardadin buyla zohir o'ldi nido
Kim: «Musofir fasona qilsun ado».

Bo'yla bunyod etib duo roviy
Dedi: «Bu yetti pardai moviy

Qasri johingg'a pardai ayvon,
Borgohingg'a balki shodirvon.

Mehr – tojing uza guhar yanglig',
Charx – bog'ingda nilufar yanglig'».

XXIX

Beshinchi iqlim yo'lidin kelgan musofirning dostonorlig'i

Chun anga bu duosi yettikim
Oxir o'lg'och ravon ettikim:

«Bor ekandur Adanda javrfane,
Javr qilmoq fanida safshikane.

Bori manzil bo'lub savohil anga,
Sohili bahr o'lub manozil anga.

Ham tanumandu ham shujou daler,
Ul sifatkim jazira ichraki sher.

Axzi moli harom komi o'lub,
Bo'yla kom istabon haromi o'lub.

Shavkatidin ne yor anga, ne rafiq,
Yalg'uzun aylar erdi qat'i tariq.

Korvone agar o'nu gar yuz,
Borchasig'a harif edi yolg'uz.

Yo'q savohil ichinda rahzan ul,
Bahr aro ham anga kelib fan ul.

Bir necha zavraq asrabon tayyor,
Yangi oy zavraqi kibi sayyor.

Qaysi zavraqkim, ul yasab oni
Asrabon o'zga yerda pinhoni.

Necha rahzan anga mulozim etib,
Hifzini borchasig'a lozim etib.

Qaydakim zavraqi topib taskin,
Anda bir diydbon qilib ta'yin

Kim, jazoirdakim tutub besha,
Ul kishiga bu ish bo'lub pesha.

Kim, chiqib bir biyik shajar uzra
Ko'z solib bahri mavjvar uzra.

Ko'ziga kema uchrasa nogah,
Ani filhol etar edi ogah.

Ul minib zavraqi sabuksayre,
O'ylakim suvda sayr etar tayre.

Kema ahlig'a hay deguncha yetib,
Borchag'a har ne ko'ngli istar etib.

Talabon molu aylab elni halok,
Yonibon komi dil bila bebok.

Bahr aro ofati nechukki nahang,
Besha ichra nechukki sheru palang.

Suv yuzinda sabo kibi obir,
Otini xalq aytibon Jobir.

Dashtu daryoda lek ahli ubur
«Jobiri rohzan» qilib mashhur.

Bor edi bir jazira ma'man anga,
Xalq molin yig'org'a maxzan anga.

Bir yig'ochqa yaqin jazirag'a davr,
Davrida suvg'a topmayin kishi g'avr.

Davrasida ko'runmayin ko'zga,
Onchakim ko'z tushar sudin o'zga.

Ichida beadam shajar butubon,
Sabza o'rnig'a nilufar butubon.

Chashmaye erdi xushguvor anda,
Zahr aro no'sh oshkor anda.

Ul su birla yasab edi bog'e,
Bog' ichinda imorati dog'i.

Anda dahlezu gunbazu ayvon,
Suyi andoqki chashmai hayvon.

Go'yiyo andag'i jazoir aro,
Shahre ermish oti Bihishtsaro.

Anda shohi saxiyu donishvar,
Qabzai hukmi ichra ul kishvar.

Oti Navdar valek o'zi nodir,
Tab'i har nodir ish aro qodir.

Bor emish go'yiyo anga bir qiz,
Odami o'yla ko'rmagan hargiz.

Qadikim naxli sarfarozi kelib,
Husn bog'ida sarvinozi kelib.

Zulfidin sunbul aylabon yuz pech,
Og'zidin g'uncha oytmay so'z hech.

Orazi mash'ali jahonafro'z,
Partavi shu'lasi kelib jonso'z.

Sochi aylab kamand bo'lmoq fan,
Mehr bo'ynig'a tortar erdi rasan.

Yuziga mehr bandau oti Mehr,
Uyrulub mehrdek boshig'a sipehr.

Bahrg'a noz ila chu ko'z solibon,
Dema ko'lok, bahr qo'zg'olibon.

Bu sifat mehri olamafro'ze,
Mehr yo'q, shu'lai jahonso'ze.

Bir kun istab tengiz tafarrujini,
El xiromiyu suv tamavvujini.

Kiribon zavraq ichra soyir o'lub,
Ul jazoir to'shida zoyir o'lub.

O'yla bahri falakmisol ichra,
Kavkabi yer tutub hilol ichra.

Nogahon esti nomuvofiq yel,
Voqif o'lguncha kemalardagi el.

Kemalarni tengiz aro surdi,
Shiddatin lahza-lahza oshurdi.

Toki tund o'ldi bahr aro ko'lok,
Dedi malloh aylabon yaqo chok

Kim: «Inoyat yo'q ersa Yazdondin
El keraktur yumoq ilik jondin».

To bu yanglig' necha kecha-kunduz
Yel surar erdi kemalarni tuz.

Topqucha yel suubati orom,
Kemaga oncha bo'lmish erdi xirom

Ki, kishikim qo'yub edi Jobir,
Diydbonliqqa har sori nozir.

Suvda chun kemaga nazar qildi.
Ko'rganidin anga xabar qildi.

Kirdi zavraqqa Jobiri xunrez,
Yel kibi qo'ydi yuz alar sori tez.

Yetgach-o'q bo'ldi razmu kinpardoz,
Qildilar kin alar dog'i og'oz.

Har o'qikim alar sori otti,
Qonlarin bahr suvig'a qotti.

Qildilar, chun ko'p ayladi bedod,
Qolg'oni zinhor ila faryod.

Olig'a solibon borin surdi,
Tokim o'z maskanig'a yetkurdi.

Kemalarni qiroqg'a bog'lab rust,
Xalqu amvolini chiqordi durust.

Sho'xdin chun emas edi ogoh,
Ko'zi tushti aning sori nogoh.

Yiqilib zoyil o'ldi andin hush,
Bir dam erdi o'luk kibi xomush.

Hushi kirgach yana nazar etti,
Ko'rgach-o'q holidin yana ketti.

Necha qatla chu bo'ldi mundoq hol,
Bildikim, yo'q anga boqarg'a majol.

Amr qildiki, mohi Zuhrajabin,
Kirdi bog' ichra bo'ldi qasrnishin.

Qoshig'a qo'ydi bir-iki gulxad,
Sarvi gulruxg'a hamdamu hamqad.

O'zga nekim bor erdi yaxshi-yamon,
Beribon jonidin borig'a amon.

Qildi bir kema borchag'a ta'yin,
Ul kema ichra tuttilar taskin.

Dedi: «O'z mulkunguzga azm etingiz,
Jon keraklik esa ravon ketingiz!»

Vahm etib ul guruh bu so'zdin,
Bahr aro ittilar ravon ko'zdin.

Mohvash qoldi ul jazira aro,
Mehri iqboli shomi tiyra aro.

Jobir oning xayolidin xushhol,
Ko'ngliga kelmayin umidi visol.

Mehr ko'ziga shomdek ayyom,
Mehrdek ko'ngli o'rtanib to shom.

Go'yiyo ham jazirada bir shahr,
O'zi Firdavsu Salsabil anga nahr.

Bor emish ravzadek havosi aning,
Charxi minu kibi fazosi aning.

Anda bir shoh hokimu voliy,
Mulki ma'muru himmati oliy.

Oti Nu'monu mulki oti Yaman,
Adlidin mulki gulistonu chaman.

Anga bir o'yla nozanin farzand
Kim, bashar ichra yo'q anga monand.

Yuzidin bargi gul xijil erdi,
Qaddidin sarv munfail erdi.

Borcha fazlu hunarda yo'q misli,
Ko'zguga boqsa o'zi-o'q misli.

Hunar avji sori kelib anga mayl,
Yuzi andoqki mehr, oti Suhayl.

Mehr zulfig'a ko'ngli bog'lig' edi,
Bu anga go'yiyo atog'lig' edi.

O'ylakim Mehrning xarobi Suhayl,
Mehrg'a ham Cuhayl sori mayl.

Maylni qo'yki, volau zor ul,
Jon berib vaslig'a xaridor ul.

Bo'ylakim hajr qo'ydi bag'rig'a dog',
Manzil o'lmish edi anga ul bog'.

Bor edi anda guna-guna shajar,
Gul yo'q erdi, bag'ayri nilufar.

Nilufarvor so'gvor erdi,
Nilufar ichra ashkhor erdi.

Ashkidin go'yiyo berur edi suv,
Oh o'tidin qururg'ayib qayg'u.

Yo'qki hijron g'amida zoru zalil,
Nilufar ichra oqizib edi Nil.

Topibon ashki nilufarda mamar,
Yo'q, ajab bahr ichinda nilufar.

Ko'ngli gar nilufarg'a rog'ib edi,
Mehr ila nilufar munosib edi.

Nilufar sori ko'p qilib ohang,
Kiy makin ham qilib edi ul rang.

Nilufargun libos birla sanam
Tutubon yor hajrida motam.

Motamin zohir aylamakka mafar,
Rang aro so'gvor nilufar.

Mehrni charx etib asiri firoq,
Aylar erdi Suhayl otosi yaroq.

Aqd bazmini qilg'ali obod,
Go'yiyo bu mahal edi miod.

Yuklabon necha jung aro amvol,
Anda mavjud har ne qilsa xayol.

Yer tutub bir hilol ichinda Suhayl,
Mehr aqdig'a aylamish edi mayl.

Yo'l qiroqdin magar yiroq erdi,
Bahrdin borsa yaxshiroq erdi.

Bu jihatdin murod sori murur,
Bahrdin ittifoq tushti zarur.

Andakim, Mehr kemasin ko'lok
Surdi bahr ichra o'ylakim xoshok.

Go'yyokim esib hamul yel tez,
Soldi bu elga dog'i rustoxez.

Savg'a surdi Suhayl kemasini,
Oyirib borcha xaylu nimasini.

Beribon kemasiga muhlik mavj,
Bir zamoni hazizu gohi avj.

To kema bo'ldi ul sori obir
Kim, qo'yub erdi diydbon Jobir.

Diydbon ul taraf boqib nogoh,
Yana Johirni ayladi ogoh.

Ul kirib zavraqig'a ayladi azm,
Bo'lub ul kema ahli qatlig'a jazm.

Chun yetib qildi el halokiga mayl
Razmu kin ichra chobuk erdi Suhayl.

Qila boshlab aning bila parxosh,
Ishlari kema ichra bo'ldi savosh.

Jobir ar zarb urar edi behad,
Borcha zarbin Suhayl etar edi rad

Qilsa ul dog'i zarb izhori,
Munga ham tushmas erdi ul kori.

Ikkisi chunki erdilar cholok,
Bir-biridin alarg'a yo'q edi bok.

Ko'rdi Jobirki, qoyim o'ldi ishi,
Ollida nomuloyim o'ldi ishi.

G'olib o'lmoq aro bo'lub ojiz,
O'zini ul nav' ko'rmayin hargiz.

Ilgiga hiyla shevasin oldi,
Yalang'ochlab o'zin sug'a soldi.

Xasmning kemasi tubiga kirib,
Tig' ila kemanding tubini yorib.

Taxtani o'yla kov-kov etti
Ki, suv yo'li nechukki nov etti.

Kemasin chunki nov ko'rdi Suhayl,
Tubidin suv yuqori etgan mayl

Daf'ig'a necha hiylagar bo'ldi,
Qilmadi sudu, kema suv to'ldi.

Ul su to'ldiyu bahr erdi amiq,
Kemayu kema ahli bo'ldi g'ariq.

Qo'lni shahzoda jonidin yudi pok,
Qo'ydi ko'nglin suda bo'lurg'a halok.

Qildi Jobir aning sori ohang,
Ul sifatkim, bolig' yutarg'a nahang.

Boshig'a yetti aylamakka qatil,
O'lar elga nechukki Azroil.

Qo'lig'a chun aning qo'lin oldi,
O'zining zavraqi aro soldi.

Chiqti dog'i yeshib kamandini chust,
Bog'lab oning ilik-ayog'ini rust.

Bo'ldi yonmoq ishiga omoda,
Keldi nogah o'ziga shahzoda.

Ko'rdi o'zni g'arib — band ichra,
Halqa-halqa xami kamand ichra

Aduv ilgida qatra suvdek tig',
Yedi o'z notavonlig'iga darig'.

Dedi Jobirki: «Ey qo'lumda asir,
Razmu ko'shishda qilmading taqsir.

Men bu zavraqni suvg'a to surdum,
Ming seningdekni suvda o'lturdum.

Birida sencha ko'rmadim jur'at,
Jur'ating bo'ldi maxlasingg'a jihat

Kim, tengiz ichra boshinga yettim,
O'laringdin seni xalos ettim.

Qatlinga garchi tab' rog'ib emas,
Lek qo'ymoq dag'i munosib emas

Kim, agar banddin xalos o'lg'ung,
Bir shahi komrong'a xos o'lg'ung.

Bo'lmoq o'lmas xalos domingdin,
Bo'lmog'um emin intiqomingdin.

Ish hisobin shumora qilg'ungdur,
Qatlu kinimg'a chora qilg'ungdur.

O'lmoq avlo sanga kamand ichra,
Tirik o'lmoq valek band ichra».

Necha izhori ajz qildi Suhayl,
Qilmadi kinavar javobig'a mayl.

Kemasin maskani sori surdi,
Oni o'z ma'manig'a yetkurdi.

Qasri kunjida bor edi chohe,
Kimsani band aylasa gohe,

Ul chah ichra qilur edi sokin,
Chiqmoq andin emas edi mumkin.

Aning a'zosidin rasan oldi,
Band ila choh qa'rig'a soldi.

Har kim ul choh aro chu bo'ldi g'ariq,
Non ikita edi, su bir ibriq.

Yuqori dilbaru quyi bedil,
Bir-biridin vale ikov g'ofil

Bu ikovga bu yerda mundoq hol,
Qavmu xaylig'a emdi ko'r ahvol.

Andakim Mehrni qilib noshod,
Qavmu xaylini ayladi ozod.

Ul ulus jondin ayru el yanglig',
Sayr etib suv yuzida yel yanglig'.

Kunduzu kecha po'ya ettilar,
Toki kishvarlarig'a yettilar.

Nilufargun libos etib bori,
Qildilar borcha motam izhori.

Shoh xud Mehr ishtiyoqidin,
Bal jigargo'shasi firoqidin,

Ham bu rang aylab erdi xil'atni,
Xayli dog'i bu rang kisvatni.

Chun bular dog'i keldi motam ila,
Bahri anduhu lujjai g'am ila.

Shohkim, bag'rig'a tegib edi tish,
Ayladi Mehr holini taftish.

Bo'ldi ketgan azo yana toza,
Qolmadi dardu g'amg'a andoza.

Qildilar ulcha bor edi taqdir
Ki, ne kelturdi olig'a taqdir.

Yana anduh ila fig'on qildi,
Yana anduhi qasdi jon qildi,

Tiyra bo'ldi jahon anga holi,
Go'yiyo botti mehri iqboli.

Dedi o'ziga yig'lab achig'-achig'
Ki: «Achig' yig'lamoq manga ne asig'.

Tig' ila bag'rim aylasam pora,
Chun jigargo'sham itti, ne chora?

Chora topmoq kerak mufid emdi,
Yo'q g'amu noladin umid emdi».

Olib ilgiga safhayu xoma,
Qissa sharhini yozdi bir noma.

Har ne ish bo'lg'onin bayon etti,
Shoh Nu'mon sori ravon etti.

Yozib ul noma ichra pinhoni
Kim: «Bu bo'lmish qazoyi Yazdoni,

Lek Haqkim g'amu halo bermish,
Dard bermish vale davo bermish.

Chora bu ishga intiqom durur,
Yo'qsa bo'lmoq tirik harom durur.

Mehr agar erdi jonima payvand,
Sanga dog'i bo'lub edi farzand.

Bo'lsa ul dushman ilgida mahbus,
Manga nomus erur, sanga nomus.

Mundin o'zga bu ishga yo'q tadbir
Ki, ikkimiz cherik yig'ib bir-bir.

Senga mulkungda bo'lmoq o'lsa mayl,
Lek farzandi arjumand Suhayl

Kim, erur pilzo'ru shershukuh,
Panjasidin kelib bu ikki sutuh.

Bal haqiqat aro aningdur Mehr
Ki, bu mansuba zohir etti sipehr.

Boshlabon ul cherikni sohil ila,
Suv yaqosidagi manozil ila,

Aylabon razmu kiyna izhori,
Kelsa Jobir jazoyiri sori.

Men dag'i tab'i kiynaxohimni,
Sa'y aylab yig'ib sipohimni.

Yaroq aylab ko'ngul farog'i bila,
Ulcha mumkin cherik yarog'i bila,

Beribon kemalar aro orom,
Yel kibi aylasak, suv uzra xirom.

Men sudin aylasam azimat jazm,
Ul qurug'luq soridin aylab azm.

O'yla tarix aylasak miod
Ki, qachonkim bo'lur bu ish bunyod.

Necha kundin so'ng o'lg'ay imkoni,
Qobsamoq bu iki cherik oni.

Ham o'shul nav'kim muqarrar o'lur,
Sa'y qilsoq bu ish muyassar o'lur

Ki, chekilgay bu intiqom oxir,
Ro'zi o'lg'ay bu nav' kom oxir.

Ul Zuhayvash jazog'a xos o'lg'ay,
Mehr ham uqdadin xalos o'lg'ay.

Gar bu yanglig' emasdurur sanga kom.
Oni ham hotroq aylag'il e'lom

Ki, chu ish tushsa boshima yolg'uz,
O'zga yanglig' topay salohig'a yuz».

Shoh Nu'mon o'qug'och ul noma,
Bildikim, bo'lmish o'zga hangoma.

Yig'labon bo'ldi asru ko'p g'amnok,
Bu sitamdinki ayladi aflok.

Oni ham bildi shohi ozoda
Kim, musofir chu bo'ldi shahzoda.

Maqsadi sori yetmagan ermish,
Kema ul sori ketmagan ermish.

Ikki muhlik ajab g'am o'ldi anga,
Motam ustiga motam o'ldi anga.

Bilmadikim ne ish ekin hodis,
Kim ul ishga bo'lub ekin bois.

Kim aningdek Suhayli sayyora
Charx zulmidin o'lg'ay ovora?

O'ylakim bo'lmag'ay asar andin,
Demagay hechkim xabar andin.

Ko'p qilib fikr topti ra'yi savob,
O'qug'on nomag'a bitidi javob

Kim: «Hamul nomakim bitilmish edi,
Mehr holin bayon qililmish edi.

Ul alam garchi soldi boshima dud,
Bildim o'rtanmagimda yo'qtur sud.

Sabt edikim, yururga qilsang mayl
Yaxshi, yo'qsa chekib sipoh Suhayl.

Azm aylab cherik yarog'i bila,
Yurusun bahrning qirog'i bila.

Nukta qilma Suhayldin iblog',
Qo'ymag'il dog'im ustiga yana dog'.

Degil avval muniki, qoni Suhayl?
Qoni ulkim, der erduk oni Suhayl

Kim, Suhayl etgali sizing sori azm
Olti oydur hisob etib biz jazm.

Kech kelur fikridin eduk g'amnok,
Yetmagan anda, bizni etti halok.

Sen qurug'luq bila sipah cheksang,
Charx uza avji borgah cheksang.

Men bo'lub kema ichra bahrxirom,
Sipahim birla tutmasam orom.

Topqamen shoyad ushbu savdoda,
Gavharimdin nishona daryoda.

Topsamu topmasam sening sori
Aylagumdur tavajjuh izhori

Ki, nechukkim kerak qilib ko'shish,
Haq taolodin istabon baxshish.

Ul haromig'a tig'i kin sursak,
Keragidek jazog'a tegursak.

Emdi mav'id falon kun o'ldi yaqin,
Azm uchun soat ayladuk ta'yin.

Sen dog'i ushbu so'zni aylab jazm,
Kerak etsang bu va'da birlan azm».

Emdikim yozdi nomag'a unvon,
Nomaning homilini qildi ravon.

Chunki qosid bitikni yetkurdi,
Shoh Navdar qo'lig'a topshurdi.

Navdar ochtiyu soldi borig'a ko'z,
O'qudi anda har ne bor edi so'z.

Bo'ldi miod vaqtidin ogoh,
Ham o'shul vaqt birla yig'di sipoh.

Ul sari azm qilg'ali Nu'mon,
Ham muayyan bor erdi vaqtu zamon.

Bo'ldilar ikki shoh musta'jil,
Biri daryo bila, biri sohil.

Necha kun aylabon masofat qat',
Sohilu bahr ichinda ofat qat'.

Bo'ldi paydo aduv bo'lur besha
Tushti ikki tarafqa andesha.

Qoldi Navdarg'a chunki bir manzil,
Besha ichra murur edi mushkil.

Vahm oldi qarorini shahdin
Ki, aduv chiqmag'ay kamingahdin.

Kesturub beshani ochilg'ali yo'l,
Cherigin eltur erdi ilgari ul.

Go'yiyo saydlardin ul jangal,
Voqe' erdi to'la bo'g'uvu maral.

Shahg'a ko'p erdi ov ishida vuquf,
Balki bor erdi asru ko'p mash'uf.

Har tarafdin dorir edi sayde,
Shahg'a erdi sipoh ishi qaydi.

Sayd yetgach ko'zini asrar edi,
Ko'rmayin deb o'zini asrar edi.

Nogahon bir shikoriyi gulrang
O'tgali qildi ollidin ohang.

Keynicha ixtiyorsiz chopti,
O'q otarg'a qarorsiz chopti.

Sayd jangal ichini qildi talosh,
Yo'li ham tor ediyu ham chirmosh.

G'ayr oning so'ngicha chopmas edi,
O'q otarg'a majol topmas edi.

Iztirob aylabon ota tushti,
Bir-iki o'q, vale xato tushti.

O'zga xud bo'ldi ul sifat bexud
Kim, dimog'idin uchti xushu xirad.

Sayd qasdig'a uyla qo'ydi ko'ngul
Ki, aduv chiqti yodidin bilkul.

Sayd bila beshag'a kirib ketti
Ki, aduv qavmu xaylig'a yetti.

Qo'yub erdi kaminda Jobir nev,
Kinavarlar masof vaqtida dev

Kim, kishi tutsalar keturgaylar,
Xizmatig'a aning yeturgaylar.

Ko'rdilar solur erdi bir bug'u xez,
Yetti oni qovub bir otlig' tez.

Poshna raxshlarg'a urdilar,
Hay deguncha ani tushurdilar.

Chopibon saydg'a solay dedi qayd,
O'zga sayyodlarg'a bo'ldi sayd.

Shah tilar bo'lsa shohliq qilmoq,
Sipahidin kerakmas ayrilmoq.

Shahni derlar sipoh birlan shoh,
Shoh emasdur yo'q ersa ansa sipoh.

Shahg'a xayl o'lsa fath aning ishidur,
Bir kishi Rustam o'lsa, bir kishidur.

Shahlig' oyinin aylabon zanbo'r,
Aylamas besipah sukunu murur.

Uchsa yolg'uz ko'rarga oqu qaro,
Ne tafovut ulu yana bir aro.

Borsa shatranj shohining sipahi,
Ko'rki, bormu hisob ichinda shahi.

Chunki Navdar adug'a bo'ldi asir,
So'ydilar har ne kiyganin bir-bir.

Holig'a chun nazora qildilar,
Navdar erkonin jazm bildilar.

Biri ul xayldin chopib filhol
Berdi Jobirg'a mujdai iqbol

Kim: «Bu yanglig' ish oshkor o'ldi,
Bo'yla sayde sanga shikor o'ldi».

Ul eshitgach bu nav' afsona,
Tengriga sajda qildi shukrona.

Dedi: «Mavquf bo'lmayin nimaga,
Ko'zini bog'labon soling kemaga.

Eltibon qasr aro qiling mahbus,
Eshigin ustidin eting madrus.

Andog' aylang bu ishni pinhoni
Kim, kishi fahm qilmosun oni.

Uy eshigin falong'a topshurunguz,
Xabarin manga bot kelturunguz!»

Shahni ul qasrg'a yeturdilar,
Borcha hukmin bajo keturdilar.

Ne, ne yer erkonin bildi shah,
Ne shah erkondin o'ldi el ogah.

Bo'ldi Navdar ishiga surat bu,
Lek Nu'mong'a jilvagoh edi suv.

Qoldi chun ikki kunchilik maqsad,
Yana yel suvni qo'zg'adi behad.

Bo'ldi ko'lok osmonpaymoy,
Ko'runur erdi kemadek yangi oy.

Tushti Nu'mon ishiga asru futur,
Har zamon jonidin edi mahjur.

To safar ahli ko'pi o'ldi talaf,
Tushti har bir kema bir o'zga taraf.

Garchi Nu'mong'a ko'p yetishti nahib,
Lek to'fondin o'lmadi osib.

Kemasi lekin ul taraf ketti
Ki, burun o'g'li kemasi yetti.

Diydabonlar yana qilib ma'lum,
Yana Jobirg'a dedilar mafhum.

Yana Jobir yetib alar sori bot,
Topmay ul xaylning ko'pida hayot.

Tirigidin so'rub chu surati hol,
Zohir anglabki, ne durur ahvol.

Ilayiga solib, alarni surub,
Sharh qilg'on jazirag'a keturub,

Chiqorib shohni o'lum holi,
Kemani moldin qilib xoli.

Shoh jismig'a za'f topib yo'l,
Fahm qilmayki ne kishidur ul.

Shahni bir pardag'a nihon qildi,
O'zga zindon sori ravon qildi.

Har zamon shoh ichinda jondin vahm,
Kimsa lekin ul ishni qilmay fahm.

Yana ul elni soldi kema aro,
Bo'ldi bu nav' alarg'a nuktasaro

Ki: «Kerak bo'lsa sizga jon, ketingiz!
Qaydakim ko'nglunguz tilar yetingiz!

Bu navohida anglasam sizni,
Qo'ymog'umdur tirik biringizni!»

Kettilar boshlarin olib bu guruh,
Ko'z aro ashku jon aro anduh.

Shoh Navdar sipohi ham bori,
Bildilarkim, ne ish erur tori

Roy ko'p urdilar tuzub mahfil,
Shahsiz o'lsa sipoh, yo'q hosil.

Topmoyin g'ayri qaytmoq chora,
Buzulub yondilar hayakhora.

Jobiri rohzan bo'lub firuz,
Tunu kun bog'i ichra bazmafro'z.

Mehr yodi bila ichib sog'ar,
Sola olmay vale yuziga nazar.

Boqa olmay anga murodi bila,
Qon yutub, yo'qki boda, yodi bila.

Mehr gul yanglig' aylabon yaqo chok,
Nilufarzor aro kezib g'amnok.

Yosh to'kub bahri mavjvar yanglig',
Ko'k libos ichra nilufar yanglig'.

Yuziga bas taponcha urg'onidan,
Nilufarlar ochib gulistonidin.

Hajrdin forig' o'lmog'in istab,
Ul balodin qutulmog'in istab.

Fikrdin kecha ko'zni yopmas edi,
Chora ko'p istar erdi, topmas edi.

Bandini anglab erdi choh ichra,
G'amu anduhi umrkoh ichra,

Dedi: «Ul chahdin oni qutqorsam,
Yig'labon zor-zor yolborsam,

Ozim etsam Suhayl uchun oni
Kim, desam hojatimni pinhoni.

Ul magar holatimni anglab jazm,
Maxlasimg'a bu sori qilg'ay azm».

Yoshurun tiyra uyga ul dilxoh
Kirdi ikki kaniz anga hamroh.

Keldi chah boshi uzra g'amparvard,
Chekti un: «K-ey asiri mehnatu dard!

Men dog'i bir faqirmen sendek,
Notavonu asirmen sendek.

Maxlasing ichra sa'y etib jondin,
Seni cheksam bu tiyra zindondin.

Har ne desam qabul etarsenmu?
Qayon etsam ravon ketarsenmu?»

Choh ichinda Suhayl edi betob,
Holini za'f qilmish erdi xarob.

Bor edi oncha mehnati bir yon,
Mehri gulchehr furqati bir yon.

Bo'lg'ach ul nav' so'z xitobi aning,
Oshti ul undin iztirobi aning,

Ko'nglini sa'y birla to'xtatti,
Nozaning'a bu nav' so'z qotti:

«K-ey bashar xilqatu farishta sifot,
Bergan o'lgan tanimg'a toza hayot!

Sendin etsa bu nav' lutf zuhur,
Har nechuk ishga aylasang ma'mur,

Sa'y etay to tanimdadur jonim,
Qilayin toki bo'lg'ay imkonim».

Mehr eshitgach bu so'zni soldi tanob,
Ne tanob, ikki gisuyi purtob.

Notavon tutti rishtani mahkam,
Mehr chekti, ul ikki mahvash ham.

Tiyra uyga chiqordilar oni,
Mehr ko'p qildi lutf pinhoni.

Qildi zanjiru banddin ani fard,
Yer o'pub dedi zori g'amparvard

Ki: «Ne hukm etgung, ey malak siymo,
Shammaye andin aylagil imo».

Mehr qildi fasonasin bunyod,
Boshig'a nekim o'tti-ayladi yod.

Otovu mulku johu hashmatini,
Pardasiq'a Suhayl nisbatini.

Ko'rganin bahr mavjiddin tashvir,
Tushganin anda notavonu asir.

Bo'lg'on anda zarurdin sokin,
Qolg'onin Jobir ilgidin emin.

Za'f etib notavon aning so'zidin,
Lahza-lahza borur edi o'zidin.

Anga yetkurdi so'zni Mehri munir
Ki: «Bu yanglig'ki, men bo'lubmen asir,

Aylay olmas kishi xalosima mayl.
Ko'shishu kina birla g'ayri Suhayl.

Sanga, ey dardmandi ovora,
So'z budurkim gar aylabon chora.

Andoq etsangki, bahrdin qutulub,
Yaman ahli sori ravona bo'lub.

Jahdu sur'at aro tay aylab arz,
Holatim aylasang Suhaylg'a arz.

Lek bir nukta bordurur yoshurun
Ki, seni munda asrasoq necha kun.

Jazm qilsang bu ishni pinhoni,
Ont ichib emin aylasang oni

Ki, chu men bastai balo bo'ldum,
Jobir ilgiga muftalo bo'ldum.

Manga tushmish ko'zi yiroqdinu bas,
Yiqilib yerga yotti o'ylaki xas.

Chun ko'rar fikri qilmoq erdi ishi,
Chunki ko'rdi yiqilmoq erdi ishi.

Munda to zoyi' o'lmish avqotim,
Budur oning bila muloqotim».

Muni bilgach Suhayl zoru hazin,
Shammae topti xotiri taskin.

Sidq bildi yaqin aning so'zini,
Sa'y ila asray olmadi o'zini.

Ohidin o't dimog'ig'a tushti,
Dilbarining ayog'ig'a tushti.

Qildi faryodu bordi andin hush,
Mehrni hayrat ayladi madhush.

Chunki holin bilurga ayladi mayl,
Yaxshi tahqiq qilg'och, erdi Suhayl.

O'lgudek nola qildi ul dog'i,
Hushi borib, yiqildi ul dog'i.

Yig'labon boshlarida ikki kaniz,
Ko'tarib boshlarini mehromiz.

Kelgach o'ziga Mehri ravshanroy,
Dedikim: «Fitna bo'ldi bolqushoy».

Ayladi oni tiyra uyda nihon,
Anga tegruki tiyra bo'ldi jahon.

Za'fi ifrotidin Suhayl dog'i,
O'ziga keldi lek uyqu chog'i.

Bo'ldi bir-birga jism ila jondek,
Yo magar sarvu ishqpechondek.

Necha kun qasr aro nihon erdi.
Sarvi gulruxqa mehmon erdi.

Toki berdi taom ila sharbat,
Za'fliq zor jismig'a quvvat.

Ani ham jazm bildikim Jobir,
Mehridin hajr ila emish sobir.

Bir kun o'lg'onda Jobiri g'ofil
Bog'ni sayr etarga forig'dil,

Chiqti o'trusidin Suhayli daler,
Ul sifatkim qobon masofig'a sher,

Dedikim: «Pahlavonliq ermas ul
Kim, kishi makr birla urg'ay yo'l.

Teshib el kemasini hiyla bila,
G'arq etib suvg'a bu vasila bila.

Qolmog'on chog'da kimsaning joni,
Tutubon band aylagay oni.

Sen agar zohir etting itlikni,
Men sanga ko'rguzay yigitlikni?» –

Dediyu xasm sori qildi shitob,
Xasmni hayrat ayladi betob.

Chun talashmoqqa ayladilar mayl,
Ko'tarib yerga urdi oni Suhayl.

Bog'ladi qo'llarin shitob bila,
Muni ul bog'lag'on tanob bila.

Soldi filhol ani hamul chah aro,
Budurur tab'u fahmi ogah aro:

«Har kishikim birovga qozg'oy choh,
Tushgay ul choh aro o'zi nogoh».

Chun Suhayl o'ldi ul sifat firo'z,
Mehr aqdig'a bo'ldi bazmafro'z.

Tushti Jobir dafoyini qo'lig'a,
Balki olam xazoyini qo'lig'a.

Andag'i el bo'lub sarafkanda,
Shah topib barcha bo'ldilar banda.

Emdikim, tuzdi bazmi ayshu farah,
Qo'liga oldi shohvor qadah.

Fikr etib komgoru davlatmand,
Dedi: «Har kimki Jobir etmish band,

Men bilib borin ayladim ozod,
Kelturungkim, qilay qadah bila shod».

Ikki bandi-o'q erdi bog' ichra,
Kelgach ul majlisi farog' ichra.

Biri Navdar edi, biri Nu'mon,
Kimga bo'lg'ay bu nav' qissa gumon?

Bu mahalni ne nav' sharh etayin,
El bilur, bilmas o'lsalar netayin.

Bori ikki ato, iki farzand,
Rishtai vasl ila topib payvand.

Qo'pubon yig'lashib ko'rushtilar,
O'turub bir-birin so'rushtilar.

Bo'ldi ma'lum chun bori holat,
Shukrlar qildilar etib hayrat.

Ikki shah kirdilar Xudo yo'lig'a,
Mulklarini solib aning qo'lig'a.

Mulk eli shukr qildilar bori,
Aylabon shodmonlig' izhori.

Evrulub kom birla davri sipehr,
Vasl topti Suhayl birlan Mehr.

Mehrkim, charx xoki rohi edi,
Nilufarzor jilvagohi edi.

To'ni ul rangi ko'nglaki ul rang,
Yorining dog'i kiymaki ul rang.

Nilufar rangi keldi tab'pazir
Kim, libos etti oni Mehri munir.

Har pari chehraeki mahvash erur,
Moviy o'lsa libosi dilkash erur.

Mehrkim, gulruxi samoviydur,
Nilufarvash libosi moviydur».

Chun tugatti fasonani roviy,
Pardador ochti pardai moviy.

Shoh Bahrom abri ehsoni,
Lutf bila ko'kortti oni.

Qadrig'a bergach, oning afzoyish,
Ko'ziga uyqu soldi osoyish.

XXX

*Panjshanba kuni Bahromning sandaloso xil'at bila gulshani
sandalbo'yda orom tutub, sarvi sandalnasim bila bodai sandal-shamim
ichmak va ul sandallar laxlaxasidin dimog'i muattar bo'lub, ko'zi
uyqu mayli qilmoq*

Panjshanbaki subhi charxmahal,
Suvadi ko'k jabinig'a sandal.

Sandaloso nasimi laxlaxasoy
Ko'k dimog'ig'a bo'ldi atrfizoy.

Bu sifat atri sandalosodin,
Tun mizoji qutuldi savdodin.

Sandaliy qildi shoh borcha libos,
Sandaloso uy ichra tuzdi asos.

Sandali qo'ydi osmonsoya,
Anga sandal yig'ochidin poya.

Jilvagar bo'ldi sarvi sandalbo'.
Sandaligun libosi to'-barto'.

Hulla sandal nasimi turfa sijof,
Sarbasar davrasida sandalbof.

Bazm atrig'a zohir etti buxur,
O't uza qursi sandalu kofur.

Chun qadah doir o'ldi, qildi vido',
Kechagi maydin ulcha erdi sudo'.

Mayda soqiy magar qilib edi hal,
Dardisar daf'ig'a qizil sandal.

Chunki xurshedi sandali bog'i,
Qo'nub ochti qanot tun zog'i.

Shom ochib mushkfom chodirshab,
Qursi sandal anga yoyib kavkab.

Sandali yonidin qo'pub gulchehr,
Yuz yoshurdi nechukki sandal mehr.

Yana kom etti shohi farzona,
Uyqu mayli qilurg'a afsona.

Qildilar hozir uyla sayyohe,
Balki so'z bahri ichra mallohe

Ki, kecha o'turub fasona degay,
G'oyibidin magar nishona degay.

Nuktago' boshladi duo avval,
Berib anfosi nafhai sandal.

Dedi: «To charx bo'lg'usi doyir,
Qilgusi davra anjumi soyir,

Charxdin masnading rafi' o'lsun,
Najmdin ashhabing sari' o'lsun».

XXXI

Oltinchi iqlim yo'lidin kelturgan musofir nuktatirozlig'i

Forig' o'lg'och bu dur nisoridin,
Dedikiin: «Boxtar diyoridin

Qildilar azmi Xovar ikki kishi,
Tunu kun sayr o'lub alarning ishi.

Birisi Muqbili biyobongard,
Yana bir Mudbiri bihornavard.

Rahrav ul ikkidek bu ko'hna saro,
Qilmay ehsos barru bahr aro.

Muqbil ozodai humoyunfol,
Elga maqbul etib ani iqbol.

Mudbir andoqki borsa har sori,
O'turub yuzda gardi idbori.

Yo'lda bir vodi erdi asru maxuf,
Qilmay andin murur ahli vuquf.

Tikanu sho'ra – sabzau bog'i,
Naftu go'gird – suvu tufrog'i.

Chun buxoru ufun hujum aylab,
Iso anfosini samum aylab.

Yeli o'tkim, kishi tanig'a urub,
Chun kul aylab ham o'zi-o'q sovurub.

Anda yo'q jonvarning imkoni,
Qiribon chun o'zi chiqib joni.

Debon el «Vodiyi Hamim» otin,
Hirqati aylab oni isbotin.

Ul ikov yo'ldin o'lmayin ogoh,
Bo'yla vodida bo'ldilar hamroh.

Ko'rdilar chunki yo'l subatini,
Ul balo dashtining uqubatini

Ki, nechakim aning kanorasi yo'q,
Qat' qilmoqtin o'zga chorasi yo'q.

Har balo qo'ysa yuz tahammul etib,
Kirdilar dasht aro tavakkul etib.

Chun harorat sharora ko'rguzdi,
Mudbiri xas sharoratin tuzdi

Ki, der erdi: «Bu ne havo bo'lg'ay?
Xalq qilmoq bu ne ravo bo'lg'ay?»

Goh der erdi mastu behushvor:
«Suv yaratmoq magar erur dushvor?»

Yo'q edi mayl qilsa har so'zga,
Tengriga e'tirozdin o'zga.

Chunki ul poyadin tanazzul etib,
Ta'nu tashni'i hamrahig'a yetib

Kim: «Men notavoni xastag'a kosh,
Sen kibi bo'lmag'ay edi yo'ldosh!

Seni ko'rmak ne shum kun erdi
Ki, yomon muncha xosiyat berdi».

Muqbil erdi Xudoy ila mashg'ul,
Zikru tasbihi Tengriga maqbul.

So'zi Mudbirg'a g'ayri pand o'lmay,
Lek anga pand sudmand o'lmay.

Chekti Muqbil base azobi alim,
To anga qat' bo'ldi dashti hamim.

Chunki ul dasht nopadid o'ldi,
Bahri dardu ano padid o'ldi.

Hamrahidin batang edi Muqbil,
Xayrbodig'a tab' etib moyil.

Chun ko'p erdi azob shayni anga,
«Qola hozo firoqu bayni» anga.

Yana Mudbir tilab qilurg'a safo,
Aylabon qilg'onidin iste'fo.

Aylagon tavidin qiroq tutub,
Yer uza bosh qo'yub quloq tutub.

Bo'lubon tavba birla uzrovar
Ki, ani Muqbil aylabon bovar.

Javridin xotirini aylab sof,
Unutub har nekim, deb erdi gazof.

Suv qirog'ig'a bo'ldilar oyon,
Kema erdi tengizda bepoyon.

Har taraf sohil ichra gom urubon,
Xovar ahlini toptilar so'rubon.

Har bir o'z muzdini qilib taslim,
Kirdilar bahr ichiga qilmay biym.

Berdi malloh alarg'a bir sandal
Ki, bor erdi hamul ikovga mahaf.

Toqtilar olib ixtiyorin aning,
Bir uluq kemaga mahorin aning.

Qildilar chunki bahr azmini jazm,
Bir necha kema bir yon ayladi azm.

Xovar ahli ham o'ldilar soyir,
Kema sur'atda o'ylakim toyir.

Yana Mudbir o'zin tutub badhol,
Mayl qildi demakka harza maqol.

Yori chun mazhari saodat edi,
Ishi tasbih ila ibodat edi.

Anga ham yovadin bo'lub mone',
Bo'lmayin ul bu man' ila qone'.

Oncha kufr ayta boshladi far-far
Ki, damidin ayon bo'lub sarsar.

Tengiz uzra zuhur etib ko'lok,
Kema ahlini ayladi g'amnok.

Bo'yla so'zlar xitobi Haqqa mudom,
Buki: «Yo'q ishlaringda hech andom.

Qumu dashtingda oncha so'zu gudoz,
Bahru mavjungda bu qadar taku toz.

Anda tafritu munda bu ifrot,
El hissu aqlini qilur isqot».

Shum anfosining shaomatidin,
Bahr chayqaldi mavj ofatidin.

Tushti daryoda ul sifat oshub
Ki, su amvoji bo'ldi gardunko'b.

Soldi oning riyohi idbori,
Har kishi kemasini bir sori.

Uzdi zavraqchanning mahorini ham,
Tashladi jung raxtu borini ham.

Kemalarning ichinda oncha fariq,
Qoldi ba'ziyu, ha'zi o'ldi g'ariq.

Qolg'oni dog'i har taraf tushti,
Borchadin amn bartaraf tushti.

Ul ikov zavraqida sayru shitob,
Mudbir ahvoli zavraq ichra xarob.

Muqbil aylab duo tazarru' etib,
Tengridin yorlig' tavaqqu' etib,

Muncha ofat tengizda bir sori,
Bir sori hamdamining idbori.

Ham duosi aning qilib ta'sir,
Topti taskan tengizda ul tashvir.

Yel tinib bahr topti chun orom,
Zavraq aylar edi su uzra xirom.

Qilibon yetsa bahr uza yuz biym,
O'zni Tengri qazosig'a taslim,

Buyla holatda hoqti ozoda,
Bir savode ko'rundi daryoda.

Rangi oning sipehri xazrodek,
Xay'atu davri charxi minodek.

Esti andoq nasim ul yondin
Kim, xabar berdi nafhasi jondin.

Sandaloso shamimu rih anda,
Yelga borib dami Masih anda.

Bahr isidin dimog'i farsuda,
Bo'ldi Muqbilg'a bir dam osuda.

Sajdai shukr aylagach filhol,
Ul taraf surdi zavraqin iqbol.

Chunki iqbol zavraqin surdi,
Tong yo'q ar bir nafasda yetkurdi.

Go'yi ul bir daraxt edi oliy,
Rangu rif'atda charx timsoli.

Ul daraxt erdi go'yiyo sandal,
Bargi ko'zgulari topib sayqal.

Kimki har ko'zguni qilib manzur,
Shohidi baxt aylab anda zuhur.

Rif'ati ko'kka tegurub poya,
Bargidin bahrni yopib soya.

Soyasidin su garchi anbarfom,
Sandaloso topib isini mashom.

Oncha tuproq suv yuzini tutub
Ki, fazosida ul daraxt butub.

Tanasi ichra bir azim shikof,
Chashmaye javfi ichra behad sof.

Siymi mahluldek suyi tobi,
Jo'shida iztirobi siymohi.

G'ulg'uli bahr eli ishiga kulub,
G'ulg'ul aylab tengiz aro to'kulub.

Yetgach anda iki sitamdida,
Bir dam orom edi pisandida.

Zohir erdi yig'ochqa bir resha,
Chiqihon Muqbili xiradpesha,

Bog'labon zavraqi mahorin rust,
Mayl qildi daraxt javfig'a chust.

Ko'rdi ul chashma boshida bir tosh,
Xatlar etgan aning yuzida xarosh.

Kirdi Mudbir dog'i shitob qilib,
Suvdin ichmakka iztirob qilib.

Tosh edi zeb birla qozilg'on,
Turfa xatlar yuzida yozilg'on.

O'qudi Muqbil, oni Mudbir ham,
Bu hadis erdi ul xujasta raqam

Kim: «Bu manzilg'a ul kishiki yetar,
Bu g'aroyibnikim tafarruj etar.

Muni bildikki simiyodur bu!
His qoshida g'alatnamodur bu!

«Sandali simiyoy» munung laqabi,
El xayolotidin fuzun ajabi.

Mundakim yetsa sodiqu kozib,
Tab'i bo'lg'ay suv ichgali jozib.

Suvdin o'lg'on zamonda sog'arkash,
Aylagay man'i juu daf'i atash.

Sodiq o'lg'ay bir oyg'acha xursand,
Bo'lmayin yer-icharga hojatmand.

Lek kozibqa uch kun o'lg'ach kom,
Tilagay uch kun o'tsa, suvu taom.

Bahra bu chashma suyidin olg'on,
Tiliga nogah o'tsa bir yolg'on,

Qorni ul nav' chok bo'lg'usidur
Ki, hamul dam halok bo'lg'usidur.

Ichmagining bu nav' edi jihati,
Kirmaginingdur o'zga xosiyati:

Kirsa yolg'onchi kuygay andomi,
Pishgay ul suvda paykari xomi.

Rostgo' kirsa, bo'lmag'ay anga jo'sh,
Suyi bergay havosi chashmai no'sh.

Chunki g'usl aylamakka ko'z yumg'oy,
Qulog'u burnini tutub cho'mg'oy.

Bosh chiqorg'och ne ko'rsa ko'rgay o'zi
Ki, demak bo'lmas ul fasona so'zi.

Lek bir cho'mg'on ulcha ko'rgay hol,
Yana cho'mmoq erur bu suvg'a mahol

Kim, kirib g'o'ta istasa payvast,
Suv bo'lur past, ul o'lsa g'o'tag'a bast».

O'qug'och xatni sodiqu kozib,
Bo'ldi kozibqa ul havas jozib.

Ki, bir-ikki dam ul sudin yutqoy,
Kizb ila yova tarkini tutqoy.

Garchi mumkin yo'q erdi ul uslub,
Bo'lmoq oning mizojidin maslub.

Lek juu atash haroratidin,
Zohir o'ldi aning iboratidin.

«Buki, yolg'on demakni tark ettim,
Yo'q esa irtikobi marg ettim», —

Dedi bu so'zniyu sudin ichti,
Chashmasor hayotidin kechti.

Sodiq aylab vuzusig'a tajdid,
Qildi tajdid shukri Rabbi Majid.

So'ngra no'sh etti ul zuloli hayot,
Aga juu atashdin o'ldi najot.

Istadi Mudbir ul sug'a kirmak,
Tiya jismig'a shustu sho' bermak.

Avr o'lub suvg'a chun ilik urdi,
Qaynabon ilgini suv kuydurdi.

Lek sodiq beliga hog'lab lung,
Suv'ga kirdi nechukki bahrg'a jung.

Suv yaqosida to'lmurub yo'ldosh,
Aksi yanglig' cho'murdi ul sug'a bosh.

Bosh chiqorg'och sug'a chu boqti quyi,
Ko'rdi suv ermas erdi chashma suyi.

Havzi erdi suyi nechukki zulol,
Lab-balab havz ichinda molomol.

Yo'nulub toshi sofiyu mavzun,
Yaraqon rang, balki sandalgun.

Davrda gulshane nechukki Eram,
Ollida manzare nechukki Haram.

Chiqqoli havzdin chu qo'ydi ayoq,
Ko'rdikim necha sarvi siymin soq

Yettilar xidmat amrig'a cholok,
Ochibon qo'lda fo'talar bori pok.

Tan qurutmoqqa hulla birla harir,
Borchasi dilnavozu tab'pazir.

Xojag'a bandavor tuttilar,
Surtubon jismini quruttilar.

Kiydurub xil'at anga to'-barto',
Borcha sandal nasimu sandalbo'.

Boshig'a qo'ydilar amoma dog'i,
Anda sandal bila shamoma dog'i.

Bo'lg'och orosta tutub qo'lini,
Qasri sandalg'a boshlabon yo'lini.

Berib oning nasimi ruhig'a qut,
Xojani hayrat aylabon mabhut.

Ko'rubon solsa holig'a ko'zini,
O'zga olamda har zamon o'zini.

Kirdi chun qasr ichiga behushvor,
Hayrat ichra ne mastu ne hushyor.

Ko'rdi qasre ravoqi gardunsoy,
Umr qasri kibi nishotafzoy.

Saqfi sandal, ravoqi ham sandal,
Eshigu farshu toqi ham sandal.

Atrikim solibon xiradg'a xurush,
Gah berib hushu goh etib behush.

Qasr aro taxti sandaliyoin,
Ko'p javohir bila topib tazyin.

Taxt ustida bir ajab timsol,
Jinu ins ichra yo'q yuziga misol.

Paykari hay'at ichra ruhoniyy,
Boshidin to ayog'i nuroniyy.

Husnidin olam ahli ruhig'a qut,
Yuzy xurshedi olami malakut.

Nurdin qaddi ravzaning naxli,
Yo'q vujudida mou tin daxli.

Jismi boshtin-ayoq latofati mahz,
Bo'lub elga bu holat ofati mahz.

Davrída yuz kavokibi sahari,
Jilva aylab nechukki huru pari.

Xoja solg'och ko'z ul dilorog'a,
Hushi ul nav' bordi yag'mog'a

Kim, qurub qoni rangi sorg'ordi,
Yiqilib yerga o'zidin bordi.

Sarvi gulrux kelib boshig'a aning,
Lutf ila o'turub qoshig'a aning.

Keldi gulrux nasimidin hushi,
Bo'ldi ko'rgach yana faromushi.

Ko'nglidin mahv o'lub nishoni xirad,
Goh o'zida ediyu gah bexud.

Ko'rguzub lutf sarvi hurnajod,
Lutfig'a ayladi ani mu'tod.

Toki topti ramida ko'ngli qaror,
Ko'nglining o'tidin gum o'ldi sharor.

Yuz tamalluq bila xujasta arus,
O'zini qildi xojag'a ma'nus.

Bemuhobo yonig'a yondoshti,
Shavq o'ti xoja boshidin oshti.

Ayrilib sabr ila qaroridin,
O'yla fard o'ldi ixtiyoridin

Ki, yaqin erdi siynachok o'lg'oy,
Shavqi tug'yonidin halok o'lg'oy.

Mahvash ilgin tutib qo'pordi ani,
Olibon taxti uzra bordi ani.

Xoja yer o'ptikim: «Manga ne had,
Bo'lg'ali takyagohim ul masnad».

Mahvash ul nav' tutti oni aziz
Ki, degaysen o'zidur anga kaniz.

Andoq o'ldi ayon maoshi anga
Kim, yana qolmadi tahoshi anga.

Taxt uza tutti yer buti gulrux,
Anga yondoshti xojai farrux.

Chektilar sharbatu taom avval,
Ikkisidin yetushti kom avval.

At'ima ul sifat latifsirisht
Kim, degaysen erur naimi bihisht.

Chun g'izodin yetushti tab'ig'a kom,
Bazm aro jilva qildi bodau jom.

Qo'ydilar turfa shira sandaldin,
Borcha naqshu nigori zarhaldin.

Ustida shisha, yonlarida sabo',
Borcha anbarsirishtu sandalbo'.

Qo'pti gulchehrai diloroyi
Atri bazm ichra sandalosoysi,

Ichibon taxt sori qildi xirom,
Tutti, mahvashqa jomi sandalfom.

Mahvash olib chu bir-iki yutti,
Og'zidin oldi, xojag'a tutti.

Xoja xud andoq o'zidin bordi
Ki, olib bexudona sipqordi.

O'yla evruldi jomi no'sho-no'sh
Ki, tarabdin yetushti ko'kka xuro'sh.

Qildi may xojaning dimog'in garm,
Raf' bo'ldi hijobu pardai sharm.

Oncha mardumlig' aylar erdi pari
Kim, bo'lur erdi xoja pardadari.

Xoja zabt aylay olmayin o'zini,
Sarvi gulruxdin olmayin ko'zini,

Boshladi nukta behijobona
Kim, pari qilmish erdi devona.

So'z debon har zamon talabangez,
Harakat aylabon tama'omez.

Sho'xi ablahfireb man' etmay,
Ilg'i xoja ilgidan ketmay.

Xojaning qolmadi tahammuli hech,
Soldi shahvat hujumi jismig'a pech.

G'alayoni quvoyi jismoni,
O'yla betoqat ayladi oni

Kim, chekib hurvashni behushvor,
Dedi: «Holimni aylading dushvor,

Rahm etib dardima davoy ayla!
Vasl ila hojatim ravoy ayla!»

Lobalar birla sarvi shakkarxand,
Dedi: «Bo'l munchag'a bukun xursand

Ki, bukun oncha mayparast o'lduq
Kim, ketib hushu aql mast o'lduq.

Tongla bo'lg'on zamon bir ishga shuur,
Xusravona qilay tahiyyai sur.

Aqd etib surati saloh bila,
Haramingg'a kiray nikoh bila.

Chun muyassar bo'lur halol navo,
Bu haramda harom ko'rma ravoy.

Surubon shahvat etma behuda,
Pardai ismatimni oluda».

Xojag'a shahvat erdi mustavli,
Qilmadi sud lobagar qavli.

Yaqin erdiki yuz fig'on etgay,
Jahd qildiki komig'a yetgay.

Aylabon shahvat oni nafsoniy,
Qo'lni bir yerga sundi pinhoni

Ki, ishi uqdasidin ochib band,
Oj sandalg'a aylagay payvand.

Dedi mahvashki: «Sa'y bo'lsa necha,
Ul ish imkoni yo'qturur bu kecha.

Bera olmas esang o'zungga sukun,
Deyki, bir sarv qomati mavzun,

Tongg'a tegru bo'lub parastoring,
Aylasun o'zni hamdamu yoring.

Bu o'tungkim, ayon qilur bas kin,
Topsun oning zulolidin taskin».

Xoja fahm ayladiki, hol nedur,
Aroda posuxu savol nedur.

Mutahayyir bo'lub bu suratdin,
Yana dam urmadi zaruratdin.

Buti mahvashkim, oni topti xamo'sh,
Anga bir oyni qildi hamog'o'sh.

Ikki chovushi erdi mahsiymo,
Noz ila andoq ayladi iymo

Ki, ikov xoja sori bordilar,
Loba ko'p ko'rguzub qo'pardilar.

Xilvat ichra tuzub saru korin,
Hamdami qildilar parastorin.

To sahar xoja mastu uy xilvat,
Ne buyurg'onni bilmadi shahvat,

Charx chun tun livosin etti nigun.
Bo'ldi tun obnusi sandalgun.

Uyqudin anda ochti ko'zki sipehr
Yerga yoymish edi ashi'ai mehr.

Kirdi yodig'a ul qaziya tamom
Ki, bo'lub erdi voqe' andin shom.

Topti o'zni ajab xijolat aro,
Ko'nglin ul holdin malolat aro.

Borcha taqdir ila qo'pub nokom,
Ayladi havz jonibig'a xiom

Kim, kirib suvg'a pok g'usl etgay,
To janobat kudurati ketgay.

Bog'labon belga sandali fo'ta,
Urdu chun havz aro kirib g'o'ta.

Bosh chiqorg'och hamul bulog' erdi
Kim, yig'och javfida sug'a kirdi.

Havldin bo'ldi har sari nozir,
Bo'y boshi o'rnida edi hozir.

Yana bir necha g'o'ta ayladi fosh,
Ushbu yer erdi chun chiqordi bosh.

Charxi tannoz ta'n etib asru,
Der edi: «Ul guzarni eltti suv».

Kavkabin tiyra aylab iqholi,
Chiqti nokomdin o'lum holi.

Muztaru lol qolib o'z ishiga,
Holi andoqki bo'lmasun kishiga.

Bir taraf oncha dardi jonkahi,
Bir taraf noxujasta hamrohi.

Ul uqubat aro urar edi pech,
Holin izhor aylay olmay hech.

Yana ul tosh sori tushti ko'zi
Ki, bitilmish edi bu chashma so'zi.

Go'shasida bitilmish erdi bu so'z
Ki, hurun solmamish edi anga ko'z

Ki: «Biravkim bu simiyo ko'rdi,
Kiribon suvg'a yuz balo ko'rdi.

Chiqqoch-o'q tutmamoq kerak orom,
Aylamaklik kerak suv uzra xiom.

Bo'lsa laxte azimatida darang,
Dev ani o'lturur, yo'q ersa nahang».

Dedi: «Turg'um kechib najotimdin,
O'lganim yaxshi bu hayotimdin».

Chunki fikr etti jon aziz erdi,
Ul maqom asru fitnaxez erdi.

Bizzarurat azimat ayladi jazm,
Yeshibon zavraqini qilg'ali azm.

Ko'rubon Mudbir anda ko'p tag'yir,
Holin anglarg'a qildi ko'p tadbir.

Qilmadi oshkor mutlaq anga,
Bo'ldi oromgoh zavraq anga.

Bo'ldi Mudbir dog'i yana yo'ldosh,
Bo'yla yo'ldosh yo'lda bo'lmasa kosh.

Surdilar suv yuziga zavraqni,
O'zlariga panoh etib Haqni.

Muqbili notavon xarob erdi,
Hajr o'tidin ichinda tob erdi.

Shaynu oshubi erdi hamvora,
Mudbir aylab ishiga nazzora,

So'rsa erdi, javob bermas edi
Kim, g'ami sharh etardek ermas edi.

Der edi: «Ey rafiqi zehoxo'y,
Bo'lma mendin bu so'zga posux jo'y!

Buki, holimni sharh qilmasmen,
Ayb emas, chun o'zumni bilmasmen.

Sanga holimdin gar malolat erur,
Sen muhiqsen, manga xijolat erur.

Qilsa bexudlug'um seni ranjur,
Ne deyin, chunki horsen ma'zur.

Nafasingni manga diloso qil,
Lutf'ila necha kun muvoso qil.

Baxtdin kom agar bo'lub hosil,
Bo'lsa bir kun maqomimiz sohil,

Hajrima xotiringni shod aylay,
O'pub ilgingni xayrbod aylay», –

Deb bu so'z olig'a qo'yub boshin,
Ko'zidin yummayin to'kub yoshin,

Zavraq ichra xurush solur edi,
O'ti daryog'a jo'sh solur edi.

Mudbir ahvalidin bu nav' ogah
Kim, anga qo'ydi yuz junun nogah.

Chashma uzra bo'lur chu devu pari,
Urunub bo'ldi bu sifat asari.

Ko'runub bu anga g'arib nima
Ki, ayon bo'ldi bir azim kema.

Chun yel o'z e'tidolidin oshti,
Zavraq ul kema birla yondoshti.

Kemaga qo'ydilar ikovla qadam,
Bo'lg'ali mavj xavfidin beg'am.

Kema ahli tamom o'lub edilar,
Jon g'amidin xalos o'lub edilar.

Kema ichra yo'q erdi g'ayri o'luk,
Anda sandal yig'ochidin to'la yuk.

Mundoq ermishki xusravi Xovar
Ki, emish ul taraf jahondovar.

Bir qizi bor emish pari yanglig',
Ne pari, mehri xovari yanglig'.

Shoh umrig'a zeh ila zayn ul,
Shohg'a balki qurratul-ayn ul.

Voqe' ermish sudo' doim anga,
Ko'runub umr nomuloyim anga.

Hukamo aylabon ilojin ko'p,
Kelmay oning mizojig'a biri xo'b.

G'ayri sandal isiki nofi' o'lub,
Boshining og'rig'ig'a dofi' o'lub.

Bu jihatdin shahi sipehrmahal,
Qasri oliy bino qilib sandal.

Borcha azjosi sandalipayvand,
Rifat ichra nechukki charxi baland.

To tutub mahvash ul uy ichra maqom,
Yetgay andin sudoig'a orom.

Olam ichra tushub hu ovoza,
Ruhi tujjorning bo'lub toza,

Anda sandal sotorg'a jozim o'lub,
Hind mulkiga borcha ozim o'lub,

Toshibon oncha sandali xushbo'
Ki, butub ul imorati diljo'.

Go'yiyo ul guruhdin nechasi,
Bo'lg'on ish sa'yi kunduzu kechasi

Bu kema ichra topibon orom,
Yuklabon sandal aylamakda xirom,

Kema girdob aro bo'lub doir,
Yillar ul davrada emish soyir.

Tuganib chun alar zaxirasi pok,
Bo'lubon kema ahli borcha halok.

Bu mahal yel esib tengiz uza tez,
Zohir aylab tengizda rustoxez.

Bahrni chunki yel qilib raqqos,
Charx urardin bo'lub safina xalos.

Kirgach ul kemaga iki hamroh,
Bor edi Muqbil ishi nolayu oh.

Tutubon kunje o'z fig'oni bila,
Qolibon bahr ichinda joni bila.

Mudbir ul o'lgan elni sug'a solib,
Kemau moli ixtiyorin olib.

Kema amvolini qilib o'zining,
Kemani balki ham bilib o'zining.

Ul bu amvol zabtig'a mash'uf,
Yorig'a yo'q aning ishida vuquf

Kim, ko'rundi yiroqtin sohil,
Kema sohilg'a yetti musta'jil.

Bu tarafkim kema shinovar edi,
Go'yyokim diyori Xovar edi.

Shah bukun mayl etib tamoshog'a,
Aylar erdi nazora daryog'a.

Ko'rgach ul kemani dedi: «Yurunguz,
Elidin bir kishini kelturunguz!

Kema kayfiyatini fahm etayin,
Fahm etib, yonib uy sori ketayin».

Ko'rdilar ikki kimsa erdi qarın,
Bu biri shodu ul biri g'amgin.

Shah so'zi ul ikovga chun yetti,
Mudbir ul yon ravon xirom etti.

Yer o'pub aylagach duo filhol,
Shoh aning holatini qildi savol,

Dedi: «Tojirmenu tijorat ishim,
Qolmadi bu safarda hech kishim.

Bo'lubon suv ufunati maqrun,
O'ldilar borchasi bo'lub toun.

Emdikim bo'ldi manzirim sohil,
Men menu bir qulum oti Muqbil».

Ul bu yanglig' surub fusun bila dam
Kim, bo'la boshladi tanig'a varam.

Varamidin libosi chok o'ldi,
Ko'ksi ham chok o'lub halok o'ldi.

Shohni hayrat ayladi ojiz,
Bo'yla ish ko'rmagan uchun hargiz.

Muqbili notavonni qildi talab,
Ko'rgach-o'q ko'ngliga yuz urdi tarab.

Ollidin hamrahini yoshurdi,
So'rdi ul so'zki, yoridin so'rdi.

Muqbil andoqki bor edi bir-bir,
Qildi ondoqki bor edi taqdir.

Shah dedi, kemau nekim ahmol,
Borchasi bo'ldi jam'i baytulmol.

Har ne Muqbilg'akim bayon bo'ldi,
Chinlig'i shohg'a ayon bo'ldi,

Dedi: «Ahsanta, muxbiri sodiq,
Sidq aro kimgakim desak foyiq.

Tuzlugung ko'nglumizni sayd etti,
Jonimizni asiri qayd etti.

Ista, bizdin nekim sanga dilxoh»,
Muqbil aylab duo dedi: «K-ey shoh,

Shohning umru johin istarmen,
Charx avjida komin istarmen.

Yana matlub Haq ibodatidur
Kim, ulus mujibi saodatidur.

Shoh agar qilsa bandasin ozod,
Tunu kun aylagum duo bila yod».

Chunki Muqbil so'zi edi dilkash,
Husn xulqiyu husni xulqi xush.

Shah ko'rub ul sifat hamida xisol
Ki, bashar xaylidin erur bu mahol.

Muqbili xush bayonu zebo chehr,
O'yla garm etti shoh ko'nglida mehr

Ki, anga xizmatin ruju' etti,
Shah deganda bu ham shuru' etti.

Qildi qullug'ni o'yla tab'pazir
Ki, shah etti ani qoshida vazir.

So'ngra xidmatdin o'tti poya anga
Soldi davlat humoyi soya anga.

Shah bo'lub vuslat amrig'a mashg'ul,
Oni farzandliqqa qildi qabul.

Garchi ul qildi uzrlar angez
Ki, o'ti o'zga barqdin edi tez

Kim, anga qilmish erdi g'orati hush,
Buti sandal nasimi sandalpo'sh.

Boqmayin shoh e'tirozig'a ham,
Qo'ymay oni o'z ixtiyorig'a ham.

Xarj etib maxzan oshkoru nuhuft,
Qurratul-aynin ayladi anga juft.

Kiydurub hulla borcha sandalbo'y
Kim, parivash bu ishga qilmish xo'y.

Qasri sandalg'a chektilar oni,
Topshururg'a guli sumansoni.

Chunki boqti hamul g'aroyib edi
Ki, anga mujibi masoyib edi.

Qasr ul, saqfu ostona ham ul,
Taxt ul, ofati zamona ham ul.

Hayrat o'ti solib dimog'iga dud,
Aylab ul o't vujudini nobud.

Ohu afg'on chekib yiqildi yana,
Joni chiqmoqqa mayl qildi yana.

O'ziga gar kelur edi gohi,
Yana borur edi chekib ohi.

Atri sandal topib dimog'i aning,
Yorubon gar ko'zi charog'i aning.

Ko'zin ochqoch yana ko'rub ahvol,
Nola aylab bo'lur edi behol.

Ko'rubon bo'yla ishqililkash anga,
Mehribon bo'lmish erdi mahvash anga.

Toki tadrij ila topib orom,
Topti mahvash visoli birlan kom.

Lek hayratdin erdi doim lol,
So'rdi bir kun buti humoyun fol:

«Kim sanga hayrati erur g'olib?
Bormen oning vuqufig'a tolib».

Chun anga nukta yo'q edi juz rost,
Ko'rganin sharh qildi bekamu kost.

Shajaru chashma mojarosini ham,
Sandalu qasri simiyosini ham.

Mutabassim bo'lub buti mahvash,
Anga afsona boshladi dilakash

Kim: «Meni xo'bliq aro taqdir,
Chun jamol ichra qildi olamgir,

Tushti husnum so'zi jahon ichra,
Ne jahon, balki insu jon ichra.

Manzarimdin o'tarda nogohe,
Husnuna vola o'ldi jin shohi.

Qasr uza tushti jin alolosi,
Meni devona qildi savdosi.

Shahg'a chun qildim oni jilvanamo,
Boshim ustiga kelturub hukamo.

Yana romiyu sohiri hunari,
Daf' etardek ziyoni devu pari.

Qildilar ittifoq ila chora
Kim, alar daf' bo'ldi yakbora.

Lek gohe qanot sadosi kelur,
Qulog'img'a pari nidosi kelur.

Bo'yla derlarki jin shahi yona,
Chunki bo'lmish g'aminda devona.

Bahr uza simiyoye etmishlar,
Manzari dilkushoye etmishlar.

Sandaliy qasru davrida bog'e,
Sandaliy taxt uza meni dog'i,

Sen nechukkim ko'rub ayon etting,
Manga ko'rgan kibi bayon etting.

Naqsh qilg'on emishlar anda tamom,
Ko'rubon xasta topqali orom.

Sen hamonoki anda yetmishsen,
O'zni naqshimg'a vola etmishsen.

Anda vola eding misolimg'a,
Munda yetkurdi Haq visolimg'a.»

Raf' o'lub Muqbil ollidin mushkil,
Bo'ldi gulrux xayolidin xushdil.

Qasri sandalda komron bo'ldi,
To'ni ham sandaliynishon bo'ldi.

Sandal osoyishi ravon angla,
Atri oning hayoti jon angla.

Sandal isinda tek turub bo'lmas,
Mushkni kimsa yoshurub bo'lmas».

Chun bu afsona surdi nuktasaro,
Uyudi shah nasimi sandal aro.

XXXII

*Odina kuni Bahromning kofuriy asvob bila qasri kofurgun ichinda
mushkin zulfi kofuriy libos bila taxti oj uzra jomi buluridin bodai
kofurmizoj oshom qilg'oni va ul kofurkorliqdin hijroni harorati taskin
topib, o'z g'azoli mushkbo'sidin xabar topqoni*

Chunki odina bu rafe' ravoq,
Qildi toqin sahar gachidin oq,

Solib erdi musha'bidi gardun,
Najm donalaridin og'zig'a un.

Subhdin lek o'yla jushkurdi
Kim, damidin ul o'tni sovurdi.

Subh savbini gozuri aflok,
Mehr sobuni surtubon yudi pok.

Shoh aylab libosin oqu harir,
Jilva qildi nechukki mehri munir.

Qildi, olamni yorutub nuri,
Azmi gunbazi saroyi kofuri.

Hulla birla haririni buti Chin,
Berib erdi bu rang ila oyin.

Taxti oj uzra shah chu tutti maqom,
Sho'x ham topti yonida orom.

Yana ishrat uchun tuzuldi asos,
Majlis ahlig'a oq borcha libos.

Yana bir gulruxi parizoda
Tutti chini qadah bila boda.

Chini erdi valek fag'furi,
Chin bukim, rangi erdi kofuri.

Shoh oqshomg'a tegru boda ichib,
Lek har kungidin ziyoda ichib,

Mehr chun dahrdin yoshurdi nur,
Sochti oy charx tomidin kofur.

Yana uyqu nishoti istadi shoh,
Soldilar oq uy ichra masnadgoh.

Hozir erdi musofiri purdon,
Nuktadin ko'ngli huqqai durdon.

Qildi bog'ishda o'tturub bunyod,
Shah duosinki: «Charxi ko'hnanihod.

Bu oq uyungga borgoh o'lsun,
Borgohing jahonpanoh o'lsun!»

XXXIII

Yettinchi iqlim yo'lidin kelturgan musofirning fasonasigollig'i

Chun duo qildi dedi farzona
Ki: «Dey o'z ko'rganimdin afsona:

Menki, tushmish buyon guzor manga,
Mulki Xorazm erur diyor manga.

San'atim anda soz cholmoq ishi,
Bilmayin men kibi ishimni kishi.

Ilmi advoru fanni musiqi,
Mendin ul ilm ahli tahqiqi.

Elga ta'lim etmoq virdim,
Kimki ustodi qavm shogirdim.

Nogahon tushti mundoq ovoza,
El aro bo'ldi bu xabar toza

Kim, kelur tojiri xitoyizod,
Bilasi bir kanizi hurnajod.

Xojaning moli bahru kondin ko'p,
Har nekim el gumoni ondin ko'p.

Lek tojirg'a onchakim amvol,
Mohvashg'a yuz oncha husnu jamol.

Bovujudi jamoli fitnafikan,
Bor emish xush navou barbatzan.

Bu xabar elni beqaror etti,
Necha kun o'tti, xoja ham yetti.

Qildi Xorazm ahli istiqbol,
Fahm qilmoqqakim nedur ahvol.

Xoja xud bor edi degancha g'ani,
Zuhdu taqvo aning shioru fani.

Yuzi sajjoda uzra matlai nur,
Mushkining charx aylabon kofur.

Parda ichra mahi falakpayvand,
Asli nisbatda xojag'a farzand.

Xojai bahrkaf bila guhari,
Ul sifatkim. farishta hirla pari.

Lek mahvash yuzi niqob ichra,
Mehrdekkim bo'lur sahob ichra.

Ul niqobi – niqobi kofuriy,
Mehr uzra sahobi kofuriy.

Yo'q niqobiki, har ne kiygani oq,
Ne kiyar bo'lsa istabon ani oq.

Har kuni ikki qatla – subh ila shom:
Tuzubon nag'ma sarvi siymandom

Parda ichra qilib navozish chang,
Unun ul chang ila qilib ohang.

Tuzuh ul nav' rud birla surud
Ki, olib jonlar ul surud ila rud.

Pardadin toshqori ulusqa hujum,
Pardagi holi lek noma'lum.

Pardada hol oshkoro yo'q,
Kishi ko'rmak tilarga yoro yo'q.

Subh ila shomkim tarona tuzub,
Xalq faryodi bexudona tuzub.

Elni alhoni notavon aylab,
Notavonlarg'a qasdi jon aylab.

O'yla kun o'tmayinki bir g'amnok,
O'lmag'ay ohu nola birla halok.

O'lubon xalq ul navog'a kuchun,
Jon herib balki andoq o'lmak uchun.

Mulk shohig'a tegurub noma
Ki, falak bo'yla tuzdi hangoma.

Aylay olmay ani tilarga xitob
Kim, erur xoja ham rafi'janob.

Beribon o'z libosig'a tag'yir,
Shohni ishq etib faqiru haqir.

Soyiri xalq ichinda pinhoni,
Shahni ham vola aylab alhoni.

Solibon parda ichra mahramlar,
Zuafodin sanamg'a hamdamlar.

Husnin anglab navosidin afzun,
Bo'ldi bu qissa benihoyat uzun.

Qilib ul parda ichra kom tama'.
Vaslin istab shah o'ldi xomtama'.

Aylab ul nav' bul'ajab havase,
Soldi dallolalar arog'a base.

Istabon mohvash bila payvand,
Aylamak xojag'a o'zin farzand.

Hosil o'lmay bu maqsadi noyob,
Xojadin shahg'a bo'yla keldi javob

Kim: «Bu so'zlarki, shohi bandanavoz,
Qildi bu qulg'a mujibi e'zoz.

Tiyra tufrog'ni ko'kka tegurdi,
Zarra qadrin quyoshdin oshurdi.

Manga ne hadki shohi davlatmand,
Poyim etgay bu yerga tegru baland.

Lek mundin ham ortuq aylasa jud,
Manga tole' agar yo'q ersa, ne sud?

Hosilan bu sanamki mahvashdur,
Juft amridin asru sarkashdur.

Haqqi qildi yagonai ofoq,
Juftdin dog'i oni ayladi toq».

Dedi ulkim: «Aning shiori bor,
Shoh hokimdur, ixtiyori bor».

Shah muni tutmayin musallam hech,
So'zda ko'p tushdi tob birlan pech.

So'z ko'p ummidu biym birla dedi,
Posuxi xojaning hamul so'z edi.

Ko'rdikim, aylar oni ishq halok,
O'zi mag'lubu ishq edi bebok.

Shahvat oni chu beqaror etti,
G'azabu zulm oshkor etti.

Hukm qildiki, hordilar xayli,
Shahg'a andoqki bor edi mayli.

Yuklabon hurning amorsin,
Xojaning lu'batl hisorisin.

Eltibon shohi tiyra roy sari,
Moyil aylab haramsaroy sari.

Qasr ichinda tushurdilar filhol,
Shahni mag'lub etib xayoli mahol.

Azm qildi sanam sori xushdil,
Chun bu holatni bildi mohi chigil:

Changini qo'lg'a olib ayladi soz,
Chang ila nag'ma ayladi og'oz.

Nag'ma ul nav' oshkor etti
Kim, eshitgach shah o'zidin ketti.

Yetsa har kimsaning qulog'ig'a bu,
Yiqilib eltibon ani uyqu.

Chun ulus borcha masti xob bo'lub,
Sho'xqa uy sori shitob bo'lub.

Shoh chun uyg'onib sipoh bila,
Hayrat aylab sipahni shoh bila.

Ko'zlaridin yubon chu uyquni,
Kelturuh yona sho'xi joduni.

Yana ul nav' nag'masoz aylab,
Uyqu ko'zlarga turktoz aylab.

Yana aylab sanam uyiga xirom,
Tutubon pardasi aro orom.

Necha qatla shah etti uyla jadal,
Anga mahvash keturdi bo'yla badal.

Oqibat iffati muassir o'lub,
Shah ishidin ramida xotir o'lub.

Xoja o'llig'a keldi lutfomez,
Boshlabon yuz hadisi uzrangez.

Bazm tartib etib ayoq tutti,
Ota aytib ani quloq tutti.

Oyg'a ham infiol etib izhor,
Qilg'onidin malol etib izhor.

Parda toshida uzrxoh bo'lub,
Uzr ayturda xoki roh bo'lub.

Tutubon chun bu mehr aylab fosh,
Ikki dunyoda oni qiz qardosh.

Ota muni, singil debon oni,
Aylab ulcha rioyat imkoni.

Sho'x chun shohdin bo'lub emin,
Bo'lubon ul diyor aro sokin.

Xoja bog'e yasab bihishtoso,
Anda bir qasri toqi gardunso.

Yana ul kavkabi saodat uchun,
Yasamish xujraye ibodat uchun.

Moh kofurgun qabopayvast,
Bo'lub ul hujrada Xudoyparast.

Bori kiygan hariri subhnishon,
Ko'zi tong otqucha sitorafishon.

Tengriga tunu kun munojoti,
Birov ummidi birla avqoti.

Lek oni kimsaga ayon qilmay,
Chun ayon qilmay ul, kishi bilmay.

Subh bo'lg'och yana surud chekib,
Nag'ma birla navoyi rud chekib.

Ham aning rudi ishtiyoqangez,
Ham surudi kelib firoqomez.

Bir nafas chunki elni zor qilib,
Savti tosh ko'ngli ichra kor qilib.

Yana toatqa yuz qo'yub to shom,
Shom aylab hamul ishiga qiyom.

Parda toshida elga nolau oh,
Shah dag'i anda yer tutub gah-goh.

Ul g'aroyibni istimo' aylab,
Hush aning ko'nglidin vido' aylab.

Yasabon xoja xoni mehmoni,
Ulcha bo'lg'oy takalluf imkoni.

Ko'rguzub yuz tuman latofat ila,
Uzatib shohni ziyofat ila.

Xojaning sudu moyasig'a gazand
Tegurub, ikki bul'ajab farzand.

Menki ul shahr nag'masozi edim,
Bazmlar dostonnavozi edim.

Ham kunum lahni rud birla o'tub,
Ham maoshim surud birla o'tub.

Chunki ul zohir etti rudu surud,
Ofiyat mendin ayladi padrud.

Topmadim eldin iltifot o'zga,
Talx bo'ldi manga hayot o'zga.

Chun ishim muxtal o'ldi yakbora,
Ayladim o'z ishimga bir chora:

Ayladim rag'bat ul qadar kofur
Kim, haroratdin aylagay mahjur.

Rajuliyat chu salb bo'ldi tamom,
Xoja dargohi sori urdum gom.

Xoja mahvash harimida edi shod
Kim, yiroqroqtin ayladim faryod.

Istadi xojai farishtaxisol,
Parda ichra nigori hur misol.

So'rdilarkim: «Nedur bu faryoding,
Kim senu kimdin o'ldi bu doding?»

Ayttim: «Zulm sizdin o'ldi manga,
Sen otou bu qizdin o'ldi manga».

Dedilar: «Tuhmat etma, ey mazlum
Ki, emas bizga zulm da'bu rusum!

Tonimoqta magar yangilmishsen,
O'zga el bizni fahm qilmishsen».

Dedim: «Andoq emas, so'rung bir-bir,
To qilay har ne qildingiz, taqrir.

Qilingiz chora bersangiz insof,
Yo'qsa torting so'zumga hukmi gazof».

Dedilar: «Ayt». – Ayladim og'oz,
So'zni avval duodin ettim soz.

So'ngra holim dedim shitob etmay,
So'z adosida iztirob etmay.

Kulubon tuttilar musallam ani,
Xoja ham, sarvi lolarux ham ani.

Toki bu yerga yetti so'z oxir
Ki, murodimni ayladim zohir

Ki: «Tilarmenki ulcha bo'lsa hayot,
Ushbu dargahda surgamen avqot

Ki, ishim g'ayri lahnu rud ermas,
O'zga ish shug'li dast ham bermas.

Quvvat bersa farishta ehsoni,
Quti ruh o'lsa hur ilhoni.

Bo'yla ta'limkim erur havasim,
Mingidin birga bo'lsa dastrasim.

Umrum ar Nuhdin kam ermasdur,
Hosili umr ul manga basdur.

Meniki bu nav' ko'rdungiz ojiz,
Yo'q bu fan ichra men kibi hargiz.

Bu mamolikda kimga bu ish vird,
Borcha bordur manga kamin shogird.

Bor ekandur mening qoshimda zabun,
Arzi musiqiy etsa Aflotun.

Lek bu ishki, emdi bo'ldi ayon,
Sabtidin ojiz angla kilki bayon

Kim, ko'ruhtur chu nag'maye tuzmak,
Gah qilib qatl, goh tirguzmak.

Lahnkim topti moyai e'joz,
Andin o'ldi mening ishim nosoz».

Ko'rdilar chun bu ajzu xorlig'im,
Asar etti alarg'a zorlig'im.

Lutf ila dilnavozlig' aylab,
Holima chorasozlig' aylab,

Dedi xojaki: «Yorimiz bo'lsang,
Soz ila g'amgusorimiz bo'lsang.

Xud maishat sanga erur hosil,
Lek bir muddao erur mushkil.

Sarvi gulruxg'a xidmat etmak ham
Ki, yaqin kelmas anda nomahram».

Dedim: «O'zumni mahram aylabmen,
Sizni ul ishda beg'am aylabmen.

Hunar ummididin bo'lub ma'yub,
Rajuliyatni qilmisham maslub.

Oncha kofur ittifoq ettim
Ki, havo maylini yiroq ettim.

Chun erur ushbu parda kofuri,
Ham bu rang ichra parda masturi.

Manga ham o'zni qilg'ali hamrang,
Bo'ldi kofur jonibi ohang.

Bo'lmasam ushbu pardadin mahjur,
Bir kamin bandamen, otim Kofur».

So'z dedim chun bu nav' ado birlan,
Xojau sarvi mahliqo birlan.

Hayrat aylab, chu qildilar taftish,
Angladilarki, voqe' erdi ul ish.

Ittifot ettilar nihoyatsiz,
Ko'rguzub xulqu lutfi g'oyatsiz.

Bo'lubon lahzaye ishimda malul,
Xidmatim ikkisiga tushti qabul.

Xidmat amrida ul sifat bo'ldum
Ki, ikkisiga multafat bo'ldum.

Pardada goh xojag'a damsoz,
Parda keynida oyg'a ham hamroz.

Chun bor erdi munosabat mavjud,
Asru ko'p iltifot tutti vujud.

Mohrux chun tuzar eti nag'amot,
Meni bir hayrat aylar erdi mot:

Neki abyoti jonfizosi edi,
Borchasi dardu hajr adosi edi.

Nag'mag'a kirsar har tarona anga,
Nolalar erdi oshiqona anga.

Angladim xilvat ichra ham oni
Ki, base yig'lar erdi pinhoni.

Asru ko'p muztar aylasa edi g'am,
Parda keynida men edim mahram.

Har nechuk so'zki, qilsa erdi xayol,
Mendin ul so'zni aylar erdi savol.

Bilganimcha javobin aytur edim,
Bori so'zning savobin aytur edim.

Tunlar uyqudin o'lsa begona,
Manga der erdi: «Ayt afsona».

Qaydakim bo'lsa erdi sharhi firoq,
Yig'lar erdi yagonai ofoq.

Buyla ahvolidin taaqqul ila,
Jazm bo'ldi manga taammul ila

Ki, parivashki zoru mahzundur,
Go'iyokim birovga majnundur.

Hajr xori ichin chu kovish etar,
Savt ila toshqori tarovish etar.

Chekmasa nag'ma tunu kun oni
Kuydurur ul sharora pinhoni.

Holi chun mundoq erkanin bildim,
Andin anglarni orzu qildim.

Aytur erdim hadis har soridin,
So'z o'tar erdi xayru shar soridin.

Toki toptim o'zumga behad rom,
Tavsani tab'ida base orom.

Buyla holatda dedim: «Ey mahvash,
Tengri tutsun hamesha ko'nglung xush!

Xotiring qayg'udin yiroq bo'lsun,
Aysh har lahza yaxshiroq bo'lsun!

Mushkiledur manga qilaymu savol».
– «Qill!» – degach, so'zni boshladim filhol

Kim: «Necha vaqt erurki bandangmen,
Mehrdek xoki rahfigandangmen.

Kuzaturmen hamesha holing ne?
Aysh yoxud g'amu maloling ne?

Har tarafkim yetibdurur ko'nglum,
O'yla ma'lum etibdurur ko'nglum

Kim, sening bir g'ami nihoning bor,
Xalasin xaroshi joning bor.

Anga bois birov muhabbatidur,
Balki anduhu dog'i furqatidur

Ki, chu andin yetar alam chekmak,
Da'b etarsen surudi g'am chekmak.

O'zni mashg'ul etib tarona bila,
Nola aylarsen ul bahona bila.

Chun ko'ngul sharhi holi aylarsen,
Xasta ko'nglungni xoli aylarsen.

Manga bu g'amni oshkor etsang,
Meni bu sirda rozdor etsang.

Toki bo'lg'ay hayotim imkoni,
Kimsa mendin eshitmagay oni.

Lek mumkindurur davo qilurum,
Sa'y etib hojating ravo qilurum».

Chun eshitti so'zum buti gulrux,
Fikr etib bo'yla aytti posux

Ki: «Bu so'z kim deding yiroq ermas,
Rostdin nukta yaxshiroq ermas.

Yaxshi bo'lmish ishim sanga ma'lum,
Lek sharhin sen aylamak mafhum —

Xirad ollinda nomuvofiq erur,
So'rmamoq sendin oni loyiq erur.

Sanga yo'q sud anglamoq oni,
Manga yuz ming baliyat imkoni.

Ishki tahqiqi bejihat bo'lg'ay,
So'rmoq oni ne maslahat bo'lg'ay?

Munda gar istasang o'zungga nuzul,
Ikki ishdin birini ayla qabul:

Yo bu taftish tarkini etgil,
Yoki bilgach hoshing olib ketgil.

O'ylakim bo'lmag'il bu vodida,
Balki bu mamlakat savodida».

Garchi ul nuktadin yetishti haros,
Lek jon qasdi ayladi vasvos.

Bir necha kun kezar edim g'amgin,
Topa olmadi xotirim taskin.

Ham zamirimni g'amkash etti bu fikr,
Ham dimog'im mushavvash etti bu fikr.

Chunki sabru qarorsiz bo'ldum,
Oqibat ixtiyorsiz bo'ldum.

Yana xilvat topib duo qildim,
Sudi yo'q mojaro ado qildim

Ki: «Xayolimda fikr o'lub pesha,
Meni savdoyi etti andesha.

Chun hadisingni istimo' etayin,
Boshim olib qayon desang ketayin!»

Dedi mahvash: «G'arib erur bu so'zung
Ki, tilarsen halo o'zungga o'zung.

Shahrda turmasingg'a paymon qil,
Boshing olib ketarga aymon qil».

Xotirig'a ne tavrkim yetti,
Ahd qildim nechukki amr etti.

Ko'nglida vahm qolmagach yona,
Mahvash og'oz qildi afsona

Ki: «Meni chun g'amin xayol etting,
Ul g'amimg'a jihat savol etting.

So'zni avvaldin etmasam marqum,
Yaxshi bo'lmas g'amim sanga ma'lum.

Bilki, Chin mulkidur diyor manga,
O'tubon anda ro'zgor manga.

Ikki xon kinu razmidin taqdir,
Tifl ekanda biravga qildi asir,

Bay'ima xoja mushtari bo'ldi,
Bandasi mehri xovari bo'ldi.

Garchi mundoq azizdurmen anga.
Sotqun olgan kanizdurmen anga.

Chunki yo'q erdi xojag'a farzand,
Misli farzand qadrim etti baland.

Chun unum dilkash erdi, lahjam xush,
Chekar erdim taronai dilkash.

Hukamokim bu fanda mohir edi
Kim, mahorat alarda zohir edi.

Kelturub uyga ko'p rioyat etib,
Judu ikrom benihoyat etib.

Ul qadar sa'y ayladi mahu sol
Kim, manga kasb bo'ldi muncha kamol.

Hosilim bo'ldi tortmoqqa nag'am,
Muzhiku mubkiyu munavvim ham.

Unum ovozasi jahon tutti,
Changim ovozi osmon tutti.

Husn xud beqiyosu andoza,
Bo'ldi ovoza uzra ovoza.

Eshitib borcha ahli johu tamiz
Kim, bor ermish birovda bo'yla kaniz.

Bo'ldilar naqdsanj bay'im uchun,
To'ktilar molu ganj bay'im uchun.

Har tarafdin chu mol rez etti,
Xoja o'z farzandini kaniz etti.

Necha ko'prak ko'rub xaridorim,
Tezrak aylar erdi bozorim.

Chinda bu nav' sho'r ila g'avg'o,
Har kishining hoshida bir savdo.

Chinda bor erdi bir ajab naqqosh,
Sun' naqqoshidek jahon aro fosh.

Ishi monandsiz, oti Moniy.
Ul yozib suratimni pinhoni.

Safar etmak uchun o'zin tuzmish,
Bir shahanshahg'a oni ko'rguzmish

Kim, jahon mulki ichra har kim shoh,
Bor emish anga bandai dargoh.

Shoh suratg'a mayl etib paydo,
Balki bo'lg'on emish ko'rub shaydo.

O'ylakim topibon amin kishilar,
Pokpayvandu xurdabin kishilar,

Yiborib Ching'a sho'r solmoq uchun,
Bir kanizakni sotqun olmoq uchun,

Bir xaridor edi Xito xoni,
Hukm birla yiroq etib oni.

Bay' etib xojaning mizoji bila
Necha birla Xito xiroji bila.

Shod o'lub baxtdin kushod topib,
Yondilar istagan murod topib.

Farz yo'l qat'ini bilurlar edi,
Ikki manzilni bir qilurlar edi.

To meni shohg'a keturdilar,
Durni daryo sori yeturdilar.

Yetti chun zarra mehri anvarg'a,
Banda sultoni bandaparvarg'a.

Shoh ul elni beniyoz etti,
Olam ahlida sarfarozi etti.

Vatan etti manga shabistonin,
Ne shabistonki, ravzai jonin.

Andoq o'ldiki, mensizin bir dam,
Tiyra erdi anga yorug' olam.

Umriddin hosili jamolim anga,
Balki umri abad visolim anga.

Ish anga ishratu shikor erdi,
Gashti sahrou lolazor erdi.

Chopibon ko'hu dasht sori samand,
Go'r bo'ynig'a solur erdi kamand.

Har qayon chopsa go'rpo'ya sutur,
O'lar erdi suturi ollida go'r.

Lolagun go'rni shikor aylab,
Qoniddin yerni lolazor aylab.

Lolazor ichra chun ichib mayi nob,
Go'r eti erdi bazmi ichra kabob.

Xoh shahr ichra, xoh dasht ichra,
Xoh oromu xoh gasht ichra

Mensizin yo'q edi dame komi,
Kom yo'q, xotirining oromi.

Bo'lmasam hamrah urmay ul bir gom,
Men navo chekmay, ichmay ul bir jom.

Men qayu nag'makim ado aylab,
Ul chekib ohu jon fido aylab.

Dasht aro sayr qilsa, yonida men,
Shahr aro xilvatu nihonida men.

Olmayin ko'z dame jamolimdin,
To'ymayin bir nafas visolimdin.

Oqibat bo'ldi ul sifat mag'lub
Kim, men erdim hayotidin matlub.

Yetti ul yerga ishki xaylu sipoh,
Qo'ydi navmidliqqa yuz nogoh

Ki, alardin yo'q erdi shahg'a vuquf,
Kecha-kunduz manga edi mash'uf.

Onchakim shah manga edi moyil,
Xasta ko'nglum anga edi moyil.

Vaslin istarga ixtiyorim yo'q,
Hajrida lahzaye qarorim yo'q.

Shavq o'ti ikki yondin andog' tez
Ki, bo'lub shu'lasi sipehrsitez.

Shohdin iltifoti nomaqdur,
Qilg'on erkondurur meni mag'zur.

Men kanizi siyohbaxti laim,
Ham siyahbaxtu ham siyohgilim.

Shahdin ul bandalikki ko'rgaymen,
Havsala qaydakim singurgaymen.

Har nekim nutqum aylar o'lsa bayon,
Bor emish boshidan-ayoq hazyon.

Bir kun ul nav' voqe' o'ldiki shoh,
Ovda erdiyu men anga hamroh.

Mast edi ul, erdi bodaparast,
Lek men xudparastliqdin mast.

Shah etib bir kiyik sari ohang,
Chapig'a yo o'ngig'a oldi xadang.

Dedi: «Chun raxshim ul taraf surayin,
Ani har nav'kim desang urayin».

Men dedimki: «Qo'lin shikil etgil,
Ham yiroqtin-o'q aylagil bismil».

Bilgach ul soʻzni xotiri poki,
Tikti ikki qoʻlin otib xoki.

Chunki soldi ikki qoʻligʻa shikol,
Kaybur otib boʻgʻuzladi filhol.

Qildi bir ishki qilgʻoli oni,
Odamizodning yoʻq imkoni.

Kerak erdiki jon fido qilsam,
Shastining muzdini ado qilsam.

Emdikim mendin istadi insof,
Boshlabon men siyohbaxt gazof.

Aqldin jahl sori qaytibmen,
Ul qadar hashvu harza aytibmen

Ki, agar adl ila qilib chora,
Meni qildursa erdi yuz pora.

Deganimga jazo emas erdi,
Qilgʻanimgʻa sazo emas erdi.

Anda ham qahr tigʻini surmay,
Mendek oʻlturgulikni oʻlturmay,

Bogʻlatib soldi bir biyobonda
Ki, qazo yetsa oʻlgamen onda.

Qahr ila mast qoʻydi shahrgʻa yuz,
Toki oʻtti iki kecha-kunduz.

Xojakim, deb edi meni farzand,
Lek sotib edi uzub payvand.

Xotiri qolib ishtiyoqingʻa,
Tuza olmay gʻamu firoqingʻa.

Meni koʻrmak uchun boʻlub jozim,
Boʻlgʻon ermish Xitoydin ozim.

Manga solgʻonda jahl boʻyla xato,
Ikki manzilgʻa yetgan ermish ato.

Ul iki kunki, men edim magʻzub,
Xojagʻa koʻrmagim boʻlub matlub.

Surar ermish faras qilib shabgir,
Tiyra ermish kecha nechukkim qir.

Urkudab yoʻldin oti chiqqon emish,
Bir iki qul bila oziqqon emish.

Surubon vodiyu biyobong'a,
Yuz mashaqqat aro yetib jong'a,

Ul qaro tunda baxti bedori,
Solg'on ermish ani mening sori.

Tiyra tun chun manga yaqin yetmish,
Xojag'a uyqu asru zo'r etmish.

Tushubon bormish uyqug'a bir dam,
Chun ko'z ochmish yorub emish olam.

Yonida yuz qadamg'a yoqin yo'l,
Ittifoqo nazora aylamish ul.

Dasht aro bir qaro ko'runmish anga,
Bir qaro dasht aro ko'runmish anga.

Kishidekkim g'ululaband o'lg'ay,
Bor bo'yida xami kamand o'lg'ay.

Aylayin deb haqiqatin ma'lum,
Qilmish ul sori xoja ranja qudum.

Yetsa ko'rmish zaifai zori,
Har sari mo' tanida ozori.

Bog'lanib sochining kamandi bila,
Yotibon dasht uza bu bandi bila.

Rahm etib yeshgali uzotmish ilik
Ki, o'lukmu ekin bu, yo'q ersa tirik?

Chunki ta'jil ila yeshib oni,
Yuzida garchi yo'q emish qoni.

Bo'yu boshi manga shabih ermish,
Ko'zu qoshi manga shabih ermish.

Ayog' ostida zulfi pomoli,
Zaqani xoli, la'lining xoli.

Xoja bilmayki mast erur, yo sog',
Topmay uyqudadurmu, yo uyg'og'.

Har dam ul hayrat oni lol aylab,
Har zamon o'zga bir xayol aylab.

Xojaning bo'yla ibtilosi chog'i,
Ko'runub korvon qarosi dog'i.

Yiborib bir qulinki elni surub,
Kelturub ul maqom aro tushurub.

Necha qiz borcha hamdamu yorim,
Zuafodin necha parastorim.

Yetgali xidmatimg'a jon birla,
Kelgan ermish bu korvon birla.

Xoja ul borchani qilib hozir,
Manga qilgan emish borin nozir.

Alar anglab nishonalar birla,
Navha tortib taronalar birla.

Yuzni yirtib, yaqoni chok aylab,
Darddin navhai halok aylab.

Xojai kordonu farzona,
Bo'lub ul hayrat ichra devona.

Dard ila navhai g'amim tutubon,
Yig'labon zoru motamim tutubon.

Lek fahm aylamayki hol nedur?
Mehri umrumg'a bu zavol nedur?

Asru ojiz bo'lub bu suratdin,
Ashk ila yub meni zaruratdin.

Kafan aylab harir ila sayfur,
Sepibon ul kafan aro kofur.

Chun meni chirmab ul harir bila,
Oni xushbo' etib abir bila.

Chun sepilgach abiri nob anda,
Sepilib dam-badam gulob anda.

Tanki, o'lgan kibi emish betob,
Chun topib nafhai abiru gulob.

Yuzlanib za'fliq dimog'ima hush,
Nafas o'lmish tanimg'a hamog'ush.

Chun alar fahm etib hayot manga,
Naqdi jon aylabon zakot manga.

Yuzlarin surtubon ayog'img'a,
Yaxshi islar tutub dimog'img'a.

Der emish har bir o'zga yanglig' so'z
Ki, o'zumga kelib, ochibmen ko'z.

Chun ko'zum tushti notavonlarg'a,
Mehrparvard mehribonlarg'a.

Ayttim: «Munda turmayin yurunguz,
Ko'chubon jahd aylabon surunguz

Kim bu manzil mahalli ofat erur,
Jonsiton vodiya maxofat erur».

Ko'ch o'lub chunki nola chekti daro,
Manga yer bo'ldi bir amori aro.

Tomizib gohi og'zima sharbat,
Gah ravoyih bila berib quvvat.

Yurubon yo'l iki kecha-kunduz,
Qo'ydi sihat mening mizojima yuz.

Kololar chun horarg'a yovushti,
Xoja bir chashma boshig'a tushti.

Sabza uzra yasaldi koshona,
Zebliq' borgohu shamyona.

Yasabon taxt uza rafe' maqom,
Manga berdilar ustida orom.

Kelib ollimg'a xoja o'lturdi,
Sharhi holimni mo'-bamo' so'rdi.

Men dog'i ul sifatki, voqif edim,
Borin andog'ki voqe' erdi, dedim.

Xoja bir dam boshin tutub qoldi,
Yana bir dam boshin quyi soldi.

Anga men chunki sharhi hol ettim,
Holin oning dag'i savol ettim.

Holin ul ham dedi, nechukki edi,
Qissasi bor edi, nechukki dedi.

Nazar etmay zamona g'amlarig'a,
Shukr deb Tengrining karamlarig'a.

Anda chun bir kun o'ldi osoyish,
So'z yuziga berildi oroyish

Ki chu aytildi: «Har jihat emdi,
Ne durur ishga maslahat emdi?»

Men dedimkim: «Agar kaniziga shoh,
G'azab etti Xudoy erur ogoh.

Bor edim ulcha bo'ldi izhori,
Yuz tuman onchanning sazovori.

Chunki shah kinu qahrini surdi,
Tengri asradi gar ul o'lturdi.

Kishi o'lgonga tig'i kin surmas,
Bir o'lukni ikita o'lturmas.

Bu kafankim, libosim aylabsiz,
Xil'ati mavtu yosim aylabsiz.

Kiyibon dargahiga qo'ysam yuz,
Aytsam bu fasona ravshanu tuz

Ki: «Gunoheki men qilib erdim,
O'ltururdek edim, bilib erdim.

Adl ila shoh hukmi qatl etti,
Neki qilmish edim – jazo yetti.

Yangi jon manga berdi ersa Xudo,
Ani ham kelmisham qilurg'a fido.

Qatl agar qilsa ham figandasi men.
Afv ham aylar ersa, bandasi men.

Jurmum o'lsa o'zi panohim erur,
Karamu lutfi uzrxohim erur.

Mundoq etsak bu qissag'a tadbir,
Hech shak yo'qki shohi olamgir –

Afv rasmin rioyat etgusidur,
Karami benihoyat etgusidur».

Men bu so'zni chu ayladim iyrod,
Xojau xalq qildilar faryod

Kim: «Xatodur bu ra'ykim qilding,
Xiradingdin magarki ayrilding?

Yova dersen! O'zungdamu yo'qsen?
Yoki xoni hayotdin to'qsen?

Shahki, bir so'z uchun to'kar qoning,
Yana qilmoq nedur, fido joning?

Shoh bir shu'lai furuzondur,
Har kishiga yetishsa so'zondur.

O't aro ixtiyor ila surmak,
Bahra bermas, bag'ayri kuydurmak.

Shohkin bo'yla tangdil bo'lmish,
G'azabi o'ti mushtail bo'lmish.

Qochmoq andin savob erur bu dam,
Necha andin yiroq – ofat kam.

G‘azabig‘a tugangach andoza,
Har taraf yetgusidur ovoza

Kim, bu ishkim sanga ravo ko‘rdi,
Jonig‘a yuz balo davo ko‘rdi.

Andin anduh ila nadomati bor,
Yoki aysh ichra istidomati bor.

Nodim o‘lsa iloji osondur,
Boribon qaytmoq ne nuqsondur.

Bor esa qilg‘onida isrori,
Jonni qutqorg‘on o‘lg‘abiz hori».

Xoja so‘zni tugatmak erdi hamon
Ki, hadisin begandi yaxshi-yamon.

So‘zga bu nav’ chun qaror o‘ldi,
Maslahat bir sari firor o‘ldi.

Chun yiroq erdi kishvari Xorazm,
Qildilar ul taraf azimat jazm.

Men chu shahdin bu nav’ ayrildim,
Hajrida qolmag‘um tirik, bildim.

O‘lgan-o‘q ayladim o‘zumni gumon,
Hajr voqe’ hamonu – marg hamon.

Ul kafankim, libosim o‘lmish edi,
Mujibi ehtibosim o‘lmish edi.

Ani kiymak tanimg‘a fan bo‘ldi
Ki, o‘luk kisvati kafan bo‘ldi.

Menki, bo‘ldum visoli mahjuri,
Kafanimdur libosi kofuri.

Bot to‘kulmas uchun tani ranjur,
Sepilibdur kafanda ham kofur.

To bu kishvar hududig‘a yettuk,
Toki bu shahr aro nuzul ettuk.

Gar yiroqsen, yo‘q ersa, hamrahsen,
Bori bo‘lg‘on ishimdin ogahsen.

Bu shah ollinda muncha yolg‘onim,
Anga yuz iztirob solg‘onim,

Demagilkim ko'ngul havosi edi
Ki, valine`matim vafosi edi.

Chun sanga sirrim oshkor ettim,
Sen dog'i qil, nekim qaror ettim.

Shartkim aylading – vafo etgil,
Bu diyor ichra turmayin ketgil».

Men samo' aylagach bu nav' surud,
Sarvi gulruxqa ayladim padrud.

Mulk-barmulk tutmayin orom,
Aylabon yo'lni qat' gom-bagom.

Kishiga zohir etmadim bu roz,
Munga tegruki shohi bandanavoz.

Hukm qildiki: «Ayt afsona!
Mundoq afsona topmadim yona.

Ham ko'rub bo'yla qasri kofuriy,
Yodima kirdi ul buti huriy

Ki, firoq ichra bo'lg'ali ranjur,
Bu sifat hulla aylamish kofur.

Yo'qki, kofurgun kafan qilmish,
Anga kofur urarni fan qilmish.

Ulki, olam aro ajoyibdur,
Bo'lsa bu qasr aro munosibdur».

So'zga berguncha qissago' anjom
G'oyibidin nishon topib Bahrom –

Hush yuz qatla tark qilmish edi,
Yuzdin ortuq o'lub tirilmish edi.

Ushbu afsonadin o'lub, yona
Tirguzub oni ushbu afsona.

Noladin asrab o'z nikim nogoh,
Bo'lsa roviy fig'onidin ogoh.

Aylasa bir nafas fasonani bas,
Anga bog'lang'ay o'zga rohi nafas.

Deguchi chun dedi fasonani pok,
Ko'kka tortib fig'oni otashnok,

Chorlabon nuktago'ni chun quchti,
Bulbuli ruhi go'yiyo uchti.

Aning obi hayotdek so'zidin,
Bordi o'lgan kishi kibi o'zidin.

Kimni behush etar bu afsona,
O'ziga xud kelib netar yona?

XXXIV

*Bahrom g'oyibidin nishon topib, o'zdin g'oyib va benishon bo'lub,
Xorazm mulkiga nishon yiborib, xojai farzona bila gavhari yagonani
tilatib, alar kelguncha o'zi dag'i o'tru chiqqoni va subh anfosi
Masihlaridek o'luk tang'a ruh kiyurgoni*

Chunki ul kecha shohi shohnishon,
G'oyibidin bu nav' topti nishon.

To sahar beqaroru bedil edi,
O'ylakim saydi nimbismil edi.

Shavq o'tig'a kuyub nechukki xase,
Betahammulluq aylar erdi base.

Shevasi iztirob qilmog'liq,
Goh qo'pmoq, gahe yiqilmog'liq.

Topsa erdi buzuq mizoji qaror,
Buyurur erdi qissag'a takror.

Ishi chun qilg'anini bilmak anga,
Goh o'lmak, gahi tirilmak anga.

Hajr anduhi chun qilib behol,
Holiga kelturub umidi visol.

Ne deyin hajrdin nelar ko'rdi
Kim, ul oqshomni tongg'a tegurdi.

Oncha qildi tirilmaku o'lmak
Ki, padid o'ldi subhg'a kulmak.

Subhg'a chunki bo'ldi kulgu padid,
Damidin yondi shu'lai xurshid.

Shohning itti hosil oromi,
Qildi mayl andakim Diloromi.

Ul taraf jazm qildi azm etmak,
Toki Xorazm haddig'a yetmak.

Bo'lub arkoni davlati mone',
Necha kun sabr ila qilib qone',

Dedilar: «Azm qilmamoq avli
Ki, erur shahg'a za'f mustavli.

Garchi muhlikdurur firoq asru,
Lek bu yo'l erur yiroq asru.

Bo'lmag'ay ranj chun shadid o'lg'ay,
Sihhat asbobi nopadid o'lg'ay».

Hukamo ham kelib alar bila rost,
Qildilar shahg'a yer o'pub darxost

Ki: «Necha shahg'a ishq oyindur,
Lek ko'hviqoru tamkindur.

Tog' oyini istiqomat o'lur,
Chu taharruk topar qiyomat o'lur.

Necha kun ko'nglunga tutub g'amni,
Tutqil oromu buzma olamni!»

Kishilar topti oqibat ta'yin,
Charxsur'at valek mehroyin.

Xojag'a noma istimolat ila,
Oyg'a ham, lek bas xijolat ila

Kim: «Bu yanglig' xabar eshittuk jazm
Ki, bor ermish makoningiz Xorazm.

Bu xabardin agarchi bo'lduq shod,
Yetti yuz nav' bandimizg'a kushod.

Lek holatni anglag'an hangom,
Tutmangiz anda bir nafas orom.

Kecha-kunduz demay xirom qiling,
Uyquni biz kibi harom qiling».

Shohning ruq'asida pinhoni
Tomizib ashkdin bog'ir qoni

Ki: «Firoqing ichimni qon qilmish,
Ani ko'z yo'lidin ravon qilmish.

Kelki aylay sanga fido jonim,
Yo'qsa bo'ynungg'a bo'lg'usi qonim.

Furqat ichra chiqorma jonimni,
Dashna urmay oqizma qonimni.

Kelki chiqsun qoshingda jonim ham,
Yana oqsun yo'lungda qonim ham.

Xajr tig'ini jonima surma,
Jon berurdin burunroq o'turma.

Sayr aro mehri xovari yanglig',
Manga kelgil uchub pari yanglig'.

Garchi o'turmak aylading manga fan,
Kelu ko'r, bo'ynum uzra tig'u kafan.

Gar qoshingga yeturmadim o'zni,
Orazingga yorutmadim ko'zni.

Aylama haml komronliqga,
Hukm qil oni notavonliqga

Ki, firoqinga to asir o'ldum,
Za'fdin ul sifat haqir o'ldum

Ki, suv ichmak manga ne imkondur,
Tomizurlar valek ul qondur.

Bo'yla majruhu notavondurmen,
Notavon jismu xasta jondurmen.

Kelu o'lg'on tanimga jon bo'lg'il,
Jismima moyai ravon bo'lg'il

Ki, tavaqquf qilurda fahm etgum,
Vahki, kelgung valek men ketgum!

Dahr chun aylagay meni nobud,
Sen taassuf yemak ne qilg'ay sud?»

Chun raqam ayladi bu ruq'ai dard,
Ruq'aning safhasig'a berdi navard.

Soldi qosidlar o'llig'a hayhot,
Dedi: «Turmay yeting nigorima bot!»

Yana Xorazm shahig'a yozdi misol,
«Buki Xorazmdin bir illiq mol,

Xojaga zodi roh yetkursun,
Xoja mahmilni bu taraf sursun».

Shahdin ul ishda mundog' anglab mayl,
Yer o'pub yo'lg'a kirdilar ul xayl.

Yel kibi yo'lda qildilar ta'jil,
Go'yi bir gom o'lur edi bir mil.

Chunki mustaʼjil erdilar behad,
Yettilar bot andakim maqsad.

Xoja bogʻin topib nechukki nasim,
Shah misolini qildilar taslim.

Xoja chun olgʻach oni, qildi sujud,
Oygʻa ham yetti ruqʻai maqsud.

Xoja boshi sipehrdin oshti,
Mohvash farqi mehrdin oshti.

Chunki Xorazm shahigʻa yetti misol,
Vajh berdi xizonadin filhol.

Oʻzi dogʻi xizona yetkurdi,
Xidmati bekarona yetkurdi.

Asru koʻp shodmona boʻldilar,
Taxt sori ravona boʻldilar.

Koʻrguzub yoʻl yururda istiʼjol,
Shoh xud qilgʻon ermish istiqbol.

Chunki qoldi aroda bir manzil,
Shoh etib borcha xalqni gʻofil.

Uyugʻon chogʻda el qilib tadbir,
Ayladi mohrux sari shabgir.

Yel kibi kecha tinmayin ketti,
Sarvi gulruxgʻa subhidam yetti.

Korvon yolqibon urardin gom
Topmish erdi hamul zamon orom.

Goʻyiyo erdi tong qarongʻusi,
Eltibon el koʻzini uyqusi.

Borgah chashma boshida tikilib,
Nargisi gulning uyqu mayli qilib

Chashma boshida bir rafeʻ chinor,
Ichi kovoki, ul sifatkim, gʻor.

Ichini oʻrtagan sharori halok,
Koʻksi oshiq ichidek oʻlgʻon chok.

Shah otin bir hajargʻa bogʻlab rust,
Ul shajar sori azm ayladi chust.

Kirdi pinhoni ul chinor ichra,
Yori gʻor ul sifatki gʻor ichra.

Anda chun erdi sarvi hursirisht,
Topar erdi mashomi atri bihisht.

Shohning chun maqomi o'ldi daraxt,
Oyni uyg'otdi uyqusidin baxt.

Qo'pubon subh o'ylakim ma'hud,
Zohir etti burun tariqi sujud.

Tengriga chun niyoz ko'rguzdi
Olib ilgiga changini tuzdi.

Takya aylab yig'ochqa boshlab rud,
Qildi og'oz oshiqona surud.

Nola shahning firoqidin aylab,
Oh aning ishtiyoqidin aylab.

Chashma sori urub paridek gom,
Tutti sarchashma hoshida orom.

Anga loyiq navoyi rud yasab,
Nomasi so'zlarin surud yasab.

Har so'zidin chekib fig'on yig'lab,
Oqizib seli ashku qon yig'lab.

Shoh har nag'mada borib o'zidin,
Ashki anduh yog'durub ko'zidin.

Toki oy un chekib tarona bila,
Boshladi savt bu fasona bila

Ki: «Bu yo'l ne balo uzog' o'ldi,
Tobidin dog'im uzra dog' o'ldi.

Yetti og'zimg'a ranjdin jonim,
Qolmadi g'am yemakka imkonim.

Umrnin noumid bo'ldum lo!
Mihnati hajr ichinda o'ldum lo!

Ul kun o'lg'aymu, ey sipehri dani
Ki, solib shoh xidmatig'a mani.

Qulog'ig'a so'zumni yetkursang,
Ayog'ig'a ko'zumni yetkursang.

Vasldin hosil o'lsa darmonim,
Bo'lmag'ay o'lsam o'zga armonim!»

Bu surudini chun eshitti shoh,
Yoqasin chok qildi tortib oh.

Yugurub jismi notavon birla,
Chiqti yuz nolau fig'on birla.

Nafasining o'ti sharorangez,
Shu'la chiqqon kibi yig'ochdin tez.

Yor ayog'ig'a bo'ldi andoq past
Ki, quyosh ko'rgay oftobparast.

Qolmadi anda hushning asari,
O'yla devonadekki ko'rsa pari.

Chun pari og'i ko'rdi andoq hol,
Aylabon hayrat oni bexudu lol.

Shoh oyog'ig'a dur sochib ko'zidin,
Bordi o'pgach ayog'ini o'zidin.

Yer uza chunki past bo'ldi sipehr,
Yerga tushti sipehr ayog'ig'a mehr.

Qora tufroqqa tushti zilli Iloh,
Soyag'a tushti mehr ham nogoh.

Shoh bexud yer uzra, moh dog'i,
Moh kelmay o'ziga, shoh dog'i.

Hajr poyon topib visol ko'rung,
Alloh-Alloh, g'arib hol ko'rung!

Hajr shomi xud erdilar behol,
Hol ko'rgil, chu bo'ldi subhi visol.

Nafas urg'uncha subhi ahyazpo'sh,
Birida yo'q edi nafas, bal hush.

Chun sahar ochti ma'dani kofur,
Mehr olamg'a yoydi hullai nur.

Korvon ahli aylabon ma'lum,
Qildilar ul ikov boshig'a hujum.

Xojakim, ko'rdi ul g'arib ahvol,
Bildikim, qo'ndi toyiri iqbol.

Elni ul tegradin yiroq surdi,
Bir saroparda chust kelturdi.

Ko'rub ul tegraga saro parda,
Tutti kofurgun saroparda.

Kirdi oyu quyosh niqob ichra,
Balki kofurgun sahob ichra.

O'ziga kelgach ul iki dilxoh,
Ne deyishgandin o'lmadim ogoh.

Bir shabistonki, el emas mahram,
Qaysi elkim, sahar nasimi ham.

So'zki vafida har namat bo'lg'ay,
Rost bo'lsa, dag'i g'alat bo'lg'ay.

Yetti alqissa chun murodig'a shoh,
So'ngg'idin yetti borcha xaylu sipoh.

Shahg'a chun zavq inhisot topib,
Barcha ul zavqdan nishot topib.

Xojani shah vaziri xos etti,
Sudu savdosidin xalos etti.

Kasb chun el g'animat ayladilar,
Shahr sori azimat ayladilar.

XXXV

*Bahrom Go'rning ov azmig'a charga solg'oni va ajal xayli ovining
chargasig'a qolg'oni va sayd azmig'a go'r summining tezraftorlig'i va
o'zining go'r domig'a giriftorlig'i va saltanatining anjomi va tarix va
fasonasining itmomi va ixtitomi*

Shoh chun shahrni maqom etti,
Yana ohangi rudu jom etti.

Za'f ketti mizojidin bilkul,
Baski gul atri birla ichti mul.

O'zi birla muqarrar etti muni
Ki, o'tar haftaning chu yetti kuni.

Ul yeti qasr aro xirom etgay,
Har kuni birda mayli jom etgay.

Mohvashlar bila qilib may no'sh,
Tutqay o'z mahvashi bila og'ush.

Bo'lsa gulchehralar anga mahbub,
Lek mahbubin anglag'ay marg'ub.

Bo'lg'ay ul qasr rangi malbusot,
Balki ko'rmakta borcha mahsusot.

Necha yil bo'yla komlar surdi,
Hoy-huyin falakka yetkurdi.

Oqibat hay deguncha charxi dani,
Tiyra go'r ayladi aning vatani.

Qilma Bahromdin muni hayrat,
Anga xud charx berdi oz fursat.

Kishi yuz qarn podshoh o'lsa,
Taxtgiro jahonpanoh o'lsa.

Yetti ko'k gunbazida oromi,
Chovushi bo'lsa charx Bahromi.

Ham kerak oqibat vido' etmak,
Borchaning tarkini qilib ketmak.

Shoh Bahromning butub komi,
Mundoq o'ldi ishining anjomi

Kim, ichar erdi yetti qasrda may,
Har biriga mururi paydarpay.

Qaysi manzil aroki bo'lsa muqim,
Sarvi gulchehr erdi yoru nadim.

Chang birla tarabfizo dag'i ul,
Nag'ma birla g'azalsaro dag'i ul.

Bo'lsa devori bast aro dilgir,
Azim etar erdi qilg'ali naxchir.

Anda ham yonida edi mahvash,
Chekib ot uzra nag'mai dilkash.

Nag'mapardoz ul erdi, soqi ham,
Boqiyi umru umri hoqiy ham.

Yuzidin majlisig'a oroyish,
Unidin xotirig'a osoyish.

Onsizin ermas erdi bir soat,
Xoh aysh aylasun vagar toat.

Bir kun ov solmish erdi behad keng,
Davراسi charx davri birlan teng.

Sayd ul ovda o'ylakim anjum,
Borchasig'a firor raxnasi gum.

Anda otliqqa had yo'q erdi padid,
Saydg'a ham adad yo'q erdi padid.

Bir falakvor marg'zor erdi,
To'la otlig' bila shikor erdi.

Otlig'i chargalar tuzub necha saf,
Qo'shulub bir-biriga ikki taraf.
Chun qo'marg'olg'a yetti ul charga,
Xalq berkittilar ayoq yerga.
Saydg'a haddin oshti el javri,
Uch yig'och erdi charganing davri.
Lek o'n besh saf erdi to'-barto',
Sayddin charga o'rtasida g'uluv.
Zaxm ila sayd baski zor o'ldi,
Marg'zor o'yla lolazor o'ldi.
Balki qon bo'ldi sellar har yon,
Ayladi sel mayllar har yon.
Saydkim, yerga oqti qoni aning,
Chiqti qon seli birla joni aning.
Shoh Bahrom Go'ri beozarm,
O'zni go'r o'ltururg'a aylab garm.
Chargada mingcha qodirandozi,
Borchaning sayd urarg'a parvozi.
Sayddinkim kelur chiqorib til,
Har birisiga yuz ramida qatil.
Charga ahli otib yog'indek o'q,
Har taraf qo'ysa yuz, qutulmoq yo'q.
O'lubon necha yuz tuman jonliq,
Har kishi necha sayd ila qonliq.
Qon to'kardaki, yo'q haros elga,
Bo'lubon lolagun libos elga.
Qondin ul yerda guliston butti,
Go'yyokim ul elni qon tutti.
Marg'zoriki ov edi anda,
Qon yo'li nov-nov edi anda.
Go'yiyo o'yla yer ekandur bu
Kim, bor ermish tubida bolchig'u suv.
Yuzini gard tah-batah tutmish,
Anda yomg'ur yog'ib giyah butmish.
Chun giyah butmish o'ylakim besha,
Tubini mahkam aylamish resha.

Bir qorig'a yaqin zaxomat anga,
Resha bandidin istiqomat anga.

Emdikim qondin oqti har yon sel,
Sel o'z markazig'a ayladi mayl.

Singib ul nav' nam quyi ketti
Ki, bu nam suv namig'a ham yetti.

Bolchig' ul nav' bo'ldi ov eliga
Ki, yetar erdi kimsaning beliga.

Bodpolarg'a botmoq o'ldi ish,
Bolchig' ustida yotmoq o'ldi ish.

Bo'yla holatda mehr chekti niqob,
Parda yopti quyosh yuziga sahob.

Bulut el uzra qatrabor o'ldi,
Nuh to'foni oshkor o'ldi.

Quyidin suvu yuqoridin nam,
Yuqoridin namu quyidin ham.

Orada bo'lg'on o'lsa tufroq rust,
Asrag'on bo'lsa ajrig' oni durust.

Chun yuzin yuz tuman cherik yopqay,
Sayd keynicha har biri chopqay.

Ajab ermas bo'lub taxalxul anga,
Yetsa har soridin tazalzul anga.

Xossakim qondin oqibon yuz arig',
Har arig' qilsa yer yuzin balchig'.

Ot ayog'i ani xalob etsa,
Yuqoridin yog'in dag'i yetsa.

Ne yog'inkim etih falakka hayo,
To'ksa olam eli uza daryo.

Umridin el ne ayb ko'z yummoq?
Qayda tebronmak, anda-o'q cho'mmoq!

Ushbular borcha bor edi mavjud,
Bo'ldi bir damda ov eli nobud.

Charga davriki xalqdin to'ldi,
Yer yuki og'ir erdi xam bo'ldi.

O'yla yumruildi yerga yuz ming xayl,
Qildilar bir yo'li su qa'rig'a mayl.

Davra birlaki, choʻmdilar mutlaq,
Boʻldi ul ov hisorigʻa xandaq.

Suvki xandaq qirogʻidin toshti,
Ne qirogʻkim, hisoridin oshti.

Koʻrgan ul davra ichra mundogʻ hol,
Yerni andogʻki, suv uza gʻarbol.

Jondin ul suv bila ilik yudilar,
Shoh, balkim bori cherik yudilar.

Topmas erdi choʻmub itardin amon,
Saydalkan hamonu sayd hamon.

Sayd uchun borchagʻa xirom oʻldi,
Saydgah xud alargʻa dom oʻldi.

Sher ila jayran ul maqom ichra,
Tushtilar chun bu navʻ dom ichra.

Yuz tuman sheru jayran oʻldi chu gʻarq,
Sheru jayran aro oʻlarda ne farq?

Bildilar oshkoru pinhoni,
Yoʻq ekanni qutulmoq imkoni.

Saʻy ila bir-birin tutushtilar,
Mugʻtanam anglabon quchushtilar.

Bor edi ul quchushmoq andoq rust
Kim, bir oʻldilar iki hamdam chust.

Boʻyla vahdat chu oshkor oʻldi,
Bir-biriga ikov shikor oʻldi.

Koʻrdi shahkim, sipohi dashtnavard,
Botti andoqki, yoʻq alardin gard.

Ul sarikim, azimat etti sipoh,
Ham oʻshul yon azimat ayladi shoh.

Moʻrdek tushti ul sipoh aro shoʻr,
Kirdilar yerga borcha oʻylaki moʻr.

Kirdi gar moʻrdek sipohi dajam,
Kirmayin qolmadi Sulaymon ham.

Goʻrdur borcha olam ahligʻa qism,
Anga Bahromi Goʻr edi xud ism.

Ajdahoyedurur bu dahri dani,
Elni yutmoq chekib shioru fani.

Toki yutmoq shiorini tutti,
Yuta olg'oncha xalqni yutti.

Lek qonuni erdi yutmog'ining,
Biru yo o'n, yo'q ersa yuz yo ming.

Andin elga base taab tushti,
Lek Bahrom ishi ajab tushti

Ki, ani oncha izzu joh bila,
Dahr aro sig'mag'an sipoh bila,

Bermayin bir dam ichra hech amon
O'yla chekkay bu ajdahoyi damon

Ki, birov topmayin xabar andin,
Dahr aro qolmag'ay asar andin.

Alloh-Allah, ne ajdahodur bu,
Ajdaho demakim, balodur bu

Kim, kishi topsa ajdahodin ranj,
Ham topibdurlar ajdaho bila ganj.

Munda yo'q ganj. g'ayri vayronliq,
Kimsa andin qutulmayin jonliq.

Toki jondin erur nishon kishiga,
Andin ermas dame amon kishiga.

Jonni olg'on bila dag'i qo'ymas,
Tanni yutqon bila dag'i to'ymas.

Jismi xokini xoksor aylar,
Ko'kka ajzosini g'ubor aylar.

Onchakim bo'lg'ay, ul g'ubor asari,
Yetar ajzosig'a aning zarari.

Anga bir damdadur tutulmog'liq,
Lek yillarda yo'q qutulmog'liq.

Bordur andin birovga istig'no
Kim, shiori erur tariqi fano.

Garchi bo'ldi zabuni Afridun,
Bu Faridundek aylar oni zabun.

Ey Navoiy, vujud harfin unut,
Adam o'lmoq bila fano yo'li tut.

Sen chu ursang fano yo'lida alam,
Yo'qqa mumkin emas yetishmak alam.

Alamin ko'rmayin desang yo'q bo'l,
Seni yo'q topsa o'zga netgay ul?

XXXVI

*Dahri muxolif norostlig'i taronasin tuzmak va benavo ushshoqqa
andin ijtinob pardasi ko'rguzmak va sipehr zulmidin bexabarlarga
ta'n toshi otmoq va g'aflat uyqusidin joh mag'rurlarin nasihat
go'shmoli bila uyg'otmoq*

Ey ko'ngul, boqmag'il jahon ishiga
Kim, jahon qilmadi vafo kishiga.

Bir ulug'roq kesak erur bu jahon
Ki, erur ko'pragi suv ichra nihon.

Kurai xok keldi bebunyod,
Suv ichinda kesakka ne bunyod.

Anga oqil ne e'tibor etgay,
Anda bir dam qachon qaror etgay

Kim, kesakni suvda nazora qilur,
Bir-ikki lahza chun o'tar ezilur.

Bu kesak manzili iqomat emas,
Kimsaga anda istiqomat emas.

Burun andinki, suvda hal bo'lg'ay,
Suv tubiga cho'mar mahal bo'lg'ay.

Sen fano birla kishtiye soz et,
Anga raxting solurni og'oz et.

Kimki ul kishti ichra topsa futuh,
Yo'q ajab bo'lsa kemachi anga Nuh.

Kingakim Nuh bo'ldi kishtibon,
G'am yo'q ar ko'kka mavj urar to'fon.

Voqif o'lg'ilki, aylabon talbis,
Topmag'ay yo'l bu kemaga iblis.

Dema garchi topar esang yoro,
«Lotazar kofirina dayyoro».

Ko'rma ul demakda osonliq
Ki, erur so'ngg'isi pushaymonliq.

Kurai xokkim deduk beshak
Ki, erur o'ylakim suv ichra kesak.

Charx mundin dog'i baqosiz erur,
Yo`q, kesak go`rdek vafosiz erur.

Anga bo`lsa suvda kesakcha hisob,
Muni daryo yuzida angla hubob.

Gar hubob o`lsa o`ylakim gunbad,
Anda qilmas iqomat ahli xirad.

Gunbadekim yiqar nafas oni,
Kishi qilmoq nedur havas oni.

Uyki bir damda bo`lg`ay ul barbod,
Ani ne nav' el istagay obod.

Charx toqiki besutun o`lg`ay
Har nafas sayr ila nigun o`lg`ay.

Goh farsh o`rnig`a kelib arshi,
Goh arsh ustiga chiqib farshi.

Kimsa ne nav' etar bu uyda maqom,
Yo tutar bu maqom aro orom.

Muxtalif keldi charxi zangori,
Andin ortuq nujumi sayyori.

Qaysi sayyor, bal savobit ham,
Mutaharrik demayki, sobit ham.

Har biri lu'bate yasab o`zini,
Xira aylab o`ziga el ko`zini.

Bir shabistonda jilva aylab soz,
Falak ul la`blarg`a lu`batboz.

Lu`bati mahvashi sumanbar ham,
Shomdin zulfi mushku anbar ham.

Yuz tuman la`b oshkor aylab,
Olam ahlini beqaror aylab.

Angakim e'tiboru joh berib,
Falak avjida jilvagoh berib.

Taxti johi qilib baland sipehr,
Gird bolishti johi aylab mehr.

Ko`rguzub anda zebu oroyish,
Lek hir lahza bermay osoyish.

Zulm ila fe'li bozgun boshlab,
Charxdin oni sarnigun toshlab.

Kimki taxtin aning samog'a chekib,
Yerga urmoq uchun havog'a chekib.

Elki bu nav' alarni qildi band,
Yana tufrog' uzra qildi najand.

Sarbalandeki ho'yla qildi nigun,
Anga haddu qiyosdin afzun.

Elgakim berdi charx uza avrang,
Ne Kayumars qoldi, ne Hushang.

Qani Tahmurasu qani Jamshid?
Bordilar borcha dahrdin navmid.

Qani Zahhoku qani Afridun
Ki, borin qildi sarnigun gardun.

Qani ajdarni o'tturur Gushtosp,
Qani ganj elga bazl etar Kirshosp?

Qaydadur Kayqubodu Kaykovus,
Qani Kayxisravu Tahamtanu Tus?

Qani Doro, dog'i, qani Bahman,
Qani Asfandiyori ro'yintan?

Qani Iskandari jahonoro,
Qani Dorobu Ashk bin Doro?

Somkim adl qildi vird qani,
Mazhari zulm Yazdijird qani?

Qani Bahromshohi charxsarir
Ki, sarir ayladi sipehri asir?

Yetti iqlim mulkini oldi,
Yetti charx uzra masnadin soldi.

Yetti gunbad nechukki yetti sipehr,
Har biri ichra hure o'ylaki mehr.

Birisi birla bir kun oromi,
Lekin oromi dil-Diloromi.

Ayshlar soz ayladi payvast
Ki, salotindin elga bermadi dast.

Muncha kominki, berdi charxi kabud,
O'yla bir damda ayladi nobud

Ki, bo'lub dahr noumid andin,
Asare qolmadi padid andin.

Dedi ul lahza aql o'lub ojiz,
Go'yi Bahrom yo'q edi hargiz.

Shohlarkim, jahonpanoh edilar,
Bori olamg'a podshoh edilar.

Charxning ishvasozi tannozi
Borig'a berdi bu sifat hozi.

Necha kun chunki rishxand etti,
Marg domig'a poyband etti.

Qochmadi kimsa bandidin oning,
Chekmadi bosh kamandidin oning.

Senu men xudkim o'lg'abiz oxir
Ki, qo'lidin qutulg'abiz oxir.

Borchag'a chun adam sori yo'ldur,
Korvon ichra korvon uldur

Ki, burunkim cholinsa ko'si rahil,
Yo'l yarog'idin aylagay ta'jil.

O'zni olamdin aylab ozoda,
Andoq o'lg'ay safarg'a omoda

Ki, murodi aning xirom bo'lub,
Ko'yi maqsud sori gom bo'lub.

Bo'lubon do'st yodidin xandon,
Ko'rub o'ziga dahrni zindon

Ki, qachon marg va'dasi yetgay,
Ul yetardin burun bu azm yetgay.

Chun azimat qilurg'a topti vuquf,
Qilmag'ay o'zni bir zamon mavquf.

Ey Navoiy, safarg'a tayyor o'l,
Toki mumkindurur sabukbor o'l.

O'zlugungdek og'ir yuking yo'q bil,
Ul og'ir yukdin o'zni ayla yengil.

Chunki ul yukni o'zdin etting kam,
Do'st ko'yida bil burung'i qadam.

Balki ul yukni chunki salb etting,s
Qadaming ranja aylamay yetting.

Vatan ichra safar birovki demish,
Anga ta'vil go'yyo bu emish.

XXXVII

*Nozimning bu javohiri samin va bu laoliyi anjumoyin nazm silkiga
tortilg'ong'a kon qozor mashaqqatidin farog'at topqoni va osoyish
uyqusig'a ko'zin yopqoni va Shoh Bahrom xayoli tushda mutamassil
bo'lg'oni va bu tarix nazmi uchun uzrlar qo'lg'oni*

Lillahilhamdkim, yana iqbol
Kavkabi baxtim etti farruxfol.

Tolii sa'd yorliq qildi,
Qalamim durnisorliq qildi.

Yolg'uzun yo'qki, durri ummoniy,
Balki turluk javohiri koni.

Ul javohir nujumidin homun
Bo'ldi andoqki qullai gardun.

Men necha fikr ayladim o'zuma,
Ul javohir ko'runmadi ko'zuma.

Gavhari obdori jolacha ham,
La'lu yoquti bargi lolacha ham.

Baski har yon xirom etib edi chust,
Qalamim po'yadin bo'lub edi sust.

Payk yanglig'ki bo'lsa dashtnavard,
Tiyra aylar yuzini ter bila gard.

Da'viyi rost, gar gazof aylar,
Po'yada da'viyi masof aylar.

Qat' bo'ldi chu dasht paykori,
Oritur orazin havodori.

Men dag'i chun bu payki farruxpay
Qildi mundoq vase' dashtni tay.

Xasta xotirni zavqnok ettim,
Yuzidin gardu xayni pok ettim.

Topti chun qilg'on ishta baxshoyish,
«Necha kun, — dedim, — eting osoyish».

Manga ham tifli tab' hormish edi,
Baski ul payk birla bormish edi.

Ayladim hujra azmi tinmoq uchun,
Ko'zlarim uyqudin isinmoq uchun.

Bir kuhan bo'ryo firosch erdi,
Muttako go'sha uzra tosh erdi.

Bo'lg'och oromgohim ushbu firosch,
Uyqu istab qo'yuldi tosh uza bosh.

Uyqu etmay hanuz ko'zga nuzul,
Ko'ngul o'lmay xayoldin ma'zul,

Jilva qildi nazar fazosinda,
Navmu uyg'og'lig' arosinda,

Sho'ru g'avg'oda bir guruhi kasir
Boshlari uzra bir baland sarir.

Vaz'i ul taxtning musamman o'lub,
O'rtasida biravga maskan o'lub.

Boshida toji saltanat zohir,
Yuzida nuri ma'dalat bohir.

Yana ul taxti osmonsoya
Ki, anga bor edi sekiz poya.

Poyalar uzra erdi sekiz burj,
Har biri bir jamol durrig'a durj.

Durjlarda sekiz samin gavhar,
Burjlarda sekiz munir axtar.

Har birin bir quyosh nisheman etib,
Burjni aksi birla ravshan etib.

Manga ul taxt keldi o'truda,
Men ne uyg'oq edim, ne uyquda.

Mutahayyirki, ne misol erkin?
Manga bu tushmu yo xayol erkin

Ki, birav keldi ul tarafdin tez,
Dedi: «K-ey nuktago'yi sehrangez!

Qo'pu bir lahza ranja ayla qadam
Ki, tilar suhbatingni shah bir dam!»

Yana bir qiz ham ehtimom aylab,
Yetti ham bu zamon xirom aylab,

Surdi bu nukta sho'xi shiringo'
Ki: «Saloming dedi sekiz bonu,

Yettisi shohi komrong'a haram,
Biri mahbubu munisi hamdam».

Nutqini ayladi kalomovar,
O'ylakim burnog'i payomovar.

Dedim: «Ey iki nuktago'yi fasih,
Nutqunguzda xavosi nutqi Masih!

Manga avval bu shoh otini deng,
Yana sekiz pari sifatini deng!

To bilib ul sari qadam urayin,
Nukta sursam vuquf ila surayin».

Dedilar: «Xusravi baland maqom,
Yetti iqlim shohidur Bahrom.

Haram ahli yeti gulandomi,
Borisi dilbaru diloromi».

Bilgach ul so'zni shodmon o'ldum,
Qo'pubon ul taraf ravon o'ldum.

Chun yer o'ptum, shah istadi o'ziga,
Qadam urdum mute' o'lub so'ziga.

Surttum taxt poyasig'a jabin,
Oncha ko'rdumki, qo'pti taxtnishin.

Chekti og'ushig'a naxust meni,
Quchti takror birla rust meni.

Shoh birla, quchushquchi birla,
Xo'blar ham ilik uchi birla,

Qo'pubon chun ko'rushtilar mahjub,
Turubon yerga tikti ko'z har xub.

Shoh tutqoch qo'lumni o'lturdi,
Zarra qadrin quyoshqa tegurdi.

Necha dedim yerim emas bu makon,
Tushgali qo'ymoq o'lmadi imkon.

Bo'lmadi tushmak iztirob bila,
Sokin o'ldum tuman hijob bila.

Quyosh ollida zarradek betob,
Titrabon jismim o'ylakim simob.

Bo'ldi Doroyi kordon xomush,
Kirgucha tang'a tobu mag'zima hush.

Chun muni bildi shohi farzona,
Nukta og'oz qildi shohona:

K-ey bilik mulkin aylagan tasxir,
Nayzai kilik birla olamgir!

Chun chekib til saloyi nazm solib,
Dahr mulkin bu tig' birla olib.

Nazm kishvarsitoni ham sensen,
Balki sohibqironi ham sensen!

Keldi jonbaxsh nazminga avsof,
Kishi hayvon suyin demaklik sof.

Buki tariximiz bayon qilding,
Elga ahvolimiz ayon qilding.

Til aning vasfidin erur ojiz,
Sehr xud bor, agar emas mu'jiz.

O'zgalar ham yo'nub bu ishga qalam
Ayladilar bu dostonni raqam.

Safhani chun munaqqash ayladilar,
Yozdilar har nekim xush ayladilar.

Ne eshitganni aylabon tasdiq,
Qildilar nazm, aylamay tahqiq.

Ki, qalamzan qilur zamon tahrir,
Topmish erdi fasona ko'p tag'yir.

Chinu yolg'onni qildilar ma'lum,
Noma zimnida qildilar manzum.

Sanga navbat chu yetti sa'y etting,
Qissaning harf-harfig'a yetting.

Sidqu kizbida onchakim maqdur,
Sa'y etib noma aylading mastur.

Yana bukim, alar yozarda varaq,
Berdilar chun raqam ishiga nasaq.

Qissa ko'prak ekanni bilmadilar,
Yana istarga sa'y qilmadilar.

Biri nazm ichra har nekim qildi,
Anga yetganda o'zga ham qildi.

Bu jihatdin base g'arib umur,
Qoldi olam eli aro mastur.

Sen bu ishning payig'a chun hording,
Eski daftar base ko'p axtording.

Lojaram ko'p g'aroyib o'ldi ayon
Ki, bu afsona ichra topti bayon.

Yana bukim alar qilurda raqam,
Forsiyoni magarki erdi qalam

Ki, nekim kilk savti soldi sado
Forsiy lafz birla topti ado.

Forsiy bilgan ayladi idrok,
Lek mahrum qoldilar atrok.

Sen chu nazmingni turktoz etting,
Forsiy tildin ehtiroz etting.

Holiyo chun zamonda sultonlar,
Ko'pragi keldi taxmisaxonlar.

Dahr aro shah chu turk voqe'dur,
El aro turk lafzi shoye'dur.

Chun bu ma'nini aylading malhuz,
Turk ulus dog'i bo'ldilar mahzuz.

Men chu qildim vidoi dori g'urur,
Iki ming yil qilib sipehr murur.

Aytting muncha doston mendin,
Solding el ichra ko'p nishon mendin.

Otima o'chmish erdi ovoza,
Ani yang boshtin aylading toza.

Bo'lsa erdi mening chog'imda bu ish,
Ganjlar aylagay edim baxshish.

Toki tushti mening qo'lumg'a jahon,
Qilmadim yer tubida ganj nihon.

Har ne ilgimga tushti sarf ettim,
Shohi darvesh dahrudin kettim.

Ganj qo'ysam edi Faridundek,
Naqdlar ko'msam erdi Qorundek.

Manga rohat yetib bu chog' andin,
Sanga bergay edim so'rog' andin.

Shohlarkim ko'rub zamonada ranj,
Yer tubida qo'yarlar ermish ganj.

Anda ham bu sifat jihatlar emish,
Bo'yla po'shida maslahatlar emish.

Odami bo'lmadi chu olimi g'ayb,
Manga bu ish ko'runur erdi ayb.

Garchi sendin base xijldurmen,
Shukrung ayturda munfaldurmen.

Ko'nglum ar asru bas mushavvashdur,
Ikki ishdin valek base xushdur:

Biri bukim, bu nav' derlar xayl
Ki, sanga yo'q emish jahon sari mayl.

Dahr ishidin malolating bor emish,
Johidin sa'b holating bor emish.

Yo'q emish johi sori parvoying,
Molidin mujtanib emish roying.

Har nekim, dahr moli topsa vujud,
Ko'zung ollida bor emish mardud.

Nimakim xotiringg'a dilkash emas,
Sanga qilmoq ruju' ani xush emas.

Yana bir buki davrai aflok,
Gar vujudumni qildi to'dai xok.

Anga ham yetti sarsari bedod,
O'ylakim berdi borhasin barbod.

Qolmadi olam ichra osorim,
Tutti yo'q hukmini – yo'qu borim,

Lek shoheki shahnishon bo'lg'ay,
Kafi ehsoni durfishon bo'lg'ay

Ki, jahon ahli sarfaroqidur,
Emdi olamda Shohi G'oziydur.

Shoh Sulton Husayni charxsarir
Ki, anga yo'q jahon elinda nazir.

Ra'yi ollinda nayyiri a'zam,
Quyosh ollinda zarradin ham kam.

Qadri qoshida gunbadi mino,
Charxi mino qoshida misli Suho.

Sifati vasfidin chu keldi fuzun,
Ko'p deyilsa, fasona bo'lg'ay uzun.

Sen angakim bu dam mulozimsen,
Jon bila qullug'ig'a jozimsen.

Garchi shohedurur jahondovar
Ki, anga borcha ishda Haq yovar.

Shohlarkim, jahon aro edilar,
Dahr mulkiga kadxudo edilar.

Misli Jamshed yo Faridun ham,
Yo Skandar, yo'q ersa Horun ham.

Borchadin bordurur nishon anda,
Ko'rguzub baxt komron anda.

Borig'a garchi bor mushobahati,
Manga ko'proqdurur munosabati.

Biri ul jumladin shijoatdur,
Shahg'a bu ish ulug' bizoatdur.

Manga shahlikda berdi bu ish dast
Ki, qo'lumni chu qildi hodisa past.

Qildi xoqoni Chin diyorima azm,
Istاديم ro'boro'y qilmoq razm.

Sipahim bevafofig' ayladilar,
Borcha mendin judolig' ayladilar.

Mutahayyir bo'lub bu suratdin,
O'zni chektim yiroq zaruratdin.

Anga bordi elu sipohim ham,
Qo'lig'a tushti taxtu johim ham.

Ul bori olam uzra shoh o'ldi,
Manga har yer gurezgoh o'ldi.

Oqibat baxtning hidoyatidin,
Baxt yo'q, Tengrining inoyatidin.

Oz kishi birla ustiga surdum,
Anga barvaqt o'zumni yetkurdum

Ki, ul etguncha razm uchun big'im,
Uchurib erdi boshini tig'im.

Yana olam sarosar o'ldi manga,
Rub'i maskun musaxxar o'ldi manga.

Shohi G'ozig'a ham bu hol o'lmish
Kim, chu mulkiga intiqol o'lmish.

Charxdin uyqug'a qolib baxti,
Tushmish a'dosi ilgiga taxti.

Cheriki ham qo'yub adusig'a yuz,
O'zi qolg'onda bekasu yolg'uz.

Oz kishi birla bir taraf ketmish,
Xasmi boshig'a ilg'abon yetmish.

Iyolab toju mulku maskanini,
Topmish o'z komi birla dushmanini.

Qonidin tig'in aylabon gulrang,
Lolagun mayg'a aylamish ohang.

Chun bu ish dushmanig'a ko'rguzmish,
Mening o'lgan otimni tirguzmish.

Lek insof agar aroda durur,
Mendin oning ishi ziyoda durur

Ki, men ettim ul ish biyobonda,
Lekin ul shahr birla qo'rg'onda.

Yana ulkim, Xavarnaqe yasadim,
Dahr bog'ig'a ravnaqe yasadim.

Ne Xavarnaq – Eram gulistoni,
Ne Eram, balki ravza bo'stoni.

Anga dog'i bu kom bo'ldi nasib,
Dahr aro bog'e ayladi tartib.

Tufrog'i mushku anbari soro,
Oti olam aro Jahonoro.

Jannatoso harimu bo'stoni,
Yuz Xavarnaqcha bir gulistoni.

Yana bir buki, ayladim yeti qasr,
Har biri o'z chog'ida ziynati asr.

Chamanosoki, hor anga bir bog'.
Ravza bog'ig'a hasratidin dog'.

Anda o'n qasr, balki ortuq ham,
Yasamish o'ylakim riyози Eram.

Yana ulkim, manga bu berdi dast
Ki, ko'ngul saltanat aro payvast.

Mayl etib aysh ila tarona sori,
Boqmadim ganj ila xizona sori.

Ul dag'i aysh sori moyildur,
Nag'mau savt birla xushdildur.

Manga bo'lsa xizona gar nobud,
Anga yo'qtur xizona xud mavjud.

Bo'yla shoheki muncha holoti,
Turfa vaz'u ajab xayoloti.

Shahlar ichra manga erur monand,
Dey olurman – erur manga farzand

Ki, jahon shahlarig'a shoh o'lsun,
To qiyomat jahonpanoh o'lsun.

Senki ollinda bir kamin qulsen,
Bog'ida xushtarona bulbulsen.

Qilmog'ing ulcha muddaosi erur,
Kecha-kunduz ishing duosi erur.

G'arazing buki, umri o'lg'ay uzun,
Davlati dog'i lahza-lahza fuzun.

Garchi har ishta Tengridur yori,
Yo'qki men ham eman xabardori.

Ul chu farzand erur manga hosil,
Ruhum andin emas durur g'ofil.

Qaysi sa'b ish sariki yuz keturur,
Anga ruhum base madad yeturur.

Sanga chun hor aning murodi – murod,
Men murodig'a aylasam imdod.

Go'yiyo bo'yla hukm etar xiradim
Ki, sanga ham yetar emish madadim.

Alloh-Alloh, bu ne degan bo'lg'ay,
Tengri uzrunni ham magar qo'lg'ay.

Menki bazlu saxoda otlig'men.
Bo'lsa yuz muncha ham uyotlig'men.

Emdi shohing'ga de salomimni,
So'ngra mundoq yetur payomimni

Ki, jahon kimsaga vafo qilmas,
Shohlig' tarkiga kiro qilmas.

Shahki ming yil aning hayotidur,
G'araz: o'lganda yaxshi otidur.

Ming yil o'lsa hayot maddig'a pech,
Ul zamonkim o'lar, erur bari hech.

Yaxshilik birla gar qolur oti,
Bu erur mujibi mubohoti.

Senki mustahsan o'tti avqoting,
Yaxshiliqqa chiqibdurur oting.

Ming yil ummid erurki qolg'aysen,
Yaxshi ot-o'q jahong'a solg'aysen».

Shoh chun so'zni mundog' etti tamom,
Ul sekiz sarv qaddu siymandom

Ham qo'pub hamd ila sano dedilar,
Mahdi ulyog'a ko'p duo dedilar.

Men qabul aylabon dedim: dey so'z
Kim, og'izdin burun ochildi ko'z.

Ko'z ochib angladim tush ermish bu,
Ko'z yumub istadim yana uyqu.

Jahd ila garchi topmadim oni,
Lek ko'p yetti fayzi ruhoniy.

Dovaro, xisravo, falak joho,
Sarfarozo, shaho, shahanshoho!

Nekim erdi nidoyi Bahromi,
Rahi etti adoyi payg'omi.

Sanga ul har ne pandkim berdi,
Demaki, ehtiyoj emas erdi

Ki, anga har nekim iroda durur.
Senda yuz onchadin ziyodadurur.

To qilur charx gunbadi davvor,
Aks etar sayr sab'ai sayyor.

Yetti ko'kni Haq aylasun pasting,
Yetti kavkabni ham furo'dasting.

Falak ustida taxtu johing ham,
Falak etgan bino panohing ham!

XXXVIII

*So'z g'oyati va nazm nihoyati va g'oyatsiz xijolat izhori va nihoyatsiz
jur'at e'tizori va o'qur elga nasoyihi sanoyih o'qumoq va bitir xaylg'a
mavoiz ajzosi bitmak va tarixining tabyini va abyoti adadining ta'yini*

Chun manga fayzi fazli Rabboni
Ro'zi etti bu turfa inshoni.

Fayzi qudsidin ihtimom o'ldi
Ki, bu daftarg'a ixtitom o'ldi.

O'z ishimda tafakkur erdi manga,
Ne tafakkur, tahayyur erdi manga

Ki, necha safhani qaro qildim,
Bir necha sharhi mojaro qildim.

Surubon rokibi bayon asru,
Kilkim o'ldi sabukinon asru.

Yo'l yururga o'zumni chun tuttum,
Yetti bu nav' aqbadin o'ttum.

Ne yeti aqba, yetti manzili biym,
Biymdin esmay ul damang'a nasim.

Yetti ko'kning balo makoni ul,
Rustami Zol haftxonni ul.

Har nechuk bo'lsa garchi qat' ettim,
Balki maqsad harimig'a yettim.

Garchi yuzlandi bo'yla multamase,
Xotirimda taraddud erdi base

Ki, necha nazm sust yo soda,
Chun erur kimsa tab'ig'a zoda.

Zodai tab' elga xush ko'runur,
O'g'li zangiga hurvash ko'runur.

She'r ham chun kishigadur farzand,
Ko'ngliga qutu bag'rig'a payvand.

Zisht esa qoyili ko'rar ani xo'b,
Elga mardud erur, anga marg'ub.

Bas bu bir necha biki subhgahi
Ki, manga aybdin ko'rundi tihi.

Chun o'g'ul aybini ato ko'rmas,
Ko'rsa ham qilg'onin xato ko'rmas.

Voqean yaxshi yo yomonmu ekin,
Dilrabo, yo'qsa jonsitonmu ekin?

Yaxshilik birla bo'lsa gar shoye',
Bo'lmag'ay ranju mehnatim zoye'.

Ganj ummididin ulki ko'rgay ranj,
Ranji zoye' emas chu topqay ganj.

Gar yomon bo'lsa muncha pecho-pech,
Ranju mehnatki, chektim o'lg'ay hech.

Kishidekkim, haramg'a azm etgay,
Umr etib sarf dayr aro yetgay.

Gar ko'zumga mening g'ubori yo'q,
Bu nazarning ko'p e'tibori yo'q.

El o'kardin ko'ngulni shod etmon
Ki, xushomadg'a e'timod etmon.

Ko'nglumga asru xorxor erdi,
Xorxorim hamesha bor erdi.

Meni giryon etib bu surati hol
Kim, kulub kirdi hujrama iqbol,

Dedi: «K-ey durfishonu gavharposh,
Durru gavhar kibi nedur sanga yosh?»

Bu javohir so'zung aro basdur,
Ko'z aro ehtiyoj ermasdur.

Sanga bu holkim erur hodis,
Manga dekim, nedur anga bois?»

Chun ko'rub ul sifat yomon holim,
So'rdi holim xujasta iqbolim.

Ul so'rushtin manga nishot o'ldi,
Xasta ko'nglumga inbisot o'ldi.

Har ne ko'nglumda erdi naqshpazir
Ki, menga erdi mujibi tag'yir.

Zohir etmakni ixtiyor ettim,
Borin ollinda oshkor ettim.

Dedikim: «Ey ulusda nodiru fard!
Bo'lmasun xotiring alamparvard!

O'zni mehnatqa solg'on ermishsen,
Bul'ajab g'amg'a qoig'on ermishsen.

Bu ne andeshai xato bo'lg'ay?
Senu mundoq xato ravo bo'lg'ay?

Kim quyosh nurini nihon qildi?
Badrni mis tabaq gumon qildi?

Garchi dahr ahli hiylasoz o'lg'ay,
Yomoni ko'pu yaxshi oz o'lg'ay.

Lek kunduzni deguchi kechadur,
Bilsa ho'lg'ayki, dahr aro nechadur?

Shabparak birla bum qilsa bu zo'r.
Yuz tuman turfa qush emas xud ko'r.

Gar zumurraddin o'lsa ko'r af'i,
Ham zumurrad qilur aning daf'i.

Gul isi gar jual balosidur,
Hamul is-o'q aning vabosidur.

Andin o'tmish kalominga poya
Ki, degay nukta har furo'moya.

E'tiroz ulki ham tavahhum etar,
Ayturida oyog'-ilik gum etar.

Chun xavos ollida kiromiydur,
Ne desa g'am yo'q, ulki omiydur.

Tog' ilakim kesak qilur novard,
Chiqorur urg'och-o'q o'zidin gard.

Xas agar o't bila sitez aylar,
Ham o'zidin ul o'tni tez aylar.

Asru mashhurdurur bu so'zda bali:
«It urar, korvon kechar» masali.

Kelu mundin nori taabni unut,
O'zni bu fikrdin muarro tut.

Sen o'zungni tonimas ermishsen,
O'z so'zungni tonimas ermishsen.

Ro'd yanglig' necha fig'onu xuro'sh?
Bahr o'lub aylagil o'zungni xamo'sh!»

Chun eshittim bu nukta shod o'ldum,
Bahrdek muhtasham nihod o'ldum.

Tushti bu bahr uzra andoq mavj
Ki, aning mavji tutti charx uza avj.

Tab'din munchakim duri serob,
Borchag'a mehrdek safo bila tob.

Bahrdin toshqori berib erdim,
Bu safina aro terib erdim.

Chekib erdim nazm silkiga ham,
Lek xotirda erdi muncha alam

Ki, bu durlarki ayladim manzum,
Filhaqiqat emas sanga ma'lum

Ki, nechukkim men ayladim idrok,
Bormudur elga dog'i sofiyu pok?

Emdikim xotir o'ldi andin jam',
Har biri yoqti tiyra kulbama sham'.

Yonibon ko'shishi tamom bila,
Borig'a boqtim ehtimom bila.

Garchi nazmi topib edi tarkib,
Borcha vaz'ida yo'q edi tartib.

Chun nazar tahtida zuhur etti,
Ne kerak erdi borchag'a yetti

Ki, biror bayt beshu kam bo'ldi,
Gar kam o'ldi fuzuda ham bo'ldi

Ki, birar lafzg'a berib tag'yir,
Biri kam bo'lsa, ortti yona bir.

Bo'lub islohning raqamzadasi,
Yetti itmomg'a musavvadasi.

Men demasmen ne ayladim marqum
Kim raqamg'a boqar qilur ma'lum.

Har kishikim, o'qurda bu noma,
Tab'ig'a garm bo'lsa hangoma.

Neki men qilmisham nazar etsa,
Yuzidin gar birisiga yetsa.

Tab'i gar sofu zihni pok o'lg'ay,
Shak emasturki zavqnok o'lg'ay.

Anda shoyadki, aylabon tahsin,
Anga qilg'ay duoni dog'i qarın.

Yo Rab, andoq kishiga rahmat qil!
Oxir oromgohi jannat qil.

Topmag'on tab'i poku xotiri sof
Ki, aning da'bi bo'lmag'ay insof.

Qatracha durdin olmasa bahra,
Desa, firuza ko'rsa, xarmuhra.

Anga oyini da'bu insof et,
Ko'nglini poku xotirin sof et!

Ulki tahsin etar vale bilmay,
O'qug'on nukta darkini qilmay.

So'zi gar yaxshi, gar gazofdurur,
Har nekim ul desa maofdurur.

Yana kotibki tez etib xoma,
Istagay naqsh qilsa bu noma.

Neki men yozdim uyla sursa qalam,
Ne raqam qildim oni qilsa raqam.

Baytlarda taxalluf aylamasa,
Lafzlarda tasarruf aylamasa.

Oq o'lub anga nomai a'mol,
Tushsun ilgiga xomai iqbol.

Kimki yozmoqta muzd qildi havas,
Borcha maqsudi muzd bo'lsayu bas,

Qora pul uzra mojaru qilsa,
Yuzidek safhani qaro qilsa.

«Ko'z» uza nuqta qo'ymay aylab zo'r,
Mardumi bo'lmag'ondek aylasa, «ko'r».

«G'ayb»din nuqtai yo'nub amado,
Xat aro «ayb» aylasa paydo.

Xomasig'a ko'zi midod o'lsun,
Ul qarodin anga savod o'lsun.

Tili shaq bo'lsun o'ylakim xoma,
Orazi tiyra o'ylakim noma.

Bu yeti zarnigor oliy qasr
Kim, yana yo'q alar misoli qasr

Ki, bu kishvarda ayladim ma'mur
Ki, yeti qasr ichindadur yeti hur.

Sayr birla nishot etib Bahrom,
Bo'lubon har birisida bir shom.

Shom chun obnusi aylab oj,
Ul bo'lur erdi uyqug'a muhtoj.

Bir musofir der edi afsona,
Topqoli uyqu shohi farzona.

Lutf hu nazm aro bag'oyatdur,
G'araz ammo yeti hikoyatdur.

Chunki qoyil yeti musofir edi
Ki, alar sayr ishiga mohir edi.

Bo'ldi chun bu raqam ishi tayyor,
Qo'ydim otini «Sab'ai sayyor».

Tortqonda bu turfa savtu maddin,
Bayti besh mingga tortti addin.

Manga ayyomi garchi yod ermas,
Lek to'rt oydin ziyod ermas.

Bo'lsam o'zga umurdin emin,
Bor edi to'rt hafta ham mumkin

Ki, yozilg'oy edi bu nazm ravon,
Balki bu noma boshig'a unvon.

Chun nihoyatsiz erdi ashg'olim,
Kasrati shug'ldin yomon holim.

O'tub avqotim el gazofi bila,
Chinu yolg'on so'z ixtilofi bila.

Yo'q kunu kecha xo'rdu xob manga,
Kecha g'am, kunduz iztirob manga.

El g'ulusi qilib meni mabhut,
G'am ko'ngulga g'izou jonima qut.

Buyla ahvol ila meni mazlum,
Muncha fursatda qilg'onim manzum.

Yaxshi gar bo'lmasa, yomon ham emas,
Yomonin kimki yaxshi bo'lsa demas.

Lek jam'iki surdilar bu raqam
Kim, haq ursun xatolarig'a qalam.

Ishlari g'ayri so'z demak yo'q edi,
Balki demaklari bu so'z-o'q edi.

Manga fursat qilurda bu tahrir,
Yo'q alar birla tengki, ushri ashir.

Toliim gar muyassar etgay edi,
Ulcha kilkim musavvar etgay edi.

Desa bo'lg'ayki, charx atboqi,
Bo'lsalar erdi nazmim avroqi,

Raqami nazmi dilkash etgay edim,
Nukta birla munaqqash etgay edim.



Bahrom oltin qasrda.

Muncha mehnat aro bu fursat ila,
Muncha fursat aro bu mehnat ila.

Bu raqamniki, ayladim mastur,
Joyi ul borki, tutsalar ma'zur.

Kel Navoiy, fasonani qil bas
Kim, emishsen ajab daroznafas!

Yo Rab, ushbu hadisi pecho-pech
Ki, raqam torttim toriqmay hech.

So'zni gar tuz dedim vagar ozdim,
Neki taqdir aylading yozdim.

Kilk o'lurda varaqnigor manga,
Qayda bor erdi ixtiyor manga?

Har ne kilkim varaqqa yozdi bu kun,
Kilki taqdir yozmish erdi burun.

Yozg'onim xo'b, yo'qsa zisht o'ldi,
Manga naylay? Bu sarnavisht o'ldi.

Neki yozding ani raqam qildim,
Shak emasdurki, sahv ham qildim.

Rostqa lutfdin raqam chekkil,
Sahvuma afv ila qalam chekkil.

Deganimni ulusqa marg'ub et!
Yozg'onimni ko'ngulga mahjub et!

Tilga lafzini noguzir ayla,
Jong'a nazmini dilpazir ayla!

Garchi tarixi erdi sekkiz yuz
Sekson o'tmish edi yana to'qquz.

Oyi oning jumodiyussoniy,
Panjshanba yozildi unvoni.

Varaq satrin aylabon ta'yin,
Baytini besh ming ayladim taxmin.

Xalqqa zebi torak ayla ani!
O'qug'ong'a muborak ayla ani!

Yetti aflokni anga yor et!
Yetti iqlim elin xaridor et!

I

Sening ta'rifingni qilishga el tili ojizdir, chunki sen insondek zotni yaratding. Sen insonga til berib uni nutq bilan farqlading va jasadiga qalb jo etib uni aql bilan bezading va boshqalardan afzal etting

Osmon sen tufayli sayr etuvchi, yer esa osoyishta, falakdagi Bahrom g'azabnok, Zuhraning Diloromi esa, chang chaluvchidir. Sen dahrning bunyodini qilayotganingda ko'k samoni yetti gumbaz bilan yaratding. Yaratuvchiliging tufayli bu yetti osmono'par qasrlar vujudga kelib, ular yulduz gavharlari bilan bezandi. Yetti qasrda yetti donishmand sening hikmatlaring to'g'risida afsonalar aytmoqdalar. Bu yetti afsonaning barchasi dilband bo'lib, ular bir-birlariga o'xshamaydi. Yetti gumbazning rangi ko'k bo'lgani bilan yetti afsona turli-tuman ranglar bilan bezatilgan. Sen yetti falakni baland aylash bilan birga bu tuproq qorong'u markazini past qilding. Bular yetti falak emas, balki yetti lagandir, har birining ichida nur taratuvchi sham bor. Har laganda kechasi yonib turuvchi gavharmisol yulduzlar mavjuddir. Ularning har biri o'ziga xos xosiyatga ega bo'lib, ranglari ham mohiyatan turlichadir. Sen yer yuzini yetti qismga bo'lib, uning har birini bir iqlimga mansub etting. U yetti yulduz jahon kezadi, jahon emas, balki osmonni kezib yuradi. Ular suv tepasida uchayotgan kumushrang qushday yetti ko'kda kezadilar. Ularning har biri paydo bo'lishi bilan yetti iqlimning har biriga nur taraladi. Sening rahmatingdan nur olgan ularning har biri bir xonadonni shamday yoritib turadi. Yo'q, bular sham emas, to'g'rirog'i, o'ynaydigan raqqosalardir, ularning har biri haftaning bir kuni bilan bog'langan bo'lib, kunduzi yashiringan guldek bo'lsa, kechasi ikki haftalik oydek bo'lib ko'rinadilar. Hafta, oyu yilni sen tez o'tkarding. Umr ila ularning ishlarini achchiq qilding. Bog'larning ochilmog'i va gullarning sochilmog'i ularning harakatiga bog'liqdir. Charxning tungi va kunduzgi qora va bo'z otlari kechayu kunduz shitobu iztirob bilan chopib ko'kka jahon elining gardini yetkazadilar, tufrog'i bilan tanini ham eltadilar.

Sen yo'q odamni bor etib insonga e'tibor qilding. Uni bor qilish ham, yo'q qilish ham senga xosdir. Haqning bu ishlariga bandaning aqli ojizlik qiladi. Yo'qlikni mavjud aylamoq va mavjudotni nobud aylamoqni nimadanligini inson bilmaydi. U avval yaratilib, so'ngra yo'q etilayotgan narsalarni ko'rib aqli lol, ularning har biri ilohiy hikmat tufayli ekanligidan hayratda.

Ko'r quyoshning yorug' ekanligini bilmaydi, ko'rshapalakning kunduz kuni uchishi esa, ajablanarlidir. Boyo'g'li yashirinib olgan joyidan kechasi uchishi hammaga ma'lum. U qorong'ulikning siridir. Kunduzi nurli quyosh uni ko'r qiladi.

Sen-sen o'sha bebadal va mehrgiyo azaliy tong. Sening nuring paydo bo'lishi bilan qorong'u tundagi yuzi go'zal oy ko'rinadi, yo'qlik dunyosida pinhon bo'lgan ahli jahon va jahonning barchasi mavjudlik libosini kiyadilar, yuz minglab bo'stonning sarvlari paydo bo'lib, lola, sunbul, nargis, suman, binafsha kabi gullar yo'qlik uyqusidan uyg'onib, bog' ruxsorida ko'karib, kechayu kunduz bahor shabadasida atrofga xushbo'y hid taratib, rango-rang go'zal manzaralarni vujudga keltiradi.

Yoqimli shabada esib sumandan gul bog'iga kumush sochdi, uning zulfiga xushbo'y binafsha to'kib, hidini dimog'iga yetkazdi.

Yog'ayotgan do'ldan uning jismi bukildi va zarbidan uning tani ko'kardi. Suv yoqasiga shabnam tushdi. Bu yoqa tugmasi o'sha durga o'xshagandir. Jilva qilayotgan go'zal bo'ston doston to'qidi, o'tdan o'sma yasadi. loladan upa-elik, zilol suvdan ravshan ko'zgu yasab uning gul chehrasi qarshisiga tutdi. Gulga jozibali husnu jamol berib, bulbulni unga oshuftahol qildi. Unisi borgan sari toblanib yashnasa, bunisining ishqdagi iztirobi tobora ortib bordi. Biri fig'onidan nola aylasa, ikkinchisi jamolining o'ti bilan uni tezlaydi.

Unisi jilva qilsa, bunisi unga shaydo, natijada jahonda ishq paydo. Biri oshiqu biri ma'shuq bo'lib, biri otashinu biri yonib-kuygan. Ishaq oshiqni yonib-kuyishga majbur etsa, ma'shuqning jonig'a o't soladi. Bulbul bilan gul – bular bahona xalos, aslida bu voqealar sening dostonlaringdir. Bularning har ikkalasi ham nobud bo'ldilar, sen esa, hamon mavjudsen, balki hamon vujudliq sarchashmasi bo'lib kelmoqdasen. Ishaq sening o'zing, oshiq ham sen-sen, sevilmoq loyiqi ham sen-sen. Jilvali zot ayni ma'shuqlikda o'zini ko'rish uchun ko'zgu tilaydi, sening husning esa, har bir daqiqada o'zga surat kasb etib ko'zguna qayta-qayta zarurat uyg'otadi. Husn ichra qancha jilvalar paydo bo'lsa, shuncha ko'zgu sohibi yuzaga keladi. Sening husning koinotda ko'p sifatlar ichra namoyondir. Ular o'z jamolining ko'rinishlariga ovunib, yashiringan liboslarda voqe bo'ladi. O'zingga o'zingni oshiq qilib, o'zingni o'z husning bilan halok aylaysan, yashinday husning javharday yonib turganida, o'zga ana shu yashin o'tidan yonib ketadi. Uning kulini fano yeli yo'qlikka olib ketgach, undan iz ham qolmaydi. Sen borsen, sendan o'zga hech narsa yo'q, agar ko'rinsa ham unda sen mavjudsen. Hech narsa yo'q edi, sen mavjud etting. Sen barhayot zotsen, qolganlari nobudlikka mahkumdir. Zoting vasfiga qalam ojizdir, sening vujudingda yo'qlikdan asar ham yo'q.

II

Munojot shul xususdakim, tangrining o'zi aynan mavjud va undan o'zga barcha narsalar nobud yoki nomavjuddir. Hojatlar izhori shu

ma'nodaki, nobudlar gunohi uning dengizday rahmati oldida qanday vujud topqay va novujudlar xatosi uning daryoday vujudi oldida qanday qilib mavjud bo'lgay

Ey xudovandlar xudovandi, xudolikda senga teng kimsa yo'q. Ulug'likda kimki ulug' bo'lsa, undan ham ulug'san. Buyukliging oldida quyosh ham zarradek ekanligi ravshandir. Yaratuvchilikka bayroq tortilganida tug' yozuv taxtasi bo'lib, qalam uning ustuni bo'ldi. Qalamingga kechasi osmonda bir lojuvard siyohdon paydo bo'ldi. Taxtangda hali biror yozuv bo'lmasa-da, unda hammaga hali ma'lum bo'lmagan narsalar yozilgan edi. Sening qudrating oldida falakning qadriyati, sarsar shamoli esganida hosil bo'ladigan suv yuzasidagi olti-yetti pufakchalardekdir. Nimaiki maxluq nomini o'z ichiga olgan bo'lsa, ularni sen yaratding, ular esa yaratilganlardir. Dahr bunyodining yaratuvchisisen, odamning bunyodkori ham mutlaq o'zingsen. Birini butga sajda qildirib, butparast etding va but ichra o'z husningni namoyon etib, husn bilan uni mag'rurlantirding, birini ertayu kech quyoshga ibodat qildirib quyoshga sig'inuvchi qilding va unda ham sening husning ziyosi falakda zarradek parvoz etib, yuzlab ranglarda aks etib shu'lalar taratadi va shu tufayli otashparastlar o'zlarini o'tida kuydiradilar. Sen gulni o'z husningda namoyon qilib, uning o'tida bulbulni o'rtaysen, sham o'tida kapalak kuyganida ham sening ishqingdagi devonalik zohir bo'ladi. Sen ibodat elining ma'budi va ishq elining maqsadisen. Kimki itoat qilsa uning xudosisen, kimki xiyonat qilsa uning halosisen. Har bir suratda ko'rinadigan jilvagarsen, yo'q, faqat jilvagargina emas, surat ham sen. Hech bir ilohiy kuchning qudrati unga teng kelolmasligi tufayli xalq «La iloha illollohi», ya'ni «Allohdan boshqa ilohiyat yo'q», — dedi. U — azaldan bor, yagonalikda buyuk rahmondir. U — qudrat egasi, men esa boshdinoyoq gunohkor bir handaman. U — tepamdagi yaratuvchi, uning oldida manmanlik qilish hayosizlikdir. Uning tuprog'i oyoq ostida past bo'lsa-da, lekin jabr-zulm chog'ida osmondaydir. Toat vaqtida men xasta chumolidaymen, isyon paytida esa vahshiy sherdekmen, bahaybat fildek zo'r nafsimdan va pashshadek ninjon ko'nglimdan gumondamen. Men o'zimni go'yo shu fil oyog'iga yiqilib, u meni poymol qilib tashlagudek sezaman. Fil oldida majruh chumoli ne degan gap, uni fil oyoqosti qilib tashlaydi. Buzuq fe'lim meni shunday ojiz etgan bo'lsa, mening gunohim nima, sening xohishing shunday edi-ku! Agar nafs binosiga asir bo'lgan bo'lsam, men netay? Axir bunday taqdirni menga sen ato etding! Egriligim ham sen tufaylidir, axir qanday qilib o'zimni to'g'ri qila olaman, chunki yaxshilik qilmoqqa menda na yo'l bor, yomonlik qilmoqqa na ixtiyor bor. Sen, agar meni yomon qilsang, buning haddi yo'q, ammo yaxshi qilish ham sening amring bilandir. Menga yaxshilik qil, chunki men sening notavoningman. Bu yomoningga ehson qilib, uni yaxshi qilish senga oson bo'lsa kerak. Mening qo'limdan ne kelardiki, senga unday qil, bunday qil deb aytayapman. Istagingda nimaiki bo'lsa shuni qil! Lekin yaxshilik, lutfinoyat ko'rsatishda senga had yo'q. Karaming xazinasi yuz jahon chog'liqdir. Fazilating ming osmon kabidir. Men esa, bir gadoyi

mazlum — har narsadan mahrum bandaman. Lekin berguvchining in'omi — bepoyon, uning tortiqlari bitmas-tuganmas xazinadir. Tilamchilik gadoning shioridir, meniki esa zarurat tufaylidir. Nimaiki talab qilsam, albatta ixtiyor menda emas, lekin Parvardigorim saxovat egasidir. Yo Rab, men devonaning fig'oniga yetib o'z karaming bilan xatolarimdan kech. Menda jahon-jahon gunoh bor, lekin sendek panohim ham bor. Yuz jahon aybim bo'lsa ham ne ajab, ular sening afving dengizida bir xasdaydir. Mening tanim bu olamga asir bo'lganidan beri ruh to'tisiga badanim qafas bo'ldi. Mening xayolimni o'sha tomonga moyil et, men o'z yukimni senga yetkazay. Bu gadoyingning qanday maqsadlari bo'lsa, unga rizolik bilan madad ber! Bu xasta ko'nglim ishiga ko'mak qil, talabing dardini esa unga darmon et! Nafasim mohiyati hayotdir, yozuvim najot yo'lidir. Ushbu jannatni men ma'mur qilib, unda katta dilkash qasr bunyod etdim, har biriga bittadan yetti go'zal mahvashni joyladim. Qasrlarni nazarda marg'ub qilib hurlarni ko'ngilga yoqimli et! Uning shuhratini olamga yoyib, olam ahlini ularga paydo qil! O'quvchilar ko'ngliga ravshanlik berib, o'qiganlarning duosini menga yetkazgil! Jon qushi jismdan parvoz qilib sadra soyi tomon navo qilsa va uning unsur bo'laklari xokda yashab tufroq, o't, suv va yelga yaqin bo'lsa, ularning oralarida ayriliq voqe bo'ladi, har biri o'z asliga qaytadi. Ana o'sha zamon men lutf bilan qo'limni qo'linga qo'yaman. Sen mani o'z huzuringga yo'lla! Mening har qancha gunohim bo'lsa ham o'z habibing sifatida meni nobud qil!

III

Ul elchilik panohining shohi na'tidakim, lavlok bayrog'i uning alifi, fasohat bilan aytsam, davlati lashkariga u hayroq bo'ldi, «to» bilan «g'ayn»ining tug'yoni va «ro»sining asiri uning barqarorligiga hujjat va ikki olam saltanatiga ravshan, uning quyosh yuzi esa elchilik bilan bezangandir

Ey jalolat va ikrom sohibi rasululloh! Senga mingdan-ming salom! Asli Qurayshiy, yeri Abtahi edi, mazhabi hoshimiy, manzili esa Yasrib edi. Ul quyoshni arabcha zeb qilib, uni arablar uchun ko'z qorachig'i qilding. Quyoshing chiqishi bilan u ikki jahonini nurga to'ldirdi. Bu jahonning qorong'iligini yo'q qilib, u jahon ahliga hayot baxsh etdi. Alloh-alloh, bu qanday ulug' nur! Bunday narsa hali yaratilmagan edi. Ketim yo'qlik qorong'i edi, uni ravshan etgan chirog' mana shu nur bo'ldi. Qanday ajoyib bu quyoshkim, jahondagi zulmatni yo'q qildi! Seni esa, Tangri tengi yo'q, latofatda mislsiz qilib yaratdi. Sening ham ko'rining bo'lmaganligi sababli, sen ham qorong'ilikni rad etting. Undan sening qadding or qildi, shuning uchun ham soya yer uzra xoksor bo'ldi. Sening ko'lankang tuproqning aybini topganda edi, uning darajasi falakdin ortiq, martahang esa Zuhul (Saturn) yulduzidan, ziyoratgohing falakning to'qqiz ayvonidan ham baland bo'lur edi. O'sha kecha sen tug'ilgach, iqbol yulduzlari porlamoqda edi. Tun butun jahonni o'zining nozik pardasi bilan yopib turganida

olam oftobi porladi. Bu ulug' nur ajoyib ravishda jilvalanib Makkani yorib kirdi. Uning yorug'ligidan yetti ko'kning ayvonigina emas, balki Madinaning minorayu gumbazlari, quyosh o'z nurini taratayotganda gumbaz yuzi qanday yaltirab tursa, shunday ravshan ko'rinib turardi. Bu nur «Lot» bilan Uzzani¹ ham shikastlab, ularni, qorong'u yerga tushirdi. Ularning ostinu ustun bo'lishi sening zoting tufaylidir. Bosh egishlik ham sening xijolating sababidandir. Sen oddiy kishini ulug'lab unga mehribonlik qilasan, jonga mehr ko'rgizganingda payg'ambar ham ojiz edi. O'shanda Musoning yuz-xotirini qilib, qo'lidagi puttiga marhamat ko'rgazding. Hamal ayvonida quyosh qanday jo qilgan bo'lsa, kamtarlik bobida sening sharafig ham shu qadar zohirdir. Sen cho'ponlik orasidagi elchi, olam ahli rahnamosisen. Olam ahli sening bandalaringdir. Sen ularga dinni vasiyat qilib berding. Bu bandalar ilohiyat rahmatiga muyassar bo'lib, ularning rahnamoligiga sen kabi shohni berdi. Fe'lu atvoring ularga suv chashmasidir, zulfingning bir tori esa mustahkam tayanchiqdir. Bu fe'l emas, hayot zulolining qatrasidir, sochning tori emas, najot ipining rishtasidir. Bu soch emas, ikki dunyoni ushlab turuvchi ikki halqadir. Ular kishini shod etuvchi chiroylarini namoyish etganlarida Laylat ul-qadr kechasidagi oydek ko'rinadilar. Sevgilining qora xushbo'y ikki kokili, zotining ganjini qo'riqlayotgan ikki ajdar kabidir. Muhammad so'zining harflari yechilganda, ikkita «mim» harfining etaklari osilib kufr eli motamining zulmatiga, din elining esa, ulug'vorligiga aylanadi. Agar savodning bo'lmasa ne g'am, ushbu savod senga buyukdir. Agar qo'lingga qalam tutmagan bo'lsang g'am yema, chunki yozuv taxtasi bilan qalamni sen yod olgansen. Bu azadan qalam g'amnok bo'ldi, yuzini qora qilib yoqasini yirtdi. Men qalam tutmasam-da, lekin so'zlashishda ma'no ahlini lol qilay. Men eng fasohatli kishiman deya fazlu kamol ahlini qoyil qoldiray.

Sening la'ling dur kabidir. Bu toshning sening during g'amini yeydigan nimasi bor. Sening la'ling shikastlansa, undagi durlar sochilib qizil may sifat oqadi. Ya'ni og'zing ham la'l, ham dur sochadi. Sening durri zoting ota-onalarimizga ham nasib etgan. Bir o'g'ilning yetti otasiga sharaf keltirdi. Yetti otadan tug'ilgan yetmish otaning hammasi seni o'zining otasi deb bildi. Odam Ato senga o'g'il bo'lganligidan shod, sening bolangga butun jahon eli avloddir. Uning oti ko'pdan beri ma'lum bo'lsa, sening zoting Odamdangina emas, barcha olamdan ham avvaldir. Payg'ambarlarning eng oxiri ham, ularning avvali ham sen o'zingsan. Ularning barchasidan seni ajratib turadigan toj — Laylat ul-me'rojdir.

IV

Borliqni kezuvchi musofir, balki u osmonni bosib o'tuvchi otliqning me'roji kechasining ta'rifidakim, uning Buroq oti yashinday uchib Buroq xabarchisini yetkazdi. Ul ot bila xabar xayol yetmas yergacha yetdi va uchmoq bila aql hovar etmaydigan narsalarni topgani

¹ Arablarning islomgacha bo'lgan ilohiy ma'budalari.

O'sha qadr kechasi tabiat xushbo'y hid taratib, jannat kishvari g'ayrat qilayotgan edi. Hurlar kokillarini ochib, anbaru mushk hidlarini osmonga tarqatmoqda edi. Sochlarining mushki butun olamga tarqalib, uning xushbo'y hidi osmonni egalladi. Zulfning halqasiga o'ralgan nurli yuz har tarafdin yulduzday ko'rinib turardi. Hurlar butun jahonga o'zlarining mushkrang sochlarini yuziga halqa qilib tuzoq soldilar. Ular suvdagi tuzoq ichidagiday chehralarini ochib, o'z xushxulqlarini birma-bir urug'day socha boshladilar. Davlat qushi shu yerga yetganida ular shu suvu don bilan uni ovlay boshlashdi. O'n minglab ravshan chirog'lar shaklu shamoyilda turli rangda edilar. Kecha hurlari chiqib, tun qorong'uligida sayr eta boshladilar. Oq chiroqlar chiqib zambarak tutunlaridagi kabi parda hosil qildilar. Tutun emas, xushbo'y tutatqi tarattilar, hundan tunning dimog'i chog' bo'ldi. Charx esa bu mushk hidi va xushbo'y tutun uchun kuldon tutib turardi, hidni sezib to'shagi bilan bu pardani yopib oldi va yer yuziga eshiklarini ochib farishtaday qo'ndi. Falakning qorong'uligida yuz minglab ko'k libosli ruhoniylar paydo bo'ldilar. O'sha tunda butun jahonni yoritib turuvchi oy uyida dahrning to's-to'polonlaridan osuda bo'lib, ko'ngli uyg'oq, ko'zi uyquda bo'lgan onalardek yashirinib yotardi. Xabarchi osmon jahonni ot ustida minib Xoja oldiga kelgach, u ko'zini ochdi. Elchi so'z boshladi: haqning salomini yetkazdi. Oshiq mahbubining visoliga erishmoq niyatida ekanligini xabar qildi. Elchi uni kelgan yo'lga qarab otlantirdi. Qutlug' xoja qanotli muborak otini surdi. Suvu quruqlikdan, o'tu bo'ronlardan yeldek o'tdi. Tulpor shu qadar uchdiki, uning tuyog'i oy yuzini ham dog' qilib ketdi. Utorid yulduziga yashinday yetib, uning kumushrang tosh qalamini sindirdi. Zuhra tomon yo'llangach, ohangi vahmidan Zuhra o'z changini yashirdi. Quyosh o'zga yulduzning ulug'vorligidan uyalib yerga kirib ketgan edi. Uning savlatini ko'rgan Bahrom qilichini qiniga solib, unga dam berdi. Nurdan yuzidagi gardi zohir bo'lgan Mushtariy esa, tezda o'z minbaridan tushdi. Zuhul asboblarini birma-bir, maydonda gir aylanuvchi hindudek hozirayotganida, u allaqaysi iqlimga borib yetgan edi. Uning savlati bilan hamma hisoblashar edi. Tavsani sakkizinchi falakka yetganida uning nuridan yulduzlar charaqlab ketdi. Falakda bu gavharga munosib joy topilmay har yerda bir-bir cho'qqi hosil bo'ldi. Hamal bilan Savr ham unga manzilgoh joy taklif etishib nola bilan qolishdi. Javzo' tulpor otning besh oyoqlab uchib o'tganidan ko'zi to'rt bo'lib qoldi. Yirtqichlikda sohibqiron bo'lgan Asad esa sunbula urug'larini sochib yubordi. Adolat mezoni hukm surib, uning yelidan Aqrabning ichimligi to'kilib ketdi. Qavs uning o'tgan yo'lga qarab qirq kungacha bezovta bo'lib qoldi. Dalv uning yo'lga nazar qilib qirq kungacha bezovta bo'lib qoldi. Dalv uning yo'lga nazar qilib suv kechgan bo'lsa, Hut suvsiz qolgan bir oymisol bo'ldi. U azim charxning egik jismiga qadam qo'ygach, yoydan otilgan o'qdek uchib o'tdi. Kursi, Arsh, Lavh va Qalam cho'qqilariga bayroqlar ilib ketdi. Shunday tez yeldiki, vodiya «Lo makon»ni, «Raf-raf» yerini bosib o'tib, yugurib-yelishdan hordi. Shu yerda ot bilan uning haydovchisi

¹ O'n ikki burj...ng biri, boshqa nomi «Dupaykar».

ajralishdi. U o'zligini o'zi ham bilmay qoldi. U na besh sezgiga¹, na olti jihatning² birortasiga o'zida ehtiyojlik sezmedi. Shunda ko'z ilg'ar-ilg'amas cheksiz bir parda ko'rindi, uning aksariyat qismi qorong'i, biroz qismigina yorug' edi. Bir zumda bu parda ko'tarilib, oshiqning visoli namoyon bo'ldi. U oshiq sari qadam qo'yganida haramu parda barchasi yo'q bo'ldi. Oshiq bilan ma'shuq bir-birlarining visoliga erishdilar. U yerda yaratuvchi bilan ma'shuqdan boshqa hech bir begona kimsa yo'q edi. Karam mavji urib turganida mehmon o'z arzi iltimosini bayon etishga intildi. Buni aytmoqqa hojat ham yo'q edi, chunki bu so'zlar iltimosdan burun oshiqqa maqbul bo'lgan edi. So'ngra iltimosni bayon etish uchun ijozat bo'lgach, mehmon ummatining gunohlarini kechirmoqni so'radi va bu iltimosdan xijolat chekmadi. Oshiq o'z karamini ato qildi. Uning yonib yelayotganini taqdir oshkor qildi va har qanday istagi bo'lsa hirma-bir qabul etdi. Shunday qilib, Xoja Arshi a'loda vasl dengizidan bahramand bo'ldi. So'ngra o'z tulporini izlab topgach, ikkala horiganlar bir-birlarini taniyolmay biri qo'lini, biri oyog'ini o'pib, quchoqlasha ketdilar. U jangga tayyorday yana otiga sakrab o'tirdi. Tulpori orqasini egib, ikki olamni yukladi. Xoja dengiz ustidagi yakka bulutday, ko'ngli gavharday pok bo'lib uchardi. Yurarida go'zal sarvday, turarida misli jannat daraxtiday bo'ldi. Osmonning har bir qatlami uning tushishi uchun zina xizmatini hajardi, uning nurli yuzidan falak zeb oldi. Farishtalar jo'sh urib, tabriklar bilan shovqin-suron soldilar. Yuz minglab farishtayu hurlar qo'llaridagi nurga to'lgan idishlari bilan barchalari xurramu shod bo'lib, uning boshiga gullar sochdilar. Charxning bo'shlig'ida saf-saf tortgan minglab farishtalar uning girdida si pohlarday hamrohlik qildilar. Hamma uning nurli yuzidan bahramand bo'lib, xayrixohlik bilan ta'zim ayladilar. Rasul shohona sayr qilib yana o'z qiblagohiga kelib tushdi. Samoviy sayr vaqtida uning tani xoki birga hamroh bo'ldilar. Uning jismi – xok, lekin xoki nuri – pok, jismi esa xoki nur edi, ruhini aytmakka imkoniyatim qolmadi. Uning jismi do'st vasliga erishib yonib qaytdi. Bu hol ikki damda voqe bo'ldi. Lekin ularning qaysi biri avvalu qaysisi keyin ekanligi menga ma'lum emas.

Ey ko'zi qorachig'ingga «mozog'» surmaisi! «Motag'i»³ tavsaniga sen azob bermading! Anbiyolarg'a itoating abadiydir, hamma sening himoyangdan umidvordir. Ular anbiyo emas, bashariyat jinsidandirlar, ularning ishlari xoh xayrli, xoh xayrsiz bo'lsin, baribir sening iltifotingga muhtojdirlar. Ushbu jahonda kimki bor bo'lsa, ularning yaxshisiga va'da berilgan, sen bularga ko'p mehribonlik etib, har qancha itoatsiz bo'lsalar-da, ularning ahdini olding. Shunday karamlar jinsi bashariyatg'a ko'rsatilar ekan, ular qatorida Navoiy ham shubhasiz mavjuddir.

¹ Ko'rish, eshitish, sezish, totish, anglash kabi besh hissiyot haqida gap boryapti.

² Inson hayoti uchun yetti zarur ashyolar: havo, ovqat, ichimlik, harakat va dam olish, uyqu va uyg'oqlik, hazm va xarj – modda almashish.

³ Qur'on oyatidan so'zlar. «Haq» yo'lini tutuvchi ma'nosida.

So'z ta'rifida bir necha so'z aytmoq va so'z ahliga u haqda biroz gapirib o'tmoq va koinotning muqaddamlig'ining sifatlari, jami mavjudotning keyinligining isboti va uning pardasidan boshqa ilk g'oyalar jilvadin qutulgan va ko'ngul ganjida ekanining izhori

O'shanda na jahonu na jahon eli mavjud edi. Murabbiy bezatilgan ajoyib naqsh yasashni istab erdilar. Yetti ko'kni baland qilib, ularning har birini bir-birlariga payvand ayladilar. «Kun» (bo'l) so'zi bilan Yer kurrasini past, ko'k osmonni baland qildilar. Yaratish qalami bilan rasm chizilgach, yuzlab ajoyib naqshlar paydo bo'ldi. Bir so'z aytmoq bilan bunday narsalar paydo bo'ldi. Demak, so'zga vasf shulkim, u tafsilotga muhtoj, ularning qay biri avval? So'z avval, jahon esa so'ngra. Jahon, borliq va makon so'ngra paydo bo'ldilar. Zoti, insonni avvali va oxirati bilan yaratdi.

Har bir inson dunyoga kelgach, u so'z bilan najot topadi. Eng avval so'zni tavhid so'zi deb bil, chunki vahdat ahlida bunga ikkilanish yo'qdir. Avvalu oxiringga nazar solib, boshi ham, oxiri ham so'z ekanini anglab ol! Oliy qasr ham bir uningdek toza yuzli do'st andozasini topmadi. U hoshidan-oyoq husn bozoridagi Yusufdek bir dilkash sevgilidir, uning nozik pardasi ochilganda xalq esi og'adi va koinotdagi g'avg'olarga sababchi bo'ladi. Payg'ambarlik uyida ham notinchlik paydo bo'ladi. Haq insonni hayvondan mumtoz aylab, uni o'ziga mahram qildi. U shirin hol va rango-rang la'l toshidir. U shunchalik latofatlidirki, bayon qilmoqlikka imkon yo'q. Uni ko'z bilan ko'rmoq, quloq bilan eshitmoq ham mumkin emas. Shunchalik husn, jamol, go'zallik, dilkashligu ustalik bilan unga shunday oltin tusli bezak tortiq qilindiki, bu libos ichra ma'no guvoh bo'ldi. Bu libos sho'x siymbar edi. Go'zal ma'no unsiz bejilva, yalang'ochdir. U qalb hujrasida ta'zim qilib, o'zini o'sha hujraning xazinasiga yashiradi va hech kim uning izini ham sezmaydi, el uning ma'nosidan xabar ham topmaydi. Idrok ahlig'a bu sirlar noma'lum bo'lib, undan bexabardirlar.

Agar kamolotli xohish bildirib, ma'no durriga intilib, so'z libosini kiysa, ul tovlanib turgan ipak matoday tuyuladi. Chunki u so'zning nozik ipagini kiyib, go'zalning jamolini o'ziga yoqimli qiladi.

Bodadan yuzini la'l toshi tusiga kirgizib, ko'ngil ayvonidan jilva qilgan bo'ladi. Tan saroyidan halqum yo'li orqali tashqariga chiqquday bo'lsa, jahonda shunday g'avg'o ko'tariladiki, butun koinotda qiy-chuv, uning daragidan xaloyiq lol bo'lib xushzabon bo'ladi. Bularning barisi so'zdagi mo'jiza, uning hikmatlari esa elni ojiz qoldiradi. Uning biri o'lukka so'zi bilan jon berib, so'zi bilan tanga ruh kirgizadi. Munisini Muhammad arabiy deyishsa, unisining laqabi Masihdir. Alloh. Alloh qanday so'zdur bu so'z, bundan ortiq ham yana bo'lurmu so'z! So'z jism bo'stonidagi daraxtdir, so'z ruh daraxtlaridagi mevadir. Insonning jismi gulshan bo'lsa, nutq undagi xushovoz bulbuldir. Bulbulning navosi so'zdir, jonga rohat beruvchi nag'masi ham so'zdir. Agar so'z bo'lmasa baxtsizlik yuz bergan bo'lur edi, bulbul esa, navosiz nutq qilardi. Bunday bulbulni navosiz

ko'rmang va benavolikni ham bulbulg'a ravo tutmang! Xususan, so'z bulbuliga Navoiy zordir, unga sir hog'i gulzordir. Uning bog'ini yashnatib, navo bergin va bog'ini doimo hosildor tutgin! Uning gulzori gullarini toza aylab, bulbulini baland ovozli qil! Gulining shamini yanada yorug' qilib, atrini butun olamga yoy! Bulbulning ovozini baland qil, uning ovozi xalq orasida jo'sh ursin! Bog'ining atrini xushbo'y aylab, qushining kuyini yoqimli qil! Kuyini el ko'ngliga maqbul qilib, har qanday yaxshi ish bo'lsa, uning bila mashg'ul et!

VI

So'z nasridan nazmi xushroq va so'z parokandasidan uning jam'i dilkashroq ekanini ta'kidlamog va bu jamiyatni Nizomiyning besh ganji kitobiga va Hind shakarsuxanining shirin so'zlariga taslim bo'lmoq va ul ikki zar sochuvchi va ul ikki nur taratuvchilarga zarra monand o'zni yetkurmaklik

Jon gulshanida so'z ko'ngul dengizidagi durri yatimday, uning vasfiga til ojjizdir. Bu fanning bilimdonlari uni ikkiga bo'ladilar. O'z fikrini bayon qilishni istagan har bir kishi nasr yoki nazmga murojaat etadi. Nazm bilan nasrdan boxabar kishi nazmning martabasini yuksakroq hisoblaydi. Chunki yaxshi so'zlarning yuzaga kelishida lafz gavhar hisoblanadi. Har qancha javohirlar dilkash bo'lmasin, ular nazm yo'lida ishlatilsa, shunchalik xushroq bo'ladi. Ikki sariq qimmatbaho yaxshi durdan, otashin la'l yaxshiroqdir. Agar firuza yonida kon bo'lsa, dengiz duri ham ajoyib bo'lib ko'rinadi. Ana shunday javharlarni tartibi bilan ipga tizilsa javhar barqarorday tuyulib, uni xush ko'rishadi. Agar kimki javohirlarni oldiga to'kib tashlab, g'afolat tiliday uni kamsitsa, albatta, ular xunuk ko'rinmasa ham, go'zalligi avvalgidagiday bo'lolmaydi. Demak, keyingisining ziynati avvalgisiday bo'lmay, ularni bir-birlari bilan qiyoslab bo'lmas ekan. Nazm bilan nasr o'rtasidagi nisbatni ham shunday deb bil! Lekin nazmda ham turli holat bor. Nazmning shunday afzalliklari borki, ularga izoh berishga hojat ham yo'q. Nazm ham bir necha turga bo'linishini, unga diqqat-e'tibor qilgan kishi tez anglab oladi. Nazmda masnaviy uslubi eng afzalidir. Boshqalari hammaga mashhurligi tufayli ularni zikr etib o'tmadim.

Mazkur masnaviyning so'zdagi imkoniyatlari juda kengdir. Yuzlab ijodkorlar bu maydonda agar bellashishsa, ularning har biri o'z san'atlarini birma-bir ko'rsatadilar. Shunday maydonda ajoyib tulporlar botirlik bilan javlon uradilar. Chavandozning tulpori oyoqqa tursa, ko'kning go'zal oti bilan tevalashadi. Rosa javlon urishayotganida chavgoni bilan oy yuzini dog' qiladi. Xushkalom notiq esa bu maydon elidan to'pni olib ketib, dahr vayronasida bu boylikni xazina ahliga o'tkir so'z orqali tortiq qiladi. Qalami varaqqa naqsh solayotganda ma'noli so'z chuchukligidan ajralib chiqadi. Ajralganida ma'noli so'z shakarday to'kiladi va qora rang o'rniga mushku anbar sochiladi. Qog'oz sahifasiga goh mushk, goh shakar tomadi. Shakaridan ko'ngulda shirin

orzu uyg'onsa, dimog'ga urayotgan mushki esa jonga osudalik baxsh etadi. Shu tufayli ularning biri Chinda, boshqasi Hindistonda dostondir. Qalam uchidan tomayotgan quyqum shakar aralash mushkka belangan. Ma'noli so'z noziklikda jon rishtasiday, uning rohati rishtaga sarrishta jondaydir. Varaqlaridagi nazmi — jonning pardasi, siyohi esa — obi hayotdir.

Uning hayot suviligi va jonga rohatligini anglagan el qalamini butun jahonga taratib hayot suvi siyohi ichiga uni yashiradi, elga jon bergani uchun uning siyohdoni hayot chashmasidaydir. Xizr uning qalamiga tashna bo'lib, betoqat, har dam o'sha chashmadan ozuqa oladi. Nazm ahlini eng yuksak so'zlisi «Xamsa»ning yozuvchisi Nizomiydir. U «Xamsa» emas, Qorunning besh xazinasidir. Undan har kim javohir, yuz minglab boylik oladi. Undagi har bir qimmatbaho dur tojmonand bo'lib, butun bir mamlakat xirojining o'rnini bosa oladi. So'z yo'lini shunday bosib o'tginki, go'yo gavhari — pok, nozik ipakdan yugurib o'tganday bo'! Bu yugurishda Xusrav yo'lidan horuvchilar har qancha ko'p bo'lsalar ham men u yo'lga bog'langan bo'lmayin. U Xusrav emas, balki elni o'z nazmiga rom etgan Hind sehrgaridir. Uni Hind dema, qaro balo ham emas, ofati xudo degin! U qo'lga qalam olsa, nazmi bilan olamga o't soladi.

Olamni olgan o't uning ko'ngli o'tining uchquni, xolos. U ishq o'txonasi o'lovi, o'sha shu'laning Samandar qushidir. Uning nazmi osmon kabi balanddir va so'zlari samodagi yulduzlarga o'xshaydi. Nazmining har bir varag'i ko'ngulni shod etuvchi bir olamdirdi. U ma'nolar olami, lafz jismidagi ma'no jonidir. Uning binosi falak bunyodiga o'xshash, uning savodi esa jahon qorong'uligi kabidir. Bu savod visol shomi, dildor zulfining tuzog'idir. Chunki uning savodi shunday qayd etildiki, unda ma'no qushlari ov qilinadi. Ilgari me'mor qanday bino qurgan bo'lsa, bu zargar uning zebu ziynatini qildi. Eram bog'ining yuzlab gullarining ochilmog'i va ularga shabnam yog'ilmog'iga sababchi bo'ldi. Unda yuzi toza, o'sma va upa-eliklar bilan bezangan nigor yuzli go'zalni paydo qildi va har bir sarvinozni u o'ziga bo'ysundirdi. Va yana sarvning yigitini ham unga bog'ladi. U gulrux jilva aylasa, boshqasi sir ochishga tayyordir. Buni ko'rgan kishi har ikkisini ham egizakday sog'inadi.

Har bir yozuvchi hunar egasidir, nozik mulohaza va andishalidir. U ko'p yozish bilan ovora bo'lib, bular orasiga sig'a olmaydi. Garchi ma'noli so'zlovchilardan biri Ashraf edi. U o'z imkoniyatiga musharraf bo'ldi. Yaxshi yoki yomon yozgan bo'lsa ham shuhrat topmadi, yozig'i yaxshi bo'lmasa, yomon ham emas. Men esa, bir bechora devonaman, o'zim o'z jonimga jabr qiluvchi bandaman. Menda bir qultum suv ichkani ham imkonim bo'lmadi va o'zgalarning daryoday suv ichuvig'a ham havasim uyg'onmadi. Mening qo'limda orzu gumbazini yaratmoqqa bir hovuch ham tuproq yo'q edi. Bilagimda na kuch, na quvvat bor edi. Menda ajdaho nafasidek boylik xayoli ham yo'q edi. Men ular ikkovi o'rtasiga tushib, yuz ming el mojarosi bilan bog'landim. O'z so'zimni ularning so'zlari bilan qiyoslab, o'zgartishlar kiritdim. Botirlik bilan ish tutildiki,

lashkarlar Xurosondan tortib, Rumu Hindistongacha g'avg'o solishdi. Rum bilan Hind mamlakatlari tobe qilinib, hind rojasiyu rum podsholari qo'lga olindi.

Yo'q, yo'q, bu ajoyib lofdir, lof ham emas, boshdin-oyoq yolg'ondir.

Shatranj donalarining oqu qorasi saf tortildi, maydonga tushgan cho'p ot bilan fil oyog'i ostida o'zini past tutib taxtaga payvasta bo'ldim. Rum elining tulpor oti, hindlarning poyimol qiluvchi fili va mehnat bilan voyaga yetgan chumolisi ham o'shanday sipohdan naf' topadi, kamtarlikdan ulug'vorlikka erishadi, pahlavonligidan bahramandlik ko'radilar. U hayqiruvchi sherga qo'rqinch solib, o'zini Sulaymonning noibi deb biladi. Agar Navoiy bedil ham bu kabi dil orzulari hosil qilsa ajab emas, chunki u ham ishga shuncha qattiq g'ayrat bilan kirishdi, axir qutbning vazminligi ham osmonning baland martabaligi tufayli-ku!

VII

Ulug' martabali janobning xizmatkorlig'i, gavhar yog'diruvchi bulutday madadkorlig'i, ya'ni hazrati shayxul islomiy Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiyning madhida qalam uchining shirinso'zligi va ko'ngil sadafining so'z gavharlarini sochmog'i xususida

U fazl koni, ilm daryosi, dengizu kon oshnosi. Ilm daryosida u samo gumbaziday, dengiz ichida aningdek mehr gavhari topilmas. Sirlarni kashf etish uning tabiatida mavjud, buni unga Tangri ato etgan. Riyozatda fikri osmonday tiniq bo'lib, u falak ekinzorini bahramand etadi.

Uning arab tilidagi darsi bir duo misoldir. Kamina Ibn Hojibning shogirdi edi. Yo'q, Ibn Hojibning emas, Allohning yori, tafsir ilmining bilimdoni. U diniy ilmlarni harfma-harf o'rgangan, uning tili, zikri va so'zi ham diniy ilmlarga mansubdir. Bismillodagi «bo» harfi nuqtasining o'ziga tafsirda yuzlab asarlarni yozgan kishidir. Tafsir ilmida u misli buyuk daraxtdir, unga bu yo'lda yuzlab Ibn Hojarlar ham yetisholmaydi. «Arbain» asarini arab va fors tillarida yaratdi. Qirq hadis yozishga qo'l urganlarning hammasi bunday zo'r asarni ilgari ko'rmaganliklaridan hayrondirlar. U faqrlikning imomi A'zam olamida imomdir. Uning so'zi fiqh eli uchun go'zal va qimmatlidir. Agar masala aytsa fiqh ahli hayratda. U o'z vujudidan kechib, Haq vujudi orqali mangulik topdi. U fikri-zikri bilan Haq zotiga cho'mdi va bir zarrasiday o'zligidan kechdi, aning tariqi tasavvuf bo'lib, bu fan haqida uning asarlari bor. U qayerda bo'lishidan qat'i nazar, uning orzulari doimo o'shalar edi. «Ruboiyot sharhi»ni yozib jahonga hayot ato qildi. Qalami «Lavome'» asarini bunyod etib nur shu'lasini ufqlarga yetkazdi. Uning tab'i bilan «Lavoyih» asari paydo bo'ldi. Bu «Lavoyih» yagonalikda jilva topdi. «Lamo'ot»ning shu'lalari zohir bo'lgach, zot shu'lalari orasida yana bir shu'la paydo bo'ldi. «Tovu mimiya» she'rlariga sharh yozib, Ibn Foriz ruhini shod etti. «Shavohid» go'zal asar bo'ldi, yuzlab uni o'qiganlar rohatlandilar. «Nafohot»ni

tugatgach, ruh andin mehr-muhabbat hidini sezdi. «Tuhfat ul-ahror» asarini yozib, olamga sirlar xazinasini sochdi. «Subha»ni ixtiyor etib, sharhladi va el mulki aro dong taratdi. Uning «Silsilasi» harakatga kelgach, oshiqlik uning mavzui bo'ldi. U «Oshiq va Ma'shuq» asarini yozdi, ishq eli aning o'tidan yanada yondi. «Qasoyid»ni tuzishga uning ra'yi uyg'ongach, durlar sochilib, ko'ngli pok kishilar undan oroyish oldilar. Uning «G'azaliyoti» jahonga o't soldi, shu'lasida esa jonlarga yuzlab uchqun taratdi.

U o'zga bir fanda risolalar yozib, barchani haq vasliga yo'lladi. Agar tafsiloti bilan birma-bir tanishtiradigan bo'lsak, so'zimiz be nihoya bo'ladi. Bundan hech bir naf' yo'q, gapimizni tugatmoqqa imkon bo'lmaydi. Kitoblarining oti tugasa ham, uning fazilatlarini cheksizdir. Yuzlab so'z bilan ham zotlarining vasfini tamom qilib bo'lmas. Uning martabasini har bir kishi falakcha hisoblaydi. Uning pok o'ylari – yorug' quyoshdir. Uning ilmini dengizga o'xshatsa bo'ladi. Uning kamolotining nihoyasi va martabasining haddu chegarasi yo'q.

Kamol ahlida shunday so'z bor: odamning ziynati kamolotidir. Chin mulkining barchasi uning domidadir, aql aning kosasidan bahramanddir. Undan Odam avlodi bahramand, u olam ahlig'a yo'l ko'rsatuvchi homiydir. Hushyorlar va may ahlining joni rohati hamdir. Uning jomidin Navoiy ham bahramanddir.

VIII

Bu yetti jannatosa gulshan va yetti osmonsifat qasr naqqoshligining sababi va me'morligining kayfiyati va imoratining tarhini – loyihagini o'zgartirishlar bilan go'zallashtirmoq va binosining nuqsonlarini tuzatishlar bilan diltashroq qilmoq va adabsizliklar uchun uzr aytmoq va o'zboshimchaliklar uchun ma'zirat so'ramoq

Bu kecha nayrangboz falak olam ahliga lo'ttibozliklar ko'rsatdi. U nilgun osmonning keng fazosiga juda ko'p ajoyib munchoqlarni (yulduzlarni) terib tashladi. Munchoqlar gunogun xosiyatga ega bo'lib, xuddi buqalamundek har onda turlanib turar edi. Ularning har biri o'z tabiatiga yarasha yuz xil nayrang ko'rsatar, bir narsani paydo qilsa, ikkinchisini yo'q qilar; har biri bir jahon fitnani yuzaga keltirar edi. Yulduzlardan birining tabiatida nahslik – xosiyatsizlik mavjud bo'lsa, ikkinchisida baxt-saodat mash'ali porlar edi. Bulardan qay birining taqdiri nima bilan bog'langan bo'lsa, bu olamga ham uning ta'siri yoyiladi. Bularni ko'zbo'yamachi, nayrangboz emas, go'zal raqqosa desa bo'ladi. Yuz tuman oy yuzli go'zal, yo'q, oy yuzli emas, kumushdek oq niqobu kumushbadan o'yinchi deyish kerak. Ularning barchasi yuz xil nom bilan jilvalanadi; husnining go'zalligi bilan kishini o'ziga maftun etadi. Ba'zilar parda bilan o'rog'lig'u ba'zilarining pardasi bo'lgani holda, yuzi ko'rinib ham turadi. Bu taajjub holat aqlni lol qilib, har nafasda kishini o'zga bir xayolga olib boradi. Men bularni ko'rib, goh vahimaga tushib, goh fikrga tolib, dam-badam hayrat ustiga hayratlanaman. Ko'nglim uyida aqlning qarori yo'q, aqlim ham, ko'nglim ham bu holatga hayron va mahliyodir. Aqlim bularning haqiqatini fahm

etolmagan kabi, fikrim azmu qarorini idrok qilolmay qoldi. Qayg'u ko'ngilni azobga solavergach, ko'z uyini uyqu qorong'ilig'i bosdi. Shu payt, xayol suratlari bo'lmish tush — fikr uyida har xil va gunogun suratlarni namoyish qiladi. Tushimda o'zimni ajoyib bir vodiya aylanib yurgan holatda ko'rdim. Bu vodiya shu darajada keng bo'lib, uning ichida yettita juda mustahkam va baland gumbaz bor edi. U gumbazlarning har birida o'tirish — dam olish mumkin bo'lgan joylar bor edi-yu, ammo men bir joyda bir nafas to'xtamas va orom olmas edim. Ularning hammasi osmon gumbazi singari doira shaklida bo'lib, bir-biri atrofida aylanar edi. Har bir gumbazning rangi o'ziga xos bo'lib, chetdan qaragan kishiga xuddi bir ibodatxonadek tuyulardi. Yettita gumbaz ichida yettita mutasaddiy odam bo'lib, ularning har biri o'ziga xos nodir sifatga ega edi. Ular kiygan to'n ham o'z gumbazining rangiga monand bo'lib, har biri o'z gumbazining ishi bilan mashg'ul edi. Birinchi gumbazning tusi qora bo'lgani kabi, undagi odamning aft-angori ham qora edi. Ikkinchisida zarhal kiyim kiygan odam, zar rangli uy ichida sap-sariq bo'lib yurar edi. Uchinchisining maqomi yashilrang gumbazda-yu, to'ni ham yashil, yuzi ham sabzarang edi. To'rtinchisining libosi guljom bo'lib, u gul rangli uyda orom olardi. Beshinchisi ko'k kiyimli, dono odam edi, u ko'k gumbazli xonada istiqomat qilardi. Oltinchisining to'ni jigarrangga moyil bo'lib, shu rangdagi koshonada turardi. Yettinchisining libosi oq kofuriy edi-yu, uning obod xonasi ham shu tusda edi. Haftaning har bir kuni shu xonadonlarning biriga xos bo'lib, o'sha kuni shu joyda ichkilik, o'yin-kulgi, raqqosalar bazmi bo'lar edi. Bu koshonalarning har birining ichini bir iqlim deb bilavering. Bularning ichida umidvor — xursand odamlar ham, xafalar ham bor. Men bu yerda istiqomat qiluvchi odamlar orasida yetti kun yurib, hammasiga nazar qilar ekanman, har uyning dono egasi menga bir afsona aytib berdi. Bu afsonalar har kimning o'zi turgan uyda bo'lib o'tgan, o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealarning hikoyati ekan. Bu afsonalarning har birida g'aroyibotlar, g'aroyibotlarning har qaysisida ajoyibotlar ko'p. Men bu afsonalarni yodlab, jonim sahifalariga yozib qo'ydim. Qachonki bularni qalam bilan tahrir etishga kirishar ekanman, huzurimga xizrvashi bir mo'ysafid kelib, dedi:

«Ey, charx gumbazlarida quyoshdek jilvalanib sayr qiluvchi odam! Yetti uy ichida senga mayl ko'rsatgan odamlarning ne xayli ekanini angladingmi? Yetti gumbazdagi nomuqarrar ranglar lutf bilan har xil tusga kirib turadi. Undagi yetti uyda maskan qilib, har qaysi bir uyni vatan qilib olgan odamlarning to'ni ham, uylari singari, har lahzada bir tusdan ikkinchi tusga kiradi. U odamlar yetti afsonasini aytib bo'lgunlaricha yo'q edi, sen yodlab olding. Sen bu ajoyib safaring mavridida g'aroyibotlarga nazar solar ekansan, bu yerdagi kayfiyatni ne deb lahmiladingu ishning asl haqiqatiga qanday tushunding?»

Men bu savolni beruvchining salohatidan yuz xil istiholaga tushganim holda, hurmat bilan tubandagicha javob berdim:

«Ey, hamoyun ruhu go'zal ruxsorga ega bo'lgan, yuzidan butun insoniyat g'ali nuri porlab turgan zot! Men bu g'urbatxonada aylanib yurgan bir g'aribu o'z murodini izlovchi bir faqir musofirman. Men

bu yerda ko'ringan ajoyib va g'aroyib narsalarning nimaligini bilmadim; «musofir – ko'rday bo'ladi», deganlaridek, hech narsaning haqiqatiga tushunmadim. Bularning sirri-pinhoni senga ma'lum bo'lsa, ayt va hayon qill!»

Tabarruk farishtasifat ruhoniy shunday dedi:

«Ey, bu pinhoniyl sirlardan nasibasi bor odam! Xushxabar – mujda bo'lsinkim, lojuvard rang bilan qoplangan charx sening yulduzingni saodatli qilib yaratgan ekan. Nizomiy Ganjaviy ko'p mehnat qilib, jahonga besh ganj – besh xazina, ya'ni «Xamsa»ni yozib bergan edi. Shu bilan birga, hind sehrgari bo'lmish Xusrav Dehlaviy ham u bilan bahslashib, shunday bir xazinani, ya'ni o'z «Xamsa»sini yuzaga chiqargan edi. Sen esa, ikki yil mashaqqat chekib, ular aytganidan ortiq bo'lsa boru, ammo kam bo'lmagan uch dostonni yozgan eding. Mana endi, vaqti soati yetgach, yana qalam tebratib, to'rtinchi nomani, ya'ni, «Xamsa»ning to'rtinchi dostoni bo'lmish «Sab' ai sayyor»ni ham yozadigan bo'lding. Sen to'rt gavharga pardoz berib, to'rt unurni tarkib topdiradigan bo'lding. Senga baxtu iqbol va davlat yorlik qilib, yer yuziga taniladigan bo'lding. Nizomiy «Xamsa»sining to'rtinchi dostoni bo'lmish «Haft paykar» («Yetti go'zal») mushk hididek muattarligi bilan hammayoqqa tarqalgan, Xusrav Dehlaviyning to'rtinchi dostoni «Hasht bihisht» («Sakkiz jannat») o'z go'zalligi bilan jahon aqlini hayratga solgan edi. Endi sen ham keng, bahavo joy topib, ular qarshisida baland va azamat bir bino bunyod etgaysen. Ular senga neki ko'rguzgan bo'lsalar, men boshdan-oyoq ta'birini bayon aylay: ularning har biridan senga bashorat bor, shudli – zehnil odamga bu so'zdan ishorat bor. Senga yetti baland gumbaz bo'lib ko'ringan narsa va uning ichidagi yetti oftobjamol go'yo yetti qavat osmondagi yetti quyoshdek ulug' ustozlardir. Senga bu qissadan ishorat shulki, avval bunyod etilgan qasrlarning qusurlarini bitirib, yetti qasr ichiga yetti hur o'tqazib qo'ygaysen. Avvalgilariniki qanchalik rango-rang tovlanib turgan bo'lsa, sening qasrlaring ham xuddi o'shalarga o'xshab, alvon-alvon tovlanib – jilvalanib turgay. Ko'rganing yetti afsona ustiga yana yetti turfa afsona qo'shgaysan. Ular o'z latofati bilan elga jon bergay, kishi vujudiga ruh bag'ishlagay. Aqlning og'zini kulgi bilan to'ldirib, ruhning ko'zini uyqu bilan mast aylagay. Sening so'zing bilan yaralgan qasrlarning har biri yuz g'aroyibot bilan to'lib, behisob ajoyibotlar bilan jilvalangay. Sen bu tashabbusda shodlikka yetgaysen, dostoningni so'z bilan bezashda muvaffaqiyatlarga erishgaysen!»

So'zi tugagach, yer o'pib pirga ta'zim qildim. Hamda shu payt, xursand holda, seskanib uyg'ondim. Ko'rganlarimning barchasi xotiramda qolgani holda, pir bilan uning tushimga bergan ta'birini unutgan edim. Asli hech kim tushimga ta'bir bergani yo'q, balki xotirimda shu kabi o'zgarishlar yuz bergan edi, xolos. Binobarin, har bir tush va hodisaga ta'bir beradigan, yuqori kamolot egasi bo'lmish ta'birchini chorlab, jahonning bu dono kishisiga tushimni boshdan-oyoq aytib herdim. U kishiga, esimdan chiqqanidan bo'lak, xotirimda qolgan hamma gapni bir-bir bayon etdim. Nuktalarga ma'no va pardoz beruvchi muabbir, mening rozimni eshitgach, darhol uni

sharhlashga kirishdi. U zot oqshom tushimga kirgan pirdan tortib hamma koʻrganlarimni taʼbir ayladi. Tushimning taʼbirini eshitar ekanman, tushimdagi pir ham esimga tushdi. Men u kishidan nimaiki gaplar eshitgan boʻlsam, hammasi xayolimda qayta jilvalandi. Bu ikki pirning soʻzi bir xil boʻlib, ikkalasiniki ham sidqidildan aytilgan soʻzlar edi. Tushimdagi farishta qanday nuqtalarni bayon aylagan boʻlsa, bu ham xuddi oʻsha farishtamisol gaplarni aytdi. Men shu ikki dalilga ega boʻlgach, dostonni yozish ishiga shoshilinch kirishdim. Va jazm qildimki, xoliqi azalning (xudoning) hukmi qatʼiy va oʻzgarmasdir. U, menga bu mulkni (ijod mulkini) fath etib — egallashni nasib etmish. Agar Tangri birovga biror narsani nasib aylagan boʻlsa, bu bobda dunyoning soʻz va sozining ahamiyati yoʻqdir. Bu narsa nasib boʻlgan odamning qanchalik uzrli yumushi boʻlsa ham, baribir, shu ishga kirishmay iloji yoʻqdir. Buni yozish uchun, taʼbimning ragʻbati zoʻr boʻlishiga qaramay, juda ehtiyotkorlik zarur edi. Axir, mendan avval qalam tebratgan zotlar ham nihoyatda koʻp saʼy-harakat bilan shunday doston yozgan edilar. Ularning nuqtalari boshdan-oyoq goʻzal maʼnolarga ega va har qaysi doston Chinning suratxonasiga oʻxshagan ajoyib boʻlib, butun olam eli uni joni-dilidan qabul etgani haqida mening taʼrif-tavsif qilib oʻtirishga haddim ham yoʻq. Ulardek vasf-tavsif qilishga menda had va imkoniyat yoʻq. Ular qimmatbaho maʼnolar sandigʻini ochib, olam ahliga durri-gavharlarni sochib qoʻyganlar. U maʼnolar sandigʻini bebaho javohirlari sochilib yotgan dengiz va kon desa boʻladi. Lekin karam-saxovat egalari gavhar sochganda, bir tarafga koʻp, ikkinchi tarafga kam tushishi tabiiy. Hammayoqqa bu xilda kam-koʻstsiz dur sochish nihoyatda ehtiyotkorlikni talab etadi. Yerga suv sepadigan odamlar juda koʻp, ammo atir sepadiganlar esa onda-sonda. Agar javohir toshlarni yoʻnuvchi zargar beparvoroq boʻlsa, koʻp xatolarga va zararga yoʻl qoʻyadi. Koʻpgina tezkor va shoshmashoshar ustalar chala-chulpa ishlashni oʻzlariga odat qilib olgan boʻladilar. Ular oʻzlarining tezkorliklarini mahorat deb gʻururlanishlari tufayli, ishlarida katta-katta nuqson va kamchiliklar yuz berishini fahmlaydilar. Lekin shogirdlar ustozlarining taʼnasiga qolishdan qoʻrqib, oʻz ishlarida kamchilikka yoʻl qoʻymay, tunu kun ehtiyotkorlik bilan ishlashlari natijasida xatolari kamroq boʻladi.

Nizomiy Ganjaviy bilan Xusrav Dehlaviyning ikkovlari ham mohir ustozlardan boʻlib, mahoratda hammadan ustunliklari barchaga ayondir. Ular oʻz asarlarini qanchalik mahorat bilan yozgan boʻlsalar, shunchalik ehtiyotkorlik bilan ish tutganlar. Men, ular hech qanday sahv qilmaganlar, demayman, yoʻq, balki ular xato qilgan boʻlsalar ham, oʻzlari bilmaganlar. Ular oʻz kitoblariga boshdan-oyoq ming xil zeb-ziynat berib, kishilarni sehlaganlar. Lekin, afsuski, ular afsonalarni yaratar ekanlar, hushyorlik va ehtiyotkorlikni qoʻldan bergan joylari ham yoʻq emas. Gapimga quloq soladigan boʻlsangiz, tubanda men ularni muqarrar koʻrsatib beraman. Biri shuki, ular dard-gʻamga uncha ahamiyat bermaganlar, yaʼni ishqni darddan ajratib tashlaganlar. Masalan, kimki biroving mehr-muhabbatidan xoli boʻlsa, u osmon quyoshi boʻlsa ham ahamiyat bermaganlar. Agar

ularga bir tarix matlub va maqbul bo'lib qolsa, ular bu tarix qanchalik to'g'ri va noto'g'riligi haqida hech fikr yuritmaganlar. Ishq degan narsani so'z bilan bezantirish hamma uchun ham xushdir. Ishq o'ti kimning ko'ngliga asar qilsa, joniga o't solishi tabiiydir. Yolg'on so'z aytish jinoyatdir, xususan, yolg'onchilik odat hukmiga kirsada, odam uchun dunyoda bundan bema'nilik yo'qdir. Axir, ishqdan so'z ochganda, yolg'on-yashig'u ahamiyatsiz so'zlar ham oshiqqa o'tdek ta'sir qilaveradi. Ikkinchidan, u asarlarda ba'zi nomunosib gaplar ham yo'q emas. Masalan, shoh Bahrom aysh-ishrat qilish uchun yetti qasr bino qildirgan, degan gapni olaylik. U qasrlarga yetti mamlakat shohining har biri latofat va husnda tengsiz yetti qizini keltirib qo'yib, har kuni shu qizlarning bittasi bilan o'sha qiz turgan koshonada maishat qilgani yozilgan. Shuningdek, Bahrom ichkilikka berilgan bo'lib, ertadan oqshomgacha may ichish bilan band bo'lgan. Kechqurun uyqu mast qilganda esa, u sho'x go'zallardan afsona aytishni talab qilgan. Ajablanarligi shundakim, ular qissaxon baxshi qiz bo'lmasalar ham, afsonalar aytar ekanlar. Shoh esa, tongdan oqshomgacha paydarpay qadahlar to'la may ichar ekan. Aslida uning odati g'afolat bo'lgan ekan, uyqudaligi vaqtida unga afsona aytishning ne hojati bor? Bunday holatda afsona aytishni aql man etmaydimi? Yoki yosh qizlardan bo'lak qissa aytuvchi baxshi topilmaydimi? Axir haramning bir qancha nozaninlarini shoh haramxonasida ehtirom bilan asrash lozim bo'lgan jononlarni qissaxonga chiqazish to'g'rimi? Axir, ularning g'amzasi kishilarni sehrlaydi-ku, bir qiyo boqishi yuz tuman ko'zlarning uyqusini qochirib yuboradi-ku. Ularning lablari odamlarni qatl etish uchun sharobga oluda qilingan: ko'zlari esa, noz-ishva bilan uyquga omixta qilingan emasmi? Shoh esa, bularga: «Afsona ayt, hech uzr va bahona ko'rsatmay qissa ayt!» – deb hukm qilsa! «Siz uyg'oqlik bilan horib-charchang, men uxlab huzur olayin!» degan taklifni qilsa! Odamiyligi bor kimsa shunday so'zni aytadimi? Faraz qilaylik, shunday taajjublanarli ish ham bo'lsin. Hali bundan ham g'alatirog'i bor. Masalan, o'z zamonasining ikkita yagona kishisi bo'lmish Nizomiy bilan Xusrav Dehlaviy nodonlar uchun bu kabi maqtovnomalar yozib, o'zlarini o'shanday tuban kishilarning maddohiga aylantirishlari juda ajablanarli. Ular bu madhni haddan oshirib, juda uzundan-uzoq qilib, kitob yozganlar. Bu nazmlarni yozishda ularning har biri juda ko'p ranj-mashaqqat chekkanlari holda, o'z «Panj ganj»laridan bir ganj, ya'ni «Besh xazina»laridan bir xazina yaratganlar («Xamsa»ning bir dostonini yozganlar) Alloh-Alloh! Bu qanday ganj bo'ldi? Yo'q, bu ganj emas, elga sarbasar ranj bo'ldi! Agar u ikki ustoz davr yagonasi bo'lganlarida edi, bu ishlar shu tavrda bo'lmas edi. Shuni unutmazlik kerakki, ular komil ustoz edilar, ammo o'z ishlariga qattiq berilib – g'ururlanib ketganlari uchun, o'z xatolaridan g'ofil bo'lib qoldilar. Kimki bir ishda kibr-havoga yo'l qo'ysa, uning ko'nglida ko'pgina ma'nolar o'zidan yashirinib qoladi. Men ularning juda faqir va bebizot shogirdiman va o'zimning riyozatimda ularga itoatkor – muteman. Doimo bir xato yuz berib qolishidan, tasodifan boshimga bir kulfat tushishidan vahimadaman. Men nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish qilmoqchiman,

ishning arqoq-o'rishini bilib, o'rniga qo'yish niyatidaman. Men shu ishni murodimdagidek qilib bajarsam, ustozlarimning ruhidan madad olgan bo'laman. Shu ishni qilish orzusi ko'nglimga tushgandan beri ehtiyot bo'lish lozimligi haqida o'ylayman. Shu sababdan bo'lsa kerak, doim bu go'zal afsonaning, balki xushnavo taronaning xayoli bilan yashayman. Ammo bu biror yerda hech qanday tag'yir-o'zgarish bo'lishi mumkin emas, degan gap emas, kamchiliksiz ish qilishning hech bir tadbir va chorasi yo'q. Bu haqda gapirib o'tirishimizning hojati yo'q. Hali boshlanib, oxiriga yetganda ishning sifati ham anglashilib qolar.

Yo Rab, ish bag'oyat mushkul, men bechora esa xasta va kuchsizman; pashshadek jonim bilan filning ishini ustimga olyapman. Bu xuddi osmon tomiga narvonu quyosh shamiga shamdon yasayman, degandek gap. Bu, ajdahoni tutish uchun, o'rgimchak ipidan kamand qilmoqchi bo'lgan odamning ishiga o'xshaydi. Bu ish nihoyatda og'ir va dushvor bo'lishiga qaramay, men xuddi mast va telba kishilardек behushlik bilan bajaraman, deb bel bog'lab o'tiribman. Ammo, ey, Tangrim, bunday og'ir ishga qo'l urar ekanman, sening lutfu marhamatingdan umidvorman! Ish qanchalik beadam va mashaqqatli bo'lmasin, agar sen iltifot qilib, madad bersang, oxiri xayrli bo'lur. Sen yor bo'lsang, zarraga quyoshni pinhonu qatraga dengizni makon aylashimga ishonchim bor. Qalamim uchidan tezyurar kema yasab, olam ichra g'ala-g'ovur solib yuborsam, ajab emas. Qog'ozni qalamim bilan alvon ranglarga bo'yab, ajoyib va hayratomuz asar yaratsam, ajab emas. Qalamim bilan olam ichra ofatlar, balki qiyomatlar solsam, ajab emas...

IX

Saltanat dengizining sof durri va xalifalik ma'danining yonib turuvchi la'l toshi, yaratuvchilik tojining asl javhari, zebu ziynati; saltanat, dunyo va dinning muhtaram kishisi, mulki va saltanati barqaror bo'lmish Sulton Husayn Bahodirxon madhini qilmoq va bu bahona bila zarrani quyoshga sog'intirmoq

Ko'nglim qalam nolasidan navo topib, so'zlashni istaydi. Ey iqbol, kelib hujramni supurgil va yostiqlarning changini oyna oldiga qoq! Baxt navkari, eshikda hozir bo'l, kim kirmoqchi bo'lsa uzrin ayt! Ey falak, xizmatni ochiq aytib, mehning sahifasini hozirla! Ey to'lin Zuhra, siyohdonimga ruxsoringni solib, uning suvini qoraytir. Mushtariy, qalam uchini tozalamog'im uchun dastor yarat! Ey Bahrom, qilichingni qinga sol, fitnachilar ham biroz dam olsinlar! Quyosh sahifangning yuzini porloq qilib, zarvaraقدan uni oltin sochuvchi et! Zuhra, sen dilnavoz kuyingni biroz chalmay tur. Ey Utorid, sen esa ostonamni o'pib, oldimga xaltachamni qo'y. Ey Oy, sen qalamtaroshimni olib hilolingning uchidan tig' yasa! Men qalamimni uchlab sahifalar aro gavharlar ekishni boshlay, shoh madhida durday pok va ma'noli so'zlarni bayon qilay.

U azaldan shohlar shohi, dinning bayrog'i, ilm tarozisi, ahli din orasida g'olib shoh bo'lib yaratilgan. Shoh Sulton Husayn bin Mansurning zafarlari butun olamga xursandlik baxsh etdi. U saxovat egasidir. Uning otasi xon bin Xon ota edi. Shohning otasi ham, onasi ham xonlardan bo'lib, jahonda uning kabi yana hoshqa bir xon bo'lmagan. Chingizxon uning ulug' otasi, Alanquva uning onasidir. U saltanat faxri. Shohlar unga qulluq qilsalar, u darvishlarga tobi'ligini izhor etadi. Ajdaho uning qo'lida chumoliday harakat qiladi, lekin u chumoliga ham marhamatli. U razm solganda chaqmoqday barq urib turadi, uning sham'i quyoshday porlaydi. U har ilmda sohibi kamol, ilmu kamol ahli esa uning talabalaridir. Uning adolatparvarligidan ko'pchilik afv marhamatiga erishdilar, raiyat esa, osoyishtalikdan bo'lak narsani bilmaydi. Qayerdakim to'polon-g'avg'olar boshlansa u bunday notinchlikni bartaraf etishda mohirdir. Olam ahli o'rtasida urush boshlansa, qiyomat bo'lganday notinchlik vujudga keladi. Tirik jonlar fano seliga g'arq bo'ladilar. Ikki tomon ikki balo tog'iday bir-birlariga qarshi turadilar. Ikki podshoh bir-birlariga qilich tortib, Rustam bilan Isfandiyorlar kabi jang qiladilar. Shunda fitnai jahon ichra salobat solib, u charx maydonida shovqin-suron solib otliq bulutday jahonni kezadi, yo'q, u sahob oyatining qatra sochuvchi bulutiday bo'ladi. Yoyu tig'i yashinday kuchga ega bo'lib, oti ajal yashinidek tez yugurib, ruhlar to'dasini qochiradi. Jismning zaxmidin jon qonga botsa, tan uning jonidan darmon oladi. Tig'larning yulduzi jilva qilganda, butun olam qorong'ulikka cho'madi. Sen bu qorong'ulik ichida quyoshday ko'rinib, chaqmoqday oting bilan falakda paydo bo'lasan va qahr bor yerni topib Bahrom kabi qilich tortasan. Tig'ing bilan qon to'kib Jayxun daryosiday oqizasan, gurzi bilan tog'ni dashtga aylantirasan. Charx nola aylab titraydi, nola qiluvchi bo'lsa bir hulutdekdir. Bu titrash bilan nola o'sha bulut tufaylidir. U do'lday yulduzlarini yerga sochadi. Ya'ni, g'alabaga shunchalik erishiladiki, charx boshing uzra gavharlarini sochadi. Bas, tig' selidan adovat yuzaga kelsa, u adovat o'tining yonmog'iga yo'l qo'ymaydi. Bir zumda iqlimni fath etib, olam ahli o'rtasida xavf-xatarni bartaraf etadi. Davlat qasrini obodonlashtirsang, razm maydonidan uni tomosha qilganingda shod bo'lasan. Qorong'u maydonni silkitganingda boda bilan ayvonni yoritgin. Turarjoying Jamshidning uyi bo'lsa, qadahing quyosh jomidan bo'lsin.

Bazmingga kelgan el ichida bellarini bog'lab shohlar xizmat qiladi. Ular qo'llarini qovushtirib, ko'zlarini yerga tikib, xizmatga shay turadilar. Toki, ularga o'tirmoqqa ruxsat berilmagunicha. Gulday yuzli Soqiyi parivash xushbo'y may tutub taqdim qiladi. Majlis shon-shuhrati shunchalik behadlarki, ahli xirad ham ko'zlarini yerdan uzolmay turadilar. Zuhrani ko'kdan tushirishib, sozandalar navo chalishga shaylanadilar. Ikki tarafdin xonandalar saf tortishib, o'ng tomondan shunday turkiy ashulalar qilishadiki, ularning xushovozligi va yoqimlilikidan jonlar rohatlanib, xalq ko'zlariga yosh keladi. So'l tomondagilar forsiy kuy va ashulalarni aytishib, Iroqu Ajamni o'ziga maftun etar darajada o'yin-kulgu yasaydilar. Jom aksidagi bu yulduz nurlar orasida Suhaylday rangi toza, aqiqday tiniq bo'lib porlar edi. Bu rayhoni mayni ichishda sening yuzing gulistoni yuzlab gullar

sochadi. Bazmda bu jannatmisol bo'ston har doim bahor fasli libosini kiyadi. Sen bahor kabi shodu xurram, bahor yomg'iridek yosh to'kasen. Har bir kuyni diqqat bilan tinglab, bevafo dahr bilan vidolashasen. Sen jisming bilan ruhoniysen, dahr bazmini esa foniyl ko'rasen.

Saltanat havasidan ko'ra faqr sultonligini afzal ko'rasen. Havasing to'g'ri so'zu dardmandlik, benavolik. Sen muhtojlik, alam yoshini har joyda shamdek so'z bilan to'kding. Sen mastlik uyini ul sel bilan xarob qilding. Jahonning bevafoqligini ko'rib ko'zingdin yosh oqsa-da, yuzing kulib boqadi. O'shanda qo'lingga qon to'kuvchi tig' olib, uning kuchi bilan butun jahonni egallading. Bu jon, kimki tarona chalib dardu alam chekkanlarga bor narsasini sochib e'tibor ayladi. U behisob may ichsa ham mast bo'lmadi, nafs hukmiga tobe bo'lmadi. May senga fano uchun sabab bo'lib, senga nuru safo ato etdi. Qanday taajjub, agar boda, nur va safolik har bir qadahda mavjud bo'lsa. Bodaning mohiyatini xarob deb bilmak va uni dam-badamgina ichmoqni bilmoq kerak. Barcha mazhabda kasalmand fosiqdan ko'ra, mag'rur zohid yaxshiroqdir. Shunday may ichib men so'z yuritdim. Mastlig' uyqusidin ko'zni yuv, hedorliging baxt qorovulidir, ertangi kun uchun esa xudo senga yor. Tong salqinida ko'zdin uyqu qochib, boshdin may o'chadi. Uzi ko'zlaridan suv oqizib, undan mahorat suvi yasa! Qibla sari yo'llanib, Tangri amrin bajo keltir. Tangrining amrini tamom hajargach, adl taxti tomon yo'llansang bo'ladi. Shunda boshingga Kayoniy tojini kiyib, so'z iqtidori bilan hukm qilsang arziydi.

Har tarafdagi mazlumlar sening hukmingni eshitib, barchasi nola qilib qo'zg'olganlarida, sen shirin kaloming va ochiq chehrang bilan xalq oldida so'z so'zlab, uning boshiga tushgan zulmini adolat hukmi bilan almashtirib shod qilursen. Birining dardiga chora topib, birining boshidan sarhisobini olib tashlab, birisining ko'kati bahosini ko'tarib, uning umr bahorini aysh-ishrat bog'iga aylantirasen, kimningki qanday orzusi bo'lsa, uning orzulariga madadkor bo'lib, uning ishlarini saranjom qilasen. Shunda ular yechilmagan ishlarini hal qilishdan ozod bo'lib, murod sari intiladilar. Unda Anushirvon ham o'z adolatini eslab xijolat chekadi va senga qoyil qolganidan boshlarini silkitib qarsak chaladi. Sening adolating kundan-kunga barqaror topib butun jahonga shuhrati taraladi. Shunda shohlik libosi qaddingga mos tushib, barcha shohlar qaddilarini sening savlating oldida egib turadilar. Sening adolating bila jahon to'lib, shunda adolatning qanday bo'lishi amalda namoyon bo'ladi. Shunda arshdan: «Uning davlati abadiy barqaror bo'lsin!» – degan nido keladi.

X

Poklik bahoristonining yashnayotgan hog'i va iffat shabistonining gavhar kecha chirog'i, ravshanlik tog'i ismining pariysi, mahabbat osmonining quyoshi, yaxshi xulq va tavsiflar maqbulidan qisqacha izhor qilmoqlik

Naqqosh yaratuvchilik san'atiga qalam uchini tekkizganida, ko'krang osmon gumbazlari g'uncha pardalaridek qavatma-qavat bo'lib

vujudga keldi. Bu biyik ayvon – chodirlar tahl-batah to‘qqiz qavat katta pardalar bilan aylantirilib, har bir parda yulduzlar durridan yasalgan injular bilan bezatildi. Bu baland pardalik saltanatda saroy egasi pardalar tevaragida qo‘riqlovchiday aylanib yurardi. U tomonga na bodi nasim va na xayol shabadasi esmas edi. Aql bu fikr bilan parishon edikim, Jabroilning egami shunday nido ayladi. Bu to‘qqiz baland niqob ustma-ust harir matodan to‘qilgandir. Hech bir mahbub u yerda sirdosh emas, balki birorta ham maloyik ham yo‘q. U yerda falak mansabdori taxtda o‘tirardi. Yerdagi poklik taxtida esa bir mohpaykar bor. U Sulaymonning ahdi paymoni, hamnishinu munisi hamdir. U Sulaymonning yori bo‘lsa hech ajab emas, agar uning oti Bilqisi soniy (ya‘ni ikkinchi Bilqis) bo‘lsa. Bu Bilqis poklikda eng ulug‘i, buyuk Xadichadir.

Falak uningdek toza zot va gavhari pokni ko‘rmagan. Uning gavharining suvi nayson bulutidandir, gavhari esa, hayot suvidandir. Shuning uchun ham uning so‘zlari jonbaxshdir, qanoatining bahri ummon durridi baxsh etadi. Lo‘la yostig‘ida quyosh ko‘zgu bo‘lib, uning jamoliga tikilib o‘rtanadi. Yo‘q, u ko‘zgu emas, abadiy uy qizidir. Uning otini goh mehr, goh xurshid deb aytishadi. U yuzini yashirmay xizmati yo‘lidan boradi. Nihoyat u titrab, sarg‘ayib yerga g‘oyib bo‘lib kirib ketadi. Uning barcha xodimlari pariyya o‘xshash, kunduz kuni yulduz kabi yashiringan bo‘lishadi. Uning pokligi bog‘idan bulbul qochib, gul g‘uncha gumbaziga yashirinib oladi. Agar u o‘zini parda bilan yashirmasa sunbul bilan rayhon undan tashvishga tushadi. Hayratdan qarashga havas qilgan nargis ham ko‘zlarini yerdan ko‘tara olmay turadi. Uning iffatligidan butun jahon ayollari imonga kirganlar. Tun oqshomida chiqqan Oy uni ko‘rib, yuzini qoraytirib olgan. Uning iffatini ko‘rgan el gapirishga ojiz. Itlari iplarining har bir tori uzilib falakka chiqsa, charx uni gardishiga o‘q qilib, farishtalar uni o‘z tasbehtariga ip qilib oladilar.

Ey, izzatu buyuklik osmonining mahbubasi. U yerdan o‘tmoqqa maloyiklarning ham majoli yo‘q. Agar sen bo‘lmasang, oy bilan quyosh ham bo‘lmaydi, ikki baxt yulduzi sening ikki farzandingdekdir. Biri fazilatda nodiri jahon, ikkinchisi jahonga lutf ato qiluvchi jondir. Biri adolat taxtining shohi bo‘lsa, ikkinchisi saltanat tepasidagi oydir. Ular Masiho kabi dardga shifo beruvchi bo‘lsalar ajab emas, chunki ularning onasi Maryamdir. To jahon turganicha ular bo‘lsunlar! Jahon ularning qo‘llarida garovda bo‘lsun! Sen bir dursenki, shohga nasihsen, shohning tungi durri, farzandisen. Ikki yoningda otashin gavhar, ikki yoningda qimmatbaho dur. Baxt uchun siz toj tepasida bo‘lg‘aysiz, shohga muborak bo‘lg‘aysiz. Soyayi iqbolingizni baland qilib, ulug‘ shoh soyasining iqboli bo‘ling! Chun azaldin jahonning shohi sizsiz, sizsiz jahon bir nafas ham bo‘lmasun!

XI

Shoh Bahrom dostoniga shuru‘ qilishdan burun bir necha so‘z aytmoq va o‘tgan dostonlarga tuzatish va o‘zgarishlar kiritilganining uzrini

*qilmoq va har bir ganj-xazinaga bir uy makon bo'lgandek, har dostonni
bir haytda nihon aylamoq*

So'z tilsimidan xazina ochgan kishining tabiati gavhar tortuvchining tarozusiga o'xshaydi. Tarozu tayyorlagan kishi o'z javohirlarini tubandagicha taqsimladi. Ko'rinot bozorining tarhini (loyihasini) tuzgan me'mor o'z binosini shunday bunyod etdiki, bu bozorda el hoshiga turli-tuman savdolar va g'avg'olar tushdi. Aql sarflovchi zarshunos, bu g'ala-g'ovurga qaramay, shu bozor ichidan do'kon ochdi va do'konining har yoniga toza gavharlarni va olovrang la'l-yoqutlarni terib tashladi. U o'z javohirlarining bahosini chiqarib, qimmatini anglagach, ularning siridan bozor ahlini shunday xabardor qildi:

Jahon dengizi ichida bo'lmish har bir la'l-javohirni baland haroratda toblab eritsa, asl toshmi-yo'qmi ekani bilingani kabi, har kim o'zining zotan bir qatra suvdan paydo bo'lganini fahm etsa bo'ladi. O'tdek toblanuvchi la'l ham, yoqut ham – hammasi aslida toshdan paydo bo'lgan. Qanday bir bebaho javohir bo'lmasin, kon uning onasi, tosh uning otasi. Xarsangga qancha shiddat bilan zarb urmang, parchalamang, baribir uning ichidagi javohirga hech qanday ziyon va shikast yetmaydi. Kishi rosa fahm-farosat bilan idrok etsa, odam ham xuddi shu toza javohirlar kabi asldir. Ota dunu (nokas, tuban) o'g'il sharafli yoki ota latifu o'g'il kasaf (kasofatli) bo'lishi mumkin va tabiiy. Masalan, Ozar o'g'li Xalillulloh butlarni sindirgan, butparastlikka qarshi kurashgan kishi bo'lishiga qaramay, uning o'g'li but yasovchi bo'lib chiqdi. Yazdajurd bilan Bahrom ham xuddi shu sifatdagi odamlar edi. Bahromning otasi sadaf kabi past edi-yu, bolasi xuddi sadaf ichidagi gavhar kabi porloq edi. Bu ajablanarli hol emas. Bunisi nimaniki buzdi, unisi borin qaytadan tuzdi. Bu kimniki o'ldirdi va majruh qildi, u malham qo'yib, ularning jismiga ruh berdi. Qorong'i tunning zulmati ketib, qorong'ilikdan quyosh balqib, olamni yoritgani kabi, bu quyosh ham shunday nurafshon bo'ldiki, butun jahonni ravshan va munavvar qilib yubordi. Xuddi mehr-munir jomdek bo'lib, hammayoqqa o'z zarralari bilan umid nurlarini sochgandek edi. Quyosh saltanat taxtiga chiqib o'tirarkan, o'z nuri bilan qanday buyuklikni ko'rsa, uni past etadi. Lekin Bahrom garchi sarkashlik qilganlarni o'z zarbi bilan tuban qilsa ham, pastda yotganlarni osmoni falakka ko'tardi ham. Kim quyun singari hammani to'zgitgan bo'lsa, tez orada uni jilovlab, tuproqqa qordi. Agar biron gavhar oyoq ostida yotgan bo'lsa, uni toj qilib hoshlarga ko'tardi. Mamlakat bog'ini adolat bahori bilan bezadi va hayot jo'ybori bilan sug'ordi. U, mamlakatni shunday ko'm-ko'k maysazorga aylantirdiki, dunyo xuddi jannatdek go'zallashib ketdi. Nimaiki zulm, bedodlik bilan vayron qilingan bo'lsa, dodu adolat bilan barchasini obod ayladi. U komronligidan, shohlar ichra pahlavonligidan shu ishlarni qildi. Uning tengini odamzod davrining hech bir tarixidan topolmaysiz. Bunday gaplar eshitilganda ham aql hech bovar qilmaydi.

Avvalgi qalam tebratgan zotlar ham o'z nomalarida shularni bayon etganlar. Ular bu tarixlarni elga ayon etganlar. Ular bu ishlarni uzoq gapirib kamoliga yetkazgan ekanlar, men nima uchun yana buni

cho'zishim kerak? Bir aytilgan gapni ikkinchi marta aytish, bir so'zni hadeb takrorlash yoqimsiz-ku axir. Avvalo, bunaqa aytilgan gaplarni aytgim yo'q, aytganda ham ularchalik ayto olmayman. Lekin bu gaplar ustida oz-moz bo'lsa ham to'xtab o'tmasam, ijod ahllari meni ma'zur tutmaslar. Modomiki shunday ekan, bu haqdagi gaplarimni qisqagina aytish bilan kifoyalanganim a'lodir, ya'ni dostonda nimaiki aytib o'tilgan bo'lsa, bu yerda bir bayt bilan o'shani eslatib o'tgumdir. U haqdagi so'zni qisqagina qilib tugatgach, o'z maqsadimning tafsilotiga kirishgumdir:

Shoh Bahrom shunday ulug' shoh ediki, butun osmon ostidagi yer uning dargohi edi. U boshlab Suhayl yulduzidek tolega ega bo'lgach, Yaman mamlakati ustida yarqirab ko'rindi. Yaman uning nuriga g'arqu tuprog'i mushkdek muattar, har bir toshi haqiqdek jilvador bo'lgan kunlarda shoh Nu'mon unga otabeklik qilib, otalardek shafqat-marhamat ayladi. Munzir degan odam Bahromga o'rtoq, hamsuhbat, ajralmas do'st va hamroz-sirdosh edi. Ka'bada Ahmadi Mursal, ya'ni Muhammad payg'ambar qanday maqom tutgan bo'lsa, Munzir ham arablar ichida shunday obro'ga ega edi. U ajamda ham arabdagidek maqomga ega bo'lib, arab bilan ajam o'rtasida bordikeldi qilib turar edi. Uning davrida Yaman g'oyat ravnaq topib ketdi, uning bu yerdagi afsonaga aylangan qasrini esa, Havornaq deyilar edi. O'sha zamonda bu qasrni bunyod etmish me'mor Sinmor nomli zot bo'lib, u osmon me'mori (arxitektori)dek aql bovar qilmas darajada san'atkor edi. Bahrom doim ov qilish va qadah-qadah may ichish bilan ovora; o'tirganda jom ko'tarish, yurgan-turganda ov qilish bilangina band edi. U ov kunlarida ham may, musiqa, qo'shiq, ayshu ishratni qo'ymas edi. U, garchi dam-hadam ichsa ham, hech qachon adolat qonunidan chetga chiqmas edi. Uning ovida sher go'rga (qulonga) hamla qilarkan, Bahrom yirtqich sher uyasini go'rga aylantirar edi. U, boshlab, ikkita sherdek shohning boshidan tojini olib, o'z otasining mamlakatini ozod qildi va ulardan xiroj oladigan bo'ldi. Sherlarning boshidan kulohlarini olishdan tashqari, bir qancha «sherman» deh hammayoqqa dag'dag'a solib yurganlarni tulkiga aylantirib qo'ydi. Ranju mashaqqatlar bilan kurash qilib, ajdarlarni halok aylab, bu mehnatlari evaziga qanchadan-qancha xazinalarni qo'lga kiritdi. U, talon-toroj qiluvchi zolimlardan o'z kishvarini tozalash bilan baravar, xalqni yetti yillik xirojdan ozod qildi. Kimki elning boshini yetti yillik kulfatdan ozod qilsa, Tangridan unga ganj-xazinalar in'om etilishi ajablanarli emas-ku! Xuddi shunday bo'ldi: qo'shinlari uni osmon singari boshlariga ko'tarib yuradigan bo'ldilar, uning dushmanlariga qarshi birlashdilar, jipslashdilar. Bir vaqtlar, u hali yo'q paytida, bir necha yuz ming askar bilan Xitoy xoqoni uning kishvarini bosib olgan bo'lsa, endi bu necha yuzgina kimsa bilan kechalari shuboxun urib, unga qaqshatqich zarbalar berdi. Nihoyat, Bahrom shunday xoqonni tor-mor etib, bu dunyodan u dunyoga qochib qolishga majbur qildi. Na xoqondanu va na uning sipohidan (askaridan) bu dunyoda asar qolmadi. Bu kabi g'alabalar o'tmishda Bahromu keyin Xusravi G'ozu, ya'ni sulton Husayn Boyqarodan o'zga hech kimga nasib qilmagan. O'z xasmidan shu kabi

kurashlar bilan qutulgach, mamlakat xalqiga ko'pdan-ko'p adolatu marhamatlar ayladi. Nihoyat, shoh Bahrom adolati soyasida yetti iqlim sakkiz bihisht kabi obod bo'lib, noz-ne'matlarga to'lib-toshdi.

Men bu dostonlarni shunchalik qisqa bayon qildimki, so'zlarim orasida birorta ham bahsga sabab bo'ladigan, tushunilmaydigan o'rni yo'q. Aytishim mumkinki, bu so'zlarning hammasi rost, hammasi ham dildan aytilgan va samimiydir. Avvalgi ikki dostonchining o'zlari ham faqat rostini aytgan bo'lib, u ikkovlari kabi rostgo'yning bo'lishi ajablanarlkdir. Ularga nisbatan biron ishtibohli so'zni oraga kiritsam, men uchun gunohdir. Tasodifan, bir chalkash gap aytib qo'yib, ishimda biron nuqson yuz berishidan qo'rqamen, albatta. Voqealarning tarixida ixtilofli o'rinlari yo'q emas, lekin bu kabi xilof — ziddiyatlar aslida tarixchilar aybi bilan yuzaga kelgandir.

Endigi men tasvirleydigan voqealar u zamondagi musannifu mualliflarga manzur bo'lmagan bo'lsa kerak. Yozilishi menga nasib etgan tarixlar xuddi muddaoyimdagi tarixlardir. Koshki shu tarixlar boshlab Bahromgo'r qissasini yozmish ustozlarimga ham nasib qilgan bo'lsa edi! Ular bu haqda juda ham g'aroyib afsonalar yaratgan bo'lur edilar. Shukrlar bo'lsinki, bu daftarni yozish menga ro'zi bo'lganu ziyofat bog'ining bu yetti bo'stonini («Sab'ai sayyor»ni) yaratish mengagina nasib qilgan ekan.

Eng a'losi shukim, shod-xurramlik bilan Tangriga shukr qilg'aymen. Tangridan ijodimga kushodu muvaffaqiyat tilagan holda, dostonni yozishga kirishgaymen. Ish boshlashdan avval shu gaplarni aytib o'tishni muddao qilgan edim, aytib tugatdim.

Ey Navoiy, ne bo'lsa guftoring, ayla bunyodkim, xudo yoring.

XII

Dostonning boshlanishi va shoh Bahromning saydga (ovga) parvozi va suratgar Moniydek bir g'aroyib zotni sayd qilgani, balki o'zi unga sayd bo'lib qolgani va hiylagar falak Moniyi ajib surat ko'rguzganidek, u Diloromning dilrabo suratini ko'rsatgani va u surat Bahromning toqat ipini uzgani

U'rgan zamon donishmandlari Eron podshohlari haqida ko'p narsalarni yozib qoldirdilar. Jumladan, shoh Bahromning qilgan ishlari haqida tarix sahifalariga tubandagi gaplar yozilgan: baland osmon Bahromning johi saltanatini falakka payvand qildi. Uning saltanatini oydan oyga, yildan yilga kengaytirib, to Rum va Chin-Xitoy o'lkalari ham; Chinning xoqoni-yu, Rumning Qaysarigacha uning hukmi ostiga o'tdi. Bugina emas, uning davlat sham'ini falak shunday yoritdiki, butun rub'i maskun (yer yuzi) uning qo'l ostiga kirdi. Eng qaysar ellar ham unga itoat qiladigan bo'ldi: yetti iqlimning barcha shoh-sultonlari ham uning bandasiga aylandi. U tojdorlarga boj, shohlarga xiroj tayin etdi. Bahrom qo'l ostidagi mamlakatlarda shunday dastur tuzdiki, xoh hind royi (podshosi) va xoh Chin fag'furi (Xitoy shohi) bo'lsin, kim qancha xiroj berishni bo'yniga olsa, shuning hammasini har yili, o'z vaqtida poytaxt xazinasiga yuborib turishlari kerak edi.

Bu qoidani butun shohlar mamnuniyat bilan qabul qildilar va unga soʻzsiz amal qildilar. Bundan tashqari, shohlar har xil qimmatli bezak-ziynat asboblarini ham Bahromga tuhfa qilib turardilar. Qaysi mamlakatda nima narsa ishlansa va qanday hosil unsa, ulardan ham keragicha xazinaga kelib tushar edi. Mollarning ozmi-koʻpligi, har birining qiymati hisobga olinar edi. Shoh Bahrom aysh-ishratni davom ettirar, uning maqsadi doim musiqa va ashula eshitish edi. Uning xizmatida mohir sozanda-yu, bazmlarida jonfizo hofizlar koʻp edi. Bahrom oʻz odamlari bilan qayerda boʻlsa, sozanda-xonandalari ham shu yerda hoziru nozir edilar. U shunday shavq-zavqqa berilgan boʻlib, oʻyin-kulgisiz sira ham qarori yoʻq edi. U ovsiz turolmas, sayd bilan band vaqtlarida ham musiqa va qoʻshiq yangrashini istar edi. Bahrom saydga oʻq otarkan, har qanday sayd ham yaralanmay qochib qutulolmas edi. Bir tarafdin, paydar-pay ovning qonini toʻkar, ikkinchidan, sayd qoniga hamrang qizil mayni tinmay siqqarar edi. Sayd ovlab yurgan paytlarida, nogahon, bir goʻzal manzil koʻngliga yoqib qolsa, oʻsha yerga qoʻnib, shu yerda aysh-ishrat bazmini qurar, qadahlarda may ichib, farah topar – huzur qilar edi. Har yondan changu ruboblarning yoqimli ovozlari eshitilar, bir yonda ov goʻshtidan kaboblar pishirilar edi. Shunday shikor (ov) qilib yurgan paytida bir baland tepalikka borib qoldi. Uning havosi gʻoyat jonfizo-yu, sahni nihoyatda dilkusho orombaxsh edi. Bazm asboblarini shu yerga tushirib, oʻzi ham shu yerda boda ichishga kirishdi. Mugʻanniylar ashulasining avji falakka yetdi, bir-biriga urishtirilgan qadahlarning jarang-jurungi ham koʻkka yetdi. Bu maydonda ichilgan mayning shod-xurramligi shohning xayolini har dam bir oʻzga olamga tortar edi. Bahrom oʻzini butkul olam ichra shoh, olam ahliga qiblagoh his etardi. Bir tarafdin dimogʻini mayboda xush qilayotgan boʻlsa, ikkinchidan, nagʻmalarning dilkash sadosi zavq hagʻishlar edi. Binobarin, u oʻzining ulugʻ martabasi haqida oʻylab, koʻnglidan shu kabi xayollarni kechirdi:

«Allohga shukrlar boʻlsinki, meni butun olam ahliga shoh qildi. Men xaloyiqni baxt-saodatga yoʻllashim, ularga nisbatan insof-adolat qonunlarini joriy qilishim kerak. Qiynalgan elning murodini hosil, benavolarni xushdil qilishim lozim».

U oʻz ishini shu tartib bilan olib borishni oʻylagan holda, hammayoqqa nazar tashlar edi. Oʻzicha shunday ishlarni oʻylab turgan paytida, uzoq dashtda koʻziga bir odam chalindi. U odam shunday shoshib-pishib horar ediki, har lahzada qadamini tezlatardi. Buni koʻrarkan, shohning xayolidan: «Yayov holda bu kabi tezlik bilan hovliqib ketayotgan odam, albatta, bechora – baxtsiz kishi boʻlsa kerak», degan andisha oʻtdi. Binobarin, shohning butun xayoli oʻsha odamda boʻlib, rioyat aylab, uning holi-ahvolini soʻrashga qaror qildi. Shundan soʻng oʻzining bir mulozimini chaqirib: «Tezda otingga min, yana bitta otni ham yetakla, darhol borib oʻsha ketayotgan musofirni otga mindirgulu xizmatimga yetkurgil!» – deb buyurdi. Haligi elchi epchillik bilan otga minib, oʻsha tomonga ot soldi va shoh aytganidek qilib u musofirni olib keldi. Shoh lutf-marhamat bilan musofirdan hol-ahvol soʻradi. Biyobonni kezib ketayotgan bechora avval shohga taʼzim qilib yer oʻpdi, soʻngra oʻrnidan turib, hurmat

va tavoze bilan fasohat va malohat to'la ma'noli so'z boshladi. U so'zini shunday afsunsoz boshlab, oxirini shohga madh-sano bilan tugatdiki, gapini eshitganlar unga qoyil qolib, ofarin o'qidilar; uning pok qalbidan chiqqan gaplariga, sidqidildan aytilgan duolariga oq dur deb baho berdilar. Shoh uning ketishini istamay, o'z yonidan joy ko'rsatib, shu yerda qolishini iltimos qildi. Uning oldiga gunogun taomlar tortdilar, jomlar to'la may bilan mehmon qildilar. Mayning kayfi musofirning boshini qizdirar, shoh esa, undan ketma-ket va paydar-pay gap so'rar, savol-javob qilar edi. Shoh unga nimalarni xitob qilmasin, u shunday javob qaytarar ediki, shohdan tortib o'tirganlarning hammasi tahsin o'qir edi. Shunda shoh bu dasht kezuvchi odamning jahongashta va dono ekanligini payqadi. Undan ko'p ajoyib gaplar eshitish mumkinligini payqab, tubandagicha bir g'aroyib so'zni so'radi:

«Ey, jahondagi hamma joylarni qadam-baqadam kezib chiqqan, balki bu jahondan qo'lini yuvib — tarki dunyo qilgan zot! Savol-javoblardagi kalomingdan, uning ustiga, sarsari shamol kabi yurishingdan ma'lum bo'lib turibdiki, sen ko'pgina ilmlardan xabardorsan, dunyoning hamma yerida bo'lgansan va ko'p narsalarni ko'rgansan. Iltimos qilaman, o'zing kimsanu hol-ahvoling qanaqaligini bayon et hamda ko'rgan-kechirganlaringni bizga ayon et. Sen, shubhasiz, butun umringni musofirlikda kechirgansan, shaharlarni sayr-tomosha qilgansan, biyobonlarni kezgansan. So'zsiz, sen bag'oyat ajoyib hodisalarni ko'rgansan, safar vaqtlarida ko'p narsalar diqqatingni o'ziga tortgan, senga manzur bo'lgan. Ko'rganlaring ichida dunyoda shundan ham g'aroyib va ajoyib narsa yo'q, deb o'ylaganlaring ham hordir. O'zingga bizni sohib asror et, ul nihon nuktadin xabardor et. Sen bizning zamonamizda yashagan kishilarning eng g'aroyibi ekansan, jahon ichidagi bor ajoyibotlar senga ma'lum ekan. Kishi hayotida ikki turfa holat bo'ladi, ammo ikkalasi ham juda mushkuldir. Shularning ikkalasidan bizni xabardor qil va biz shu ikki nodir narsadan bahramand bo'laylik».

Jahongashta yo'lovchi yer o'pgach, shunday dedi:

«Ey, o'z lutf-karami bilan murod-maqсадiga yetgan shoh! Garchi sen so'ragan gaplarni hech zotga hargiz aytmas erdimu, ammo senga aytmaslikka ilojim yo'q. Ha, mening nihoyatda maxfiy saqlab yurgan rivoyatlarim, bag'oyat ajoyib hikoyatlarim bor: men bu dashtda rahnavardiman (yo'lovchiman), o'z ishimda zamona fardiman. Hech kim menga ulfat va hamnafas bo'lmadi, o'zim ham hech kimsaga sir va rozimni aytmadim. Rozimnigina emas, o'zimni ham ko'pincha odamlardan yashirib yurdim. Yugurib-yelib, butun dasht-biyobonlarni jahd-jadallik bilan kezishdan maqsadim shuki, men osmoni falakni changu g'uborxonaga qilib olgan jahon shohi Bahromning dargohiga yetsam, uning tuprog'iga yuzlarimni surtsam, degan umid bilan yashayman. O'zimning kimligimni unga aytsamu yuragimda saqlab yurgan maxfiy gaplarimni unga bayon qilsam, deyman. Sen esa, uning dargohiga yetmasimdan bu so'zni mendan so'rading, bu taajjublanarli ishni menga buyurding. Aytmayin desam, sen meni juda xursand qilding, aytsam, o'z maqsadimga xilof ish tutgan bo'laman. Sen

ham ulug' va sharaflı, olam ahliga shoh bo'lishga arziydigan kishiga o'xshaysan. Sen shoh Bahrom bo'lmasang ham, maqomu martabang undan kamga o'xshamaydi. Sen u bo'lmasang ham, xuddi o'shanga o'xshash odam ko'rinasan, garchi uning tengi bo'lmasang ham, xuddi o'shaning o'ziga monandsan. Sen haddan ziyoda odamgarchiliging bilan men kabi g'alati, hushyor qushni rom qilib, o'z tuzog'ingga ilintirib olding. Lekin maqsadim tamom boshqacha bo'lib, butun gap-so'zimni boshqa odamga (Bahromga) aytish niyatida edim. Ko'nglimga ikkita g'amning alamini solding: aytmasam ham yomon, aytсам undan battarroq...»

Shoh Bahrom bu gaplarni eshitarkan, bog' kabi yashnab, gul kabi ochilib ketdi. Shundan so'ng tilini chirog' shu'lasidek qilib dedi: «Ey, dashtlarni shitob bilan kezib yurgan odam, bilgilki, «axtargan — topadi» degan maqol bor. Sening baxting yulduzi kom-maqsadingni yuzaga chiqazibdi, murodingga yetganing holda, sen bundan g'ofilsan. Tashna lab bo'lma, suv to'la daryo yoningda turibdi; bunchalik zorlanib tashvish tortma, shodlikka erishadigan joydasan. Istagan muroding hosil bo'lgan, gapingni gapiraver. Sen shoh Bahromni qidirib yurgan bo'lsang, topding, u sening huzuringda turihdi.»

Shunda bu yo'lbosar odam chekkan ranj-mashaqqatlari bekor ketmaganini, qanday ganj-xazinani axtarib yurgan bo'lsa, uni qo'lga kiritish baxtiga muyassar bo'lganini fahmladi. Yana boshqatdan shohga sajda qilib, shukrona bajo keltirdi va uning haqiga ko'p beqiyosu beandoza duolar qildi. Yana ta'zim bajo keltirib, yer o'parkan, odob bilan o'tirib, shodu xurramlik bilan so'z og'oz etdi: «Shohimiz ikki hadisga javob berishimni buyurdilar, uning biri: «Kimsan? O'z holatingdan gapir!» farmonidir. Eshitishni lozim ko'rsalar, uni arz etayin: meni jahon ellari Moniy deb ataydilar. Xotirim juda ko'p bilimlar bilan boyigan, lekin dunyoda rassomlik bilan shuhrat qozonganman.»

Shoh ham xuddi shu odamni ko'rish niyatida ekan, Moniyning visoliga yetish zavqi-shavqi bilan to'la ekan. Uning ko'ngli shunday shodlanib ketdiki, go'yo o'lgan kishining tanasiga qaytadan jon kirgandek bo'ldi. Bahrom Moniyini quchoqlab, juda ko'p iltifotlar qildi: u ham xuddi dunyoga yangidan kelgandek bo'ldi. Lutf-ehson bilan ko'p karam-saxovatlar qilgach, nihoyat, ikkinchi gapni ham so'radi. Shunda, roviy tubandagi afsonani bayon qildi:

«Yetti iqlimni sayr-sayohat qilib, aylanib chiqdim. Dunyoning qaysi burchagida qanday g'aroyib narsalar bo'lsa, uni o'z ko'zim bilan ko'rish menga nasib bo'ldi. Dunyoning boshqa o'lkalarida ko'rganlarim unchalik bo'lmasa ham, yo'lim Xitoy sari tusharkan, u yerda mol-dunyosi ko'p bir savdogarga uchradim. Uning la'li gavharlari dengiz va konlardagichalik ko'p, o'zining qadri-obro'si ham jahonning yuzlarcha xojasiga tenglashadi, desam bo'ladi. Uning bizoatidagi naqd oltin-javohirlarning o'zi yuz ming tumandan ortiq keladi, mol-mulki esa, bulardan ham ko'proqdir. Tuhfa qilishga arziydigan har turdagi matolari ham behisob, qanchadan-qancha la'lu gavharlari bor. Lekin u shunday noyob bir durga egaki, uni dur emas, bazmlarni qizdiruvchi oy desa bo'ladi. U shunday mahvash — go'zal o'yinchiki, uni ko'rib butun

Xitoy — Chin xalqlari bezovta boʻlib qolgan. Odam bolasi ichida bunchalik husndor yoʻq va boʻlishi ham mumkin emas. Kim uni koʻrsa unga oʻz jonini bergudek boʻladi. Mahodo, biron odam uni koʻrganda jon bermay qolsa, u goʻzal oʻz qoʻliga chang olarkan, endi uning holiga voy, deyavering. Agar, uning changi jonfizo sado chekib, oʻzi u ohangga joʻr boʻlib navo qiladigan boʻlsa, adoyi tamom boʻladi. Men kabi odam uning haqida yuz ming marta gapirgani bilan, bari bir, u goʻzalning vasfini ming yilda ham sharhlay olmaydi. Xojasi u jonon uchun sandal va ud kabi muattar yogʻochlardan nihoyatda zeb berib maxofa — koʻchma taxt yasattirgan, biron joyga boradigan boʻlsa, shu maxofaga solib, toʻrt kishi uni koʻtarib olib boradi. Egnidagi libosi Chin ipakligidan boʻlib, chiroyli, alvon rangda u libos xuddi atlas kabidir. Kiyimlar yana laʼl-gavhar kabi javohirlar bilan bezatilgan. Mohpaykar goʻzal esa, shunday zebo libosga oʻralgan. Xoja unga ud va sandal yogʻochlaridan chang asbobini yasatib bergan. Agar, Zuhra yulduziga oʻxshash u goʻzal shu changni chalib kuylaydigan boʻlsa, xoja u parivashni Zuhra u yoqda tursin, Mushtariyyu yana yuz ming boshqa yulduzlarga ham alishmaydi. Butun javohirot bilan savdo qiluvchi boygʻani kishilar u goʻzalga xaridor boʻlib, haddan ziyoda ganj-xazinalar bersa ham, laʼli gavharlarning bahosi unga teng kelmay, mushtariy — xaridorlarning hojati ravo boʻlmay qolgan. Kim uning visolini koʻrishni orzu qilsa, Xitoy xiroji qimmatida haq toʻlashi lozim emish. Boshlab, Xitoy xoni uni baholab sotib olishga mayl qildi-yu, ammo arkoni davlat bu fikrdan xursand boʻlmay, dedilarki:

«Bunday ishni qilishdan foyda yoʻq, sen butun Xitoy xirojini uning qimmatini uchun berasan-da, keyin oʻzing sipohlarningning qochib ketishiga sabab boʻlasan. Axir, shohning qoʻlida mamlakat xiroji boʻlmagach, uning nima ahamiyati qoladi. Bir dushman hujum qilsa, unga qarshi yetarli lashkaring boʻlmasa, lashkaring boʻlsa ham ularga berish uchun mablagʻing — urush qurollariyu kuch-qudrating yetmasa, el-yurtning hoshiga ne kunlar tushmaydi? Nafsning oʻpqoniga oʻzingni otma, xalqni ham, mamlakatni ham xaroh etma!» — deyishdi. Shoh bu soʻzni eshitgach, oʻylab qoldi, xalqning ham, oʻzining ham qiynalib qolajagini hisobga olib, bu ahddidan qaytdi.

Men senga xizmat qilsam, degan niyatda edim. Baxtu toleim yor boʻlib, murodimga yetdim. Mana, hozir senga qulluq qilish, tuh fayu inʼomlaringni olish imkoniyatiga ega boʻlib turibman. Men hayot suviga rang-boʻyoq qoʻshib, u parining suratini chizganman. Agar bu surat xuddi uning oʻziga monand boʻlmasa ham, unga namudor oʻxshashligiga shubham yoʻq», deb bir chin harir ipakligini chiqazib, shunga u goʻzalning rasmini chizganini aytdi. Unga qoʻngan gardlarni koʻzlari bilan artarkan, oʻrnidan turib, darrov matoning taxlovini yozib, shoh huzuriga goʻzalning suratini qoʻyib qoʻydi.

Shoh esa, bu parining suratini koʻrishi bilan devona boʻlib qoldi. U oʻzini yoʻqotib, hech kim bilan bir ogʻiz gaplashmadi va oqshomgacha undan koʻzini olmay oʻtirdi. Shoh unga tinmay nazzora qilar, ishq esa, uni bir hechora odam qatoriga kiritib qoʻygan edi. Bu taajjub suratni koʻrishi bilan uning joniga balo oʻti tushgan edi.

Shunda Moniy Bahromning ahvolidagi oʻzgarishni koʻrib aytdiki:

«Ey shoh, ogoh bo'l va tezda harakatingni qil! Tag'in, nogahon, falakdan bir kor-hol yuz berib, sen o'zingga kelguncha u pari qo'ldan ketib qolgudek bo'lsa, uning ilojini kim qila oladi?»

Shoh dediki: «Ey, bu g'amda menga darmonim, rohati jonu ofati jonim! Meni bu surat o'ziga shaydo qilib qo'ydi, shaydoyilarga aql qaytib kelmaydi-ku. Sen og'ir ahvolimga rahm qil, sen dardmand aylading, endi davoni ham o'zing top! Tez ayt, nima qilsam bo'ladi? Uning visoliga qanday yetgayman? Hayhot!»

Shunda Moniy aytdiki: «Bilarmon va o'tkir fikrli kishilardan tezda vakil yuboraylik. U go'zalga kim xaridor bo'lsa, narxi Xitoy mamlakatining xirojiga tengdir. Agar u parining visolisiz yashayolmaydigan bo'lsang, jamoli nazarim qarshisida tursin desang, uning narxi navosi va qimmatli ma'lum, o'shani bersang, yuraging o'tiga suv sepasan-qo'lasan. Yo Xitoyning bir yillik xirojidan kech va yoki Xitoy qo'g'irchog'ining xayolidan kech».

Shoh dedi: «Ko'nglimning holati shu bo'ladigan bo'lsa, Xitoy moli emas, jahon molidan ham voz kechaman. Nimaiki qimmatli narsa bo'lsa, u ofatijon uchun beraman va yana unga jonim bilan minnatdorchilik izhor etaman», — deb poklik va bilimdonlik fazilatiga ega bo'lmish yuzta kishini va bir qancha axta qul bilan kanizaklarni qo'shib, u siymbar sarvqomat go'zalni avaylab olib kelish uchun jo'natdi. Ular tezda Xitoy kishvariga borib, u oyni xojaning qo'lidan chiqarib olib kelishlari kerak edi. Bulardan tashqari, Bahrom Chin xoqoniga bir noma yozib yubordi, nomada u go'zalning bahosi uchun Xitoy tomonidan Eronga beriladigan yillik xirojni jamlab, elchilar qo'liga berilishi buyurilgan edi.

Shundan so'ng, safar qilishi lozim bo'lmish kishilar aytilgan tarafga qarab ravona bo'ldilar. Bu yerda esa, Bahromu uning notavon joni va qo'lida suratu yonida Moniy qoldi, xolos.

XIII

Diloromning diloro husni haqida so'z surmak va uni Bahromi bedilga olib kelmak va uning visoli sham'i bilan ishrat shabistonini ravshan aylamak va hajr xazonidan qutulib, visol bahorida g'unchadek ko'ngillarining gul-gul ochilmog'i

Shunday qilib, Bahromning hukmi asosida, elchilar Xitoy tomon jo'nab ketdilar. U kishvarga borib yetganlaridan so'ng, elchilar orasida bo'lmish donishvar rahbarlar xonning huzuriga borib, Bahromning maktubini berdilar va gap nimaning ustida ekanini bir-bir bayon qildilar. Xon minnatdorchilik bilan nomani ko'zlariga surtdi va yuz xil iftixor bilan bu xizmatni ado etajagini bildirdi. So'ng, xojaga odam yuborib, uni o'z huzuriga chaqirtirdi. U kelgach, yuz xil quvonch izhor aylab, sarvi gulruxga shoh Bahromdan sovchi kelganini, uni sotib olajagini xursandchilik bilan gapirdi. Buni eshitgan on xas kabi tuban xoja u jononni pulga sotdi, bunday savdoni shu kabi savdogarlarga qiladi, xolos. Uning bahosi mamlakatning bir yillik

xiroji edi, bunga ikki taraf rozilashdi ham, bu mablag'ning hammasini xon unga to'ladi. Xon bu tomondan borgan elchilarga ham in'om-ehsonlar berib, o'z vatanlariga kuzatdi. U odamlar shoshilinch yo'lga tushib, mil-bamil dashtlarni bosib borar edilar.

Shoh esa, bu tomondan hijron azobini chekib, joni zoridan nola tortar edi. U shunday holdan ketgan ediki, jismi qildek ingichkalashib, o'tayotgan har kuni ko'ziga bir yilcha ko'rinmoqda edi. Bahrom tunu kun nolayu afg'on chekar, yorga intizorlik azobi uni qiynar edi. Uning ko'nglida sabr-toqat qolmagan, faqat har doim suratga boqib o'tirar edi. Habibasining suratini ko'rish hajrining g'am-kuduratini bir qadar unutar edi. Goh hushi o'zida va behushlik bilan uni quechmoqchi bo'lib, og'ushini ochar edi. U o'z xonasida bir soat o'tirolmas; qasrda ham, bog'da ham turolmas edi. Qasrda o'yin-kulgi hazmi qurgani holda, ko'zi hazmda emas, yo'lda bo'lar edi. Uzoqdan bir qorami yoki gardmi ko'rinib qolsa, hovliqanidan o'zini yo'qotib, el orasida anchagacha o'ziga kelolmay o'tirar edi. Shunday mazasi qochgan ediki, go'yo zilzila eski uylarni yiqqanidek, cho'zilib-sulayib qolgan, badani zaifligidan titrar edi. Azoblanayotgan tani zori bir qadar o'ziga kelsa, odamlar unga tomon qarashar va hol-ahvol so'rar edilar. Jonondan xabar va nishon topmagach, yana jonidan o'tlig' fig'on chekar edi. Aysh-ishrat xonasida turishga toqati qolmay, ov qilish bahonasi bilan otga minib jo'nar edi-yu, zora yorimdan bir xabar topsam, degan umid bilan to'ppa-to'g'ri Xitoy yo'li tomon borar edi. O'sha yo'lda ko'ziga har qanday odam ko'rinsa, bir xushxabar eshitish uchun, o'shandan surishtirib ko'rar edi. U dilbarining mamlakati haqida har xil afsonalar so'rar, savoliga javob topsa ham yana surishtiraverar edi. Moniy esa, shohning bu qadar oshiftaholu parishonligidan hayratda edi. U doim turli-tuman hangomalarni gapirib, gapining yoniga yana boshqa bir tasvirotni qo'shar, aytayotgan hikoya va afsonalarni shohning ko'nglini chalg'itib, uni ovuntirib turish uchun iloji horicha cho'zar edi. Moniy yordan o'zga nimani gapirsa, shoh eshitsa ham, hech narsa anglamas edi.

Ha, kimki ishq domiga muftalo bo'lar ekan, yor vaslidan boshqa nima ko'rsa va eshitsa, unga baloday tuyuladi. Hajr o'ti uning jonini qancha kuydirsa, sabr degan so'z o'tga yog' quyishning o'zidir. Hajr oshiqni qanchaki zorlantirmasin, baribir uni intizorlikdan qut-qazolmaydi.

Xulosayi kalom, shoh Bahrom shu ahvolda qancha vaqtgacha ishq dardidan beorom bo'ldi. Shu asnoda, to'satdan bir elchi yugurib kelib, uning hamma maqsadlari hosil bo'lganini aytdi. U, shohga mujda — xushxabar yetkazib, unga baxt-saodat yor va madadkor bo'lganini bildirdi. Shohning butun dardu g'ami o'sha quyoshda edi, endi u mehr hajrining qorong'i kechasini o'z nuri bilan yoritadigan bo'ldi. Ammo shunga qaramay, shohning jismiga iztirob tushib, ko'nglining holati battar xarob bo'ldi. Axir, hajr azobini chekib turgan xasta oshiqqa birdan visolga erishish halokatlidir.

Xayriyatki, sarvi siymin tan shohning hajr shomini ravshan ayladi. Zero, Xitoyga ketgan hamma odamlar eson-omon yetib

keldilar. Baxti ochilib, murodiga yetgan shohni salomat koʻrdilar. Ular, boshlab, Xitoy xonining gap-soʻz va maqolotini, har turdagi tuh fayy sovgʻasini shohga taqdim etdilar. Bundan tashqari, to sumanbar goʻzalning bahosi uchun toʻlanmish xirojgacha boʻlgan hamma xarajatlarni xoqon oʻz ustiga olganini ham bayon etdilar. Yuzlab quyoshlar xaridor boʻlmish gulchehra parivashni keltirganliklarini ham izhor etdilar. U gul safarda hech qanday qiynalmay, issiq havoda soʻlib pajmurda boʻlmay keldi. Shoh bu xizmatlari uchun elchilarga shunchalik koʻp ehsonlar qildiki, ular kutganidan yuz martalarcha ortiq edi.

Shoh hukm qilib: «Olam ahli boshiga shoʻr va yagʻmo solmish sarvi raʼnoni xos haramga tushirsinar va hujrayi xosga kiritib qoʻysinlar!» — dedi.

Shoh hukm qilgan oʻsha ravzaga hur kirib, oʻrnashdi. Hur boqqa kirishi bilan shoh ham uning yoniga ravona boʻldi. Shoh zarnigor qasrga kirish uchun shitob aylar, ammo koʻngli bardam boʻlgani holda, oʻzi betob edi. U, yorning ishqidan mast va may ichgani uchun sarxush boʻlgani holda, goʻzal mahvashning huzuriga kirib bordi. U bogʻi jannat ichida zeb-ziynat bilan bezatilgan — hashamdor qasr boʻlib, qasr ichida ham jannat bor edi. Jannat ichida esa, bir ruhoniy hur, yoʻq, hur demayman, nuroniy quyosh oʻtirar edi. Uning sochidan toʻtovonigacha fusunu sehr boʻlib, boshidan toʻoyogʻigacha pardozu zeb-ziynat edi. Ikki yuzida qora kokillar Chin mushki singari muattar hid sochib turar edi. U hidlar butun bogʻi bihishtni oʻz atriga koʻmib tashlagan. Goʻzalning ikki chakkasidan osilib turgan ikki qora kokili tun — kechaga oʻxshar edi. Ularni kokil ham, tun ham emas, tuzoq deyavering. Ammo har bir tuzoq Laylani, yaʼni kechani va goʻzalni eslatar edi. U tuzoq ostidagi lola va nasrin gullari singari oq-qizil yuzida ikki ohu koʻzlari kulib turar edi. Bu koʻzlar kiyikni, uning qorachigʻi esa, Xoʻtanning kiyigidan olingan ipor hidli qora mushkni eslatar edi. Shom tusli bir xoli boʻlib, u yuzining oppoq bir nuqtasiga joylashgan. Yuzi gulzoru undagi ikki labi ikki ajib gulbargni eslatardi. U lablarning har biri jon shirasi bilan toʻla, u shiralari obi hayotdirlar. Kimki shu sharbatlardan totish baxtiga muyassar boʻlar ekan, agar oʻlgan boʻlsa, jon topib tiriladi. Ogʻzi shunchalik bejirimki, goʻyo bu laʼl lablar ochilmaydi, deb oʻylaysan. Ajablanarlighi shundaki, u lablar ochilganda, u ogʻizdan gap oʻrniga dur sochiladi. Bunday dur toʻkadigan laʼl labni kim koʻrgan? Jon shirasi yashiringan bunday gulni kim koʻrgan? Laʼlni u yonga qoʻy, agar lab uning joni boʻlsa, jon soʻzidagi arabcha nun harfi uning baqbaqasi davrasini tashkil etadi. Taqdir kotibi unga jon yozar chogʻida, nun harfini sigʻdirolmay, quyiroqqa yozib qoʻygan ekan. Binobarin, uning yuzidagi kuldargich — gʻabgʻabining davri nun harfi boʻlsa, nun oʻrtasidagi nuqta u gʻabgʻabining chuqurchasidir. U goʻzalning tishlari esa laʼl ichidagi durga, balki obi hayot ichidagi shudringga oʻxshaydi. Qoshlari butxona peshtoqidek bir-biriga tutashgan — payvasta; bu peshtoqlar ichida esa ikkita berahm koʻz mastona hoqib turadi. Yoʻq, bular peshtoq ham emas, masjidning anbar hid taratib turgan

qorong'i sajdagohi — mehrobidir. Har bir qulog'ida porloqraxshon dur qadalgan isirg'a bo'lib, ular ikki yulduzdek yaltirab turadilar. Ular yulduz bo'lganda ham quyosh atrofida qiron qilmoqchi bo'lgan fitnagar yulduzlarni eslatadilar. Endi, qaddi-qomatiga kelganda, bilishtdagina bo'ladigan nozanin niholning xuddi o'zginasi bo'lib, ruhining tabiatidan bilinib turibdi. Xususan, u kulib, jilva qilganda ruhidan xuddi o'shaning nishonasi ko'rinish turadi. Beli ipdakkina nozik bo'lib, axtargandau ipni vujudida topishingiz amrimaholdir. U shunday ingichkaki, qaraganingiz bilan ko'rolmaysizu yana harir liboslar ichiga yashiringanini aytmaysizmi. Vujudi harir gulnor rangida-yu, uning ustida nozik zangori ko'ylagi bor. Bu gul va sabzarang bir-biriga juda kelishib turibdi. Uning ustidan kiygan to'ni esa, nozik binafsharang matodandir. Liboslariga turli qimmatbaho injular qadalgan bo'lib, u javohirlar jilvasi har qanday kishining ruhini o'ziga tortadi. To'ning rangi aqlni ozdiradi; kishi ruhi esa, unga qadalmish javohirlarga maftun va mahliyo bo'lib qoladi. U hurdir, yo'q, hur demayman, paridir, yo'q, pari ham demayman, u xuddi bashar ofatidir. Labi so'zlaydigan bo'lsa, elu xalqning jonini oladi; zero, uning lablarini ko'rganda jon uyaladi. Aksincha, lablaridan hayot suvi oqadi va ko'zidan esa ajal o'qi yog'ib turadi. Shunchadan-shuncha jamolu go'zalligi ustiga yana yuzlarcha noz-karashmayu g'amza-adosini aytmaysizmi!

U sarv bo'yli sohibjamol shohni ko'rdi-yu, o'rnidan turib, qulluq qildi; shoh esa, unga lutfu marhamat ko'rsatdi. Jonon yuz tuman mehr-muhabbat bilan yer o'pib, tavoze ko'rsatdi; har bir tavoze noz-istig'nolar bilan to'la edi. Shoh uning zebo nigohini ko'rgach, ko'ngli betoqat bo'lib ketdi. U, boshlab, uning suratini ko'rganda behol bo'lgan edi, endi esa, qog'ozdagi suratiga nisbatan yuz karra go'zalroq yuzini ko'rib behol bo'lib qoldi. Qog'ozdagi suratining o'zi shohning na jismini, na jonini qo'ygan edi, endi butunlay bejon bo'lib qoldi. Suratiga boqa olmagan odam uning go'zal yuziga boqishi mumkinmi? Boqqanda ham o'zini yo'qotmay qola oladimi?

Xullasi kalom, shoh Bahrom o'z murodiga yetdi, murodiga emas, Diloromiga yetdi. Bu joy har taraflama xoli va xilvat edi, mahbubaning amri bilan yana hammayoq berkitildi.

Bundan o'zga nima desam bo'ladi? Pinhoni ne ishlar bo'lganini aytishim mumkinmi? Kim qiziqsa, fikr qilib, o'zi topib ola qolsin... Men, albatta, u yerda nima ishlar yuz berajagini aytolmayman, axir, u xonaga na nasimu, na shamol kira olmaydi-ku. Mahvash yor bilan oshiq shoh ikkisi bu yerda nima ish qilganini bilmaganimiz a'lodir. Balki el xuddi shu yerda mening bir fikr aytishimni istar, ammo, afsuski, bunday salohiyat menda yo'qdir. Uzi!

XIV

Manglayi Zuhra yulduziday yaraqlagan oy yuzlining nag'masi shohni zor-zor yig'latgani va ko'ngil qushi uning changi torlariga giriftor bo'lgani va changdek nolon ko'nglini u go'zaldan o'zga hamma



Bahrom qora qasrda.

narsadan xoli qilib, jon rishtalaridan fig'on tortgani, uning azoblovchi qo'lidan, balki qo'li zarbidan jon iplarining nolayu fig'oni dam-badam ortgani

Shunday qilib, murod-maqsadi hosil bo'lmish baxtiyor shoh yorning visoliga yetish bilan quvonib ketdi. Uning ikkinchi mashg'uloti qadah bilan, sozu mayi nob bilan qo'shiq edi. Goh jannatmisol gulshanda, qasrning jannatmonand bog'ida shohona bazm tashkil etar; goh u hur istiqomat qiladigan parixonada sarvi gulruhning jamoliga shaydo bo'lgani holda, dam-badam aqlu hushini yo'qotib o'tirar edi. Sarvqad ham may ichib, nastaran kabi oq badaniga gulrang liboslarini kiygan holda, changni qo'liga olib, torini chertar va yorning jon ipini uzar edi. Uning chang atalmish sozi so'filarning qaddi-qomati singari egik edi. Shoh ham xuddi so'filik yo'lini tutgan kimsalarga o'xshash munkayib, boshini quyi solib, oh-voh qilib o'tirar edi. U o'tirgan joyidan qo'zg'almas, yurish to'g'risida o'ylamas, lekin maqom kuylari ta'sirida xayolan sayr qilgani-qilgan edi. U xuddi ibodat qilayotgan kishilardek, belini mahkam bog'lab, qaddini bukib o'tirar edi. Uni so'filik yo'liga kirgan dema, yo'q, u xarobotiy, ya'ni mayxonadan chiqmaydigan zotlarga o'xshardi va qiliqlari esa, ixlos bilan butga cho'qinib o'tirgan odamni eslatar edi. Beliga zunnor bog'lab olib, kishilarni butxonaga undovchilardek, har doim qiroat bilan xonish qilar; mayxona mug'lari singari alyor aytib, elni dindan ham, aqldan ham ozdirganidek, o'zi nima qilayotganini bilmas edi. U, afsonaviy xushovoz qaqnus qushiga o'xshamasa-da, og'zidan har xil g'alati ovozlar chiqarar edi. Yo'q, u xuddi qaqnus qushiga o'xshar, axir, qaqnus xushovoz bo'lib, uning tumshug'idagi 360 teshikdan 360 xil ovoz va ohang chiqar edi-da. Aslida musiqa ohanglari qaqnus ovozlariidan olingan, bu qush ming yil umr ko'rgach, o'zini o'tga tashlab yonib ketar ekan. Shoh ham o'sha qaqnus qushining yo'lini tutib, o'z ohanglari bilan olamga o't solgudek bo'lar edi. Chang teshiklaridan mungli ovozlar chiqarkan, kishiga uning torlaridan o't sachragandek tuyular edi. Bir tarafdin, bunday uzoqdan nazorat qilgan odamga, bularning manzarasi qaqnus bilan tovus jo'r bo'lib, bir ohangda kuylayotganini eslatar edi. Garchi u go'zalning jamoli tovusdek jilvagar bo'lsa ham, ovozi bulbul ohangidek yoqimli edi. U bulbul kabi ming xil ohangda doston o'qir, qaqnus esa, unga qo'shilib kuylar edi. Xullas, gulrux bulbul kabi navo qilar, uning navolaridan odam o'rtanar edi. Uning nolalarini eshitar ekan, shoh Bahromning bir dam ham usiz turishga toqati yo'q edi. Uning liqosidan (yuzidan) bir nafas ko'zini olmas, qulog'ini esa, navosidan uzolmas edi. Bahromning ko'zi go'zalning yuzida, qulog'i uning navosida, joni yorning g'amida. ko'ngli esa, uning xayolida edi. Shoh undan ajramasdan, jonsiz bo'lib qolgan; mabodo undan ajrasa, bejon bo'lib qolishi muqarrar edi. Kechasiyu kunduzi kuy eshitar, boda ichar; uning yuzi bazmda buning ishratxonasini yoritirar edi. Diloromni ko'rmasa, uning joni qolmas; ko'rgan zamon tanasiga joni qayta kirar edi. Bahromning may ichishdan maqsadi yorning navosini eshitar bo'lsa, Dilorom husnining jilvalanib turishi bunga jon bag'ishlar edi. Ular goh dilkusho bo'stonda aysh-ishrat qilsalar,

goho qasrning jonfizo ayvonida o'ynab-kular edilar. Shoh yer yuzida, bu parizod bilan, falak esa, osmonda o'z quyoshi bilan bazm tuzar edi. Yor navo cheksa, bu oh-fig'on tortar; u ruxsorini ko'rsatadigan bo'lsa, bu jonini bag'ishlar edi. Ikkovlon saholarni kezib, dashtlarni aylanar ekanlar, qilgan ovining xursandchiligiga yana may jomini sipqarar edi. Shunday hollarda ham yorga o'z hajrini — sog'inchini bildirmas, chunki uni bir nafas o'z yonidan jildirmas edi.

Aslida u o'hu ko'zli go'zal Chin diyorida parda ichida o'tirar edi. U, zotan, Xo'tan dashtlarida tug'ilib, yashab, istiqomat qilgan bo'lib, o'sha yerning gulzor va maysazorlarida o'ynab-kulgan. Mushkdek muattar hid sochuvchi bu kiyik, lola va sabzalar ichida o'sib-ulg'aygan. U shu xususdan ham dashtlarda sayr etishni g'oyatda xush ko'rar edi.

Shohga ham dasht-biyobonda chopib, sayr qilishdan quvonchli narsa yo'q edi. Sayd qilmoq ikkalasining tabiati uchun yoqimli bo'lgani uchun, bular doim sayr qilishdan zerikmas edilar. Sayr paytida shoh ov qilish bilan band bo'lsa, uning mohro'y hamrohi o'zining mahdi-belanchagida o'tirar edi. Shoh sayd ovlash bilan ovora-yu, moh shohni sayd etish bilan band edi. Qaysi bir saydni shoh ovlab, halok etsa, u sho'x go'zal soz chalib, uni tabriklar edi. U o'z sozining sadosi bilan jahonga sho'ru g'ovg'a solar, jahonga emas, balki baxtiyor shohning yuragida bezovtalik qo'zg'atar edi. Shu payt, shavq o'ti bilan yongan ozoda shoh mahvash yoridan may-boda tilar edi. Maqsadi esa, yuragida yongan o'tni shu suv bilan so'ndirish, alanganing shu'lasini pasaytirish edi. Aksincha, may, xuddi yolqin singari, shohning, shavq-zavq shu'lasini battar lovellatar edi. Nag'ma — soz shoh yuragining o'tini biroz pasaytirsam ham, boda xuddi o'tga yog' quygandek haroratini oshirar edi. Bu o'tning alangasi qancha ko'tarilsa, shoh shunchalik bexudlik bilan oh-nola chekar edi. Shoh, ovdan keyin, bir xoli manzilni topib, dilbari vaslidan kom va orom olar edi. Hamrohi Dilorom bo'lgach, nima uchun murodini hosil qilmasin? Shohning baxti qanchalik kulsa ham borgan sari hayajon va iztirobi ortib afzun bo'lib borar edi. U bilan birga paytida iztirobi kuchaygani kabi, undan sal ayri tursa, ko'ngli xarob bo'lar edi. Shoh u mahbubaga shunchalik berilgan va muhtalo bo'lgan ediki, vaslida ham, hajrida ham unga qiyin edi. Visoli uning joniga o't solgani kabi, hajrini o'ylasa, o'zini unutgudek bo'lar edi. Dilorom uning ham yori, ham ulfati edi. Yo'lda hamrohi ham u edi-yu, o'tirganda hamsuhbati ham o'sha dildor edi. U oy jamolga butunlay o'rganib, vasli diydoriga ayrilmas bog'lanib qoldi. Bir nafas undan ajrasa xuddi halok bo'lgudek, yoqasini yirtib, ko'ksini chok qilgudek edi.

Shohning ahvoli shu darajaga borib yetdiki, u mamlakat oldidagi vazifasini unutib, harbiy ishlarga ham qayrilib qaramay, el-yurtning adolat bilan saqlashga ham ahamiyat bermay qo'ydi. Bahrom uch-to'rt yil umrini Dilorom bilan mana shu zaylda o'tkazib yubordi. Bu holat el-yurtga ko'p zarar yetkazdi. Xaloyiq shohning bunchalik heparvoligidan shikoyat qilar, har kim bu haqda har xil gap aytar edi.

Qaysi shohki ishqqa muhtalo bo'lar ekan, uning mamlakatidan osoyishtalik va xotirjamlik qochib ketadi. Ishq qo'shig'i shohga ham,

gadoga ham bab-baravar shafqatsizlik bilan talon-toroj – g'orat soladi. Ishqning ayovsiz bo'roni qo'zg'alganda u xashakni ham, tog'-toshni ham baravar to'zg'itadi. Ishq seli koshonani ham, vayronani ham yiqitib, xarob etadi. U, agar chumoliga yo'liqsa, ajdahoga aylantiradi, shohni gadolardek zor va muhtoj qiladi.

Xulosayi kalom, Bahromdek olamgir shoh ishq qo'shiniga shu kabi asir bo'lib qoldi. Uning ko'z oldini ishq dudi qoplagach, mamlakati ham, el-ulusi ham, qo'shini ham yodidan chiqib ketdi. Butun xayoli shu oy bilan yurib turishu goho u yerdan-bu yerga ko'chishdan o'zga narsada bo'lmay qoldi. Maqsadi, ov qilib, Diloromining dilini xush qilish va uning kuyu navosini tinglashdan iborat edi. Yorining husniga boqish va may ichib shodlanish asosiy mashg'uloti edi. Bodaning kayfi uning ixtiyorini barbod etsa, bor bisoti qo'lidan chiqib ketsa, uning ahamiyati yo'q edi.

Ishq bilan mayga berilgan odamning qo'lidan boru yo'g'i batamom chiqib ketsa, ajablanarli emas.

XV

Bahromning ishq to'foni tug'yonidan beaql va may harorati g'alayonidan bexud bo'lib, o'zini unutgani va shoh bir ohuni kamon bilan otib yiqqanida, o'zining sher tutuvchi ohusi (Diloromi) unga tahsin o'qimagan tufayli, u go'zalni dom – tuzoqqa ilingan kiyikdek kamandiga bog'lab, kiyiklar uyasiga tashlagani

Shoh Bahromning oshiqlik va mastlik chog'ida ikki g'alati ish sodir bo'ldi. Shoh aysh-ishratga haddan ziyoda berilib, boshqa hamma narsani unutib yurgan paytida, mamlakat ishini nazorat qilmay, uni o'z holiga tashlab qo'ydi. Binobarin, uning amri farmoniga ham hech kim itoat etmadi. Shoh ham hukumat boshliqlaridan insof va adolat bilan ishlashni talab qilmadi. Zulm ko'rgan el orasida shikoyat va norozilik kuchayib ketdi. Shohki mamlakat ishiga qaramay, adolat haqida qayg'urmay qo'ygach, kim nima xohlasa shuni qilaverdi. Jumladan, soliq yig'uvchilar podshoning soliq haqidagi farmonlarini buzib, qanday xohlasalar, shunday amalga oshirdilar. Bundan podshoning xabari yo'qligi natijasida bechora xalqning uyi kuyib kul bo'ldi. Qaroqchilar ham kimni xohlasalar o'shaning mol-dunyosiga qo'l uzatar edilar. Ularning bosqinchiligi kuchayib ketgani tufayli, yo'llar bekilib qoldi. Mayxo'r-bodaparastlarning bezoriligi, shovqin-suroni haddan oshib, so'fi va imomlarning tovushi eshitilmas darajaga keldi. So'fining obdastasi may kuvachasiga aylandi. Ilm-riyozat o'rni mayxo'rlik bilan almashdi. Yaylovlar bo'ri-qashqir kabi yirtqichlar bilan to'ldi; qo'ygina emas, cho'ponlar ham ularga yem bo'ldi.

Nihoyat, bir necha mahram – yaqin kishilar xilvat bir joyda bu ahvollarni shohga arz qildilar. El-yurtning ahvoli qanaqa-yu, xaloyiq orasida qanday gap-so'z va noroziliklar bo'lsa, barchasini shohga bayon etdilar. Shoh bu ahvollarni eshitib bilgach, uzoq o'ylab, ishda qanday o'zgarish yasash haqida chora axtarib qoldi. Lekin oshiqlik balosiga uchragan odamning nima chora ko'rishi mumkin edi? Xalqni

hechora qilgan ishq emasmi?! Axir, u oysiz shohning hech qanday qarori yo'q, balki o'zida ixtiyori yo'q edi. Lekin har holda shohning mamlakat ishi xarob bo'lganiga, el-ulus qiynalib qolganiga aqli yetdi. Binobarin, Diloromning ishq bilan zaif va xasta bo'lishiga qaramay, el-yurt g'ami ham shohning ko'nglidan o'rin olib qoldi. Endi qanday tadbir ko'rsa, el-yurtda va siyosatda o'zgarish yasay oladi? Mamlakatni tashlab qochay desa, foydasiz; yordan voz kechish esa, undan battar mushkul. Ishqilib, shohning xayoli parishonu ko'ngli behuzur bo'lib, har lahza yuragini xavf-xatar bosar edi.

Nihoyat u: «Shohlik martabasi qo'limda bo'lsa, bunday mahvash kosagulni har qachon topishim mumkin; men qanchadan beri bu go'zal bilan maishat qilmoqdaman, agar shoh bo'lmasam, buning visoliga muayassar bo'la olarmidim? Yo'q! Mamlakatim – shohligim bo'lmasa, u ofat men bilan birga bo'lmasdi va tirikchilik qilmasdi. Yor va uning ishq mavjud ekan, o'zga hamma narsa nobud bo'lishi muqarrardir. Kimki ishq bilan shohlikni birga olib boraman, desa, muz sumalagidan sham yasayman, deganga o'xshash gap bo'ladi», – degan fikrga keldi. Uning ko'ngli mamlakat va undagi boyliklarni qo'ldan bermaslikni ma'qulladi. Bu, ishqni tark etish uchun bir bahona edi.

Ishq bilan shohlik hech qachon birga bo'lishi mumkin emas, lof urishi mumkinu, ammo hech qachon shoh o'z ishqiga sodiq qolishi mumkin emas. Ishq uchun hamma narsadan voz kechgan, muhabbat shu'lasida o'rtangan bedil odam kerak. Borliqda nimaiki bo'lsa, hammasidan yuz o'girib, fano yo'lini tutgan, ikki jahondan qo'lini yuvib, qo'ltig'iga urgan odam kerak. Yori istasa, jonini berishga tayyor turgan, balki uning roziligi uchun yuzta joni bo'lsa ayamaydigan odam kerak. Chin oshiq o'z jon mulkini dilbari ixtiyoriga vaqf qilib berishi, bir jon emas, ikki jahon mulkini ham unga sadqa qilishi lozim. Shoh, axir, mamlakatlarni fath etib – qo'lga kiritish uchun yuzlarcha odamning qonini nohaq to'kadi-ku. O'z qonidan kechmagan odam oshiq bo'larmishmi? Yo'q, ishq degan narsa bunday odamdan behad yiroq turadi.

Shoh shu kabi xayollar bilan aysh-ishratini davom ettirar va doim shikor bilan kunini o'tkazar, qayonga xohlasa, o'sha tomonga qarab ot surar edi. Yori ilgidan mayi nob ichar edi-yu, ammo saltanatni qanday idora qilishni o'ylab, xunobi oshar edi.

Bir kun shoh u go'zal mahvash bilan ichib, mast bo'lib o'tirganida ra'nodek go'zal bir kiyikning chopib ketayotganini ko'rib qoldi. U shunday sur'at bilan chopar ediki, ko'rgan kishi hayratda qolardi. Ammo shoh g'oyat o'tkir mergan bo'lib, har qanday sayd ham o'qidan qochib qutulolmas edi. Bahrom qochib ketayotgan ovni odamlar qayeridan urib ber desa, o'sha yeridan urib yiqitadigan mahoratga ega edi. U, saydning qaysi tukini nishonga olsa, o'qi o'sha yerga borib qadalar edi. Binobarin, o'zining shu merganligiga ishonib, u gulrux yoriga:

«Ey pari tal'at! Sen bu uchgandek chopib ketayotgan g'azolni qayeridan urib bergin, desang, uraman, agar «o'ldir!» deb buyursang, o'ldiraman!» – dedi. Sho'x go'zalning tabiati nozik bo'lib, u tubandagidek mushkul va g'alati fikrni bayon etdi:

«Boshlab, ikki qo'liga tushov solki, u o'z yeridan qimirlamay qolsin. So'ngra, uni shunday nishonga olib otginki, uzoqda bo'lishiga qaramay, bo'g'izlanib qolsin!» Shoh bu sanamning istak va tamannosini bilishi bilan, ayni muammoni hal qilishga kirishdi. U, nozaninning taklifini rad etmadi, tezda o'qdonidan bir ingichka o'qni olib, shoshilmasdan saydga qarab otib, kiyikning ikki qo'lini o'q bilan urdi. Lekin o'qi uni yaralagani holda, terisi bilan suyagini teshib o'tmadi. Shu yo'l bilan g'azolning qo'llari band bo'lgach, shoh yana o'z yoyiga o'q qadab, saydning bo'g'ziga shunday urdiki, bo'yni kesilib qonlari oqdi. Oy yuzli nimani xayol qilgan bo'lsa, shoh uni xuddi aytganidek qilib bajardi. Shu paytda Bahrom qilgan ishni inson u yoqda tursin, ko'hna falak ham eslolmaydi. Binobarin, shoh shu darajada qoyil qilib, o'z hunarini ko'rgazgach, nigoridan tahsin va ofarinlar eshitish orzusida edi. Lekin yori benazir husnga ega emasmi, shu husnning mag'rurligi bilan istig'no qilib, shohga tasanno aytish va uning dunyoni zabt etgan qudratli qo'lini o'pish o'rniga:

«Har kim bir narsani mashq qilaversa, mana shu xildagi mahoratga ega bo'ladi», — deb qo'ydi-yu, lekin «qoyil qoldim», demadi, ya'ni shohning mahoratini mensimadi, uni mashqqa bog'lab qo'ya qoldi. Sho'x go'zalning bu gapini eshitish bilan shohning unga bo'lgan munosabati keskin o'zgarib ketdi. Parichehradan tashakkur eshitish o'rniga shunday muomalani ko'rgach, ikki qoshining o'rtasi chimirilib ketdi. Shohdagi bu o'zgarishni ko'rib, u sho'x o'z muddaosini tushuntirmoqchi bo'ldi-yu, aksincha battar qildi.

«Nima uchun shohning g'azablari qo'zg'alib ketdi? Men yomon gap aytmadim-ku, — dedi Dilorom. — Masalan, men soz chalsam, kishilarning joni tanasidan chiqqudek bo'ladi. Mendagi bu mahorat birdan paydo bo'lgan emas, men bunga juda ko'p mashq qilish natijasida erishganman. Shohim bir kiyikka o'q urgan ekanlar, «bu mashq natijasi», deganimga bunchalik xafa bo'lmasalar ekan!»

Shoh bu gapni eshitish bilan g'azabi yanada ortib ketdi. Ikkita qattiq gapni eshitarkan, jaholat uning ixtiyorini qo'lidan olib qo'ydi. Shohning qahri avjiga chiqqanda, iloji bo'lsa, uning mamlakatida yashamagan yaxshiroq. Saltanat siyosati kuchayib ketadigan bo'lsa, lutfu ehson ko'zini ko'r qilib qo'yadi. Shoh uni o'ldirmoqchi, shu sarv ra'noning boshini kesib tashlamoqchi ham bo'ldi. Keyin, o'z-o'ziga:

«Yo'q, bu xilda qilish yaxshi emas, zaif kishini tig' bilan qatl etish durust emas», — dedi. Keyin, tashqaridan, kasb-hunari odam o'ldirish bo'lganlardan bir nechtasini chaqirtirdi, ular mahofadan oyni chiqazib, biyobonga tomon surgab olib ketdilar. U biyobonda o'sgan har bir g'iyoh xuddi o'qqa o'xshar, biyobon atrofini necha kunlab aylansang ham suv topolmaysan. Jonivorlar umrini qisqartiradigan zaharli o'tdan boshqa hech qanday g'iyoh u biyobonda bitmaydi. Go'zal Diloromni shu biyobonga olib borib, ikki o'rim sochi bilan oyoq-qo'lini bir-biriga tortib bog'lab, xuddi koptok singari dumaloq qilib, tashlab keldilar. U o'z sochini xalq bo'yniga kamand qilib solib, o'ziga asir etgan edi, mana endi shu sochlari, oqibat-

natijada, o'z halokatiga ham sababchi bo'ldi. Haligi herahm jallodlar u go'zaini biyobonda shu ahvolda qoldirib, o'z vatanlariga, jabr-jafoni o'ziga hunar qilib olmish shohning huzuriga qaytdilar.

Shoh bu dahshatli farmonni bergan vaqtida, may va g'azabning harorati bilan bexud bo'lib — o'zini yo'qotib qo'ygan edi. U o'sha kuni oqshomgacha may ichdi, may ichgan sari, paydar-pay g'azabi ortib borar edi. Kechasiga borib, boda uni xarob qilib, mastlikdan uchib qoldi. U, tongda may bilan og'iz ochar edi, shu payt yonida sevgilisi ham bo'lar edi. Binobarin, saharda uyg'onib, kunda ichadigan subh sabuhini (tong mayini) talab qilganda, o'z yonida jon rohati yo'qligini sezib qoldi. Shunda u: «Mahvashim qayon ketdi?» — deb so'radi. Zero, u o'zining ne kor-hol qilib qo'yganidan bexabar edi. Uning huzurida hozir turgan bir necha mahramlari o'zining qilgan ishini aytib bergan edilar, shohga yorug' olam qorong'i bo'lib ketdi. U boshini quyi solib, o'ylab, barcha qilgan ishlarini ko'z oldiga keltirarkan, qahr-g'azabning sarsari bo'roni esib, o'z qo'li bilan o'z boshiga tig' urganini fahmladi. Shundan keyin:

«Hozir o'zim borib, u biyobonni bir-bir axtarib, nigorim qayda bo'lsa topayin, unga joni zorimni sadqa etayin; tirik bo'lsa, uning fidosi bo'layin; agar o'lgan bo'lsa, o'zimga tig' urib, jonimni berib, uning ruhini rozi qilayin; o'zimni o'ldirish bilan uning xuniga xun to'layin», — dedi.

Ammo toju taxt nomusi uning o'lik tuprog'ini o'pishga monelik qildi. Bir tarafdin aqli bunday ishni qilishga dalolat etmagani kabi, xaloyiq ta'nasidan xijolati ham shohni bu yo'ldan qaytarar edi. Qancha o'ylamasin, baribir aql bu ishni rad etar edi. Ko'ngli esa, aqlning so'ziga kirmas, ya'ni ishq uni mansuxu beqaror qilib qo'ygan edi. Xullasi kalom, joni ikki halo o'rtasida-yu, o'zi ikki ajdaho orasida qolmish chumolini eslatar, u na o'likka, na tirikka o'xshar, ko'rgan odam uni tirik demas edi.

XVI

Bahromning g'azab mastligidan hushyor va g'aflat uyqusidan bedor bo'lib, har xil maza-bemaza tushlar ko'rgani, parishon, balki uyg'oqlikda qilgan ishlaridan pushaymon bo'lgani va mushk hidli g'azolini istab biyobonga borib, uni topmay, o'zidan ketgani

Bahrom mana shu yuqorida zikr etilgan ishni, ya'ni yig'lash kerak bo'lgan, yo'q, kulish kerak bo'lgan ishni qilgach, ikki kungacha o'ziga kelolmay yotdi, uning yuragida olovu jonida o'q bor edi. Uchinchi kuni biroz o'ziga kelib, yorug' umrini qora tundek ko'rdi. Ishqning askaru sipohlari hujum qilib, yuragiga g'orat va xaroblik solib yubordi. U, o'z mulkini obod qilaman, degan tama bilan ko'ngil mulkini barbod qilib qo'ydi. Tojir-savdogar singari foyda istab dengizga tushgan edi-yu, aksincha, o'zi g'arq bo'lib, dastmoyasidan ham ajrab qoldi. Bog'bon juda ko'p meva hosil olaman, deb umid qilgan edi-yu, do'l daraxt shoxlarini ham sindirib-pachoqlab tashladi. Xullas, shohning ichiga shunday chaqmoq tushdiki, butun vujudini o't olib

ketdi. La'l javohirli toj kiygan bo'lishiga qaramay, falak uning boshiga behisob toshlar yog'dirmoqda edi. Shoh mamlakatini himoya qilish uchun odamlarga halokatli tig'lar tortgan edi, bugun o'sha tig' o'z ko'ksini chok-chok qilmoqda. U, dunyoda surma axtarib shoshilar edi, bugun charx surmakashi esa, buning ko'ziga surma o'rniga «mil»ning o'tkir uchini sanchib oldi. Shoh o'zining hozirgi ahvoriga nazar qilar ekan: «Bunday og'ir ahvol mening boshimga tushdi, boshqalarning boshiga tushmasin», – deb yig'lar edi. Uning jismi zori shunday ezildiki, go'yo xasta yuragiga minglarcha tikan qadalgandek bo'ldi. Joni tanidan – tani esa jonidan to'yg'an edi; ko'ngli bundan ham, undan ham ranjida edi. Vujudi ko'hna falak singari vayron bo'lib, joni esa tor ipidek uzilib ketmoqda edi. U falak jismlaridek nolayu fig'on qilar, so'ngaklari esa, go'yo bir-biridan ajrab – judo bo'lib ketayotgandek edi.

Yorining hajridan Bahromning joni halqumiga kelgani holda, o'rnidan sakrab turib, beixtiyor jo'nab ketdi. Sumanbarni qayerga olib borib tashlash haqida farmon bergan bo'lsa, shoh o'sha tarafdin qarab yugurib ketdi. U, «hayotim imkon bersa, jonimni yorim ruhiga fido qilaman» deb bormoqda edi. Agar u Diloromining o'ligini topsa, dod deb, fig'on tortib, unga motam tutmoqchi; sarvqomatning o'ligini ko'tarib, uning pokiza tanini tobutga solib, olib kelmoqchi. Agar ko'ngli yig'lashdan tinsa, o'zini o'ldirib, yori ustiga tashlamoqchi; yori bilan bir go'rda yotib, uning furqati va judoligidan o'zini xalos qilmoqchi edi. Biroq, dashtu sahrolarni qanchalik kezib – axtarishiga qaramay, sarv ra'nosini topolmadi. U sarvi ozod endi jannat gulistonlarida jilva qilmoqda, bihishtdagi sarvlarga qo'shilib ketgan edi. Go'zal sarv dasht-biyobonlarda nima qilsin? Sarv axir bo'stonlarda-gulistonlarda bo'lishi kerak-da.

Bahrom o'z yorini topolmay, undan bir umrga ajraganini bilgach, noumid bo'lib, nihoyatda ma'yuslanib ketdi va beixtiyor o'z yuziga shapaloqlab ura boshladi. U shunday nolayu zor bilan faryod ko'tardiki, xuddi Farhod o'z Shirinini yo'qotganday edi. Oxiri, bemor va bedil kishilardek hushdan ketib yerga yiqildi, u xuddi o'q yeb chalajon bo'lgan sayddek tipirchilardi. Ko'zlaridan shunday qonli yosh to'kardiki, buning ahvolini ko'rib zolim falakning ham yuragi qon bo'lib ketdi. U:

«O'z jonimga ne jafolar qildim? Bunday fojia yuz berishini bilmadim! Kim o'z ko'ksini o'zi chok etadi? Kim o'z jonini o'zi halok qiladi? Bunday ishni biron odam qilganmi? Axir, bu odam bolasi qiladigan ish emas-ku! Qaysi mard inson o'z bo'g'ziga o'zi tig' uradi? Qaysi nodon o'z umrining chirog'ini puflab o'chiradi? Diloromimning joni uchun notavon jismimni evaz qilsam bo'larmikin? Jismimni uning joniga fido qilsam arzirmikin? Tanimni yuz pora qilmasam ham, baribir o'laman-ku, o'zimni o'zim o'ldirmasam ham o'laman-ku. Jahonda bunday halo yana kimning boshiga tushgan ekan? Ey, zolim falak! Nimalar qilding, axir? Senda zarracha mehr-shafqat yo'q ekan! Sen meni mehr-muhabbatdan mahrum kishiga aylantirding, hayotda yuzimni qaro qilding, ey, berahm falak! Senda hech qanday shafqat-marhamat yo'q ekan; yuzimni g'am-alam bilan so'ldirding,

ko'z yoshimni yulduz singari to'kdirding, davlatim quyoshini so'ndirding, iqbolim sham'i yer qa'riga nihon bo'ldi. Endi bu pastkash jahonda jonimni ham olib qo'ya qol. Men bu jahonni jonsiz nima qilaman? Yorsiz bu jahon bilan jonni nima qilaman? Jonimni ol, jondan to'ymishman, billoh! Ko'nglimni o'limga tikkanman, billoh! Jahonda jononsiz jonni ne qilay? Axir, yorsiz jonni, tansiz jonni ne qilay? Jonsiz tanni ne qilay?»

Bahrom mana shu kabi noliş bilan dashtni boshiga ko'tardi, uning joni g'am va musibatning lashkari hujumi bilan ezilmoqda edi. Mamlakatu saltanat uning yodidan chiqib ketdi, u vahshiylardek o'sha biyobonda o'rnashib qoldi. U shahri va mamlakati bor-yo'qqigini bilmas, dasht-sahro uning manzilgohiga aylangan edi. U biyobon ichida afg'on chekar, bir o'zi emas, butun bir shahar eli u bilan birga biyobonda nola qilar edi. El-ulus shohning boshiga bu kabi musibat tushganini, tushganda ham juda og'ir va taajjub kulfat tushganini ko'rib, hammasi o'zining yer-joyini tashlab, shohga o'xshab dashtni vatan qilib oldilar.

Kech kirib, quyosh Diloromi yuzini yashirgach, osmon Bahromi ham ko'z yoshi singari yulduzlarini olamga sochdi. Xuddi hajr shomidan oshiqi zor azob tortgani singari, falak ham qorong'ilikdan ozor tortmoqda edi. Shoh Bahromga tun kecha shunday azob bermoqda ediki, olam ko'ziga go'rday qorong'i ko'rinib ketdi. G'amu qayg'u qorong'iligida qolgan Bahrom o'zini bir g'aroyib olamda ko'rdi. Uni olam emas, firoq zulmati de, otini esa, hijron shomi deb ata. Butun olam yuzini qorong'ilik o'rab olgan, lekin u yerda zulmatda bo'ladigan obi hayot yo'q edi. Agar bunday qorong'ilikda minglab Xizr makon qilganda ham, barisining joni halok bo'lishi tabiiy edi. Osmon bo'shliqlari qorong'ilik bilan qoplanar ekan, elning nafas yo'li to'silib, havo ololmay qoladi, deyavering. Nafas yo'li qiyir¹ bilan tamom to'siladigan bo'lsa, Xizrning ham halok bo'lishi ajablanarli emas. Balki bu tunning qorong'i zulmati bo'lmay, hajrning o'tidan jahonni tutun bosib ketgandir. Axir, furqat o'ti jonga tushgandan keyin, uning tutuni jahonni qorong'i qilishi tabiiy emasmi? Agar, hajr o'tini alangalatish uchun tutantiriq kerak bo'lsa, furqatda yonganlarning tanasidan boshqa nimani qalash kerak? Yonayotgan olovning o'ti oshiqning tanasi bo'lgach, tutuni oshiqni o'ldirsa, ajablanarlimi? Agar o'tning alangasi kishi tanini kuydiradigan bo'lsa, tutuni nafasni bo'g'ib o'ldirishi ham tabiiydir. Kimki hajr degan ayriliqqa muhtalo bo'lgan ekan, mana shunday qorong'i tun uning joniga balo bo'ladi.

Garchi tun xalq ichiga qorong'ilik pardasini solgan bo'lsa ham, odamlar u sahroda oq uy bino qildilar – shohona chodir – saroparda tikdilar. Shohning atrofidan yot kishilarni uzoqlashtirdilar. Ko'rdingizmi, firoq shomining xosiyati odamni shunday qilib qo'yar ekan. Shohning bu ishidan el-ulus hayron – mutahayyir bo'lib, har qaysi bir burchakka qarab ketdi. Shohga xos – mahram kishilarning ko'zlari to'la yosh, o'zga odamlar esa kutilmagan ahvoldan ajablangan holda, boshlarini quyi solib, xayol surar edilar.

¹ Qiyir – qora dud, tutun.

U odamlarning biri: «Shohni dev urgan», desa, ikkinchisi: «Yo'q, bu parilarning ishi, jin tekkan», der edi. Shohning aqlga sig'maydigan ahvolini ko'rgan har kishi har xil xayolga borar va turli afsona to'qib, devonalarcha uning atrofida aylanar edi.

Nihoyat, bu qayg'uli holat qayg'uga muhtalo bo'lmish kishilarning ko'ziga uyqu keltirdi. Yolg'iz Bahromgina furqat o'tida qovurilgan holda, tuni bo'yi mijja qoqmay, ajriqqa ag'anab bedor yotar edi.

XVII

Hajr shomining haddan ziyoda uzunligi va qorong'iligining azob-uqubati va o'sha kechasi Bahrom joniga g'am-anduh qo'shinining bosqinchiligi va u kecha bosqinchilarining shoh joni va dilini asir etgani va u asirona nola chekib, o'zidan ketgani va arkoni davlat uni balo dashtidan davo shahri tomon olib kelganlari

Shunday qilib, o'sha kechasi shoh Bahrom yovvoyi hayvonlar makonida tunadi. U kecha ko'hna dunyo xuddi go'rdek qorong'i edi, bunday qorong'ilikda falakning boshi ham, oxiri ham ko'rinmas edi. Hajr o'ti shohning vujudini shunday yondirdiki, tutuni yetti qavat osmonni bosib ketdi. Shohning hayoti osmon charxidek tiyra-qorong'i, uning ustiga sarson-sargashtalik, xuddi oqshom shafag'i singari qonli yoshga g'arq edi. Uning ko'zi halokat selini yog'dirar, ko'ziga hech qanday uyqu asorati kelmas edi. Jonida hajr o'ti alanganib turar, bu o'tni shohning ko'z yoshlari o'chirsa ham yana boshqatdan tutashib yonar edi. Ishq o'ti ko'ngilning farog'atini olgandan keyin, ko'z yoshi suv bo'lib, u o'tni o'chirish o'rniga, yog' bo'lib battar yondirardi. Shohga o'tning o'zi ham balo to'dasi, ko'zidan oqqan yosh ham xuddi balo selidek ta'sir etar edi. Shu xilda, ko'ngliga g'am hujum qilar, balki shu g'am pasti-baland hammayoqni shafqatsizlik bilan talon-toroj etar edi. Shohning betoqat va beqarorligi shu darajaga borib yetdiki, hech kimsaning yordami unga ta'sir etmadi. Yor hajri kishi mizojini aynatadigan bo'lsa, hech qanday do'st uning ilojini qilolmaydi. Shu jihatdan bir xilvat uyga yolg'iz o'zi kirib oldi. Zero, u xalqdan ham nihoyatda xijolat edi. U, tezda bu uyning eshigini ichidan zanjirladi-yu, o'kirib yig'lab, dunyoni boshiga ko'tardi. U shunchalik fig'onu vovaylo chekardiki, ohu zoridan jahon ichiga dahshatli bir bezovtalik tushdi. U yoqalarini yirtib, chok-chok qildi; bosh-ko'zi va tanalarini mushtlayverib hammayog'ini pachaqlab tashladi; barcha a'zolarini shafqatsizlik bilan urib — zadaladi; ba'zi joylarini alamidan tishlab ham oldi. Boshining urmagan joyi qolmadi, natijada sochining ancha qismi sidirilib tushib ketdi. Boshini shunchalik yaralab va yorib tashlaganligi tufayli, sochlari qonga belanib yotar edi. Dardi og'ir edi, dardining o'qi uning tanasini gard-gard qilib yuborgan, yo'q, gard emas, dard tog'iga aylantirgan edi. O'z vujudini parcha-parcha qilib uzib tashlaganidan tanasining bog'ida yuzlab lolalar ochildi. U yarim kechagacha shu xilda o'zini o'zi urib yig'ladi. U tinimsiz nolayu faryod chekdi, o'ziga o'zi zulm etdi va azob berdi.

Nihoyat, a'zoyi badani bo'shashib, qo'li tolib, hajr azobi uni holatdan ketkazib – sulaytirib tashladi. So'ng, talpinishga majoli tugab, qimirlamay qoldi.

Ammo Diloromi shohning joniga o't solib, yondirmoqda edi. U dard ichida yana nola qilib, yorini eslar, rozi dil aytar edi. Yorining qora sochlari buning boshiga shunday qora kun solgan ediki, uning har tukida bir olam g'am bor edi. U harorat va xayol ichida uyning u boshidan-bu boshiga ag'anar, falak charxiga yuz xil la'natlar yog'dirar edi. Diloromning qoshini eslab, uning qaddi shunday bukilib ketdiki, nihoyatda ozg'in va ingichkaligidan xuddi yangi chiqqan oyni eslatar edi. Ha, Diloromning payvasta hilol qoshlari Bahromni hiloldek nozik va xasta qilib tashladi. U yorining kiyik ko'zlarini ko'z oldiga keltirarkan, ko'nglining dashtida yuzlab jayronlarning yugurib yurganini his etar edi. U kiyikdek go'zal yorini o'ylayverib joni qolmagani uchun uni charxning Bahromi Go'ri deb atashdi. Diloromning qora kipriklarini aytmaysizmi, u kipriklar Bahrom ko'ngliga yuzlab sixchalarni sanchar edi. Ularning har biri Bahrom ko'ksini yuz joyidan yaralagan, ohining tutuni esa, yuzini qoraytirib yuborgandi. Diloromning jamolini o'ylaganda, Bahrom heixtiyor oh tortar, uning nolishidan ko'kda quyosh ham, oy ham o'rtanardi. Buning ko'zidan oqqan gulgun yoshlaridan oyu quyosh shafaq ichida g'arq bo'ldi. Diloromning yuzidagi xolini ko'z oldiga keltirolmagani uchun, yig'layverib ko'zining qorachig'i qolmadi. Uning pashshaga o'xshagan qora xoli buning ko'zini ko'r qilgan; ko'ksiga kirib olib, ko'nglining jarohatini yana maddalatar edi. Lablarini sog'inganidan joni chiqqudek, ko'zidan oqqan qondan dasht-biyobon qip-qizil la'lga bo'yalgan edi. La'lgina emas, haqiq va marjonlar ham, ko'ngli va joni ham undan zarar topgan edi. Bor-yo'qligi zarracha bilinmaydigan kichik og'zi kishi ko'ziga mavhum – bir nuqtadek aks etar edi. U yo'q bo'lgani holda, Bahrom, bor, deb vahima qilar edi-yu, lekin og'zi bor bo'lsa ham yo'qlik ichida gum bo'lib yotar edi. Diloromning tishlari xuddi durdonadek jilva sochmasmi edi, o'shani eslab Bahrom ko'zlaridan durdek yoshlarini oqizib, mo'ldir-mo'ldir yig'lab o'tirar edi. Taqdir buning boshiga shu kabi do'llarni yog'dirgani uchun, yosh o'rniga ko'zidan o'lim sellarini quymoqda edi. U, Diloromni eslagan sari nolishi ortar, faryodu fig'oni falakka chiqar edi. Uning yig'i-zorini kim eshitsa, «Alloh-Alloh, o'lib, qayta tirilyapti!» – der edi. U, yor yuzidagi zanaxdon chuqurchasini eslaganda, butun jon ipi tortishib ketardi. Axir, ko'ngli iztirohga to'lishi natijasida bu ip taranglashar edi-da. Qaddi-qomati haqida o'ylar ekan, heixtiyor oh tortganidan, umrining niholi qurir edi. Uning qarshisida bo'ston sarvisini ham unutar, sarv emas, ruh bilan jonini ham esdan chiqarar edi. Nozik belini xayol bilan ko'z oldiga keltirar ekan, bu xayol uning jismini qiltiriqdek zaiflashtirar edi. Natijada, badani qiltiriqdek bejon bo'lib, qiltiriq esa buning ko'ziga o'ziga o'zi chirmashib to'lg'onayotgan ilondek ko'rinardi. Yorining oq badanini o'ylarkan, ko'nglining tobi qochib, ko'zidan kumushrang yoshini simobdek oqizar edi. Kumushdek ko'z yoshini to'kar ekan, barcha olamga kumush yog'ilgandek bo'lar edi. Yor qo'lidagi chang sozining tuzilishini tasavvur qilganda, u changning fig'oni buning

enkayib qolgan qaddini yanada bukar edi. Bu egri chang mung bilan nola chekkanda, buning joni rishtasi u changning toridek ingrar edi. Goho havasi qo'zg'alib, chang singari bir ajoyib navo qilar edi. Lekin bu bilan o'z holiga ozgina bo'lsa ham tasalli topish u yoqda tursin, dard topar edi-yu, davo topmasdi. Uning beholligi haddan ziyoda *ortib borar, ishqining dardi esa yana battarroq oshmoqda edi. Ko'zlari yosh o'rniga qon to'kishdan to'xtamas, o'z holiga o'zining ishonchi yo'qolib bormoqda edi. U, o'z-o'ziga derdiki:*

«Yo Rab, bu qanday holat ekan! Bu qanday tuganmaydigan azob-uqubat ekan! O'z kuchim va shijoatim bilan ajdaholarni chumolidek ezgan men emasmidim? Endi ishq ajdahosi menga ustun kelib, ajdaholarni zabun etgan tanamni chumolidek ezg'ilamoqda. Urushga va jangga tashlanganda, sherlarni taslim qilgan pahlavon men emasmidim? Dard bilan hajr menga arslondek kuchini ko'rsatgach, sichqondek ojiz va chalajon bo'lib qoldim. Urush safini tuzib, Chin — Xitoy qo'shinini butunlay safdan chiqazgan men emasmidim? Ishq menga qarshi urush va adovat e'lon qilar ekan, sabrim qo'shinini toru mor qilib tashladi. Menda aql ham, din ham bor edi; g'amga chidam, baloga tamkinu sabr ham bor edi. Ishq boshimga ne halolar soldiki, bu siflatlar mendan sarosar qochib ketdi. Ohim o'tining tutunini aytaymi, yo'qsa, bu tiyra tunni aytaymi? Kim bu yanglig' uzun kechani ko'ribdi, kim g'am kunidan ham qora kunni ko'ribdi? Ham qora, ham uzun va ham dilband kun; qoraliqda mahvashim sochiga monand kun. Bu tarafda men, u tarafda ko'nglim azobda; bu tarafda mening zorligimni, u tarafda ko'nglimning qonligini aytmaysizmi. Men garchi qon ichida bo'lsam ham, ko'nglim u bilan birga bo'lsa koshkiydi. Bu qorong'i kecha meni muztar va xijolat qilgani ustiga, zor ko'nglimni vayron va parishon ayladi. Bu kecha menga go'rdek qorong'i. Shu kechani o'rniga umrimning so'nggi uyqusini ola qolsam nima qilar edi? Charx — falak meni qatl etish uchun vujudimga dushmanlik tig'ini urdi, axir, u meni tiriklayin go'r ichiga ko'mdi-ku. Undan ko'ra, tig'i bilan boshimga urib, boshimni tanimdan uzib tushirsa yaxshi emasmidi?

Ey xalqim va qo'shinim! Hammangiz mening bandam edingiz, ham nima buyursam, itoat bilan ijro qilardingiz. Hammangizda non-tuzimning haqi bor, non-tuzgina emas, bundan bo'lak ham sizda yuzlarcha haqim bor mening. Xizmatimni qilib yurgan paytingizda hammangiz jangjo'lik haqida lof urar, o'zingizni mardu maydon qilib ko'rsatardingiz. O'zi nima gap, qilichingiz usholdimi yoki qo'lingiz tosh ostida qoldimi? Axir, men bechorani yuz ming balo ichiga tashlab qo'ymang, mening har nafas bir o'limimni ko'rib, tomoshabin bo'lib turmang! Tig' bilan urib, ko'ksimni yoring, shiddat bilan zarb urib, halok qiling meni. Notavon jonimni bu azoblardan qutqaring, hech qanday xijolat chekmang. o'z roziligim bilan qonimni bag'ishladim; bir qonim emas, bir jonim emas, yuz jonim bo'lsa bag'ishladim. Do'stligingiz qayonga ketdi, ey yoronlar? Musulmonchilik qayonga ketdi, ey musulmonlar? O'ldirib, meni bir yoqlik qiling, ming martadan tortayotganim o'lim azobidan qutqaring, axir!»

Bahromning ishi bu kecha to subh-sodiqqacha shu kabi nola qilishdan, qonga belangan hadani bilan tuproqqa yiqilib-turishdan iborat bo'ldi. Tong qushi sahar bo'lganini bildirib qichqirganda, u holdan toyib yiqilib, hushdan ketdi. U shunday o'zini bilmay yotar ediki, uni ko'rgan odam «joni yo'q», deb gumon qilar edi. Falak shunday shafqatsizlik qilgach, el orasiga juda qattiq g'ala-g'ovur tushib ketdi. Bahromga jahondagi butun shohlar mulozim bo'lib, ularning barchasi buning buyrug'i bilan xizmat qilar edilar. Katta-kichik hamma beklar ham boshini yalang qilib, o'z soqolini yulib, motam tutayotgandek bezovta va betoqat bo'lib qoldilar. Nihoyat, ular kabi yig'i-sig'i qilib, vaqtni o'tkazishning foydasi yo'qligini bildilar; bundan ko'ra, ishning chorasini ko'rish kerak, degan qarorga keldilar. Oxiri, hammalari jam bo'lib, buning ahvolini muhokama qila boshladilar va oqibat-natijada: «Buning dardi, harorati — sharorati faqat davolash bilangina pasayishi va tuzalishi mumkin», degan qarorga keldilar. Ammo tabib va hukamo (olimlar): «Dashtda buni davolashning iloji yo'q, bu yerning shart-sharoiti va obi havosi nomaqbul», deyishdi. Ko'pchilik shu gapni ma'qullagach, shohni mahofa — taxtiravonga yotqizdilar. Uni ko'tarib, dashtdan shaharga qarab jo'nadilar. Shohni o'z gulshaniga olib kelib, mahofadan tushurdilar. Ammo shomgacha ham uning dimog'ida hush, yuragida o't, jismida hech qanday harakat yo'q edi. Shuningdek, shohdan taxt bo'shagani bilan, elning ko'ngli hali g'am-tashvishdan bo'shamagan edi.

XVIII

Bahromning o'z parivashi hajridan devona bo'lgani va hukamo (hakim va tabiblar) uning oshuftalikdan ezilgan ahvoli haqida uzoq o'ylab — maslahatlashib, muolaja chorasini ko'rganlari va bularning ko'pgina zahmatlari sharofatidan u oz-moz davo topib — o'ziga kelgani va savdoyiligini daf' etish uchun yetti iqlim shohi — salotinlarining yetti go'zal qasr bino qilganlari

Shoh Bahrom shu kuni taxtga chiqib o'tirdi-yu, ammo to oqshomgacha aqlu hushi yo'q edi. Uning jismi o'lik tanasidek qotib qolgan, taxti esa, unga xuddi sartaxtadek tuyular edi. Darhaqiqat, har qanday taxt egasi ham oqibat-natijada sartaxtaga chiqmay iloji yo'q. Chunki uning ham kuni tun bilan almashadi, tun qorong'iligi, albatta, uning yuziga qora pardasini yopadi.

Shohning dimog'iga mushk hidlatdilar, uning muattar hidini iscash bilan hushi joyiga keldi. So'ng, ko'zini ochgach, bir nafas xomush bo'lib o'tirdi. Yana bir onda yori esiga tushib qolib, yetti gardunni nolayu zori bilan to'ldirdi. Yana shovqin-suron ko'tarib, oh-faryodni ko'kdan ham oshirib yubordi. Uning fig'oni charx-falak ayvonigacha ko'tarildi, bu fig'on yulduz to'dalarini ham bezovta qildi. Uning yuragidan chiqqan nolasi osmonga chiqib, ohining o'qi yulduz ko'zini tesha boshladi. Bu kechadagi azobi, g'am-kulfat o'tida kabob bo'lib yonishi o'tgan kechadagidan yuz marta ortiq edi. Ohining yeli charxini sovurmoqda, o'zi hijron o'tida qovurilmoqda edi. Tong otguncha ahvoli

shunday kechdi, tong yeli esgach, yana jismi behol bo'ldi. Yana toshongacha o'ziga kelmay — behush bo'lib yotdi, har nafasda vujudi o'limga qarab borar edi. Bir necha kungacha ahvoli shu xilda og'irlashib bordi, alam va iztirob uning vujudidan tob-toqatini tamom olgan edi. *Ishq — halokatli, firoq — shafqatsiz va zolim emasmi!* Ezilaverib, shohning jismi ham, aqli ham ishdan chiqib, salomatligi puturdan ketdi. Uning tabiati ham, mizoji ham aynib qolgan, vujudining jon ipi ham taranglikdan uzilish darajasiga yetgan edi. Devonalik uning miyasiga ham, ongiga ham xalal bermoqda, aqli-hushi o'rnini jinnilik egallamoqda edi. Bir dam esi o'zida bo'lsa, o'n dam bexud bo'lib, nima qilayotganini bilmas, a'zoyi badanida salomatlik yo'q, aqli ham shunday edi. Bora-bora uning tanasida kuch va tob-toqat qolmadi, qilayotgan janjal va to'polonlari ham yo'qoldi. Yig'i-sig'i qilishga kuchi yetmas, tovushini odam eshitmas edi. Goho, beixtiyor dod-faryod qilib qolsa, bechoraning jismi-zori ozor topar edi. So'zida ma'noyu *aql-idrok asari yo'q, og'zidan nima chiqayotganini o'zi bilmas edi.* Tepasida turgan bilim va tajribali kishilar, shohning taqdiridan umidsizlanib, yig'lay boshladilar. Ular bu baloga bir chora topish niyatida arkoni davlatni bir joyga to'pladilar. Ilm va bilimda mohir bo'lmish saroy atrofidagi barcha tabib va hakimlar to'rt yuz kishidan iborat bo'lib, har biri aql-donish va tabobat bobida mislsiz kishilar edilar. Ularning hammasi bir joyga jamlangach, davlat boshliqlari tubandagi so'zlarni aytdilar:

«Ey ilm-fan hukamolari, tabobat olamining peshvolari! Baxtiyor shohimiz necha yillardan beri hammangizga yaxshilik va in'om-ehson qilib kelmoqda. Hammangiz undan mamnun va minnatdorsiz, uning himoyati va tarbiyati soyasida ko'p ne'matu boyliklarga ega bo'ldingiz. Shoh barchangizga ham shu kabi navozishlar, inoyatlar qilib keldi. U shu umid bilan sizga mehribonchilik qilar ediki, nogahon bir kun falak o'zining joniga dardi bedavoni solgudek bo'lsa, uning mizojidagi ranj-mashaqqatni daf qilg'aysiz, dard-kasaliga biron davo topgaysiz. *Ma'lumingiz, endi o'sha yomon kun yetib keldi, qo'lingizdan kelgancha bunga chora ko'ring, davolang.* Shoh sizning hammangizga shafqat, marhamat qilgan. Endi siz ham qarab turmay, o'z xizmatigingizni ko'rsating. Agar shohning dushmani tug'yon va isyon qilgudek bo'lsa, biz jonimizni ayamay, albatta, dushmanga qarshi saf tuzib, u bilan urushar, boshimizni ham, qonimizni ham uning yo'lga nisor aylar edik. U nojaroda qo'limizdan kelgancha, iqtidor-qudratimiz yetgancha, hech qanday bahonasiz ishtirok qilgan bo'lar edik. Ammo hozir esa, bu bemor bo'lib qoldi, buning ilojini faqat siz qila olasiz!»

Ilm-hikmat, fan ahliga qarata shunday xitob qilgach, ular o'ylab ko'rib, tubandagicha javob berdilar:

«Sizlar nima degan bo'lsangiz, barchasi chin va haqdir. Buning uchun biz sizga tahsinlar o'qiymiz, tashakkurlar aytamiz. Lekin ishqqa muhtalo bo'lgan kishilar xastalansa, uni davolash hakimlarning qo'lidan kelmaydi. *Ishq o'ti kimni o'z harorati bilan kuydirsa, uni dori-darmon va kofur (kamfara) kabi narsalar bilan tuzatib bo'lmaydi.* *Ishq o'ti har qanday ko'ngilga alanga solg'udek bo'lsa, u faqat yor vaslidan bahra olishi, unga to'yishi kerak, xolos.* Bordi-yu, agar,

masalan, birovning tabiatida xilt ko'payib, undan illat paydo bo'lsa, ya'ni moddiy xastalik yuz bersa, uni davolash biz tabiblarning ishimizdir, biz uni tib ilmiga asoslangan holda muolaja qilib, sog'lomlashtiramiz. Lekin shohning kasali ishqning natijasidir, ishq — o't bo'lsa, bizning muolajamiz bamisoli xasdir. Xasni o'tga yaqinlatgandan ne foyda? Agar, haqiqatan uning tanasida tabiiy xastalik bo'lsa, biz sa'y-harakat qilib, unga boshdan-oyoq chora ko'raylik. Qo'limizdan kelgancha jiddu jahd bilan tadbir topaylik. Tilagimiz, yolg'iz ma'budimiz — Tangrimizning o'zi unga rahm qilib, aynagan mizojini tuzatgay; es-hushi joyiga kelib, tamom sog'ayib — salimul-a'zo bo'lib ketgay!»

Hukamo shu xildagi gaplarni aytgach, shohni davolash ishiga kirishdilar. Ular shohning dardiga chora topmoq uchun kecha-kunduz bosh qotira boshladilar.

Yuz kishidan iborat bir guruh ulamo haqiga duo qilish bilan tunu kun tangriga ibodat aylab yolvorishga, shohning sihatini yaratganning o'zidan tilashga, unga atab nazr-niyozlar, xayr-sadaqa qilishga kirishdilar. Yana yuz kishi esa, azayimxonlik qilib o'qiydigan, sehr va jodu kabi nayranglar bilan shug'ullanadigan bo'ldilar; tumor yozib, kinna solib, jinlarni daf' etishga kirishdilar. Yana yuz kishi tabobat kitoblarini qayta-qayta varaqlab, o'zlarining tibbiy tajribalariga ham amal qilib, yana buning ustiga, bemorning dardiga ham nihoyatda diqqat va e'tibor bilan qaragan holda shohni davolay boshladilar. Yana yuzta tajribali kishi miyaga quvvat beruvchi ud kabi tutatqilarni, umuman, barcha dori-darmonlarni tayyorlashga oshiqar edilar. Shu kabi, yer yuzida tengi bo'lmagan, pok qalb, muborak tabiatli to'rt yuz odam ikki yillab o'z uyqu va oromlarini tark qilgan holda shohni avvalgidek sog'lom holiga keltirish uchun chora-tadbir ko'rdilar. Natijada shoh qisman bo'lsa ham sihat topdi. Bularning juda ko'p tadbir va ta'sirlari har xil usul bilan uni chalg'itishlari natijasida shohdagi jismoniy zaiflik va ruhiy devonalik birmuncha kamaydi. Har turli dori-darmon bilan ovqatlanish tufayli, kuch-quvvati oshib, miyasiga ham aql nuri kirdi. Bemor shu darajada shifo topganidan so'ng, hukamo tubandagi fikrni ham izhor qildilar:

«Yana shunday bir ish kerakki, bu ish asta-sekin savdoyilikni tamoman yo'qotadigan bo'lsin. Shulardan biri go'zal imoratlar bo'lib, undagi san'atni tomosha qilishning ham foydasi zo'r bo'ladi. U imoratning tarhini shunday bir usta va mohir muhandis tuzsinki, u imorat har doim o'zga bir shaklga kirib, kishi xayolini o'ziga jalb etadigan bo'lsin. Har qanday kishining asabi qo'zg'alib, unda devonalik kuchayib ketsa, shu imoratni tomosha qilish bilan savdoyiligi barham topadigan bo'lsin!»

Mana shu yuqoridagi fikr va maslahatlar asosida davlat boshliqlari tezda ishga kirishib, nimaiki asbob kerak bo'lsa, shuning barchasini muhayyo qilishga kirishdilar.

Yetti iqlimning xon va xoqonlari shohning kasallanib yotib qolganini bildilar. Faqat xon-xoqonlar emas, shohga tobe bo'lmish hamma amiru sultonlar ham uning holini so'rab, mulozamat qilish payiga tushdilar. Ular shohning dargohiga kelib, kecha-kunduz unga qulluq

qilishga tayyor ekanliklarini bildirdilar. Ba'zilar o'zlari kelishning imkoniyatiga ega bo'lmasalar, o'rinlariga boshqa birovni, masalan, inisini yoki o'g'lini bajonu dil shohning xizmati uchun yubordilar.

Xususan, yer yuzining baland martabali yettita shohi Bahromning ishi uchun imkoni boricha harakat qilmoqda edilar. Bular shohni davolash bobida jonini ham ayamasa, ertayu kech uning shifo topishini tilar edilar. Bularning har biri bir xizmatni bajarishni istar, qo'llaridan kelsa, shohning salomatligini bir marta emas, yuz marta oshirib yuborishga hozir va nozir edilar. Ular shohga qilgan xizmatlarining el-yurt qulog'iga yetuvidan, shu yo'l bilan shoh oldida ham, el-ulus orasida ham obro'lari oshuvidan umidvor edilar.

Binobarin, imorat qilish haqidagi maslahatlar bir to'xtamga kelgach, shu yetti katta shoh, yer o'pib, imoratlarni qilishni o'z zimmalariga oldilar. Ularning har qaysisi bittadan qasr bino qiladigan bo'ldi, u qasrlar o'z go'zalligi bilan o'sha asrning butun zeb-ziyatini aks ettirishi, u zamonning ilm va san'ati qaysi maqomda ekanini ham namoyish qilishi lozim edi; ular tunu kun sa'y-harakat qilib, tezda bu imoratlarni bitirish taraddudiga tushdilar. Ustalarining har kungi qilgan ishini shu binoni o'z zimmasiga olgan shoh kelib ko'rar, so'ngra, Bahromning ruxsati bilan, uning huzuriga kirib, qilinayotgan ish haqida hisob berar va unga bajonu dil minnatdorchilik izhor qilar edi. Taxtdan yetti tarafga yettita shoh yo'l bo'lib, bu yo'llar orqali dunyoning har chekkasiga borilar, ammo bu yo'llar goh ochiq va goh yopiq bo'lar edi. Bundan tashqari, xaloyiq qatnaydigan, el-ulus uchun doim ochiq bo'lgan yo'llar ham bor edi. U yetti shohning har biri o'z diyoriga qarab boradigan yo'l ustiga qasr bino qildi. Ular falak singari ulug'vor yetti qasrni qurib bitirdilar. Bu yerda qilingan ishning salmog'i va sifatini shu go'zal va azamat binolarga qarab tasavvur etavering. Bular tayyor bo'lgach, el-ulusning shodiyonasi osmonu falakka yetdi. Falak bu binolarning g'ishtini, yer yuziga yetti bihisht solinar ekan, deb oyu kundan uzib tushirdi. Bu qasrlarni qurish jarayonida, xususan, imoratda katta bir o'zgarish bunyod etilayotganda shoh Bahrom kelib, uni shaydoyilarcha tomosha qilar edi.

XIX

Yetti falakdek yetti qasrning tugagani va rassom Moniy har qasrni o'zga bir rang bilan bezab — naqshbandlik qilgani va yetti iqlim salotinining (shohlarining) qizlarini u yetti qasrda Bahrom bilan aqd-nikoh qilganlari va haftaning har kuni Bahrom bir qasrda bir qiz bilan suhbat tutgani

Qurilish muhandislari harakat qilib, har qaysisi o'z qasrini tamom bitkazdi. Lekin qasrlar oxiriga yetguncha, kundan-kunga qad ko'tarib, ko'rkamlashib borayotgan imoratlarni ko'rib, Bahromning kasali tuzala boshlagan edi. Har doim bu ajib binolardagi yangiliklarni ko'rish bilan Bahromning jinnilik savdosi tarqala bordi. Bu qasrlarning har biri o'z yuksakligi bilan falakka tutashar, o'z balandligi va kengligi bilan falakka monand edi. Ularning falak darajasidagi binoga aylanishida Moniyning xizmati katta edi. Ishqilib, ko'pchilik birlashib, harakat

qilib, bu qasrlarni bitkazib tugatdilar. Hali Bahromning kasali tamom tuzalmagan, hali uning ko'nglidan ishqning vasvasasi tamom arib ketmagan edi. Osmon qadar yetti qasr bitib, tamom bo'lgach, shoh u qurilishni tomosha qilishdan bo'shab qoldi. Binobarin, hukamoning qasrlar bino qilish haqidagi maqsadlari hosil bo'lgach, dedilarki: «Bu ishimiz endi o'z shifobaxshligini ko'rsatadi. Masalan, bir qancha naqqoshlar endi u qasrlarni o'z san'atlari bilan bezaydilar. Ya'ni, ular san'atkorlik bobida yuz turli hunar ishlatib, bu qasrlarga bo'yoq va pardoz beradilar. Ichini qanday naqsh va bo'yoqlar bilan bezasalar, qasrlarning tashqarisini ham shu taxlitda ziynatlaydilar».

Nihoyat, ular Moniyi chaqirib aytdilarki:

«Ey, fan va san'atning mahoratli ustasi! Boshlab, mana shunday qasrlarni qurish haqida maslahat berib, shohning xursandchiligiga sababchi bo'lmish kishi sen eding. Endi uning dardi arib, salimul-a'zo bo'lib ketishiga ham, ta'bining ravshan tortishiga ham sen sababchi bo'lgin. Qasrlarni bo'yoq berib — ziynatlash ishiga kirish, bu yetti qasr yetti rangda bo'lsin. Naqshini ham o'zing istaganingcha qil; sening ko'ngling qanday xohlasa, shunday bo'lsin. Senga undoq qil, bundoq qil, deb o'rgatish to'g'ri emas, aqli bor odam senga bu gapni aytmaydi».

San'atkor Moniy bularning yalinib-yolvorishini ko'rgach, barmoqlarini ko'ziga qo'yib:

«Siz men aytgan narsalarni olib keling, nima masolih va asbob-uskuna kerak bo'lsa, hammasini menga hozirlab bering», dedi.

Buning talabini ular qabul etib, ishlarni boshqarish va tashkil etish uchun yugurib kettidilar. Moniy mamlakatda qancha naqqosh bo'lsa, hammasini chaqirib, barchasiga o'ziga mos ish topshirdi. U, mo'yqalam san'atkorlarni yetti sarkorga bo'ldi, ularning bir guruhi naqqoshlik bilan shug'ullansa, ikkinchi guruh zarkorlik qilishlari kerak edi. O'zi esa, ishning tarhi — loyhasini, rejasini va ish rejalarini tuzar; goho har qaysi guruhning tepasiga borib, ishning qanday borayotganini nazorat qilar edi.

Bahrom esa har kuni ertalabdan to shomgacha aylanib, bir imoratni tomosha qilar edi. U imoratlarda har nafasda bir qancha o'zgarishlar bo'layotganini ko'rib quvonar, xayolini bu ishlardan ololmas edi. Ko'ngli har tomonga chalg'igan sari, xayoli bo'linib, asablaridagi savdoyilik asta-sekin tarqar edi. Buning xayolini imorat naqshlari o'ziga tortgan sari, o'z boshidagi ishq savdosini unutar edi.

Shu xilda uncha ko'p fursat o'tmay, qasrlarning zeb-ziynati ham bitdi. Qasrlarning har biri o'zga bir turfa rang bilan bo'yalgan bo'lib, yetti qasrning rangi yetti xil edi. Shohning aqli ishq o'ti bilan qiziyotgan bo'lsa ham, lekin avvalgichalik emas, ozroq edi. Hakimlar yana anchagina tadbir-choralar ko'rib, ko'p mulohaza va fikrlar yuritib, dedilarki:

«Emdi quvvatning batamom tiklanishi uchun, zaifliging yo'qolib, hech ko'rmagandek bo'lib, sihat topib ketishing uchun, qasrlarning hamma kam-ko'sti bitkazilgach, yetti koshonaning har biriga bittadan — yettita hur kabi go'zal qizni keltirish kerak. Shohlardan kimning hurvash farzandi bo'lsa, kimda shoh Bahromga

munosib va loyiq qiz bo'lsa, shulardan yettitasini tanlab olib, shohga nikohlamoq va qasrlarda shoh bilan bu go'zallar orasida cholg'u va may bazmi bo'lib turmog'i lozim».

Binobarin, kimda shunday qiz borligini surishtirib, daraklay boshladilar. Nihoyat, barcha maqsad ko'ngildagidek hosil bo'ldi; yetti shohning yetti pari-paykar qizi borligi, ular parda ichida bo'lishlariga qaramay, aqlari har qanday parda orqasidagi sirni biladigan darajada dono ekanliklari aniqlandi. Ularning har biri har qanday aqlni ham, jonni ham shoshiradigan, aqlu jongina emas, butun jahon kishilarini talvasaga soladigan darajada go'zal edilar. Ular osmon quyoshidek poklik pardasiga o'ralib, shunga qaramay, xuddi osmondagi quyoshdek hammayoqqa nur sochib turar edilar. Ular husn cho'qqisida go'yo yorug' yulduzday, latillikda xuddi qutichada turgan gavhari pokdek jilvagar edilar. Yulduz bo'lganda ham, go'yo bulut ichiga yashiringan yulduzday; gavhar bo'lganda ham, xuddi hech yeri sinmagan gavharday edilar. Ularning har birining vasfini to'la bayon etishga kishi o'qizlik qiladi, bayon u yoqda tursin, har qanday nuqtavor — yozuvchining qalami ham o'qizlik qiladi. Ular husnda oyga ham, kunga ham teng bo'lib, har biri shohga nikoh qilinib, u bilan juftlashishga loyiq edi. Shunday qilib, yetti iqlim hukmronlariga, mutlaqo xayollariga kelmagan so'zlarni xatga yozib, nihoyatda yashirin va pinhoniy qilib yuborildi. Shohlar ham buning sirini fahmladilar va hammalari yer o'pib aytdilarki:

«Bu taklifni qabul qilishga yoki rad etishga bizning haddimiz bor ekanmi? Shohimizning istaklari qanday bo'lsa, olam uchun husndir; barchamiz uning istagiga so'zsiz qo'shilamiz. U kishi zarralarni quyosh kabi ulug'laydi, qatralarni dengizdan ham oshiq ko'radi».

Bu haqdagi so'z shu bilan tugagach, ular shohona rasmi taomil bilan to'y qilish haqida farmon oldilar. To'y-tomosha avjiga chiqqan paytda esa, shoh Bahrom bilan u go'zallar nikohlanib, er-xotin bo'lishdi. Shundan so'ng ularning har biri o'z otasi tarafidan bino qilingan qasrga kirib joylandilar.

Vaqtshunos olimlar yulduzlarga qarab, yaxshi soatni aniqlashga kirishdilar. Toki bu soatda baxtiyor shoh haramga kirib, jononlar bilan komini ravo qilmog'i, haram ahlini muhtaram qilmog'i durust bo'lg'ay. Binobarin, yulduzlar tong-la shanba kuni sharofatli kun ekanini ko'rsatdi. Shu kuni shoh boshlab qora qasrga kirib, mushkdek muattar may ichsa, qutlug' bo'lur ekan!

XX

Bahromning shanba kuni mushkfom — qora libostlar kiyib, mushkin rang gumbazga kirib, mushk hidli ohu bilan mushkdek qora may ichgani va bu mashg'ulot bilan hijron o'fining dudi qora qilgan kunini tunga ulagani

Qora tun tugab, shanba tongi o'z yuziga kofur rangli oq kiygach, Bahrom ohu bilan muattar may ichish uchun qora qasrga qarab yo'l oldi. U yerda lablari jon bag'ishlaydigan, sunbullari dilrabo, Chin

go'zallariga o'xshagan hindzod kelin bor edi. U oy singari go'zal, kechadek qora liboslarga burkangan bo'lib, u hulla nozik-nafis kiyimlarga qadalgan gavharlar xuddi yulduzlardek tovlanar edi. Uning taxtiravoni va ko'rpa-to'shaklari ham qora tusda bo'lib, bu Chin g'azoli mushk ustida o'tirar edi. Bu uyni butunlay qora – mushkin zulmat bosgan bo'lib, u mahvash qorong'ilik ichidagi obi hayotni eslatar edi. Shoh ham shu kabi qora hullalar kiygan holda mahvashning huzuriga kirib keldi va bu Jamshidning vorisi taxt ustiga chiqarkan, uning yoniga quyosh yuzli go'zal ham kelib o'tirdi. Shundan so'ng, mushk isli maylar quyilib, mushk-anbar kabi xushbo'y narsalar tutatila boshlandi. Bazm to shom qorong'ilig'i bosguncha olam yuzini anbar hidga burkab turdi.

Bu shanba el uchun o'yin-kulgi kuni edi-yu, ammo shohga bu kun qora shanba edi. Hukamoning shohga farmoni – o'pish, quchishdan boshqa ishga o'tmaslik bo'lib, bu shartni mahvash ham bilar va o'zini shohdan yiroqroq tutar, ehtiyot qilar edi. Shoh kunduzi o'yin-kulgi qilgani holda, mumkin qadar butun kechani uyqu bilan o'tkazishi shart edi. Ammo, aksincha, g'am shomi Bahrom ko'ngliga qayg'u solib, uning ko'zidan uyqusini qochirgan edi. Binobarin, mahvash o'z pardasiga kirib, ko'zdan nihon bo'larkan, hijron azobi shoh bechoraga jahonni qorong'u qilib yubordi. U o'zining tiyra kuni va dilbarining qora zulfi xayoli bilan to'lg'onar edi. Ko'rdiki, g'am shomi unga azob berar, uyqusizlik esa uni xarob etar edi. Nihoyat, shoh bunday hukm qildi:

«Bir-ikkita xizmatchi shu qasrga tomon keladigan yo'lga tez va jahd-jadallik bilan borib, bu yo'lda qanday musofir uchrasa, uni mening baytul-ahzanimga (g'amxona uyimga) olib kelsinlar. U menga ko'rgan-kechirganlaridan hikoya aytib, afsonavor sarguzashtlar bayon qilsin! Shoyad, shundan so'ng ko'zimga uyqu kelib, orom va osoyishtalik toparman», dedi.

Shohning bu istagini eshitish bilanoq mulozimlar borib bir jahongashta odamni topdilar, u butun jahonni necha martadan aylanib chiqqan odam ekan. Butun umrini sayr-sayohat bilan o'tkazib kelayotgan bu odam shoh turgan xonaga kelishi bilan, unga o'tirish hukmi berildi. Musofir yer o'pgach, ko'rsatilgan joyga o'tirdi. Shoh esa, unga biron qissa aytishni buyurdi. Bu sayyor odam qissa aytish haqidagi farmonni eshitarkan, shohga ma'qul bo'ladigan bir hikoyani diliga tukkan holda: «Hoyo g'am va qayg'udan ozod bo'lg'aylar!» – deb shoh haqiga duo qilish bilan o'z qissasini boshlab yubordi.

XXI

Avvalgi iqlim yo'lidan keltirilgan musofirning afsonasi

U nima duoni bilsa, hammasini aytib, shoh haqiga yaxshi tilaklar tilagach, dediki, bir bor ekan, bir yo'q ekan, Hind mamlakatida bir podshoh bor ekan. Podshoh bo'lganda ham shohlik ishlaridan ogoh ekan. Shoh lashkarlarining cheki ko'rinmas, xazinalarining hisob-kitobi bilinmas ekan. Hindining el-yurt – kishvarlarni zabt etadigan

tig' kabi bu o'tkir shohi xohlasa Xitoyni va xohlasa Kashmirni olishi mumkin ekan. Baxt qushi osmon qadar balandparvoz bo'lib, poytaxti Sarandib ekan. Laqabi Xonu oti Jasrat ekan. Mulkining farovonligidan bir qancha shohlar hayratda ekan. Uning yolg'iz bir xujasta — baxtiyor farzandi bo'lib, u Jasratxon ko'nglining madori-yu, bag'ring payvandi ekan. Bola hamma ilmlarni bilishda tengsiz bo'lgani kabi, husnda ham zamonasining nodiri davroni ekan. Otasining ko'ngli bu farzand bilan shodlangani kabi, hind eli ham uni o'z ko'zining nuridek aziz ko'rar ekan. Buning odamiyligi va odob-axloqi haddan ziyod go'zal bo'lgani kabi, fahm-farosati, aql-idroki ham ta'rifdan tashqari ekan. Barcha ilm va fazilatda mohir, yuzlab kamolot egalari bunga teng kelolmasligi tabiatidan zohir ekan. Hamma bir taraf bo'lsa, buning o'zi bir taraf bo'lgani holda, undan hech kimsaga ozor yetmas ekan. U doim toat-ibodat bilan mashg'ul bo'lar, halol-haromdan parhez qilar, poklikni o'ziga bir qo'rg'ondek bilard ekan. Uning oti Farrux bo'lib, xushro'y va baxtli-saodatli bu yigit olam elini o'ziga banda qiladigan darajada olijanob xulq-atvoriga ega ekan. Otasi qirq yil mobaynida el-ulusga xonlik va sultonlik qilibdi. U qarib, yoshi saksonga borib, ko'nglida yashash zavqi qolmabdi. O'zining tirikligi davrida, hali ko'zi abadiy yumilmasdan ilgari, o'z chirog'i (farzandi) bilan uyini yoritmoqchi ekan. U o'g'liga mamlakat, toju taxtini ham, Hind mollariyu Xitoy xirojlarini ham topshirish bilan faxrlangisi kelar, lekin Farrux buni xohlamas, balki bu ishdan nafratlanar ekan. U faqir-fuqarolik bilan hayot kechirgisi kelar, xonlik va saltanatni qabul qilmas ekan. Farrux shohlik ishini xushlamagani kabi, uylanish va bola-chaqa qilishni ham yoqtirmas ekan. Shoh ko'zining tirikligida shu ikki ishni yuzaga chiqarishni orzu qilar, shahzoda esa, ikkalasini ham rad etar ekan. Otasi bu masalada qanchalik just-jo'y qilganiga qaramay, bolasining gapi faqat buni man etishdan iborat ekan.

Farrux bir kechasi ibodat bilan mashg'ul ekan, saodatga boshlovchi ilk nur tarala boshlaganda u tong namoziga sajda qilarkan, ko'zi uyquga ketib qoladi. Shunda bir ruhoniy xayol (tush) jilvalanib, parda ichida ming xil surat zohir bo'ladi. Jumladan, o'zini bir biyobonda ko'radiki, u yerda son-sanoqsiz xalq bor edi. Ularning hammasi safarga jo'nab ketayotgan odamlar bo'lib, barchasi bir tarafga qarab horar edilar. O'sha joyda katta bir tuyaga yuklangan taxtiravon bor edi. Taxtiravon qop-qora parda bilan o'ralgan bo'lib, bu parda osmon gumbaziga monand edi. U xuddi Chin iporiday mushk isi sochar edi. Mayin shamol esib, taxtiravon ustidan pardani ko'tardi. Taxtiravonda esa xuddi pariga o'xshagan bir go'zal o'tirar, u pari emas, yo'q, sharq quyoshi edi. O'sha quyoshning shu'lasini uning notavon jismini xuddi xashakni kuydirgandek kuydirib, boshdan-oyoq kul qildi. Farrux bechora o'sha tarafga behol, bemajol qaradi, go'yo to'lin oyni qora parda bulutdek yashirdi. Shu orada quloqqa: «Bu yer Quddusdir!» — degan ovoza eshitildi. Farrux seskanib uyg'onib ketdi va qayg'usining zo'ridan ko'zida hech qanday uyqu asorati qolmadi. Shu kundan boshlab uning bezovtaligi har on ortib, ko'ngli iztirobga to'lib-toshdi. Agar foydali bir tadbir topilmasa, ishq zulmi uni halok qilajagiga ham ko'zi yetib

qoldi. Shundan so'ng u hamma narsani yig'ishtirib, Quddus dashtiga safar qilish taraddudiga tushdi. U bu yo'lda yo'z murodiga erishadi, yo bo'lmasam shu istagi yo'lida jonini tark etadi. Boshqa iloji yo'q edi.

Tong yeli tunning qora dudini haydab, ko'k chodiri anbar hidli pardani ko'tardi, kunduz o'zining muborak yuzini ochishi bilan Farrux otasining taxtiga tomon yo'l oldi. U, otasining huzurida sajda qilib, yerni o'z yuzi bilan bir necha marta supurgach, muddaosini tubandagicha izhor ayladi:

«Menda dunyoni aylanib, sayohat qilish havasi uyg'onib qoldi, buni sira dilimdan chiqazolmayotirman. Bu havas aqlimni zoyil qilib qo'ydi. havas kuchlilik qilsa, kishida aql ham qolmas ekan. Bu safarga bormay ilojim yo'q. to yo'lga tushmagunimcha qarorim ham yo'q. Men Sizdan bu ishga o'tlanishimga yo'q demasligingizni o'tinib so'rayman, agar ruxsat bersangiz, nur ustiga nur ho'lardi! Ijzat bermasangiz, ey shohim, to'satdan bosh olib ketib qolish fikridaman!»...

Shoh, Farruxning xayrlashuv iltijosini eshitarkan, shunday o'rtanib ketdiki, tutuni boshiga chiqdi. Bag'ri xuddi lola yaproqlaridek parcha-parcha bo'lgan holda, dedi:

«Ey yurak-bag'rimning porasi! Ketaman, deb bag'rimga hajr o'qini otma! Nima desang degil-u, bu ishni ixtiyor etma! Men bugun bormanu erta yo'qman; umrim ham, jonim ham oxirlab qolgan. Endi sen ham hijron xanjari bilan ko'nglinga urma, men baribir bugun-erta o'laman, endi sen ham o'limimni tezlatma!» – deb, dard-alam bilan ko'p faryod-fig'on qildi-yu, ammo bu nolalar ishq o'tida o'rtanayotgan o'g'liga ta'sir etmadi. Nihoyat, o'g'lining harorati oshib, unga g'alati isitma tutashayotganini sezdi. Ota ko'z yoshlari uning o'tini pasaytirmadi, o'g'li to istagan yeriga kermaguncha ko'ngli qaror topmasligini angladi. Ko'zining yoshi to'fondan ham oshib, umidsizlanishi natijasida jonidan qo'l yuvdi. Binobarin, qo'shin va ganj-xazinasidan yarmini ajratdi. O'g'liga loyiq shohona asbob-uskunalar, ya'ni nimaiki g'aroyib va vojibu zarur bo'lsa hammasini berdi. Yasan-tusan shu qadar ko'hlik bo'ldiki, aql uning qiyosini topishga ojizlik qildi. Shundan so'ng, safar qilishga ruxsat etib, o'g'lini shodlantirdi. Jon bilan jism (ota bilan o'g'il) bir-birlaridan ajrab, xayr-ma'zur qildilar. Shu tariqa Jasrat ruhiga balo orttirib, kuyib-yondi. Farrux esa butun askarlari, asbob-anjomlari va ko'ch-ko'roni bilan qo'zg'alab, yo'lga tushdi. Maqsadi esa tunu kun yurish edi, zotan hech yerda oromi yo'q edi. O'z manziliga yetguncha bir qancha shaharlarni bosib o'tishi lozim edi.

U zamonlarda kimki haj qilmoqchi bo'lsa, Ka'ba o'rnida Quddusni tavof¹ etishi lozim edi. Haj qilish vaqti bo'lganligidan yuz minglab odamlar tavof qilish niyati bilan u tomonga bormoqda edilar. Farrux ham u muborak yerga borib yetdi va pok ko'ngli bilan u shaharni ziyorat qilarkan, yuz umid va iltijo bilan yuzini tuproqqa surtib, ko'zlaridan shamdek yosh to'kib yig'ladi. U, borliqni yaratgan Xoliqdan o'z hojatini ravo qilishni, umidiga yetkazishni tilab, yig'lar

¹ Tavof – hajda Ka'bani aylanib chiqish.

edi. Tushida ko'rgan diloromini yana ko'rishni, uning visoliga yetishni orzu qilar edi. U bir necha kundan beri shu ahvolda hayot kechirar edi-yu, ammo ishida hech qanday o'zgarish ko'rinmas edi. Ziyoratga kelgan xalq yana o'z yurtiga — qayondan kelgan bo'lsa, o'sha tomonga qarab keta boshladi.

Farruxning yuragi bu kecha g'am bilan azoblanar ekan, tushida bir odam unga shunday dedi:

«Agar sen murodimga yetay desang, bu yerda ovora bo'lib yurmay, tezda Halab shahriga qarab ravona bo'll»

Uyg'ongach, bu tushni eslab, sabru toqati ketdi va o'rnidan tura solib Halabga qarab yo'l oldi. Halab shahrining xalqi bag'oyat ko'p edi. Halab yo'lida esa, suv nihoyatda oz edi. Farrux o'z lashkarlariga ijozat berib, yuz xil tazarru bilan ularni yo'lga solib, qaytarib yuborishga muvaffaq bo'ldi. Askaru sipohlar qaytib ketgach, Farrux bilan bir-ikki yuz odam qoldi. Ularning o'z shohlarini yolg'iz tashlab ketishlari juda mahol edi. Farrux shu qolgan odamlarga yarasha oziq-ovqat, kerak yarog' bilan yo'lida davom etdi. Bular Halabga borayotgan bo'lsa ham, o'z vataniga qaytish havasi undan ham zo'r edi. Shahzoda ular bilan hamroh-u, lekin hamroz ulfati dardu g'am edi.

Yo'l yurarkan, onda-sonda dam olib, nihoyat, Halab yeriga yaqin bordilar. Ko'rdilarki, shahar tinimsiz, hammayoqda g'ala-g'ovur, ko'chalar va maydonlarda liq-liq odam. Ammo Farrux o'z tushida ko'rgan qissani eslar, ko'zi esa, har doim taxtiravonni axtarar edi. Shu orada u bir tuyaning ustiga ortilgan mahmil taxtiravonni ko'rdi, u shaharga tomon shoshilardi. Mahmilning ustidagi yopig'i xuddi tushida ko'rganidek qora bo'lgani uchun Farruxning joniga o't solib yubordi. Shu orada qattiq bir shamol esib, mahmil ustidagi pardaning bir tarafini ko'tarsa bo'ladimi. Shunda go'yo bulut tarqab, o'tob chiqqandek, tushida ko'rgan quyoshi namoyon bo'ldi. Izlagan go'zalini topgan lahzasida, yana xurshidni bulut yopgandek, uning yuziga parda yopildi-qo'ydi. Kunni qora bulut nihon qildi, Farrux ko'ziga yorug' jahon qorong'i bo'ldi. Uning ko'zi nursizlanib, ko'z oldi xiralashdi, bir lahzada es-hushi yo'qoldi. U o'ziga kelib ko'zini ochganda, dashtda hech bir odam bolasi qolmagan, hamma shahar ichiga qarab safar qilgan, hamma uy-uyiga kirib ketgan edi. Farrux va uning bir necha xodimlaridan boshqa hech kimsa yo'q edi. Buni ko'rib Farruxning holi og'irlashdi, zero, u ichayotgan hijron zahri nihoyatda achchiq edi. Lekin notavon joni qanchalik kuymasin, iloji boricha bu tashvishini yonidagi hamrohlaridan pinhon tutar edi. O'z ishida bir rasvolik yuz bermasin, deb zo'r iroda bilan hamma aziyatlarga bardosh bermoqda edi. Hamrohlari esa, uning ahvolidagi o'zgarishlarni ko'rib, bir-birlari bilan gaplashardilar. Uning holidagi o'zgarishga nima sababligini bilmay, hayron bo'lardilar. Ularning hammasi xafa va ilojsiz, qo'nish uchun manzil topdilar. Lekin shahzoda juda behol va betoqat, u har nafasda har xayolga borar, nima qilishini bilmas edi. Suhbat vaqtida o'z so'zini ham, hamrohlarining gap-so'zlarini ham fahm etmas, xayoli g'oyatda parishon edi.

Nihoyat, tun o'zining shohona saropardaga o'xshagan qora pardasini yoydi. Shahzodaning g'amgin va betoqatligini anglagan

hamrohlarining hammasi xafa edi. Odamlarining g'am va qayg'uga tushib qolganini ko'rib, shahzoda o'zini uyquga soldi. Uning uyquga ketganini ko'rib, ular ham yotib uxlash taraddudiga tushdilar. U g'amga botgan to'da odamlari ko'z yumish bilan tez uyquga ketdilar. Shahzoda bularning mast uyquga kirganini ko'rib, sal xotirjam bo'ldi, ammo ichida yonayotgan ishq o'tida qovurilar edi. Nihoyat, u asta o'rnidan turib, qo'liga qalam va qog'oz olib hamrohlariga tubandagicha noma yozdi:

«Olam hodisotlar bilan limmo-lim to'la, bu hodisalardan hech bir odam bolasi xoli emas. Haq kimning peshanasiga nima yozgan bo'lsa, uni ko'rmay iloji yo'q. Mening taqdirimga ishq-muhabbat va ovoragarchilik yozilgan ekan, huni g'urbatda, sarson va sargardonchilik bilan ko'rmay ilojim bormi? Mening boshimga shunday qattiq kun tushdiki, huni bayon qilishga so'z topolmayman, tilim lol. Boshimga shunday qattiq kun tushgan ekan, huni men taqdirning zarurati deb bilaman, bunga tan berishga majburman. Siz esa bu g'urbatda yurmangiz, zinhor-bazinhor izimdan ta'qib etmangiz. Meni qidirganingiz bilan bu yerlardan topolmaysiz ham. Siz bilan hiz salomat bo'lsak, faqat vatanimizda topishajakmiz. Agar meni bu horadagi ranj-mashaqqatlar jondan to'yg'azsa, o'lmasam, albatta, vatanga qaytib borgumdir. Agar o'lsam, aziyat berganim uchun gunohlarimni kechiring, meni esingizdan chiqarib, unutib yuboring. Bu diyorlda ovora bo'lib yurmay, vataningizga qayting! Vassalomu val-ikrom, rahmat!»

Farrux yuqoridagi mazmun yozilgan qog'ozni, ya'ni dard-hasratlar sahifasini o'tirgan o'rniga qo'yib, egnidagi shohona liboslarni yechib, shom kabi qora liboslarni kiyib, o'rnidan qo'zg'alib, ohista uydan chiqdi-da, jadallik bilan yo'lga ravona bo'ldi. U shahar ichiga kirib, ko'chama-ko'cha keza boshladi, telba yanglig' har tomonga yugurdi. Oqibat charchab, bir hammomning o'txonasini topdi-da, o'z ustiga o'sha yerda yotgan qora palosni yopdi. Garchi, u o'txonaning kuli ustida yotgan bo'lsa ham, joni go'yo do'zax o'tida yonar edi. Uning hoshiga bu ahvolni berahm ishq solgan edi, ammo bu ishq oxirda uning boshiga yana qanday kunlarni solajagi noma'lum edi.

Nihoyat, tong ko'rasi damini ishga solib, olamni mehr-quyosh o'ti bilan yoritdi. Shu payt Farruxning odamlari uyg'onib, shoshapisha shahzoda turgan joyga qaradilar. Ammo uni o'z joyida topolmay, hammalari alam bilan dod-voy solib, har tomonga qarab axtarib ketdilar. Ikki kecha-kunduz yugurishlariga qaramay, undan biror nishon va xabar topolmadilar va firoqi o'tida jonlaridan to'ydilar. Oxirda, banogoh, yozib qoldirgan xatini topib, uning nima ish qilganini fahmladilar va bu dard nihoyatda bedavo ekanini anglab, shahzodaning mushkul ahvoliga motam tutib, yig'ladilar. Uning g'urbatdagi ahvoli qanchalik og'ir bo'lishi haqida har kim har xil fikr yuritib, g'aribona yig'i-sig'i qildilar. Ammo bunday harakatlardan hech foyda yo'q edi, nihoyat, hasrat-nadomat bilan o'z vatanlariga tomon yo'l oldilar.

Endi hechora shahzodadan so'rasangiz, ancha fursatlar o'tishiga qaramay, odamlaridan darak bo'lmadi. Demak, ular Farruxni topolmay, yig'lay-yig'lay o'z vatanlariga jo'nab ketganlar. Shu qarorga

kelgach, shahzodaning ko'ngli buzilib, g'am o'tida xasdek kuya boshladi. U, shohlikda gadolikka tushgan, yuz xil balolarga muhtalo bo'lgan edi. G'ariblik-bekaslik uni har nafasda ezar va o'zining og'ir ahvoriga hech qanday chora topolmas edi. Uning bechora joni yuz tuman g'amga botgan bo'lib, boshqa hammaning g'ami bir tomon bo'lsa, huning g'ami bir tomon edi. Bu shunchalik ko'p ranj-mashaqqatga giriftor bo'ldiki, yuragidan chiqqan oh o'ti ko'kni kuydirgudek edi. Ammo shuncha kulfat, mashaqqatning boisi bo'lgan ish maxfiy edi, yo'q, maxfiygina emas, nom-nishonsiz edi. Buning ustiga, na u shaharning chek-chegarasi ko'rinar va na mahallalarining son-sanog'i bor edi. Bu azim shaharni birov yuz yil kezgani bilan uning hammayog'ini ko'rib ulgurolmas edi. U shahardagi uy-joylar sahro qumidan ham ko'p va xalqi esa, bunga bir necha baravar kelar edi.

Notavon Farrux anchadan beri shu shaharda sargardon yurdi, na bir qultum suv ichdi va na bir luqma taom yedi. Axir, kishi taom yeyishdan lazzatlanmaydigan bo'lgach, taom o'rniga zahar no'sh qilishi tabiiy emasmi? Axir, kimningki jonida ishqning alam va ozori bo'lsa, tani g'urbat o'tida yonadi-ku. Buning ustiga-ustak, hajr ham unga azob berib turgach, uning holi ahvoli qandayligini bir tasavvur qiling. Uning shunchalik g'am-kulfati borligi ustiga, shohlikni tark etganligini aytmaysizmi. Uning xasta jonini shu kabi yuzlarcha g'am ezar edi. Bir odamning boshiga shunchalik ham kulfat tushadimi? Vo ajabo!..

Nihoyat, Farrux o'zining mushkul ahvoli haqida o'z-o'ziga shunday dedi:

«Bu yolg'izlik va ojizlik bilan ishim bitarmikin? Ha, mayli, birorta hamdamim bo'lmasa, Tangrim bor-ku! Qanday bo'lsa ham oyoqqa turayin, yotib o'lguncha, harakat qilayin!» – deb o'rnidan turib, shahar ichiga qarab yo'l oldi. Ammo qayon to'g'ri kelsa, o'sha yoqqa qarab telhalarcha yugurardi. Bir-ikki kun shu xilda yugurib-yelgach, oxiri kuchdan qolib, butun vujudi harakatdan to'xtadi. Zero, ishq uning ishtahasini bo'g'ib, yeyish-ichishni unutgan; kuch-quvvatiyu ovqati ham ishq va g'am bo'lib qolgan edi. Har qanday jism oziq-ovqatdan quvvat olmagach, suvdan ajralgan baliqning o'zi bo'lib qolishi tabiiy. U g'urbatda hech kimsasiz, yolg'iz o'zi yurar, hamrohi ishq va dard edi, xolos. Ikki-uch kun shu xilda nochorlik va notavonlik bilan kezarkan, oxiri unda aqlu xush ham, sabru toqat ham, yeyish-ichish g'ami ham – hech narsa qolmadi, hammasi bitdi.

Ko'rdiki, balolarning haddi-hisobi yo'q, nihoyatda dardi bedavoga uchraganini sezdi. Bildiki, uning tani zorida harakat qilish uchun majol qolmagan. Oxiri bir buzuq vayronaga kirib, o'zini tashladi. O'sha yerda boshiga bir toshni qo'yib yotarkan: «Menda hosh bo'lmasa koshkiydi!» – degan gap xayolidan o'tdi. U tani zorini tuproqqa tashlagan holda, boshiga baxtsizlik palosini yopdi. Bunday hayot joniga tekkan edi, u ko'nglida o'limga rozi bo'ldi.

Halab shahrida bir badavlat xoja bor bo'lib, uning butun rasmu odati mehmonnavozlikdan iborat edi. Uning xalq orasida obro'-e'tibori behad bo'lgani singari, mol-davlatining ham son-sanog'i yo'q edi.

Bir katta mehmonxonasi bo'lib, unda qancha oshna-og'ayni bo'lsa, shuncha begonalar ham mehmon bo'lar edilar. O'zi nihoyatda rahmdil, tabiatan saxiy odam edi. Oti Axiy bo'lib, butun shahar eli ichida ma'lum va mashhur edi. U goh-goh otga minib, katta-kichik har xil ko'chalarda sayr qilib kezar, boshi berk ko'chalarga ham kirar, vayronalarni ham axtarar edi. Qayerda g'arib, mazlum, bemor-xasta, nochor, noumid va muhtoj kishilarni topsa, o'shanday bechoralar bilan bir nafas hamdam bo'lar, undaylarning majruh ko'ngliga malham qo'yar edi. Kim hiror narsaga muhtoj bo'lsa, unga kerakli narsani berar edi. Shu jihatdan butun shahar xalqi undan minnatdor bo'lib, uning karami hammani o'ziga maftun qilgan edi.

Mana shu xayr-saxovatli Axiy shahar atrofini sayr qilib yurgan paytida, Farrux shu buzuq vayronaga kirib, yuzini baxtsizlik tuprog'iga qo'ygan edi. Xoja xarobaga yaqin kelarkan, notavon Farruxga ko'zi tushdi. Shunda davlatmand Axiy unga yaqin borib otdan tushdi va otini qullariga berdi va Farruxning tepasiga kelib, so'radi:

«Ey, marhum, kimsan? Ahvolingni menga bayon qil!» – dedi. Bechora Farrux yuzini ochib, unga salom berdi va o'tirib, ko'p ehtirom bildirdi va:

«Ey, jamolidan baxt yog'ilib turgan odam, mening ahvolimni so'rayman, deb yo'lingdan qolma! Tag'in ko'nglimdagi g'amlarning asorati senga ham yuqib qolmag'ay, yuragimda yonayotgan o'tning uchqunlari sening joningga ham tutashmag'ay!» – dedi.

Xoja u yuzi mahvash yigitni ko'rib, bu kabi mungli suxanini eshitarkan, buning yuzi uni beqaroru, so'zi ko'zlarini yoshlantirib yubordi. U hech qachon bunday go'zal yuzli odamni ko'rmagan, bu kabi shirin maqolni eshitmagan edi. Shu muloqotdan so'ng, u, Farruxning aziz bir siymo va sharofatli bir gavhar ekanini angladi. Binobarin, bir qancha e'zoz-ikrom bilan uni o'z otiga mindirdi va avaylab, urintirmay uyiga olib bordi. Nihoyat, u aziz mehmonni otdan tushirib, o'z ayvonini uning yuzi bilan yoritdi. Unga avval taom bilan sharbat tortdi, mehmon ishtaha bilan u ne'matlardan totindi. Ravshan fikrli Axiy iloji boricha mezbonlik rasm-rusmlarini olijanoblik bilan ado etdi. So'ngra unga yotig'i bilan har xil savollar berdi. U shunday javoblar qaytardiki, Axiy gung odamlardek boshqa savolga so'z topolmay qoldi. Uning gavhardek mazmundor javoblari savol beruvchini o'zga savol berishdan xijolat qilib qo'ygan edi.

Axiy bir xoli hujrani yasatib, kechalari yaxshi orom olmog'i uchun, g'arib mehmonga taqdim etdi. Mehmon kechalari shu hujrada yolg'iz o'zi yotardi-yu, ammo uning munis ulfatlari g'am-anduh va g'urbat edi. U ishqning alamidan hazin-hazin nola chekar, za'faron yuzlariga ko'z yoshlarini tinmay to'kar edi. Kunduzi esa, yana mehmonxonada xomush bo'lib o'tirgani-o'tirgan edi. Uning yuzini ko'rgan sari Axiyning ko'zlari ravshanlanar, so'zlarini tinglar, tinglagan sari Farruxning durfishon so'zlaridan bahri dili ochilar edi. Axiy unga yangi guno-gun liboslar kiygizmoqchi bo'lar, ammo mehmon esa, o'z ustidagi juldur qora palosini tashlamas edi. Uning aqlu idroki nihoyatda zo'r bo'lgani tufayli mezbon «uni kiy, buni kiy», deb mehmonni ortiq majbur qilmas edi. U yerda necha kun

turgan bo'lsa, shuning hammasida, kechalarini o'sha xilvat hujrada o'tkazdi. Xoja o'zining bir nechta mulozimlarini unga xizmat qilsin uchun yoniga qo'ygan edi. Binobarin, bir kechasi, nogahon, u xizmatchilar mehmonning yashirin ohu nola chekib yig'layotganidan boxabar bo'lib qoldilar. Va bu ahvolni ular o'z xojalariga arz qildilar. Xoja ham barcha xalq uxlab yotgan chog'da, pinhoniyl kelib, asta-sekin tuynuqdan u xilvatxonaga quloq soldi. Shunda uning ranji mashaqqati haddan ziyoda ekanini, vujudiga kishi taajjublanarli darajada bir o't tutashganini fahmladi. Uning har bir ohi jon chiqar darajada o'rtantiruvchi bo'lib, o'zining o'tlig' ohi bilan uyni qizdirmoqda edi. U o'z ahvoliga tinimsiz yig'lar, lekin el eshitib qolishidan tashvishlanib, bag'oyat past ovoz bilan ich-ichidan nolish qilar edi.

Xoja ham g'am va alamni ko'p ko'rgan, ishq degan zolimning adolatsizligidan sitamlar chekkan odam edi. Shu jihatdan mehmonning dardi, ohu nolasi uning ko'nglini buzib yubordi. U, ko'zlari yoshga to'lgan holda, mehmonning so'zini anglamoq uchun ko'p quloq soldi. Farrux goh sevimli dilbari haqida so'zlasa, goho o'zining askarlari va mamlakati haqida nukta surar edi. Axiy uning tavrı suratini ko'rib, oqilu dono va shohona odam deb fahmlagan edi. Endi bildiki, bu shoh ekan, saltanatning baland maqomida moh ekan. Lekin bir dard uni ishdan chiqarib, g'urbatzada, asir va zor qilib qo'yibdi. Mana shu qarorga kelgach, Axiy quloq solishni tashlab, o'rnidan turdi. Bu ishning chorasini ko'rish taraddudiga tushdi. Va o'z-o'ziga dedi:

«Bu dard uning pinhoniyl siridir, sirni anglash imkoniyat xorijidadir. Kimki ishq dardiga muhtalo bo'lgan ekan, u o'z g'amini birovga aytishi mumkin emas. Lekin unga may ichirib mast qilinsa, mastlik bilan u o'z sirini aytishi mumkin».

Binobarin, subh o'zining oq kiyimini kiyib, boshiga nuroniy sellasini o'ragach, Xoja mehmonxonaga qadam ranjiyda qilarkan, Xojaning ketidan mehmon ham kirdi. U tushlik taom vaqtida mehmon bilan suhbatlashib o'tirar edi. Yeyish uchun tortilgan noz-ne'matlar esa, g'oyatda laziz va rang-barang edi. Quyosh zavolga mayl qilib, bota boshlagach, havo ham ancha sovib, mo'tadil bo'lgan paytda Xoja ziyofatga may ham hozirlashni buyurdi; bu orada rubobu nag'ma va naylarning jonfizo ovozi ham eshitila boshladi. Bazm shunday go'zal bir tusga kirdiki, bu holat ichuvchi kishilarning sabr-toqatini toq qilgan edi. Xoja o'rnidan tura solib, ko'raka (may idishi) oldiga borib, engashgan holda bir qadah mayni sipqordi. Yana may to'la jamni qo'lida olib kelib, tavoze bilan shahzodaga tutdi. Mehmon Xojadan nihoyatda mamnun va minnatdor edi. Binobarin, yo'q, deb uni xafa va mahzun etmadi. U izzat-hurmat bilan qadahni olib, mayin no'sh qilarkan, ichishi bilanoq kayfi oshib qoldi. Bazmning bir soqiysi mayni davrada aylantirgach, ikkinchi soqiy qadahni suna boshladi. Shu xilda may bir necha marta paydar-pay ichildi. Mayning kayfi esa, bazmdagilarning boshini qizdirib, mast qilib qo'ydi. Ham sozandaxonandalar avj qila boshladilar, shu kuy-xonishlar orasida suhbatlar ham qizidi. Ustma-ust ichaverish natijasida kulgi-qahqaha sadolari

ko'kka chiqib, butun bazm ahli mastlik bilan o'zlarini unutib, qiy-chuv qilar edilar. May bazm ahlining ixtiyorini qo'lidan olgan, hamma mast-alast, so'zlar befarq va poyma-poy edi.

Fursatdan foydalanib, Xoja bir xoliroq joyda shahzoda bilan yolg'iz ulfatchilik qilar edi: suhbatda Axiy undan o'zining xijolatda ekanini so'zlasa, shahzoda xuddi uning bandasidek yerga bosh qo'yib, Axiyga sajda qilar edi. Nihoyat, boda aqldan pardani ko'tarib, shahzoda mast —beixtiyor bo'lib qoldi. Yodiga mamlakat va xonadonlari tushib, iloji va imkoni yo'q orzular xayoliga kelib, ko'zlarini yoshlarga to'ldirgan holda o'z boshidan o'tganlarni so'zlay ketdi. Xoja mumkin qadar mayni kam ichar; o'zini mast bo'lib qolishdan bag'oyat saqlar edi. U har bir so'zni har tomonlama o'ylab, yuz xil andisha va muloyimlik bilan gapirar edi. O'z savoliga bo'lgan javoblarning mazmunini kuzatir, nasabidan tortib g'urbatzadaligining sababiyu mamlakat-kishvarigacha — hammasini surishtirib bilib oldi. Martabasining ulug'ligini, ganj va xazinasining beqiyosligini ham, Jasratxondek otasini ham bildi. Tushda ko'rgan ishqini ham fahmladi. Hatto ma'shuqining kimligi ham Axiyga qisman ma'lum bo'lib qoldi. Ya'ni, uning ma'shuqasi, shak-shubhasiz, Halab shahrida, shu jihatdan Farrux shunday mashaqqatlarga tushib yurgan. Nihoyat, Axiy uning tushda ko'rgan ma'shuqasining nishonalariyu, aft-angorlarini surishtira boshladi. U notavon-bechora birma-bir aytib berdi. Buni eshitarkan, Xojaning jismiga to'lg'og'u ko'ngliga haddan ziyoda iztirob tushdi. Farrux shunday nishonlarni bayon qildiki, bu belgilar faqat Xojaning iffatli xotinigagina xos edi. Natijada, Farruxni o'rtantirgan kimsa Xoja shabistonining mash'ali bo'lib chiqdi. Binobarin, daryodil Axiy bu shaydo dilning xastaligiga sabab bo'lgan kimsani aniq va qat'iy bilgach, muruvvat yuzasidan fikr yuritib, olijanoblik bilan o'z-o'ziga tubandagi mulohazani aytdi:

«Men bu kabi g'arib va oshiqni, ishq bobida bu darajadagi sodiq kishini ko'rgan emasman. Shunday g'ariblikni ixtiyor qilgan, dunyoda nimaiki narsasi bo'lsa, hammasidan voz kechgan, ishq tufayli jahon ko'ziga ko'rinmagan va o'zining o'limiga ham rozi bo'lgan, hech kim ko'rmagan mashaqqatlarga chidagan bu odam, shak-shubhasiz, hajr azobida o'lishi mumkin. Men uning g'amiga qolmaslik uchun dardiga chora axtarishim shart. Bordiyu shu ahvolda o'lsa, bu muruvvatdan emas. Muruvvatli kishilar bunday paytda beparvolikka yo'l qo'ymaydilar. Er kishi bunday paytda beparvo qarab turmasligi kerak! Yoki mahram bo'ladigan boshqa xotin menga topilmaydimi?» Mana shu mulohazalardan so'ng, muruvvatli va dono Xoja lutf-karam yuzasidan, mehmonga tubandagilarni aytdi:

«G'am yema, ey harno musofir! Sendagi bu g'am joningning ofati bo'lsa ham, buning ilojini qilish mening uchun haddan ziyoda osondir. Seni shu darajada notavon qilgan, xonumonlaringdan ayirgan bu dard, sening joning ofati bo'lgan tushdagi kimsa bizning qarindoshimizdir, ya'ni mening jigarimdir. Ishonginki, men seni murod-maqsadingga yetkazaman. Ammo men nima desam, shundoq qilish sharti bilan!»

Bu, xasta ko'zlardan shodlik yoshini oqizgan holda, birdan Axiyning oyog'iga bosh surtib dedi:

«Sening aytganingni qilmaslik qanday gap? So'zingni eshitib turib, uni rad qilamanmi? Agar sen dardimga darmon qiladigan bo'lsang, har qanday farmoningni bajarishga roziman!..»

Bularning suhbat shu yerga yetganda tun yarim bo'lgan edi, binobarin, ikki mast uxlashib qolishdi. Nihoyat, xo'roz tong otganini bildiruvchi nido bilan qichqirdi, shu orada kun ham yangi kelin kabi jilvalanib ko'rindi. Ikki ozoda inson uyg'onarkan, shahzoda Xoja sari yuz o'girib:

«Agar bergan va'dangni unutmay, aytgan so'zlaringdan chetga chiqmaydigan bo'lsang, mendan ham nima narsani talab qilsang, uni so'zsiz va hech qanday uzrsiz bajaraman!» — dedi.

Shundan so'ng, tani hijron chirkalaridan arisin, deb Xoja uni hammomga yubordi. Shahzoda hammomdan chiqquncha bir qancha shohona kiyimlar tayyorlab qo'yilgandi. U o'zining qora palosini tashlab, yangi shohona liboslarni kiyib, oydek bo'lib oldi. Yana unga bir arg'umoq ot ham mindirildi. Shunday qilib, u o'z xonasiga yasantusan bilan bordi. Uning hozirgi tushgan uyi uy emas, zarnigor qasr edi. Shahzoda shu qasrda turishi kerak edi.

Xoja shahzodani yuz xil navo bilan u yerga qo'yib, o'zi haramxona ichiga kirdi. Buni ko'rib gulchehra yori yuz xil umid va niyoz bilan, niyozgina emas, noz-istig'no bilan qarshiladi. Axiy ham, u ham o'tirdi. Xoja so'zni uzoqdan boshlab kelib aytdi:

«Tangri nimaniki taqdir qilgan bo'lsa, hech bir odam uni o'zgartira olmaydi. Sen bilan biz, Xudo qancha yozgan bo'lsa, bir-birimizning vasl davronimizni shuncha surdik. Vasl ayyomlarida, ya'ni ikkalamiz birgalikda kechirgan damlarimizda doim shod va qayg'udan ozod edik, bunga shukurlar bo'lsin. Endi esa bir-birimizdan ajraydigan chog'imiz keldi, bunga ham tan bermog'imiz vojibdir. Tangri sen bilan mening taqdirimga nimani yozgan bo'lsa, unga ko'nmayman, deyishga ixtiyorimiz bormi? Albatta, yo'q. Sen umr bo'yi mening ulfatim eding, yorim va kechalari hamxobim eding. Sendan nima ko'rgan bo'lsam, hammasidan xursand va roziman, mengina emas, balki Xudo ham rozidir...»

Xoja bu gaplarni gapirar ekan, sarvqad go'zalni taajjub va hayrat lol qilib qo'ydi. Xoja gapni shu yerga yetkazgach, o'z gulchehra yorini taloq qildi. Buni eshitgan gulgul qichqirib, faryod chekib yubordi: «Nima sababdan bunday zulm qilding? Mendan nima yomonlik ko'rdingki, bunchalik sitam aylab, baxtimni to' abad qora qilmasang?!» — dedi.

Bu shikoyatlarni eshitgach, Axiy unga birmuncha tasalli beradigan gaplarni aytdi. Mehribonliklar ko'rgazdi va minnatdorliklar izhor etdi. Beadad mol va pullar ham berdi,

«Mana shuncha mol-dunyolarni olding, rozi bo'lgin. Endi seni boshqa bir kishiga nikohlayman, meni afv etgaysan! U, osmon oyi singari baland martabali odam bo'lib, dunyoning eng ulug' va mo'tabar shohidir».

Axiy Farruxning husnini ko'klarga ko'tarib maqtadi. Oxirda, ko'nmagach, tig' o'qtalib ham uni qo'rqitib ko'rdi. Ishqilib, sarv gulchehraning hovurini pasaytirib, o'z taklifiga ko'ndirish uchun

qo'ldan nima kelsa, hammasini qilib ko'rdi. Mahvashga hayot nimani taklif etgan bo'lsa, o'sha bo'ldi-yu, u bechora rozi bo'lishdan o'zga chora topolmadi.

Nihoyat, Axiy o'rnidan turib, ishni oxiriga yetkazish, bularning to'yi uchun kerak yarog'larni hozirlash payiga tushib ketdi. U, ganj va xazinalarning qulfini ochib, tayyorgarlik uchun anchagina mablag' ajratdi. Hamma ish shohonasiga muhayyo bo'lgach, sarv bilan gulni hamxona qilib, bir-biriga qo'shdi. Bularni ahd qilib bir-biriga bog'lash uchun, bir salohiyatli munosib odam topib, o'sha zamonning rasm-rusmi bilan nikohlab qo'ydi.

Axiy bu ikki kavkabni (yulduzni) safarga jo'natish uchun yo'l yarog'ini ham tayyorlatib qo'ygan edi. Turk, rum va habashlardan iborat yuz adad qul yo'lda bularga xizmat qilib borishi kerak edi. Qanchadan-qancha yaxshi xachir va tuyalarga atlas va shohi matolar ortildi. Uy bilan qasr borgohu yotoqxonalar orasiga solingan bir qancha gilam va poyandozlar, gulchehraning o'tirib ketishi uchun nihoyatda ziynatlangan mahofa ham tayyorlanib, tuyaga chiroyli qilib ortib qo'yildi.

Axiy bularning hammasini va xizmatkorlarni Farruxga taqdim etdi. O'zi ham ular bilan bir manzil hamroh bo'ldi. Karvon bundan ajrab ketish oldidan, mijjasidan qon yoshlarini to'ka-to'ka mehmoni bilan xayrlashar ekan:

«Diyor va kishvaringga eson-omon yetib, mamlakatu toj-taxtingga o'zing ega bo'l!» – deb duo qildi. Va undan yodgorlik bo'lib qolsin uchun Farruxning qora palosini tilab oldi. Shundan so'ng, ozoda Axiy yig'lay-yig'lay orqaga qaytdi, shahzoda ham ko'zidan yoshini to'ka-to'ka yo'lga ravona bo'ldi. Lekin Axiyning holi ancha yomon edi. Uning qilgan ishlaridan Farrux lol va hayron edi. Parivashga yaqinlashay desa, yuqoridagi kabi g'am va iztiroblar unga to'sqinlik qilar edi. Nihoyat, hajr o'tining alangasi pasaygach, Farrux visol uyiga kirishga qaror qildi. U gulruxga yaqinlasharkan, uning gulnor yuzini ko'z yoshlari yuvib yotganini ko'rdi. U o'z yuzini tirnoq bilan yaralagan, go'yo nasrin bargini lolazorga aylantirgan edi. Guliga shunday azob yetganini ko'rib, uning bulbuli zori bo'lmish Farrux hayratda qoldi.

U: «Ey pari-paykar mahvash! Senga muyassar bo'lmish baxt o'zga kimsaga madadkor bo'lib, aqdu nikoh bilan to'y qilsa, u yuz xil shodlik va surguga g'arq bo'lg'ay. Sen esa, aksincha, g'am va anduhga muhtalo ko'rinursan, bu menga ajib g'alati tuyulmoqda. Buning sabab va hikmati nimada? Shuni bayon qilsang!» – dedi. Shunda mahvash aytdiki:

«Ey, el-ulusning yaktosi! O'zing ayt-chi: kishini nikoh xushdil qiladimi yoki taloq?!»

Shunda Farrux dedi:

«Ey parivash hur, shunday ochiq so'zlaginki, men gapingning mazmuniga tushunay. So'zingdagi «taloq» iborasining ma'nosi nima? Bir-birimizning vaslimizga yetganimizda oramizga hajr-firoq aralashuvining ma'nosi nima?»

Mahvash ko'zlaridan yoshlarini ravon qilgani holda, shohga boshidan o'tgan sarguzashtlarni bayon ayladi. Farrux gulchehraning

so'zini anglagach, shunday g'amnok bo'ldiki, o'zini halok qilishiga sal qoldi. U bu holatdan o'zini yo'qotadigan darajada o'zgarib, Axiyning qilgan ishidan hayratda qoldi. Va mahvashga aytdi:

«Ey go'zal xislatli malika! Sening surating timsolini aql tasavvur qilolmaydi. Men sening ishqingda shunday azoblar chekdimki, ko'hna falak hech zotning boshida bunday og'ir kun bo'lganini eslolmasa kerak», — deb bu ham o'z sarguzashtini boshdan-oyoq birma-bir hikoya qilib berdi. Va yana aytdiki: «Agar o'z dardimga davo topsam ham senga bu kabi zulmni ravo ko'rmayman. Hech kim qilmagan behisob lutf-karam qilaman», deb Axiy sen bilan bizni xarob etibdi-ku. Sovg'a-salomlarining evazini qaytarish imkoniyati bizda ham yo'q emas, ammo bu ishining o'rnini hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Agar unda shu daraja muruvvat bor ekan, bizda ham odamiylik yo'q emas. Shukrlar bo'lsinki, Xudoning marhamati bilan, nafsning zulm eshigini ochmadik. Sen ham endi mendan tashvishlanma, xotiring jam bo'lsinki, bundan so'ng ikki jahonda sen menga singilsan!» — deb uning yonidan mamnuniyat bilan turdi. Mahvashning esa ko'ngli yorishib, xursandligidan xuddi dunyoga yangitdan kelgandek bo'ldi. U, haramxonada, zotan buning singlisi sifatida edi-yu, lekin el orasida boshqa tushuncha bor edi.

Ular kecha-kunduz demay yo'l bosar, hali qadamlari hindi kishvariga yetgancha yo'q edi. Bu vaqtda Jasrat shoh vafot etgan bo'lib, u o'limi oldidan Farruxni o'z o'rniga valiahd qilib qoldirgan edi. Xalq Farruxning eson-omon qaytganini eshitib: «Baxt-iqbolimiz qaytib keldi», dedilar va butun aholi uning istiqboliga chiqib, qarshi oldilar. Farrux buni ko'rib, Tangriga shukrlar qildi. Xalq buning yo'liga jonlarini fido aylashga ham tayyor edi. Farruxni ko'rib, mamlakat xalqining ko'zi ravshanlashib ketdi, zero u otasi taxtiga qoyim-maqom bo'lishi kerak edi.

Baxtiyor shoh go'zal gulrux zerikmasin uchun, sa'y-harakat aylab, tubandagi ishlarni qildi: gulruxning o'z diyorida qanday qasr va bog'lari, toq-ravoqlari, dahliz va hujralari bo'lsa, bularning hammasi ipidan-ignasigacha, hatto bog'-bo'stondagi ariq-hovuzlarigacha Farrux shohning esida edi. Binobarin, muhandisvash shoh gulruxning xuddi Halabdagi imoratlari va bog'-rog'laridek dilkusho qurilishlarning tarhini tuzib: «Yuzta mohir usta o'z hunarlarini ishga solsinlar, ya'ni ular yangi qasr bilan yangi bog'-rog' bunyod qilsinlar!» — dedi. Bu — go'zal mahvash uchun edi. Falak darajali ulug' shoh nimani farmon qilgan bo'lsa, oz fursatda barchasi qurib bitkazildi. Ularga turli bo'yoqlar va boshqa qimmatbaho javohirlar bilan zehu ziynat berildi, hamma turdagi sayqal va pardozlardan chiqazildi. Ularni ko'rganda kishilar, go'yo Halab shahri Hindistonga ko'chirilibdi, deb o'ylardi. Shundan so'ng, «Zuhra yuzli moh o'z manziliga ko'chirilsin!» degan farmon bo'ldi. Mahvash u uyni ko'zdan kechirarkan, o'zini Halabda — o'z uyida yashayotgandek his qildi. U, shohga xuddi singildek yaqin va aziz bo'lgani holda, yana yuz sumanbar kanizga malika ham edi. U behisob noz-ne'matlar ichida, bularning son-sanog'iga aql yetmas edi. Saxiy shohning ishlari Hindistonda shunday bo'ldi.

Endi Halabda Axiy nima qilayotganini bilaylik. Axiy gulruxdan umidini uzib, shoh Farrux bilan vidolashib, uyiga qaytarkan, o'z burjidan ayrilgan ikki baxt axtarining tole yulduziga shikast yetgan edi: shu yili Axiyning ekinlari ofatga uchrangani kabi, barcha savdo ishlaridan ham zarar ko'rdi. Har qanday chora-tadbir qilishga qaramay, ishi oldinga bosmadi, hayotida kutilmagan baxtsiz hodisalar yuz berdi. Dushmanlari Axiyning ishi shu xilda orqaga ketganini ko'rib, shahar shohiga bu haqda tubandagicha nohaq shikoyat qildilar:

«Axiy, mamlakatni xarob qilish niyatida, boshqa bir shohga mol-dunyolarini jo'natib, o'zi ham o'sha dushman bilan til biriktiribdi», dedilar.

Shu ig'vo bilan zolim shoh g'azablanib, Axiyni bandi zindon ayladi. Uning qancha mol-dunyosi bo'lsa, hammasini davlat foydasiga olish bilan birga, o'zini o'ldirish haqida farmon berdi. Zindonbon saxovatli Axiyning tuhmatga yo'liqqanini bilib, rahmi kelib, uni banddan ozod qilib, qochirib yubordi. Qochqin Axiy tag'in odamlar tanib, tutilib qolmayin, deb ba'zi ehtiyot choralarini ko'rdi, ya'ni o'zining shakli shamoyilini o'zgartirdi. Keyin, yalang'och bo'lib olib, hammom go'laxida gulxan yoqib, kullarga bulg'anib o'zini devonalikka solib yotdi. Oxirda shoh Farruxning qora palosini topib, u yopingandek, bu ham o'shanga o'ranib oldi. Shunga qaramay, o'z mamlakatida xotirjam yashayolmadi va nihoyat, Farrux diyoriga qarab safar qilishga majbur bo'ldi.

U to Sarandib taxtiga borib yetguncha qanchadan-qancha tog'u dashtlarni kechib o'tdi. Yo'l mashaqqatidan joni azoblanar, har onda bir ofatga duchor bo'lish xavfi bor edi. Axiyning oh o'qi falak qo'rg'onini yiqqudek edi. Shu xilda yura-yura, bir buzuq qo'rg'onni topib kirib yotdi. Shu yerda xasta va asirona uyquga toldi. Bu joy yo'l boshidagi bir vayrona bo'lib, shoh Farruxning g'urbatda g'arib bo'lib yotgan joyi edi.

Axiy shu yerda yotarkan, Farrux shohning g'urbatda chekkan kulfatlarini esladi.

Shoh g'urbatda musofirchilikdan qaytib kelib, mamlakat taxtiga o'tirgach, o'zining g'ariblikda kechirgan kulfat-mashaqqatlarini eslab, Axiyning g'aribparvarligini o'ziga shioru ham u kabi saxovatpeshalikni o'ziga kasb qilib olgan edi. Shuningdek, xuddi Axiyga o'xshab, bir ulug' mehmonxona yasab, butun g'arib-g'urabolarni shu yerda boqadigan bo'ldi. Goho esa, sayrga chiqib, shaharning atrof-tevaragini aylanar, musofir-mujovirlarni ko'rsa, olib kelib mehmon qilar edi. Nihoyat, kelib-kelib endi Axiy ham Farruxning holiga tushgan edi. Shu asnoda, baxtiyor shoh Farrux ham shaharni sayr qilishga chiqqan bo'lib, o'sha buzuq vayronaga nazar solarkan, yerda yotgan g'aribni ko'rdi va banogoh, o'zining shunday vayronada kechgan ahvoli yodiga tushdi. Shunda uning dilida:

«Bu mashaqqat nasib bo'lmish g'arib kim ekan?» – degan savol tug'ildi. Va shu onda o'zining qora palosini tanib qoldi. Bu palos tagida bir notavon-bechora yotar edi. Shu onda unga qarab: «Tur, ey baxti qaro g'arib!» – dedi. Axiy uyg'onib, boshini ko'tardi. U shohni, shoh esa uni tanib qoldi. Shu lahzada shoh otidan o'zini tashlab,

beixtiyor oh tortdi. Shoh otdan tushgan onda Axiy o'rnidan turib, uni quchdi, shoh esa, buning oyog'iga o'zini tashladi. Keyin bir-birlarini quchishib, zor-zor yig'lashdilar, bir-birlaridan hol-ahvol so'rashdilar. Kishini ajablantiradigan bu ahvolni ko'rib, shohning yonidagi si pohu mulozimlari hayratda qoldilar. Ikkisi bir-birlari bilan diydor ko'rishganlari uchun, Tangriga shukur bajo keltirganlari holda, shoh uni o'z qasriga va bog'lariga tomon olib keldi. Avval Axiy izzat-ikrom bilan shohni hammomga yubortirgan bo'lsa, endi go'zal yuzli shohning taklifi bilan Axiy hammomga yo'l oldi. Hammomda yaxshi yuvilib, Axiyning tani gard-g'uhordan pokizalandi. Hammomdan chiqqanda Xojaning tab'i ravon va kayfi chog' edi. Unga boshdan-oyoq shohona xil'atlar tayyorlab qo'yilgan edi, ozoda Axiy u sarpolarni kiyib oldi. Qimmatli to'nlari va bebaho javohirlar bilan bezangan bir qancha xodimlar Axiyning xizmatida edilar. Axiy kutilmagan bu holatni ko'rib, tushimmi-o'ngimmi, deb lol va hayronu tab'i xayoli har dam parishon edi. Uni shu alfozda shoh qoshiga olib keldilar. Shoh ham mehmon kelishi bilan uning sharafiga katta ziyofat berdi.

Shu xilda, bir necha kun o'yin-kulgi qildilar, ko'ngil nimani istasa, hamma narsa kutilgandan ortiq darajada mavjud va muhayyo edi. Hajr o'tining azobini pasaytirish uchun maishatparast shoh bazmni qizdirmoqda edi. U taxtga chiqib, katta-kichik o'rtasida Xojaga haddan ziyoda ehtirom ko'rsatdi. U davlat boshliqlarini oldiga chaqirib, ularga Xojaning dostonini bayon ayladi. Shoh g'urbatdaligi vaqtida Axiy unga nima yaxshiliklar qilgan bo'lsa, hammasini hirma-bir hikoya qilib berdi. Ular zamon shohining Xoja haqidagi gapini eshitarkan, hammasi nihoyatda hurmat bilan o'rinlaridan turib, Axiyga ofarinlar o'qidilar, uning oyog'i izini o'pdilar. Shoh aytdiki:

«Garchi o'zim shoh bo'lsam ham Xojaga qaysi yo'l bilan minnatdorchilik bildirishga, uning yaxshiligini ne tariqa qaytarishga hayronman. Lekin mening bir tug'ishgan singlim bor. U qiz hali pok-bokira va iffat pardasidadir. O'sha singlimni mana shu yigit bilan hech kimdan yashirmay, xalq o'rtasida ochiq to'y qilsam, deymen. Axir, bu o'zining sevimli jufti halolini men uchun taloq qilib, uni menga nikohlab bergan va o'zi esa yakka qolgan edi. Baxt guli ochilib, singlim, bu jo'mard odamning jufti haloliga aylansa, qanday yaxshi!»

Shoh o'z kalomini shu yerga yetkazarkan, uning tilagini barcha odamlar ma'qulladilar.

Shundan so'ng, shoh ajoyib bir to'y qildiki, ko'hna dunyo hech qachon bunday tantanavor to'y marosimini eslolmas edi. Axiyning izzatini bajo keltirish uchun shoh Farrux dunyoda hech kim qilmagan ishlarni qildi: butun molu davlatini ham, hatto mamlakatini ham Axiyning ixtiyoriga berdi. Axiyning unga qilgan favqulodda muruvvatini, uning beg'araz va benihoya do'stligini eslarkan, jonini ham ayagisi kelmas edi. Bular xuddi Muso bilan Horundek aka-uka bo'lib ketishdi, ammo davlatda esa, Qorundan ham boy edilar.

Nihoyat, Farrux bularning nikoh xutbasini o'qish haqida farmon berdi va singlisini Xojaga nikohladi. Shundan so'ng, mohi ruxsor yashirilib o'tirgan xonaga Axiyni boshlab olib bordilar, Xoja eski yo'lakdan o'tib, yangi solingan osmono'par qasrga yo'l oldi. U qasrning

qayeriga boqmasin, unga tanishdek tuyular, bu manzara uni hayratga solar edi. Oxirida u sarvqomat go'zal o'tirgan hujraga yaqinlashdi. Xoja u uyning ostonasiga qadam qo'yishi bilan uni hoshlab borgan odamlar orqaga chekindilar. Shu yerda bir-biridan judo bo'lmish ikki mahjur yuzma-yuz bo'larkan, ikkalasi ham bir-birlariga hayrat bilan tikilib qoldilar. Bularning har ikkalasi ham beixtiyor qichqirib yiqildilar va hushdan ketdilar. Bular o'ziga kelgach, ko'zlaridan yosh ravon qilib, yana yiqilar va o'zlarini unutar edilar. Nihoyat, hajr iztirobi so'nib, bular bir oz o'pkalarini bosib, taskin topgach, miskin Xoja u sho'xdan so'radi:

«Ey go'zalim, bayon ayla, bu qanday holat? Men hayrat ustiga hayratdaman, o'z ko'zimga ishonmayapman. O'zing ham ahvolimga bir nazar sol, hayrat o'ldiradigan bo'ldi. Axir, bir chora qil, jonginam!» — dedi. Shunda gulrux la'li labining qulfini ochib, gulqanddek shirin va yoqimli gaplarni gapirdi. Xojadan ayrilganidan beri boshiga nima kelgan bo'lsa, hammasini i'pidan-ignasigacha aytib berdi. Shohning iffatli, diyonatli va muruvvatligini, pokizalik bobida misli yo'qligini, nihoyatda zo'r irodaga ega ekanligini — hammasini-hammasini Axiyga bayon ayladi-yu, yana hushini yo'qotdi. Bular necha kunlab o'zlariga kelmas, goh xud bo'lsa, goh bexud edilar. Oqibat, bora-bora hushlari ham o'zlariga kelib, tinchlandilar va nihoyat, siymbadan sarv Xojaning avvalgi munisiga aylandi. Bu yer xuddi Xojaning o'z uyi-yu, o'z gulandomi bilan avvalgidek huzur-halovat ko'rmoqda, go'yo bular Halabda yashamoqda edilar.

Lekin Axiy, endi doim zarbaft to'nlar kiygan holda, shoh yonida o'tirar edi. Uyga kirganda esa, safardagi libosi bo'lmish qora palosini qo'ymas edi. Xojaning tili doim Tangriga shukur qilish bilan band bo'lib, qora sholga o'ralgan holda toat-ibodat qilar edi. «Shu palosga o'ralib yotib, shohona i'pak to'nlariga erishdim, uni tashlasam va unutsam — durust bo'lmas...» — der edi Xoja. Axir, boshiga tushgan qora kun uning qaddini yerga bukkanda, yorning tongdek visolini ko'rish baxti unga muyassar bo'ldi-ku. Axir, qora kun boshiga tushib, ranj-mashaqqatga qolganda, xarob bo'lmish tiyra ko'ngliga g'ayb olamidan nur kirdi-ku. Axir, shu qora shol ichida xuddi zulmatda yotgandek yotgan paytida u Xizr kabi obi hayot sipqordi-ku. Axir, shoh uni shunday qiyofada ko'rgani uchun, qiziqib, holidan xabar oldi. Chunki shoh ham shu qora palosni kiygan edi.

Shu-shu bo'ldi-yu, qora to'n kiyish xalqqa ham rasm bo'lib ketdi. Qora rang elning boshiga toj bo'ldi, kim shu rangda kiyinsa, muborak bo'ldi.

Visol subhidan umidvor odam hijron shomida abadiy qolmag'ay!

Bu hikoya qilingan afsona shohni xushhol qilib yubordi va u:

«Ey donishmand nuktago'y, sen kimsan, qaysi diyordansan va kimning nasli nasabidansan? Ayt!» — dedi.

Rivoyat qiluvchi roviy:

«Vatanim Hindistondir. Axiyning yaqin avlodi bo'lurman. Bu yerga ko'ngil istagi va nafs balosi olib keldi, shohga xizmat qilish niyatidadurman», dedi.

Shoh uni faqirlik va muhtojlikdan xalos aylab, saroyda o'ziga yaqin do'st va ulfat qilib oldi.

Bu hikoyalar Bahromni shodlantirganidan, u rohat va farog'at bilan uyquga ketdi.

XXII

Yakshanba kuni Bahromning quyoshdek zarbaft libos kiyib, zarnigor gumbazga azm qilib, sarig' hullalig' (liboslik) hur bilan aysh-ishrat bazmi tuzib, oltin sog'arda (qadahda) sap-sarig' may ichgani va yoki quyoshning sarig' guli ochilgan chog'dan oftob rangi o'chguncha unga bir yil tuyulgani

Yakshanba kuni, quyosh o'z bayrog'ini ko'tarishi bilan ko'k gumbazi zarbaft hulla kiydi. Ko'k kelini zarhal libosga burkanib, xuddi gulrux mahvashning o'zi bo'ldi. Bahrom ham mehr – quyoshdek boshdan-oyoq o'zini oltin ichiga g'arq qildi. U, quyosh kabi hadsiz-hisobsiz zar sarflagani uchun hozirgi sarig' gumbazli qasr bunyod etildi. Unda rum chehrali nigor, xuddi quyosh singari, oltin rang liboslar ichida jilvalanib turardi. Zar jom ichidagi sap-sarig' may – boda go'yo olov ichidagi olovga o'xshab jilvalanardi. Uyning har tarafidan alanga ko'tarilgandek, gumbaz go'yo shu'laga g'arq bo'lgandek edi. Shoh u shu'laning ichiga xuddi samandarga o'xshar, yo'q, samandar emas, mehr-anvarga, ya'ni nur sochib turgan quyoshga o'xshardi. Uning qo'lidagi sap-sarig' may xuddi botayotgan oftobni eslatardi. Nihoyat, kech kirib, kunduz sarig' to'nini qora qildi, kun oltin rangini siyohga bo'yadi. Rum zotli moh, quyosh pardaga kirganda oy o'zini ko'rsatgani kabi, yuzini ko'rsatdi. Bahrom shoh zarrin taxtga yotdi-yu, ammo xuddi baxt singari uyg'oq edi. Nihoyat, u yana hukm qilib:

«Bu yo'ldan qaysi musofir o'tsa, chaqirib olib keling. U bilgan afsonasini aytib bersin!» – dedi.

Yo'lga chiqib kutilganda, dunyoni boshdan-oyoq kezgan bir sayyoh yo'liqdi. Uni tezda shohning huzuriga olib keldilar. Afsona aytuvchi musofir Bahromning amri farmoniga ko'ra dilpazir duo bilan so'z boshlab, yoqimli bir hikoyani aytishga kirishdi.

XXIII

Ikkinchi iqlim yo'lidan keltirilgan musofir hikoyati

U, o'z hikoyasini hech qiynalmay va taraddudsiz boshlab, dedi:
«Jamshidning zamonida Rumda bir mohir zargar bor edi, u o'z hunari bilan el orasida quyoshdek mashhur edi. Uning dami subhdek yel ufurgani kabi, ko'rasi esa osmon gumbazidek katta bo'lib, har gal quyosh nonidek oltin yombisini eritib, zeb-ziynat asboblari tayyorlardi. U Rum shohi saroyining zargari bo'lib, ustaxonasi ham shu saroyda edi. Shaharda oltin-javohirlarning sarasini sarakka, puchagini puchakka ajratadigan ham, shoh qoshida esa, xazinador

ham shu zargar edi. Qanchadan-qancha konlardan chiqqan hamma oltin-kumush shuning qo'liga kelib tushardi. O'z hunari bilan hammaning maqtoviga sazovor bo'lmish bu odamning oti Zayd Zahhob edi. U muhandis olim ham, oltin saralovchi ham, muhtojlardan siym-zarin ayamovchi saxovatkor ham edi. U, ikkinchidan, tunu kun shohning hamsuhbat do'sti va poytaxtning mashhur hakimi edi. Uning boshidan to oyog'igacha pok hunar egasi edi-yu, ammo aybi shuki, u ko'p bebok (beg'am) odam edi. Uning butun kuni, oyu yili aysh-ishrat bilan o'tar, hatto shohning mol-davlati ham buning o'z molidek ekan. Bu bediyonat, kishi omonatiga befarqlik bilan qarar, hatto vaqti kelsa, shoh moliga ham xiyonat qilishdan toymasdi. U zo'r hunarmand bo'lgani sababli, shoh unga g'oyat hurmat va ishonch bilan qarardi. Shoh, hunari tufayli, uni doim maqtar, binobarin, hech kim uning aybini shohga aytishga jur'at qilolmasdi. Ba'zan uning ayblari bilinib qolganda ham, shoh ahamiyat bermasdi. Axir e'tibor berganda ham, u o'sha onda o'z ayyorligi va san'atkorligi bilan ajoyib hunarlar ko'rsatib, shohning ixtiyorini qo'ldan olib qo'yardi. U ustalik bilan shunday hiyla-nayrang va firib ishlatar ediki, shohga go'yo usiz yashash qiyindek tuyulardi.

Chunonchi, u bir kuni shohga bunday dedi: «Modomiki olamgir shohimiz taxtda o'tirar ekan, o'zi dunyo shohlarining yagonasi bo'lgach, taxti ham o'ziga munosib bo'lmog'i lozimdir. O'zga shohlarning taxti yog'och – taxtdan yasalgan, ammo baxtiyor shohimiz uchun bu loyiq emas. Bizning shohimiz oltindan qilingan taxt ustida o'tirishlari kerak, zero, oltin ustida o'tirgan kishining ko'zi ravshan bo'ladi. Xazinalarimizda esa, hadsiz-hisobsiz oltin bor, unga har kuni yana qanchadan-qancha qo'shilmog'da. Oltinning xazinada bekor yotishidan foyda yo'q, ammo undan taxt yasalsa, buning foydasi behisob bo'ladi. Shunday qilinganda, bu, shohimiz uchun o'zgacha husn bag'ishlaydi, ikkinchidan, boylik ham ko'z o'nglarida muhayyo turadi...» – dedi.

Shoh bu nuktasi uchun zargarga tahsin o'qib:

«Ey, barcha fanlarni biladigan olim! Bu fikrni yaxshi o'ylabsan, bu foydali ishni tezroq boshla!» – dedi.

Bu farmonni eshitishi bilanoq, shohga qarab u: «Bunday go'zal taxtni bunyod qilish uchun ikki ming botmon og'irligida oltin kerak bo'ladi», dedi.

Shoh shu onda: «Aytganini olsin. Taxtni bitirish uchun jahd bilan ishlasin!» – deb farmon qildi.

Jahon faylasufi qancha talab qilgan bo'lsa, shuncha oltinni olib, o'z korxonasida ishga tushib ketdi. U, tunu kun tinmay, sa'y-harakat qilib ishlardi. Shu ishlaganicha bir yil deganda butun taxtni boshdan-oyoq bitirdi, tamomladi. U taxtning tuzilishi sakkiz qirrali bo'lib, shohning o'tiradigan joyi yer yuzidek keng edi. Taxtning burchaklarida sakkizta minorasi bo'lib, hularning to'rttasi balandu to'rttasi past edi. Past minoralarda to'rtta gapirishga o'rgatilgan to'ti va baland minoralarda esa to'rtta tovus turardi. Taxtning atrofi la'l-gavharlar bilan bezatilgan, oltin zinasi ham sakkiz poyali edi. Zargar taxtni shunday san'at bilan ishlagan ediki, agar Jamshid martabali shoh

bu taxtga chiqadigan bo'lsa, pillapoyalari uning qadam qo'yishi uchun pasayib, bir-biri ustiga yotardi. Shoh shu sakkiz poyaning hammasini bosib o'tib, o'z taxtiga o'tirgach, u zinalar yana baland ko'tarilardi. Shoh o'z taxtiga chiqib o'tirgach esa, to'rtta to'ti birdan yoqimli ovoz bilan sayrab:

«Shoh murod-maqсадiga yetsin, uning bu taxti abadiy bo'lsin!» – der edilar. Shuningdek, to'rtta to'vus ham har bittasi bitta baland minora ustida turib, qanot-quyruqlarini qoqib, shohning boshi ustida xuddi baxt qushi humodek soya solib turar edilar. Taxtning oyoqlari o'rniga sakkizta ustun o'rnatilgan bo'lib, go'yo taxt o'z ostida sakkiz qabat osmonni bekitib turgandek edi. Shoh qay tarafga qarab o'tirishni istasa, ozgina ishorat bilan u taxt o'sha tarafga qarab aylanar edi. Buning aylanishi uchun hech kimning ovora bo'lishi shart emas edi. Mana shu dunyoning «taxtiravon»i desa bo'ladi. Bu kabi osmondek go'zal va muzayyan taxtni hech bir taxt egasi ko'rgan emas. U butunlay oroyish topib, pardozi-andozdan chiqarilib, shoh o'tirishi uchun tayyorlab qo'yildi. Shundan so'ng zargar yangi oltin taxt sharafiga bazm tuzib, shohga o'z sehrini namoyish qildi. Nihoyat, shoh taxt ustiga chiqib o'tirgach, zargarga bag'oyat ko'p ehsonlar berdi va unga tahsinlar aytdi, uning martabasini yana balandroq qilib, eng aziz kishidek o'ziga yaqin tutdi.

Bu saroyda zargardan boshqa ham bir qancha san'atkor va o'tkir fikrli olimlar bor edi. Ular yaxshi bilardilarki, zargar tomonidan qilingan bu falaksifat taxt ustki ko'rinishda quyoshga o'xshasa ham aslida oy edi. Ya'ni, bu taxtning vazni zargar qancha oltin olgan bo'lsa, shunga teng edi-yu, usti oltin bilan qoplangan, ammo ichi kumush edi.

Fikr shukim, shuncha san'at va bilim bilan bunyod etilgan bu go'zal taxtni, agar zargar tarafidan qilingan xiyonatdan shohni voqif qilinmasa, buzish mumkin emasdir. Binobarin, yuqoridagi olim va hunarmandlarning hammasi yig'ilib, bir qarorga kelgach, shoh oldida u yerdagi xiyonatni fosh etishga qaror qildilar. Bu sirning ochilishidan Zayd Zahhob g'oyat vahimada bo'lsa ham, ammo shohning unga ishonchi zo'rligini bilar edi. Nihoyat, uning bu xiyonatini ochish uchun tubandagicha tadbir ko'rildi, ya'ni ular ikkita gapiradigan to'ti topib, ikkalasini ham so'zlashga o'rgatadigan bo'ldilar. To'tilardan biri: «Taxt ro'kashdur» (usti yaltiroq, ichi qaltiroq), desa, ikkinchisi: «Musannifi g'ashdur» (kashfiyotchisi qallobdir), deyishi kerak edi. Shu munosabat bilan ikkita mavzun – kelishgan va osmondek zangori to'ti topdilar. Ularning ikkalovi fasih – yoqimli til bilan Zaydning sharmandasini chiqazishi kerak edi. Haligi olimlar oltin taxtni muhofaza qiladigan mutasaddiy bilan yaqindan do'stlashib, unga qanchadan-qancha pora berib, taxt egasi bo'lmish shoh to'erta tongda o'z taxtiga chiqib o'tirguncha, ikkita duogo'y to'ti o'rniga, sekingina ikkita sir ochuvchi to'tini almashtirib qo'yishga rozi qildilar. Ana shu kelishuvga muvofiq, ular hech qanday xavf-xatarsiz, haligi ikkita to'tini pora olgan kishiga taqdim etdilar. U ham yuqoridagi maslahatga rozi bo'lgani tufayli to'tilarni almashtirib qo'ydi. Ertasiga erta bilan

shoh taxtga chiqqan onda ikki to'ti falakka jar solib, shohga yuqoridagi ikki gapni bekam-ko'st aytdilar. Kutilmagan bu gapni eshitib, shoh hayratidan lol bo'lib, bu g'aroyib gaplar tagida qanday sir borligi haqida o'ylab qoldi va tubandagi fikrga keldi: «Bu to'tilarni bunday gaplarni aytishga o'rgatgan odam Zaydning nima ish qilganidan xabardor, ammo u Zayddan qo'rqib, uning aybini qushning tilidan aytirayotgan bo'lsa kerak. U agar Zayddan qo'rqsa, biz qo'rqmaymiz, bu gapni tahqiq qilib aniqlash biz uchun qiyin emas», dedi. Shundan so'ng, usta chaqirib, taxtning bir pochasi — oyog'ini egovlatib ko'rgan edi, qalbakiligi, ya'ni usti oltinu ichi kumushligi ma'lum bo'ldi-qoldi. Zayd shu xiyonati tufayli o'zining shoh oldidagi ishonchini yo'qotdi va oqibat-natijada bu xiyonatkorning barcha mol-mulki davlat foydasiga olinib, o'zini chohga tashlab, zindonband qilindi. U chohning og'zi toru tubi keng, ya'ni og'zi bir tuynukdek bo'lsa ham tubi bir uydek edi. Zindonni shunday yasagan edilarki, unga gunohkor kishilarni hibsladigan bo'lsalar, chohning ichidan hech qachon hech yerga qochib qutulish mumkin emas edi; u zindon qorong'ilikda xuddi firoq kechasiga o'xshar; bandilikda esa, xuddi hajr domiga ilingandek edi. U yerda Zayd uchun belgilangan kundalik ovqat — ikkita kulcha va bir obdasta suvdan iborat edi. Qallob zargar qalbaki ishi bilan o'ziga shunday yomon kunni sotib oldi.

Zayd doim yonida bir xanjar bilan bir egovni yashirincha asrab yurar edi. Xanjarini ko'ylak ichiga yashirgan bo'lib, egov ham shuning ichida pinhon edi. U o'z-o'ziga: «Zindonda bog'lanib yotish og'ir, bu g'am-g'ussaxona hayot uchun xavfli va halokatlidir. Binobarin, qanchalik mehnat-mashaqqat va aftodalik chekib bo'lsa ham, bu chohdan chiqib qochish tadbirini qilmoq kerak», der edi. Shu xayol bilan u har kungi non bilan suvini olganda, nonini bir chekkaga qo'ygan holda, xanjari bilan tuproqni kovlab, suvni ichmay, o'sha tuproqqa qorib loy qilar edi. Maqsadi shu loylardan birin-sirin zinapoya yasab, chohning og'ziga chiqish edi. Egov bilan kishanlarni kesib, oyoqlarini banddan xalos qilgan edi-yu, ammo suv ichmagani uchun ortiqcha non eyolmas, nonning hidi bilan kifoyalana edi. Va lekin tashnalik g'olib kelib, har kuni suv uchun afg'oni-zor tortar edi. Tomog'i qaqrab, suvga intizor bo'lib turganda, suv kelishi bilan ko'zini chirt yumib, yana loy qorib g'isht quyardi. U ovqat va suvsizlikdan kundan-kunga holatdan ketib borishiga qaramay, zinapoyani har kuni balandlatib borardi. Necha oylab shu kabi mashaqqat chekishi natijasida zinapoya zindon tuynugining og'ziga yetdi. Zindon og'ziga og'ir bir tosh bostirilgan edi. San'atkor usta zinaning boshiga chiqib, xanjarining uchi bilan haligi toshni bir yonidan teshdi. Nihoyat, yerdan lahim qazishda hunarmand bo'lmish bu usta bir qancha mehnat-mashaqqat bilan toshni ham xanjari bilan teshib, shu chohdan chiqib qochdi. Shoh bilsa, buni tutib o'ldirishi aniq edi, shuning uchun hech qayerda to'xtamay, jadallik bilan Farangistonga, ya'ni Yevropaga qarab jo'nab qoldi.

Ertasiga zindonbonlar uning qochganini bilib qoldilar va buni shohga ham arz etdilar. Shoh uning zindondan qanday tadbir bilan

qochganini fahmlab, qanchadan-qancha makru firib bilimiga ham ega ekanligini anglab, hayratidan barmoqlarini tishlab qoldi.

Endi, bu tarafda Zaydga kelsak, u jonini qutqarish uchun, yerning tanobini tortib, tinmay yo'l bosardi. U yo'lda ko'p mashaqqatlar chekdi, har qadamda qoqildi-surildi, nihoyatda ko'p qiyinchiliklar bilan bir amallab Farang tuprog'iga yetib oldi. U, faqat, shu iqlimga kiringandan so'nggina xavf-xatardan qutulib, ozgina nafasini rostlab, xotirjam yura boshladi. Shunda ham yana ancha kun, bir necha mahfil va manzillarni kechib, oxirda Kustantaniya shahriga yetib bordi. Ha, u shu yerga yetgachgina yurishdan to'xtadi.

U shaharning tashqarisida bir dayr butxona bor edi. Yo'l Zaydni nihoyatda qoqib, holdan toyg'izgan edi. U shu dayr ichiga kirib, dam ola boshladi. U dayrdagi binolarning boshi va oxiri ko'rinmas, go'yo bu dayr o'z kengligi bilan ko'hna dunyoga o'xshar edi. Uning to'rida bir keng koshona bor edi. U koshona emas, butxona edi. Butxonaning usti va atrof-tevaragi boshdan-oyoq zarkor bo'lib, oltin va lojuvard (to'q zangori) tusda naqsh-nigor berilgan edi. Devorlarining aylanma quyi qismiga yashm va samog' kabi yashil, oq toshlar qoplangan bo'lib, yeriga yaxlit oq marmar to'shalgan edi. Butxonaning ichida juda ko'p toq va tokchalar bo'lib, ularning ichi ham turli sir va qimmatbaho moddalar bilan bo'yalgan, zeb-ziyat berilgan edi. Bundan tashqari, har tokcha ichida oltindan yasalgan but bo'lib, har kuni odamlar bu butlarga cho'qinar edilar. Kishilarning ixlos va e'tiqodi butlarga g'oyat baland bo'lgani tufayli, ularni ko'pgina qiymatli inju toshlar bilan bezab tashlagan edilar. Bu butxonaning ikkita falakdek po'lat darvozasi bo'lib, bularning rangi, aylanib turishi va ochilib-yopilishi xuddi falakka monand edi. U darvozalarga solingan qulflar oltindan va butxonaga rahbarlik qiluvchi rahbonlar uni xuddi darvozabonlardek ehtiyot bilan saqlar edilar. U darvozalar kuniga ikki mahal – ertalab va shomda, ya'ni xalqning butga cho'qinadigan paytidagina ochilar edi. El-ulus butga sig'inib tarqagach, tezlik bilan rahbonlar yana eshiklarni qulflab olar edilar. Haligi san'atkor faylasuf Zayd bu joylarni pargordek (sirkuldek) boshdan-oyoq aylanib ko'rgach: «Bu yerda shuncha tekni oltin bor ekan, men shohga qoldirgan oltinimni shu yerda chiqazib olaman!» degan qarorga keldi. Shundan so'ng, u darrov o'zini butparastlar qiyofasiga kiritib, dayrning ichiga kirib o'tirdi. Va butparastlarning qanday odat va rasm-rusmlari bo'lsa, tez orada hammasini o'rganib, qoyil qiladigan bo'lib oldi. U kecha-kunduz dayrdan chiqmay ibodat qilar, butxonani har doim ziyorat qilish bilan band edi. U har bir sanamga ixlos bilan cho'qinar, ularga xuddi bandalardek sajda qilar edi. U shunday makru hiylalar ishlatdiki, dayr – butxona kishilari unga shaydoyilardek ixlos qo'ydilar. Ko'pchilik butparastlar uni ustoz deb ushlab, pir deb qo'l berib, uning ko'rsatmasi va yo'l-yo'rig'i asosida ibodat qiladigan bo'ldilar. U baland maqomli makkor cho'qinishdan tortib, to dayrning ixtiyorini o'z qo'liga olish darajasigacha borib yetdi. Butxonaning kaliti ham, but yasovchidan tortib butparastgacha hammasining umid va ishonchi shuning qo'liga o'tib qoldi. Ishni shu maqomga yetkazib olgach, u sekin-asta butparastlikka qarshi yurish qila boshladi.

U ustomon kechasi el-yurt uyquga tolgan paytida har tomonni kezib, nimanidir axtarar edi. Nihoyat, u dengizning sohilidagi tog'liqlar orasidan bir g'or topdi. Keyin, qochib kelayotgan paytda unga hamrohlik qilgan bir-ikkita ahli din o'rtoqlari bor edi. Ular bunga davlat yoru martabasi baland paytida mulozim edilar. Ular Zayd ranju mehnatga tushganda ham xodimlik qildilar. Lekin u butparastlik yo'lini tutgandan so'ng, yuraklariga dardu alam tushib, bu riyokor betavfiqdan yuz o'girishga majbur bo'lgan edilar. Mana endi bu makkor o'sha ikki kishini qidirib topib, shodlik bilan qilgan ishlariyu tuzgan rejalarini shularga arzi hol ayladi. Buni eshitib, ularning ikkovi ham xursandlik izhor etdi, Zayd esa, bu ikkovini g'or bilan tanishtirdi. Ular bu ayyorga nihoyatda ishonardilar. Shuning uchun uning maslahati bilan g'orda o'tirishga rozilik bildirdilar. U aytdiki: «Zargarlik uchun qanday asbob kerak bo'lsa, harakat qilib, mana shularni topib keltiring. Nimaniki tayyorlasangiz, hech kimga bildirmay, yashirincha mana shu g'orga olib kelib qo'yaving».

Shunday qilib, ular kerakli narsani tayyorlayverdilar, xoja esa har kechasi ularning oldiga kelib ketar edi. U, elning oldida tongdan-oqshomgacha savmnotparast kabi «lot» butiga cho'qingani cho'qinganu, ammo odamlarning ko'ziga uyqu kelishi bilan, u dayrdan sekingina chiqib, g'orga borib, eldan yashirincha dastgohlarini ishga solar edi. U bu yerda butxonadagi butlarga o'xshatib, temirdan but yasas, ammo odamlarning ko'ziga tilla ko'rinsin uchun uning ustiga yupqagina qilib oltin qoplar edi. Bu mohir san'atkor, har xil rangda shishalar tayyorlab, butxonadagi qimmatli javohirlarni ham shu shishalarga almashtirib oldi. Bu, shishalarning har bir parchasini bir-biriga shunday jipslashtirar ediki, mutlaqo u shishalarni bebaho javohirlardan farq qilib bo'lmas edi. O'tkir muhandis bu qalbaki butlari tayyor bo'lgach, biri o'rniga birini almashtirib qo'yar edi. U, qalbakisini ham, aslini ham eldan yashirgan holda dayrdan g'orga, g'ordan dayrga olib kelib, joylar edi. U bu paytda butxona eshiklarini juda hushyorlik bilan — hech kimga sezdirmay ochib-yopar edi. Qaysi bir butga uning o'xshashini yasas ekan, har qanday odamga yoqadigan, hech kim shubhalanmaydigan qilib yasas edi. Uydagi butlarni bemahalda tayyorlar va butxonada ham hech kim bilmaydigan paytda uni asl but bilan almashtirar edi. Asl butni yuqoridagi ikkita xodim olib kelar, zargar esa zarnigor butxonada qolar edi. Ular ketgach, ochilgan eshikni ohistagina berkitib, maxfiy ishini hoshdan-oyoq ehtiyotlik bilan bajarar edi.

Zargar bir qancha muddatgacha hech kimga sezdirmay shu ishni davom ettirdi. Nihoyat, kofirlarning ilohidan (butidan) bitta iloh ham qolmadi. Lo iloha illalloh (Alloh bitta — Allohdan boshqa Allah yo'q). Hatto, oltin lagan va nuqul oltindan bo'lgan qandillar ham hammasi temirga almashtirildi. Oxirida almashtirilmagan na bir but va na lagan-tog'ora qolmagach, xoja vataniga qaytish orzusini hudparastlarga arz etdi. U, bu niyatini izhor qilganda, hamma kofirlar bag'oyat xafa bo'ldilar. Ular bunga iltijo bilan murojaat qilib:

«Sen bu butxonaga qatnovchi kishilarning piri murshidisan, kofirlar ichida haromdan va yomonlikdan parhez qiluvchi — taqvodorsan va dunyo ishlaridan qaytib, faqat tangriga ibodat qiluvchi — zohidsan. Shunday zot bo'la turib, nechun hijrat qilish niyatiga tushding? Tangrilardan (butlardan) ko'nglingni qanday uzding?!» — deb zorlanishdi. Shunda u aytdi:

«Yo'q, ko'ngilni uzish mumkin emas, hajr bahona bo'la oladimi? Mening safarim shu Tangrilarning amri bilan bo'lmoqda. Lot nomli butning bashorat berishiga qaraganda, onamning hayoti tugagan emish. Onam qo'lida ko'p dunyolar bo'lib, uning mendan o'zga vorisu merosxo'ri yo'qdir. Modomiki shunday ekan, tez orada men borib, u naqdina — mablag'larni qo'lga olishim, yana Lot va Manotlarning oldiga qaytib kelishim kerak. Onamdan qolgan dunyodan qanchasi qo'limga kirsam, hammasini shu dayrga nazr qilib, butxonaning xarjiga sarflash niyatidaman. Mening murodu maqsadim mol-ne'mat emas, mana shu dayrda ibodat bilan umr o'tkazishning o'zi men uchun ulug' ne'matdir. Bu yerdan uzoqlashib, hajrda yurgan paytlarimda g'am-g'ussaga to'laman, qayda bo'lsam, shu dayr xayoli bilan yuraman».

Kofir ahli buning ketish sababidan qanoat hosil qilganlari holda, busiz o'ksinib qolayotganliklarini izhor aylab, hammalari oyog'iga boshlarini qo'yib sajda qildilar va sar-basar g'amnok bo'lib aytdilarki:

«Sening dinimizga bo'lgan aqida va e'tiqoding benihoya pok. Dining kufrdan sharaflar topsin, sen g'oyatda benuqson va halol kofirsan. Bu el sening ayriliq va furqatingdan g'ambodadir. Xayr, sog' borginu yana salomat kelgin. Lekin sen bu dayrda necha muddat istiqomat qilgan bo'lsang, odamlar ongiga kufri shunchalik ko'p singdirding, rahmat! Endi esa, o'z diyoringga ketish orzusiga tushib qolding. Biz ham qarab turmaymiz: senga yo'l yarog'i, sovg'a-salomlar hadya etamiz», deyishdi.

«Hojat emas!» — deb qattiq qarshilik ko'rsatdi Zayd. Ammo ular o'z takliflarida turib olgach, noiloj rozi bo'ldi. Shundan so'ng, dayrga katta-kichik ko'pgina butparastlar yig'ilishib, barchasi o'zaro hissa chiqarishdi. Ular jahdu g'ayrat bilan harakat qilib, ko'pgina molu dunyo jam ayladilar. U mablag'larning hammasini hurmat bilan xojaga taqdim etdilar, xoja ham minnatdorchilik bilan ularni qabul qilib oldi. Garchi shu kuni jo'nab ketish uchun barcha imkoniyat va hozirliklar bo'lishiga qaramay, bular tarafidan tayyorlangan sovg'a-salom va mukofotlar bahonasi bilan to'xtab qoldi. Bu mablag'larni ham g'orda butlab qo'yilgan mollarga qo'shib, hammasini bitta qilib jamladi. Keyin mollarning hammasini rosa ehtiyotlik bilan puxtalab tugdirdi, hech idish bo'sh qoldirilmadi. So'ngra u tog' etagida bo'lmish dengiz sohiliga kelib o'rnashdi. Uning yuki shu qadar ko'p va og'ir ediki, u, bir kemani o'ziga alohida kira qilib olishga majbur bo'ldi. So'ng, g'orda berkitib qo'yilgan hamma ashyolarni ham, suv yoqasiga keltirib qo'yilmish yuklarni ham bitta qoldirmay, barchasi kemaga joylandi. Shunday qilib, xoja hamma ishni bitirib xotirjam bo'lgach, uo'st-yorlar bilan xayr-xo'sh qildi. Jamiki odamlar furqat

o'tida yonib, bu bilan quchishib, zor-zor yig'lab qoldilar. Xoja o'z azhob – suhbatdoshlarini g'am-alam ichra qoldirgan holda, kemaga qarab yo'l olarkan, oxirida aytdiki:

«Bir ruq'a – xat yozganman, uni dayrning ichiga bekitib qo'ygan edim. U mazmundor inshoni qidirsangiz, Lot buti yonidan topasiz. U juda foydali maktub bo'lib, sizning dayrdagi hayotingizga oiddir, uni albatta o'qingiz. Xayr, alvido!..» – dedi.

Shundan so'ng, kemani haydab ketdi, u sodda, oqko'ngil odamlar esa, dayrga qarab jo'nadilar. Dayrga borgach, ular boshqa ishni qo'yib, uning ruq'asini axtarib topdilar va uni jondek aziz tutib, ko'zlariga surtdilar. Nihoyat, u xatni o'qirkan, bularni firoq o'tida yondirib ketgan haligi afsungarning dayrda qanday xiyonatlar qilganini boshdan-oyoq bildilar. Bu afsona ularning boshini shunday qotirib qo'ydi, xuddi xumor qilib turganda nasha yegan bangidek garang bo'lib qoldilar. Haqiqatan, xatdagi gapni amalda tekshirib ko'rganlarida, nima deb yozgan bo'lsa, hammasi to'g'ri bo'lib chiqdi. Shundan so'ng, ahli kuffor go'yo to'fon tushgandek bo'lib, eshushini yo'qotib qo'ydi.

Endi, dengizda suzib ketayotgan hiylagardan eshitsangiz. U bir necha kunlab dengizni yeldek kezdi. Uning yelkani g'oyatda baquvvat bo'lib, u shamoldek sur'at bilan borar edi. Shu xilda yurib, yozda suvga tushgan odam kuzda Rum sohiliga yetib bordi.

Bu paytda Rum shohi bir dardga yo'liqqan bo'lib, bu dard uning butun vujudini azoblar edi. Bir paytda shu kasaldan uning tobi aynaganda, hozirgi faylasuf hakim davolagan edi. Ammo bu tabib qochib yo'qolgach, shohning dardi yana qo'zg'algan bo'lib, hech bir tinchlik bermas, umri doim azob-uqubatda edi. Har qanday dori-darmon qilinishiga qaramay, hech kim shohning kasalini davolay olmas edi. Shu kasali tufayli shoh zargarni zindonband qilib, qochirib yuborganidan doim pushaymon edi. U o'z notavon jismining kundan-kunga holatdan ketayotganini ko'rib, ko'pincha u dono hakimni eslar edi.

Nihoyat, hakim dengiz safaridan sohilga chiqqach, yonidagi do'stlariga o'zi qilgan g'aroyib ishining qissasini bayon ayladi. Uning umr bo'yi qilgan ishlari ajoyib edi-yu, ammo bunisi hammasidan g'aroyibroq edi. U, o'zi bilan keltirgan hamma ashyolarini birga kelgan do'stlariga tashlab, maxfiy suratda, ehtiyot bilan shahar ichiga kirdi. U, zindondan chiqqanda uzib tashlagan kishanini yana oyog'iga solib oldi. Sekin kelib, o'sha o'zi chiqib qochgan zindoniga yana tushdi. Buni zindon qorovuli bilib, yugurib borib shohga xabar ayladi. Shoh bu hodisani eshitishi bilan go'yo qaytadan tirilgan o'likdek jonlanib ketdi. Lekin tanasida hech qanday kuch-quvvat yo'q edi. Binobarin:

«Tezda u hakimni huzurimga olib keling!» – dedi. Va shu bilan birga, unga ko'p in'om-ehsonlaru o'ziga xos bebaho xil'at va sarupolar jo'natdi. Bunday lutf-marhamatlardan tashqari, o'zi minadigan otni ham jo'natdi. Xojaga bu sovg'a-salomlarni keltirganlarida, u zindondan tashqariga chiqmay, shohga tubandagicha shart qo'ydi:

«Men shohning g'azabiga giriftor bo'lgan odamman, zindonda nihoyasiz azob-uqubat ko'rdim. Ammo men unga qanday xiyonat

qilganimni bilmayman. Shuni menga bildirsin, agar xiyonat qilgan bo'lsam, biriga o'n baravar qilib qaytarishga roziman va qodirman. Bu – mening birinchi shartim. Ikkinchisi shuki, shoh har yili ikki marta qo'shin tortib, Rum mamlakatiga bostirib borishi va u yerdagi yevropaliklar bilan jang-jihod qilib, ularning butlarini sindirib, diniy ishlarini barbod qilishi shart. Hanuzgacha ularga qarshi tig' tortilmagan. Agar shoh shu shartga ko'nsa, men ularning butlarini sindirib, butlardagi butun oltinlarini shoh xazinasiga keltirib qo'shishga va'da beraman. U butlarga qadalmish butun injularni ham ajratib olib, shoh boshidan nisor qilib sochaman. Bundan tashqari, shohning yana ne muddaolari bo'lsa, bajo keltiraman va qanchalik bedavo dardga giriftor bo'lsalar, davolayman. Yana bir shartim shuki, men bilan olamgir shoh oralarini ig'vo bilan buzib, nohaq handi zindon etilishimga sababchi bo'lmish dushmanlarimiz oyog'iga kishan solib, hammasini huzurimga keltirib, chohga tashlatsalar, meni yanada komron va xursand qilgan bo'lur edilar. Nihoyat, shundan so'ng, o'zimning avvalgi amalimni hersalar, men shohning yonlariga yana qaytib horur edim. Agar mening shu tilaklarim yuzaga chiqmaydigan bo'lsa, chohning qa'ridan hech qachon chiqmagayman, zindonda abadiy qolg'ayman!»

Zayd yuqoridagi gaplarni birma-bir aytib tugatgach, shohga borib bayon qildilar. Shoh Zayd ustidan shikoyat qilmish o'z amirlarining ko'pgina boshqa jinoyatlarini bilar va juda g'azablanib yurar edi. Busiz ham ularni bog'lab, mahbus etib, chohu zindonga solish niyatida edi. Lekin kasallanib, uning butun vujudi azobga qolgach, ularni jazolash zarurligini unutmish edi. Endi, Zaydning bu qissasini eshitarkan, shohga yetarli bahona ham topilib, shu ondayoq ularning hammasini hibsga olib, choh – zindon tagiga tashlash haqida farmon berdi. Shundan so'ng, xoja zindonni ularga topshirib, o'zi tashqariga chiqdi. U hech qanday qarshiliksiz oyoq-qo'llaridagi kishanlarni tashlab, shoh yuborgan rango-rang liboslarni kiydi va otlanib shoh qasriga qarab yurdi va izzat-ehtiromlar bilan uning dargohi – ostonasini o'pdi. Shohning qabulxonasiga qadam bosgach esa, go'yo tuproq singari o'zini yerga tashladi. Shoh uning vujudini yerdan ko'tarib, bag'riga bosgani holda, o'z taxtiga chiqazdi va quchoqlab-o'pib, undan hol-ahvol so'radi. Nihoyat, o'zining butun ixtiyorini uning qo'liga topshirdi. U ham rasm-odat bo'yicha shohning qo'lini o'pgan bo'ldi. Va tomirini ushlab ko'rib, uning kasalini aniqladi. Shohning dardini daf' etishga kirishib, to'rt-besh kundayoq muolaja qilib, uni tuzatdi. Shohning kayfiyati yaxshilanib, tanasida hech qanday og'riq-sanchiq qolmagach, Zayd o'zi bilan birga olib kelgan oltin-javohirlarni uning oldiga to'kib qo'ydi. Ularni ko'rib, shoh behud bo'lib o'zini yo'qotayozdi. Bunchalik dunyoni qaydan topganligiga uning aqli shoshib qolgan edi. Binobarin, shoh: «Bu benihoya ajoyib ishning qissasini bayon qil!» – dedi. Shundan so'ng, mohir muhandis, buning sirlarini boshdan-oyoq shohga ochib tashladi. Uning so'zlari shohning ko'nglini asta-sekin o'zigajazb etdi. Hakim qilgan ishlarini ipidan-ignasigacha arz qilib bo'lgach, keltirgan boyliklarining hammasini

shohning xazinasiga taqdim qildi. Shundan so'ng, shoh ham qoyil qolib, unga ko'p in'om-ehsonlar berdi (uni sharhlab o'tirishning hojati yo'q).

Shohning hukmi bilan oltin butlarning hammasini buzib, parchalab tashladilar. Qorunning boyligicha keladigan bu xazinaning hammasini din ahllariga bo'lib berdilar. Va shohning hukmi bilan dindorlarning ustidagi har xil to'nlar faqat oltinrang to'n bilan almashtirildi. Hamma zarbaft to'n kiyadigan, zarbaftdek tovlanib, xursand bo'lib yuradigan bo'ldi. Oltin ularni shunday quvontirib yuborgan ediki, ular xuddi kulib turgan za'farga o'xshadilar.

Oradan birmuncha fursat o'tgach, shohning topshirig'i bilan zindondagi kishilar ham ozod qilindi. Ularning yuzi ham xuddi oltin kabi sarg'ayib ketganini xalq ko'rdi. Ranglari qahrabodek sarg'ayib, xunuklashib ketgan edilar.

Ishq kimning rangini somonga aylantirsa, uning oli ko'ngilga tezroq ta'sir etadi. Subh za'faron tusga kirmaguncha, falak unga kun yuzini ko'rsatmaydi.

Shoh Bahrom bu musofirning hikoyasini oxirigacha eshitgach, shodlanib so'radi:

«Ey, shirinsuxan musofir, sen bu sahifalarni sharhlab berding, endi o'zingning kimliging haqida ham gapirib ber, barcha holahvolingdan bizni xabardor ayla, zero, sening muborak nafasing bizga zo'r ta'sir ko'rsatdi», dedi.

U aytdiki: «Vatanim Rum mamlakatida bo'lib, tabiblik va hakimlik ilmi mening kasb-hunarimdir. Men sizga tarixini gapirganim muhandis esa bobolarimning avlodidir.

Bu tomonlarga qadam ranjida qilishdan maqsadim, senga bir kamina-kamtarin xizmatchi bo'lish edi. Shukr lillohki, nimani orzu qilgan bo'lsam, soyayi davlatingda murodimga yetdim».

Shoh Bahrom uning bu tamannosi eshitarkan, orzusini qondirib, uni ham o'ziga nadim — do'st qilib oldi.

Musofirning bu yoqimli gaplari — aytgan mujdalari shohni rohatlantirib, ko'zini uyquga eltgan edi. Binobarin, u shunday uyquga ketdiki, tong otib, to quyosh chiqmaguncha uyqudan ko'zini ochmadi.

XXIV

Dushanba kuni Bahromning navbahor monand ko'k kiyim bilan yashil saroyga yuz qo'ygani va sabza rang hulla (libos) kiygan sarvqomat bilan zumurrad rang jomda hayot suvini ichgani va u, tiriklik chashmasi sharofatidan Xizr kabi abadiy hayot kasb etgani

Dushanba kuni zangori osmon o'z ko'zqusini zangdan aritdi. Gardun (samo) o'z yuzini yuz xil rangu bo'yoq bilan subhning zumurrad chodiriga burkadi. Mehr — quyosh o'zining olamtob chashmasi bilan ko'k sabzazorini serob ayladi. Shohning kiygan xil'ati ham rayhoni rang, yo'q, to'g'risini aytsam, sarvi bo'stoniy rangda edi. U shu qiyofa bilan sabzavor ustiga qarab yurib, yashil ayyonga tashrif buyurdi. Shu payt, sabza rang sarvqomat jilva bilan ko'rindi.

Uning xil'ati esa, havo rang edi. Uning o'zi sabzaga, tabassumi esa, shakarga o'xshash shirin edi, axir, sabza shirin ekan, yoqimli bo'lmaydimi? Kishini maftun etuvchi bu go'zal nigor, shu onda shohga shisha rang jomda may tutdi. Bahrom dam-badam buning qo'lidan zumurrad rang sog'ardagi mayni olib, zumurrad osmon tun qo'shunining tutunidan qorayguncha ichdi. Shu payt shohning ko'nglini og'ir xayol bosib, ko'zi uyqusirab qoldi. Bunday paytda xizmatkorlar xuddi dud singari yugurib borib, ko'chadan biyobonlarni sayr qilib yurgan yo'lovchini shoh qoshiga boshlab kelishga odatlangan edilar va olib keldilar ham. Shunda shoh:

«U hozir parda orqasida o'tirib, o'z afsonasini aytishga boshlasin!» – dedi. Shu hukmni eshitish bilan dono musofir hikoya aytishga kirishdi.

U so'zini shoh haqiga hamd-sano va madh-duolar bilan boshladi.

XXV

Uchinchi iqlim yo'lidan keltirilgan musofirning aytgan afsonasi

U o'z duosini osmoni falakdan ham oshirib fотиha qilgach, so'z aytishga kirishdi:

«Bundan bir qancha muddat ilgari Misrda bir boy – g'ani xoja bo'lib, uning eshigi go'yo muhtoj kishilarning o'z joyi kabi ekan. Uning moli g'oyatda va nihoyatda ko'p bo'lganidek, dasturxon va mehmondorchiligining ham chek-chegarasi yo'q ekan.

O'sha xojaning bir baxtiyor farzandi bo'lib, uning jahonda monandi yo'q ekan. U nihoyatda salohiyatli va mohir san'at egasi, yuzidan hushyor, dono va hozirjavobligi sezilib turar ekan. Uning mol-dunyosi Misr shohinikidan kam bo'lmagani holda, jamoli ham Misrda o'tgan Yusuf payg'ambar monand ekan. Bu bola o'z molini otasining ixtiyoriga bergan bo'lib, otasining bor-yo'g'i ham shuniki ekan. Jahondagi kishilarning ilmi unga ma'lum bo'lgani kabi, ilm-fazl ahllari uning bilimdonligiga qoyil ekanlar. Bu yulduzi qutlug' odamning oti Sa'd bo'lib, otasining umidi faqat shuning omon-essonligida ekan. U kattakon bir mehmonxonani yasatib qo'ygan, qarindosh-urug'gina emas, yot-begonalar ham uning doimiy mehmoni ekanlar. Bu mehmonxonaga kim xohlasa kirar, har qanday musofir ham bu yerga kelsa murodiga yetib xursand bo'lib ketar ekan. U kelgan mehmonlardan mehribonchilik bilan holahvol so'rar, qo'lidan kelgancha ularga hurmat-izzat ko'rsatar ekan. U, mehmonlarning hurmatini shu kabi tavoze va benihoya lutfu ehson bilan bajo aylagach, ulardan ko'rgan-bilganini so'rar, kasbi-kori nimayu dunyoda ne umid va ne maqsad bilan yurganini surishtirar ekan. Shundan so'ng, ularning butun sirri-asrori, hamma bebaho fikrlarini o'rganib olar ekan. Mana shu ishni odat qilgani tufayli, u, ko'p ilm va ajoyib bilimlarni hosil qilgan ekan. Bularni o'ziga kasb etish bilan birga, sehr, nayrang va kimyo ilmlarini ham yaxshi o'rganib olgan ekan.

Bir kun, qazoro, nasibasi sochilgan tufayli, ikki g'arib-musofir bu tarafga kelib qoldi. Ularning ikkalasining egnidagi kiyimlar ham boshdan-oyoq yashil rang edi. Sa'd ularni nihoyatda izzat-ikrom bilan ziyofat qildi. Axir uning o'z tabiati bo'lib, mehmonga qo'ldan kelgancha hurmat ko'rsatish kasbi — odati edi-da. Sa'd ularga shunchalik odamgarchilik ko'rsatdiki, ularning ikkisi ham buning odamiyligi oldida qulga aylanib qoldilar. Buning iltifot va go'zal xulqini ko'rgan yashil to'nli ikki kishi lol va hayron bo'lib qolib, unga bir og'iz so'z aytolmadi. Bu, ularning shu yerda bir kun qolib, hamsuhbat bo'lib, dam olishlarini iltimos qildi. Shu orada ularni shunday ziyofat qildiki, hech qanday bazmning bundan ziyoda bo'lishi mumkin emas edi. May — boda ularning dimog'ini bag'oyat chog' qilmish edi. Mastlik tufayli, butun sharm-hayo pardalari ko'tarilib ketmish edi. Sa'd ularning ko'nglini haddan ziyoda ko'tarish bilan, har ikkisini bexud va beixtiyor qilib qo'ygan edi. Lutf-e'zoz ichida ko'p gaplarni surishtirish bilan birga, ularning kishvari haqida ham savol-javoblar yuritdi. Ya'ni: «Sizning mamlakatingiz qayerda? Xususan, ko'k libos kiyishingizning boisi nedur?» — dedi. Ular: «Kishvarimiz juda dilkash bo'lib, u ham Shahrizabz va ham Kash nomi bilan yuritiladi», — deyishdi. «Bu shahar xuddi Xizr¹ kabi ko'm-ko'k bo'lib, suvi ham sabzadek ko'k va oynadek tiniqdir. Yerimiz yashil giyohlaru ko'm-ko'k daraxtlarga hurkangani uchun, shahrimizning nomi Shahrizabz bo'lganiga ajablanmang».

Undan keyin Sa'd: «Uringizda har qanday ajoyib va g'aroyib narsa ko'rgan bo'lsangiz, gapirib bering», — dedi.

Shunda u yashil to'nli ikki musofirning biri aytdiki: «U jannat monand sabzavor diyori tomonda tog' orasida bir kishvar bor, u kishvar xalqini Kitvar deb ataydilar. Unda bir oliy butxona bo'lib, balandligi osmonni eslatadi. Toqi ko'kka cho'zilib ketgan bu butxonaning ichi ham, tashi ham toshdan yasalgan. Bu binoning ichkarisiyu tashqarisi boshdan-oyoq tabiat manzaralari va jonivorlarning tasviri bilan ziynatlangan. Kimki shu yerga manzil qilib o'tiradigan bo'lsa, tubandagicha bir g'aroyib voqea yuz beradi, ya'ni u odamga Tangri dunyoda nimani nasib-ro'zi qilgan va uning hayotida qanday voqealar yuz beradigan bo'lsa, kechasi u butxonaga kirib, yotib uxlasa, shu kechasi shak-shubhasiz ikkita ajoyib vujudli suratni tush ko'radi. U suratlar uning oldiga kelib, ularning har biri kishi yuziga ko'zini tikkani holda, har bittasi bittadan gap aytadi va shundan so'ng, kelgan joyiga qaytib ketadi. Ulardan bittasining gapi yaxshilik haqida bo'lib, buni eshitgan odam u yaxshilikni albatta ko'radi: farovon hayot kechiradi, ko'p boyliklarga ega bo'ladi va noz-ne'matlar ichida baxtiyorlik bilan davron suradi. Ikkinchisining gapi ranj-mashaqqat haqida bo'lib, buni eshitgan odamning tole yulduzi suvga urib ketadi. Mana shu ikki gapni ikki suratda eshitgan odam shu onda-yoq — to'satdan uyqudan uyg'onadi. Shundan so'ng, bu kimsa yaxshi ishlar qilish uchun harakat etgani holda, har qanday yomonlikdan qochadigan bo'ladi».

¹ Xizr — hayot ramzi.

Avvalgi musofir o'z so'zini shu mazmunda tugatgach, ikkinchi sayyoh ushbu gaplarni aytdi:

«Shu butxona ichida bir qariya odam bo'lib, uning qalbi-zamiri kun kabi ravshandir. Kimki u dayr (butxona)da yuqoridagi kabi tushni ko'rarkan, ham xushnud bo'ladi va ham qayg'uga to'ladi. U, o'z tushida ko'rgan istagiga erishmaganini va yoki hoshiga tushgan mashaqqatga chora topolmaganini u pir (qariya)ga bildirsa, o'sha onda uni murodiga yetkazish tadbirini ko'radi. Buning uchun u odam, avvalo, tushida ko'rgan ikki ishga o'zi qiziqishi va hamda o'sha dono pirning huzuriga borib, unga o'zining hol-ahvolini bayon qilishi shart. U pir qanday yo'l-yo'riq ko'rsatsa, o'shanga amal qilgan odamgina murodiga yetadi».

Binobarin, Sa'd bu afsonalarni eshitishi bilan shunday orzuga tushib, o'z hushini yo'qotdi. Alqissa, hushiga kelgach, goh umidvor va goh noumid holda to' shomgacha sayyohlar bilan suhbatlashib o'tirdi. Shu orzu xayoli bilan butun kechani savdoyilardek o'tkazarkan, safarga chiqib ketishga jazm qildi. Dayrning xayoli buning ko'nglini shunday zabt etgan ediki, u yerda ko'riladigan tushni o'ylay berib, uyqusi o'chib ketgan edi. Subhidamda ko'k rang osmon yerni quyosh nuri bilan oppoq qilib yoritguncha u mijja qoqmay o'tirib chiqdi. Dayrda ko'riladigan tushning havasi buning qarorini ham, ixtiyorini ham qo'lidan tamom olib qo'ygan edi.

Sa'd shu xayol va umid bilan otasining oldiga borib, murod-maqsadini arz ayladi. Xoja o'g'lini bu muddaodan qaytarish uchun ko'pgina chora-tadbirlar ko'rsa ham, buning uddasidan chiqmadi. Hech qanday iloj topolmagach, taslim bo'lishdan boshqa chorasi qolmadi. Kishining safar o'tini suv bilan o'chirib bo'lmagani kabi, xoja ham o'g'lini bu yo'ldan man' etish mumkin emas, degan qarorga keldi. Garchi, uning g'amida yig'lab oh-voh qilgan bo'lsa ham, oxirda uni Tangriga topshirishga majbur bo'ldi. Nihoyat, o'g'lining oldiga qanchadan-qancha mol-dunyolarni to'kib: «Shu mollardan ko'ngling qanchasini xohlasa, ol», dedi.

Shundan so'ng, ozoda Sa'd safar taraddudini ko'rish haqida farmon berdi. Safarning asbob-anjomlari tayyor bo'lguncha ishchi-xizmatchilar o'n kun harakat qildilar. Bu tayyorlangan narsalar nihoyatda qimmatli va shohona bo'lib, oddiy kishilar bunga qodir bo'lolmas edi. Qator-qator nortuyalarga ming-minglab oltin-kumush ortildi. Oltin kamar bog'lagan qullarning o'zidan to'rt yuzta bo'lib, ularning kamari boshdan-oyoq dur va la'l-javohirlar bilan bezatilgan edi. Odamning xayoli nimalarga yetsa yoki gumon-orzu qilsa, hammasi bu mollar ichida bor edi. Bu gaplarda hech qanday vahima-mubolag'a yo'q, hamma narsa bor va kutgandan ham ziyoda edi.

Shundan so'ng, Sa'd g'oyatda izzat-ikrom bilan u ikkita ko'k kiyimli odamni o'ziga yo'ldosh qilgani holda, ikki ko'zidan ikki daryodek yosh oqizib, otasi bilan vidolashdi. Otasi o'g'lidan ajragani uchun o'zining o'lishiga rozi bo'lib qoldi, o'g'li ham motamzadalardek yig'lay-yig'lay yo'lga tushdi. U shunday sur'at bilan yo'l bosar ediki, ikki bekatda zo'rg'a bir dam olar edi. Ikkita zumurrad po'sh yo'l boshlovchi esa, uning nazarida bir rahnamo farishtaga o'xshar edi.

Bularning ikkisi ham buning safarida xuddi rost yo'l ko'rsatuvchi Xizrdek borar edilar. Bir qancha muddat biyobonlarni tay qilib yurgach, nihoyat, istagan diyorlariga qadamlari yetdi. U ikki hamsafar bularni to'ppa-to'g'ri o'sha dayrga boshlab bordi. Ular shu yerga tushib, dam oldilar, ozgina tamaddi qilib, sharbat ichib, qorinlarini qappaytirdilar.

So'ngra, butxonani aylanib, u yerdagi odamlarga lutf va diljo'lik bilan izzat-hurmat ko'rsatdilar. Sa'd esa, dayrning hamma tarafini tomosha qilish uchun shoshilar edi. Binobarin, u o'rnidan turib, o'zining ikki hamrohi va yo'l boshlovchisi bilan dayrning ichiga qarab yurdi. U sayr qilarkan, har tarafga nazar solar va u yerdagi ajoyib-g'aroyib narsalarni ko'rib, hayratlanar edi. Nihoyat, dayri osmon o'z mehr-quyoshini yoshurganda, tun ham osmondek bemehr – quyoshsiz bo'lib qoldi. Shu payt, ya'ni oqshom, Sa'd dayr ichiga kirishi bilan dayr kishilari uning huzuriga kelib, bu niyatdan qaytish haqida pand-nasihatlar qildilar, bu ishga ruju' qilmish odamlardan juda ko'pchiligi shikastlarga yo'liqqani, zarar ko'rgani haqida gapirdilar. Lekin, Sa'dni havas degan narsa mag'lub qilib qo'ygan edi, binobarin, uning ko'ngliga hech qanday nasihat kor qilmadi. U hech kimning gapiga quloq solmay, dayrga kirib bir burchakda uxlash uchun yotdi. Shundan so'ng, butxona xodimi, xuddi Xaybar qo'rg'oni eshigini berkitganday, tezdin dayr eshigini taqa-taq berkitib qo'ydi. Dayrning tashqarisida esa Sa'dning odamlari uning bu qilgan ishidan noshod va tashvishda edilar.

Keyin, uning yuragida shunday bir vahima paydo bo'ldiki, chiqay desa, ilojini topolmay qoldi. U butun afsus-nadomat bilan xayol surar edi-yu, ammo endi nadomatlardan foyda yo'q edi. Uning ko'ziga hech uyqu kelmasdi. Axir, uxlamagan odamning tush ko'rishi mumkinmi edi? Xususan, tongga yaqin uning qo'rquv-vahimasi kuchayib ketdi, har nafasda uni yuz xil vasvasa bosar edi. Shu xilda butun tuni bo'yi og'zidan uyqu so'zi tushmay yotib, nihoyat, subhidamdagina ko'zini uyqu eltdi. Uxlagach, bu oliy dayr uning tushiga ham kirdi, go'yo u bu butxonaning har tomonini aylanib, sayr-tomosha qilib yurgan emish. Tushida ikkita ko'k rangli, dilkash qushning suratini ham ko'rdi. U suratlar harakatga kelib, sayrab – navo chekdilar va qanot qoqib dayrdan uchib ketdilar. Keyin qushlar yana uchib kelib, uning boshi atrofida aylanib, oxirda ikkalasi uning ikki yelkasiga qo'ndilar. Uning biri yoqimli bir ovoz bilan sayrab, xuddi farishta singari shunday bashorat berdi: «Senga bir pari nasib bo'lar emish, uning yuzi esa, xuddi Sharq quyoshidek nurafshon va go'zal emish».

Ikkinchi qush esa, biym – dahshat bilan nido solib, o'z maqsadini bunday ado etdi: «Bir kun sen dev qo'liga asir tushasan va u sening oyoq-qo'llaringga kishan solib zanjirband qilib qo'yadi!»— dedi.

Sa'd bu g'aroyib gaplardan hayratlanib, vahimaga tushgan holda, seskanib o'rnidan turib ketganini o'zi ham bilmay qoldi. U beixtiyor dod-voy solib, har tarafga boqar ekan, bu otashparastlar butxonasining tong nuri bilan yorishganini ko'rdi. Shundan so'ng,

o'rnidan tura solib eshikka tomon chopdi, shu orada ibodatxona boshlig'i – barahman ham kelib, eshikni ochdi. Bu oshufta xayol savdoyi eshikdan tashqariga chiqarkan, ko'rgan tushini eslab, shaydoyi bo'lib qoldi. U ertadan-kechgacha beqaror bo'lib, doim zor-fig'on chekar edi. Buning ayanchli ahvolini ko'rgan qavmi – xayli ham iztirobga tushib, hammasi ich-ichidan kuya boshladi. Binobarin, ular ikki ishbilarmon kishi oldiga borib:

«Sizlardan biringizning so'zingiz juda to'g'ri chiqdi, ya'ni bu sarsonchilikda yurib, g'arib telba bo'lib qoldi. Bir tadbir ko'rmasangiz bo'lmaydi, iltimos qilamiz, yordam bering!» – deyishdi.

Bundan boshqa yana ikkinchi ishbilarmon, aqlida barkamol odam ham bo'lib, u ikkinchi fikrni bayon qilgan edi. U Sa'dning oldiga kelib, maxfiy roz bilan iltimos va iltijo ayladi: «Men senga necha marta aytdimki, bu dardingga o'sha ikkinchi mo'ysafid – ustoz chora topadi, deb. Tur o'rningdan, o'sha pirning oldiga boraylik, shoyad ushbu dardu g'aming o'sha kishining sharofati bilan yo'q bo'lib arib ketsa!»

Sa'd bularga hamroh bo'ldi, uni hamma sirdan ogoh shu ikki bilarmon kishi boshlab ketdilar. Bular tog' bag'riga, qorong'i bir g'orga tomon olib borar edilar.

Nihoyat, o'sha g'orni topib, qo'rquv-ehtiros orasida, ikkita rahshunos bilan g'orning ichiga kirdilar. G'orning ichida bir ayvon bor bo'lib, uni tog' qazuvchi – ko'hkonlarning teshasi bilan qazilgan ekan. Axtarilgan chol g'or ichida xalqdan chekinib, bir burchakda munkayib o'tirar edi. Uning aziz jismining javohiri shu qorong'i kon ichida kichik bir olamni makon tutib o'tirar edi. Uning vujudi, parishon sochi ostida, xuddi tun qorong'usida jahon ko'rinmay qolgandek, bekinib qolgan. Ko'ngli ichidagi ilmi pinhoniysi esa, xuddi kon ichidagi javohir kabi yashirinib yotar edi. Butun vujudi, shukuhi va tabiatidan ilm-hikmat yog'ilib turar va dunyoga kelganiga ham yetti yuz yil bo'lmish edi. Uning bu dunyodan umidi bo'lmagani va dunyoga hech qanday hirs qo'ymagani kabi, xavfi ham yo'q bo'lib, otini xaloyiq Faylaqus hakim deb atar edi. Bu piri a'zamni ko'rgach, hamma qo'lini ko'ksiga qovushtirib, hayratdan qotib qoldi. Bu barcha narsadan voqif bo'lmish ravshan fikrli hakim vujudini yopib turgan sochlarini ko'tarib, yuzini ochdi. Shunda, uning yuzining nuri, quyosh nuri dunyoni yoritganidek, butun uyni yoritib yubordi. U olijanob mezbonlarga xos xayolot bilan mehmonlarga iltifot ko'rsatdi. Undagi shukuh – salobat va tamkinni ko'rib, mehmonlar hurmat yuzasidan boshlarini tuproqqa qo'yib, unga sajda qildilar. Pir Sa'dga aytdiki:

«Ey baxtiyor-saodatmand odam, bu shafqatsiz zamondan senga hech qanday gazandu shikast yetmasin! Zero, men sening jamolingni ko'rish bilan, hol-ahvoling nechukligini boshdan-oyoq fahmladim. Boshingdan kechmish – sarguzashtlaringni mo'y-bamo'y sen hikoya qilib berasanmi yoki sen xohlamasang, ipidan-ignasigacha men aytib bera qolaymi?» – dedi.

Zamonning dardmandi bo'lmish Sa'd yer o'pib aytdiki: «Hikmatli gaplarni, Luqmoni hakimlar yaxshi aytadi, iltimos qilaman, Siz ayting!»

Shunda, u dono tabassum bilan boshini quyi solib, dilkusho bir takallumga til ochdi: boshlab, uning yoshlik davrlarini, u zamonda qilgan ba'zi ishlaridan nishonayu misollar keltirish bilan, afsonavor hikoya ayladi. Shahari, mamlakati qayerligi, ota-onasi kimligi va bularning mehmondo'stligi haqida gapirdi. Ilm-fanni egallash, hunar o'rganishdan tortib, el-ulusning holidan shafqat bilan xabar olishlarigacha, sargashta bo'lib yurgan g'arib-musofirlarga mol-dunyo hadya qilish bilan ulardan ko'p ajoyib qissalar eshitgani bormi, hammasini bayon qilib berdi. Keyin, mana bu ikki qissaning asiri bo'lib qolgani va buning mashaqqatidan qutulish ilojini topolmay, o'z kishvari va diyorlaridan kechib, bu taraflarga kelib, g'ariblik azobini chekayotganini tasvirladi. Undan so'ng, dayr ichida uxlab, tush ko'rarkan, unga ikki qush nimalar deganini ham oqizmay-tomizmay bayon etdi. Mana shu zaylda hamma voqealarni xuddi ko'rgan kishidek boshdan-oyoq gapirgach, ular hayratdan o'z hushlarini yo'qotish darajasiga borib yetdilar. Pir bedil Sa'dga ko'p tasalli berib aytdiki:

«Sen mening diydorimni ko'rish orzusida eding. Mana endi tushingning ta'birini ham aytib beraman, murid-maqsaiddinga yetkazish tadbirini ham ko'rsataman. Lekin bu ishda shunday bir holat borki, uni senga aytishim nihoyatda zarurdir. Masalan, senga mendan qancha foyda yetarkan, sen tufayli mening ham maqsadlarim hosil bo'ladi.

Men o'sha dayrning peshvo – rahbari edim, ya'ni men u butxonaning domla-imomi bo'lib, u yerdagi ahli hikmat menga iqtido qilar edilar. Men doim o'sha yerda uxlab yotish orzusida yurar edim. Ammo, niyatimga esa, ilm-hikmat va hayot falsafasi monelik qilar, binobarin, shu haqda xayol surishdan nariga o'tolmas edim. Oqibat natijada havasim ustun keldi, aqlim esa, bu borada o'zini tadbirkor qilib ko'rsatdi. Shu kuni kechgacha iztirob va hayajon ichida yashadim, kech kirib qorong'u shuursiz-beixtiyor u dayrga kirdim va bir burchakka yotib, ko'zimni chirt yumib, zo'rma-zo'rakilik bilan o'zimni uyquga soldim. Uyquni orzu qilishim bilanoq, uyqu ko'zimni o'z domiga ilintirib, girdobiga tortib ketdi. Ilohi, kirib uxlovchilarning barchasi uchun u dayr xayrli bo'lsin. U yerda mening tushimga shunday narsalar kirdiki, avvalo, yuz ming xil surat jilvalanib, miyamdan aqlni olib qochdi. So'ngra, yana ikkita qush surat narsa uchib kelib (sen ham tushingda shunga o'xshash narsani ko'rgan ekansan), xushnavolik va yoqimli ovoz bilan sayray boshladi va oxirida ikkalasi tilga kirib gapirarkan, biri: «Ey, bu dayrda uxlash havasiga giriftor bo'lmish odam, bilib qo'ykim, ikki oyog'ingga band-zanjir tushadi va xushnudliging, huzur-halovatingning sham'i so'nadi, vataning qorong'i go'rga aylang'usidir!» – dedi.

Ikkinchi qush aytdiki: «Juda ham tashvishlanma, sening boshingda baxt-saodat yulduzi ham porlaydi. Vujudingda ikkita qanot paydo bo'lib uhasan va najot vodiysiga horib yetasan. Kingaki qanot paydo bo'lgudek bo'lsa, shod-xurramlik bilan parvoz qilish uning uchun ajablanarli emas».

Shundan so'ng, bu ikki qushning aytgan so'zlaridan seskanib, ko'zlarimdan uyqu o'chib, uyg'onib ketdim. Ko'nglimda shunday iztirob paydo bo'ldiki, bu savdo meni xarob qilib tashladi. Vahima xayolimni olib qochgach, bu tushga ta'bir beradigan bir muabbirga muhtoj edim. Bir mujda yetib, ilhom xushxabar berib, bu tushni ta'bir lay olmasmikinman, deb o'ylab, miyamda rosa tasavvur qilib ko'rdim, iloji bo'lmadi, aqlim hech narsaga borib yetmadi. Shu kabi bu tushga biron kimsa ta'bir berolmas, axtarganim bilan bunday barkamol muabbirni hech yerdan topolmas edim. Bu tashvish natijasida jismim zaiflashib, a'zoyi badanim holdan ketdi, mashaqqat jonimdan to'yg'azdi. Ko'nglim doim iztirobda bo'lgani kabi, tanu jonim muttasil azobda edi. «Balo xavfidan baloning o'zi yaxshiroq», degan zarbulmasal qanday yaxshi aytilgan ekan-a! Jonimni g'am va mashaqqat ezar, xavf-xatar har onda meni o'ldirar edi. Davronning ranjidan ish shu darajaga yetdiki, jonimdan qo'limni yuvib, qo'ltig'imga urib qo'ydim. Mening mushkulimning o'limdan boshqa tadbiri yo'q, degan xulosaga kelgan edim. Shu orada bir Xizrga o'xshash mo'ysafid kelib qoldi. Bu odamning darveshlarga xos xirqasi — kiyimi ham ko'k, qo'lidagi asosi ham ko'k bo'lib, go'yo u Xizr payg'ambarning o'zginasi edi. U odam menga: «Ey, vahimadan o'zini yo'qotgan bechora, qayg'urma, joningga xavf-xatar o'qini urma! Tushingni men yo'yay, lekin men bilan shunday shart qilginki, qanday ta'bir qilsam, sen shuni hech bir e'tirozsiz qabul qilg'aysan, aks holda o'zingni ovora va mashaqqatga qo'yg'aysan!» dedi.

Men uning qarshisida ta'zim bilan yer o'pib, «Dodimga yet! Keyin qanday hukm etsang, etaver, roziman, hamma shartlaringni jonim bilan qabul qilaman, ne desang, undan bo'yin tovlamaslikka va'da beraman!» — dedim.

Shunda u dediki: «Jomaspnoma» degan kitobning raqamlarini ko'zdan kechirib, undagi ahkom — xulosalarning mag'zini boshdan-oyoq birma-bir chaqib ko'rsang, unda shunday qissalar borki, tushingning ta'biri nima bo'lishini o'shandan bilasan-qo'yasan. Mening shart va iltijoyim shulardan iborat. Yaxshilab o'qib ol, boshqa gapim yo'q. Lekin shart shuki, boshqa hech qanday ilm bilan shug'ullanmay, faqat tush ta'biri haqidagi ilmnigina tahsil qilg'aysan. Sen u fanni egallash uchun harakat qilasan, biz esa, bu bobda senga muvaffaqiyat va rivoj tilab turamiz. Kimki bu dayr ichida tunashni orzu qilsa, tush ko'rib, shu kabi beqaror bo'ladi. Ishonginki, sen mizojing dardini davolay olasan, bu g'amlaringning davosini o'zing topasan».

Shu gaplarni aytib tamomlagach, pir g'oyib bo'ldi. Men uning oyoq izi o'rniga ko'zlarimni surkadim va ko'z yoshlarimni to'kdim. So'ngra «Jomaspnoma»ni axtarib topdim. U kitobni ochishim bilan oq haligi o'z ahvolimga taalluqli joyiga ko'zim tushdi. Unda shunday deyilgan ekan:

«Falon zamonda, bir kishining maqsadi ilm-fanni egallash bo'lgani holda, dayr ichiga kirib, uxlab, tush ko'rsayu o'z boshini dardu g'ussaga qo'ysa, buning chorasi baland toqqa chiqib,

qorong'u g'or ichida istiqomat qilmoqdir. Istiqomat qilganda ham yuz yilgacha u g'ordan tashqariga chiqmay riyozat chekadi. Shunday tadbir qilgan choqdagina, bandga tushib g'orda yotish haqidagi tushning ta'biri yuzaga chiqqan bo'ladi, ya'ni yuz yil o'tishi bilan najot topib, joniga hayotdan mujda va xushxabar yetadi. Shundan so'ng, uning qorong'i shomi minba'd tugab, ko'zini bir saodat yulduzi yoritadi. Ya'ni shu lahzada, ishiga dayr ichida band tushgan boshqa bir saodatmand odam paydo bo'ladi. Buning ismi sharifi Sa'd va jamoli qutlug' bo'lib, Sa'di akbar (Yupiter) osmonda uning jamoliga banda bo'ladi. Shu sayyora uning qorong'i g'origa nur sohib, unga ko'rgan tushining ta'biri nima ekanini bildiradi. Uzatga chekinib g'orda yotgan hakim unga ta'birini bayon etgach, Sa'd yo'lga chiqib, tezda o'z muddaosining hosil bo'lishiga kirishadi. Shundan so'ng, tushiga ta'bir beruvchi muabbirning ishiga tushgan band ham yechilib, u ham o'z murodiga yetadi va ko'p ishlardan voqif bo'lib, ko'hna falakning mushkullarini hal qiladigan va kashf etadigan bo'ladi. U o'z fikri bilan osmoni falakni kezuvchi, charxning bog'-bo'stonida sayl-tomosha qiluvchi bo'ladi. U o'z tafakkuri bilan osmonga qo'li yetadigan va uni yerga past qiladigan bo'ladi. U, g'or ichida riyozat chekib, nafsining butun istaklarini barbod bergani uchun, butun jismoniy talablari yo'qolib, ruhoniyy bir zotga aylanadi. Hikmat ahllari nima maqsadda bo'lmasinlar, zamon hodisalari ularga monelik qiladi. Lekin, bunga esa, purziyo mash'al — Quyoshdan tortib, falakda bo'lmish hamma narsaning siri o'z fikri bilan yechiladigan bo'ladi.

Tushining so'nggi qismining ta'biri esa, pirning xabar berishiga qaraganda, tubandagichadir: charxfalak avjigacha parvoz qilishiga sabab bo'lmish vosita, uning tushda ko'rgan o'z egnidagi ikki qanoti bo'ladi».

Men bu gaplarni obdan idrok etgach, Xizr aytgan so'z yodimga keldi. Men tushga ta'bir berish ilmini egallash uchun ko'p ranj-mashaqqat chekdim, nihoyat, haq bu bilim xazinasini menga nasib va ro'zi ayladi. Yuz yildirki bu g'or ichida uzlatnishin bo'lib, xalqdan ajralgan holda riyozat chekib, el-ulusning mushkulini oson qilmoqdaman. Kimki bu dayrga kirib yotgan bo'lsa, u yerda ko'rgan tushining balosiga qoldi. Mana shunday sargashtalarning hammasi oqibat-natijada, kelib ahvolini menga arz qildi, men ularning mushkulini oson ayladim.

Mening ko'zim sening yuzingni ko'rishga umidvoru jonim har nafasda senga muntazir edi. Men agar qachon sening visolingga erishsam, jamolingni ko'rishim bilan ko'zim yorishib ketishiga ishonar edim. Shukurlar bo'lsinki, yuz yil shu murod-maqсад bilan yashab, bugun sening tashrifi quduming bilan shu niyatimga yetdim. Mening boshimdan o'tgan voqealar shulardir. Endi men sening tushingni bayon qilishga kirishgayman.

Tushingda bir qush kelib, g'aroyib navo chekib: «Senga bir pari nasib bo'ladi», dedi. U sabzpo'sh shohning qizi bo'lib, uning oyog'ining izi quyosh nuridek ko'zni yorituvchidir. Uning poytaxti Shahrissabzda bo'lib, sipoh-askarlari esa yer yuzini qoplab yotgan

sabzalardek behisobdir. Uning bir parivash farzandi bo'lib, parilar uning husnini ko'rganda parishon va besaranjom bo'lib qoladilar. Uning yuzini ko'rganda parilargina emas, jannat hurlari ham unga kamtarin bir kanizak bo'lishni orzu qiladilar. Uning yuziga pardoz beruvchi — falak mashshotasidir, husnining ko'zgusi esa, falakdagi quyoshdir. Balki uning husni quyoshning bir ulushi bo'lib, quyosh ko'zgisiga ham hech qanday muhtojligi yo'qdir. Husnining vasfini aytishga til so'zlashdan ojiz, yuzini ta'riflashda esa, aql tili ioldir. La'li labi hayotbaxsh zuloldir. Badanidagi liboslari Xizr kabi ko'm-ko'k rayhoniyydir. Yuzi parda ichida shunday jilvalanib turadiki, go'yo maysa ustida behisht guli ochilib turgandek. Shohning rohat-farog'atining sababchisi ham — u, farog'atgina emas, ko'rar ko'zi ham — shu. Yo'q, u, shohning balandlikda osmon timsolidagi oliy qal'asidir. U qal'a go'yo bir buyuk cho'qqi ustida turgandek bo'lib, uning minorasi ko'k qal'asi bilan bahslashayotgandek.

Shoh bu qo'rg'on ichida bir qasr yasagan bo'lib, u go'zal ofatning maskani shu qasr ichidadir. Qasrning atrofida uchta hisor — qo'rg'on bo'lib, ularning minoralari osmoni falakka tomon cho'zilib ketgan. Har hisorda bittadan buyuk darband — darvoza bor, ular ham balandlikda falakka tutashganday. Lekin bu darbandlar hech qachon ochilmas, atroflari tamoman o'rab tashlangan bo'lib, darvozaga yaqinlashish uchun yo'l ham yo'qdir. Birinchi darband orasida bir qo'rg'on bor, unda Qatron otliq devsiyat bir zangi posbon turadi. U shunday zo'rki, qarshisida filning chumolichalik qudrati yo'qdir. Xususan, jang vaqtida u bir qaro baloga o'xshar, vujudidagi har bir tomiri ajdahoga aylangandek bo'rtib ketadi. Bu zangi shu qal'aning posboni bo'lib, osmon posbonidek bahaybatdir. Yana bundan boshqa ikkinchi darbandda bir tabarruk hakim bo'lib, u kishi doim kitob ko'rib o'tiradilar. Bu hakim har qanday ilm-hikmatdan xabardor olimdir. Xususan, uning jamolidan dindoru taqvodorlik (parhizkorlik) ilmi zohir va namoyondir. Shu zot ikkinchi qal'adagi hamma narsaning va barcha ashyolarning mutasaddisi hamda nigohbon — nazoratchisidir. Bulardan o'tgach, yana bir darband keladi, unda bir kampir bo'lib, u o'zining afsungarligi bilan xursanddir. U butun umr bo'yi makr-hiyla ishlatishnigina mashq qilgan. Makkorlikda ko'hna charx unga shogird bo'lishdan ojizdir. U kampir ham qasr atrofini aylanib, u tarafga nogahon bir yel esmasligi uchun qo'riqchilik qiladi. U qasr ustidan biron qush o'tmoqchi bo'lsa, hayotidan ajraydi, chivin uchsa, qanoti kuyadi. Bu qo'rg'on ichiga shunday sehr o'ti yoqilganki, u o't alangasidan toshlar erib, chashma singari oqadi.

Aslida, shohning toshyurak qizi biron erkak bilan juftlashishni xohlamay, doim xayol surar edi. Binobarin, u qiz shohdan bir mustahkam qo'rg'on qurib berishni iltimos aylib, hammadan ajralgan holda, shu qo'rg'onda yashaydigan bo'ldi. Uning husni butun dahr — dunyoga g'ovg'a solgan bo'lib, ko'p kishilarning boshiga bu go'zalning savdosi tushgan edi. Kimki buning vasliga yetishni orzu aylib, shu haqda gapirishni istasa, u shoh yoki shahzoda va yoxud har qanday ishda tengi yo'q odam bo'lishidan qat'i nazar,

gulchehra unga shunday shart qo‘yar ediki, bu shart u bechoraning mehrini yana alangalatib yuborar edi. Yoki nogahon uning hisor – qo‘rg‘oniga yaqinlashib, to‘y va aql – nikoh haqida gap ochsa, u malika makr, adovat rejasini tuzar, oshiq bechora esa, buning uchta hisorini hech bir tadbir bilan ololmas edi. Masalan, bordi-yu, birinchi qo‘rg‘onga yetib kelsa, Qatronga qarshi kurashuvi, uning qo‘l-oyoqlarini boshdan-oyoq band qilishi, shundan so‘nggina uning darvozasini ochib kirishi shart edi. So‘ngra, ikkinchi qo‘rg‘onga yo‘l oladigan bo‘lsa, u yerdagi hakimning savoliga javob qaytara bilishi lozim edi. U nimani so‘rasa, shuning hammasiga aniq va ravshan javob bersagina u yerdagi mushkul oson bo‘lib, ikkinchi qo‘rg‘onni ham fath etib olishi ehtimol edi. Undan so‘ng, uchinchi qal‘aga tomon ot qo‘yishi lozim ediki, bu darbandda haligi afsungar makkora kampir bor edi. Uning sehru nayranglarini ilm-hikmatning qudrati bilangina botil qilib – yo‘qqa chiqazish mumkin edi. Sehrni botil qilib – buzib tashlagach, uchinchi qal‘ani egallasa bo‘lar edi. Mana shu uchta hisorni fath etib, unga o‘zining g‘alaba bayrog‘ini tikkan odamgina u qasr ichidagi go‘zal malikani o‘ziniki qilib olishi mumkin edi. Aksincha, qaysi bir qo‘rg‘onda yengilib – asir bo‘lib qolsa, toshyurak malikaning amri bilan, uni hech bir ayamay qatl etar edilar. Berahmlik va xunrezlik tig‘ini uning bo‘yniga tortib, o‘sha onda halok qilib tashlardilar. Qonga belangan tanasini itga tashlagan holda, boshini qasr kungirasiga ilib qo‘yar edilar. Bu yetmagandek, u marhumning moli mulkini talab, qarindosh-urug‘larini o‘z diyoridan quvlab chiqazar edilar. Kunora shu xifda bir bechorani umri va jonidan mahrum etar edilar. Qasr kungiralarining ustida qanchadan-qancha boshlar xuddi toshdek uyulib yotardi.

Lekin sen hech bir qayg‘urma, otingni vahima dashtiga qarab surma. Zero, haq u go‘zal ofatni senga nasib aylamish, yor visoliga yetishing uchun ham fursat yetmishdir. Men nimani ta‘lim bersam, hech qanday xavf-xatarsiz sen uni amalga oshirmog‘ing darkordir», dedi va yana: «Bularni yodingdan chiqazma», degan gaplarni ham qo‘shib qo‘ydi. So‘ngra, yonida bir xosiyatli muhra (toshcha) bor ekan, shuni olib, uning qo‘liga berdi. Nihoyat, yana bir parcha qog‘ozga xat yozib, uni ham Sa‘dga taqdim aylab dediki:

«Tur o‘rningdan, endi tezda yo‘lga tush, ushbu ikkita Xizrsifat hamrohing rahbarligida Shahrizabzga tomon yo‘l olinglar, o‘sha diyorga borib yetguncha hech yerda dam olmanglar. U yerga yaqinlashganingizdan so‘ng u ikki ko‘k kiyim kiyganlar, ikki farishtadek, shohning oldiga borib, sening boshingdan kechgan butun ahvolni ipidan-ignasigacha unga arz-bayon qilsinlar. Shoh sening muddaoyingni boshdan-oyoq tushungach, boshlab, Qatron bilan olishib, jang qilishni buyuradi. U bilan kurash paytida, hozir qo‘lingga yozib bermish duoimni, zinhor-bazinhor tinmay takrorlab turgin, muhrani esa og‘zingga solib tupuringni tinmay xasm tarafiga qarab tupurib turgin. Bu yozuvdagi duolar sening shavkatingni oshirgani holda, dushmaning vujudidan quvvatu tob-toqatni tortib oladi. Muhralik og‘zingdan chiqib, dushman tomon sachragan tupuk esa, xasmingning uyqusini

keltirib elitib qo'yadi. Shu zangini mag'lub qilsang, «murod-maqsadim yuzaga chiqdi», — deb quvonaver. Axir, o'sha devsar zangi mag'lub bo'lishi bilan birinchi qo'rg'onni fath etib, qo'lga kiritgan bo'lasan. Keyin, ikkinchi bekik qo'rg'on sari qadam bossang, u yerda Iso-Masiho nafasli tabarruk kamolot egasiga ro'baro' bo'lasan. Avval, u senga malika haqida va unga muftalo bo'lib, xarob va halok bo'lgan hechoralalar haqida hikoya qilib, seni bu yo'ldan qaytishga undaydi. Shu paytda sen haligi men yozib bergan maktubni unga taqdim et. Shu xatni o'qigach, u seni e'zozlab, men kabi mehribonchilik bilan yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Sen shunga xursand bo'lginki, u aql egasi mening shogirdim va farzandimdir. Xatni o'qigach, u menga shafqat va marhamat yuzasidan, u afsungar kampirni ham daf qilish chorasini topadi. Uning sehr-jodularini botil va bartaraf etgach, sening barcha murod-maqсадlaring hosil bo'lg'usidir».

Shu gaplarni boshdan-oyoq gapirib bo'lgach, Sa'dni bag'riga bosib quchib, manglayidan o'pdi va shodlik bilan yana tubandagi so'zni aytdi: «Quvon, bizni xursand va obod qilding, sen ham obod bo'l. Endi, erta kunni kech qilmay, o'rningdan turib, yo'lga tush. Yo'l yurganda ham biron joyda to'xtamay, jadal yo'l bos!» — deb Sa'd bilan xayrbod ayladi, bu qolib, u shodlik va quvonch bilan yo'lga tushib ketdi. Sa'd tun-kun demay vodiylarni bosar, ikki Xizr sifat zot esa, unga yo'lbo'shchilik qilib borar edilar. Shu yurgancha bular hech yerda tavaqquf qilmay, Kash-Shahrisabzning chegarasigacha borib yetdilarki, uning tuprog'i ham xuddi ko'k osmon singari havorang edi.

Sa'd, u ikki rahbarga, o'zining kelgani haqidagi qissani mamlakat shohiga borib arz va e'lon qilishni buyurdi. O'zi esa, u yerda qolib, yuklarini yechdi va sabzazor ustiga joy solib o'tirib, dam oldi. U ikki kishi shoh huzuriga borib, gap ochishlari bilan, shohning hurmat va e'tiboriga muyassar bo'ldilar. Sa'dning kimligi, hol-ahvoli va qissasini shohga bayon ayladilar. Uning fazl-kamolotini ham bekam-ko'st tavsiflab berdilar, qisqasi, shohni hamma narsa va voqealardan xabardor ayladilar.

Shoh bu ikki kishini ham yaxshi tanir edi, boshqacha qilib aytganda, bular shohning xodimi va yaqin do'st — mahramlari edi. Bularning sidqidildan gapiruvchi rostgo'y odam ekanliklarini ham shoh bilar, binobarin, ularning butun gap-so'zlariga shubhasiz ishondi va qanoat hosil qildi. Sa'dni ko'rmasdanoq shoh unga mushfiq va mehribon bo'lib qoldi, chunki bu ikki kishi nihoyatda sadoqatli va shoh huzurida baland e'tiborga ega odamlar edi. Shundan so'ng, o'z xizmatkorlariga:

«U tomonga borib, ertaga mehmonni boshlab olib kelingiz!» — deb farmon berdi.

Ertasiga mehmonni olib keldilar, uni keltirish bilan shohni xotirjam qildilar. Shoh Sa'dning sevimli diydorini ko'rib, o'z ko'nglida unga nisbatan mehr va muhabbat his etdi. Bular bir-birlarini e'zozlab ko'rishishdi, so'ngra, Sa'd yer o'pib, yana unga hurmat izhor ayladi. Undan keyin, mehmon oldiga shohona taomlar tortilib, hamma undan yeb-ichib lazzatlandi va qanoat hosil qildi.

Yuqoridagi ikkita odam Sa'dning muddaosi nimaligidan shohni xabardor qilgan edi. Binobarin, shoh Sa'dga qarab:

«Borib dam olgil, charchagan ekansan, yo'l hordig'ini chiqazgil. Bugun yaxshilab dam olgach, tong-la qo'rg'onga qarab yurish qil», — dedi. Sa'd yer o'pib, u yerdan chiqdi va o'z istiqomatgohiga borib, xursandchilik bazmiga mayl etdi. U, mohchehra sanamning xayoli bilan ko'ngli istagancha may ichdi. To kechaning bir-ikki qismi o'tguncha ishq va boda uning yuragini qizdirar edi. Boshini may, ko'nglini mahjub visoli aylantirgani holda, yor ko'yini istar edi. Bazm ahllarining hammasi mast bo'lib qoldi, ularning barchasi birin-ketin uyquga toldi.

Sa'd may ta'siri bilan uydan chiqdi, ko'ngli esa, dildor visolida edi. U, beixtiyor yorining tarafiga qarab yo'l oldi, mastona holatda u turgan qo'rg'onga tomon borar edi. Sa'dning bu xilda yurishidan uning odamlari g'ofil va bexabar bo'lib, u shu qorong'u kechada mast va behush kezar edi. U, yiqila-surila, qo'rg'on atroflarini aylanar, oshiqona oh-nolalar chekar, ko'ngli har nafasda qo'rg'onga kirishni istar edi.

Mana shu paytda xunxor zangi qop-qora tumanday tog' orasidan chiqib keldi. U qal'a devorini aylanib qo'rg'onni qo'riqlar, hech qanday qo'rquv va xavf-xatar nimaligini bilmas edi. To'satdan uning qulog'iga bir tovush eshilib, g'azabidan boshiga tutun chiqib ketdi. U tezda o'z qo'liga qonto'kar xanjarini olgan holda, tovush eshitilgan tarafga qarab yugurdi. Shunda u hech qanday es-hushi yo'q, nolayu fig'ondan o'zga narsani bilmaydigan mast kishiga yo'liqdi. Avval uni o'ldirmoqchi bo'lgan bo'lsa ham so'ngra, pinhoni bir xayol bilan: «Bu kecha uni bog'lab qo'yayin, tong-la olam yorishgach, ma'arakayi maydonga olib chiqib, ko'pchilik o'rtasida u bilan kor-zor qilayin, butun xalq va katta-kichik o'rtasida uni beomon zarb bilan o'ldirayin. Bu holni ko'rib, butun g'animlarning ko'ngliga vahima tushsin, mening g'olib chiqqanimni ko'rib, dushmanlarim xavf-xatarda qolsin», degan xayol bilan xursand bo'lib, Sa'dning oyog'iga kishan solib, zanjirband qilib tashladi. Qal'aning tashqarisida bir g'or bo'lib, u xuddi qora go'r og'zini eslatar edi. Oyoq-qo'li bog'langan Sa'dni, zolim zangi mana shu g'or tubiga tashlab, g'orning og'ziga bir og'ir toshni bostirib qo'ydi. Naxs-bexosiyat zangi hali qal'aga kirmasdan mast Sa'd g'or ichida uchib qoldi.

Subhidamda u uyg'onarkan, o'zining qanday ahvolga tushganini bildi va xayolga cho'mib, kechagi hol-ahvoli yodiga tushdi. Shunda, hov, o'sha ko'rgan tushlari uning esiga bir-bir tushib, birinchi qushning aytgan gaplarini ta'bir qildi. Dono pir bir xat haqida gapirgan bo'lib, zanjirband bo'lganda uni takror-takror o'qishni buyurgan edi. Sa'd uni o'qishi bilan a'zoyi-badaniga shunday bir quvvat kirdiki, bir hamlada oyoq-qo'lidagi zanjirlarni uzib sindirdi va g'orning og'ziga bostirilgan toshni ham olib tashladi va qo'liga xanjarini olgani holda yo'lga tushdi. U xuddi yel kabi tezlik bilan yugurib borar edi, nihoyat o'z manzilini topib, xotirjam bo'ldi. U yerda do'stlari bag'oyat g'amgin va muztar bo'lib o'tirar edilar. Ularning barchasiga xotirjamlik bilan taskin va tasalli berdi. U asta-

sekin va kamtarlik bilan yo'lga tushib, va'da qilgan joyiga borish uchun otlandi. Shoh ham maydonda bo'lib, devsor zangi kurashish uchun jang maydonida javlon urib turar edi. Ugina emas, Mohruh go'zal ham minora ustiga chiqib, porloq quyosh Zuhul yulduziga boqqanday boqib turar edi. Yuz tuman xalq u tarafda o'tirgan holda, Sa'd bechoraga achinar edilar. Dev esa, tutqun Sa'dni chiqazib, ko'pchilik o'rtasida halok qilish niyatida edi. Sa'd jang maydoniga tushayotganida, zangi uni zindondan olib chiqish uchun, qora g'or ichiga qarab yurdi. Sa'dni ko'rib, xalq hayratga tushdi. Qatron ham o'z bandi-zindonini g'ordan topolmadi. Bu hol Qatronni shunday ajablantirib qo'ydi, qahr-g'azabidan uning vujudiga o't tutashdi. Zangi g'ordan chiqib, to'satdan Sa'dni ko'rarkan, beixtiyor unga yugurdi. Sa'd ham otidan tusha solib, Qatronning yo'lini to'sdi. Xizrning duo va tarbiyati Sa'dga shavkat va shijoat bag'ishlagani tufayli, u qarshisidagi harifidan kuchsiz emas edi. Ikkovlari kurash maydonida shunday olishar edilarki, go'yo kuchlari bir-birlaridan ortiq-kam emas edi. Shu orada Sa'd yonidagi muhrani og'ziga solib, suvini dushmani tomon tupura boshladi. Bu tupuk Qatronga shunday ta'sir qildiki, natijada zangini beixtiyor uyqu bosib qoldi. Uning ko'zi uyquga ketarkan, Sa'd uni yerdan ko'tarib olib, charxpalak kabi boshida aylantira ketdi. Buni ko'rgan xalqning girev – qiyqirig'i osmoni falakka yetdi. Uni boshi ustida aylantirib-aylantirib shunday urdiki, yerga yopishib qoldi. Buni ko'rgan tomoshabinlar junbushga kelib, falak gumbazini aksi sadoga keltirdilar. Sa'd uni yerga qo'yib, xalqqa tubandagicha savol aylab: «Yana nima qilay? Marhamat aylab buyuring!» – dedi.

Shundan so'ng, tezda uni hakimning huzuriga boshladilar. Sa'd jadallik bilan qadam bosib borar edi. Avvalgi qo'rg'onidan ketar ekan, Sa'd Qatron bo'ynidan o'z bandini oldi va ikkinchi qo'rg'on darvozasiga qarab ot surdi. Uni ko'rarkan, hakim mot bo'lib qoldi. Sa'd esa, shu onda Faylaqus hakim yozgan maktubni unga taqdim etdi. Xatni ocharkan, ustodining otini ko'rib, o'pib, yuzini yerga qo'ygani holda, sajdayi shukrona ayladi. U o'qib bildiki, ustoz bu xatda o'zining va Sa'dning hol-ahvolini bayon qilmish ekan. U qog'ozga Sa'd haqida shunday si'porishlar bilan qalam tebratgan ediki, hakim uni o'qishi bilanoq barcha ahvoldan xabar topib, Sa'dning bosgan izini o'pgisi kelib qoldi. Shunda u: «Mening senga biron gap aytishga haddim ham va ilojim ham yo'q», – dedi. Daryodil pir kampirning sehrini buzib botil qilish haqida yozmish edi. Bularning ikkovi shu gaplarni muhokama qilarkan, el-ulus bu suhbatni yiroqdan tomosha aylar edi. Shunda dono hakim:

«U kishining kampir deganlari men tomondan kampirga o'xshatib, yasalgan shakl-haykal bo'lib, uning atrofiga sehr bilan ishlangan latta-puttalarining barchasi ko'zga ko'ringani bilan o'zi mavjud emasdir. Sen o'sha qo'rg'onga qarab yurib, darvozadan o'tish bilan, u kampirning ko'ksiga bir urginda, mahraming haramiga kirib, visolini tomosha qilaver», dedi.

Alqissa, hakim ham o'z tarafiga o'tib, qarshilik o'rniga yo'l-yo'riq ko'rsatgach, Sa'd yana shohga murojaat qildi:

«Endi yana nima ish qilayin, navbatdagi vazifam nima? Ayting, bilayin!»— dedi.

Hakim ham Sa'dga yor bo'lgani holda, kampir tarafiga yo'l hoshladi. Garchi u yerga biron kishining kirishi mahol bo'lsa ham, kampir bo'lgan darbozaga borib, osonlikcha ichkari kirishdi. Shunda, bu ishlarni tomosha qilayotgan shahar xalqining g'ala-g'ovuri hammayoqni tutib ketdi. Zero, kampir atrofida juda ko'p balalar bor bo'lib, ular orasida og'zidan o't sochib turgan ajdaholar ham ko'rinar edi. Sa'd hech qanday xavf-xatarsiz shaxt qadam bilan borib, o'sha vahimali kampirning ko'ksiga zarb bilan urdi. Kampir chayqalib, o'z yeridan qo'zg'alib ketdi va shu onda barcha a'zolari bir-biridan ajrab, to'kilib tushdi. U ko'rinishda odamga o'xshash bo'lgani holda, lattalarni bir-biriga yopishtirish bilan tiklangan yasama odam edi. Afsun va jodugarlik bilan ipni ajdahoga, kiyimlarini rango-rang tusga va olov shakliga aylantirilgan edi.

Bu sehlarni boshdan-oyoq botil qilib, ko'zbog'lag'ichdan iboratligini fosh etgach, Sa'd yana shoh huzuriga xirom ayladi. Shoh uni quchoqlab, yuzlaridan o'pdi va uni farzandu o'zini ota deb e'lon qildi.

Shohning jahonoro bir gulshani bo'lib, otini «Ravzayi hazro» (yashil bog') deb qo'y mish edi. Shu bog'da bir qasr bo'lib, buni «Qasri axzar» (yashil qasr) der edilar. Shoh shu bog' ichidagi qasrda xalqqa to'y berib, Shahrisabz elini shod, masrur ayladi. Shu kecha, quyosh bilan tong yulduzi uchrashganidek, farishta bilan pari ikkovlari bir-birlarining visoliga erishdilar.

Ko'p o'tmay ozoda shoh ham dunyodan o'tib, shahzoda Sa'd uning o'rniga shoh bo'lib o'tirdi. U, o'z libosini ham, toju taxtini ham ko'k bilan bezagani kabi, ikkita ko'k kiyimli kishini ham o'ziga vazir qilib olmish edi. Gulrux esa, xuddi bo'ston sarvi singari, rayhoniy rang ipaklikdan libos kiyib olgan. Sa'd umr bo'yi shod-xurramlik bilan hayot kechirgani kabi, uning adolati soyasida mamlakat ham gullab-yashnab ketdi.

Yashil rang — bahor rangidir, sabza va o'tloqzor rangidadir. G'am ajdahosi elni azoblagan edi. U gazandaning ko'zini esa, zumurrad qadahdagi may ko'r qildi. Sho'x pari sarvdek so'lim bo'lib ketdi, uning sabzadek mavj urgan yuzi elni halok qilar edi. Xizr yashil rangga belangani tufayli, abadiy umrga ega bo'lgani ajablanarli emas.

Nihoyat, roviy qissasini shu yerga yetkazgach, Bahrom: «Ey mahoratli musofir, asli zoting kimligini bayon ayla!» dedi.

Roviy aytdiki: «Ey, baland taxt egasi, men Shahrisabz xalqining farzandiman va Sa'dning avlodidan bo'laman».

Uning kimligi ayon bo'lgach, shoh uni Shahrisabzga voliy hokim qilib tayinladi. Musofirni qayg'udan ozod qildi, o'zi ham osuda uyquga ketdi.

XXVI

Seshanba kuni Bahromning gulgun libos bilan gulnoriy qasrga kirib, shafaqgun hullalik (liboslik) xurshid bilan yoqutfom qadahda la'l

rang may ichgani va u la'lu yoqutdan shodlik uyqusini keltiradigan doru sifatida foydalanib, maydan qizargan ko'zini yumgani

Seshanba kuni tez yuruvchi osmon yulduz uchqunlaridan olamga gul sochdi. Ko'hna charx ra'no rangga kirib, qizg'ish bulut bilan yuziga xina bog'ladi.

Shoh Bahrom gulgun to'n kiyib, gulgun uy ichiga gulgun taxt o'rnatdi. U gulgun qasrga kirarkan, ko'ngli gulrang boda ichishni istab qoldi. Sarv gulchehra shohning istiqboliga chiqarkan, uning barcha liboslari gul kabi qizil ipaklikdan edi. U gulrang taxtga o'tirib, la'l rang jomga gulfom boda quydi. U, shoh bilan gulgun may no'sh qilarkan, may ularning chehrasini gul-gul ochiltirib yubordi. Shu o'tirganicha bular gulruksor quyosh tog' cho'qqisidan o'z yuziga parda tortguncha ichib o'tirishdi. Boda ichaverganidan shohning ko'zi qizarib ketgan bo'lishiga qaramay, ko'ziga uyqu kelmas edi.

Lekin katta yo'lda turib, uchragan sayyoh va musofirlarni shohning huzuriga olib kelish uchun tayinlangan ma'murlar, so'zlaganda kishini sehra qo'yadigan bir jahongashta afsungarni topdilar hamda uni olib kelganliklarini arz qilish bilan, shohning bu haqdagi hukmini ijro etdilar. Shoh:

«U parda orqasida o'tirib, dasht-biyobonlarni sayr qilib yurganda ko'rgan-kechirganlarini boshdan-oyoq gapirib bersin!»— dedi. Sayohatchi ham bu hukmni eshitarkan, hamd-sano bilan so'z boshlab: «Shohning baxt-iqboli chegarasiz bo'lsin, yuzi doim saodat jomi to'la may bilan gulgun yashnasin. O'zi ilgida arg'uvoniy-qizil may bo'lgani holda, itining oldidan dushman qoni arimasin!»— deb duo qildi.

XXVII

*To'rtinchi iqlim yo'lidan keltirilgan musofirning suxanguzorlig'i
(aytgan so'zlari)*

U musofir duo bilan so'z boshlab aytdiki: «Qadimgi zamonda Dehlida bir shoh o'tgan bo'lib, u, dunyo shohlarining eng yagonasi-yu, dunyoning butun kishvari uning hukmi ostida edi. Uning xazina va dafinalarining nihoyasi yo'q, mamlakat va xalqining haddi-hisobi ham yo'q edi. Mamlakatining maydoni kenglikda charx — osmon bilan baravar. O'zga shohlarning otidan ham fili ko'p edi. O'zining adlu insofi bilan boshqa shohlardan ajrab turadigan u shohning nomi Juna edi. U elga in'om-ehson berish bilan mashhur bo'lgani tufayli, butun olam uni saxovatkor shoh deb bilardi. El-ulusning farovonligi uchun yuz minglab oltin-kumush va xazinalarni ayammasdi. So'z san'atkorlari agar bir badiiy asar yaratsa, ularga ham mukofot tariqasida xazinalar ato aylardi.

Uning haqida shu hikoya mashhurki, charxning bu ko'hna dunyosidan boshini olib uzlatga chekinmish va tog'u toshu daryoyu dengizlarni bosib o'tmish bir muhtoj odam kunlarning birida unga

bir savat olmurud olib kelardi. U olib kelgan narsasining muzdini — haqini bir necha kunlab kutishiga qaramay, javob bo'lmaganidan, g'oyatda diltang edi. Bir kun shoh: «U bechorani topib, nimaga muhtojligini so'rang!» — deb buyurdi. Buni surishtirilganda, gado: «Men bir arra-yu, bir teshaga muhtojman, xolos», — dedi. Shoh bu gapning tagida ne mazmun borligini surishtirdi. Shunda u faqir: «Hikmat shundaki, qayerda shu kabi meva daraxti bo'lsa, hammasini kesib, nobud qilib tashlamoqchiman!» — dedi. Shoh bu gapning zamiridagi ma'noni tushunib, bir mamlakat molini unga baxshish qilib yubordi. Bu berilgan dunyoni hisoblaganda o'n lak (yuz ming)ga baravar kelar, har bir lak esa, o'n tuman (o'n ming)dan iborat edi. Binobarin, vazirlar bir bahona topib, shohni unga berilayotgan xazina tomon olib bordilar. Ular: «Agar shoh bu xazinani o'z ko'zi bilan ko'rsa, gadoga berishdan qaytib qolar», — degan xayolda edilar. Shoh borib, uni ko'rarkan, vazirlar ne muddao bilan bu xazina tepasiga olib kelganini fahmlab: «Bu oz ekan, ikki baravar qilib ko'paytirib beringlar!» — deb buyruq qildi. Shohning bu kabi in'om-ehsonlari o'n, yuz va minglab edi.

Himmatining darajasi charx yanglig' haland, ehson bulutidek dur sochuvchi bo'lmish shoh bir kun bir g'arib mehmon bilan suhbatlashdi. Mehmon bir ko'zguni tuhfa qilib keltirmish edi. U fanhikmat mo'jizasi shunday ajoyib ediki, kim unga boqib turib so'zlasa, gapi chin bo'lsa, yuzi oq va yolg'on bo'lsa qaro bo'lib aks etar ekan. Bu oynani ancha kishi ozmoyish qilib ko'rdi, tajriba haqiqatan uning yuqoridagi hikmatga ega ekanligini tasdiqladi. Shoh u oynani keltirmish kishiga shunchalik ko'p mukofot berdiki, boshqalar uning o'ndan birini ham bermas edi. U shuncha mol-dunyoni ehson qilgach, so'zining oxirida tubandagicha savol ayladi:

— Sen olamni boshdan-oyoq kezgan va olamda ko'pgina odamlarni ko'rgansan, — dedi shoh. — Lekin, qani, ayt-chi, dunyoda men kabi bir saxiy bo'lganini eshitganmisan va yoki mendek bir saxovatkorni ko'rganmisan?

Shohning bu savolini eshitarkan, u behad andishaga borib, ne deyishini bilmay, o'ylab qoldi. Ha, desa shohga qattiq tegishi, yo'q desa, haqiqatga xilof bo'lishi mumkin edi. Oqibat-natijada chinini aytishdan vahimaga tushib, yolg'on javob berishga qaror qildi. Va:

— Dunyoda men yelib-yugurmagan yer yo'q, lekin, jahonda sendek saxiyini ko'rgan emasman, — dedi.

— Shu rostmi? — dedi shoh.

— Rost, — deb javob berdi sayyoh.

— Buni ko'zguga qarating! — dedi shoh.

Uni oynaga qaratgan edilar, oyinada yuzi qaro bo'lib ko'rindi. U xijolatidan yerga qarab qoldi, shoh ham bu holatdan sharmisor bo'lgani holda dedi:

— Ey go'zal xulqli sayyoh, sening uyatingga biz sababchi bo'ldik. Yolg'on gapirganing uchun ko'zguda yuzing qaro ko'rindi, bizdan andisha qilmay, chinini aytaver, yaxshi bo'ladi.

— Ko'rdim, — dedi sayyoh.

– Ko'zguga boq!– dedi shoh. Ko'zguga boqqan edi, yuzi oq – aslicha ko'rindi.

– Ayt!– dedi shoh.— Bu kabi saxovatkor odam kim ekan?

– Ey baland taxt egasi!– dedi roviy.— Buni aytmasdan endi ilojim yo'q. Buning hikoyasi juda uzun, binobarin, hammadan xoli – xilvat joy bo'lsa yaxshi edi. – Shunda, shohning amri bilan majlis ahli chiqib ketib, shoh bilan roviyga uy xoli bo'lib qoldi. Keyin roviy rivoyatni shunday boshladi:

– Hindistonda bir shahar bor bo'lib, u olamning jannatiga o'xshaydi. U shahar sening mamlakating ichida bo'lib, u yerning mol-dunyosi har yili sening xazinangga kelib tushadi. Uning tavsifi benihoya go'zal bo'lib, nomi Tarozdir. Ko'rinishi esa kishini maftun etadigan darajada dilkashdir. Shoyad sen u yerlarni ko'rgan, juda bo'lmasa, vasfini eshitgan bo'lsang. – Shoh aytdiki:

– U shaharni ko'rgan emasmanu, lekin el-ulusdan ta'rifini eshitganman. Sen hadisingni boshlab, ko'rgan-bilganlaringni aytaver.

Keyin roviy shunday hikoya qildi:

– U behishtoso bir shahar bo'lib, u yerdagi dov-daraxtlar ham xuddi jannatnikiga o'xshab, falakka barg yozib turar edi. Bu shahardagi bog'-bo'stonlarga, Kavsar suvini eslatadigan, har tarafga Salsabil daryosidek oqib turadigan anhorlar suv berar edi. Havosi ravza (jannat)niki singari jonparvar, suvlari kavsarniki kabi ravon oqar edi. U yerdagi odamlarning kasb-hunari bog'-rog'lar qilib, ularga oro berish va parvarish qilishdan iborat bo'lib, o'rmonlari ham bog'laridan go'zalroqdir. Bu shaharda biron kishi yo'qki, uning bo'stoni va gulistoni bo'lmasa. Har kishi o'z bog'ini holi-qudratiga yarasha gullatib-yashnatgan va zeb-oro bergan. Shoh o'ziga adolatni fan qilib olgani tufayli, el-ulus shu xilda boyib, farovon hayotga ega bo'lgan. Shahar va ko'chalar ham gulzoru ko'kalamzor bo'lib, behishtdek obod, eli erkin va ozod, uylari ham qasr – koshonani eslatadi. U xalqning mol-dunyosi shunday ko'payib ketganki, xazinalarini qo'yishga vayrona topolmaydilar.

Bu shaharda bir yosh yigit bo'lib, uning tavsifini minglab so'z san'atkorlari ifodalay olmaydilar. Husnda uni mehri osmoniy desa bo'ladi. Lutf-marhamatda esa, obi hayotning o'zginasidir. U hali yoshgina-yu, ammo ilm-kamolotining chegarasi yo'q. Asli yaratilishda u to'la aqlga, tug'ma kamolotga ega bo'lgan. Uning pok tabiati soflikda xuddi ko'zgudek yorug' va jo'yagida sabzalar mavj urib turgan ariq suvidek tiniq. Uning har qanday gapga aql-farosati yetadi, gaplarining zamirida esa chuqur hikmatli ma'nolar yotadi. U, iste'dodi zo'rligidan, hamma fanni osonlik bilan egallab olgan, shu jihatdan, fan ahllarining unga ehtiromi benihoyayu ixlosi baland. Bunchalik saodatmand odam yo'q darajada. Uning yulduzi sa'd – baxt bo'lganidek, oti ham Mas'uddir. Tangri taolo undan fazlu kamolotni ham, molu dunyoni ham – hech narsani ayamagan. Agar u gulrang boda ichish uchun gulzorga kirar ekan, hamma gullar yashnab, ochilib, uning bazmida munis-ulfatga aylanadilar. Gullar uning oyog'idan-boshigacha o'z barglarini sochib, boshdan-oyoq gulga o'rab tashlaydilar. Gardunfalak gul faslini tugatarkan, u gul bargiga

o'xshagan harir matolardan gulgun liboslar tiktiradi va unga muattar hidli mushk va atirlar sepadi. Kiyimlarining rangi xuddi gulu gul bargiga o'xshagani kabi, o'tiradigan joyi ham gulfom va shinam qilib bezatilgan. Rahba (sahna)larda bir necha gulchehra go'zallar osmon ayvonidagi quyoshga o'xshab, raqs tushadilar. Ularning yuzlari ham gulgun, rang, upa-elik bilan pardozlangan bo'ladi. U har qachon o'yin-kulgiga berilib, gulfom qasrning sahnasida bazm tuzadigan bo'lsa, aysh-ishratning guli ochiladi, boshidan gullar sochiladi. Uning bazmini kim tomosha qilgan bo'lsa, jannatdagi firdavs bog'ini orzu qilmay qo'yadi. Uning ishlarini qisqa va chalakam-chatti bayon ayladim. Yo'q, yuzdan birinigina, jasta-jasta (yakkam-dukam) tasvirladim. Uning saxovati haqida men og'iz ocholmayman, mengina emas, yuzlab hotamlar tirilib kelsa ham, baribir uning saxiyiligiga tan berishlari shubhasizdir».

Hikoya aytuvchi musofir shu yerda o'z nuktasini bas qildi, ammo bu qissa Junaning sabru qarorini olgan edi. Uning xayolida bu nodiri davron yigit tomoniga borib, barcha ishlarini o'z ko'zi bilan ko'rish havasi tug'ilgan edi. Binobarin, Juna:

«Men bir hafta dam olmoqchiman, bu fursatda haramsaroyda (kanizlar xonasida) may ichib, orom olg'umdir. Xizmatkorlarimga ham ozodlik beraman, ular ham o'z uylarida bola-chaqalari bilan o'ynab-kulsinlar»,—dedi.

Odamlarini shu bahona bilan tarqatgach, baxtiyor shoh haligi tarafga qarab azm etishga jazm qildi. Haramini o'ziga xos kishilarga topshirdi, ularning har biriga aytadigan gaplarini aytdi va zarur ishlarni buyurdi. Uning bir oti bor edi, tezlikda unga yashin ham bas kelolmasdi. Shu jihatdan uning otini «Sarius-sayr» («Tez uchar») deb atagan bo'lib, uchishda quyunni ham orqada qoldirib ketardi. U haftalik yo'lni bir kunda bosar, yana shuncha yo'lni bir tunda kezar edi. Botir shoh kiyim-kechaklarini va qiyofasini o'zgartirib, o'zini birov tanimaydigan shaklga kiritib, o'sha otiga sakrab mindi. Jahd-jadal bilan yurib, yuz yig'och yo'lni ikki kunda bosib, ko'zlagan manziliga yetib oldi. Bu shunday shahar ediki, go'yo behisht bog'ining o'zi bo'lib, tuprog'i xushbo'ylikda ifordan qolishmasdi. Yuqoridagi musofir qanday ta'riflagan bo'lsa, zeb-ziyatda undan yuz karra ortiq edi.

Juna Mas'udning ziyofatida yeb-ichib rohatlanish niyatida ekanligini aytib, uning uyi qayerdaligini so'radi. So'ngra, unikiga borib qarasa, uyi buyuk bir qasr bo'lib, uning shiyponu ayvonlari osmon kabi baland va muhtasham ekan. Hovlisi odamlarning g'ala-g'ovuri va qiy-chuvlari bilan to'la. Eshikda bir qancha mulozimlar kelgan mehmon-musofir g'arib-g'uraboni kutib olish, ularga xizmat qilish bilan band. Ular Junani ham bir g'arib musofir deb o'yladilar va lekin hoi-ahvol so'rasharkan, bunchalik emas, deb bildilar va oldiga tushib, ichkariga boshladilar, uni izzat-ikrom bilan mehmonxonaga olib kirgach, otini ham otxonaga bog'lab, o'zini qasrga tomon yo'lladilar. Bu qasr mehmonxona bo'lib, to'shama va paloslarining hammasi shohona edi. Junani shu yerga o'tqazib, oldiga guno-gun noz-ne'mat va taomlar tortdilar. Shu

orada mezbon ham uning huzuriga kirib, «Xush kelibsiz!»— dedi. Ko'ring, qanday ulug' mehmonu qanday olijanob mezbon, hayhot! Mas'ud mehmonni e'zozlab kutishda juda nodir edi. U Junaga bag'oyat odamgarchilik ko'rsatdi. Uning go'zal xulqi va barkamol aqli Junani ojiz qilib, hayratda qoldirdi. U izzat-hurmat vasi porish bilan uning ko'nglini so'rab bo'lguncha, mehmon ovqatlanib, taomdan qo'lini artdi. U Junaning ko'ngli va ra'yini bilib olish uchun ko'p iltifotlar ko'rsatib: «Ko'nglingiz may — boda istamaydimi?» — deb so'radi. Uning rag'bati borligini bilgach, xursand bo'lib, dasturxonni xilma-xil maylar bilan bezadi. U shunday bir ajoyib ziyofat va bazm tuzdiki, bunday o'xshashi yo'q bazm bo'lganini ko'hna falak ham eslolmasa kerak.

Qasr yonida bir hammom bo'lib, uning to'shamlari yashil va kulrang marmar toshlardan yasalmish edi. Shisha o'rniga go'yo olamga nur sochib turgan quyosh o'rnatilgan. Hovuzlari ichida esa suv o'rniga gulob oqizib qo'ygandek edi. U mehmonni shu hammomga kirib, yo'l gardi-g'uboridan badanlarini yuvishga iltimos qildi, shoh bunga juda talabgor edi va joni-dildan qabul ayladi.

Juna hammomga kirishi bilan u yerdagi go'zallik, qulaylik va yaxshi sharoitlarni ko'rib, rohatlanib ketdi. Zero, bunday ajoyib hammom buning mamlakatida yo'q edi. Binobarin, insof yuzasidan, Mas'udga tan berdi. Hammomning toslari zarnigor va quyosh misol bo'lib, uning dastalari xuddi oy singari kumush rang edi. Lungilariga mushk va anbar kabi iforlar sepilgan, qoziqlar oralig'ida ip emas, zar tolalari tortilgan. Hammomning xizmatkorlari yangi ochilgan gulga o'xshaydilar, o'zlari hammomda bo'lsalar ham parini eslatar edilar. U yerdagi har bir xodim dilkash, qiziq va xushsuxan bo'lgani kabi, har bir narsa go'zal va inja-nozik edi. Ozoda shoh mana shu pokiza hammomda yuvilib, vujudini yo'l gardidan pokladi. U, hammomdan chiqmoqchi bo'larkan, uning uchun toza, gulfom hullalar keltirib qo'yilgan bo'lib, mehmonning bu kiyimlarni kiyishi zarur edi. Juna gulgun harir kiyimlarni kiydi. Endi uning to'ni ham Mas'udniki bilan hamrang bo'ldi, shundan so'ng, Junani bazmgohga qarab olib bordilar.

Bazmdagi noz-ne'matlar xuddi behishtnikiga o'xshar, soqiylari huru mayi kavsar suvini eslatardi. Shohni mehmonxonaga boshlab olib kelingach, avval uni o'tqazib, keyin ehtirom bilan Mas'ud o'tirdi. Majlis ahlining barchasi gul yuzli bo'lgani kabi, hammasining libosi ham gulnoriy edi. Mas'udning ishorasi bilan qaddi-qomati kelishgan soqiy mehmonga gulgun boda tutdi. Ichish boshlanib, paydar-pay bir necha qadah aylangach, may majlis ahlining boshini qizdirdi. Shoh o'z zamonining nodir kishisi va ilm-fandan bahramand, g'oyatda bilimdon odam edi. Shunga qaramay, bu yerdagi ajoyib va ko'rkam ziyofatni ko'rib, bazmning shavqi-zavqidan o'zini yo'qotgudek bo'ldi. Shoh har doim o'z hifz-sihatiga rioya qilar edi. Endi, boshi may bilan qizigach, aqliga putur yetib qoldi. Uning ko'nglida sabru qaror qolmadi, gap-so'zlari ham poyintar-soyintar edi. Shohning og'iz qutisi ochilib ketib, ezmalanib, hech kimga gap bermay qo'ydi. U shunday so'zga berilib ketdiki, mezbon og'zini ochib, hayron bo'lib qoldi. Nihoyat, shoh Mas'udga shunday savol bilan murojaat qildi:

«Ey, qutlug' odam, yuzing ham ism-sharifing singari mas'ud va muborak ekan. Men, o'zimni Hindiston ichida emas, olamni sayohat qilib yurgan bir sayyohdek his qilyapman. Bu darajada bilim va salohiyatni, el-ulusga bunchalik hurmat, ularga saxiylik bilan izzat-ikrom qilishni Tangri senga nasib va ro'zi aylamishki, kelgusida himmating bundan ham afzun bo'lg'ay! Jahonda bo'lmish kishilar orasida bunchalik olihimmat kimsani ko'rmaganman. Binobarin, sening olijanobliging qarshisida chuqur fikrga sho'ng'ib – hayratda qoldim. Bunday fazilatlarga sen qaysi yo'l bilan erishding? Shuni aytishingni iltimos qilaman! Aks holda, men sendan xursand bo'lmayman».

Mas'ud aytdiki: «Ey, ochiqko'ngilli odam, sen so'ragan gaplarga mening javob berishim shart. Bilginki, bunday fazilatni menga Tangri ato ayladi. Modomiki, tafsilotini bilishni istar ekansan, javobimni eshit:

Bizga qanday kishi shoh bo'lsa, u Allohning olam ahli boshidagi soyasidir. Tangri shohimizning umrini uzoq qilsin va uning joh-saltanatini boshimizdan olmasin. Bizning podshohimiz nihoyatda adolatli bo'lib, uning adli butun jahon eliga ma'lum va mashhurdir. U zulm iplarini tamoman uzib, adl tuzumini bunyod ayladi. Uning soyayi davlatida zamon ahli tinchlik va xotirjamlikdan o'zga narsa ko'rmadi. Ma'lumingiz, mamlakatda shu ikki holat barqaror ekan, mamlakat eli orasida do'stlik – ahillik rivojlanadi. Hunar taraqqiyoti ham, ilm-fazilatga erishish ham tinchlik va xotirjamlikning sharofatidir. Biz shunday baxtga shohimizning johu hashamati soyasida muyassar bo'ldik. Mening eldan ziyodligim yuqoridagi e'tiqodim bilan farq qilsa kerak. Shuningdek, men hozirgidek baxt va obro'ga ega bo'lishimga ikki narsa sababchi, deb bilaman. Buning biri, Tangrining shukrini bajo qilishim bo'lsa, ikkinchisi, shoh haqiga duo qilib, yaxshi tilak tilashimdir. Bu ikki holatni fahmlamagan va uning shukrini qilishdan g'ofil bo'lgan kishilardan nima hosil kutish mumkin? Men shu ikki narsani fahmlab, qadrlaganim tufayli, hozirgidek baxt va obro'ga muyassar bo'lib turibman».

Bu so'zlar shohning ko'nglini shunday ko'tarib, shodlantirib yubordiki, yuragiga sig'dirolmay, dod degudek bo'ldi. Mas'udga nisbatan uning ko'nglida mehr-muhabbat barq urdi. Uning go'zal xulqi ham shohni hayratga solgan edi. Shoh xuddi ertaklarda tasvirlangandek xushhol bo'ldi. Zero, Mas'ud o'z fasohati bilan hammani lol qilmish edi.

Mehmonning fazlu donishda zamonasining yaktosi ekanini Mas'ud ko'rib, tashrif buyurgani uchun, izhori tashakkur sifatida, unga jonini fido qilg'udek bo'ldi.

Banogoh, Mas'udning har tarafga savdogarchilik qilib ketgan tojirlaridan bittasi shu kuni safardan qaytib kelgan bo'lib, haddan ziyoda foyda keltirgan edi, ammo Mas'udning bu yerdagi foydasi esa, unga necha baravar kelar edi. Mas'udga Tangri bergan foydani bir mamlakat xirojiga teng deyilsa, arzigulik edi. O'z ko'nglini shu xulosa bilan xush qilib, tojir keltirgan foydani shohga peshkash-tortiq qildi. Shoh qissa aytgan musofirning so'zlarini eslab, bu

muomaladan shodlanmadi ham, xafa ham bo'lmadi. Mezbon yana bazm tashkil qilishga kirishib: «O'nta hur omborlarning eshigini ochsin, quvonch bilan xaloyiq boshiga gulchechaklar sochsin!»— dedi. Garchi, u fursat kuz fasli bo'lishiga qaramay, esib yurgan nasim mehmonlar ustidan gul socha boshladi. Hammayoqni atirgullar bilan bezab, mehmonxonani behisht gulistoniga aylantirib yubordi. Gulgun liboslar kiyimish guluzor nozaninlar gulrang jomlarda hammaga may tutar edilar. Shodligidan shohning yuzi gul-gul yongan holda, hayajoni dam-badam ortib borar edi.

Shu asnoda Mas'ud bir tarafga qarab imo qilgan edi, bir guluzor jilva bilan paydo bo'ldi. Uning qo'lidagi jom xuddi xurshiddek bo'lib, bunday jomni Jamshid ham ko'rmagan edi. U go'zal shu qadahni to'ldirib, shohga uzatarkan, u jom uyni xuddi quyosh yanglig' yoritib yubordi, shunda Mas'ud aytdiki:

«Bu jom shunday xosiyatga egaki, bir to'ldirilsa, ichgan bilan bo'shamaydi. Masalan, bu qadahni paydar-pay o'ng tomondan aylantirilsa qancha ichilgani bilan, mayi kamaymaydi. Qadah to'lgach, so'l tomonga aylantirilgudek bo'lsa, ichilishiga qarab kamayaveradi. Bu jomni yasagan olimlar shunday tilsim bilan bezaganlar». Shoh bu qadahni sinovdan o'tkazarkan, unda shu xislat borligini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Bu g'alati jom shohni bodaparast qilib qo'ydi, u ko'p may ichmasdanoq, shoh uning kayfi bilan mast bo'lib qoldi. Saxiy mezbon bu tilsimli jomni ham mehmonga taqdim etdi. Ko'ring, u qanday saxovatpesha ekan! Shoh u qadah bilan may icharkan, xursand bo'lar va mast-alast bo'lguncha ichgani ichgan edi. Shu yo'sunda u kunni tunga uladi, keyin uxlab, orom oldi. Nihoyat, tong rindi (quyosh) sabuhiy qilishga mayl etgach (ya'ni tong otaboshlagach), quyosh mayi (nuri) unga toza ruh bag'ishladi. Shunda, ular ham tongda may ichuvchilar kabi, o'rinlaridan turib, sabuhiy ichish bilan o'z dillarini xushladilar. Bu majlis ham kunduzga ulandi. Bazm shunday qizigan ediki, el o'zining aqlini ham, hissini ham unutgan edi. Bugun guljabinlarning may aylantirishi kechagi kunga qaraganda ham sertakallufroq bo'ldi. Gulgun qarada el boshidan gul sochaverib bazmda o'tirganlarni gulga o'xshatib qo'yilgan edi. Yana Mas'udning ishorasi bilan, xizmatkorlar yugurib borib, bazmga ajoyib sozlar keltirdilar. Soz bilan baravar uni chaladigan dilnavozlar ham keldilar. Bir sarvi guljahinning sozi chang bo'lib, o'zining gul yuzida gulrang parda bor edi. Shuni keltirish bilan Mas'ud: «Sozini qo'lga olib, yuzining pardasini ochib, chalsin!»— dedi. U hur o'tirib, yuzidan burqa'ni ochar ekan, el aqlu hushidan ajrab qoldi. Keyin, changning torini fig'onga keltirarkan, u yerda o'tirganlar jon berdilar. Bu go'zal, shohni ham xuddi boshqalardek asir qildiki, u ham changga qo'shilib, fig'on chekar edi. Mas'ud bu hurni ham shohning oldiga olib kelib, lutf-e'zoz bilan uzrxonlik qilgani holda, tunovi kun molu matolar tortiq qilgani singari, buni ham unga tortiq ayladi. Bu kun ham shu xildagi e'zoz-ikromlar bilan o'tib, yana bazmdagi mastlar ham, sog'lar ham uyquga kirdilar. Yana ertasiga aysh-ishrat davom etib, avvalgi ikki kundagidan ham qizg'in bazm bo'ldi. Yana may ichmoq

va gul sochmoq davom etdi, yana may chehralarda gul ochdi. Zebu ziyinat burungi kundagidan ham ko'prog'u aysh-ishrat undan ham ziyodroq bo'ldi. Yana karamli mezbbon amri bilan shamolga o'xshash chaqqon bir mulozim o'rnidan turib, yugurishda yashinday tez bir ot olib keldi: uning qadami Xusrav Parvezning «Shabdez» nomli otidan ham ildam bo'lib, rangi qip-qizilu oti «Gulgun» edi. U shunday go'zal parivash bo'lib, devsifat, balki dev bilan paridan tarqalgan bir ulov edi. Uning vajohatidan aqlu hush hayratga tushar, u mayni suv o'rnida ichar, nayshakarni esa xashak o'rnida yer edi. Uning har bir tashlagan qadami o'zga otlarning o'n qadamichalik bo'lib, bir kecha-kunduzda yuz yig'och masofani bosib o'tar edi. Kishi xuddi dev-pariga yo'liqqanda o'zini yo'qotganidek, uni ko'rish bilan hamma aqldan ozib qoldi. Mas'ud avvalgi tuhfalari singari, buni ham shohning oldiga olib borib, unga sovg'a qildi. Avvalgi hamma tuhfalardan shoh mamnun bo'lgan edi-yu, ammo bu otdan bag'oyat xursand bo'lib, quvonib ketdi. Bundan tashqari, yana avvalgi ikki kungichalik keladigan mol-hollarni ham xushhol va mamnuniyat bilan mehmonga tortiq ayladi. Yana, kechasi hammalari mast bo'lib qoldilar. Axir, bunday sharoitda har qanday bodaparastning ham shu kabi mast-alast bo'lishi tabiiy emasmi, axir? Nihoyat, yana quyosh junasi (shohi) chehra ochgach, tun hindusining lashkari qochib, tong yorishdi. Shu payt shoh Juna, uyqu aralash ko'zini ochib, mezbbonning tolei kabi baxtiyorlik bilan Mas'udning yoniga kelib, gulga boda qorishtirgandek, suhbatga kirishdi. Shoh aytdiki:

«Ey, zebo chehra do'stim, senga ko'nglimiz bog'idagi mehruhhabbatning chegarasi yo'q. Mehmon bo'lish ham shunchalik bo'lar, lekin o'lguncha unutilmaydigan ajoyib mehmondorchilik bo'ldi. Sendan ajralishning dardi qanchalik og'ir bo'lsa ham, agar ruxsat etsang, qaytib ketar edik. Garchi, kelish kishining o'z istakirodasi bilan bo'lsa ham, lekin ketmoq mezbbonning ijozatiga bog'liqdir».

Hijron so'zi oraga tushuvi bilan Mas'udning ko'ngliga ranj, putur yetdi va dedi: «Ey, sayr-sayohat va mehmonnavozlik qoidalarini biluvchi shoh, bu nima deganing? Sening suhbattingda bo'lish bilan biz bag'oyat xushhol edik, sendan ayrilish esa, bizni xafa va mushavvash qilur. Biz senga ko'ngildagidek va munosib xizmat qilolmadik, o'z karaming bilan bizni afv etgil! Mehr-quyosh yanglig' jamolingni ko'rish bilan shod edik, chuchuk maqolingni eshitib, bahra olayotgan edik. Sen qancha tursang, biz mamnun va masrur bo'lurmiz, agar yo'q, desang nuqsonlarimizni ma'zur tutgaysan!»

Shoh unga ko'p uzrlar bayon qildi, so'ng, xayr-xo'shlashib, yo'lga ravona bo'ldi. «Gulgun» otga minib, jahonni kezishga yo'l oldi, unga qamchi ursa, osmonga sachrar edi. Mas'ud shohga nima taqdim etgan bo'lsa, hammasini kam-ko'stsiz uning orqasidan o'zining eng ishonchli va oqil kishilari orqali jo'natdi. Mas'ud ularni kuzatish bilan birmuncha fursat ovora bo'lgach, nihoyat xotirjam bo'lib, o'z uyiga qaytdi. Shoh esa, uchqur «Gulgun»ning boshini dashtga qo'yib, o'sha kuniyoq Dehliga yetib bordi. Juna kelgach, oradan bir necha

kun o'tar-o'tmas, qolgan tuhfalari ham bekam-ko'st yetib keldi. Ammo, Mas'udning tutgan turmushi va qilgan ishlari shoh xayolidan sira-sira ketmas, uni o'ylagan sari aqli shoshar edi. Mas'udni esdan chiqarmaslik uchun Juna ham gulgun to'n kiyib oldi, gulgun jomda may ichadigan bo'ldi.

Taroz degan viloyatning volisi bo'lmish kishining mansabi oliy bo'lgani holda, himmati g'oyatda past edi. Uning shahri Junpur va o'z oti Jaypur bo'lib, zolimligi bilan butun hind mamlakatida mashhur edi. Uning ustidan arz-shikoyatlar ko'p bo'lib, bir qancha gunohlari ham tasdiqlanmish edi. Buni bilgan xushtole shoh shunday hukm qildi:

«Hozir farmon yozib, Taroz viloyatiga Mas'udni shoh qilinsin va uni zudlik bilan bu dargohga olib kelinsin!».

Lekin, farmondan ilgariyoq, bu xabar Jayurning qulog'iga yetib, muztar – xilojat bo'ldi va saltanat qo'lidan ketganini bildi. Endi shoh adolat yuzasidan buning ishlarini tekshirguchi va butun qilmishlari ochilgusidir. Shu bilan birga, qonun nimaga sazovor ko'rsa, shunday jazo bergusidir.

Jayurning Ballu degan noibi bo'lib, u o'z tabiati bilan zulm va adovatga berilgan odam edi. Jaypur o'z boshiga shunday kutilmagan va ko'ngilsiz ish tushajagini bilgach, noibni huzuriga chorlab, u bilan tubandagicha mashvarat qildi: «Bu voqeaning tadbiri nima bo'ladi?» – deb so'radi undan. Shunda u zolimlash sitamkor aytdi:

«Sening boshingga tushgan bu ishga Mas'ud sababchi bo'libdur. Shohning qulog'iga shunday ovoza yetibdirki, go'yo Mas'udning tengi yo'q emish. Undagi yaxshi sifatlar hech kimda yo'q, unda bo'lgan xushxulq dunyodagi biron odamda uchramaydir, deyishibdi. Ana shundan so'ng, shoh uni sendan afzal deb bilib, sening o'ringni unga olib berishni loyiq ko'ribdir. Binobarin, Mas'udni oradan gumdon qilinsa, charx ham, yulduzlar ham senga yor bo'lajagi shubhasizdir. Uning o'limi shohni og'ir tashvishga solishi natijasida, u ham safdan chiqib, butun mamlakat senga qaram bo'lib qolg'usidir».

Shunda Jaypur: «Modomiki shunday chorani ko'rish zarur ekan, Mas'udni ovora qilishning yo'li ne tariq bo'lur?» dedi.

Ballu aytdi: «Avval Mas'udni o'zingga ishonchli do'st qilib ol, unga mehr-muhabbat izhor ayla. O'z uyingga chorlab, u bilan yaqin suhbatdosh bo'lib ol, uning uyiga borishdan ham qochma. Shu tariqa ikkingiz bir-biringiz bilan «sadoqatli do'st»ga aylangach, men muddaoni yuzaga chiqazish chorasini ko'rgumdir».

Buni eshitib, Jayurning ko'ngli behad shodlanib, Mas'ud bilan qilinaajak «do'stlik»ning rejasini tuzdi. U yuz xil fusun-nayrang bilan unga rafiq va sirdosh o'rtoq bo'lib oldi. O'zi uni chorlab-chaqirib, mehmon qiladigan: goho unikiga to'satdan chaqirib boradigan, nihoyat, har kun u bilan ulfatchilik qilib, har bobda, hech gapni yashirmay suhbatlashadigan bo'lib oldi. U, o'zini Mas'udga jondan yaqin do'st va nihoyatda ishonchli odam qilib tanitdi.

Alqissa, kunlarning birida, Mas'udning uyida Jaypur u bilan may ichib, shodlanib o'tirarkan, shomga yaqin uni o'zini tutolmaydigan darajada mast qildi. O'tkir may buning aqlini zoyil aylagan edi, bugina emas, go'yo Jaypur ham shu kabi «mast» edi. Nihoyat, bular gulshan ichida uchib-yiqilib qoldilar. Bulargina emas, Mas'udning odamlari ham ichgan, ularni ham g'afolat uyqusi bosgan va barchasi es-hushini yo'qotgan edi.

Ballu shunday fursatni poylab, bir katta tosh orqasida yashirinib yotgan edi. U o'ziga o'xshagan bir necha devsfifat, zolim, qonxo'r odamlar bilan haligi toshning ortidan chiqib keldilar va Mas'udni bog' ichidan topib oldilar hamda tezda uning qo'l-oyog'ini mahkam bog'lab, birining yelkasiga ortib, sekingina yo'lga ravona bo'ldilar va shu qorong'i kechadayoq mo'ljallagan yerlariga yetib oldilar. Bu kechaga o'xshagan qorani hech kim ko'rganmi? Yo'q!.. Keyin, tutqunni bir qora choh ichiga tashladilar.

Mas'ud bu choh ichida bexud va mazlum bo'lib yotaversin. Endi uning qarindosh-urug'lari, do'st-yorlari va xizmatkorlaridan eshiting: uning odamlari uyqudan ko'z ochib, hammalari unga kerakli narsalarni tayyorlash ishiga kirisharkan, Mas'udning g'oyib bo'lganini fahmlab, nima qilishlarini bilmay qoldilar. Ular bu voqeadan tashvishga tushib, yoqalarini chok qilib yig'lar, ammo hammadan ham Jaypur «g'amnok» edi. Uning hayajoni dam-badam ortar, Mas'udning qarindosh-urug'lariga qo'shilib, fig'on chekib yig'lar edi. Shu xilda bir necha kun yotmay, uxlamay yig'lashdilar-u, ammo qidirib, hech yerdan topmadilar. Nihoyat, uning topilishidan umidlarini uzib, noiloj unga ta'ziya ochib, motam tutishga majbur bo'ldilar. Hamma bu kutilmagan voqeadan hayron edi. Uning motami hech kimning dilidan ketmas edi. Nihoyat, Jaypur shunchalar o'zini g'am va motamga giriftor qilib ko'rsatgach, unga Mas'udning qavmi-qarindoshlari ko'pgina pand-nasihatlar qilib, tasalli berdilar. Katta takalluf bilan uning yettisini qilib, el-yurtga osh bergach, Jaypur ko'p afsus va nadomat bilan o'z uyiga qaytdi.

O'sha Ballu g'orat qilib, odamlarni dard-alamga to'ldirgan kechasi tugab, quyosh sharq chohi — yer osti xobgohidan chiqib, tong otgach, Mas'ud zo'rg'a o'z ko'zini ochdi, ochdiyu o'zini g'arib bir ahvolda ko'rди. U oyoq-qo'llarining mahkam bog'langanligini bilib, ko'ziga butun olam qorong'i bo'lib ketdi. Uning vujudining yarmi suv bilan balchiq va zulmatdek qorong'ulik ichida edi. Bu ahvolni ko'rgach: «Yo rab, bu ne hol, tushmi bu yoki xayolmi?!» deb nola chekdi. Bu kutilmaganda o'z boshiga tushgan ahvol haqida qancha o'ylasa ham, gumon qilsa ham, aniq bir xulosaga kelolmadi.

Shu asnoda bir kimsa chohning tepasini ochdi va chohga shamning yorug'i tushdi. Keyin birovlar Mas'udni qancha mashaqqat bilan arqon solib u chohdan tortib oldilar va uni zoru asir holda bir uyga olib kirdilar. Shu yerga esa, qahr-g'azab bilan vazir Ballu kirdi. U, og'ziga nima kelsa, qaytarmay so'kar edi. Shu orada bir odam bir quchoq tayoq ko'tarib kirib, uyga qo'ydi. Shunda vazir

o'z to'dalariga: «Zanjirlarini yeching, o'zini yalang'ochlab urib, joniga azob bering!»— dedi. Shu farmon bilan, ikki kishi uning oyoq-qo'llarini ushlab turdi va ikki kishi haligi tayoqlar bilan ura boshladi.

Mas'ud bechora zorlanib: «Maqsadingiz nima? Shuni ayting! Agar mol kerak bo'lsa, oshib-toshib yotibdi, qancha desangiz beraman va yoki jon kerak bo'lsa, qarshilik yo'q, qiynamay olavering»,— dedi.

Bu iltijolarga quloq solmay, u: «Tayoq bilan uravering, to'xtatmang!»— der edi. Ikki zolim esa buning hadanini gul bargidek parchalab qonga belagan holda tayoqlashni qo'ymas edi. Mas'ud azobdan o'zini har yonga tashlab, dod-voy solsa ham, bari bir, hech kim buning faryodini eshitmadi. Bu orada ikki tayoq sinib tugadi, ikkala tayoqlovchi ham charchadi. Shundan keyin zolim Ballu:

«Bas qiling, urmang, bugun endi tayoqlashni to'xtating! Men uni iztirobga solib, qatl qilmaymanu va lekin azoblab o'ldiraman!»— dedi.

Shundan so'ng, oyoq-qo'lini ushlab turgan ikki nomard uni bo'shatdi. Zolimlarning bu fe'lidan gardun-falak ham xijil bo'lgan edi. Keyin, notavon Mas'ud o'rnidan turib o'tirdi va dard-alam bilan fig'on tortib: «Gunohim nima, ey musulmonlar?! Bunday zulmni hech qachon do'st-yorlar bir-biriga qilmagan-ku! Menga bunchalik jabr-jafoda qilmang, biron gunoh ish qilgan bo'lsam, ayting! Odam bolasi xatodan xoli emas, har bir kimsa xato qiladi. Mol kerakmi, jon kerakmi, ne desangiz ayting, shu haqda tilxat bergin desangiz berayin!» — dedi.

Shu kabi qanchadan-qancha yalinib-yolvordi, lekin u toshyurak, nomard bu kabi zorlanishlarga, iltijolarga hech bir parvo qilmadi. Aksincha: «Uni so'zlashga qo'ymang, hunday afsonalarni gapiravermasin!»— dedi Ballu.

Shundan so'ng, uni yana bog'lab zindon tagiga tashladilar, yana u Yusuf payg'ambardek o'z chohidan o'rin oldi. Uni bir necha kun shu tarzda azobladilar, hech kim uni bu zulmdan man' etmas edi. Mas'ud kundan-kunga holdan toyib borar, oxiri azoblar natijasida, jonidan umidini uzib, ko'z yoshlarini to'ka-to'ka:

«Bundan ko'ra menga dushmanlik tig'ini torting, menga rahm qilib, o'ldiring-qo'ying!» — deb zorlandi.

Nihoyat zulmkor Ballu bunchalik jabr-jafodan o'zini tiyib, ertasiga o'ldirishga qaror berdi. U, Mas'udni o'ldirishning mas'uliyatini yuklagan holda, bir kishini chohning boshiga qo'ydi. Shundan so'ng, u quvonch bilan Jaypur oldiga borib:

«Buzuq ko'ngling shod va obod bo'lsin, dushmaning shunday qahr-g'azabga giriftor qilindiki, oxiri o'lishiga rozi bo'ldi», — dedi. Undan so'ng, uyiga kelib, shodlik bazmini qurdi, u shunday may ichishga berildiki, qo'yavering.

Balluning gul yuzli bir qizi bo'lib, juda shakar tilli edi. Undagi husn dunyoda biron kimsada yo'q bo'lib, vasf qilgan bilan baribir, ta'rifini yetkazish qiyin edi. Bu qizning dimog'iga ishq o't solgan bo'lib, yuragidagi bu o'tning sababchisi Mas'ud edi. Avval

Mas'udning husni vasfini eshitgan bo'lsa, keyin yiroqdan o'zini ham tomosha qilgan edi. Bu dardini u hech kimga aytolmas, lekin pinhoniylar kuyib-o'rtanib yurar edi. Ko'nglida ishqning tuguni bor edi-yu, ammo bu tugunni qanday yechishni bilmas edi. Bu ishqning mashaqqati kundan-kunga ta'sir qilar va uni hech esdan chiqazolmas edi. U o'z uyida ekan, bir mazlum odam zindonda zanjirband bo'lib yotganini eshitdi. Kelajagi porloq bo'lmish bu mahvash qo'rquvidan uning kimligini surishtirishga ham majoli yo'q edi. Bu kechasi esa, otasining va boshqa qavmu qarindoshlarining mast bo'lib uchib yotganini ko'rdi. Zindon qorovulining ham es-hushi joyida emas, u ham mastlik uyqusida parvoyi falak edi. Shu fursatdan foydalanib, u mahvash chohning og'zini ochib, mehr-muhabbat bilan:

«Ey g'amkash! Qaysi mazlumsan va oting nimadi? Hozir o'likmisan yoki tirikmisan?» – dedi. Butun vujudi yara-chaqa bo'lib yotgan majruh bu tovushni eshitarkan, ketgan ruhi jismiga yana qaytib kirgandek bo'ldi. U nola chekib:

«Otim Mas'ud, jonimda yuz tuman balo mavjud. O'zing ayt-chi, odammisan yoki farishtami? Haqning rahmati bilan sug'orilgan kimsa emasmisan?! Axir, sening ovozingni eshitib, qaytadan tanimga jon keldi, jismimga tiriklik mujdasi yetdi. Qo'lingdan kelsa, bir chora ko'r, aks holda, meni «o'lgan» deb ketaver!» – dedi.

Mas'udning nomini eshitarkan, bu chaqqon go'zalning ko'ngliga ishqning beqarorligi tushdi. Uning hajrida ozmuncha qon yutgan, necha kunlab motamini tutgan edi. Mas'udning g'oyib bo'lib qolganini hamma bilar, lekin o'likmi-tirikmi ekanini hech zot bilmas edi. Gulyuz o'z otasining dev fe'lu kojbahs ekanligini bilar, shu jihatdan uning ko'ngliga tubandagicha gumon tushdi: «Tag'in buni azoblayotgan otam bo'lmasin!» – dedi. Binobarin, zindonband bo'lib yotgan bechora Mas'ud ekanini aniq bilgach, undan bu zulmning sababchisi kim ekanini aniqlashga kirishdi. Va:

«Ey jismingga jonim fido-yu, joningga g'amgin vujudim sadqa bo'lgur! Seni bunday ko'rguncha o'lsam ne qilardi? Xasta joningga fido bo'lsam ne qilardi?» dedi va keyin bu afsonalarni aytib o'tirishdan foyda yo'qligini, binobarin, buning og'ir ahvolini ko'rib, tobi-toqati qolmaganiga qaramay, tezdin bir tadbir topish chorasiga kirishdi.

Uning ikkita mahram kanizagi bo'lib, ular buni jonlari yanglig' aziz ko'rar edilar. Ular hozir nozanin bilan hamroh bo'lganlari holda, buning ishqiy o'tidan ham xabardor edilar. Mana shular yordamida, bir qancha mehnat-mashaqqat chekib, zindon tubidan Mas'udni tortib oldilar. Chohdan shunday bir vujud chiqdiki, uning tanasida jondan nishona yo'q edi. Filhol mazlumning oyoq-qo'lini yechdilar, lekin u jonsiz jismdan boshqa narsa emas edi. Bu sho'x uning g'amidan o'ladigan bo'ldi va zor-zor yig'lab, o'zini uning oyog'iga tashladi. O'ylab-o'ylab: «Buning hol-ahvoliga yig'lab o'tiradigan payt emas, bu yerda vaqt o'tkazishning foydasi yo'q», – degan qarorga keldi va uni ikki kanizakka ko'tartirib, pinhoniylar yo'l bilan bir uyga olib borib qo'ydi, u yerda bu notavon qancha tursa

ham hech kim gumon qilmas edi. Karavot ustiga bir necha qavat to'shak-ko'rpa solib, tezda u zor, xastani shu yerga yotqizdi. Goh sharbat va goh taom berar, uning yuzini ko'rgan sari murodi hosil bo'lgandek tasalli topar edi. Unga shafqat va mehribonlik bilan xizmat qilar, Mas'udning atrofida parvona bo'lib aylanar edi.

U oy Mas'udni zindondan chiqazgan kechasi tong otgach, yomon niyatli Ballu uni chiqazib, qatl etish niyatida o'rnidan turib, zindonga qarab keldi. Qarasa, zindonning og'zi ochilib yotibdi. Qorovul mast uyquda-yu, bandi – tutqun yo'q. Buni ko'rgach, shu onda g'azabidan posbonni halok qilib tashladi. Lekin u ko'proq o'z joni haqida vahimaga tushmoqda edi. Binobarin, yugurgancha hukmdor oldiga borib, bo'lgan voqeani unga aytib berdi. Bu ikki zolim ajab g'amga giriftor bo'lgan va o'z taqdirlari haqida motamga tushgan edilar. Nihoyat, bu sitamkorlar tubandagicha chora ko'rish rejasini tuzdilar: boshlab, ular tezlik bilan shaharni axtaradigan, hanogoh qochqinni topsalar, uni shu onda qatl etadigan bo'ldilar. Bu notavon odam shahar ichida edi-yu, uni topolmay, dushmanlar tog'u dashtlarga qarab quvlab ketdilar. O'n kun izlab, qidirmagan joylari qolmadi, ammo undan nishon ham yo'q edi.

Endi Mas'uddan eshitsangiz, sho'x go'zalning shafqat va mehribonligi tufayli, u ancha quvvatga kirib, jonlanib qoldi. Bular ikkisi maslahatlashib, birgalikda bu yerdan qochib ketishga qaror qildilar. Shu niyat bilan sho'x ikkita ot tayyorladiki, chopqirlikda xuddi sayyora – yulduzlarga o'xshar edi. Hukmdor, vazir va sipohlar Mas'udni axtarib-axtarib hech yerdan topolmay, tog'u dashtlardan noumid qaytib kelganlaridan so'ng, bu ikki do'st, «avval hamroh tanla, so'ngra safarga chiq» deganlaridek, qochish uchun yo'lga chiqdilar.

Ikkovlari bugun qochgan bo'lsalar, ertasiga odamlarga ma'lum bo'ldi. Zolimlar jonlari boricha jahd-jadal qilib, bularni yana quvladilar. Nihoyat, qochqinlarning qoralari ham ko'rindi, bora-bora qochuvchilar bilan quvguvchilar orasida bir yig'och ham masofa qolmadi. Bu ikki bechora esa, jonini hovuchlagancha zo'r berar edi. Shu orada musabbibul-asbob (sabablarning sababchisi) bo'lmish Tangri bularga ko'maklashuvi natijasida, qarshilarida dengiz ko'rindiki, uning qirg'og'ida pachog'i chiqqan bir bo'sh kema ham bor edi. Shunga yetish bilan, egasiga kira beradigan bo'lib, kemaga kirdilaru dengizga qarab suzib ketdilar. Bular kemani shitob bilan haydar ekanlar, quvg'uvchilar hayajon bilan qirg'oqqa yetib kelishdi. Bularni ko'rarkan, u ikki qochqin, jonidan umidini uzgan holda, orqalariga qaramay, jo'nab qoldilar. Shu yurgancha o'n kecha-kunduz tinmay suvda yurib, narigi qirg'oqqa borib yetdilar va nihoyat, qirg'oqqa chiqib, shoshilinch otga minib jo'nadilar. Bular shaharga qarab borar, shahar esa mamlakatning poytaxti edi. Butun kecha yo'l yurib, tongga yaqin shaharning chegarasiga yetdilar. Yo'lda bir eski qal'a bo'lib, uning ichida bir nechta haromi-bezori odamlar turar edi. Yetib kelgach, shu o'g'rilar bularga hujum qilib, bir odamga o'n kishi yopishdi. Ularning otlarini, kiyim-kechaklarigacha yechintirib oldilar. Bu ikki yalang'och bechoraning qayg'usi cheksiz

edi-yu, ammo shukrlar bo'lsinki, tong hali qorong'i edi. Shu holatda bir to'da ularga yaqinlasharkan, Mas'ud ularning oldiga borib, o'z g'amgin ahvolini hayon qildi. Buning dardu g'amidan ular ta'sirlanib, bir-ikkita eski-tuski kiyim tashlab, o'zlari shahar tomonga qarab jo'nab qoldilar. Keyin, bu ikki hamdard, uyatli joylarini bekitib, o'zlarini bir vayronayi g'amxonaga oldilar. Tong osmon jomidek yorishgach, tun hindusi (qorong'iligi) haromilardek qochib yo'qoldi. Bular quyosh zavolga uchrab botguncha shu buzucq vayronada bekinib o'tirdilar. Bir tarafdan ochlik azob berar, nafs esa g'izo talab qilar edi. Sho'xda hech bir kuch va toqat qolmagan edi. Binobarin, qorong'i tushuvi bilan, Mas'ud shaharga qarab ravona bo'ldikim, nasibasiga nima uchrasa, shuni dilafro'zga keltirib berishi kerak edi.

Mas'ud bozor ichiga qadam qo'yishi bilan, birov, o'sha damda shoh bazmi uchun bir necha toslarda mevalar tayyorlab qo'yan bo'lib, ularning ba'zilarida amna, ba'zilarida tanbul yemishlari to'la edi. Shoh xizmatkori: «Kimki shularni ko'tarib olib borib bersa, har bir tos uchun ikki dirham haq beraman»,— der edi. Mas'ud shu gapni eshitishi bilan oq: «Toslarni men olib borib beraman»,— dedi va ularni ko'targancha, olomonning orasini yorib yurib ketdi. Ammo yo'l yirog'u dam olish yo'q edi. Uning majolsiz vujudi charchab, endi holdan toyganda, shohning chorbog'iga borib yetdilar.

Juna gulshan orasida o'tirib may ichar, bazmida udning ovozi-yu, nayning nolasi avjida edi. U Mas'udning boshiga tushmish kunni eshitgan va uning g'amida aqlu hushini yo'qotib o'tirgan edi. Uni eslab, betinim va beqaror o'tirar, may ichib, zor-zor yig'lar edi. Bog' ichiga Mas'ud bechora mahzun holatda kirganda, «Gulgun»ni axtachi (otboqar) ushlab turgan edi. Bu dasht kezuvchi otni ko'rish bilan ko'zi uning tamg'asiga tushib, bu o'sha o'zining oti ekanini tanidi va bu tasodif bilan hazin yuragida hayrat o'ti yondi va o'zicha: «U biznikida mehmon bo'lmish odam bu tomonga kelib, mening «Gulgun»imni shohga tuhfa qilibdi»,—deb o'yladi. U bir-ikki qadam tashlagach, qulog'iga gulchehraning yangroq ovozi eshitildi. U, soz bilan shunday kuylar ediki, qo'shiqning butun baytlari tanish mazmunda edi. Yana uning vujudiga azob tushdi, yana ko'ngli iztirobga to'ldi. Bu ahvolni ko'rib ko'ngliga: «Mehmon men hadya qilgan go'zal sanamni ham shohga sotibdimikan?»— degan shubha keldi. Shoh oldiga qadam qo'yishi bilan esa, may idishi yonida o'zining sehrli jomini ko'rdi. Shunda may jomidek ichi qonga to'lib, ko'zlaridan yosh o'rniga qon ravon bo'ldi. Bularning hammasi uning dardini oshirib, yanada behol va bemajol ayladi. Toqatsizlik uning ko'nglini bosib ketgan edi. Binobarin: «Yo rab, nima qilsam ekan?!»— deb fig'on chekdi u. Shu orada shohga ko'zi tushishi bilan, buning o'zinikida mehmon bo'lmish odamligini tanib qoldi. To'ni ham xuddi o'zi bergani kabi gulrang bo'lib, toji bilan taxti ham gulrang edi. Lekin, shunga qaramay, o'sha onda o'zining kimligini shohga izhor etish kerakmi-yo'qmiligi haqida bir qarorga kelolmadi. «Agar hozir o'zimni tanitsam, ko'zimni muzdinga tikkan, ya'ni

shohga qilgan yaxshiligim uchun yaxshilik talab qilgan bo'laman», — deb o'yladi. Tosni boshidan olgan paytda uning ko'zlari yoshga g'arq edi. U barmog'ini tishlaganicha tashqariga chiqdi, buning qilgan ishi juda g'alati bo'ldi. Endi himmat qadamini katta tashlab, tezda bog'dan chiqib ketishi lozim edi.

Ma'lumigiz, Mas'ud o'zining bir necha xodimini, shoh mehmondorchilikdan qaytganda, unga qo'shib yuborgan edi. Ularning barchasi shoh eshigida xizmatda edilar. Mana shu odamlarning ko'zlari birdan Mas'udga tushib, o'z mahdumlarini, ya'ni muhtaram xojalarini tanib qoldilar, u ham xizmatkorlarini ko'rib bildi. Ularning hammasi xojalarini bu ayanch ahvolda ko'rish bilan beixtiyor o'kirib yubordilar va unga tomon yugurdilar. Ular hammasi Mas'udning oyog'iga o'zlarini tashlab, birdan qiy-chuv qilib yig'ladilar. Mas'ud ham bu do'stlarining sadoqatini ko'rib, ko'zlaridan beixtiyor yosh to'kar edi.

Tashqarida boshlangan bu sho'r-shar ovozi ichkarida o'tirgan shohning qulog'iga ham yetdi. Surishtirarkan, shoh ham voqeadan xabardor bo'lib, iztirob bilan yugurganicha tashqariga chiqdi. Do'stini shunday achinarli ahvolda ko'rib, shohning ko'ziga yorug' jahon qorong'u bo'ldi. U Mas'udning bo'ynidan quchganicha ko'zlaridan yosh to'kar, bu esa, shohning oyog'iga bosh qo'yar edi. U tarafdin, Chin kanizagi ham ziyrak ko'zini qonga to'ldirgani, gul ruxsori qon yoshiga g'arq bo'lgani holda, mehribonchilik bilan boqib, tarbiyalagan kishisining boshidan aylanib-o'rgilar edi. Nihoyat, bu iztirob o'ti taskin topgach, shoh bir necha kishini tayinlab: «Uni issiq suvga, hammomga olib borib yuvintiring!», — dedi.

Mas'udning esa vayronada yolg'iz qolgan hamrohi uchun joni kuyib borar edi. Shu jihatdan u, shohga o'z boshidan o'tganlardan sha'ma qilib, charx ne kunlarga solganini qisman bayon ayladi. Juna bu afsonani eshitgach, bir nechta xotinlarni chaqirib, kiyish uchun gulrang hullalar bilan gulgun taxt tayinlatib, parini olib kelish uchun jo'natdi. Ular gulchehrani o'sha xarobadan topdilar. Unga boshdan-oyoq ol rang hullalar kiydirib, o'sha onda taxtiravonga o'tqazdilar va jadal olib borib, boqqa tushirdilar va nozaninni bir qasrga olib kirdilar. U yerda gulchehraning yoniga bir qancha kanizaklar qo'yildiki, ular buni bir malikadek aziz tutar va har qanday xizmatiga tayyor edilar.

Bu tarafda esa, Mas'ud hammomga kirib, issiq suvda yuvinib, xuddi avvalgi holatida qaytib chiqdi. U hammomdan chiqquncha, shohga u qilgani kabi, boshdan-oyoq gulgun sarupolar tayyorlab qo'yilgan edi. Shohona liboslarni kiyishi bilan, uni dono shohning huzuriga olib kirdilar, shoh, xuddi o'g'lini ko'rgandek uni bag'riga bosib quchdi va boshiga tushgan savdolarni qayta so'radi. Mas'ud butun ko'rgan-kechirganlarini boshdan-oyoq fosh etdi. U hikoya qilardiyu, shoh ko'zidan yum-yum yosh to'kar edi. Shoh uni o'ziga rafiq qilib oldi va baland martaba berdi. Mas'ud bilan tunu kun ulfat va hamsuhbat edi. Unga ko'p xazina va naqdinalar berdi, gulruxni to'y qilib, u bilan nikohlab qo'ydi. Taroz va Darbastdan tashqari, bir qancha kishvarlarga ham uni hokim qilib tayinladi. Ular Gulrang qasr ichini gullarga burkagan holda, gulfom may ichib, maishat qilar edilar.

Shu paytda shoh Ballu bilan Jaypurni topib, qatl etish haqida farmon berdi va qatl etdirdi ham. Yer ularning qonlari bilan gulfom bo'ldi.

Qarang, gul fasli qanday xush ayyom ekan: axir, do'stlar boshdan-oyoq gulga g'arq bo'lib o'tirganlarida, dushman gullar orasida g'arq – halok bo'lib, qonga botib yotibdi.

Qarang, koinot bog'ining guli qanday yaxshi! Hamma narsadan hayot guli yaxshiroqdir.

Rivoyat qiluvchi roviy bu daqiq – nozik hikoyani so'zlarkan, uni shoh hayajon bilan eshitdi. Bu roviyning o'zi ham Taroz o'lkasidan, Mas'udning gavhari naslidan edi. Bahrom u musofirni o'ziga hamdam va hamroz etdi, to'g'rirog'i, Taroz kishvariga uni hokim qilib tayinladi.

Uning bu amri yozilib – tasdiqlangach, ko'ziga saodat uyqusi yor bo'ldi.

XXVIII

Chorshanba kuni Bahromning moviy rang ust-hosh bilan nilufariy gumbazga kirib, quyoshli osmon tusidagi libos kiygan go'zal bilan feruzagun qadahga ko'kimtir may quyib ichgani va ich, ho, ich, ovozini nilufar rang osmondan oshirgani

Chorshanba kuni nilufar falak tun karvonini safarga jo'natarkan, mehr – quyosh o'zining zarhalini olamga taratib, qorong'ilik ustini nur bilan qoplab oldi. Oftob ko'k fazosiga safar qilib, nilufarga ro'baro' bo'ldi. Shoh esa nilufargun libos bilan nilufar rang qasrni manzilgoh etdi va qo'liga feruza qadah olib, unga la'l rang may quyishni iltimos qildi. Nilufar rang liboslar kiygan oy yuzli go'zal xuddi xurshiddek namoyon bo'larkan, ko'zlarni abadiy yoritish uchun quyosh ko'k atlasini kiyib chiqqandek bo'ldi. Bahrom nilufariy jomda to'latib-to'latib may ichdi, bu ichish to osmon gumbazi o'zining ko'k-lojuvard yuzini qora pardaga o'raguncha davom etdi. Bu vaqt osmonda behisob yulduzlar sadafdek yarqirarkan, quyosh kemasi esa, Nil daryosi tagida suzar edi. Nihoyat, shoh ham o'yin-kulgi bazmini to'xtatib, uxlab dam olish taraddudiga tushdi. Shohning osoyishta uxlashini ta'minlash uchun tezda ziyofat asbob-anjomlarini yig'ishtirib oldilar. Shundan keyin jilvagar sho'x ham, shom bo'lsa osmon quyoshi pardaga kirgani kabi, pardaga kirdi.

Xizmatkorlar yugurib-yelib yana jahongashta musofirlarni axtarib topishga kirishdilar va uni topib, har kechadagi singari, uni parda orqasiga keltirib qo'ydilar. Parda orqasidan esa: «Musofir afsona aytsin!» – degan nido eshitildi. Roviylar duoga til ochib: «Bu osmonning yetti qabat moviy pardasi sening joh-saltanating qasridagi ayvonning pardasi, balki borgoh – saroyingning soyaboni bo'lgay. Mehr – quyosh tojing ustidagi gavharga; charxfalak esa, nilufarzor bog'ingga aylansin!» – dedi. Bu duodan shoh qanoatlangach, musofir o'z hikoyasini boshlab yubordi.

XXIX

Beshinchi iqlim yo'ldan kelgan musofirning dostonoroligi

Adanda kishilarga jabr-jaf o'ziga hunar qilib olmish bir zolim bor edi. Dunyoning hamma yerlari uning joyi bo'lgan, hatto dengiz sohillari ham uning manziliga aylangan edi. O'zi ham azamat, ham shijoatli va botir bo'lib, xuddi jaziralardagi sherga o'xshagan odam edi. Uning maqsadi kishilarning molini tortib olish, harom mol topish va to'plashdan iborat edi. Mana shunday bezoriligi tufayli, uning na bir do'sti va na o'rtog'i bor bo'lib, butun yo'llarni o'zi yoppa-yolg'iz kezardi. Agar qarshisidan xoh o'n va xoh yuzta karvon chiqsa, ular bilan bir o'zi olishardi. U yo'lto'sar faqat quruqlikdagina emas, dengizlarda ham qaroqchilik qilishni o'ziga hunar qilib olgandi. Uning yangi oy kabi suzib yuradigan bir nechta qayig'i ham bor bo'lib, bu qayiqlarini hech kim ko'rmaydigan yerda pinhon qilib asrardi. U, bir qancha yo'lto'sarlarni shu qayiqlarni asrash uchun qorovul qilib qo'ygandi. Masalan, dengizning qayerida bitta qayig'i bo'lsa, o'sha yerda uning bir nazoratchisi ham bo'lardi. Kimning jazirada o'rmonzori bo'lsa, o'sha kishiga o'z qayiqlariga nazoratchilik qilishni topshirardi. O'sha soqchilardan biri katta daraxtning ustiga chiqib, mavjlanib turgan dengizni ko'zdan kechirib o'tirardi. Shunda, to'satdan ko'ziga bir kema uchrab qolsa, darrov u zolimni bundan xabardor qilardi. U esa, shu ondayoq, suv ustida sayr etgan qush kabi, tezyurar qayig'ini o'shanga tomon surib ketar va hash-pash deguncha kemaga yetib borib, uning ichidagi odamlarga nimani xohlasa, o'shani qilardi, ya'ni u mollarni talab, kemadagi odamlarni halok va majruh aylab, xotirjam bo'lgach, bu vijdotsiz o'z joyiga qaytardi. Bu, dengiz ichida nahangu, o'rmonda sher va qoplon kabi bir ofat edi. U suv ustida yeldek suzuvchi odamni xalq Jobir (jabrlovchi-zolim) deb atar ekan. Dashtu dengizlarda yuruvchi odamlar o'rtasida esa, uning nomi «yo'lto'sar Jobir» deb shuhratlangan edi.

Uning jaziralar ichida bir tinchgina — osoyishta joyi bo'lib, o'g'irliq mollarni yig'adigan xazinasini shu yerda edi. Bu jaziraning atrofi bir yig'ochga yaqin kenglikda bo'lib, hech kim uni o'rab yotgan suvning tagiga yetolmasdi. Uning atrofidan qaraydigan bo'lsangiz, suvdan o'zga hech narsa ko'rmasiz.

Yana bundan boshqa bir jazirada daraxtu maysa o'rniga nuqul nilufar o'sar edi. U yerda bir xushta'm buloq bo'lib, dengiz ichidagi ichimlik suv edi. Bu jazira shu suv bilan sug'orilib, bog' va imoratlar bunyod etilgan edi. U imoratning dahlizi ham, gumbazi ham, ayvoni ham bor, suvi esa, yoqimlilikda obi hayotning o'zi edi.

Undagi jazira ichida «Behisht saro» degan shahar bor ekan. Bu shaharning dono va saxiy shohi bo'lib, u kishvar shuning hukmi ostida ekan. Uning oti Navdar, o'zi nodir va ta'bi esa har qanday nodir ishga qodir ekan. Shuning bir qizi bor bo'lib, bu go'zalni hech kim ko'rmagan ekan. Uning qaddi-qomati go'zallik bog'ining sarv nozidek sarafroz ekan. Zulfini ko'rganda sunbul pech-pech buralib

ketar, g'uncha uning og'zi haqida hech so'z deyolmas ekan. Yuzining mash'ali jahonni kuydirgudek, uning yorug' shu'lasini jonni kuydirgudek ekan. Sochi kamand kabi buralib, osmon mehri bo'yniga tuzoq solg'udek ekan. Uning oti Mehr bo'lib, yuziga osmon mehri bandayu, falak uning boshida quyoshdek aylanar ekan. Agar u noz bilan dengizga ko'z tashlasa, suvgina emas, butun dengiz qo'zg'alib, to'fon bo'lib ketar ekan. U, olamni kuydiradigan mehr (quyosh), yo'q, mehr emas, jahonni kuydiradigan bir alanga ekan.

U, bir kun dengizda sayr qilish, unda shamol harakati va suv mavjini tomosha qilish istagi bilan qayiqqa o'tirdi-da, sayr qilib suzib borarkan, qarshisidan chiqqan bir jazirani ko'rib – shu joyni tomosha qilgisi kelib qoldi. U, falak misol dengizda oy o'rtasida turgan yulduzga o'xshar edi.

Shu payt to'satdan xunuk bir yel esib, kema odamlar xabardor bo'lmasdanoq, kemalarni dengizning har tomoniga surib, lahza-lahza to'lqin battar kuchayib bordi. Dengiz po'rtanasi g'oyatda kuchayib ketgach, malloh (qayiqchi) yoqasini yirtib: «Agar Xudoning rahmi kelmasa, odamlar jonidan umidini uzaversin», dedi. Shu xilda bir necha kecha-kunduz kemalarni bo'ron xohlagan tarafga surdi. Bo'ronning dahshati bir qadar bosilguncha, kema dengizning ancha ichkarisiga kirib ketdi.

Jobir tarafidan dengizning har tomonini nazorat qilib turish uchun qo'yilgan odamlar suvda kelayotgan o'yni kemasiga nazari tusharkan, darhol u zolimni bu sirdan xabardor qildi. Xunrez Jobir esa, tezda qayiqqa o'tirib, yel kabi ularning kemasi tomon uchdi. U yaqin yetishi bilanoq urushni boshlab yubordi. Ular ham qarab turmay, bunga qarshi urush boshladilar. Jobir ular tomonga qarab qancha o'q otgan bo'lsa, shuncha ularning qonini dengizga oqizdi. Shu xilda benihoya zulm ko'rgach, o'lmay qolganlar dod-faryod chekib, taslim bo'ldilar. Zolim ularning barchasini oldiga solib haydab, o'z maskaniga olib keldi. Kemalarini qirg'oqqa mahkam bog'lab, xalqu mollarning hammasini bitta qo'ymay tushirib oldi. Kemada go'zal qiz borligidan xabari yo'q edi, birdan unga ham ko'zi tusharkan, yiqilib, hushidan ketib, bir dam o'likdek jim bo'lib qoldi. Necha marta hushiga kelsa ham, uni ko'rgach, yana holdan ketib, o'zini yo'qotaverdi. Bir necha gal shu hol qaytarilavergach, o'zida o'zga boqish uchun majol yo'qligini his qildi. Keyin, uning amri bilan yuzi Zuhraga o'xshagan oyni bog' ichidagi qasrga olib kirib qo'ydilar. U yolg'iz qolmasin uchun oldiga bir-ikki nafar gulchehrani kiritib, sarv gulruxga hamdam qilib qo'ydi. Undan boshqa katta-kichik kimiki bo'lsa, hammasining jonidan kechib omonlik berdi va bir kema tayin qilib, barchasini o'sha kema ichiga o'tqazib:

– O'z mulkingizga azm eting va joningizdan umidingiz bo'lsa, tezroq jo'nab qoling! – dedi.

U odamlar bu gapdan vahimaga tushib, tezlik bilan dengiz ichiga yurib, ko'zdan g'oyib bo'ldilar.

Mahvash o'sha jazirada yolg'iz o'zi qoldi, uning baxt-iqboli esa, qorong'i kechaga burkandi. Jobir uni xayolda ko'rish bilan xushhol

bo'lib, visolini ko'rish umidi xayoliga ham kelmas edi. Butun kun Mehrning ko'ziga shomdek qorong'i bo'lgani kabi, ko'ngli to oqshomgacha xuddi mehr – quyoshdek o'rtanar edi.

Lekin, yana boshqa jazirada bir shahar ham bo'lib, o'zi firdavsi a'loni-yu, undagi anhor esa jannatdagi salsabil daryosini eslatar edi. Uning havosi xuddi behishtnikidek yoqimli, fazosi esa, ko'k-miynu osmon kabi keng edi. U shaharning hokimu voliysi olihimmat bir shaxs bo'lib, mamlakati obod va ma'mur edi. Bu shohning oti Ma'mun va shahri Yaman deb atalardi. Mana shu Ma'munning adolatparvarligidan mamlakati gulistonu chamanga aylannish edi. Uning bir nozanin farzandi bo'lib, bashar jinsi ichida unga monand kimsa yo'q edi. Yuzini ko'rganda g'ul bargi xijil bo'lar, qaddiqomatining kelishganligidan sarv o'ksinar edi. Barcha fazlu hunarda uning tengi yo'q bo'lganidek, ko'zguga boqqanda o'zining misli yo'qligini his etar edi. U hunar va san'atga berilgan bo'lib, yuzi oftob misol bu yigitning nomi Suhayl edi. Ana shu go'zal yigitning ko'ngli Mehrning zulfiga bog'langan bo'lib, go'yo bu ham unga atog'liqdek edi. Suhayl Mehrning maftuni bo'lgani kabi, Mehrda ham Suhaylga nisbatan mayl-rag'bat bor edi. Mayl-rag'batgina emas, Mehr Suhaylga vola va zor hamda vasli uchun jon berishga tayyor xaridor edi.

Mana endi uning hajri buning bag'riga dog' solib, manzili zolim Jobirning bog'i bo'lib qoldi. Bu erda guno-gun daraxtlar bor ediyu, ammo nilufardan bo'lak gul yo'q edi. Mehr esa, nilufar singari motamzada bo'lib, nilufar ichida ko'z yoshlarini oqizib yurar edi. U go'yo ko'z yoshi bilan nilufarni sug'orar, oh o'ti bilan qayg'usini quritar edi. Uni, hijron g'amida zoru zalil kezardi demang. Yo'q, u nilufar ichiga Nil suvini oqizar edi. Ko'z yoshi nilufarni g'arq qilgan edi. Darvoqe, daryo ichida nilufar bo'lishi ajablanarlik emas-da. O'zining ko'ngli ham nilufarga roq'ib bo'lsa ajablanmang, zero, Mehr bilan nilufar bir-biriga munosibdir. U, ertayu kech nilufar orasida aylanar, hatto ustidagi kiyim-kechaklari ham o'sha rangda edi. U sanamning libosigina emas, o'zi ham nilufargun bo'lib, yor hajrida ko'kka belanib motam tutar edi. Aslida, nilufar o'z motamini bildirish uchun azadorlarcha ko'k libos kiyadi.

Mehrni charx firoq asiri qilib qo'yibdi-yu, ammo Suhaylning otasi bundan hexabar, to'y tayyorgarligini ko'rar, go'yo nikoh bazmini qizitish uchun bu mahal g'animat fursatday tuyulardi unga. Shu boisdan ham, u bir necha kemaga, dunyoda qanday mol-hol bo'lsa, shularning hammasidan yuklab, Suhaylning o'zini oyga o'xshash alohida bir qayiqqa o'tqazgan holda, Mehr bilan aqd qilib unashtirish uchun jo'natib yubordi. Yo'l dengiz qirg'og'idan ancha ichkarida bo'lgani tufayli, suv ichidan borish yaxshiroq edi. Binobarin, maqsadga muvofiqroq deb dengiz ichidan yurishga ittifoq va qaror qilindi.

Avval, Mehrning kemasini shamol dengiz ichida xashak singari uchirib ketgani kabi, bu gal ham o'shanaqa tez bo'ron esib, bu kemedagilarning boshiga ham qiyomat kunini soldi.

Suhayl o'ziga qarashli odamlaru boshqa nima bo'lsa, hammasini ajratib olib, o'z kemasiga solgan edi. Bir payt to'satdan dengizda halokatli po'rtana qo'zg'alib, uning kemasini ham, goh osmonga va goh yerning qa'riga ura boshladi. Shu xilda to'lqin buning kemasini ham Jobir tarafidan qo'yilgan nazoratchilar tomoniga surib ketdi. Nazoratchi buni ko'rish bilan, kelayotgan kemadan Jobirni xabardor qildi. U o'z qayig'iga o'tirib, unga qarshi borib, Suhayl kemasidagi odamlarga qarab birdan o'q ota boshladi. Suhayl ham urush va jang bobida juda epchil edi. Binobarin, u ham odamlarning halok bo'layotganini ko'rib, Jobirga qarshi jangga kirarkan, kemalar o'rtasida jang boshlanib ketdi. Jobir qanchalik zarb urganiga qaramay, uning barcha zarbini Suhayl rad etar edi. Buning zarbini ham Jobir hech shikastlanmay qaytarar edi. Ikkisi ham nihoyatda chapdast va epchil bo'lgani tufayli, bir-birlariga shikast yetkazolmas edilar. Jobir ikki tarafning kuchi baravar kelib, o'zining g'olib chiqishiga ko'zi yetmagach, makr-hiylaga qo'l urib, yalang'och holda o'zini suvga tashladi va xasm kemasining ostiga kirib, tig' bilan u kemaning tagini tesha boshladi. Taxtani kovlay-kovlay, kemaga suv kiradigan qilib kattakon kovak ochdi. Suhayl o'z kemasini tagidan suv yuqoriga chiqayotganini ko'rib, uni to'xtatish uchun ko'p tadbirlar ko'rdi-yu, ammo foydasi bo'lmadi, kemaga suv to'laverdi. Dengiz chuqur edi, suv to'lishi bilan kema ham, undagi odamlar ham g'arq bo'la boshladi. Buni ko'rgan shahzoda, jonidan qo'lini yuvib, suv ichida halok bo'lar ekanman, deb ko'nglidan o'tkazib qo'ydi. Shu orada Jobir xuddi baliqni yutmoqchi bo'lgan nahangga o'xshab, unga tomon suzib bordi-da, Azroil singari ularning joniga qasd qildi. Keyin, suvga g'arq bo'lib, holdan toygan Suhaylning qo'lidan ushlab, uni sudrab, o'zining qayig'iga keltirib soldi va kamandini bo'shatib, uning oyoq-qo'llarini mahkam bog'lab qo'ydi. U, endi o'z ishi bilan shug'ullanib turganda shahzoda Suhayl o'ziga keldi. Shunda u o'zini g'arib va kamand bilan qat-qat bog'langan holda ko'rdi. Aduv-dushman qo'lida qatra suvdek ojiz va notavon bo'lib qolganiga afsuslandi.

Jobir unga qarab:

— Ey, mening asirim, jangu jadalda bo'sh kelmading, — dedi. — Men bu qayiqni suvga tushirganimdan beri minglab senga o'xshaganlarni suvda o'ldirdim. Lekin, ularning hech birida senchalik jur'at ko'rmagan edim. Xalos bo'lishingga ham mana shu jur'ating sababchi bo'ldi. Oxiri o'liming muqarrar bo'lib turganda, dengiz ichidan suzib borib, seni qutqardim. Garchi, dilim seni qatl etishga rag'bat ko'rsatmasada, seni qo'yib yuborishga ham xohishim yo'q. Agar men seni banddan ozod qilib yuborsam, bir baxtiyor shohning xizmatiga borib kirasan. Shundan so'ng, sening tuzog' — domingdan va intiqomingdan menga omonlik bo'lmas. Sen bir kunmas-bir kun albatta bir chora topib, meni o'ldirish tadbirini ko'rajaksan. Imonim komilki, sen bandi bo'lib yashagandan ko'ra, o'limingni a'lo bilasan.

Suhayl izhori ojizligini oshkor etib yolvorsa ham, zolim uning javohiga mayl qilmadi. Kemasini o'z maskani tomon haydab manzilga yetdi. Qasr burchagida bir choh bo'lib, ba'zan birovni o'ziga bandi

qilsa, shu choh ichiga tashlab qo‘yar va u yerdan qutulib chiqish mumkin emas edi. U, Suhaylning a‘zoyi badanidan arqonlarni yechib olib, qo‘l-oyog‘iga kishan solgan holda, uni choh qa‘riga tashladi. Jobir kimni bu chohga tashlasa, unga har kuni ikkita non va bir chovgum suv berar edi. Yuqorida u sho‘x dillar bo‘lgani holda, quyida Suhayl bedil yotar, ammo bularning ikkisi ham bir-birovidan bexabar edi.

Shu ahvolda bu ikkalovi yota tursin. Endi, so‘zni ularning qavmu qarindoshlari va yor-do‘stlari haqida eshiting:

Jobir avval Mehrning qavmi-qarindoshini ozod qilgani holda, o‘zini xafa qilib olib qolgan, uning odamlari jonidan ajragan kishi singari suv yuzida yeldek uchib ketgan, kecha-kunduz demay harakat qilib, o‘z kishvarlariga borib yetgan va hammalari nilufargun libos kiyib, Mehr haqida motam izhor etgan edilar. Shoh Navdar ham Mehrning ishtiyoqida, balki jigargo‘sha farzandining firoqida azadorlar kabi ko‘k kiyib olgan, bir ugina emas, butun odamlari ham shu xilda ko‘kka burkangan edilar.

Bular cheksiz motam, dengizechalik anduh va girdohi g‘am bilan kelgach, shohning bag‘ri yaranib qoldi. U endi o‘z qizi Mehrning taqdiri haqida surishtirarkan, uning Jobir asirasi bo‘lib qolganini eshitib, azasi yana chegaradan oshdi, dardu g‘amining andozasi bo‘lmay qoldi. Qaytib kelganlar, taqdir Mehrning boshiga nima kun solgan bo‘lsa, hammasini bir-bir bayon qilib berdilar. Shoh yana anduhga to‘lib, fig‘on chekdi. Bu g‘am-g‘ussalar uning joniga qasd etar, unga yorug‘ jahon qorong‘i-yu, go‘yo iqbolining Mehri – quyoshi botgandek bo‘ldi. U achchiq-achchiq yig‘larkan, o‘z-o‘ziga shunday dedi:

«Bu kabi achchiq yig‘idan menga nima foyda, jigargo‘sham yo‘qolgan ekan, endi bag‘rimni tig‘ bilan pora-pora qilganim bilan ne naf? G‘amu noladan hech qanday umid yo‘q. Endi, foyda keltirishi mumkin bo‘lgan bir chora topish kerak».

Nihoyat, u qo‘liga qalam bilan qog‘oz olib, butun bo‘lgan voqea-hodisalarni bir xatga yozdi. Nima ish bo‘lgan bo‘lsa, barchasini chizib, shoh Nu‘monga qarab jo‘natdi. U noma ichida shunday pinhoniylar ham bor edi:

«Bu bo‘lgan ishlarning hammasi yazdonning qazosidir. Lekin, haq taolo g‘am va halo bergan, dard bergan ekan, uning davosini ham bergan. Bu ishning chorasi endi intiqomdan boshqa narsa emas, aks holda, dunyoda tirik yurmoq haromdir. Mehr mening jonimning payvandidir, ammo, u sening ham farzanding hisobidadir. U qiz dushman ilgida mahbus ekan, bu faqat men uchungina emas, sen uchun ham nomusdir. Buning yagona tadbiri shulkim, ikkalamiz qo‘shin to‘plab borishimiz lozim. Bordi-yu, sen mamlakatingdan tashqariga chiqishni xohlamasang, aziz farzanding Suhayl fildek zo‘r, sherdek salobatli yigitdirki, uning panjasidan yuqoridagi ikkita dahshatli maxluq ham zabun bo‘ladi. Balki, falak shu o‘yinni ko‘rsatish bahonasi bilan Mehrni Suhaylning qo‘liga topshirmoqchidir! Binobarin, Suhayl o‘z askarlarini sohil bilan boshlab, suv yoqasidagi manzilga olib borib, Jobir turgan jaziraga

qarab yursa va Jobirga qarshi urush e'lon qilsa ekan! Men ham butun jangio' kishilarimni yig'ib, hamma qurol-yarog'larimni shaylab, ularni kemalarga solib, suv ichi bilan yel kabi uchib borsam. Men suv tarafdin hujum qilsam, Suhayl quruqlikdan urib bersa, bir necha kun orasida u zolimni ikki qo'shin chambarchas o'rab olishimiz mumkin-ku. Biz shunga qat'iy bel bog'lasak, alhatta, g'alabaga erishamiz va u zolimdan intiqomimizni olamiz. Mehrni ham tutqunlikdan ozod qilamiz. Agar sen bu maqsadga qo'shilishni xohlamasang, bu haqda meni tez orada xabardor et. Bordi-yu, urush mashhaqqati yolg'iz o'zimning boshimga tushadigan bo'lsa, u paytda boshqacharoq tadbir axtarishga majburman...»

Shoh Nu'mon bu nomani o'qigach, hangoma boshqacha bo'lganini fahmladi, falakning bu sitamidan benihoya g'amnok bo'lib, yig'ladi. Hamda, shoh Nu'mon shu nomadagi voqeadan hukm chiqazib, safarga chiqmish shahzoda Suhaylning kemasi ham o'z maqsadi sari yetolmay, o'zga tomonga adashib ketganiga aqli yetib qoldi. Birdan ikkita muhlik (halokatli) g'am shoh Nu'mon boshiga tushib, motam ustiga motam kuchayib ketdi. Lekin, asl hodisa nimayu, bu voqealarning boisi kim ekanligini tushunolmasdi. Nihoyat, shoh Nu'mon: «Sayohatga ketmish Suhayl charx zulmidan ovora bo'lib qolgani tufayli, uning qayerdaligidan asar ham yo'q va bu haqda hech kim xabar ham yetkazmaydi» degan xulosaga keldi. U ko'p o'ylagach, aqliga to'g'ri fikr kelib, o'qigan xatiga tubandagicha javob yozdi:

«Sen o'z nomangda Mehrning boshiga tushgan kunni yozgan ekansan. Uni o'qirkan, alamimdan boshimga tutun chiqib ketdi. Lekin, shu ondayoq o'rtanishdan, oh-voh qilib o'tirishdan foyda yo'qligini tushundim. Ammo, sen: «Agar Jobirga qarshi yurishni qat'iy istasang, yaxshi. Bo'lmasa, Suhayl qo'shin tortib, yarog'-aslahalar bilan qurollanib, dengiz qirg'og'i bo'ylab borsin», debsan. Suhayl haqida bu kabi muholag'a qilib, mening ko'ksimdagi dog' ustiga yana dog' solma. Avval ayt-chi, Suhaylning o'zi qani? Suhayl deb atalmish yigitimiz qayerda? Shu haqda javob ber! Axir, Suhayl Sizning tarafingizga ketganiga olti oy bo'ldi. Uning shu paytgacha kelmay, kechikib qolganidan nihoyatda g'amnok edik. Demak, u ham siznikiga yetolmagan, endi bu ham bizni tahlukaga solib qo'ydi.

Yaxshisi, sen quruqlikdan qo'shin tortib borib, Jobir qarshisida osmonga yetadigan baland borgoh tuz. Men esa dengiz ichi bilan kemada borib, unga qarshi qo'shin tortaman. Shoyad, shu mojaro bahonasi bilan dengizda gavharimdan nishon topsam. Uni topsam-topmasam, senga qo'shilishib, unga qarshi kurashishga va'da beraman. Axir, haq taolodan baxshish — muruvvat tilab harakat qilsak, u haromi bilan urushda g'alabaga erishib, jazosini bersak ajab emas. Endi, unga qarshi yuradigan kunimiz falonu, yurish qiladigan soatimiz falon. Sen ham shu fikrga qat'iy kelishib, shu va'da qilingan fursatda dushmanga qarshi azm qilsang ekan!»

Shu yuqoridagi maktubga shoh Nu'mon imzo chekib, nomani olib boruvchi kishini yo'lga soldi. Chopar ham yetib kelib bitikni

shoh Navdar qo'liga topshirdi. Navdar xatni ochib, ko'z tashlarkan, undagi barcha gaplarni o'qidi, va'da qilingan soatdan xabardor bo'ldi, xuddi o'sha paytga askarni ham, qurol-yarog'ni ham tayyorladi. Nu'monning u tarafga yurishi uchun, muayyan bir vaqt belgilandi. Binobarin, ikki shoh shoshilinch yo'lga tushib, biri dengiz va biri quruqlik bilan ketdilar. Ular bir necha kunlab sohil va dengizlarni kechib, yo'lda uchragan ofatlar bilan kurashib, dushman joylashgan o'rmonga yaqin yetdilar va ikki tarafdagilar ham ishni qanday boshlash haqida o'ylab qoldilar.

Navdarning o'rmonga yetishiga bir manzil qolgan bo'lib, o'rmon ichiga kirish g'oyatda mushkul edi. Shunda shohning yuragiga: «Dushman to'satdan yashirincha bir muyulishdan to'sib chiqib qolmasmikin!» degan vahima tushdi. U, askarlarini qulayroq va yaqinroqdan olib borishi uchun o'rmon daraxtlarini kestirib, yo'l ochishga qaror qildi.

Lekin u changalzorda ov qilish uchun bug'i va maral (urg'ochi kiyik)lar ko'p edi. Shoh ovga g'oyatda ishqiboz va u bilan juda ko'p shug'ullangan bo'lib, har qadamda ov uchrar edi-yu, ammo shoh askarlarni boshqarish bilan ovora edi. Sayd (ov) duch kelganda o'zini ko'rmaganga solar, uni ko'rishdan o'zini asrar edi. Nogahon bir gulrang shikor (ov) shohning qarshisidan o'tib qoldi. Shunda u, beixtiyor ovning orqasidan yugurib, o'q otish taraddudiga tushdi. Sayd esa, changalzor ichiga kirib, qochib qolish uchun shoshilar, ammo yo'l tor va daraxtlar nihoyatda bir-biriga chirmashib ketgan edi. Shoh uning orqasidan chopmadi, zero o'q otishga majoli ham yo'q edi. Oxiri, hayajon ichida uni ota boshladi-yu, lekin otgan o'qlari iztirobi natijasida xato ketdi. U shu o'ng kelmagan ovdan yomon xulosa chiqazib, es-hushini yo'qotib qo'ydi. Keyin, u ovni qo'lga kiritish uchun shunday qizishib ketdiki, o'z dushmanini bilkulli esdan chiqazib yubordi. Shu xilda ov ketidan o'rmon ichkarisiga kirib ketib, dushmanining askarlari turgan joyga borib yetganini bilmay qoldi. Jobir bir pastqam joyga jang-jadal paytida devdek kurashadigan botirlardan birmunchasini qo'ygan edi. Ular bu yerdan kimni tutsalar, Jobirning huzuriga olib borishlari kerak edi. Ular qarasalar, bir bug'i qochib kelyapti, orqasidan esa, bir otlig' jadal bilan quvyapti. Ular otga suvori bo'lib, uni poshnalari bilan niqtab, tezda ovchiga yetdilar va uni zo'rlab otdan tushirdilar. Nihoyat, ovni tutish uchun yugurib ketayotgan bu sayyodning o'zi hash-pash deguncha boshqa sayyodlarga sayd bo'lib qoldi!

Agar shoh shohlik qilishni istar ekan, o'z qo'shinidan ajramasligi kerak! Shoh o'z qo'shinlari bilan shoh, agar qo'shini bo'lmasa, u shoh emasdir. Shohning askari bo'lsa, u istagan joyini fath etib – g'alaba qozonadi. Ammo bir kishi Rustam bo'lsa ham – bir kishi, xolos. Asal arisi ham shohlik qoidasiga amal qilib, bir joyda qo'shinsiz yurmaydi ham, turmaydi ham. Oqu qorani ko'rish uchun yolg'iz uchadigan bo'lsa, oddiy asalari bilan shohning orasida ne farq qoladi? Shatranj (shaxmat) shohi si pohlardan ajrab qolsa, qani ayting-chi, bu shohni shoh deb hisoblab bo'ladimi?

Shu yo'sinda yolg'iz qolgan Navdar shoh dushmanga asir bo'lgach, ustidagi butun kiyimlarini bir-bir yechib oldilar. Uning ahvolu qiyofasiga nazar solib, Navdar shoh ekanini ham bildilar. Ulardan bittasi shu onda yugurib borib, baxt kulib boqqani haqida Jobirga xushxabar yetkazdi. «Shunday ajoyib iqbol yuz ochdiki, kutilmaganda katta bir ov tuzog'ingga ilinib, senga shikor bo'ldi», dedilar. U bu xabarni eshitarkan, shukronasi uchun Tangriga sajda qildi va aytdiki:

«Hech narsani kutmay, uning ko'zini bog'lab, kemaga solgancha olib kelib, qasrga qamang va u xonaning eshigini mahkam bekitib qo'ying! Bu ishni shu darajada pinhoniyl bajaringki, hech kim fahmlamasin. Uy eshigini qo'riqlash ishini falonchiga topshiring-da, tezda meni bundan xabardor qiling!»

Shohni u aytilgan xonaga olib kelib tiqdilar va Jobir bu haqda nima degan bo'lsa, hammasini bajo ayladilar. Na shoh bu yer qasr ekanini bildi va na bu yerga qamalgan Navdar shoh ekanidan birov xabar topdi.

Navdarning ishi shu tarzda bo'ldi, ammo shoh Nu'mon hali ham suv ichida edi. Bularning mo'ljaliga ikki kun qolganda, yana bo'ron turib, suvni betinch qilib yubordi. To'lqinlar shunday osmonga tutashib ketar, yangi oy esa xuddi kemadek katta bo'lib ko'rinar edi. Shoh Nu'monning hayotiga to'lqindan katta xavf tushib, u ham o'z jonidan umidini uzib qo'ydi. Bu to'fon natijasida safar ahlining ko'pchiligi talafotga uchradi va kemalarni to'lqin har tomonga to'zgitib yubordi. Garchi Nu'mon uchun ko'pgina dahshat yuz bergan bo'lsa ham, ammo to'fondan shikastlanmadi. Nihoyat, buning kemasi ham o'g'lining kemasi borgan joyga borib qoldi.

Diydabon – nazoratchilar bu haqda ham Jobirga xabar qildilar. Jobir bular tarafiga ham yetib bordi va buning odamlarining ko'pchiligida hayot asari qolmaganini ko'rdi. Tirik qolganlaridan surishtirib, ularning boshiga qanday ahvol tushganini bilib oldi. Ularni oldiga solib haydab, yuqorida zikr qilingan o'z jazirasiga olib keldi. Ular hushsiz holatdagi shohni chiqazib, boshqa mol-hofu qurol-yarog'larni kemadan bo'shatdi. Shoh shunday bemor va behol ediki, uni kemadan chiqazgan odam kimligini ham fahmlamadi. U shohni ajratib, bir xoli joyga yolg'iz qo'ydi va boshqa bir zindonga qarab jo'natdi. Shoh u chohda doim o'z jonidan vahimaga tushar, ammo hech kimning bundan xabari yo'q edi. So'ngra Jobir qolgan kishilarni yana o'z kemasiga tushirib, ularga tubandagi gaplarni aytdi:

«Agar sizga jon kerak bo'lsa, qaytib ketingiz, ko'nglingiz qayerni xohlarsa, o'sha yerga boringiz. Lekin birontangizning bu yerda qolganingizni bilsam, tirik qo'ymayman», deb pisanda qildi. Bu odamlar boshlarini olib ketdilar, ularning ko'zlari to'la yoshu yuraklari to'la g'am-anduh edi.

Shoh Navdarning askarlari ham kutilmaganda boshlariga nima ish tushganini fahmlab qoldilar. Ular bir necha marta majlis tuzib, ahvolni muhokama qilib ko'rdilar. Ammo, shohsiz hech qanday xulosaga kelolmadilar. Binobarin, bular ham hech qanday chora topolmay, hammalari xafalangan holda birdan jo'nadilar. Tolei yor bo'lmish

yo'lto'sar Jobir esa, tunu kun o'z bog'ida bazm va aysh-ishrat qilar edi. U har bir qadahni Mehr yodi bilan ichardi, ammo hech qachon uning yuziga boqolmas edi. U, o'z murodiga yetolmagani uchun uning yodi bilan boda o'rniga qon yutar edi.

Mehr esa, gul singari yoqasini chok qilib, nilufarzor oralab g'amnok kezar edi. U ko'zlaridan daryo-daryo yosh to'kar, nilufarga o'xshab ko'k kiyinib olgan edi. Yuziga tarsaki uraverganidan, gulistonida nilufarlar ochilib ketdi. Ayriliqdan forig' bo'lishni istab, ham u balodan qutulishni o'ylab, kechalari ko'zini yummas, kuni bo'yi chora axtarib, topolmas edi. U, choh ichida bir bandi borligini, u g'amu anduh bilan joni azoblanayotganligini bilgan edi. Mehr o'ylab-o'ylab: «O'sha bandini amallab chohdan qutqarsam-da, zor-zor yig'lab, unga yolborib, uni Suhaylni boshlab kelish uchun jo'natsam va unga hojatimni pinhoniyl bayon etsam. Shoyad u ahvolimni tushunib, meni xalos qilish uchun u tarafga borsa!» deb xayol surar edi. Shu kabi andeshalar bilan ikkita dildor kanizagini yoniga olgan holda yashirincha qorong'i uy orqali asta-sekin zindon boshiga keldi. Va:

— Ey, dard va mashaqqatning asiri! Men ham sen kabi bir bechoraman va senga o'xshagan asiru notavonman. Seni xalos qilish uchun jonimni ayamay harakat qilib zindondan chiqazsam, men nimani aytсам qabul qilasanmi, qayonga borgin desam borasanmi? — deb nido qildi.

Bu zindonga yotgan odam Suhaylning o'zi edi-yu, lekin nihoyatda zaiflashib, holi xarob bo'lgan edi. Uning shu kabi ayanch ahvolga tushuviga bir tarafdin o'zining baxtsizlikka uchragani sabab bo'lsa, ikkinchidan, gulchehra Mehrning furqati va undan ajrab qolganligi edi. Mehrning bu xitobini eshitarkan, Suhaylning iztirobi undan battar oshdi. U o'z hayajonini zo'rg'a to'xtatib, nozaninga tubandagicha so'z qotdi:

«Ey, inson qiyofali farishta! Sen mening o'lgan tanimga toza hayot berding. Sen menga shunchalik lutf-marhamat qiladigan bo'lsang, qanday xizmat buyursang, to tanimda jonim boricha harakat qilib, mumkin qadar buyrug'ingni ado etgumdir».

Mehr bu rozilikni eshitishi bilan chohga arqon tashladi, yo'q, arqon emas, ikki o'rim sochni tashladi. Notavon Suhayl u chilvir sochni mahkam ushlab oldi, Mehr yonidagi ikki mahvash ham bir bo'lib uni tortib oldilar. So'ngra qorong'i uyga olib kirdilar va Mehr unga yashirincha ko'p mehribonchiliklar qildi va uni zanjiru bandlardan bo'shatdi. Shunda u g'amgin bechora zor-zor yig'lab, yer o'parkan: «Ey malak siymo, hukming nimada? Meni bir oz undan xabardor qil!» — deb yolvordi. Mehr o'z afsonasini hikoya qilish bilan, boshiga tushmish hamma voqeani bir-bir bayon ayladi. Otasi, mamlakati va uning baland mansabu saltanati, o'z pardasi (nomusi)ning Suhayl bilan bog'laganligini, ya'ni, unga unashirilganligini boshdan-oyoq tasvirlab berdi. Shuningdek, dengiz to'liqini tufayli falokat yuz berib, notavon holda bu yerga asir bo'lib qolganini ham so'zldi. Bu yerda noilojlikdan o'tirgani bormi, Jobir ilgidan omonligining sababi bormi, hammasini zikr etdi. Bularni

eshitarkan, bechora Suhaylning notavonligi ortib, lahza-lahza o'zini yo'qotar edi. Go'zal Mehr o'z so'zini tubandagicha tugatdi:

«Meni bu yerdagi asirlikdan, Suhayldan o'zga hech kim, hech qanday chora bilan qutqazib qololmaydi. Ey, darmand, ovora kishi, senga mening so'zim shuki, sen bir chora topib, dengiz tahlikasidan eson-omon o'tib, Yaman o'lkasiga qarab ravona bo'lsang va tez harakat qilib sur'at bilan yo'l bosib borib, bu hol-ahvolimni Suhaylga arz qilsang ekan! Lekin bu gaplar hozircha sir tutilsin. Seni bu uyda bir necha kun asrasak, sen avval bu ishni hech kimga bildirmay, yaxshilab o'ylab ko'rsang-da, ma'qul bo'lsa, ont ichib bizni ishontirsang ekan! Axir, men bechora baloga duchoru Jobir ilgiga asir va muftalo bo'ldim! U, yiroqdan menga ko'zi tushishi bilan yerga yiqilib, go'yo xasdek yotib qoladi. Qachon ko'rishni orzu qilsa, menga ro'para bo'lish bilan yiqilaveradi. Bu yerda mening faqat umrim o'tyapti, xolos. Jobir bilan bundan boshqa hech qanday muloqot va munosabatda bo'lmadim, vassalom!» — dedi.

Bu gaplarni eshitgach, zor va hazin Suhaylning xotiri andak taskin topdi. Mehrning so'zlari sidqidildan ekanligini tushundi-yu, ammo o'zini bosib turolmay, yuragidan oh tortib yubordi va o'zini dilbarining oyog'i tagiga tashladi. U faryod chekib, behush bo'lib yiqilgan edi. Bu holat Mehrni ham hayratga solib, sarxush qilib qo'ydi. Keyin uning ahvolini bilmoqchi bo'lib sinchiklab qarasa, bu xuddi Suhaylning o'zi! U ham o'lgudek nola qilib, es-hushini yo'qotdi va yiqildi. Bularning tepalarida ikki kanizak yig'lab, quyoshga o'xshagan boshlarini ko'tarar edilar. Nihoyat, ochiq fikrli Mehr o'ziga kelib: «Fitnaning qanoti yulindi», dedi va uni to jahonni qorong'ulik bosguncha o'sha qorong'i uyga qamab qo'ydi. Suhayl shunchalik behol bo'lgan ediki, faqat kechasigina o'ziga keldi. Keyin bir-biri bilan xuddi jon bilan jismdek va yoki sarv bilan pechak guldek chirmashib ketdilar. Suhayl shu xonada necha kun turgan bo'lsa, sarv gulrux uni shu tarzda mehmon qildi. U, nimjon jismiga quvvat kirsin, deb Suhaylga taom bilan sharbat berar edi.

Jobir esa Mehrning hajrida sabr qilishdan o'zga chorasi yo'qligini yaxshi bilardi. Shu voqeadan ikki-uch kun o'tar-o'tmas, hech sirdan xabari yo'q Jobir xotirjamlik bilan bog'ni tomosha qilib yurarkan, to'satdan, xuddi to'ng'izga tashlanmoqchi bo'lgan sherday, qarshisidan Suhayl botir chiqib qoldi. Va u Jobirga qarab: «Kim makr bilan ish tutib pahlavonlik qildim, desa xato qiladi. El kemasini hiyla bilan teshib, suvga g'arq qilish va kishining joni qolmagan paytda uni bog'lab qo'yish, bu, nomardning ishi. Sen agar o'z itligingni ko'rsatar ekansan, men senga yigittligimni ko'rsataman!» — dedi-yu, xasimga qarab tashlandi. Dushman esa hayratidan betob va bemajol bo'lib qoldi. Keyin olishmoqqa harakat qilsa ham, lekin Suhayl omon bermay, uni ko'tarib yerga urdi va tezda qo'llarini buni u bog'lagan arqon bilan chambarchas bog'lab tashladi. Va shu ondayoq uni haligi chohga tashlab qo'ydi. Shuning uchun ham aqlli va fahm-farosatli kishilar:

«Kimki birovga choh qazisa, u chohga albatta o'zi yiqiladi», deydilar.

Suhaylga shu xilda g'alaba yor bo'lgach, Mehming to'y-tomoshasini qilish ishiga bel bog'ladi. Bu orada Jobirning butun dafinalari va olam-olam xazinalari ham uning qo'liga kirdi. Bu voqeadan Jobirning barcha odamlari ezilib-sarafkanda bo'ldilar. Suhayl shohlik topib, qolgan barchasi qulga aylandi. So'ngra, bu murodiga yetmish, davlatmand odam aysh-ishrat va shodlik bazmini tuzib, qo'liga shohona qadah olib, tubandagicha farmon berdi:

«Jobir kimning oyoq-qo'lini bog'lab, qamab qo'ygan bo'lsa, men ularning barchasini ozod qildim. U bandalarni huzurimga keltiring, qadahda may tutib, ularni shod qilayin!» — dedi.

Shundan so'ng bog' ichidagi bazmu ziyofat bo'layotgan joyga ikkita bandini olib keldilar. Bularning biri Navdaru yana biri Nu'mon shoh edi, bu yanglig' qissaga kimning gumoni bo'lishi mumkin. Bu paytdagi ahvolni qanday sharhlayin? Va buni birov bilib, birov bilmasa, netayin?! Axir, bu yerda ikki ota bilan ikki farzand, vasi-diydor ipi bilan payvand etildilar. Ular yig'i-sig'i bilan ko'rishdilar va o'tirib, bir-birlari bilan hol-ahvol so'rashdilar. Nihoyat, hamma voqea ma'lum bo'ldi. Ular hayrat va hayajonga to'lgan holda Xudoga shukrlar qildilar. Ikkala shoh mol-mulklarini, toj-taxtlarini Suhaylga taqdim etib, o'zlari xudo yo'liga kirib, toat-ibodatga berildilar. Butun el-ulus esa bu ish uchun Mehr bilan Suhaylga minnatdorchilik izhor etdilar va tashakkur bildirdilar. Shunday qilib, falakning gardishi bilan Suhayl va Mehr bir-birlarining visollariga yetdilar.

Bu Mehr deganimiz osmonning yerdagi quyoshi bo'lib, nilufarzorda jilvalanar edi. Uning to'ni ham, ko'ylagi ham nilufar rangida bo'lgani kabi, yorining ust-boshi ham shu rangda edi. Nilufar rangi kishi tab'igagina yoqimli emas, hatto osmondagi mehr munirning libosi ham shu rangdadir. Har qanday parichehra mahvashning libosi moviy rangda bo'lsa, u dilkashdir. Osmonning gulruxi bo'lmish mehr—quyoshning nilufarvash libosi ham moviydir.

Shu yerda roviy o'z afsonasini tugatarkan, parda sohibi ham o'zining moviy pardasini ko'tardi. Shoh Bahrom, lutf-marhamat aylab, musofirni ehson yomg'iri bilan ko'kartirdi. U, roviyning xizmati uchun kutilgandan ortiq haq bergach, ko'ziga uyqu osoyishtalik bag'ishladi.

XXX

Payshanba kuni Bahromning sandaloso (jigar rang) xil'at bilan sandal hidli gulshanda orom olib, sandal bo'yli sarvqomat bilan sandal isli boda ichgani va u sandallar laxlaxasidan (iforidan) dimog'i muattar bo'lib, ko'zi uyqu talab etgani

Payshanba kuni charxfalak subh mahalda ko'k yuziga sandal hidini ufurdi. Nasim sandal kabi hid tarqatib, ko'k dimog'ini atirga burkadi. Natijada, sandal hidiga o'xshagan atir sharofatidan tun mizoji o'zgarib; qorong'ilikdan qutuldi. Shoh ham barcha liboslarini sandaliy rang qilib, sandaloso uy ichiga qadam qo'ydi. Osmon sandali yerga soya solgan paytda, osmonga sandal yog'ochidan pillapoya qilingandek

bo'ldi. Sandal bo'yi sarvqomat go'zal ham qatma-qat sandalgun libos bilan hozir bo'ldi. Uning sandal tusli kiyimlaridan tevarakatofga ajoyib sandal hidi taralar edi. Shuningdek, bazmdagi o'tga sandal tarashalari yoqilganligi va kofur moddasi tashlanganligi tufayli, hammayoqni bularning xushbo'y hidlari qoplagan edi. Nihoyat, qadahlar aylana boshlagach, kecha ichilgan mayning bosh og'rig'i ham tarqaldi.

Zero, soqiy, dardisar – bosh og'rig'ini daf' etish uchun mayga sandalning qizil sharbatini omixta qilgan edi. Nihoyat, sandal bog'ining xurshidi botib, tun zog'i olamga qora qanotini yozdi. Kecha mushk rangli qora chodirini yoygach, osmon sandali unga yulduzlarni yoyib tashladi. Shu payt gulchehra nozanin sandal kursisi yonidan turib, xuddi quyosh sandali singari yuzini yashirdi, ya'ni o'zini ichkariga oldi. Yana baxtiyor shoh, uxlash oldidan, afsona talab qildi. Xodimlar shunday sayyohni olib kirdilar, u sayyoh emas, dengiz ichidagi malloh – kemachini eslatar edi. U, tun bo'yi afsona aytishi, balki g'oyibdan ham xabar berishi kerak edi. Nuktago'y avval duoga qo'l ochib, so'ngra sandal kabi xushbo'y nafas bilan:

«To osmon charxi o'z o'qi atrofida aylanar va boshqa yulduzlar ham harakatdan to'xtamas ekan, taxt-saltanating ko'kdan balandu, mingan oting yulduzlardan ham yugurdak bo'lsin!» – dedi.

XXXI

Oltinchi iqlim yo'lidan keltirilgan musofirning so'z san'ati

Musofir yuqoridagi durlarni nisor qilishdan forig' bo'lgach, tubandagi hikoyani aytib berdi:

Boxtar degan diyordan Xovarga qarab ikki kishi safar qildi. Ularning biri biyobonlarni kezadigan Muqbil bo'lib, ikkinchisi daryolarda sayr qiladigan Mudbir edi. Bu ikkalasidek yo'lovchini ko'hna dunyo quruqlikda ham, suvda ham ko'rmagan bo'lsa kerak. Ozoda Muqbil baxtiyor odam bo'lib, iqbol uning peshonasini yarqiratgan edi. Lekin Mudbir esa qayonga bormasin, yuziga pastkashlikning g'ubori qo'ngani qo'ngan edi.

Yo'lda g'oyatda xavfli bir vodiy bo'lib, xabardor kishilar u yerdan zinhor o'tmas edilar. Uning sabzazori ham, bog'i ham tikan bilan sho'rayu suvi ham, tuprog'i ham naft (neft) bilan gugurtga bulanchiq edi. U yerni tutun va qo'lansa hid bosib yotar, bu g'uborotlar Iso payg'ambarning hayotbaxsh nafasini ham zaharlaydigan darajada edi. Uning yeli o't-olov bo'lib, kishiga tegadigan bo'lsa kuydirib, kulini sovurardi. U yerga jonivorlarning kirishi uchun imkon yo'q, agar jonivorning o'zi kirsa, joni chiqib ketardi. El buning otini «Vodiyi hamim» (Qaynoq vodiy) deb ataydiki, vodiyning tabiati bu nomning to'g'riligini isbotlab turadi. Mana shu yuqoridagi ikki kishi yo'lni bilmaganlari tufayli, shu vodiya hamroh bo'lib kirib qoldilar. Ular bu vodiyning yo'l azobini va balo dashtining uqubatini ko'rdilar. Lekin, bu azob-uqubatning chegarasi bo'lmaganiga qaramay, buni

kechib o'tmoqdan o'zga chora yo'q edi. Har balo yuz bersa ham sabr-tahammul aylab, dashtga tavakkal qilib kirib boraverdilar. Havo isib, harorat hammayoqni kuydira boshladi. Bunga chidamagan nomard Mudbir og'ziga kelganni vaysay boshladi:

«Bu qanday havo bo'ldi? — der edi u. — Buni bir yoqlik qilish kerak bo'ladi». Bir oz turib esa: «Suv yasash qiyin — dushvor ishmi?» — derdi. Uning har bir so'zida Tangriga e'tiroz qilishdan o'zga ma'no yo'q edi. Chunki u oyoq og'rishdan nolib, ta'na toshini hamrohiga otdi: «Men notavon xastaga sen kabi hamrohning bo'lganidan bo'lmagani yaxshi edi. Sen bilan yomon soatda ko'rishgan ekanman, mana shu yomonlikning kasofatidan hozirgi og'ir kunlar boshimizga tushdi», dedi. Muqbil ibodat bilan shug'ullanar, uning duo va tasbihlari Tangri dargohida maqbul edi. Buning gaplari Mudbirga bir nasihatdan iborat ediyu, ammo bu nasihatlar unga kor qilmas, foyda bermas edi. Kuydiruvchi — jazirama dashtni kechib o'tguncha Muqbil shu kabi ko'p azob-uqubat chekdi. Bu dashtdan chiqib, undan uzoqlashgach, dardu g'am dengizi ham orqada qoldi.

Muqbil o'z hamrohidan juda batang bo'lgan edi, binobarin, u bilan ajrashish fikriga tushdi. Undan ko'rgan azob-uqubatlarni sanab: «Shu nuqsonlar o'rtamizga ayriliq soladigan bo'ldi», dedi. Mudbir esa yaxshiliklar qilishga va'da berib, o'zidan o'tgan gunohlariga tavba qilib, ayrilmaylik, deb yolvordi. U boshlarini yerga qo'yib, o'zining yomon fe'llarini tashlashga astoydil so'z berdi. Uning tavbayu uzrxonliklarini eshitgach, Muqbil ishonib, iltimosini qabul qildi va buning yana yomonlik qilajagini ko'nglidan chiqazib yubordi. Ammo, u yolg'onchi o'zining va'dalarini unutib qo'ydi.

Suv qirg'og'iga yaqin yetarkan, dengizda son-sanoqsiz kemalar ko'rindi. Sohilni axtarib, kema egasini topdilar hamda har birlari o'zlari uchun kema haqi to'lab, kemaga kirishga ijozat oldilar. Malloh — kemachi ularga ikki kishilik bir sandal-qayiqcha tayin qildi. Bu qayiqni o'z ixtiyorlariga olgach, uning arqonini bir katta kemaga bog'ladilar. Shundan keyin dengiz ichiga qarab ravona bo'ldilar.

Bir kecha kema bir tarafga qarab borar edi. Kema haydovchilar borgan sayin sur'atni oshirar, kemalar tezlikda xuddi qush kabi uchar edi. Yana Mudbirning eski odati qo'zib, har xil maza-bemaza gaplar ayta boshladi. Sherigi saodat egasi bo'lib, ertayu kech tasbih va ibodat bilan mashg'ul bo'lar va buni ham behuda gaplardan qaytarar, lekin Mudbirga esa, bu nasihatlar ta'sir etmas edi. U qayta-qayta kufrga ketar, dinsizlardek shakkoklik qilar, gap-so'zidan xuddi tentaklikning hidi kelar edi. Shu payt dengiz ustida ho'ron qo'zg'alib, kema-dagi odamlarni tashvishga solib qo'ydi. Bu voqeani ko'rgach, Mudbir Tangriga xitoban: «Sening ishlaringda hech qanday tartib va ishonarli narsa yo'q. Dashtu qumlaringda qanchadan-qancha kuydirish-yondirish bo'lgani kabi, dengiz va undagi mavjlarda hovliqish-to'lqinlanish; avvalgida sustlik bo'lsa, bunisida haddan oshiq chegaradan chiqish. Bu ahvollar odamlarning es-hushini olib qo'ydi-ku», kabi ta'nalarni qilib, o'rinsiz valdirar edi. Buning shuni nafasi kasofatidan dengiz chayqalib, halokatli to'lqin hosil bo'ldi. Dengizda shunday qiyomat

yuz berdiki, suvda bo'lmish po'rtananing cho'qqisi osmonga borib tegdi. Bu to'fonning keltirgan baxtsizligi natijasida har kimning kemasi har yonga to'zg'ib ketdi. To'lqinning shiddatidan qayiqchani kemaga bog'langan arqoni uzilib, kemadagi yuklar va asbob-uskunalar ham ag'darildi. Kemalarning bir qismi omon qolgan bo'lsa ham, ko'pchiligi dengizga g'arq bo'lib ketdi. Qolgan kemalar ham har yonga to'zib ketgan, hech kim xotirjam emas, barcha xavf-xatarda edi. Bu ikki kishining qayig'i shiddat bilan harakatlanar, qayiq ichida esa Mudbirning ahvoli xarob edi. Muqbil duo o'qib, Xudoga tazarru qilar, Tangridan yorliq tilar edi. Dengizda shunchalik ofat bo'lgani ustiga-ustak, baxtsiz sherigining yaramasligini aytmayisizmi. Muqbilning duosi bekor ketmay, dengizdagi halokatli to'lqin to'xtadi: shamol tinib, dengiz taskin topdi. Qayiq ham suv yuzida ohista yura boshladi. Dengizda yuzlab xavf-xatar yuz berganda ham, Muqbil o'zini Tangri qazosiga topshirib turdi.

Shunday ahvolda ketar ekan, ozoda Muqbil dengizda bir qora narsani ko'rib qoldi. Uning rangi ko'k osmon singari bo'lib, ko'rinishi va dumaloqligi ham xuddi charxi minoni eslatar edi. Mana shu ko'ringan qora narsa tomonidan bir shamol esib, xuddi kishiga jon bag'ishlaydigan hid taratdi. Uning hidi muattarlikda sandalni eslatar, bu yelda xuddi Masihning hayotbaxsh nafasi bordek edi. Dimog'i toliqqan Muqbil ham dengizning bu isidan bir nafas huzur qildi. U buning shukronasi uchun Tangriga sajda qilgach, filhol qayig'ini u tomonga qarab surib ketdi.

Kishi qayig'ini iqbol yeli sari surar ekan, uning bir onda manzilga yetishi ajablanarlik emas. U, xuddi bir azim daraxtga o'xshagan bo'lib, rangi va balandligi esa falak timsolida edi. U daraxt sandalni eslatar, bargining ko'zgulari esa sayqallangandek go'zal edi. Kimki bu daraxtning yaprog'idagi ko'zguga nazar solarkan, unda baxt aks etganining shohidi bo'lardi. Balandligi ko'kkacha borib yetgan bu daraxtning barglari dengizga soya solib turar, soyasi tufayli suv ham anbar rang bo'lib, kishi dimog'iga sandal isidek urilar edi. Suv yuzida qancha quruq yer bo'lsa, bu daraxt shu yerning hammasini bosib yotar edi. Uning tanasida bir katta kovak bo'lib, shu kovak ichida sof va haddan ziyoda tiniq bir chashma bor edi. Suvining ko'rinishi eritilgan kumushdek va jo'sh urib turgan simobdek sermayj edi. Uning g'ulg'ul qilib qaynab chiqishi xuddi dengizdagi odamlarning ishiga kulayotgandek bo'lib, dengizga ham g'ulg'ul qilib quyilar edi. Bu ikki sitamdiyda shu yerga yetgach, bir nafas orom olishga qaror qildilar.

Daraxtning chaqalangan bir joyi bor ekan, dono Muqbil shu yerga chiqib, qayig'ining arqonini mahkam bog'ladi va tezda daraxtning kovagiga kirdi. U, kovakdagi chashmaga qararkan, chashmaning boshida bir tosh bo'lib, uning yuziga xatlar yozilganini ko'rdi. Shu payt Mudbir ham hovliqqancha kovakka kirib, hayajon bilan suv icha boshladi. Tosh yuzidagi ajoyib xatlar san'atkorona o'yib yozilgan edi. Bu bitiklarni Muqbil ham, Mudbir ham o'qidilar. Go'zal xatlarning mazmuni tubandagicha edi:

«Qaysi kishi bu manzilga kelib, bu g'aroyibni tomosha qilar ekan, shuni unutmasingki, u simiyo bo'lib, aql nazdida g'alati ko'rinadi. Aslida bu daraxtning laqabi «sandali simiyo»dir. Bu, el-ulus tafakkur qilganidan ajibroq bir narsadir. Xoh sodiq rostgo'y va xoh kosib yolg'onchi, kimki bu yerga kelib, shu suvdan ichishni xohlab qolsa, suvdan ichgan zamon ochlik va tashnaligi daf' bo'ladi. Halol yaxshi odam bu suvni ichgach, bir oygacha xursand bo'lib yuradi va yeyish-ichishga ehtiyoji bo'lmaydi. Lekin yomon yolg'onchi odam esa, uch kun o'tar-o'tmas qorni ochib, yeb-ichishga zarurat ko'radi. Bu chashma suvidan bahramand bo'lgan odamning tiliga nogahon bir yolg'on gap kelib qolsa, qorni birdan yorilib, o'sha onda halok bo'lg'usidir. Ichilgan suvning xosiyati shu xilda bo'lgani kabi, u chashmaga kirishning xosiyati ham ajoyibdir. Masalan, bu kovakka yolg'onchi kirsam, vujudi kuyib, tanasidagi xom joyi pishadi; rostgo'y kirsam-chi, uning hech yeri kuymaydi, xuddi suvni ichganda xursand bo'lgani kabi shodlikka muyassar bo'ladi. Lekin kim g'usl qilib-cho'milmoqchi bo'lsa, ko'zini yumishi, quloq-burnini ushlab sho'ng'ishi shart. Sho'ng'iganda nimani ko'rgan bo'lsa, suvdan chiqqandan so'ng, uni hech kimga aytmasligi kerak. U suvda bir cho'milgan odamning ko'rgan sirlari, uni yana cho'milishga yo'l qo'ymaydi. Masalan, kim shu suvga butun vujudi bilan sho'ng'imoqchi bo'lsa, suv pastlanib, bunday sho'ng'ishga to'sqinlik qiladi».

Rostgo'y bilan yolg'onchi bu xatni o'qigach, yolg'onchida o'zini sinash havasi tug'ilib qoldi. Bir-ikki qultum u suvdan ichib, yolg'on, yomon va behuda gaplar gapirishni tark etmoqchi bo'ldi. Ammo bu odatni tashlash unga amrimahol edi, axir, uning tabiati va mizoji shu xislat bilan yo'g'rilgan edi-da. Icharkan, birdan ochlik va kuyish boshlanganligi uning tubandagi iboralaridan sezilib qoldi:

«Endi yolg'on gapirmayman, agar gapirsam, o'limimga roziman!» — deb bu suvdan ichdi-yu, hayotini shu chashmaga bag'ishladi u.

Rostgo'y esa, qudratli Tangriga shukur qilish niyati bilan qo'l-betini yuvib, tahorat oldi. So'ngra, u hayot zulolidan ichdi, ichdiyu, ammo uning o'tida kuymadi. Mudbir esa, u suvga tushib, kir-chir joylarini yuvib tozalash niyatida yalang'och bo'lib, endi qo'lini urgan edi, qaynoq suv birdan qo'lini kuydirdi. Lekin, sodiq-rostgo'y Muqbil beliga lungi bog'lab, xuddi daryoga qayiq tushganday u suvga tushdi. Yo'ldoshi Mudbir esa, uning tepasida termilib qarab turar edi. Shunda Muqbil cho'milish uchun boshini suvga tiqdi va boshini ko'targach, suvga qararkan, bu chashmadan chiqayotgan narsa suv emasligini fahmladi. Bu bir hovuz bo'lib, uning ichi to'la lab-balab zulol suv kabi edi. Hovuzning toshlari yaraqon (sarig' kasali) rangida — sandalgun bo'lib, toza va tekis yo'nilgan edi. Hovuz atrofi gulzor va u jannatdagi Eram bog'ini eslatardi. Uning oldida haramdek bir pok joy ko'zga tashlanardi. Hovuzdan chiqish uchun oyoq bosarkan, bir necha sarvqomat, oqbadan nozaninlarni ko'rdi. Ular epchillik bilan buning huzuriga kelib, tanasini artish uchun, pokiza po'ta-sochiqlarni unga tutdilar

va yana harir hulla-liboslar keltirdilarki, ularning hammasi shinam, chiroyli va kishiga yarashiqli edi. Bularni xojaga xizmatkorlarcha taqdim etdilar va uning badanlarini artib quritdilar. Unga kiydirilgan sarupolarning barchasi sandal rangi sandal isli edi. Uning boshiga salla ham o'ratdilar, u ham sandal kabi xushbo'y edi. Kiyinib-taranib, orasta bo'lgach, uni sandal qasriga boshlab bordilar. Bu si porishlar xojaning joniga quvvat, ruhiga shodlik bag'ishlagani kabi, uni hayron va mahliyo qilib qo'ygan edi. U, bunday ko'zini ochib atrofga nazar solsa, o'zining boshqa olamda ekanligini his qildi. Keyin, uni bir qasr ichiga olib kirdilar, u shunday hayrat ichida ediki, o'zining na mast va na hushyor ekanini bilmas edi. Bu kirgan qasrining ravoqlari osmon kabi baland bo'lib, umr qasri kabi quvonch bag'ishlovchi edi. Bu imoratning shifti ham, ravoqi ham sandal bo'lgani kabi, eshigi, poli va toqi — gumbazi ham sandaldan yasalgan edi. Bu sandallarning atrlari kishi aqlini og'dirar, goh hushga keltirsa, goh behush qilar edi. Qasrning ichida sandal misol taxt bor bo'lib, u har turli javohirlar bilan bezatilgan edi. Taxt tepasida bir go'zal maxluq surati bo'lib, unga qarab, jinmi-insonmi ekanini ajratish qiyin edi. Uning qiyofasi ko'rinishdan ruhoniyya o'xshar, boshidan-oyog'igacha nuroniy bir vujud edi. Husnining go'zalligidan unga qaragan odamning ruhi jonlanar edi. Xurshidi tobonga o'xshash yuzi esa, farishtalar dunyosini eslatar edi. Nurli qaddi-qomati go'yo jannat niholiday, vujudiga esa suv bilan tuproqning daxli yo'q edi. Jismi boshdan-oyoq nuqul latofatdan iborat bo'lib, bu, el uchun ofatning o'zginasi edi. Uning atrofida yuzlab tong yulduzi xuddi huru pari singari jilvalanib turar edi.

Xojaning ko'zi u diloroga tusharkan, es-hushini o'g'irlatdi-qo'ydi. Uning vujudida qoni qotib, rangi sarg'ayib, yerga yiqilib, o'zidan ketdi. Shunda u sarvi gulrux uning oldiga kelib, lutf bilan yoniga o'tirdi. U gulruxning hidi dimog'iga kirishi bilan xoja hushiga keldiyu, uni ko'rgach, yana esi faromush bo'ldi. Miyasida aql nishoni qolmay, goh o'ziga kelib, goh bexud bo'lar ekan. U hurzod mehribonchilik qilib, uni o'z lutfiga o'rgatib oldi. Nihoyat, uning bezovta ko'ngli tinchlanib, yuragidagi o'tning harorati pasaydi. Yuz xil ta'zim va noz-istig'no bilan u go'zal kelinchak o'zini xojaning yaqin ulfatiga aylantirib oldi va tortinmay unga yondasharkan, xojaning boshi shavq o'tiga o'raldi. U sabr-qaroridan ajrab, o'z ixtiyorini unutib qo'ydi. Uning siynasi chok bo'lib, shavqining tug'yon va g'alayonidan halokatga uchrashga sal qolgan edi. Shunda mahvash xojaning ilgidan ushlab, uni suyab, taxti ustiga olib chiqdi va xoja yer o'pib: «Ey go'zal, takyagohim ham, suyanchig'im ham sensan, mening hech narsaga haddim yo'q», dedi. Mahvash uning qoshida shunday aziz ko'rindiki, go'yo xoja uning qul-kanizidek edi. Uning maftunligi ma'lum bo'lgach, hech qanday uyalmay-tortinmay, go'zal gulrux taxtga yonboshlab oldi va baxtiyor xoja uning yoniga o'tirdi. Avval ikkovlari taom yedilar va sharbat ichdilar. Taomlar shunchalik lazzatli ediki, go'yo u behisht ne'matlariga o'xshar edi. Ovqat yeb, g'izolangach, dasturxonda boda bilan qadah aylana boshladi. Sandal

ustiga turli xil shiraliklar tortilgan bo'lib, undagi idishlarning barcha naqshi-nigori zarhal edi. Sandal ustidagi shisha va may kuvachalarining hammasidan anbar va sandal hidi gurkirar edi. Shu payt diloroy gutchehra o'rnidan turib, u yerlarga sandal hidli atir sepdı va taxt oldiga kelib, xojaga ham sandal rang jomda may tutdı. Mahvash boshlab o'zi u qadahdagi maydan bir-ikki qultum yutgach, qadahni xojaga tutgan edi. Xoja shu daraja o'zini yo'qotgan ediki, qadahni olasolib, behudlarchasipqordi. «Ich, ho ich» bilan qadah shuncha ko'p aylandiki, shodlik nashidasi to ko'kkacha yetdi. May xojaning boshini shunday qizdirgan ediki, uning yuzidan sharm-hayoning pardasi ko'tarilmish edi. Pari aylanib-o'rgilib, shunday mehribonchilik qilar ediki, go'yo xoja uning pardasini yirtishi lozim edi. Xoja o'zini tutolmay va sarvi gulruxdan ko'zini ololmay qoldı va beparda gaplar gapira boshladı, zero, pari uni devona qilib qo'ygan edi. U, har zamon bir narsadan umidvorday so'z qilar, bir narsadan tamalanayotgandek harakatlanar edi. Sho'x hirsga berilgan holda, hech narsadan tortinmay o'z qo'lini xoja qo'lidan olmas edi. Xojaning sabr-toqati qolmadi, uning vujudini shahvat g'alayonga keltirgan edi. Quvvayi jismoniy g'alayoni uni shunday betoqat qilgan ediki, behushlarcha uni bag'riga bosib: «Meni qiynab qo'yding, rahming kelib, dardimga davo ayla, rozilik berib, hojatimni ravo qil!» – deb yolvordı. Sarvi shakkarxand unga yalinib aytdiki: «Bugun shunchalik o'yin-kulgiga xursand bo'l. Axir, ancha mayparastlik qildik, mast bo'lib, aql-hushimizni yo'qotdik. Hozir shoshilishning hojati yo'q, tong-la shohona to'y tayyorgarligini ko'rib, qonun-qoida asosida aqd qilib, haramingga nikoh bilan kirayin. Shunda halollik bilan maishat qilamiz, bu haramda haromga yo'l qo'ymaylik. Shahvatga behuda berilma, poklik pardamni bulg'onchiq qilma!» – deb iltijo ayladi. Shahvat xojani tamom zabt etib olgan edi, shu sababdan unga nozaninning gap-so'zi ta'sir etmadi. U dod-voy etib bo'lsa ham, o'z nafsini qondirishga qasd qilgan edi. Shahvat uning nafsini qo'zg'ab, qo'lini pinhoni bir yerga tiqdi. Maqsadi u yerning pardasini tushirib, fil tishini sandalga payvandlash edi. Shunda mahvash aytdiki: «Qancha uringaning bilan, bu kecha sen aytgan ishning bo'lishi mumkin emas. Bordi-yu, o'zingga taskin berolmaydigan bo'lsang, buyurayin, kelishgan bir sarvqomat tonggacha sening xizmatında bo'lib, senga hamdamlik va yorlik qilsin. Modomiki, o'ting shunchalik alangalanib ketgan ekan, ana o'sha go'zalning zuloli bilan so'nsin va taskin topsin».

Xoja bir qadar ko'zini ochib, maqsad nimaligini fahm ayladi, savol-javob nimadaligini tushundi. Bu ahvoldan hayron-mutahayyir bo'lib, o'zining nafi-zarurati haqida qayta gap ochmadi. Mahvash sanam uning xomushligini ko'rgach, bir oyni boshlab kelib, uning og'ushiga soldi. Ikkita oy tusli xizmatkor – chovushiga noz bilan shunday imo qilgan edi, ikkalasi xojaning oldiga bordilar va noz-ishvalar bilan uni ko'tardilar va xilvat joyga olib kirib, o'sha go'zalga qo'shib qo'ydilar. Mast xoja esa, xilvatxonada to sahargacha shahvat nimani buyursa, shuni qildi.

Nihoyat, charx tun bayrog'ini tubanga tushirgach, tunning qora tusli obnus daraxti sandal rangiga kirdi. Falak o'z ko'zini uyqudan ochib, yerga quyosh nurini yoygan paytda u yerda bo'lib o'tmish hangomalar xojaning yodiga tamom tushdi. Shunda u ajib bir xijolatga qoldi, ko'ngli esa, o'tgan gap-so'zlardan azoblanar edi. Bu baxtsizliklarning hammasini taqdirdan ko'rgani holda, o'rnidan turib, hovuz tarafga bordi. U, suvda g'usl qilib, o'zini poklamogchi va ihtilom chirkklaridan badanini tozalamoqchi edi. Beliga sandaliy lungi bog'lab, hovuz ichiga kirib, suvga sho'ng'idi. Boshini ko'tararkan, o'zini haligi daraxt kovagidagi buloq ichida ko'rdi. U qo'rqib ketib, har tomonga qararkan, o'zga hech narsani ko'rmadi. Yana va yana bir necha gal sho'ng'isa ham o'sha eski joydan chiqaverdi. Tannoz charx esa, achchiq ta'na bilan: «Sen o'tgan u guzarni suv oqizib ketdi», der edi. Baxti yulduzini qora qilib, noumidlikdan o'lim holiga tushdi. U o'zining qilgan ishidan lol va muztar edi. Ilohi bunday ahvol hech kimning boshiga tushmasin.

Bir tarafdin mana shu dardlar bilan xojaning joni azoblanayotgan bo'lsa, ikkinchidan, nomuborak hamrohi buni kuydirar edi. U mana shunday uqubatlar bilan ezilar edi-yu, ammo ahvolini hech kimga izhor etolmas edi. Yana u, tosh tomonga boqar ekan, bu chashmaning xosiyati haqida yozilmish xatlarni ko'rdi. U toshning bir burchagiga tubandagi so'zlar yozilgan bo'lib, avval bu xatlarni o'qimagan edi:

«Agar birov bu simiyoni ko'rsa-yu, suvga tushib, yuz baloga duchor bo'lsa, suvdan chiqqach, dam olmay, suv yuzidan o'tib jo'nab qolsin. Lekin ozgina bo'lsa ham ketmay tursa, yo dev, yoki nahang uni halok etadi». Buni ko'rib: «Ketmayman, jonimdan to'ydim. Bunday yashaganimdan o'lganim afzal», dedi-yu, keyin o'ylab, joni shirin ko'rindi. Zero u joy fitnaga to'la edi. Zarurat yuzasidan ketishga qat'iy bel bog'ladi va qayig'ini yechib, ketish taraddudiga tushdi. Lekin Mudbir Muqbil hayotida katta o'zgarishlar yuz berganini ko'rib, uni bilish uchun ko'p tadbir axtardi. Muqbil esa hech narsani unga oshkor qilmay, qayiqqa chiqib o'tirib oldi. Yana Mudbir bunga yo'ldosh bo'ldi. Shunday yo'ldosh bo'lmasa, koshkiydi.

Bular yana, o'zlariga haqdan panoh tilagan holda, qayiqklarini suvga qarab surdilar. Bechora Muqbilning holi xarob bo'lib, hajr o'tidan ichi o'rtanib borar edi. Ko'nglini bezovta qiluvchi ayblari yetarlik bo'lib, Mudbir buning ahvolini kuzatib borardi. Lekin u so'ragani bilan javob bermas, g'amining sababini sharhlashga ham qodir emas edi. Muqbil «Ey go'zal fe'lli do'stim, sen mendan bu savolga javob kutma! Men o'z ahvolimni sharhlab bermasam, aybga qo'shma, zero, hozir qay ahvolda ekanimni o'zim bilmayman. Sen agar holimni ko'rib achinayotgan bo'lsang, haqlisan, ammo mening xijolatim undan zo'r. Agar mening behudligim seni xafa qilsa, ilojim yo'q, men ma'zurman. Nafasingni mening dilimga mosla, lutf-mehribonchilik qilib, bir necha kun ko'nglimga qara. Baxtimizga murodimiz hosil bo'lib, eson-omon sohilga yetib olsak, ajralish oldidan ko'nglingni shodlantiray, qo'llaringni o'pib, xursandchilik

bilan xayr-xo'sh qilay», deb boshini quyi solib, ko'zidan yum-yum yosh to'kdi. U qayiq ichida ho'ngrar, ohidan chiqqan o'tdan dengiz jo'sh urib qaynagudek edi. Mudbir uning ahvolidan bu daraja ogoh bo'larkan, xafaligidan tentak bo'lish darajasiga yetdi. «Chashma ichida bo'lgan dev-parilar tegishi natijasida, shu ahvolga tushgan», deb o'ylardi u. Chindan ham bu ahvol unga g'oyatda g'alati tuyulgan edi.

Shu orada uzoqdan bir azim kema ko'rindi. Bu payt yel o'z mo'tadilligini yo'qotgan, butun dengiz ur-yiqit edi. Shu jihatdan, bir amallab zavraqni (qayiqni) u kemaga yondashtirib, ikkovlari kemaga chiqdilar va to'lqin xavfidan ancha beg'am bo'ldilar. Lekin bu kema ahlini to'lqin tamom holdan toydirdigan, ular hayotdan umidlarini uzib, jon g'amidan qutulgan edilar. Kema ichida o'likdan o'zga jon yo'q, uning ichi sandal yog'ochi bilan to'lib yotar edi.

Aslida bundoq bo'lgan ekan: Xovar shoh shu tarafning hukmdori bo'lib, uning pari yanglig', pari emas, sharq quyoshi yanglig' bir qizi bor ekan. U shoh hayotining zeb va ziynati, halki ko'z qorachig'idan ham aziz farzandi ekan. Bu qizning doim boshi og'rir va umri azob bilan o'tar ekan. Hukamo (tabiblar) u qizga ne-ne muolajalarni qilgan bo'lishlariga qaramay, davo topmas, mizojiga hech narsa yoqmas ekan. Faqat sandal isi naf' qilib, shugina hoshining og'rig'ini daf' qilar ekan. Shu jihatdan, dunyoning ulug' shohi sandal yog'ochidan oliy qasr bino qilib, uning barcha qismlarini ham sandaldan yasatishga qaror qilgan ekan. Bu bino baland osmon kabi yuksak bo'lishi, toki u mahvash shu uy ichiga kirib o'tirishi bilan bosh og'rig'i qolishi kerak ekan. Bu ovoza olamga eshilib, tujjor-savdogarlarning ishtahasini ochib yuborgan ekan. Ular, shohga sandal sotib, foyda topish umidi bilan, hind mamlakatiga borib, qanchadan-qancha xushbo'y sandal keltirib, u imoratning ko'ngildagidek mukammal bitishiga hissa qo'shmoqchi bo'lgan ekanlar. Shu ishda kecha-kunduz demay tashabbus ko'rsatgan odamlardan bir nechitasi mana shu kemaga sandal yuklab kelmoqda ekan. Kema dengizning bir girdobiga tushib qolib, yillarcha shu girdob ichida aylanib qolib ketgan ekan. Shu fursat ichida ularning g'amlagan butun oziq-ovqatlari tugab, hammalari ochlikdan halok bo'lgan ekanlar. Keyin va nihoyat, dengiz ustida qattiq bo'ron qo'zg'alib, suvni ostin-ustin qilib chayqatib, qiyomat qo'porib yuboribdi. Dengizni yel raqqosdek o'ynatgach, charx urib, bir joyda aylanib yotgan kema girdobdan xalos bo'lgan ekan.

Ikki hamroh bu kemaga kirarkan, fojia ahvolni ko'rib, Muqbil oh urib — nolayu zor qilib yubordi. U kemandagi bir burchagida o'tirib olib yig'lab, dengizda jonidan o'zga narsaning g'amini yemas edi. Mudbir esa, o'lgan odamlarni suvga tashlab, kema bilan mollarni o'ziniki qilib olish payiga tushib qoldi. U kemandagi mollarni o'ziniki qilgani kabi, kemaga ham egalik qilmoqchi edi. U bu mol-mulklarni egallash bilan ovora bo'lgani holda, do'stining nima qilayotganidan xabari yo'q edi. Shu orada uzoqdan sohil ham ko'rinib qoldi va tezda kema sohilga yetib keldi.

Bu tarafdin kema suzib borayotgan sohil Xovar diyori ekan. Shoh bugun tomosha qilish uchun chiqqan bo'lib, u dengiz mavjini ko'zdan kechirardi. U, yangi kelgan kemani ko'rishi bilan, odamlariga:

«Borib, bu kema ichidagi odamlardan birini olib kelingiz! Kemandagi ahvolni bilib, xotirjam bo'lgach, uyga ketayin», dedi. Ular borib, kemada atigi ikki kishi borligini bildilar, lekin ularning biri shodu ikkinchisi g'amgin edi. Bu ikkisiga shohning farmoni yetishi bilan, Mudbir tezda uning oldiga ketdi va yer o'pib, duoyi fotiha qildi. Keyin shoh undan hol-ahvol so'radi. Shunda Mudbir:

«Tojirman, ishim savdogarchilik bo'lib, bu safarda bitta ham tirik odamim qolmadi. Suvning sassiq hidi tufayli, vaboga uchrab, barcha kishilar o'ldi. Mana, sohilga esa men va Muqbil degan bir qulimgina yetib keldik», – dedi.

Shu xildagi yolg'on-yashiq afsonalarni gapirar ekan, Mudbirning vujudi shisha boshladi. U bir onda shunday shishib ketdiki, ichiga sig'may qolganidan kiyimlari chok-chok bo'lib yirtila boshladi va nihoyat, o'zi ham yorilib o'ldi. Bunday hodisani ko'rmagani uchun, shohni hayrat bosib ketgan edi. Undan so'ng bechora Muqbilni chaqirtirdi. Uni ko'rgach esa ko'nglida allaqanday xursandlik paydo bo'ldi. U kelguncha Mudbirning mayyitini – o'ligini yashirtirib qo'ygan edi. Endi bundan ham yo'ldoshidan so'ragan gapni so'radi. Muqbil nimani ko'rgan va bilgan ekan, hammasini boshdan-oyoq yashirmay-netmay, qanday bo'lsa shunday rostgo'ylik bilan gapirib berdi. Shundan so'ng shohning amri bilan kema ham, undagi mol-mulklar ham davlat foydasiga baytilmol qilindi. Muqbil nimani bayon aylagan bo'lsa, hammasining chin ekaniga shoh ishonch hosil qilib:

– Ofarin, sodiq-rostgo'y muxbir! To'g'riliging ko'nglimizni sayd etib, jonimizni o'ziga asir qilib, bog'lab oldi. Endi ko'ngling nimani tilasa, shuni ayt, beramiz, sendan ayamaymiz, – dedi.

Muqbil duo qilib aytdiki: «Ey shoh, Sizning umringiz uzun, joh-saltanatingiz barqaror-u, martabangiz osmon avjidan ham baland bo'lishini istayman. Shohim, agar men bandalarini ozod qilib yuborsalar, tunu kun haqlariga duo qilib, yaxshiliklarini aslo unutmas edim».

Muqbilning so'zi yoqimli – dilkash edi, u olijanob va xushxulq odamning gapi bo'ldi. Shoh bu kabi yaxshi xislatli odamni bashar naslidan topish mahol bo'lsa kerak, deb o'yladi. Muqbilning go'zal nutqi, zebo chehrasi shoh ko'nglini mehrdan yondirib yubordi va uni o'z xizmatida qolishga taklif etdi. Shoh taklifini ham bajonidil qabul ayladi, hamda shohga minnatdorchilik bildirib, qulluq qildi. Shoh esa uni o'z qoshida vazir qilib olib qoldi. So'ngra bir oz xizmat qilgach, uning boshiga davlat qushi bo'lmish Xumo soya soldi, ya'ni shoh Muqbilni uylanishga da'vat qilib, uni farzandlikka qabul etdi. Ammo Muqbil uzrlar aytib, bu taklifni rad qilmoqchi bo'lardi, zero uning yuragida o'zga yashinning o'ti yonmoqda edi. Axir uning hushini sandal qasrda o'tirgan, sandal hidli go'zal o'g'irlagan edi-da. Shoh uning uzr aytishiga ham qaramas va uni o'z holiga qo'ymas edi. Shoh oshkora va maxfiy suratda ko'p xazinalar sarflab, o'z farzandini unga juftlab qo'ymoqchi bo'ldi.

Muqbilga shoh bir qancha sandal isli sarupolar kiydirdi, bu, parivash qizning istagi bilan bo'lgan emish. So'ngra uni guli sumansoga

qo'shish uchun, qasri sandalga olib bordilar. Keyin Muqbil qarasa, bu g'aroyiblarning hammasi o'sha chashmada bo'lmish musibatlarning sababchisi tarafidan bo'layotgan ekan. Qasr ham, shifti ham, ostonasi ham o'sha; taxt ham, zamona ofati ham o'shaning o'zi. Hayrat o'ti Muqbil dimog'ini shunday kuydirdiki, buning alangasidan vujudi nobud bo'lay dedi. U oh-fig'on chekib, yiqilib qoldi, joni tanasidan chiqib ketgudek bo'ldi. Goh hushi o'ziga kelib qolsa ham, yana oh tortib, o'zini yo'qotar edi. Dimog'iga sandal atri kirishi bilan ko'zining charog'i yorishsa ham, lekin ko'zini ochib, u yerdagi tushunib bo'lmas ahvolni ko'rish bilan nola aylab, yana behol bo'lar edi. Aslida uning bunchalik dilkash ishqini ko'rib, Muqbilni mahvash sevib qolgan edi. Nihoyat asta-sekin taskin topib, mahvashning visolidan kom olib, murodiga yetdi. Lekin, hayratidan doim tili lol edi. Binobarin, bir kun humoyun fol (omadi kelgan) go'zal Muqbilga: «Sen bu ishlardan juda ham hayratdasan va hech sababini tushunolmaysan. Ammo men buning sirlaridan xabardorman», dedi. Uning hamma gapi rost bo'lib, ko'rgan-bilganlarini bekam-ko'st gapirib berdi. Daraxt va chashma mojarosini ham, sandal va qasr simiyosini ham, go'zal mahvash tabassum qilgani holda, unga tubandagicha dilkash afsona aytib berdi:

«Taqdir meni go'zalligi bilan olamni oladigan darajada jamolga ega qildi. Mening husnim haqidagi ovozarlar butun jahonga, jahongagina emas, insu jins aro tarqaldi. Axir husnimga jin shohi ham asir bo'lib qolgan, u ko'z oldimdan ketolmas edi. U jinning oh-vohi qasr ichiga alofa solar, uning savdosi meni devona qilayozgan edi. Men nihoyat, buni shohga arz ayladim. U hukamolarni chaqirib kelib, meni ko'rsatdi. Yana romchi-folbinmi, azoyimxonu sehrgar bormi, hammasini chaqirib, dev va parilar ziyon-zahmatidan meni qutqazishga harakat qildi. Ular birlashib, tadbir-choralar ko'rgach, jinlar to'satdan g'oyib bo'ldi. Lekin goho qulog'imga qanot sadosiyu, jin-parining nido va chaqirig'i eshitilardi. Ular: jin shohi g'amimda devona bo'lganini, dengiz ichida simiyo etib, qarshimda menga boqib, o'zini ovuntirib o'tirganini bayon qilardilar. Sen sandaliy qasr va uning atrofidagi bog'ni, sandaliy taxt ustida meni qaysi ahvolda ko'rgan bo'lsang, xuddi shu ahvolda hozir menga bayon etding. O'sha joylarni men orom olsin, deb zeb-ziynat bilan bunyod qilgan ekanlar. Sen o'sha joyda bo'lganingda, o'zingni mening husnimga vola qilding. Unda sen husnimga vola bo'lgan bo'lsang, bu yerda seni Haq visolimga yetkazdi».

Shu qissani eshitgach, Muqbilning dilidan hamma g'amlar ketib, gulrux bilan xushdil bo'ldi. U sandal qasrida murodiga yetdi, kiyim-kechaklari ham sandaliy rang bo'ldi.

Sandal ruhga osoyishtalik, uning atir hidi esa, jonga hayot bag'ishlashini yaxshi bilingiz. Sandal isiga tek turib bo'lmaydi, mushk borligini ham hech kim yashirolmaydi, zero bu, ikkisi o'z muattar hidi bilan har yerda bilinib turadi.

Dono musofir bu go'zal hikoyani aytib tugatarkan, shoh Bahrom ham sandal hidi bilan mast bo'lgan holda uxlab qoldi.

XXXII

Odina (juma) kuni Bahromning oppoq— kofuriy kiyimda kofurgun qasr ichida oppoq libosli qora soch go'zal ila oj' taxt ustida o'tirib, billur jomda oq may ichgani va u oqlikdan hijron harorati taskin topib, o'zining mushk bo'y ohusidan xabar eshitgani

Juma kuni bu baland ravoqning gumbazi tong ganjidan oqardi. Gardun-falak nayrangbozi yulduz donalaridan og'ziga cho'g' solib olgan, u erta tongdan boshlab shunday alangalandiki, nafasidan olamga o't sovurdi. Tongotar tarafni falak tozalovchi mehr (quyosh) sovun surtib, pokizalab yuvdi. Shu paytda shoh oq libos kiygan holda, mehr-munirdek paydo bo'ldi. Quyosh o'z nuri bilan olamni yoritganidek, shoh kofuriy saroyga kirdi. Chin go'zali ham ipak hullasini oq rang bilan bezagan edi. Shoh oq taxt ustiga chiqib o'tirgach, sho'x ham uning yonidan joy oldi. Yana aysh-bazm tayyorgarligi ko'rildi, ziyofatga yig'ilgan odamlarning kiyim-boshi ham oq edi. Yana bir gulrux parizod xitoy-chiniy qadahiga boda quya boshladi. Chinni ham oq-fag'furiy rangda edi. Shu kuni shoh oqshomgacha boda ichdi, bu, har kungi ichadiganidan ziyodaroq edi. Mehr dunyodan nurini yashirarkan, charx tomidan oy o'z oq nurini socha boshladi. Yana shoh uyqu nashidasini istab qoldi, shu onda oq uyga shoh uchun o'rin soldilar. Bu paytda purdon bilimdon musofir tayyor bo'lib, uning miyasi go'yo bilim durdonalarining bebaho qutisi edi. U ostonada o'tirib, shoh haqiga tubandagicha duo bunyod etdi: "Ko'hna xislat egasi bo'lmish charx bu oq uyingning chodiriga aylansin, borgohing esa, ahli jahonning panohi bo'lsin!" — dedi.

XXXIII

Yettinchi iqlim yo'lidan keltirilgan musofirning aytdan afsonasi

Duo qilib bo'lgach, dono aytdiki, endi o'z ko'rganlarimni hikoya qilib berayin:

Mening yo'lim bu tomonga tushib qolgani bilan, asli o'zim Xorazm diyoridanman. U yerda mening kasb-hunarim sozandalik bo'lib, bu san'atni hech kim menchalik bilmaydi. Musiqiy fani va musiqiy nazariyasini bu sohaga qiziquvchi kishilar mendan o'rganadilar. Xalqqa va shogirdlarimga bu san'atdan ta'lim berib, ustozlik qilish mening kasbimdir.

Nogahon xalq orasiga shunday ovoza tushib, bu xabar tezda el-yurtga tarqab ketdi:

Bir Xitoy savdorgari o'zi bilan birga hursifat bir kanizak olib kelgan emish. U xojaning keltirgan moli daryoyu kondan ham, har qancha gumon qilish mumkin bo'lsa, undan ham ziyoda emish. Lekin u tojirning shuncha moli ham bir taraf-u, mahvash kanizagining husni-jamoli ham bir taraf emish. U go'zalning fitna qo'zg'atuvchi

¹ Oj — fil suyagidan yasalgan.

jamoli ustiga, yoqimli qo'shiqlar aytish va tanbur chertish san'ati ham bor emish. Bu xabar elni beqaror qilgan edi, shu orada xojaning o'zi ham yetib keldi. Uni eshitib, butun Xorazm eli savdogarning istiqboliga chiqdi, bundan maqsad, shu tarqalgan ovoza qanchalik to'g'riligini bilish edi. Xoja haqiqatan ovoza qilingandek, g'ani-boy va zuhdu taqvo bilan shug'ullanuvchi xudojo'y odam ekan. Yuzi joynamoz ustiga nur sochuvchi, falakning qoramushkini oq-kofurga aylantirgan, ya'ni qora sochi oqargan odam ekan. Osmondagi oyga o'xshash go'zal esa, parda ichida bo'lib, aslida shu xojaning o'z farzandi ekan. Daryo kaftli xoja bilan uning gavhari (farzand) hamisoli farishta pariday edi. Lekin uning yuzi niqoblangan bo'lib, xuddi bulut orasida turgan quyoshga o'xshardi. Uning yuzidagi niqobi oppoq, xuddi quyoshni oq bulut qoplaganday edi. Faqat niqobigina emas, nima kiygan bo'lsa, hammasi oq bo'lib, oqdan boshqa narsani kiymasdi. Bu oqbadan go'zal har kuni ikki mahal — ertalab va kechqurun soz chalardi. U parda ichida o'tirib chang chalar, changga esa o'z tovushini jo'r qilar edi. U sozga qo'shilib shunday kuylardiki, u soz bilan qo'shiqqa kishilar jon bergudek bo'lardilar. U pardada turganida odamlar joniga shunchalar qasd qilsa, pardasi ochilsa, kishilar holi ne kechar ekan? Parda ichida yuzi qanaqaligi noma'lum bo'lgani holda, uni ko'rishga kishilarda majol yo'q. Uning subh bilan shomdagi taronasini ko'rib, xalq bexudona tarona tuzar edi. Shu qo'shig'ining o'zi elni notavon qilar, notavon kishilarning joniga esa qasd etar edi. Buning kuyini tinglash natijasida, g'amnok odamlardan ba'zilarining oh-nola chekib, halok bo'lmagan kuni yo'q. Xalq uning navosini eshitish uchun shoshilar, yo'q, navosini eshitish uchun emas, balki jon berib, shuning huzurida o'lish uchun shoshilar edi. Nihoyat, falakning bu kabi hangoma tuzatayotganini odamlar mamlakat shohiga ham yetkazdilar. Shoh ham uni keltirish haqida buyruq berolmadi, zero, xojaning o'zi ham baland martabali janob edi. Binobarin, shoh o'zining shohona liboslarini o'zgartirib, uning ishqida faqiru haqir kishi qiyofasiga kirib, boshqa oddiy xaloyiq qatori pinhoni kelib, uning kuyini eshitdi-da, vola bo'lib qoldi. Lekin sanamning hamdamlari bo'lmish ayollar uni parda ichida saqlar edilar. Shunga qaramay, shoh uning navosidan ham husni o'tkir ekaniga imoni komil ekan. Shoh parda ichiga kirishni orzu qilsa ham, vaslini ko'rish baxtiga muyassar bo'lolmay, xomtama bo'ldi. Shu tarzda orzu-havas bilan iloji bo'lmagach, mahvash bilan topishish, o'zini xojaga farzand qilish umidida oraga dallolar ham qo'ydi. Lekin shunday noyob maqsadi hosil bo'lish o'rniga, shohga xojadan tubandagicha javob keldi:

“Qullariga mehribon-bandanavoz shoh bizdek kamina bandalariga e'zoz-ikrom ko'rsatib, o'rtaga shunday so'z tashladilarki, bu so'zlari bilan go'yo qora tuproqni ko'kka ko'tardilar, zarradek narsani quyosh darajasida qadrladilar. Davlatmand shoh meni bu darajada baland ko'tarar ekanlar, u kishining so'zini qaytarishga na haddim bor? Lekin u kishi bundan ortiq izzat-hurmat qilganlarida ham, mening toleim yor bo'lmasa, ne foyda? Mening qizim haqiqatan ham, mahvashu, ammo er kishi bilan juftlashish masalasida benihoya sarkashdir. Uni

haq taolo dunyoning yagona go'zali qilib yaratgani bilan, juftlashib yashash fazilatidan toq qilib qo'ymishdir".

Shoh bu javobni eshitgach: "U go'zalning shiori shunday bo'lishi mumkin, lekin shohning hukm qilishga ham haqqi bor-ku", dedi, yana u o'zining bu gapida turmay, ming xil xayol va andishaga ham bordi. U umid va xijolat bilan yana bir necha marta so'z aytтира ham, ammo xojaning javobi avvalgidek bitta bo'ldi. Shu xilda bebok — shafqatsiz ishq shohni mag'lub va halok qilmoqchi bo'lardi. Bir tarafdin shahvat uni beqaror qilib, g'azabu zolimligini oshirar edi. Nihoyat, niyati buzilmish shoh, o'z odamlariga buyurib, Xojaning pardaga o'rab qo'ygan go'zal qizini ham, u hurning yuklarini ham orttirib olib kelib, haramxonasiga tushirtirdi. Shu ondayoq shoh quvonch bilan shoshilganicha sanam oldiga yugurdi. U moh buni ko'rib, gap nimaning ustida ekanini tushundi va changini qo'lga olib, unga jo'r bo'lib kuylay ketdi. U shunday bir jo'sh urib kuyladiki, buni eshitgan shoh o'zini unutib qo'ydi. Buning ashulasi kimning qulog'iga kirsа, u yiqilib, uxlab qolardi. U yerdagi odamlarning barchasi uyqu bilan mast bo'lib qolgach, sho'x o'z uyiga qarab ketib qoldi. Shoh va uning sipohlari uyg'onarkan, bu ahvolni ko'rib hammalari hayratda qoldilar. Ular ko'zlaridagi uyquni ketkazgach, jodugar sho'xni yana olib keldilar. U go'zal yana soz bilan kuylarkan, ularni uyqu eltib qo'ydi. Yana sanam o'z uyiga ketib, parda ichiga kirib orom ola boshladi. Shoh uni bir necha marta olib borsa ham, baribir, mahvash shunday hunar ko'rsatib, ketib qolaverdi. Oqibat-natijada iffatning zo'ri bilan, shoh g'ish-g'ishasidan qutulib, xo'iri jam bo'ldi. Nihoyat, shoh xoja oldiga iltifot bilan kelib, yuz xil so'z bilan uzrxonlik qildi va uning sharafiga ziyofat tashkil etib, qadahda may tutib, otamsiz, deb uning gapiga quloq soldi. Oy yuzlik oldida ham yuzi uyatli ekanini, qilgan ishlaridan o'zi xijolat va pushaymonligini izhor etdi. Shoh parda tashqarisida turib, u go'zalga uzrxonlik qilar, uzr aytarkan, o'zini yergа urib past tutar edi. Shohning kamtarligini ko'rib, bu ham mehribonchilik izhor etdi. Natijada uni bu dunyo-u dunyo singlim deb atadi. Xojani ota-yu, qizini singil qilib olgach, shoh ularga ko'p mehribonchiliklar bildirdi.

Shunday qilib, u sho'x shohning daxl-duxilidan emin bo'lgach, o'z uyida osoyishta yashay boshladi. Xoja o'sha yerda behishtnikiga o'xshash go'zal bir bog' va osmon toqidek qasr bunyod etdi. Bundan hoshqa, ibodat va saodat yulduzi uchun ham alohida bir hujra qurdi. U moh kofur rangli uzun ko'ylak kiyib, o'sha hujrada Xudoga toat-ihodat qilib o'tirardi. Barcha kiygan kiyimi tong kabi oq-nuroni-yu, lekin ko'zi tong otgunchа yulduz sochardi (yosh to'kardi). U tunu kun Tangrigа munojot qilib, birovning umidi bilan vaqtini o'tkazardi. Lekin uning kimligini hech kimgа ayon qilmasdi, u aytmagani uchun, hech kim bilmasdi ham. Tong otgach, yana fig'on chekib, ashula aytardi, musiqiy ohangiga qo'shilib navo chekardi. Uning kuyi, bir tarafdin kishining ishtiyoqini qo'zg'atsа, ikkinchidan, fig'oni hijronu firoyq alamidan darak berardi. U o'z nolayu zori bilan bir nafas elni zor qilarkan, savti bilan tosh ko'ngilni eritar edi. So'ngra to shomgacha

yana ibodat bilan mashg'ul bo'lib, shom bo'lgach, yana o'sha qo'shig'ini aytardi. Odamlar parda tashqarisida o'tirib, oh-nola qilar, shoh ham goho-goho shular singari dod-voy qilib o'tirar edi. Uning g'aroyib kuyini eshitarkan, es-hush degan narsa ko'ngil bilan vidolashib qolar edi.

Xoja mehmonlarga shunday noz-ne'mat to'la dasturxon yozib qo'yganki, takallufning bundan ortiq bo'lishi mumkin emas. Xususan, u shohni yuz xil mehribonchiligu turli-tuman noz-ne'mat bilan ziyofat qilib yo'lga solar edi. Xullas, mana shu aka-singil tutingan ikki ajoyib farzand xojaning topgan-tutganiga ziyon yetkazib yotar edi.

Men u shaharning musiqachi nag'masozi bo'lganim tufayli, butun hazmlarda dostonnavozlik qilar edim. Butun umrim qo'shiq va soz bilan o'tgani kabi, tirikchiligim ham soz va qo'shiq orqasidan o'tar edi. Qachonki, u nozanin soz chalib, qo'shiq aytadigan bo'lgach, mendan baxt-omad ketdi. Uning xonishini eshitgan el-ulus menga iltifot qilmay qo'ydi. Tirikchiligim og'irlashib qoldi. Birdan turmushimga xalal yetgach, o'z ishimni o'nglash uchun bir chora ko'rdim; ya'ni shunchalik kofur iste'mol qildimki, u mening haroratimni butunlay pasaytirib yubordi. Keyin hayotimdan umid uzilgach, xojaning dargohiga qarab yo'l oldim. Xoja esa, mahvash haramida xursandchilik qilib o'tirgan ekan. Men unikiga yaqinlashgach, faryod ko'tarib, hammayoqqa dod-voy solib yubordim. Shunda farishta xislatli xoja va uning parda ichidagi hur misol nigori meni o'z huzurlariga chaqirib: "Bu faryodingning hoisi nima? O'zing kimsan? Senga kim jabr-zulm qildi?" — deb so'radilar.

Men: "Siz zulm qildingiz, mana bu qizingdan, uning otasi sendan menga zulm yetdi", — dedim.

Ular: "Tuhmat qilma, ey mazlum! Kimsaga zulm qilish bizning rasm-odatimiz emas, — dedilar. — Balki bizni tanimay gapirayotgandirsan, balki bizni boshqa kimsalarga o'xshatayotgandirsan?"

"Undoq emas, mana, ishonmasangiz bir-bir so'rang, agar gapingizga javob berolmasam, yanglishgan ekansan, deb so'zimni yolg'onga chiqazing. Aks holda, insofga kelib, menga yordam qiling!" — dedim.

Ular: "Qani, aytib ko'r-chi!" — dedilar. Men, so'z boshlamasdan ilgari, ular haqiga duo qildim. So'ngra, shoshilmay, ahvolimni bayon ayladim. Buni eshitgach, ular kulib, xoja ham, sarvi lolarux ham so'zimni tasdiqladilar. Nihoyat, so'z shu darajaga yetgach, maqsadimni tubandagicha izhor etdim:

"Agar, mumkin bo'lsa, umrim boricha vaqtimni shu dargohda o'tkazar edim! Men soz chalib, qo'shiq aytishdan boshqa narsaga qiziqmayman, o'zga mashg'ulotdan tirikchiligim ham o'tmaydi. Farishtasifat xojaning ehsonlaridan oziqlanib, hur qizning xonishlaridan jonimga rohat yetsa bas. Men shunday havaslanamanki, bu kishida bo'lmish xonandalik fazilatining mingdan birini egallasam, agar Nuh payg'ambarchalik uzun umr ko'rmasam ham armonim qolmasdi. Mana, men bechoraning holini ko'rib turibsiz. Lekin musiqiy fanida men kabi bilimdon odam yo'q. Bu mamlakatda kim sozandaxonandalikni o'ziga kasb qilib olgan bo'lsa, ularning barchasi mening

kamtarin shogirdlarimdir. Agar Aflotundek zot musiqiyshunos bo'lsa, u mening oldimda bilimsizdir. Lekin endi sendagi fazl-kamolotni ko'rgach, huni har qanday qalam egasi tasvir etishdan ojiz, degan qarorga keldim. Kuylash bilan birovni o'ldirib, birovni tirgizganni kim ko'ribdi? Xulosayi kalom, sening mo'jizavor kuylaring mening san'atimni chippakka chiqazdi”.

Ular mening yalinib-yolvorishimni, zorlanishimni ko'rib, rahmlari kelib, dilnavozlik bilan ahvolimni so'radilar. Shunda xoja:

“Biz bilan yor-do'st bo'lib, soz chalib, g'amgusorlik qilsang, tirikchiliging o'taveradi, lekin bir mushkul muddao bor, u ham bo'lsa, sarvi gulruxga xizmat qilish bo'lib, uning yoniga nomahram kishining kelishi mumkin emas”,— dedi.

Men aytdimki: “Siz bu masalada g'am yemang, men bu kishiga mahram bo'lish umidida o'zimni nogiron aylab, erligimni yo'qotdim. Buning uchun shu qadar ko'p kofur iste'mol qildimki, bu bilan erlik tabiatini o'zimdan yiroq ayladim. Ushbu kofuriy parda ichida o'tirgan hamda oq pardaga o'ralgan nozaninga o'zimni hamrang qilish uchun kofuriy qasrga bosh urib keldim. Mening otim Kofur bo'lib, bir kamina qul sifatida shu pardadan chetga chiqmay, xizmatlarida o'tirsam, deyman!”

Xoja bilan sarvi mahliqoga shu gaplarni aytganimdan so'ng ular hayratlanib, taftish qilib ko'rdilar va gaplarimning to'g'ri ekaniga qanoat hosil qildilar. Shundan so'ng nihoyatsiz iltifot va mehribonchiliklar ko'rsatdilar. Bir qadar og'irlik ko'rgan bo'lsam ham, ikkovlari iltimosimni qabul aylab, xizmatlariga oldilar. Shunday xizmat qildimki, natijada ikkalasining ham iltifotiga sazovor bo'ldim. Goho xoja bilan suhbatlashar va goho parda orqasidagi oy bilan hamroz bo'lib sirlashardim. Borgan sari munosabatlarimiz yaxshilanishi tufayli ko'p iltifotlar ko'rishga muyassar bo'ldim. Lekin mohruh kuylar ekan, meni bir hayrat mot qilar edi: zero, uning aytadigan butun baytlari ishq dardi va hajrdan iborat edi. Har bir tarannum qilgan qo'shiq oshiqona nolalarni o'z ichiga olar edi. Shuni ham angladimki, u nozanin xoli joyda yashirincha ko'pdan-ko'p yig'lar edi. Uni g'am ortiq darajada ezgan paytlarida parda orqasida o'tirgan holda men unga mahram bo'lar edim. U biron gapni bilmoqchi bo'lsa, uni mendan so'rar edi. Bilganimcha savoliga javob berar, har bir so'zning to'g'risini aytar edim. U tunlari uyqudan bedor bo'lib qolsa, “afsona aytib ber”, der edi menga. Afsona aytayotgan chog'imda ishq, hajr, firoq haqida so'zlab qolsam, dunyoning yagonasi bo'lmish u nozanin beixtiyor yig'lar edi. Uning bu ahvolidan xabardor bo'lgach, aql bilan o'y o'ylab, bu zor va mahzun parivash birovga oshiq — majnun bo'lsa kerak, degan xulosaga keldim. Hajr tikanagi uning ichi-bag'rini teshib yemirar, fig'on tortib kuylaganda esa ichidagi maddalar tashqariga sizib chiqar edi. Agar kuylamasa, ichida yashirinib yotgan alanga tunu kun uni kuydirsa kerak. Uning ahvoli shu tarzda ekanini fahmlagach, undan shu haqdagi hasratini eshitish orzusiga tushdim. Binobarin, u yoqdan-bu yoqdan so'z ochib, yaxshi-yomon haqida gap qo'zg'ar va hikoya

qilar edim. Shu yo'sinda uni o'zimga rom qilib oldim. Nihoyat, u mendan cho'chib tortinmaydigan va men bilan suhbatlashib ovunadigan bo'lib qoldi. Shu ahvolga kelgach, bir kun:

“Ey mahvash, Tangri doim ko'nglingga shodlik bag'ishlasin, xotiringda hech qanday g'am-qayg'u bo'lmasin, har bir nafasing huzur-halovat bilan o'tsin! Men senga bir mushkul savol bersam, xafa bo'lmasanmi?”—dedim. U “mayli”, — degach, filhol so'z boshladim:

“Bir qancha vaqtdan buyon senga qul bo'lib xizmat qilmoqdaman va mehrdek sening atrofingda fidoying bo'lib aylanmoqdaman. Har doim hol-ahvolingni so'rayman, xursandmi-xafaligingni surishtiraman. Aqlim har narsaga yetib, ko'nglim har tarafdan ma'lumot berib turibdi. Bilishimcha, sening bir pinhoni g'aming bor bo'lib, o'shaning qiynog'idan joning azobdadir. Bunga ham birovning muhabbati bois bo'lgani kabi, uning hajri azobidan g'am tortsang kerak. Mana shu sababdan alamzada bo'lganing tufayli, soz chalib, fig'on chekishni odat qilib olgan bo'lsang kerak. Shu jihatdan ham kuy-tarona bilan mashg'ul bo'lib, nolayi-zor bilan o'zingni ovutsang kerak. Yuragingda bo'lmish dardu alamni kuylash bilan, xasta ko'nglingni bo'shatsang kerak. Mumkin bo'lsa, shu g'amingni menga aytsang-u, meni shu siringga oshno qilsang! Lekin shunga amin bo'lginki, to hayot ekanman, mendan buni hech kimsa eshitmaydi. Balki men sa'y-harakat qilib, dardingga davo toparman va hojatingni ravo aylarman”.

Gulrux sanam so'zimni eshitarkan, o'ylab turib, javob berdi:

“Sen aytgan gaplaring aqldan uzoq emas, gapning yaxshisi — rost gapdir. Ahvolimni sen yaxshi tushunibsan, ammo uning mavhum va mazmunini boshdan-oyoq sharhlab bersam, aql oldida nomuvofiq bo'lmasmikin, deb sendan so'ragim keladi. Uni bilishdan senga foyda yo'q, ammo mening boshimga yuz ming balo kelish ehtimoli bor. O'ransiz bir ishni surishtirish maslahatdan bo'lmasa kerak. Agar sen bu yerda turishni istasang, tubandagi ikki ishdan birini qabul qil: yo mening ishimni so'rab-taftish qilma va yoki bilgach, bu yerdan boshingni olib ket. Ketganda ham bu vodiylarda turmaysan, balki tamoman bu mamlakatdan chiqib ketasan, bildingmi?” — dedi.

Garchi, bu gapdan yuragimga dahshat tushgan bo'lsa ham, lekin vasvasa o'z holimga qo'ymas, jonimga qasd etar edi. Bir necha kun bu haqda o'ylab, g'amga botib yurdim-u, ammo ko'nglim bir qarorga kelmadi va taskin topmadi. Bu fikr ham ichimni g'amga to'latdi va ham yuragimni tashvishga soldi. Shu xilda sabru qarorimni yo'qotib, oqibat-natijada ixtiyorim ham yo'qoldi. Nihoyat, bir xoli paytni topib, foydasiz bo'lsa ham yana shu mojaroni qo'zg'adim:

“Xayolimga o'sha fikr o'rnashib qolib, o'ylayverib savdoyi bo'layozdim. Yaxshisi boshingdagi g'amning sarguzashtini eshitayinda, qayonga desang, o'sha tomonga boshimni olib ketayin”, — dedim.

Mahvash aytdiki: “Bu gaping juda qiziq: axir, sen o'zingga-o'zing balo tilayapsan. Bo'lmasa shaharda turmaslikka ahd-paymon qil-da, boshingni olib, bu mamlakatdan chiqib ketishga qasamyod et!”

Shu gapni eshitgach, u nimani shart qilsa, hammasini qabul qilib ahd etdim. Ko'ngilda hech qanday ishonchsizlik qolmagach, mahvash o'z afsonasini boshladi:

“Sen mening g'amginligimni bilib, g'amimning sababini so'rading. Gapni boshidan boshlasam, g'amim senga yetarlicha ma'lum bo'lmas.

Mening diyorum Chin — Xitoy mamlakatida bo'lib, o'sha yerda tug'ilib o'sdim. Taqdir hukmi bilan ikki xon orasida bo'lgan urush paytida, hali bola chog'imdayoq birovga asir bo'lib qoldim. Shundan keyin xoja menga xaridor bo'ldi-da, men uning go'zal quyoshiga aylandim. Garchi u meni shunchalik e'zozlasa ham, barihir, men uning sotib olgan kanizi — cho'risiman. Lekin xojaning farzandi yo'q ekan, shu jihatdan u meni o'z farzandidek mehr bilan parvarish qildi. Mening ovozim yoqimli, tilim shirin edi; dilkash ohang bilan kuylar edim. Xojam, kim musiqiy fanida hukamo va san'atda mohir bo'lsa, uni uyga olib kelib, parvarishlab, unga izzat-ikrom ko'rsatib, oy-yil demay qunt bilan meni o'qitib, bu sohada shu kabi kamolotga yetishimga sababchi bo'ldi. Natijada men soz chalib kuylaganimda kishilarga shodlik bag'ishlovchi, dardini qo'zg'ab yig'latuvchi va mast qilib uxlatuvchi san'atiga muyassar bo'ldim. Tovushimning ovozasi jahonni, changimning ovozasi esa osmonni tutdi. Buni eshitgan barcha katta-kichik: “Birovda shunday kaniz bor emish”, deb meni sotib olish uchun xaridor bo'laverdilar, topgan molu dunyolarini keltirib to'kdilar. Xojaning farzandini kaniz qilib olish umidida har tarafdin mollar yog'ilib kelar edi. Xaridorim ko'paygan sari, bozorim qizir edi. Chindan bu xildagi sho'r-g'avg'o hammaning boshiga savdo soldi.

Chinda ajoyib bir naqqosh bo'lib, u yaratuvchi naqqoshdek olamda mashhur edi. Uning ijod qilgan narsasi monandsiz bo'lib, oti Moniy edi. Ana shu Moniy yashirincha mening suratimni chizib, safar qilib borib, bir shahanshohga shu suratni ko'rsatgan emish. Jahondagi qaysi mamlakatning shohi bo'lmasin, ularning barchasi shu shohning bandasi, qaramog'idagi xizmatkori ekan. Mana shu ulug' shoh suratimni ko'rish bilan shaydoyi bo'lib qolgan emish. Nihoyat, u shoh ishonchli va pok zot sinchkov kishilarni topib, men kanizakni sotib olish uchun Chin xalqining boshiga sho'r-g'avg'o yubordi. Mening xaridorlarimdan biri Xitoy xoni edi, shoh bundan voqif bo'lib, uni hukm bilan xonlikdan uzoqlashtirdi. So'ngra xoja qancha tilasa shuncha baylashib, Xitoy xiroji baravariga meni sotib oldi. Xaridorlar baxtlari ochilganidan xursand bo'lganlaricha o'z vatanlariga otlandilar. Ular, yo'lning past-balandini yaxshi bilganlari uchun ikki bekatni bitta qilib bosar edilar. Shunday sur'at bilan meni shohning huzuriga olib keldilar va go'yo durni dengizga topshirdilar. Xuddi zarra mehri anvarga tutashgandek, banda ham bandaparvar sultonga topshirildi. Shoh meni olib kelgan kishilarni mukofotlab, martabalarini yanada baland etdi. Meni esa o'z uyiga, uyiga emas, joniga jo qildi. U mendan bir dam ayrilmas, ayrilsa, yorug' dunyo unga qorong'u bo'lardi. Uning yashashdan maqsadi mening jamolimu visolim bo'ldi, birgina iltifotim uning uchun abadiy hayot edi. U doim aysh-ishrat qilar va ov bilan mashg'ul bo'lar,

dashtu sahrodagi lolazorlarni kezar edi. U togʻu choʻllarni ot bilan kezib, goʻr (qulon) degan uchqur hayvon boʻyniga kamand tashlab, ovlar edi. U goʻrday chopqir otini har tomonga yugurtirarkan, otining yugurikligidan qulon qochib qutulolmay, oʻlar edi. U lola rang goʻrni shikor aylaganda, goʻr qonidan yer lolazor boʻlar edi. Keyin u lolazor ichidagi ziyofatda mayi nob ichib, goʻr etidan kabob qilar edi. Xoh shaharda, xoh dashtda boʻlsin, xoh orom olib oʻtirganda va xoh biyobon kezganda boʻlsin, bir nafas mendan ajralmas, balki uning mensiz bir dam oromi yoʻq edi. Men hamroh boʻlmasam, u bir qadam bosmas, men yonida kuylab oʻtirsam, bir jom ham may ichmas edi. Men qaysi kuyni tarannum qilmayin, u oh chekib, jonini fido qilgani-qilgan edi. Dashtlarni sayohat qilarkan, yonida men boʻlardim; shahar ichida xilvat joylarda ham yashirincha uning pinjida men boʻlardim. Bir nafas jamolimdan koʻzini olmas, visolimga hech qachon toʻymas edi. Xullasi kalom, u menga shunday berilgan ediki, goʻyo uning yashashdan murodi men edim. Ish shu darajaga borib yetdiki, uning xalqi ham, askaru lashkarlari ham undan umidlarini uzib qoʻydilar. Shohning ular bilan ishi boʻlmay qolgan, u kecha-kunduz mening maftunim edi. Shoh menga qanchalik moyil boʻlsa, mening xasta koʻnglim ham unga shunchalik bogʻlanib qolgan edi. Uning vasliga boqsam oʻzimni yoʻqotar, bir nafas ajralsam-chi, beqaror boʻlib qolar edim. Shavq oʻti ikki tarafda ham alanganib, shuʻlasi goʻyo osmonni yondirgudek boʻlar edi.

Magʻrurlanib ketganimdan boʻlsa kerak, men shohning bunchalik iltifotini qadrlamadim. Ishi oldiga bosmagan baxti qaro va tolei past boʻlmish men kanizagi uning shunchalik mulozimlarcha yukunayotganini koʻrib turib, unga yarasha mehribonchilik qilolmadim, unga nimalarni aytsam, bari boshdan-oyoq behuda va bemaʼni boʻlib chiqdi.

Bir kun shunday voqea yuz berdiki, shoh ovga chiqqan boʻlib, men unga hamroh edim. U qattiq mast edi, buning ustiga-ustak, yana ichar edi. Men esa, oʻz magʻrurligimdan mast edim. Shu payt shoh ketayotgan bir kiyikka qarab, oʻq-yoyni goh chapiga, goh oʻngiga olib: “Otimni oʻsha kiyik orqasidan qoʻyib, qayeridan desang, shu yeridan urib beraymi?” — dedi.

Men: “Avval qoʻlini buk, soʻngra, yiroqdan turib boʻgʻizla”, dedim. Uning pok xotiri buni tushunib, kiyikni ikki qoʻldan otib, yerga choʻkkaletdi. Shunday qilib, ikki qoʻlini bogʻlagach, oʻq otib, shu onda tomogʻidan boʻgʻizladi. U shunday bir ish qilgan ediki, odamzod qoʻldan bunday ish kelishiga ishonmaysan. Men uning shu mahoratiga jon fido qilishim, oʻqining muzdini ado etishim shart edi. Shundan keyin, u mendan oʻzining koʻrsatgan ishiga munosib mukofot talab qildi. Lekin men bemaʼni, baxti qaro, aqldan ozib, johillikka berilib, shu darajada oʻrinsiz va behuda gap aytibmanki, insof va adolat bilan qaraganda, bu gap uchun meni yuz pora qilib tashlasa, mening gapimga yarasha jazo ham, qilgan qilgʻimga yetarli sazo ham boʻlmas edi. Shunda ham u bechora, qahr tigʻi bilan chopib, meni oʻldirib qoʻya qolmadi-da, oyoq-

qo'limni bog'latib, qazosi yetsa o'lib ketar, deb bir biyobonga eltib tashlatdi. O'zi esa g'azabiga chidolmay, shaharga qarab jo'nab qoldi.

Shu ahvolda ikki kecha-kunduz o'tgach, meni farzand deb atovchi, keyingi paytda shohga sotib, mendan ajrab qolgan xoja sog'inib, firoqim g'amiga chidayolmay, meni ko'rish uchun jazm qilib, Xitoydan kelayotgan ekan. Men johillik bilan xatoga yo'l qo'ygan paytimda otam ikki manzilga yetgan ekan. Men shohning g'azabiga giriftor bo'lib, ikki kundan beri biyobonda yolg'iz vaqtimda xoja meni ko'rish uchun shoshilib, ot choptirib kelarkan. U tunkecha demay, shaboxun urib ot choptirar, kecha esa, qop-qorong'i ekan. Shunda uning oti hurkib, yo'ldan chetga chiqibdi va bir-ikkita quli bilan cho'lda adashib, vodiyu biyobonlarni boshdan-oyoq kezib, yuz xil mashaqqatga tushib, jonidan to'yibdi. Shu qora tun uyg'oq baxti uni men yotgan cho'l tomonga yo'llabdi. U tiyra tun ichida menga yaqinlashib qolgan paytda, xojaning ko'zini uyqu bosibdi-da, shu onda otdan tushib, ko'zini ochishi bilan, tong otib, olam yorishib ketibdi. Shunda u, ittifoqo, o'zidan yuz qadamcha narida, qora dashtda bir qora narsani ko'rib qolibdi. U koptokdek qilib dumalatib tashlangan narsa odam bo'lib, butun vujudi kamand bilan bog'langan emish. Shuni ko'rgach, nimaligini bilay, deb xoja unga tomon qadam ranjida qilibdi. Yetib kelib qarasa, har bir mo'yi azobga duchor qilingan bechora zaifa ekan. Uni o'z chilvir sochi bilan ham bog'lagan ekanlar. Bu o'likmi yo tirikmi, degan savol bilan rahm qilib, uni yechish uchun qo'lini uzatibdi. Tezda qo'l-oyog'ini yechib qarasa, loqaq! yuzida qoni yo'q emish. Tovoniga tegadigan qora zulflari oyog'i ostida chuvalashib yotar, zakanida va labida xollari bor emish. Xoja bu go'zalning mastmi yo sog'mi ekanini ham, uyqudami va yo uyg'oqligini ham bilolmabdi. Bu ahvol ham uni hayratga solar va har xil xayol uni lol qilar emish. Xoja shunday haloga muhtalo bo'lib turganda, uzoqdan o'z karvonlarining qorasini ko'rib qolibdi. Shunda tezdin bir qulini u tomonga jo'natib, karvonni olib kelib, yuklarini shu yerga tushirtiribdi. Ular orasida mening yaqin do'st-yorlarim va mehribonlarim bo'lmish ayollar ham bor ekan. Ularni xoja menga xizmat qilsin uchun shu karvon bilan olib kelayotgan ekan. Xoja ularning hammasini tepamga olib kelib, menga qaratgan emish. Ular nishonalarimdan meni tanib qolib, hammalari qiy-chuv qilib, yig'lab yuboribdilar. Ular yuzlarini yulib, yoqalarini yirtib, alamlaridan dod-faryod chekib, halok bo'ladigan darajaga boribdilar. Xojadek dono va bilimdon odam bunga hayratlanib, iztirobdan devona bo'layozibdi. Boshimga tushgan kulfatni ko'rib, dard bilan nola chekib, yig'i-zor bilan motam boshlashibdi. Lekin hech kim o'zi nima gapligini, umrimning quyoshi ne sababdan zavolga uchraganligini bilmabdi. Hammalari shu fojiani ko'rgach, holdan toyib, meni ko'z yoshlari bilan yuvibdilar-da, harir va nozik ipaklikdan kafan qilib, u kafan orasiga kofur sepib, meni o'sha joyiga o'rab, uni yana anbar bilan xushbo'y qilib, buning ustidan yana dam-badam gulob ham sepib turibdilar. Shu payt o'lgan kabi betob yotgan tanam ifor va gulob hidlaridan bahra olib, zaif

dimog'im hush topib, vujudimga havo yetib, nafas ola boshlabman. Shundan keyin ular mening tirik ekanimni bilib, jonlarini menga zakot-sadaqa qilib, oyog'imga yuzlarini surtib, dimog'imga yanada atir-iforlar iskata boshlabdilar. Mening bu ahvolga tushganimni har kim o'z holicha har narsaga yo'yar ekan, shu payt o'zimga kelib, ko'zimni ochibman. U bechora mehribonlarimga ko'zim tushishi bilan:

"Bu yerda turmay, tezda jo'nab qoling. Zero, bu manzil ofatli joy bo'lib, kishi joni uchun g'oyatda xatarli vodiydir!" — debman. Shu onda u yerdan ko'chish haqida qo'ng'iroq chalinib va meni bir taxtiravonga o'tkazishibdi. Ular har damda mening og'zimga sharbat tomizish va yoqimli atir hidlatish bilan quvvatga kiritar ekanlar. Shu alfozda ikki kecha-kunduz yurgach, mizojim ozgina sihat topdi. Shu yurgan cha yo'lovchilar bir jazirama joyga yetganda, xoja bir chashma tepasida dam olishga ijozat berdi. Keyin, bir sabzazor ustiga joy solib, chiroyli bir qora chodir qurildi. Chodir ichiga taxt o'rnatib, o'shaning ustiga qalin o'rin solib, meni shu joyga yotqizdilar. Shundan keyin xoja yonimga kelib o'tirib, boshimgatushgan kunni ipidan-ignasigacha birma-bir so'radi. Men bu haqda nimani bilsam, yashirmay, oqizmay-tomizmay hammasini aytib berdim. Xoja eshitarkan, bir dam boshini ushlab qoldi va undan so'ng, boshini quyi solib, sukutga ketdi. Men unga o'z ahvolimni gapirib bo'lgach, uning hol-ahvolini so'radim. U ham o'z ahvoli qanday bo'lsa, shunday aytib berdi, boshidan o'tmish qissalarni hayon qildi. Zamonaning g'amlariga uncha ahamiyat bermay, Tangrining karamlariga shukr qilish kerak ekan!

Nihoyat, u yerda bir kun dam olgach, xoja savol berdi: "Hamma gapni gaplashdik, endigi maslahat nima bo'ladi?" — dedi.

Men aytdimki: "Agar shoh o'z kanizini g'azablagan ekan, Xudo hozir, nima bo'lgan bo'lsa, barchasini aytdim. Lekin men bunda yuz baravar jazoga loyiq edim. Qahr-g'azabga to'lgan shoh o'ldirmoqchi bo'lganda Tangri meni asradi.

Endi bo'lar ish bo'lib o'tdi. Kishi o'lgan odamga yana dushmanlik tig'ini solmas, bir o'likni ikki marta o'ldirmas. Siz bu kafanni menga kiygizib, o'lik libosda motam tutibsiz. Maslahatingiz bilan shu kafanga o'ralgan holda, shohning dargohiga borsam-da, ochiq-oydin bunday uzr aytsam: "Men katta gunoh qildim. Bu gunohim uchun shoh o'ldirishi kerak edi, o'ldirmay, adolat aylab, o'limga hukm etdi. Lekin o'lmay qolgan bo'lsam ham, qilmishimga yarasha jazo tortdim. Xudo menga yana qayta jon bag'ishlagan ekan, bu jonimni ham shohga fido qilish uchun keldim. Agar yana qaytadan o'ldirsa ham, bir tashlandiq odam bo'lganim uchun roziman va agar afv qiladigan bo'lsa, o'la-o'lgunimcha uning qulidirman. Jurm — gunohim bo'lsa, shohning o'zi himoyachimdir; lutf-karam qiluvchi, uzrni qabul etuvchidir, desam. Bu qissa yuzasidan shunday tadbir ko'rganimizda, hech shubhasiz, olamgir afvkorlik rasmini tutib, benihoya karam qilishi ham ehtimoldan xoli emas".

Men bu fikrni irod qilganimda, xoja ham, boshqalar ham qiy-chuv ko'tardilar. Xoja aytdi:

"Bu ra'ying xatodir. Aqlingdan ayrilding? Behuda gap gapirma! Esing o'zingdami? Yoki hayotingdan umiding yo'qmi? Shoh bir

soʻz uchun kishi qonini toʻksayu sen unga yana joningni fido qilasanmi? Shoh degan narsa — bir kuydiruvchi alangadir; buning shuʻlasi kimga tegsa, kuydiradi. Oʻz ixtiyori bilan oʻt ichiga kirish — kuyishdan boshqa natija bermaydi. Shohning dili shunchalik siqilgan ekan, gʻazabining oʻti hali ham alangalanib yotgandir. Hozir undan qochishdan yaxshi chora yoʻq, undan qancha uzoq boʻlsang, ofat xavfi shuncha kam boʻladi. Uning gʻazab oʻti soʻngach, senga ravo koʻrgan gʻazabnok ishi yuzasidan oʻz joniga ham yuz balo orttirgani ovozasini har tarafdin oʻzing ham eshitib qolarsan. Bu qilgan ishidan oʻzining anduh-nadomati boʻlsa kerak yoki ayshini davom ettirayotganmikin? Agar pushaymon qilayotgan boʻlsa, buni bilgach, qaytib kelmoq qiyin ish emas. Va agar shu qilgan ishidan xursand boʻlsa, hammamiz ham oʻz jonimizni qutqazib qolgan boʻlamiz. Yaxshisi, hozircha biz bilan ketaver”, dedi.

Xoja gapini tugatgan hamon uning soʻzlarini barcha katta-kichik maʼqulladi. Soʻz oxirida maslahat bilan bir tarafga qarab qochib qolishga qaror qilindi. Eng uzoq mamlakat Xorazm edi, shu tarafga qarab ketishga qatʼiy jazm etildi. Men shunday bahona bilan shohdan ajrab qoldim, umr boʻyi uning hajrida kuyadigan boʻldim. Oʻzimni oʻlgan deb hisoblayman, zero, hajrga giriftor boʻlish nimayu oʻlim nima, axir! Menga kafandan libos kiygizgan edilar, shu kafan mening vujudimda saqlanib qoldi. Uni kiyib yurish menga odat boʻlgani kabi, oʻlikning libosi ham shu kafan emasmi? Men uning visolining mahjuri boʻlganim kabi, kafanim ham oq — kofuriy libos boʻldi. Azoblangan — ranjur tanim bot chirmasin uchun, kafanimga ham kofur atri sepilgandir.

To bu kishvar chegarasiga yetib, shahar ichida yashay boshlaganimga va sen bizdan chetda yurgan va kelib hamroh boʻlgan davrdagi hamma voqealarni aytib, seni hutun sirdan ogoh qildim.

Shoh qoshida yolgʻon gapirib, uni yuz xil iztirobga solganimning sababini esa koʻngilning istagi bilan boʻlgan, deb oʻylama, yoʻq. Aslida buni valineʼmatimga vafodorlik yuzasidan qilgan edim.

Mana, men senga sirimni oshkor etdim. Endi sen ham nimaga kelishgan boʻlsak, shunga amal aylab, qabul qilgan shartingga vafo et, endi bu diyorda turmasdan boshingni olib ket!”

Men uning bu dostonini eshitgach, sarvi gulrux bilan xayrlashdim. Hech yerda toʻxtamay, mamlakatdan mamlakatga oʻtib qadam-baqadam yoʻlni tezlatib keldim. Ammo bu rozni, to bandanavoz shohni koʻrgunimcha hech kimsaga izhor etmadim. Sen: “Afsona ayt!” — deb hukm qilganingda, bundan goʻzalroq afsona topolmadim. Xususan, mana bu kofuriy qasrni koʻrgach, u goʻzal hur esimga tushib ketdi. U firoq ichida azoblangani tufayli, kofuriy rangda bir hulla kiygan ediki, uning bu kofuriy rang kiyimi — kafan boʻlib, unga kofur atrini seplashni ham odat qilgandi. U, olamning ajoyib goʻzali sening mana shu qasringga juda munosib ekan.

Qissa aytuvchi soʻzini oxiriga yetkazguncha, Bahrom oʻzining gʻoyib boʻlmish yoridan nishona topib, yuz qatla es-hushini yoʻqotdi va yuz qatlardan ortiq oʻlib-tirildi. U shu afsonani eshitib turib oʻlar va ham shu afsona uni tiriltirar edi. Shoh oʻzini beixtiyor nola chekib

yuhorishdan asrar, nogahon roviy buning fig'onidan ogoh bo'lishidan o'zini ehtiyot qilar edi. Agar roviy o'z rivoyatini bir nafas to'xtatsa, shohning xayolini boshqa yo'l havasi olib qochar edi. Afsonago'y o'z hikoyasini oxiriga yetkazarkan, shoh shunday oh tortdiki, uning o'tli fig'oni ko'kka chirmashdi. Va u, nukta aytuvchini o'z yoniga chaqirib, quchoqladi. Uning ruh bulbuli go'yo uchib ketdi. Qissago'yning hayot sharbatidek so'zidan shoh o'lgan kishidek o'zidan ketgan edi.

Agar bu afsona kimni behush etar ekan, u yana o'ziga kelib nima qiladi?!

XXXIV

Bahrom g'oyibidan nishon topib, o'zidan g'oyib va benishon bo'lib, Xorazm mamlakatiga nishon yuhorib, dono xoja bilan yagona gavharni chaqirtirib, ular kelguncha o'zi ham peshvoz chiqib, subhning hayotbaxsh nafasidek o'luk taniga ruh keltirgani

O'sha kechasi shoh o'zining g'oyib bo'lmish nishonidan shu xilda nishon topgach, to sahargacha beqaror va bedil bo'lib, xuddi chala bo'g'izlangan ovday ti pirchilab yotdi. Go'yo xas singari shavq-zavq o'tiga kuyib, nihoyatda sabrsizlik qilar edi. U iztirob bilan shunday bezovtalanar ediki, goh o'rnidan turar va goh yiqilar edi. Buzilgan mizoji bir qadar tinchlansa, musofirga yana qissani takrorlashni buyurar edi. U o'zining mastlikda qilib qo'ygan ishini bilmoq uchun goh o'lar, goh tirilar edi. Hajrning g'am-anduhi uni behol etgach, visol umidi yana o'ziga keltirar edi. O'sha oqshom tongga ulanguncha hajrdan uning nelar ko'rgani haqida nimalar desam? Shoh ko'p o'lib-tirilgach, subh kulib — tong yorishdi, subhning kulgisi ko'ringach esa, uning damidan xurshidning shu'lası alangalandi. Bu payt yana shohning oromi yo'qolib, Dilorom oldiga borishni o'ylab qoldi. U Xorazmga borishni maqsad qilgan edi. Lekin uning bu fikriga arkoni davlat monelik qilib, bir necha kun sabr-qanoat etishni iltimos qildilar:

«U tarafga safar qilmaganingiz a'lo, zeroki, janobingizning salomatliklari yaxshi emas. Garchi firoq o'ti halokatli bo'lsa ham, lekin bu yo'l juda yiroqdir. Yo'l ranj-mashaqqatining shiddati natijasida, salomatlikning chorasi topilmay qolish xavfi bordir», dedilar. Shuningdek, hukamo (tabiblar) ham kelib, ularning gapiga qo'shilib, yer o'pib, shohga iltijo ayladilar:

«Ishq shohni qanchalik betoqat qilayotgan bo'lsa ham, lekin tog' o'z viqori tamkini bilan salobatlidir. Tog'ning odati o'z yerida istiqomat qilib turishdir, agar u qo'zg'aladigan bo'lsa, qiyomat qo'porilur. Bir necha g'amni ichga yutib, sabr etib, shu yerda tur-da, olam tartibini buzma», deyishdi. Oqibat-natijada, hamma falak tezligi va quyosh tabiati bilan o'z joyida qoldi-da, xojani ham, oyni ham bu tomonga chaqirish haqida bir qancha xijolat bilan xat yozildi:

“Biz Sizning Xorazmda yashashingiz haqida aniq xabar eshitdik. Bu xabardan shunday shodlandikki, yuz xil bandimiz eshildi, quvonchimiz ortib ketdi. Lekin, bizning hol-ahvolimizni bilganingiz

on u yerda bir nafas ham turmay, kecha-kunduz yurib, uyquni biz kabi harom aylab, bu tomonga kelishingizni iltimos qilamiz!” Shoh o‘z maktubiga esa ko‘z yoshi aralash pinhoni bag‘ir qonini tomizib, tubandagi gaplarni yozmish edi:

“Sening hajr-firoqing ichimni qon qilib, uni ko‘z yo‘lidan ravon ayladi. Kel, senga jonimni fido qilay, agar kelmasang, qonimning gunohi bo‘yningga tushadi. Furqat alamida jonimning chiqishiga sababchi bo‘lma, xanjar urmay, azob bilan qonimni oqizma. Kel-da, jonim sening huzuringda chiqsin, qonim ham sening yo‘lingda oqsin. Jonimga hajr tig‘ini urma, jon bermasimdan burunroq o‘ldirma. Sharq quyoshi singari sayr qilib, pari singari tez uchib, mening yonimga kel. Sen meni kishi o‘ldirishni o‘ziga odat qilib olgan odam, deb o‘ylading. Mana, kel-da, bo‘ynimga tig‘ qadab, egnimga kafan kiyib olganimni o‘z ko‘zing bilan ko‘r! Agar o‘zim sening huzuringga bormagan ekanman, orazing bilan ko‘zimni ravshan qilmagan ekanman, huni qudratim-hukmronligimdan emas, yo‘q, ojiz va notavonligimdan deb bil. To‘g‘risi, sening firoyingga asir bo‘lganimdan beri, holdan toya borib, shunchalik haqir bo‘lib qoldim. Men hatto o‘z qo‘lim bilan suv icholmaydigan ahvolga keldim, mening og‘zimga suv deb tomizganlari qonga o‘xshaydi. Shunchalik majruh, notavondirman, jismim bemajolu xasta jondirman. Kelu, o‘lgan tanamga jon bo‘lg‘il, jismimga moyai ravon bo‘lg‘il. Agar to‘xtab, kechikib qolsang, sen kelganingda men ketgan (o‘lgan) bo‘laman. Agar taqdir meni nobud aylasa, afsusdan ne foyda?”

Bu dardu alam maktubini yozib bo‘lgach, maktub qog‘ozini buklab, qosid — elchilar qo‘liga berarkan: “Nigorimning huzuriga tezroq boring!” — deb iltimos qildi. Undan so‘ng, Xorazm shohga xat yozib: «Xorazmning bir yillik mol-xirojini yo‘l xarajati uchun xojaga berish bilan birga, uni bu tarafga jo‘natgaysan!» — deb buyurdi. Shohning bu fikrlarini tushungach, elchilar yer o‘pib, yo‘lga ravona bo‘ldilar.

Ular yo‘lda yel kabi uchib borar edilar, har qadam tashlaganda bir mil yo‘lni bosayotgandek sur‘at bilan ketar edilar. Shu darajada tez va nihoyatda shoshilinch borganlari tufayli mo‘ljallariga tez yetdilar. Ular xuddi nasim — shamol singari xojaning bog‘ini topib, shoh buyrug‘ini unga taqdim etdilar. Xoja uni olgach, boshini yerga qo‘yib, sajda qilib, xatning mazmunini oyga ham bildirdi. Bu farmondan xojaning boshi osmonga yetib, mahvashning boshi osmonga, quyoshdan ham balandga ko‘tarilgan edi. Shuningdek, bu farmoni oliy Xorazmshohga yetishi bilan, filhol, xazinadan bir yillik naqd pulni berdi va u, o‘zining shaxsiy xazinasidan ham bir qancha mablag‘ berib, bularga juda ko‘p yaxshiliklar qildi. Bundan nihoyatda shodmon bo‘lgan holda shoh Bahrom tomonga qarab ravona bo‘ldilar, ular hech yerda to‘xtamay, shoshilinch yo‘l bosardilar.

Lekin Bahrom ham bularning istiqboliga peshvoz chiqqan edi. Bularning yetishiga bir manzil qolgach, shoh hamma g‘aflat uyqusiga berilgan vaqtida, hech kimga bildirmay, bir tadbir qilib, mohruh tarafiga qarab shobaxun urib qoldi. Butun kechasi yel kabi yugurib,

subhidamda sarvi gulruhga yaqin borib yetdi. Bu paytda karvon horib-charchagan holda kelib, endi to'xtab, dam ola boshlagan edi. Bu qorong'i tong payti bo'lib, elning ko'zi uyquga ketgan mahal edi. Bir chashma boshiga chodir tikib, uyqusirab qolgan nargis gulini shu yerga olib kelib yotqizilgandi.

Bu chashmaning boshida bir baland chinor bo'lib, chinorda g'ordek bir kovak bor edi. Bu chinorning ichini halokatli o't kuydirgan, shu jihatdan ko'ksi oshiq ichidek chok bo'lgan edi. Shoh o'z otini bir daraxtga bog'lab, keyin chinorga tomon azm ayladi va borib yetgach, xuddi g'ordan boshqa joyi bo'lmay, g'or ichida yotadigan kishilarday sekingina shu chinor ichiga kirib, yashirinib oldi. Behishtning sarvqomat huri ham shu chashma yonida bo'lib, behisht atrining hidi dimog'iga kirib yotar edi. Shoh shu daraxt ichida yotgan chog'da, uning baxti go'zal oyni uyqusidan uyg'otdi. U odatdagiday, tong yorishi bilan o'rnidan turib, avvalo Tangriga sajda qilib namoz o'qidi. Ibodat qilib bo'lgach esa changini qo'liga olib, chala boshladi. U yog'ochga suyangan holda kuy boshlab, oshiqona qo'shiq aytar edi. U shohning firoyida nola chekar, uning ishtiyoqida oh tortar edi. U paridek chashma tomonga qarab yurib, sarchashma boshida to'xtadi va shohga munosib navo kuyini chalib, shohning maktubidagi so'zlaridan qo'shiq yasab, har so'zni aytarkan, fig'on tortib, ko'zidan qon yoshini seldek oqizib yig'lar edi. Bu kuyni eshitgan shoh har nafasda o'zini yo'qotib, ko'zlaridan anduh yoshlarini oqizar edi. U oy avj bilan tarona qilar ekan, uning savtini bunday hikoya ayladi:

“Bu yo'l qanday balo-uzoq ekanki, mashaqqatidan dog'im ustiga yana dog' tushdi. Bu yo'lning ranji-azobidan jonim shunday og'zimga keldiki, g'am tortishga ham imkonim qolmadi. Umrimdan noumid bo'ldim-ku! Hajr mashaqqatidan o'ladigan bo'ldim-ku! Ey, tuban falak, mening shoh xizmatini qiladigan kunim yaqinmi, men uni ko'ramanmi? Uning qulog'iga so'zimni yetkursang-chi! Oyog'iga ko'zimni yetkizsang-chi! Agar vaslini ko'rib, darmonga kiradigan bo'lsam, o'lsam armonim yo'q!”

Uning bu qo'shig'ini shoh eshitar ekan, yoqasini yirtib, oh tortib yubordi va u, holdan toygan, majolsiz bo'lishiga qaramay, yuz nolayu fig'on bilan yugurib chiqdi. Uning nafasidan o't sochilgan holda, xuddi daraxt ichidan shu'la chiqqandek chiqib keldi. U o'zini yor oyog'ining tagiga shunday tashladiki, quyosh buni ko'rsa, o'ftobparast ekan, deb o'ylardi. Uning es-hushi o'zida yo'q edi. U, pariga yo'liqqan odamdek devona bo'lib qolgan edi. Pari paykar, shohni shu ahvolda ko'rarkan, hayratidan behud va lol bo'lib qoldi. U ko'zlaridan shoh oyog'iga durlar sochgani holda uning oyog'ini o'pib, o'zidan ketdi. Go'yo bu paytda osmon yerga tushib, osmon oyog'iga quyosh ham bosh qo'ygandek bir manzara hosil bo'lgan edi. Bu payt qora tuproqqa Xudo soya solganday, nogahon soya ustiga quyosh ham tushganday bo'ldi. Shoh yerda o'zidan ketib yotar, moh ham shoh o'ziga kelmagani kabi, moh ham o'ziga kelmas edi.

Hajr oxiri-poyoniga yetdi, endi visolni ko'ring! Alloh-Alloh, bu g'arib ahvolni tomosha qiling! Subh nafasi o'zining oq pardasini yoyg'uncha, ikkisida ham na nafas va na hush bor edi. Tong o'zining

kofuriy yuzini ochib, mehr-quyosh olamni nur hullasiga o'ragan paytda, karvondagi odamlar bundan xabar topib, u ikkalasining boshiga to'plandilar. Xoja bu g'aroyib ahvolni ko'rib, iqbol qushi yana boshiga qo'nganini bildi. El-xalqni u atrofdan uzoqlashtirib, tezda shu yerning o'ziga bir saroparda — shohona chodir keltirib tikdilar. So'ngra, Oy bilan Quyosh parda ichiga, yo'q, kofur rangli bulut ichiga kirdilar. Bu ikki sevishganlarning es-hushi o'zlariga kelgach, bir-birlariga nima deyishganini bilmadim. Bular shunday bir shabistonga kirib olgan edilarki, u yerda nima bo'lganini hech kim bilmas, biroq u yoqda tursin, tong nasimi ham u yerga kirmas edi. Bir so'zni bir necha xil ma'noga yo'yish mumkin bo'lgani kabi, goho bir gapning rostini aytsang ham g'alati bo'ladi.

Qissaning hissasi shuki, nihoyat, shoh o'z murod-maqсадiga yetgach, barcha amaldorlardan tortib, hamma yig'ildi. Bu paytda shoh shavq-zavqqa to'lib xursand bo'lib o'tirar edi. Buni ko'rib, boshqalar ham quvonib ketdilar.

Xojani shoh o'ziga xos vazir qilib oldi, u ham savdogarchilik kasbidan qutuldi. Boshqalar esa o'z tirikchiliklaridan qolmaslik uchun shaharga qarab ravona bo'ldilar.

XXXV

Bahrom Go'rning ovga chiqish uchun saf tortgani va ajali yetgan maxluqlarning buning qurshovida qolgani va ov paytida go'r oyog'ining tez raftorligi va Bahromning go'r domiga giriftorligi va u yaratgan saltanatning tugashi va tarixi va Bahrom afsonasining tamomlanishi va mohiyati

Shoh sarchashmadan shaharga qaytib borgach, yana may va musiqiy ohangiga berildi. Ertayu kech gul atrini hidlashi va sharob ichishi natijasida, mizojidan quvvatsizlik va majolsizlik butkul ketdi. Bunga, o'tayotgan haftaning yettinchi kuni o'zi muqarrar bo'ldi.

U yetti qasrning har birida bir kun may ichib, maishat qilar edi. Bahrom u yerda mahvashlar bilan may ichishar edi-yu, ammo o'z mahvashi bilangina hamog'ush bo'lar edi. Gulchehralar unga mahbub bo'lib ko'rinsa ham, lekin o'z mahbubi ularning barchasidan marg'ub va sevimli edi. Kiyim-kechak, kiyimlargina emas, butun ko'zga tashlanadigan narsalarning barchasi ayni qasr rangida edi. U bir necha yil shu tarzda aysh-ishrat qilib, hoy-huy ovozasini falakka yetkazarkan, oqibat-natijada, tuban charx "ha" deguncha uni qora go'rga tiqdi-qo'ydi.

Bahromning hayotiga hayrat bilan boqmangiz, axir charx unga o'lchog'liq umr bergan-da. Lekin kishi yuz asr podshohlik qilib, taxt-tojlar olib, jahon egasi bo'lganda ham; yetti falak gumbazini egallab, charx Bahromini (quyoshni) o'ziga mulozim qilib olganda ham, oxiri u barcha bilan vidolashishi, hamma narsani tark etib ketishi kerak-da.

Shoh Bahrom murodiga yetgach, oxirida uning ishi tubandagicha tamomlandi: u yetti qasrning har birida bir kundan har kuni paydar-

pay may ichar, qasrlarda esa sarvi gulchehra ham u bilan birga edi. Chang chalib, o'yinni qizdiradigan ham, kuy bilan jo'r bo'lib g'azal o'qiydigan ham u edi. Bahrom uy ichida o'tirishdan zerikib dilgir bo'lsa, ov qilish uchun otlanar edi. U paytda ham mahvash yonidan ajralmas, ot ustida ham yoqimli kuylarini qo'ymas edi. Kuylovchi nag'mapardoz ham, may quyuvchi soqiy ham shu, umrni uzaytiruvchi ham, abadiy umr ham shu gulrux edi. Go'zal yuzi bilan bazm majlisiga oroyish beruvchi, yoqimli ovozi bilan kishi diliga osoyish bag'ishlovchi ham shu gulrux edi. Shoh, xoh aysh-ishrat vaqtida va xoh toat-ibodat fursatida bo'lsin, undan bir soat ham ajralmas edi.

Bir kun shoh juda keng doirada ov boshladi. Bu ovning davrasi falak doirasidan ham keng edi. U yerda sayd qilinadigan ovlar xuddi osmon yulduzichalik ko'p bo'lib, hamma rahna — yoriqlar berkitilgani tufayli, ularning birontasi uchun qochib qutuladigan joy yo'q edi. Unda otliq ovchilar haddan tashqari ko'p bo'lgani kabi, ov ham son-sanoqsiz edi. Bir osmon singari keng o'tloq bo'lib, bu yerning hammasi otliq ovchilar va shikor qilinadigan jonivorlar bilan to'la edi.

Otliqlar ovlarni o'rtaqa olgan holda, bir-birlariga qarshi bir necha qator saf tuzib, bir-biriga tomon yurishib, butun saydlarni qurshovga olgach, turgan joylarida taqqa to'xtadilar va ovga qarab ota boshladilar. Ovchilar jonivorlarga haddan ziyoda jahr qildilar. Qurshovning atrof-doirasi uch yog'och edi. Lekin ovchilar butun davrada o'n-o'n besh qatordan saf-basaf bo'lib turar, qurshov o'rtasida esa jonivorlar qayonga qochishni bilmay, bag'-bug' qilar edilar. Ko'pgina saydlar o'q yeb, yer bag'irlab yiqilib yotar, marg'zor — o'tloq esa ovning qonidan lolazorga aylangan edi. Balki hammayoq qon seliga aylangandi; qon seli esa hammayoqqa qarab oqar edi. Yerga qoni oqqan saydning, qon seli bilan baravar, joni ham chiqib ketar edi.

Rahmsiz shoh Bahrom Go'r esa qulon (go'r) otishdan boshqa narsani unutgan edi. Bir bu emas, qurshovda mingdan ortiq o'qandoz-mergan bo'lib, barchasi saydlarni urish uchun, qush parvoz qilgandek ot choptirar edi. Bechora jonivorlar o'q tegib o'lishdan qo'rqqan holda, tillarini osiltirib, har tarafga yugurar, merganlar esa, har tarafdan o'q yog'dirib, saydlarning qochib qutulishiga yo'l qo'ymas edilar. Shu onda bir necha yuz tuman jonivor o'lib, har bir ovchi bir nechtdan ovni qonga beladi. Bular qon to'kishdan charchamas, qon sachray berib, ularning butun kiyim-boshlari lolagun bo'lib ketgan edi. Qondan u yer go'yo gulistonga aylandi-yu, u odamlarni qon tutgandek bo'ldi. Marg'zor to'la ovga aylangan, qon esa nov-nov bo'lib har tarafga oqar edi.

Aslida u yer suv va balchiqdan iborat botqoqlik bo'lib, buning yuzini qabat-qabat gard bosib, uning ustiga yomg'ir yog'ishi natijasida o't-giyohlar bitgan ekan. Xuddi o'rmonzordek o't va daraxtlar ko'karib, uning tagini ildizlar o'rab olgani tufayli daraxt ildizlari bir gazga yaqin qalinlikdagi zaxkash tuproqda turar ekan. Endi, qondan har tomonga ariq-ariq sel oqish bilan birga, yerning tubiga ham qon siljiy boshladi. Bu nam yerning pastki qatlamiga qarab singib,

suv namigacha borib yetdi. Natijada, ovchilar to bellarigacha balchiqqa botib qoldilar. O'zlarigina emas, otlari ham botqoqqa botib, balchiqqa yotib qoldilar. Shu paytda mehr o'z yuziga niqob tortgan, quyosh bulutdan parda yopib olishi natijasida, osmon odamlar ustiga yomg'ir selini quyib, go'yo Nuh to'foni qayta boshlangandek bo'ldi. Quyidan suv — yuqoridan nam bosar; yuqoridan suv — quyidan nam bosar edi. Ba'zi joylardagi tuproqni ajriqlar hali qattiq ushlab turgan bo'lsa, uning yuzini yuz tuman qo'shun bosib, ularning hammasi yana sayd orqasidan chopar edi. Oraliq botqoq bo'lgani uchun, bir-birlaridan judo bo'lib, har yer-har yerda jon hovuchlab o'tirgan ovchi ham oz emas edi.

Xulosayi kalom, yuz ariq qon oqib, har bir ariq yer yuzini balchiqqa, ot oyog'i esa u yerlarni botqoqqa aylantirib turganda, osmondan yomg'ir ham quyaversa, yoqqanda ham shunday yog'saki, yomg'irni olam xalqi ustiga daryo kabi oqizsa-da, falak undan xijolatga qolsa, odam qayerda qimirlasa, o'sha yer cho'kadigan bo'lsa, bu paytda el-ulus o'z hayotidan ko'zini yumsa ayb emas. Nihoyat, shu aytganlarimizning hammasi bir bo'lib, bir damda ov qilayotgan odamlarning barchasini yer yutib, nobud qildi-qo'ydi.

Qurshov doirasi xalq bilan to'liq, yerning yuki og'irlashgani sababli, yer cho'kib ketdi. Yer shunchalik yemirilgan ediki, yuz ming odam bir yo'la suv qa'riga kirib g'oyib bo'lgan edi. Ular o'z davralari bilan o'zlari bunyod etgan ov tog'ining atrofidagi xandaqqa cho'kib ketdilar. Lekin suv xandaq qirg'og'idan ham toshib chiqqan, qirg'oqqa emas, ov tog'ini ham bosib ketgan edi. U davra ichidagi bu holatni ko'rgan odam, yerni suv ustidagi g'alvirga o'xshatishi mumkin edi. Bu muhlik ahvolni ko'rarkan, bir shohgina emas, balki butun qo'shindagilar u suv bilan jonlaridan qo'llarini yuvib, hayotdan umidlarini uzib qo'ydilar. Bu to'fondan ov qiluvchi sayyodlar ham, saydlar ham omon qolmay, cho'kib bormoqda edilar. Ovg'a tuzoq qo'yaman, deb kelgan odamlar uchun, saydgoh (ovlash joyi) go'yo bir tuzoqqa aylangan edi. U yerda sher bilan ohu bab-baravar bir tuzoqqa ilindilar. Yuz tuman sher bilan jayron g'arq bo'lgach, sher bilan jayron orasida nima farq qoldi? Hamma oshkor va yashirin holda, qutulish imkoniyati yo'qligini bildilar. Shunday fikrga kelgach, hammalari hozirgi damni g'animat bilib, bir-birlariga yopishib quchishtilar. Bular shunday qattiq quchishgan ediki, ikki do'st bitta bo'lib ketgan edilar. Bu yerda shunday birlik yuz bermish ediki, ikkovi go'yo bir-birining shikoriga aylangan edi. Shoh, o'zining dasht kezuvchi askar va sipohlarining barchasi botib, ularning gardi ham qolmayotganini ko'zi bilan ko'rib, qo'shini qayonga ketgan bo'lsa, o'zi ham o'shalar ketidan ketdi. Uning merganlari orasiga chumolilardek bir bezovtalik tushgan bo'lib, ularning barchasi xuddi chumolidek yerga kirdilar. Chumolidek yerga kirganlar faqat shu gangib qolgan ovchilargina emas-da, hatto Sulaymon payg'ambardek kishi ham yerga kirmay qolmagan-ku. Go'rga kirmoq barcha olam ahlining qismati bo'lgani kabi, o'z ismi bilan Bahrom Go'r atalgan kishi ham go'rga kirdi.

Bu pastkash dunyo bir ajdaho bo'lib, buning shiori ham, odati ham xalqni yutishdan iboratdir. Lekin odam yutishda, u o'z odati bo'yicha, bir yoki o'nni yutar, undan oshsa yuz va yo mingni yutar edi. Bu yerda esa, Bahrom fojiasi shunday ajablanarli bo'ldiki, xalqning boshiga ko'p og'ir musibat tushdi. Bahrom ulug' va martabasi baland, lashkarlari olamga sig'maydigan darajadagi odam bo'lishiga qaramay, unga bir dam ham omonlik bermay, yer degan ajdahoyi damon uni o'z domiga tortib, yutdi-yubordi. Bu voqeani birov bilmadi ham, dunyoda uning asorati ham, nomi nishoni ham qolmadi.

Alloh-Alloh, dunyo degan narsa bir ajdaho ekan! Ajdaho emas, bir balo ekan! Lekin birov ajdahodan azob va o'lim ko'rgan bo'lsa, ba'zilar undan ganj-xazina ham topganlar. Dunyoda esa oqibat, vayronalikdan o'zga narsa yo'q, hech kim undan tirik qutulgan emas. U jonini olib qo'ya qolmaydi, tanani yutgan bilan to'ya qolmaydi. U jisming xokini tuproqqa qoradi, yana uning gardlarini ko'kka sovuradi. U gardning ta'siri katta: kishi ajzosiga (a'zolariga) zarari undan ham ortiqcharoqdir. Uning zarariga bir onda yo'liqasan-u, ammo yillar bo'yi undan qutulolmaysan. Birovlar buning zararidan o'zini chetga tortish uchun fano (yo'g'lik) tariyqini tutadilar. Axir, qochgani bilan Afridun ham bir kun yengilgan-ku! Qochganlar ham bu Faridun kabi zabun bo'lgan-ku.

Ey Navoiy, vujud-mavjud degan so'zlarni unut, o'zingni ham unut-da, fano yo'lini tut. Sen agar yo'qlik sari yursang, yo'q narsalarga yetish mashaqqatini tortmaysan. Bu dunyoning alamini tortmay desang, o'zingni yo'qqa chiqar. Seni yo'q deb bilgach, yana nima qilar edi?

XXXVI

Bu qarama-qarshi dunyoning egriligi taronasini tuzmoq va g'arib sevishganlarga undan saqlanish pardasini ko'rguzmoq va falak zulmidan bexabarlarga ta'na toshi otib mag'rurlarining e'tiborini nasihat tanbehi bilan uyg'otmoq

Ey ko'ngil, sen jahon ishiga qarab ish tutma, chunki undan hech bir kishi hali vafo topgan emas. Bu jahon bir katta kesakdir, uning aksariyat qismi suvga yashiringandir. Poydevorsiz tuproqning ishi mushkil, suv ostidagi kesakning esa qanday asosi bo'lishi mumkin. Bu holga oqil kishi e'tibor qilgan bo'lsa, kesakning suvda bir-ikki daqiqa o'tib-o'tmas ezilib ketishini biladi. Bunday kesak muqim emas va hech bir kimsa unday joyda istiqomat qilmagan. U suv tubiga g'arq bo'lishi bilan oq eriy boshlaydi. Sen fano dashtiga sayr qilishga tayyorlan, unga o'tlanishga safar anjomlarini taxt et! Agar kimki o'sha safardan naf' topsa, uning kemachisi Nuh bo'lishi ham ajab emas. Kimda-kim Nuh bilan sayr etishga muyassar bo'lsa, to'fon ko'kkacha mavj ursa ham hech g'am-qayg'u ko'rmaydi. Shundan ogoh bo'lginki, bunday kemaga o'z nayranglari bilan Iblis ham yo'l topolmaydi. Agar bunday yo'l senga yor bo'lsa.

Buni aytish oson emas, o'yla va keyinchalik pushaymon yema! Yuqorida suv ostidagi cho'kayotgan kesak nima bo'lishini aytdik. Charx ham bebaho va vafosizdir. Agar uni suvdagi kesak bilan solishtirsak, uni daryo yuzidagi ko'pik deb hisoblasa bo'ladi. Agar ko'piklarni gumbaz deb anglasak, ularda oqillar istiqomat qilmaydilar. Bir nafas bilan yiqiladigan imoratda turmoqlikdan ne foyda? Bir zumda barbod bo'ladigan uyni el axir qanday qilib istasin. Osmon beustun va egilgandir. Goh gilam uning eng baland qavati ustida bo'lsa, goh eng baland qavati gilam ustidadir. Qanday qilib biror kimsa bunday uyda tinch yashay oladi. Zangori samo turish ko'rinishida keladi, undagi sayyora yulduzlar esa yanada o'zgacha. Unda harakatdagi sayyoralargina emas, balki harakatsiz yulduzlar ham o'zgarib turadilar. Ularning har biri qorong'u tunda ko'rinib o'yinchoq yasaydilar, o'zlarini odamlar ko'ziga xira qilib ko'rsatadilar. Falak esa bu o'yinchoqlarni o'ynatadi.

U tundagi sochi mushku anbar, oqbadan, go'zal mahvashing ham o'yinchog'dir. U yuz ming o'yin qilib olam ahlini beqaror qiladi, falakning eng tepa joyida jilvalanib hammani rom etadi. Samo bolishi atrofida jo qilib, hech kimga tinchlik bermay, o'ziga zebu oro berib hukm suradi. Uning fe'li buzilganda charxda to's-to'polon, zulm hukm suradi. U taxtni yerga ag'darmoq uchun balandlikka ko'taradi, avval taxt sohiblarini tuzoqqa ilintirib, so'ngra tuproqqa uloqtirib xor qiladi. Boshi ko'kka yetganni ham shunday ag'darib tashlaydiki, buning haddu qiyosi yo'qdir. U inson uchun falakda taxt o'rnatdi. Unda na Kayumars, na Hushang, na Tahmuras va na Jamshid qoldi, barchalari bu dahrdan ma'yus bo'lib ketdilar. Zahhok, Afridunlarni ham falak taxtdan ag'darib tashladi, Ajdarni yenguvchi Gushtosp ham, davlatmandlikda tengi yo'q Gurshosp ham, Kayqubod bilan Kaykovus ham, Kayxusravu Tahamtanu Tus ham, Doro bilan Bahmanu temir tanali Isfandiyor ham, jahonga oroyish bergan Iskandar bilan Dorobu Ashk bin Dorolar ham ketdilar. Adolatparvar Somdek gul qani yoxud zulmkor Yazdijird taxti ularning yetti iqlim mulkdor va yetti samo suyanchig'i Bahrom shohining charxdagi taxti qani? U qurdirgan yetti gumbaz osmonga o'xshaydi. Ularning har birida bittadan go'zal bor edi. Ularda go'zallar bir kundan orom olardilar. Go'zallarning dilga orom beruvchisi Dilorom edi. Bahrom uning bilan ko'p ayshu ishrat ayladi. Uning har qancha tilak-istaklari bo'lsa falak bajardi. So'ngra bir damda uni ham nobud etib, dahr uning ishlaridan ham norozi bo'lib, undan asar ham qoldirmadi. O'sha onda aql ojiz bo'lib shunday dedi: shohlarkim jahon panoh edilar, ularning hammasiga ham falakning nozli tannozi tufayli shu taqdir oshno bo'ldi. Hech bir kimsa uning tuzog'idan qochib qutulolmadi. Sen bilan men ham, kim biz axir! O'lib bu dahr qo'ldan qutulamiz. Barchaning yo'qluqqa safar qilishi tabiiydir. Kimda-kim bu safardan burunroq xabar topsa, u yo'l anjomlarini shoshilinch tayyorlamog'i darkor. O'zni bu olamdan qutulgan sanab, safarga o'tlanadi, murod sari yo'llanadi. Yor shabadasidan xursand bo'lib, dahr tashvishlaridan ozod bo'ladi. Fanolik va'dasi bajarilishi bilan u rixlat diyoriga qo'zg'aladi. Vafot etgandan so'ng esa, hir daqiqa ham to'xtab turishni istamaydi.

Ey Navoiy, safarga tayyor bo'l, toki sening safar yuking yengil bo'lsin! O'zligingdan boshqa yuking yo'q, o'sha og'ir yukdan o'zingni xalos qil! Sen shuni bilishing kerakki, yukdan ayrilish yor yo'lidagi eng avvalgi qadamdir. Sen ul yukdan voz kechganliging uchun ham qadaming ranj chekmasdan manzilga yetting. Kimdir buning sharhini shunday dediki, bu vatan ichra safar qilmoq bilan barobardir.

XXXVII

Nozimning (shoirning) bu qimmatbaho javohirlari va yulduz kabi porloq marvaridlari nazm ipiga terilgan, kon qazuvchilarning mashaqqatidek mashaqqatdan farog'at topgani va osoyishta uyqusiga ko'zini yumgani va shu payt shoh Bahrom surati tushda ko'rinib, uning tarixi nazmga solingani uchun minnatdorchilik izhor etgani

Aslloha shukrlar bo'lsinki, iqbol yulduzi yana baxtimni porloq qilib, saodat tolei yor bo'lib, qalamim dur nisor ayladi. Buni faqat ummon durlari deb tushunmang, balki bu turli-tuman javohirlar konidir. Tekis qirliklarda bu javohir yulduzlaridan xuddi osmon bo'yi uyum-uyum cho'qqilar hosil bo'lgan. Lekin mening o'zimga qolsa, bu javohirlarni, garchi sof gavhar bo'lganda ham — do'lchalik; undagi la'l-yoqutlarni esa lola bargichalik hisoblamayman.

Qalamim har yon chaqqon xirom etib, tez yurishdan charchadi. Agar dasht kezuvchi chopar yanglig' bo'lsa, ter bilan gard yuzini qora aylaydi. Ayniqsa, jang maydonida tez yugurgan choparning bunday da'vosi rostdir. Qalamim tez yo'l bosib dasht paykari — yuzidan o'tdi, dasht yuzining havodori — ko'rish haqi (asar) bu yuzni g'ubordan tozalay oladi. Men uchun ham qalamimning saodatli qadami qutlug' keldi, zero, bundog' keng dashtni tez fursatda kezib chiqdim. Xasta ko'nglimni zavqnok etdim, yuzimni tiriklik changidan pok etdim.

Qilingan ish baxshoyish topdi. "Necha kunda bu ishni osoyish etding?" — deb so'rarsiz. Ta'bimning farzandi horigan bo'lsa ham, ul tez chopar birla bormish edi.

Nihoyat, yoza-yoza, zehnim charchagach, uxlab dam olish uchun hujraga kirdim. Hujrada takka to'shalgan narsa eski bo'ya bo'lib, yostiq uning chekkasidagi tosh edi. Oromgohim bo'lmish shu to'shama ustiga yotib uxlash uchun boshimni toshga qo'ydim. Hali ko'zimga uyqu kelmay, ko'nglimdagi fikr-xayol hali tarqalmay turib, uyqu bilan uyg'oqlik orasida, g'avg'o-to'polon orasida, nazarimda boshlariga taxtiravonni ko'targan baland katta bir to'da paydo bo'ldi. Bu taxt sakkiz qirrali bo'lib, uning o'rtasida kimdir yotar edi. Uning boshida saltanat toji bo'lgani holda, yuzidan adolat nuri porlar edi. Yana u osmon singari taxtning sakkiz poyasi bor edi. Poyalarning ustida sakkizta burji bo'lib, ularning har biri qimmatbaho durlarning qutisi edi. Qutilarning har birida sakkizta sof gavhar-u, burjlarda sakkiz porloq yulduz bor edi. Poyalarning har biriga bir quyosh o'rnatilgan bo'lib, bu quyosh nurlari burjlarni yoritib turar edi. Shu dabdabali taxt

qarshimga kelganda, men na uygʻoq va na uyquda edim. Bu qanday manzara ekan, hayronman! Bu tushimmikin? Shu payt u tarafdan birov kelib:

“Ey, sehrlovchi nutq egasi! Bir on oʻrningdan turib, bu tarafga qadam qoʻygil, shoh sen bilan bir nafas suhbatlashish orzusidadir!” — dedi. Shu orada yana bir qiz ham marhamat aylab, mening huzurimga keldi va u shirinsuxan shoʻx bunday dedi:

“Senga sakkizta bonu-xonim salom aytdi, ularning yettitasi komron-saodatmand shohning mahramlaridan boʻlib, qolgan bittasi esa u kishining mahbubasi, munisi va hamdamidir”. Avvalgi xabar keltirguvchiga oʻxshab, bu ham soʻzini tugatarkan, men ularga qarab:

“Ey shirin-fasoxatli til bilan soʻzlovchi kishilar, ikkalangizning soʻzingizdan ham Iso Masih nutqining hayotbaxsh hidi kelib turibdi. Menga avval bu shohning otini ayting, undan soʻng, sakkizta parining sifatini bayon qiling. Bilgach, u tarafga qadam qoʻyayin, ular bilan nima haqda gapirishim kerakligini ham bilayin”, dedim. Shunda ular:

“U kishi baland maqom xusrav-shoh boʻlib, yetti iqlim podshosi Bahromdirlar. Yetti gulandom esa, u kishining haram xonimlaridan boʻlib, barchasi dilbar va diloromdirlar», dedilar. Bu soʻzlarni eshitgach, shodmon boʻlib, oʻrnimdan tura solib u tomonga joʻnadim. Borishim bilanoq, shoh qarshisida yer oʻpdim. Shoh meni oʻz huzuriga chorladi. Soʻzini jon-dil bilan qabul qilgan holda, huzuriga bordim va yuzimni taxtining poyasiga surtdim. Shoh esa oʻrnidan turib, birdan meni oʻz ogʻushiga tortdi va qayta-qayta bagʻriga bosib, quchoqladi. Shoh bilan quchishayotganimizda, u goʻzallar ham oʻrinlaridan turib, birin-sirin qoʻl uchlarini berib, hayo va ibo bilan koʻrishgach, koʻzlarini yerga tikib turdilar. Shoh qoʻlimdan tutgan holda joyiga oʻtirdi. U meningdek bir zarrani quyosh darajasida qadrladi. Men bir necha marta: “Bu yer mening joyim emas, pastroqqa tushay!” — deb iltimos qilsam ham, shoh meni oʻz yonidan qoʻymadi. Pastga oʻtishning iloji boʻlmagach, ming xijolat bilan uning yonida oʻtirdim. Quyosh oldida zarra qanchalik zaif boʻlgani kabi, mening ham jismim xuddi simobdek titrab turar edi. Tobu toqatim oʻzimga kelib, es-hushimni yigʻib olgunimcha, dono shoh oʻzini ogʻirlikka solib, xomush boʻlib oʻtirdi. Nihoyat, oʻzimni bosib olganimni bilgach, shohona soʻz boshladi:

“Ey, bilim mulkini egallagan, qalam nayzasi bilan olamni olgan zot! Ey, nazm tili bilan jahonga sado solib, bu tigʻ bilan butun dunyoni egallagan zot! Nazm kishvarlarini zabt etgan sensan, nazm sohibqironi — sensan! Sening nazmingni jonbaxsh deb taʼriflash — hayot suvini sof va top-toza deb maqtagandek boʻladi. Sen bizning tariximizni bayon qilish bilan birga, butun xalqqa ahvolimizni ayon aylading. Sen buni shunchalik goʻzal taʼrifladingki, uni tavsif etishga til ojizlik qiladi. Qalamingda moʻjiza boʻlmasa ham sehr bor. Oʻzgalar ham qalamni ishga solib, bu dostonni yozganlar, sahifalarni naqshinkor qilib bezaganlar. Lekin ular oʻzlariga nimani maʼqul koʻrsalar, tasvirlaganlar. Ular eshitgan gaplarini tahqiq va tadqiq etmay, surishtirmay nazmga solganlar. Oʻsha qalam egalari tahrir qilib — yozayotgan paytlarida,

bu afsonalar juda ko'p tag'yir topib – o'zgarib ketgan. Ular qay biri rost, qay biri yolg'onligini aniqlamay, nomalarni manzuma qilaverganlar.

Ammo sen-chi, sa'y-harakat qilib, qissaning har harfini o'z ma'nosida sharhlading. Qo'lingdan kelgancha rostini rostga, yolg'onni yolg'onga chiqazib, har bir voqeani diqqat va e'tibor bilan tasvirlading. Shuni ham aytish kerakki, ular bu haqda yozarkan, varaqlarni to'ldirish uchun harakat qildilar. Qissalarga ko'proq o'rin berishni o'ylamadilar, bu bobda sa'y-g'ayrat ko'rsatmadilar. Avvalgisi nazmga nimalarni kiritgan bo'lsa, keyingilari ham shularni takrorladi. Mana shu sababdan, ko'pgina ajib voqealar el ko'zidan yashirinib, chetda qolib ketdi. Sen esa bu ishning payiga tushgach, eski kitob-daftarlarni ko'p varaqlab, bir qancha narsalarni bekami ko'st topishga, ularni kiritib, bu dostonni yanada to'latishga muvaffaq bo'lding. Yana buning ustiga, ularning forsi qalamlari forsi nayidan bo'lib, undan chiqqan savti-sado ham forsi lafzida edi. Binobarin, ularni forsichani bilgan kishilargina o'qib, ko'p turkiy xalqlar undan bebahra qolgan edilar. Sen o'z nazmingni turkiy tilda yozding, forsi tilida yozishdan or qilding. Hozirgi zamon sultonlarining ko'pchiligi xamsaxon bo'lib, undagi dostonlarni mutolaa qilib turadilar. Dunyodagi shohlar ichida kim turk bo'lsa, u yerning xalqi ham turkiy tilda gaplashadilar. Sen shu holatni hisobga olganing tufayli, turk ulusini ham g'oyatda xursand va rozi qilding.

Mening bu dunyodan vidolashganimga ikki ming yil bo'ldi. Shunga qaramay, mening haqimda dostonlar yozib, el orasiga ko'p ma'lumotlar tarqatding. Nomim va ovozim o'chib ketgan edi, uni qaytadan tiklading. Agar bu ishlar mening tirik chog'imda bo'lsa edi, bu xizmatlaring uchun senga ganj-xazinalar baxshish etgan bo'lardim. Men butun jahonni qo'l ostimga olgan paytimda, ganj-xazinalarni yer tagiga ko'mib qo'ygan emasman. Qo'limga nimaiki tushgan bo'lsa, shohu gadoga berganman, el-yurt manfaatiga sarflab, dunyodan ketganman. Faridundek ganj to'plasam, Qorundek naqdinalarni yerga ko'msam, shu choqda rohatlanib, ularning qayerdaligidan seni xabardor qilgan bo'lar edim. Shohlar o'z davrlarida qanchadan-qancha ranj-alam chekib, xazina to'plab, uni yer tagiga ko'mar ekanlar.

Odam bolasi g'ayb ishini – ertaga hayotda nima bo'lajagini bilmaydi. Binobarin, xazinani yerga ko'mish men uchun aybdek ko'rinar edi. Garchi sendan ko'p xijolatga qolib, quruq tashakkur aytishga uyalayotgan bo'lsam ham, ko'nglimda tashvish bo'lishiga qaramay, ikki jihatdan g'oyat xursandman: uning biri, xalqning aytishicha, sen dunyoga qiziqmas emishsan; dunyo ishidan noxursand bo'lib, undan qisilar ekansan, xususan, amaldorlik ishi seni qiynar emish. Amaldorlikka ishqibozliging yo'q, mol-dunyoga ham xirsing yo'q emish. Hatto, dunyo moliga nafrat nazari bilan qarar emishsan. Binobarin, nimaiki senga yoqmas ekan, uni senga berish ham yaxshi emas. Yana bir gapim shuki, falakning aylanishi vujudimni bir hovuch tuproqqa aylantirgan bo'lib, bu ham yetmagandek, adolatsiz, tentak dunyoni ham barbod etib yelga sovurdi. Bu olamda osori nishonim qolmadi, yo'g'u borim hammasi barbod bo'ldi. Lekin shohda shohlik nishonasi bo'lishi, uning kafti esa ehson bilan dur sochishi kerak.

Endi, hozirgi olamda mol-dunyoga ham hirsing yo'q jahon ahlini sarafroz qilib, ularga sharaf bilan xizmat qilayotgan odam Shohi G'oziydir. Sulton Husayn falak singari baland martabali shoh bo'lib, u jahonda benazir — tengi yo'q odamdir. Uning fikri quyosh kabi porloq bo'lib, quyosh uning oldida bir zarradan ham kamdir. Uning qadri oldida ko'k gumbazi, osmon charxi oldida Suho yulduzi qanday e'tiborsiz bo'lsa, shunday haqir va qadrsizdir. Qancha tavsif va ta'rif qilgan birlan uning fazilatini tugatib bo'lmaydi. Bundan ortiq gapiradigan bo'lsam, afsona cho'zilib ketadi. Sen hozir shu Sulton Husaynning mulozimisan, uning har qanday xizmatiga joning bilan tayyorsan. Agarchi u shoh jahonga hukmdordir, barcha ishda unga haq yovardir. Dunyoda shunday shohlar bo'lganki, ular butun dunyoning hukmroni edilar. Xoh Jamshidu Faridun, xoh Iskandaru Xorun bo'lsin, o'sha shahanshohlarning hammasining ham ulug'lik fazilati bunda (Sulton Husaynda) bordir, u shubhasiz, baxt-saodat egasidir. Uning yuqoridagi shahanshohlarning hammasiga o'xshash, xususan, menga munosib jihatlari ko'proqdir. U, jumladan, shijoat egasi bo'lib, har bir shoh uchun bu ulug' fazilatdir. Shohlikda bu xislat menga g'oyatda qo'l keldi-yu, ammo hayot hodisalari mening qo'limni pastlatib yubordi.

Masalan, Chin xoqoni mening diyoringa bosib kelganda, uning qarshisida saf tuzib, jang qilmoqchi bo'ldim. Shunda mening qo'shindagi sipohlarim bevafoqlik qilib, hammasi mendan yuz o'girib ajrab ketishdi. Men shu payt kutilmagan ahvoldan mutahayyir bo'lib, zarurat yuzasidan orqaga chekindim. Lashkarim ham, elu yurtim ham, hatto toju taxtim ham uning qo'liga o'tdi. Shunday qilib, xoqon butun jahonga shoh bo'lib, men har yer-har yerda qochib yurdim. Oqibat-natijada, baxtim hidoyat yo'liga (to'g'ri yo'lga) hoshlab, baxtim emas. Tangrim inoyat va mehribonchilik aylab, ozgina askar bilan uning ustiga yurish qilib, to'satdan bosdim. Hamda u jang tayyorligini ko'ra olguncha, tig'im bilan boshini uzib tashladim. Yana olam sarosar meniki bo'ldi, butun yer yuzi mening qo'l ostimga o'tdi. Mana shu g'alaba shijoatim samarasi edi.

Shoh G'oziy ham xuddi shunday kunga qolib, mamlakati qo'lidan chiqib ketibdi. Falakning gardishi bilan, uning baxti ham g'aflat uyqusiga berilib, taxti-saltanati dushmani qo'liga tushib qolibdi. Qo'shini ham dushman tarafga o'tib, o'zi hech kimsasiz, yolg'izlanib qolib, oz kishi bilan bir tarafga qochibdi. Keyin, to'satdan xasmi turgan joyga bosib borib, toji, taxti va mamlakatini qayta egallab, dushmanini o'ziga bo'ysundirib olibdi va uning qoni bilan o'z tig'ini bo'yab, gul rang qilib olibdi va lolagun may ichib, aysh-ishratga berilibdi. U o'z dushmaniga shunday ish ko'rsatish bilan mening o'lgan-o'chgan nomimni tirgizibdi. Lekin insof bilan aytganda, uning shijoat bilan qilgan ishi menikidan ziyodroq bo'lgan edi. Masalan, men bunday shijoatni biyobonda ko'rsatgan bo'lsam, u shahar va qo'rg'onda ko'rsatgan.

Men Havornaq nomli avsonaviy qasr ham bunyod etib, dahr bog'iga (dunyoga) bir husn bag'ishlagan edim. Uni Havornaq emas, Eram gulistoni emas, balki ravza (jannat) bo'stoni deyish mumkin

edi. Sulton Husaynga ham shunday maqsad nasib bo'lib, dunyoda go'zal bog'lar bunyod ayladi. U bog'ning tuprog'i mushk va anbari soro kabi muattar bo'lib, oti olamga "Jahon oro" deb taralgandir. U bog'ning haram va bo'stonlari jannatnikiga o'xshagan bo'lib, undagi bir gulzorning o'zi yuzta Havornaqdan zeboroqdir.

Men yana yettita qasr bino qilgan edim. Bu qasrlarning har biri o'z darvining ziynati edi. U qasrlar o'rtasida chamanzor bir bog' bo'lib, uni ko'rganda ravza bog'ining rashki kelar edi. Bu bog'ning ichida ham o'ndan ortiq qasrlar — hashamatli imoratlar qurilgan bo'lib, uning har biri xuddi jannatdagi Eram bog'i singari go'zal qilib bezatilgan edi.

Bundan boshqa, yana men ko'nglimni saltanatga bog'laganim holda, aysh-ishrat, o'yin-kulgiga berilib ketib, ganju xazina degan narsalarga ahamiyat bermaganman. Mirzo Husayn ham o'yin-kulgini xush ko'radi, uning ko'ngli ham kuy va qo'shiqdan zavqlanadi. Men agar bor xazinalarni nes-nobud qilib yuborgan bo'lsam, uning xazinasida hech narsa ham yo'qdir. Husayn Boyqaroning mana shu kabi qiziq tabiati va ajib fikr-xayoloti bor. Shu jihatlardan uni men o'zimga teng ko'raman. Hatto, u mening farzandim, deya olaman. U, jahondagi butun shohlarga ham shoh bo'lsin-u, qiyomatgacha jahonga rahbarlik qilsin.

Sen esa uning bir kamina quli va bog'ining xushtarona bulbulisan. Sen uning muddaosidagi ishlarni qilish bilan birga, kecha-kunduz duosi bilan ham mashg'ulsan. Uning umrining uzun bo'lishi, davlati ham kundan-kunga ziyodalanishi sening tilak va maqsadingdir. Garchi uning har bir ishiga Tangri yorlig'ini bilsam ham, uni farzand deb ataganim tufayli, ruhim uning ishidan hech qachon g'afatda emasdir. Unga biron mashaqqatli ish yuz bersa, men o'z ruhim bilan ko'p madad beraman. Uning murodi nima bo'lsa, seniki ham shudir. Men esa sizning murod-maqsadingiz yo'lida madadkorman.

Aqlimning hukmiga qaraganda, senga ham mening madadim tegar ekan. Alloh-Alloh, bu mening nima deganim bo'ldi! Tangri uzrimni qabul aylasin. Mening nomim xayr-saxovat bilan mashhurdir. Ammo, bundan o'n baravar saxovatkor bo'lganimda ham, baribir sening oldingda uyatliman. Endi shohingga salomimni aytish bilan birga, tubandagi payomimni ham unga yetkazgaysan:

"Bu jahon hech kimsaga vafo qilmagani kabi, uni shohlik tarki uchun suyunchi qilib berishga ham arzimaydi. Shoh agar ming yil hayot kechirganda ham, o'lganda yaxshi oti qolmasa, ahamiyati yo'qdir. Hayoting ming yilga cho'zilganda ham, o'ldingmi, o'sha onda hamma narsa yo'qqa chiqadi. Agar yaxshilik bilan oting qolsa-chi, mana shugina faxrlanishga loyiqdir. Sening umring xayr-ehson qilish bilan o'tgan bo'lsa, otingning yaxshiga chiqqani shudir. Umid qilamanki, jahonda yaxshi oting bilan ming yillab qolg'aysan!"

Shoh o'z so'zini shunday tamomlar ekan, sakkizta sarvqomat, oqbadan ham o'rinlaridan turib minnatdorchilik bildirdilar va tashakkur izhor etdilar. Ular malika haqiga ham duo qildilar. Men bu gaplarning hammasini qabul aylab, so'z aytmoqchi bo'lgan edim, og'zimdan ilgari ko'zim ochilib ketdi. Ko'zim ochilgach esa, bu gaplarning

tush ekanini fahmlab, ko'zimni yumib, yana uxlamochi edim, lekin qancha harakat qilsam-da, uni topolmadim, lekin ruhoniy fayz olishga muyassar bo'ldim.

Ey, hukmdor xisrav-shoh! Ey, falak qadar baland martaba egasi! Ey, ulug' sharaf egasi shahanshoh! Bahrom sening haqingda qanday tilakda bo'lsa, bu tilagini so'zining oxirida ham takrorladi. U nimani senga pand-nasihath qilgan bo'lsa, bunga ehtiyoj yo'q edi, dema. U qanday iroda bildirgan bo'lsa, bu iroda senda unikiga nisbatan yuz chandon ziyoda ekanligini bilaman!

To falak o'z gardishi atrofida aylanarkan, yetti sayyora ko'kda sayr etgani kabi, haq yetti ko'kni ham pasaytirib, u yetti yulduzni ham sening qo'l ostingda porlatsin! Taxtu johing falakdan yuqori-yu, falak qasri sening panohing bo'lsin!

XXXVIII

So'zning so'ngi va nazmning nihoyasi va chegarasiz xijolat izhori va benihoya jur'at yuzasidan uzr so'ramoq va bu afsona o'quvchilarga pand-nasihath qilmoq va yozuvchilar ahliga oz-moz o'gut bitib qoldirmoq va bu doston tarixining bayoni va baytlari adadining tayini

Menga rabboniy fazilatining fayzi bu ajoyib dostonni yaratishni nasib etdi. Poklik fayzining barakasi bilan bu kitobni yozib tugatdim¹.

... Bu yettita zarnigor oliy qasrdek ("Sab'ai sayyor"dek) qasr hali dunyoga kelgan emas. Men bu odob kishvarini bunyod etarkanman, yetti qasr ichiga yetti hurni ham kiritdim. Shoh Bahrom esa har kechasi bu qasrlarning birida sayr qilib, o'zini ovuntirar edi. Kechaning qorong'iligi yorug' tong bilan almashganda uning uyqusi kelar edi. Dono shohni uxlatish uchun kechasi bilan bir musofir afsona aytib chiqar edi. Bu dostonning nazmlari orasida so'z o'yinlari juda ko'p bo'lib, ularning barchasi shu yetti hikoyani tasvirlash uchun ishlatildi. Bunday hikoyalar yetti musofir og'zidan yozilgan bo'lib, ularning hammasi ham sayr-sayohatda yurgan — jahongashta odamlar edi. Shu jihatdan, bu doston yozilib bitgach, otini "Sab'ai sayyor" deb qo'ydim. Bu ajoyib manzumani boshdan-oyoq hisoblaganda besh ming bayt, ya'ni o'n ming misra ekanligi ma'lum bo'ldi.

Bu dostonni qaysi kuni boshlaganim esimda bo'lmasa ham, lekin yozish uchun to'rt oydan ortiq vaqt sarf qilganim yo'q. Agar boshqa ishlardan ozod bo'lgan holda yozganimda edi, to'rt haftada tugatishim va ancha ravon yozgan bo'lishim ham mumkin edi. Ammo buni yozayotgan paytlarimda mashg'ulotim benihoya ko'p bo'lgani ustiga, tinchim yo'q, ahvolim ham yomon edi. Butun vaqtim el-xalqning mojarosi va to'g'ri-egriligini ajratish qiyin bo'lgan janjalli masalalar bilan o'tar edi. Yeyish-ichish, uxlash nimaligini bilmay, kechalarni g'am, kunduzlarni tashvish va iztirob bilan o'tkazar edim. Elning g'alva-janjali meni hayron qilar, dilimning ozuqasi ham, jonimning quvvati ham g'am edi. Men bechora shu ahvolda hayot kechirganim

¹ XXXVIII bob qisqartib bosildi. (Muh.)

holda, yana oz fursatda bu dostonni ham yozdim. Ishonamanki, bu asarim unchalik yaxshimasdir, lekin yomon ham emas. Yaxshi odam, yomon bo'lsa ham yomon demaydi-ku.

Lekin kimki bu mavzuda qalam tebratgan bo'lsa, xatolarini Haq o'z qalami bilan tuzatsin. Ular faqat yozardilar — yozishdan bo'lak yumushlari yo'q edi. Hatto gap-so'zlari ham faqat shu haqda borar edi. Mening bu asarni yozishga sarflangan fursatimni ularning o'ndan bir vaqtining o'ndan biriga tenglashtirish mumkin emas. Agar toleim yor bo'lib, o'shalarchalik keng fursatda qalam tebratish baxtiga muyassar bo'lganimda edi, osmon tabaqalari men yozadigan nazmlarning varaqlari bo'lsa ham, u paytda yanada dilkash nazmlar yozar, ularni yana chuqur ma'nolar bilan boyitgan bo'lar edim. Men shuncha mehnat-mashaqqat ichida bo'lganim holda fursatdan foydalandim: shu fursat orasida yuqoridagi mehnatlarimni ham qildim. Binobarin, shunday sharoitda bu satrlarni yozgan ekanman, meni ma'zur tutsalar o'rinsiz bo'lmas.

Ey Navoiy, kel, afsona aytishni bas qil! O'zing ham gapni juda cho'zib yubording.

Yo Rab, shu qator-qator, uzundan-uzoq gaplarni erinmay-zerikmay yozib chiqdik. Xoh to'g'ri gapni aytgan va xoh adashgan — xato qilgan bo'lsam, sening irodang va taqdiring bilan bo'ldi. Qalam bilan qog'ozni bezash uchun menda ixtiyor bor ekanmi? Bugun nimaniki mening qalamim qog'ozga tushirgan bo'lsa, ro'zi azalda buni taqdir qalami yozmish edi. Yozganim xoh yaxshi, xoh yomon ekan, azalda shunday yozilgan bo'lgach, men nima qilayin? Sen nimani yozgan bo'lsang, men ham shuni yozdim va lekin, shubhasiz, xato ham qildim. Rostiga, lutf etib, rost deb yozib qo'y, Tangrim! Sahr-xatoyimni esa o'z qalaming bilan tuzatib: afv etgil. Aytgan so'zlarimni el-ulus uchun marg'ub — yoqimli qil; yozganlarimni esa ko'ngillarga mahjub — sevimli qil. Afsonamning so'zlarini tilga og'ir qilma, she'rlarimni jonga yoqimli ayla.

Garchi, yozilib tamomlanish tarixi sakkiz yuz sakson to'qqizinchi hijriy yili va jumodis-soniy oyining payshanba kuni (1484-yil, iyun oyi ichida) bo'lsa ham, varaq hamda satrlarini hisoblab, besh ming bayt (o'n ming misra) ekanini aniqladim.

Tangrim, xalqqa buni aziz va zebo qil; o'qiganga buni muborak qil! Bunga yetti falakni yor ayla, yetti iqlim elini xaridor va talabgor ayla!

Boqiy satrlar

Adabiy-badiiy nashr

Alisher Navoiy

SAB'AI SAYYOR

Nasriy bayoni bilan

Nashr uchun mas'ullar:

Mizrob Bo'ronov, Nazira Jo'rayeva

Mas'ul muharrir *Vahob Rahmonov*

Muharrirlar *Iltom Zoyir, Hikoyat Mahmudova*

Musavvirlar *Bahodir Jalolov, Anatoliy Bobrov*

Badiiy muharrir *Anatoliy Bobrov*

Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*

Musahhihlar *Fotima Ortiqova, Dono To'ychiyeva, Nosir Boymirzayev*

Kompyuterda matn teruvchi *Zarifa Mannopova*

Kompyuterda sahifalovchi *Galina Otaskevich*

IB № 4396

Bosishga 10.04.06-y. da ruxsat etildi. Bichimi $60 \times 100^{1/16}$. Tayms garniturası.
Ofset bosma 30,53 shartli bosma toboq 32. 5 nashr toboq'i. Jami 3000 nusxa.
96 raqamli buyurtma. 105—2005 raqamli shartnoma. Bahosi shartnoma
asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129. Toshkent. Navoiy ko'chasi, 30.
700128. Toshkent. Usmon Yusupov ko'chasi, 86.